2024-yil, dekabr 20/1-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802



10-dekabr
O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Abdulla Oripov so‘zi

Ilxom SIRADJEV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat instituti
“Ta’lim menejmenti” kafedrasi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining moliyalashtirishdagi muammolari va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqilgan. Bugungi kunda ta’lim tizimining moliyaviy holati ko‘plab muammolarni yuzaga keltiradi, jumladan, mablag‘larning yetarli bo‘lmasligi, ta’lim resurslarining taqsimlanishidagi adolatsizlik, o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimining samarasizligi kabi masalalar mavjud. Ushbu maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun samarali moliyaviy boshqaruv, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, ta’lim sohasiga investitsiyalarni oshirish kabi yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *umumiy o‘rta ta’lim, moliyalashtirish, ta’lim tizimi, moliya boshqaruvi, o‘qituvchilarni rag‘batlantirish, investitsiyalar, resurslarni taqsimlash, ta’lim sifatini oshirish.*

Annotation: this article examines the challenges and solutions in financing general secondary education institutions. The financial situation of the education system today creates numerous problems, including insufficient funding, unfair distribution of educational resources, and ineffective teacher incentive systems. The article proposes solutions to address these issues, such as efficient financial management, cooperation between the public and private sectors, and increasing investments in the education sector.

Key words: *general secondary education, financing, education system, financial management, teacher incentives, investments, resource allocation, improving education quality.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы и решения, связанные с финансированием учреждений общего среднего образования. Финансовая ситуация в системе образования сегодня вызывает множество проблем, таких как недостаточное финансирование, несправедливое распределение образовательных ресурсов, неэффективная система мотивации учителей. В статье предлагаются решения для преодоления этих проблем, такие как эффективное финансовое управление, сотрудничество между государственным и частным секторами, увеличение инвестиций в образовательную сферу.

Ключевые слова: *общее среднее образование, финансирование, система образования, финансовое управление, мотивация учителей, инвестиции, распределение ресурсов, повышение качества образования.*

Kirish. Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” poydevorlari mustahkamlanib borayotgan bir paytda ta’lim siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limni moliyalashtirish masalasi barcha davlatlarda eng dolzarb va munozarali masaladir. Shu bois, mavjud resurslardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, ijtimoiy sohalarni jumladan, xalq ta’limini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, unda ustuvorlik, shaffoflik, tenglik va hisobdorlik tamoyillariga alohida urg‘u qaratish maqsadga muvofiqdir. Odatda ta’limga sarflanadigan xarajatlar asosan davlat budjetlaridan kelib chiqqanligi uchun ta’lim moliyasi mamlakat boyligi bilan bog‘liq holda o‘lchanadi va amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlarda ta’lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari, xalq ta’limini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, budjet mablag‘larini tejash mexanizmlarini ishlab chiqish, budjetdan tashqari manbalarni topish yo‘llari borasida ilmiy ishlar olib borilgan.

Tahlil va natija.Tadqiqotchilar ta’limni moliyalashtirish va ta’lim xarajatlarini tahlil qilib, Rossiya va boshqa davlatlarning PISA va TIMSS xalqaro test natijalarini taqqoslaydi. Tadqiqotchilar ta’lim sifatini tushub ketishida ko‘pchilik rossiyaliklar ta’kidlayotganidek ta’lim xarajatlarini davlat xarajatlari ulushida va o‘qituvchilarning oylik maoshining mamlakat o‘rtacha ish haqidan pastligida emas, balki tajribali (malakali) o‘qituvchilar va ularning o‘quv yuklamalari hamda o‘quvchilarning mustaqil ishlashi va o‘quvchi oilasining xarakteristikasiga bog‘liqligini ilgari suradi. Tadqiqotchilarning argumenti AQShda ta’lim xarajatlari YaIMga nisbatan Rossiyanikiga qaraganda (4,6 %ga nisbatan 1,8%) 5 barobar ko‘p bo‘lsada, TIMSS-1999 xalqaro test natijalariga ko‘ra matematika bo‘yicha rossiyalik va amerikalik maktab o‘quvchilarining o‘rtacha ballari deyarli bir xil bo‘lgani, 2007 va 2011 test natijalarida ham matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar sezilarli darajada o‘zgarmaganini ta’kidlaydi.Buni PISAning 2003, 2006 test natijalari ham tasdiqlashini ko‘rsatib o‘tadi.

Tadqiqotchilarning olib borgan o‘rganishlarining natijasida davlat xarajatlarining koeffitsiyenti barcha regressiyalar uchun muhim bo‘lishi bilan birga, ularning qiymati 0,01 dan oshmaydi. Ya’ni, davlatning har bir maktab o‘quvchisi uchun har yili xarajatni 100 dollarga ko‘tarilishi mamlakatning xalqaro testlardagi balini atigi 0,5-1 ballga oshiradi. Davlat mablag‘lari

miqdorining o‘zi maktab ta’lim sifatiga unchalik ta’sir qilmaydi, degan farazni tasdiqlaydi.Tadqiqotchilarning isbotlashicha, o‘quvchilar sonining o‘qituvchilar soniga nisbati ta’lim sifatiga sezilarli ta’sir qiladi. TIMSS-2003 va TIMSS-2007 test natijalarini tahlil qilgan holda, o‘qituvchining o‘quv yuklamasi atigi bir nafar qo‘shimcha o‘quvchiga oshishi mamlakatning ushbu xalqaro testlarda (matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha) o‘z natijasini 5-6 ball yo‘qotishiga olib keladi, bu standart og‘ishning o‘rtacha 8,26 foizini tashkil etadi.

Y.Saviskaya va D.Chertikovseva xulosasida bildirishicha ta’limni moliyalashtirishning barqaror o‘sishini ta’minlash kerak, ammo bu ta’lim sifatini oshirish uchun yetarli yemas. O‘quvchilarning xalqaro testlardagi muvaffaqiyatiga moliyaviy bo‘lmagan omillar, birinchi navbatda, mamlakatda qabul qilingan ta’lim standartlari, shuningdek, ularga mos keladigan o‘qitish usullari ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini ma’lum qiladi.

Bundan tashqari, ta’lim xarajatlarining ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi juda ko‘plab omillari mavjuddir: sifatli o‘quv materiallari va darsliklar, maktab koeffitsiyenti muhiti va sinfxonalarning zamonaviy ko‘rinishda qurilishi va jihozlanishi, zamonaviy sport zallari va kompyuter-texnologik jihozlanishi, barcha asbob-uskuna va texnika vositalarining sog‘lom ishlab turishi, ularning amortizatsiyasi, o‘quv materiallarini yangilab turish, sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish (hech bo‘lmaganda boshlang‘ich sinf uchun), o‘qituvchilarni (yangi ishga kelganlarni ham) muntazam rag‘batlantirish, qayta tayyorlash va boshqalar. Ko‘rinib turganidek, ushbu xarajatlarning barchasi ta’lim jarayoniga, o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatiga, ularning psixologiyasiga va ta’lim sifatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan omillardir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sifatini oshirishda moliyalashtirishning ahamiyatlari borasida ilmiy qarashlar ko‘p va munozaralidir.

Maqsadli moliyalashtirish tushunchasi bu – tashkilotning qat’iy belgilangan maqsadlar uchun (belgilangan xarajatlar shartlari, tasdiqlangan rejalar va smetalar bo‘yicha va boshqalar) oladigan mablag‘laridir. Zamonaviy davr taraqqiyoti sifatli ta’lim bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, rivojlanishni maqsad qilgan barcha jamiyatlar va davlatlar ta’lim siyosati va islohotlarida aynan sifatli ta’lim tizimini yaratishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Andreas Shlyayxer bilan suhbatda O‘zbekistonning mavjud iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqib ta’limning qaysi yo‘nalishiga ko‘proq mablag‘ ajratish samaraliroq bo‘lishi so‘ralganda, Shlyayxer sifatga deb ta’kidlaydi va sifat o‘qituvchilarning bilim va malakasiga bog‘liqligini va ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmasligini bildirib o‘tadi. Boshqacha aytganda, o‘qituvchi malakasi va o‘qitish sifati ta’lim sifatini oshirar ekan, o‘qituvchilarga ko‘proq investitsiya kiritish, ularni uzluksiz qayta tayyorlash, malakasini oshirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash lozim.

Barcha ta’lim sohasi olimlari mablag‘ning muhimligini faqat uni to‘g‘ri va samarali ishlatilishi kerakligini ta’kidlaydi. Biz bu oxirgi fikrga to‘liq qo‘shilgan holda, shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim xarajatlari va miqdori ta’lim sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa,ta’lim ustuvorliklaridan kelib chiqib mavjud muammolarni bartaraf etishda maqsadli moliyalashtirish katta ahamiyatga ega. Maqsadli moliyalashtirish o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratish, kam ta’minlangan oilalarning farzandlarini ta’limda orqada qolishlarini oldini olish uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratish, olis hududlardagi “qoloq” maktablarga malakali o‘qituvchilarni ishga jalb qilish, xorijiy tajribalar misolida ko‘rib chiqqanimizdek, immigrant va qochoqlarning farzandlarini ta’limga, maktabga integratsiya qilish uchun til va boshqa fanlardan qo‘shimcha darslarni joriy qilish va boshqa shu kabi muammo va kamchiliklarni oldini olishda maqsadli moliyalashtirishlarni yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini oshirishda, shubhasiz, muhim rol o‘ynaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim borasidagi barcha reja va strategiyalar, xarajatlar va moliyalashtirish mexanizmlari ta’lim sifati, samarasi va natijadorligiga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak, maktab ta’limini maqsadli moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, o‘qituvchilar oyligiga ustamalar berish, qo‘shimcha darslarni tashkil etish, o‘quv-qurollari va kitoblar sotib olish, maktab qurilishi va ta’mirini ta’minlash va boshqa joriy moliyaviy-iqtisodiy ishlarning bajarilishida muhim rol o‘ynaydi. Bu maktablarning mustaqil budjet faoliyatini ham rivojlantirishi va takomillashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreas Shlyayxer. “Ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketolmaydi”. 7 iyun 2022. https://www.gazeta.uz/uz/ 2022/06/07/schleicher.

2. Martin C., Boser U., Benner M., Baffour P. A Quality Approach to School Funding: Lessons Learned from School Finance Litigation. Center for American Progress, NOV 13, 2018.

3. Siradjev I.T. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari maktab direktorlarining moliyaviy faoliyatini takomillashtirish. P.f. bo‘yicha PhD avtoreferati. – T. A.Avloniy nomidagi XTMUIBITI, 2022. 50-b.

4.Савицкая Е., Чертыковцева Д., Финансирование и качество школьного образования: эконометрический подход. Вопросы экономики. 2013. № 4. С. 112-129.

Ozodaxon KUCHKAROVA,
Andijon davlat universiteti fakultetlararo chet tillar (ijtimoiy - gumanitar fanlar) kafedrasi v.b. dotsenti, erkin tadqiqotchi

OILADA YAXSHILIK VA YOMONLIK KONSEPTI ASOSIDA FARZANDLARNING SHAKLLANISHIDAGI MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada yaxshilik va yomonlik konsepti asosan, oilada farzandlarning shakllanishi uchun diqqat markazi xususida fikr yuritiladi. Shu jumladan, yaxshilik va yomonlik konsepti farzandlarning shakllanishidagi turli bosqichlarida turli vositalar asosida o‘z ifodasini topadi.

Kalit so‘zlar: *oila, farzandlar, yaxshilik va yomonlik, tushunchalar, bahs-munozara, tarbiya, an’ana.*

Аннотация: в данной статье понятия добра и зла рассматриваются преимущественно в фокусе внимания на формирование детей в семье. В том числе, понятие о добре и зле выражается с помощью разных средств на разных этапах формирования детей.

Ключевые слова: *семья, дети, добро и зло, понятия, дискуссия, воспитание, традиция.*

Annotation: in this article, the concepts of good and evil are considered primarily with a focus on the formation of children in the family. In particular, the concept of good and evil is expressed through different means at different stages of children’s formation.

Key words: *family, children, good and evil, concepts, discussion, education, tradition.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida konseptual maydon obrazli tarkibining xalq milliy madaniyati, dunyoqarashining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqligi mazkur millatning mentaliteti, tafakkuri, etik va estetik ongi haqida tasavvur hosil qilishi va uning qadriyatlari, urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazishi bilan millat tafakkurining ajralmas bo‘lagi sanaladi. Olamning lisoniy manzarasi va unda konseptlarning tutgan o‘rni masalalarining antroposentrik yo‘nalishda o‘rganilishi etnosning estetik ongi, tafakkuri va baholash kategoriyasining verballashuvi tamoyillari konseptologiya, pragmatika, aksiologiya, semiotika va lingvomadaniyatshunoslik sohasiga oid tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu – konsept atamasidir. Sir emas konsept atamasi insonning tafakkur xususiyatlari va uning muammolari bilan qiziquvchilarning diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Konsept tushunchasi ko‘plab atoqli tilshunos olimlar tomonidan keng tadqiq va mushohada qilinib, ularning har biri bu termin yoki tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishgan. Hozirgi kun tilshunosligidagi eng dolzarb yo‘nalishlar qatoriga biz bevosita sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, paralingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabilarni ko‘rsatishimiz mumkin. Shulardan kognitiv tilshunoslik ayni damda yurtimizda rivojlanib borayotgan tilshunoslikning o‘ziga xos bosqichlaridan biri ekanligi ahamiyatlidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizda ta’lim va tarbiya davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir paytda “...yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]. Ta’limni takomillashtirishda innovatsion g‘oyalarning ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilishi bilan birgalikda birinchi navbatda, oilada farzandlar tarbiyasi, ta’limi kesimida yaxshilik va yomonlik konseptiga izchillik bilan yondashib, muhim vazifalardan biri sifatida qaralishi alohida e’tiroflandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Binobarin, konsept tushunchasi bir vaqtning o‘zida ham qadimiy, ham navqiron termin hisoblanib, olimlar o‘zlarining mulohazalarini quyidagicha e’tirof etadi. P.M.Frumkina madaniyatning muayyan kategoriyasida o‘z aksini topgan verbal tushuncha, deya ta’riflaydi[2]. Bizningcha, V.N.Teliyaning konseptni ta’riflashdagi yondashuvi o‘ziga xos. Uning talqiniga ko‘ra, konsept inson tafakkurining mahsuli, mukammal tushuncha sifatida nafaqat til, balki umuman, inson ongiga xos bo‘lgan kategoriyadir [3]. V.A.Maslova konseptning ko‘p qirrali tushuncha ekanligini hisobga olib, uning tavsifini keltirishda bir qator o‘ziga xos, ajralmas xususiyatlarini e’tiborga olish muhimligini ta’kidlaydi. Ya’ni, konsept: 1) inson tajribasi minimal birliklarining ideal tasavvurida so‘z orqali ifodalanib, maydon tuzilmasiga ega bo‘lgan ifodasi; 2) bilimlarni qayta ishlash, saqlash va uzatishning asosiy birligi; 3) konsept o‘zining dinamik chegarasi va muayyan funksiyalariga ega; 4) konsept ijtimoiy xarakterga ham ega bo‘lib, uning assotsiativ maydoni asosida pragmatik jihatlari namoyon bo‘ladi; 5) konsept madaniyatning asosiy bo‘g‘ini [4].

Konsept atamasining bugungi kun kognitologiyasida qo‘llanilayotgan ma’nosi S.A. Askoldovning 1928-yilda nashr etgan “Konsept va so‘z” nomli maqolasiga borib taqaladi. Biroq, S.A.Askoldov ko‘targan

mazkur masala o‘tgan asrning o‘rtalariga qadar jiddiy yondashuvlar asosida o‘rganilmadi [5]. 1956-yilning 11-sentyabrida Massachusets texnologiya institutida o‘tkazilayotgan simpoziumda Jorj Miller (“7+2 sehrli soni”) tilshunos Noam Xomskiy (“Tilning uch modeli”) Alen Nyuell (“Logik nazariyotchi”) tomonidan taqdim etilgan ma’ruzalarda kognitiv tadqiqotlarni yagona bir fan doirasida, yagona bir “soyabon” ostida biriktirish fikri olg‘a surildi [6].

Ingliz milliy madaniyatida ham aforizmlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki aforizmlar shu xalq vakillariga tegishli bo‘lib, har bir aforizm o‘zida xalqning hayotini aks ettiradi. Quyida ingliz lisoniy tasvirida “yaxshilik” va “yomonlik” ni ifoda etuvchi bir qancha aforizmlarga to‘xtalib o‘tamiz. *It is not from reason that justice srings, but goodness is born of wisdom* Adolat paydo bo‘lishi aqldan emas, biroq ezgulik donolikdan tug‘iladi. Muallif bu hikmatli so‘zlari bilan yaxshilikning kelib chiqish sababi donolik va aql-zakovat ekanligiga ishora qilmoqda.

Goodness is love in action, love with its hand to the plow, love with the burden on its back, love following his footsteps who went about continually doing good.

Yaxshilik bu amaldagi sevgi, o‘z qo‘li bilan yerga bo‘lgan muhabbat, yelkasidagi og‘ir yukni sevish, doimo yaxshilik qilib yurgan inson izidan borishdir. Yaxshilik qilish bu qilayotgan amallarini sevishi, mehnat qilishdan qochmaslik, yelkasida turgan vazifalardan tonmaslik va uni sidqidildan bajarish hamda yaxshilik qilishni o‘ziga odat qilgan insonlar yo‘lidan ketish kabi xislatlarni o‘z ichiga oladi. Nothing can be compared to a faithful friend, and no weight of gold and silver is able to countervail the goodness of his fidelity – Hech narsani sodiq do‘st bilan taqqoslash mumkin emas va hech qanday oltin va kumush uning sadoqati hamda yaxshiliklariga teng kelolmaydi. Ushbu aforizm ingliz tilidagi *A friend in need is a friend indeed* maqoliga mos keladi ya’ni haqiqiy do‘st kulfatda bilinadi.

Asosiy materialning qisqacha mazmuni. Oila muhitida farzandlarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga, turmush chorrahalarida qoqilmay har jihatdan, ham ruhan, ham jismonan, ham ma’nan salomatligini saqlagan holda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun yaxshilik va yomonlik konsept urug‘larining chuqurroq ildiz otishi zarur. Xalqimiz bejiz aytmagan, yaxshi otga bir qamchi – yomon otga ming qamchi, yaxshi bilan yurgan yetar murodga – yomon bilan yurgan qolur uyatga, yaxshidan bog‘ qolar – yomondan dog‘. Oila muqaddas dargoh, uning davomchisi bo‘lmish farzandlardir, uni ko‘z qorachig‘iday asramoqlik har bir fuqaroning zimmasidagi vazifasidir. Yangi O‘zbekiston farzandlari oilada shakllanar ekan, yaxshilik konseptini ona homilasidan boshlamoq joizdir. Xalqimiz bejiz aytmagan: Qush inida ko‘rganini qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda kuzatish so‘rovnoma o‘tkazish va statistik metodlardan foydalanilgan. Yaxshilik – eng muhim fazilat bo‘lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag‘ishlashi barobarida, uni shaxsga aylantiradigan haqiqiy baxtga olib boradi. Yaxshilik insonning axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda kamtarlik, ochiqko‘ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolat, rostgo‘ylik kabi fazilatlar mujassam bo‘ladi. Yomonlik yaxshilikning ziddi, shaxs va jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi illat. Yolg‘onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda namoyon bo‘ladi. Diniy nuqtai nazardan yaxshilik ilohiy inoyat, yomonlik esa insondagi shaytoniy va hayvoniy xislatlarning ifodasi tarzida talqin qilinadi; yaxshilik ham, yomonlik ham insonning ixtiyor erkinligidan qay darajada foydalanishining oqibati sanaladi. Aforizmlarning maqollardan farqi shundaki, u aynan bir shaxsga tegishli bo‘lib, uning hayot yoki ma’lum bir doiraga xos qarashlarini ifodalaydi. Maqollar esa umumiy bo‘lib, ular aynan bir insonga tegishli bo‘lmaydi va butun bir xalqning hayotiy va falsafiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Yaxshilik va yomonlikni bilmaslik inson hayotining eng bezovta qiluvchi faktidir. Yomonlik manbai behudalik, yaxshilik manbai esa rahmdillikdir. Biz odamlarni o‘zimizga qilgan yaxshiliklari uchun sevamiz va ularga qilgan yomonliklarimizni sevmaymiz. Yomonlik yaxshilikdan tug‘ilmaydi va, aksincha.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Farzand rivojlanishining barcha bosqichlarida uning o‘ziga ham, ota-onasiga ham ijtimoiy muhitning turli xil omillari doimo ta’sir o‘tkazib turadi. Ulardan ba’zilari oilaning tarbiyaviy funksiyalarini yaxshilasa, boshqa birlari esa oila, uning a’zolari va atrof-muhit uchun turli muammolar yaratgan holda salbiy, yomon ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni bilish bolalarning oiladagi muloqotida noqulayliklarni to‘la yoki qisman tuzatish, ularning mikromuhitini yaxshilash imkonini beradi. V.S.Toroxtiy umumiy omillar orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Oiladagi “fikrlash tarzi”. Ya’ni farzandlarimizni oila bag‘rida yaxshilik va yomonlik konseptini mulohazalatib, hayot tarzining ijtimoiy- psixologik jihatlarini aks ettiradi va o‘ziga xosliklariga ega bo‘ladi. Birinchidan, oiladagi barcha qadriyatlar, ustanovkalar, motivlar va ehtiyojlar tizimi uning hayotini yaxshilik va yomonlik konseptlarini ta’minlashning real imkoniyatlariga mo‘ljal olishi. Oiladagi fikrlash tarzi ko‘p jihatdan hayot sharoitlari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, vaqt o‘tishi bilan oilada maqsadlarni, ustanovkalarni, qadriyatli oriyentatsiyalarni uning har bir a’zosi psixikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi hayot realliklariga moslashtirish qobiliyati shakllanganligi. Uchinchidan, har ikkala turmush o‘rtoq kasbiy faoliyatdagi, hayotdagi o‘zgarishlarga tayyorligining barchasi yaxshilik va yomonlik konseptini qay darajada

tushunganiga bog‘liq.

2. Oiladagi “muloqot tarzi”. Yaxshilik va yomonlik konseptini o‘zlashtirgan holda oiladagi muloqot tarzi, oila hayot tarzining ijtimoiy - psixologik jihatlarini aks ettiradi. Unda ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud: Birinchidan, muloqotning muhim shaxsiy tabiati sababli alohida ahamiyat kasb etuvchi shaxslararo kommunikatsiya. Ikkinchidan, oilaviy muloqotning turmushning ijtimoiy muhitga ochiqligi, oilaning o‘z manfaatlari ifodalanganligi. Uchinchidan, oila a’zolari orasidagi munosabatlarning norasmiyligi. To‘rtinchidan, empatiya, identifikatsiya, pedagogik refleksiya kabi mexanizmlarning rivojlanganligi. Beshinchidan, ota -onalar bilan munosabatlarning alohida ahamiyati.

3. Ijtimoiy muhitning oila bilan munosabatlari. Bu munosabatlar bir ma’noli emas va ko‘p hollarda talab va kutishlarning qarama- arshiligi, ba’zida noadekvatligi bilan ajralib turib, yaxshilik va yomonlik konseptining ustuvorligi e’tirofga loyiq.

4.Millat, oila yashaydigan hudud (joy) an’analari. O‘zbekiston kabi ko‘p millat vakillari istiqomat qiluvchi mamlakatda oila a’zolari turli xil millat va elatlar madaniyati, axloqi, odatlari, tili, lahjasi o‘ziga xosliklari bilan muomalada bo‘lishlariga to‘g‘ri keladi. Oila, oila yashaydigan hudud (joy) an’analari umuminsoniy qadriyatlar, qoidalar va xulq-atvor normalari haqida tasavvurlar ko‘rinishida o‘zlashtiriladi.

Ota – ona va bolalar o‘z millati, xalqi madaniyatining umumiy sifatlarini saqlagan holda, qisman milliy ijtimoiy muhit qadriyatlarini ham o‘zlashtiradilar.

5. Oila an’analari. Normalar va xulq-atvor qoidalari madaniy merosni ifodalagan holda bolalarning yuksak axloqiy sifatlari shakllanishining vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

6. Bola ta’lim olayotgan maktab o‘quvchilari, guruh, sinf intellektual darajasi yaxshilik va yomonlik konsepti kesimida aks etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Yuqorida qayd etib o‘tilgan umumiy omillarni bilish oilada bola tarbiyasining pedagogik muhitini tiklash imkonini beradi hamda yaxshilik va yomonlik konseptiga alohida diqqat markazini qaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, oilada yaxshilik va yomonlik konsepti bo‘yicha yangi O‘zbekiston farzandlarini shakllantirishdagi tarbiya – yaxshi niyatli maqsad sari amalga oshiriladigan munosabatlar majmuidir. Bu munosabatlarni amalga oshirishda ota-onadan sabr-toqat, matonat, hamma narsaga xolisona qarash talab etiladi. Muammolarning yana bir asosi shundaki, ota-ona va farzandlar har xil zamonning vakilidir. Shu ma’noda ota-ona va farzandlar munosabatidagi qiyinchiliklarni ikki zamon vakillari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar deb ham atash mumkin. Biz kattalar ko‘pincha farzandlarimizni o‘z zamonamiz ruhida shakllangan qarashlarimiz bilan baholaymiz. Ko‘pincha insonning hayotga munosabati va dunyoqarashi ham tarbiya jarayonida o‘ziga xos muammolarni vujudga keltiradi. Hayotga munosabatimizni o‘zgartirish – tarbiyadagi uslublarimizni qayta qurish demakdir, lekin yaxshilik va yomonlik konsepti asrlardan asrlarga, davrlardan davrlarga o‘z ilmiy kuchini saqlab boraveradi. Tarbiya ota-onalardan ma’lum bilim, hayotiy tajriba, malaka, samimiylikni talab etadi hamda farzandlar o‘zining kelajagi ekanligini yoddan chiqarmagan holda yaxshilik va yomonlik konseptiga jalb etib, “Yaxshilik va yomonlik konsepti, suvda cho‘kmas va o‘tda yonmas” – degan g‘oyani mahkam tutish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 14-bet.

2. Maslova V. A. Vvedeniye v kognitivnuyu lingvistiku. – M.: Flinta: Nauka, 2006. – S.31

3. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspektы. –M., 1996. S.94-97.

4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik //Jizzax: Sangzor, 2006. 20-bet.

5. Kuznesova 1982 Kuznesova E.V. Leksikologiya russkogo yazыka. – M. Vыsshaya shkola, 1982.

6. Kirillina N.V. Oksyumoronnыye obrazovaniya kak sposob reprezentasii oppozisii dobro - zlo v poeticheskom yazыke A.A. Axmatovoy // Sbornik trudov konferensii po sosialno-ekonomicheskim i pravovыm problemam. Vыp. 5. – Podolsk: PI MGOU (otkrытыy), 2010. - S. 161-168

7. Kirillina N.V. Badiiy matndagi sinonimik munosabatlar // Til va nutqda ratsional va emotsionallik: subyektivlik, ekspressivlik, emotsionallik: Universitetlararo ilmiy maqolalar to‘plami. – M.: MGOU, 2009. S. 128-132.

8 . https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaxshilik_va_yomonlik

9. https://web.telegram.org/156e7ea2-050b-48e8-a04b-94af61e09e90

Shoxsanam DAVRONOVA,
BuxDU, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.
Zilola AMONOVA,
BuxDU, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.

SAYYOR SYUJETLI DOSTONLAR TADQIQI

Annotatsiya: o‘zbek yozma adabiyotidagi “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” kabi sayyor syujetli dostonlar islomiy-ilohiy manbalar hamda xalq og‘zaki badiiy ijodi janrlaridan keng va ijodiy foydalangan holda yaratilgan asarlardir. Murakkab va qorishiq ijodiy uslubda yaratilgan bunday yo‘nalishdagi badiiyat durdonalari folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirning nodir namunalari hisoblanadi. Maqolada adabiyotshunos olim Shavkat Hayitovning “Sayyor syujetli dostonlar – adabiy manba” nomli 70230301 – matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi uchun “Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma tavsifi va tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: *sayyor syujet, “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho”, adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik.*

Аннотация: в узбекской письменной литературе широко и творчески используют исламско-богословские источники и жанры народного творчества эпосы с путевыми сюжетами «Чор Дервеш», «Тоттинома», «Раъна ва Зебо», «Юсуф ва Зулайхо». Созданные в сложном и смешанном творческом стиле художественные шедевры этого направления являются редкими примерами связи и взаимодействия фольклора и письменной литературы.

Это эпосы с путевым сюжетом, которые изучались рядом ученых. В статье дается описание и анализ учебного пособия «Практика работы с литературными источниками», подготовленного литературоведом Шавкатом Хаитовым для магистров по направлению «Текстология и литературное источниковедение».

Ключевые слова: *подвижный сюжет, «Чор Дервиш», «Тоттинома», «Рана и Зебо», «Юсуф и Зулайхо», Практика работы с литературными источниками, Текстология и литературное источниковедение.*

Annotation: in Uzbek written literature, epics with traveling plots such as "Chor Dervesh", "Totinoma", "Ra'na va Zebo", "Yusuf va Zulayho" are widely and creatively using Islamic-theological sources and genres of folk art. are created works. Artistic masterpieces of this direction, created in a complex and mixed creative style, are rare examples of communication and interaction between folklore and written literature. The article provides a description and analysis of the study guide "Practice of Working with Literary Sources" prepared by the literary scholar Shavkat Hayitov for the second-level Masters of Textology and Literary Source Studies, "Sayyor Sujetli Dostonan - Literary Source" 70230301.

Key words: *mobile plot, "Chor Dervish", "Totinoma", "Ra'na and Zebo", "Yusuf and Zulayho", Practice of working with literary sources, Textual studies and literary source studies*

Ma’lumki, jahon ilm-fani va texnikasi taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mamlakatimizning kelajagi intellektual savodxon, yuqori bilim va tajribaga ega, tadbirkor, ma’naviyatli, madaniyatli yoshlarga ehtiyojmand. Shu boisdan ham turli mutaxassislik doirasida chuqur bilim berishga asoslangan talaba-yoshlarning iqtidorli, ma’naviy jihatdan yetuk va salohiyatli bo‘lib yetishishlari uchun xizmat qiladigan darslik va qo‘llanmalarga zarurat har qachongidan ham yuqori deyish mumkin.

Mamlakatimizda o‘qitish tizimiga katta e’tibor qaratilayotgan bir paytda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalarni takomillashtirish borasidagi amaliy vazifalarning muhim qismlaridan biri sifatida talaba va magistrantlarning bilim, ko‘nikma va salohiyatlarini o‘stirishga qaratilgan darslik va qo‘llanmalar yaratish, bu boradagi ishlarni takomillashtirish masalasini alohida ta’kidlash lozim. Bu borada Buxoro davlat universteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur oliygohda filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bilan birgalikda, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ta’lim yo‘nalishidan ham saboq beriladi.

Ta’kidlash lozimki, mustaqillikka erishilgach, jonajon yurtimizda adabiy manbalarni asl variantda o‘qish va o‘rganish, joriy yozuvimizga o‘girish, nashriy variantlarini qiyoslab, tafovutli o‘rinlarini aniqlash va asliy matn bilan solishtirish ilmiy-adabiy hayotning alohida sohasi sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, muhtaram Prezidentimizning 2017- yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar manbashunoslik va matnshunoslik sohasiga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi va uni davlat dasturi darajasiga ko‘tardi.

Shu munosabat bilan 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlariga Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi bo‘yicha magistrantlar o‘qishga qabul qilindi. Shu jumladan, Buxoro davlat universiteti, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi negizida ham Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi bo‘yicha magistratura o‘z faoliyatini boshladi. Mazkur yo‘nalish magistrantlari “Adabiy manba bilan ishlash amaliyoti” dan saboq oladi. Mazkur fanni o‘qitishda amaliy yondashuv bilan birgalikda nazariy jihatlarga ham e’tibor qaratish zarur. Magistrantlarning adabiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim qismlaridan yana biri sifatida ularni ilmiy tadqiqotlar ustida ish olib borish, badiiy va ilmiy manbalarni tahliliy o‘rganish malakalarini oshirish bilan bog‘liq jihatning ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin.

Ma’lum bir manba asosida mumtoz qo‘lyozma yoki toshbosma bilan ishlashda o‘ziga xos bo‘lgan umumiy jihatlarni o‘rganish juda muhimdir. Yana mumtoz matnlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish ham ahamiyatli jihatlardan sanaladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida sayyor syujetli asarlar ko‘plab uchraydi. Folklorda yaratilgan sayyor syujetlar yozma adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Jumladan, o‘zbek yozma adabiyotidagi “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” kabi sayyor syujetli dostonlar islomiy-ilohiy manbalar hamda xalq og‘zaki badiiy ijodi janrlaridan keng va ijodiy foydalangan holda yaratilgan asarlar sirasiga mansub sanaladi. Mazkur sayyor syujetli dostonlarni o‘rganish va ulardagi yuksak axloq bilan bog‘liq g‘oyalardan yosh avlod tarbiyasida foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aytilganlar nuqtayi nazaridan O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. Sh.A.Hayitovning “Sayyor syujetli dostonlar – adabiy manba” nomli o‘quv qo‘llanmasi adabiy manbalarni qiyosiy o‘rganish va tatbiq qilishda ahamiyatli kitoblardan bo‘lib, dolzarblik kasb etadi. Ushbu kitob 70230301 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligi ikkinchi bosqich magistrlari uchun “Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida yaratilgan bo‘lib, unda badiiy matnning mukammal va maqsadga muvofiq tahlili va ilmiy talqinini amalga oshirish bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalar ko‘zda tutilgan. O‘quv qo‘llanmada “Chor darvesh” asarining qo‘lyozma manbalari va matniy tadqiqi, “To‘tinoma”ning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, “Ra’no va Zebo” dostonida hikoyatlarning o‘rni, “Yusuf va Zulayho” Hilola Safarova talqinida kabi badiiy asarlar va ular orasidagi mushtarak xususiyatlar bir talay misollar yordamida asoslab berilgan hamda mazkur asarlar orasidagi o‘xshashliklarga e’tibor qaratilgan.

Kitobda sayyor syujetli dostonlarning adabiyotshunos olim Toji Qorayev tomonidan ilmiy talqin etilishi masalasiga ham e’tibor qaratilgan bo‘lib, olimning matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishidagi faoliyatida muhim o‘rin tutgan Mullo Qurbon Xiromiyning hayoti va adabiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotiga munosabat bildirilgan. Ayniqsa, olimning Xiromiy qalamiga mansub “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” dostonlarining qo‘lyozma manbalarini aniqlab, ilmiy tavsif qilinganligi diqqatga molik ekanligi qayd etilgan.

Qo‘llanmada “Chor darvesh” asari ilk marta Xusrav Dehlaviy tomonidan yaratilganligi ta’kidlangan bo‘lib, adabiyotshunoslikda bu masala borasida o‘z qarashlarini bayon etgan olimlardan S.Ayniy, T.Qorayev, I.Mo‘minov, O.Sharafiddinov, V.Zohidov qarashlariga ham munosabat bildiriladi.

Olimning fikriga ko‘ra jahon adabiyotda Naxshabiy, Qodiriy, Haydariy, Latifiy kabi atoqli namoyandalar “To‘tinoma” syujeti asosida yangi doston yaratganlar. Bu an’ana Mullo Qurbon Xiromiy tomonidan davom ettirilgan bo‘lib, ijodkor o‘zining mukammal, badiiy jihatdan o‘ziga xos uslubdagi asarini yaratgan.

Xiromiy dostonida mazmun va shakl mutanosibligiga chuqur e’tibor qaratilgan, ya’ni voqea-hodisalar bayoni ijodkorning uslubiy izlanishlari, badiiy-tasviriy vositalardan mohirona foydalanishi asosida shakliy-mazmuniy jihatdan boyigan. Qo‘llanmada ham asarning g‘oyaviy pishiqligi, badiiy bo‘yoqdorligi adibning doston matni ustida uzoq ishlaganligidan dalolat berishi ta’kidlanadi.

Sh.Hayitov “To‘tinoma”ning bir qancha qo‘lyozma nusxalari borligini aniqlaganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hozirgi vaqtda professor Toji Qorayevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan Buxoro qog‘oziga nastaliq xatida Xiromiyning o‘g‘li Mullo Zokir tomonidan ko‘chirilgan nusxa. Shuningdek, shahrisabzlik xiromiyxon Fayzulla Maxsun, samarqandlik xiromiyxon Abdulhamid Po‘lodiyning shaxsiy kutubxonasida ham asarning qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lganligi qayd etiladi. Kitobni yaratish jarayonida esa Sh.Hayitov asarning professor Toji Qorayev shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasidan foydalanganligini qayd etadi.

Olim tomonidan Mavlono Xiromiyning o‘z ona tilida original “To‘tinoma|” yozish maqsadini ko‘zda

tutganligini dostonning dastlabki sahifalaridanoq ilg‘ab olish mumkinligi asoslashga kirishiladi. Chindan ham asar ijodkorning ona tilida yaratilganligi uning badiiy jihatdan mukammalligiga sabab bo‘lgan, deyish mumkin.

Shuningdek, kitobda “To‘tinoma”ning qoliplovchi hikoyasi mag‘zida vafo va sadoqat g‘oyasi turishi dostonning keyingi sahifalaridan ham anglashilib turadi. Olim To‘ti tomonidan aytilgan hikoya, masal va qissalarda aks etgan masalalarning deyarli barchasida shu g‘oyanining qaysidir bir qirrasi aks etganligini qayd etadi.

Eng avvalo, kitobda To‘ti tilidan aytilgan hikoyalarning g‘oyaviy, tarbiyaviy jihatlariga diqqat qaratiladi. Shuningdek, asarning badiiy xususiyatlariga xos xarakterli jihatlar, shoirning obraz yaratish, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish mahorati bilan bog‘liq jihatlar misollar asosida dalillanadi. Jumladan, Mavlono Xiromiyning tongni obraz sifatida tasvirlagani, shaxslantirgani bilan bog‘liq qarashlar bayon etiladi. Sh.Hayitov Xiromiy asarini tahlilga tortar ekan, o‘tmishda va keyingi davrlarda ijod qilgan bir qancha shoir va adiblar ijodiga murojaat qiladi, ular asarlarini “To‘tinoma” bilan qiyoslashga, ijodkorlarning g‘oyaviy qarashlaridagi mushtaraklik o‘ziga xoslikni aniqlashga harakat qiladi. Jumladan, Kaykovus, Shayx Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabilarning asarlarida ham ahamiyatga molik qarashlari keng istifoda etiladi.

Shuningdek, “To‘tinoma” tahlilida olimning o‘z qarashlarini nodir manbalar Qur’oni Karim, hadislarda o‘z aksini topgan asoslar bilan mustahkamlab borganligi ham diqqatni tortadi.

Ta’kidlash joizki, “Ra’no va Zebo” dostoni Mullo Qurbon Xiromiy ijodining kamolot bosqichida yaratilgan. Bu dostonda sayyor syujetdan vosita sifatida foydalanish va insonparvarlik g‘oyasini yoritish o‘z takmilini topgan. “Ra’no va Zebo” Xiromiy iste’dodining nozik qirralarini namoyon etadi. Masalaga ana shu jihatdan yondashganda ushbu asarning o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi o‘rnini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Doston mundarijasidan keng o‘rin olgan qoliplovchi hikoyalarda xalqchil g‘oyalarning pishiq ishlanishi shoirning xalq hayoti, mamlakat taqdiri bilan chuqur qiziqqanini ko‘rsatadi. Dostonda ijtimoiy muammolar talabchanlik bilan ko‘tarilgan, mamlakat obodligida shohning o‘rni va shaxsi masalasi har tomonlama asoslangan. Doston asosida adolatli davlat va sof insoniy muhabbatni ulug‘lash g‘oyasi yotadi. Bosh g‘oyaga bog‘liq holda ijtimoiy tenglik, ixtiyoriy nikoh, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri belgilash kabi ijtimoiy-axloqiy masalalar doston markaziga qo‘yilib, mahorat bilan yoritilgan. “Ra’no va Zebo” dagi qoliplanuvchi hikoyalar qoliplovchi hikoya mohiyatiga uyg‘un. Qo‘llanmada asar tahlili batafsil yoritilgan: “Qoliplovchi hikoyadagi mohiyat qoliplanuvchi hikoyalarda aniq voqea-hodisalar, obrazlar misolida rivojlantirilgan. Mavlono Xiromiy ifoda tarzida nafaqat muallaq qolgan biror hikoya, balki muallaq qolgan biron bir jumla yoki kalima ham yo‘q. Qoliplovchi hikoyalar 11 ta bo‘lib, ularning beshtasi Zebo, 5 tasi Malloh, bittasi Safdar tomonidan aytilgan. Qoliplanuvchi hikoyalarning asar syujeti oqimidan o‘rin olishi Malloh qayiqda Zeboni olib qochgandan keyin boshlanadi . O‘quv qo‘llanmada hikoyalardan ayrimlarining g‘oyaviy-estetik qimmati ham yoritilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada sayyor syujetli dostonlar qatorida “Yusuf va Zulayho” dostoni bilan bog‘liq mulohazalar ham o‘z ifodasini topgan. Muallif mazkur asarning o‘rganilish tarixiga ham e’tibor qaratgan: “Filologiya fanlari nomzodi H.Safarovaning tadqiqotlarida sayyor syujetli dostonning filologik tahlili XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlarida yashab ijod qilgan iste’dodli adib Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissayi Yusuf Siddiq alayhissalom” asari asosida amalga oshirilgan. Olima 72 qissadan iborat “Qissasi Rabg‘uziy” tarkibidagi “Qissayi Yusuf Siddiq alayhissalom”ga mustaqil badiiy asar sifatida qaraydi va Yusuf-u Zulayho sayyor syujetini qiyosiy-tipologik asosda chuqur tadqiq qiladi” .

Qo‘llanmada H.Safarova tadqiqoti bilan birgalikda taniqli olim T.Qorayevning tadqiqotlari ham qayd etib o‘tilgan: “Tadqiqotda olim Xiromiyning faoliyati, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining ko‘lami, mavzu mundarijasi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Xiromiy qalamiga mansub “Chor darvesh”, “To‘tinoma”, “Ra’no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” dostonlarining qo‘lyozma manbalarini aniqlab, ilmiy tavsif qilgani e’tiborlidir” . Adabiyotshunos olim Sh.Hayitov sayyor syujetli asarlar haqida batafsil to‘xtalar ekan, Sharq mumtoz adabiyotida bu an’ana darajasiga ko‘tarilganligiga ham e’tibor qaratgan.

Qo‘llanmada mavzuni o‘rganishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ayrim tavsiyalar ham berilgan. Shuningdek, qo‘llanmada Xiromiyning shajarasi, yaratgan asarlari, “Chor darvesh” ning hindcha va forscha variantlari bilan bog‘liq jadvallar keltirilgan. Kitobda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, mavzuni mustahkamlash uchun savollar ham e’tibordan soqit qilinmagan. Qolaversa, kitob so‘ngida ilova qilingan testlar ham magistrantlarning mazkur fan bo‘yicha bilimlarini oshirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xolmo‘min FAYZULLAYEV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

NORMUROD NORQOBILOV NASRIDA REAL VOQELIK VA UNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: maqola yozuvchi Normurod Norqobilovning “Dasht-u dalalarda” romaniga xos tasvir uslubining bir qirrasi – naturalistik tasvir masalasi talqiniga bag‘ishlangan. Roman muallifi shu yo‘sinda inson va tabiat muammosini qanday talqin etgani haqida fikr yuritilgan. Inson va tabiat tasvirida N.Norqobilovning naturalistik tasvir mahorati haqida xulosalar chiqarishga urinilgan.

Kalit so‘zlar: *roman, kompozitsiya, syujet, epizod, qahramon, obraz, naturalizm, epik tasvir, naturalistik tasvir, psixologik tasvir, epik kontrast, epik kolliziya, jonivor obrazi, fojeiy vaziyat.*

Аннотация: статья посвящается вопросу натуралистического изображения, одной из своеобразной грани стиля изображения в романе «В степных полях»» Н.Норкобилова. Автор размышляет о таком изображении проблемы человека и природы. Он делает выводы о мастерстве натуралистического изображения Н.Норкобилова на примере изображения человека и природы в произведении.

Ключевые слова: *роман, композиция, эпизод, герой, образ, натурализм, эпическое изображение, натуралистическое изображение, эпический контраст, эпическая коллизия, живой образ, трагическая ситуация.*

Annotation: the article is devoted to one of the aspects of the style of depiction in the novel “In the fields” by the writer Normurad Norkobilov - the interpretation of the problem of naturalistic imagery. This is how the author of the novel interprets the problem of person and nature. Attempts have been made to conclusions about N.Norkobilov’s naturalistic imagery in the depiction of person and nature.

Keywords: *novel, composition, plot, episode, hero, image, naturalism, epic image, naturalistic image, psychological image, epic contrast, epic collision, creature image, tragic situation.*

Normurod Norqobilov nasrini o‘qib-o‘rganish, undagi tasvir yo‘sinini sinchkov kuzatish yozuvchi uslubida naturalistik ifoda yetakchiligini ko‘rsatadi. O‘ylashimizcha, muallifning tabiat hodisalari, jonivorlar, tosh-tuproq, tog‘-u toshlarni badiiy tasvirlashga moyilligi tabiiy holatda uni naturalistik tasvirga olib kelgan.

Naturalistik tasvir o‘n to‘qqizinchi asrda Fransiyada paydo bo‘lgan “naturalizm” adabiy oqimining yetakchi tasvir tamoyili bo‘lib, unda narsa-hodisalarni tabiatda qanday bo‘lsa shundayligicha tasvirlash poetik maqsadga aylantirilgan[1]. “Natura” so‘zi ham ildiziga ko‘ra fransuzcha so‘z hisoblanadi. Lug‘aviy jihatdan “tabiat” degan ma’noni bildiradi. Bevosita tabiat va inson muammosini badiiy nasrga tatbiq etgan J.London, E.Seton-Tompson, Ch.Aytmatov, Sh.Xolmirzayev, T.Murod singari yozuvchilar aslida naturalizm oqimiga mansub sanalmaydilar. Ammo ularning ijodiy niyatlari, tabiat, nabotot, jamodotni borligicha ifodalashga bo‘lgan urinishlari o‘z-o‘zidan naturalistik tasvirni yuzaga keltiradi[2]. Nimaga deganda, tabiat qo‘ynida erkin yurgan biron parranda, hashorat, kemiruvchi yoki jonivor sabr-bardosh, matonat, muhabbat va tabiiy qiziqish bilan kuzatilmas ekan, u haqidagi asar to‘laqonli chiqmaydi. Ularning qiyofasi, anatomik tuzilishi, instinktga asoslanuvchi harakati, psixologik holatlari sun’iy, to‘qima tasvirni qabul qilmaydi. Yozuvchi xayoloti orqali bironta element kiritsa ham, bunday tasvir elementi ortiqcha bo‘lib qoladi. Shuning uchun tabiat haqida yozadigan yozuvchi birinchi navbatda tabiatni sevishi, tabiat kishisi bo‘lib shakllanishi kerak, albatta.

Bu jihatlarning hammasi N.Norqobilov shaxsi, turmush tarzi, xarakterida mavjud deb o‘ylaymiz. Uning uzoq yillar O‘zbekiston teleradiokompaniyasida ishlagani, ishlash jarayonida yurtimizning o‘nlab tabiat maskanlari haqida hujjatli filmlar tayyorlagani ma’lum. Shuning bilan birgalikda yozuvchining bolaligi ham tog‘-u toshlar, dasht-u dalalarda kechgan. Cho‘ponlar, ovchilar, tog‘ qorovullari faoliyatini kuzatish, ular bilan qadam baqadam yurish unda tabiatga mehr, uni sevish dardi, kuzatish uchun sabr-toqatning shakllanishiga zamin hozirlagan. Yozuvchining barcha asarlarida bu xususiyat yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, “Paxmoq”, “Kapalak”, “Changalzor iti”, “Oq bo‘yin”, “Do‘ngkalla”, “Arazchi chumchuq”, “Qora bo‘ri”, “Qoraquyun” asarlarini naturalistik tasvirning yuksak namunalari desak, xato qilmaymiz.

Ushbu maqolada biz yozuvchining “Dasht-u dalalarda” romanidagi “Qoraquloq” deb nom olgan tulki obrazining naturalistik tasvirlanishi haqida fikr yuritamiz.

1 Қаранг: Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; **Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004;** Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

2 Қаранг: Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2007.

"Dasht-u dalalarda" romanining bosh qahramoni To'lanboy polvon. Roman shu polvonning hayotida ro'y bergan bir voqea asosiga qurilgan. Asardagi boshqa barcha obrazlar, otasi Eshqul polvon, onasi Oybarchin, tog'asi Haydar, ayoli Oygul, do'sti Ro'ziqul ovchi, shu kichik voqea atrofida birlashadi. Boshida bu voqea unchalik arzirli voqea bo'lib tuyulmaydi. Bor-yo'g'i oilada doimiy bo'lib turadigan bir jo'n mojaroga o'xshaydi. Oilaviy mojaro tufayli Oygul bolalarini olib ketib qoladi. Roman To'lanboyning xotini ketib qolgandan keyingi holatini tasvirlash bilan boshlanadi. Qolgan voqealarga To'lanboyning o'y-xayollari vositasida qaytiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, roman syujetining asosida turgan To'lanboy oilasiga doir bu voqea asardagi ro'zg'or, xonadon, muhabbat tarixi singari markaziy liniyani tashkil etmaydi. Chunki romanga xos bu kabi muhim o'rinda poetik nuqtai nazardan To'lanboy oilasi yoki unga xos muhabbat tarixi batafsil hikoya qilinmaydi. Ro'zg'or, xonadon, muhabbat tarixi o'ziga xos lirizm va romantika bilan qahramonning otasi Eshqul polvon hayot yo'li bilan bog'lanadi. Asar bosh qahramoni To'lanboy esa go'yoki dasht va undagi voqea-hodisalar, jonivorlar, tosh-u tuproqlar tasvirini berish uchun tanlangan bir badiiy vositaga o'xshaydi. Shunday tushunilganda roman syujet maydonining asosiy qismini odamlar obrazi emas, tabiat, nabotot, jamodot egallagani ma'lum bo'ladi. Qoraquloq obrazi esa shu maydon markazini egallaydi. Romanning boshidan oxirigacha To'lanboy obrazi bilan parallel holatda tasvirlanadi.

Romanning dastlabki jumlasi shunday boshlanadi: *"To'lanboy podani kungay betga yoyib, o'zi tund va hafsalasiz bir qiyofada, oshiqmay, quyoshga ters tepalikka ko'tarilarkan, to'satdan nigohi yonbag'irlikda, qurigan siyrak tikanaklar orasida jon talvasada talpinib, o'zini har yon urayotgan kattakon mallarang tulki – Qoraquloqqa tushib, beixtiyor to'xtadi"*[1]. Tasvirda aks etgan To'lanboyning "tund", "hafsalasiz" holati yuqorida eslatib o'tilgan voqea, xotinining ketib qolishi bilan bog'liq. Shu tariqa To'lanboy hayotidagi voqea Qoraquloq qismatidagi tutqunlik voqeasi bilan bog'lanadi. Romanda tasvirlanishicha, Qoraquloq dashtdagi eng dadil, ustamon, ayyor va chiroyli, kelishgan tulki. U dasht qonun-qoidalarini mukammal o'zlashtirgan. Qoraquloq uchun tabiat stixiyalari, o'zidan kuchliroq vahshiylardan kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar, ov qilish va oila boqish mashaqqati, hatto Ro'ziqulga o'xshagan ochko'z ovchilar qo'yadigan tuzoq ham hech gap emas. Bir so'z bilan aytganimizda, Qoraquloq – havas qilishga arziydigan, ko'rganning ko'zini o'ynatadigan tulki. Shuning uchun ilkis tuzoqqa ilingan Qoraquloqni payqagan To'lanboy hayratga tushadi. "*Ko'zlariga ishonmaganday, unga bir muddat tikilib qoldi. So'ng g'amnok chehrasiga tabassumga o'xshash g'alati bir ifoda qalqib, beliga ko'ndalang tutgan tayog'ini shoshqaloqlik bilan avval chap, keyin o'ng qo'liga oldi. Biroq o'ljasi tomon endigina intilgan yerida, bu qadar hovliqishi o'ziga erish tuyulib, darrov shashtidan qaytdi"*[2].

Dasht qo'ynida yolg'izlikdan "g'amnok" yurgan To'lanboy uchun Qoraquloqning qopqonga tushgani bir nechta jihatdan muhim edi. Birinchisi shuki, qopqonga jo'ngina tushib qolgan ayyor Qoraquloq xotini, bola-chaqasini sog'inib iztirob chekayotgan To'lanboyga yaxshigina ermak edi. U Qoraquloqni oldindan bilar, kuzatib yurar, hatto uning tutqich bermasligi, erki va dadilligidan bir oz g'ashlanar ham edi. Shu bois bu tasodifdan ko'ngli bir oz yorishgandek bo'ladi. Ikkinchisi, To'lanboy yuragining tub-tubida doimo yovuzlikka o'xshagan bir nima pisib yurar edi. Qachonlardir tirik tulkining terisini shilib olib otasidan kaltak yeyishining sababi ham shu edi. Ovloqda, buning ustiga bandilikdagi Qoraquloq undagi mana shunday yovuzlik tuyg'usini alangalatadi. Xayolida uni qiynab rohatlanish istagi bosh ko'taradi. Uchinchisi, Qoraquloq ilingan qopqonning egasi To'lanboyning jon jo'rasi Ro'ziqul bo'lib, Qoraquloq bahona uni bir ziyofatga tushirish fikridan To'lanboyning ko'ngli yanada ko'tariladi.

Ermak o'tkinchi bir ish. U tezda odamning me'dasiga tegadi. Ro'ziqul beradigan ziyofat esa hali uzoq. To'lanboyning ko'nglini o'stiradigan narsa tutqun Qoraquloqni qiynash va bundan barcha alamlariga javob topish bo'ladi. Romanda inson va tabiat muammosining aks etishi va uning naturalistik tasviri shu joyda yorqin ko'rinadi, aniq bilinadi. Mana shu joyda jamiyatdagi eng mashhur va eng kuchli odam – To'lanboy bilan, dashtdagi eng ayyor, eng chiroyli, eng chaqqon tulki – Qoraquloq o'rtasida ayovsiz kurash ketadi. Psixoanalitik Zigmund Freyd To'lanboyda yuz berganga o'xshash holatni "sadizm" deb atagan ekan[3]. Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov bu tushunchaga quyidagicha izoh beradi: "Psixoanalizga doir lug'atlarda "sadist" birovni azoblab, rohatlanuvchi odamni bildiradi"[4]. Qizig'i shundaki, roman muallifi bilibmi-bilmaymi o'z qahramoni To'lanboydagi sadizm holatini tasvirlaydi. Bu holat esa aynan To'lanboy va Qoraquloq o'rtasida kechgan epizodlarda aniq ko'rinadi. Mana bu tasvirga e'tibor qarataylik: *"Seni nima qilsam ekan, deganday o'ng oldingi panjasini qopqon tishlari orasidan sug'urmoqqa behuda urinayotgan jonivorga* ***loqayd ko'z tashlarkan, o'sha tanish tiyiqsiz tuyg'u – shafqatsizlik girdobida guvranayotganini his etib, o'zini bir odim ortga oldi.*** *Jonivorga rahm qilib emas, shunchaki unga tez o'limni ravo ko'rmagani bois, chekindi. U tulkini er-kalab va ermaklab o'ldirishni istardi"*[5] *(kursiv bizga*

1 Норқобилов Н. Дашту далаларда. – Тошкент: "ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2009. – Б. 3.

2 Норқобилов Н. Дашту далаларда. – Тошкент: "ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2009. – Б.3.

3 Фрейд З. "Я" и "оно". – Тбилиси: Мерани, 1991. – С. 409.

4 Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 57.

5 Норқобилов Н. Дашту далаларда. – Тошкент:

tegishli. X.F.). Jo'n bir odam qopqonga oyog'idan ilinib, jon holatda bolalari oldiga talpinayotgan jonivorni ko'rganda rahmi kelishi, hattoki yig'lab yuborishi ham aniq. Azob tortayotgan begunoh bir jonivorga hech kimsa loqayd qarashi mumkin emas. Ammo To'lanboy loqayd qarashga qodir. Qodirgina emas, tulkining ayanchli holati uning yuragida uxlab yotgan yovuzlik tuyg'usini uyg'otib yuboradi. "O'sha tanish tiyiqsiz tuyg'u" deganda yozuvchi xuddi To'lanboyga singib ketgan yovuzlik istagini nazarda tutadi. Bu yovuz tuyg'udan To'lanboy uyalmaydi ham. Shunchaki o'sha tuyg'usini obdon qondirishni maqsad qiladi. Shuning uchun ham u "tulkini erkalab va ermaklab o'ldirmoqchi edi".

Qoraquloqqa oid naturalistik tasvir romanning shu joyida ancha mukammal ifodasini topgan. *"Yag'rin tuklari quyosh nurida yal-yal tovlanayotgan jonivor sog'lom va baqquvat edi. Har bir harakatidan hayotga tashnalik ufurib turardi. Qani endi, manovu la'nati temir tishlar orasidan oyog'ini sug'urib olsa-yu, ko'ziga olovday ko'rinayotgan qadrdon dashti bo'ylab holdan toyguncha yelib-yugursa. Quloqlari uchidagi qop-qora tuklari-yu harakatiga monand tuslanib-tovlanuvchi tillarang mo'ynasi tufayli bir necha yillardan buyon mahalliy ovchilarning ichini qizdirib kelardi. U bu hududda Qoraquloq nomi bilan mashhur edi. Jonivor favqulodda go'zal edi. Buni hatto uncha-bunchaga go'zallikni tezda idrok etavermaydigan To'lanboy ham sezdi. U Qoraquloqni ushlab ko'rgisi, mayin mo'ynasini silab-siypagisi keldi. Biroq tulki mushuk emaski, tinchgina silab-siypatib qo'ysa, qo'lingni cho'zishing bilan g'arch etib barmog'ingni uzib olishi mumkin"*[1]. Ushbu naturalistik tasvirni batafsil keltirishimizdan maqsad bu parchada Qoraquloqning butun anatomik tuzilishi, xarakteri, dashtdagi "obro'-e'tibori" nuqtama-nuqta aks etgandir. Bu yerda ushbu tulkining nima uchun Qoraquloq deb nom olganini ham bilib olamiz. Uning umumiy tusi malla bo'lsa-da, quloqlarining uchida "qop-qora tuklari" bor. Mo'ynasi tillarang tusda tovlanib turadi. Qoraquloq sog'lom va baquvvat. Hayotni tashnalarcha sevadi. "Jonivor favqulodda go'zal". Dala-dashtda yayrab yurgan. Qopqon iskanjasida ham shu yurishlarini armon bilan eslaydi. Qopqondan chiqib ketmoqchi bo'lib urinadi. Shu joyda insonning barvasta, sog'lom va baquvvat vakili jonivor bilan solishtiriladi. Tulki qanchalik hayotsevar, go'zallikni, dashtni yaxshi ko'rsa, insonlar vakili To'lanboy uncha-muncha go'zallikni payqamaydi. Og'ir musibatga uchrab azoblanayotgan jonivordan o'z rohati uchun foydalanmoqchi bo'ladi. Tulki qopqon simlarini uzib bo'lsa-da, och-nahor, o'zining yegulik olib kelishini kutayotgan jufti va bolalari tomon intiladi. Odamzod vakili esa o'z rashki, farosatsizligi, tog'asi Haydarning g'iybat gapi tufayli bolalari, oilasini o'zidan uzoqlashtiradi. N.Norqobilov To'lanboydagi yovuz tuyg'uning genetik omillarini ham berib ketadi. To'lanboyning ona tarafdan bobosi, tog'asi Haydar ham favqulodda yovuz kishilardan edi. To'lanboydagi bunday tabiatni otasi ham sezib, aytib yuradi. Onasi Oybarchin esa To'lanboyga qarab faqat bir gapni takrorlaydi: "Fe'l-atvoring rahmatli otamni eslatadi", deydi.

Bu holatlar tasviri yozuvchining naturalistik usulda inson va tabiat muammosini badiiy kontrastda ifoda etgani, ya'ni natural tasvirlash mahoratini ko'rsatadi.

Ayniqsa, romandagi qopqonga ilingan Qoraquloqning holati tasviri har jihatdan ta'sirli, tabiiy chiqqan, desak to'g'ri bo'ladi: *"Qoraquloq uzoq va besamar urinishlardan toliqqanmi yoxud chindanam taqdiriga tan berdimi, endi ortiq harakatlanmas, tumshug'ini paxtalik ostidan chiqargancha, uzoq-uzoqlarga ma'yus termulib yotardi. Uning olis-olislarga tikilgan ko'zlarida shudring yanglig' yosh yiltirardi".*[2] Jonivorlarning yig'lashi bizga birozgina notabiiy tuyulishi mumkin. Chunki ular odamlar singari o'z azob va g'amginliklarini oshkor qilavermaydilar. Odamga nisbatan azob-uqubatlarga sabrliroqlar. Shu bilan birgalikda, o'z oilalari, bolalariga mehribonliklari ham tabiiy, maqtovga loyiq. Qopqondagi Qoraquloq tutqunlikdan qutulishga urinadi, ilojsiz ekanini tushungandan keyin esa taqdirga tan beradi. U o'limdan qo'rqmaydi. Ammo endi o'z oilasi, bolalarini ko'rolmasligidan qiynaladi, azob chekadi va ko'zlaridan mo'lt-mo'lt yosh to'kadi.

Yozuvchi tomonidan Qoraquloqning holati shu darajada batafsil tasvirlanadiki, shu jumlalarni o'qigan o'quvchi ko'zlariga ham beixtiyor yosh keladi. Qoraquloqning boshiga shunday ko'rgulikni solgan odamlardan nafratlanadi, hattoki o'zining shu toifa vakili ekanligidan uyaladi. Chunki bu satrlarda yozuvchi Qoraquloq holatini fojiaviy yo'sinda aks ettirishga to'laqonli erishgan. Tulkining "uzoq-uzoqlarga ma'yus termilib yotishi", "olis-olislarga tikilgan ko'zlarida shudring yanglig' yosh yiltirashi" romanning tragik kulminatsiyasi deyishga arziydi. E'tibor qaratadigan muhim jihati shundaki, yozuvchi mana shunday badiiy effektga naturalistik tasvir vositasida erishadi.

Xulosa qilib aytganimizda:

1.N.Norqobilov ijodiga xos naturalistik tasvir tamoyilining asoslari yozuvchi xarakteri, tabiat bilan baqamti, uni sevib yashovchi keng fikrli bir shaxs ekanligi bilan bog'liq. Bunday xususiyatni biz jahon va o'zbek nasrining bir nechta yetuk vakillari tarjimai holida ham ko'ramiz

2."Dasht-u dalalarda" romanida inson va tabiat muammosining yorqin ochilishi real voqelik, tabiat va jonivorlar xarakterini chuqur o'rganishning natijasidir.

3.Yozuvchi N.Norqobilov ushbu "Dasht-u dalalarda"

"ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2009. – Б. 9.

1 Норқобилов Н. Дашту далаларда. – Тошкент: "ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2009. – Б. 9,10.

2 Норқобилов Н. Дашту далаларда. – Тошкент: "ЎЗБЕКИСТОН" нашриёти, 2009. – Б. 96.

romanida odam va tabiat, To‘lanboy va Qoraquloq obrazlarini poetik kontrastda tasvirlagan. To‘lanboydagi ruhiy tutqunlikni unga xos ichki yovuzlik tuyg‘usi vositasida aks ettirgan. Bunday shafqatsizlikning genetik omillarini ham ko‘rsatgan.

4.Qoraquloq obrazi misolida esa keng dashtda erkin yurgan, o‘zining tabiiy ehtiyojlari uchun yashashdan baxtiyorlik tuygan sof tabiatga xos xarakterni ko‘rsatib bergan. Odam va jonivor xarakteridagi nozik nuqtalarni tasvirlash orqali inson va tabiat muammosini fojiaviy yo‘sinda psixologik asoslagan.

5.Bunday muvaffaqiyatning bosh omili dasht, yaylov, chayla, tog‘-toshlar, eng muhimi, inson va jonivor obrazlarining naturalistik tasvirlanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova Sh.A. Inglizzabon G‘arb adabiyoti va o‘zbek adabiyotida anamalistika janri xususiyatlari (E.Seton-Tompson va N.Norqobilov ijodi misolida). Filol.f.b.fals.dok. (PhD)…diss. – Toshkent, 2020.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
3. Норқобилов Н. Дашту далаларда. Роман. – Тошкент: “ЎЗБЕКИСТОН” нашриёти, 2009.
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq NMAKBT, 2007.
5. С.Томпсон Э. Ёввойи йўрға. Рус тилидан Тоғай Мурод таржимаси. –Тошкент: “Ношир” нашриёти, 2010.
6.Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
7. Фрейд З. “Я” и “оно”. – Тбилиси: Мерани, 1991.
8. **Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.**
9. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.

Ozodaxon BOLTABOYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD., dotsent.
University of Business and Sciense, Namangan.
Ozodaxonb@gmail.com

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT – ZULLISONAYN SHOIR

Annotatsiya: ushbu maqolada zullisonayn shoir Ibrat asarlarining adabiy manbalari haqida ma’lumot berilgan. Shoir lirik merosining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo‘lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.*

Аннотация: в данной статье представлены сведения о литературных источниках Ibrata. Подчеркнуты смысл и значение произведений поэта сегодня.

Ключевые слова: *учёный, писатель, поэт, диван, баяз, рукопись, литография, издательский источник, опись, колофон, каллиграф, писец, зуллисонайн.*

Annotation: this article provides information about the literary sources of Ibrat. The meaning and importance of the poet's works today are highlighted.

Key words: *writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.*

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandasi Is’hoqxon to‘ra Ibrat ijtimoiy hayotda yuz bergan har bir yangilikni, ilm-fan yutuqlarini o‘z she’rlarida aks ettirgan, ushbu jarayonlarga munosabat bildira olgan hozirjavob shoirlardan sanaladi. Uning asarlari adabiy-ma’rifiy, ilmiy, diniy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishda bitilgan. Zulisonayn shoir Ibrat o‘zbek va fors tilida o‘z fikr-u qarashlarini, orzu-umidlarini sodda, ta’sirli ifoda etadi. Uning she’rlari o‘zining mazmuni va ilgari surgan g‘oyalariga ko‘ra xalqchil, insonparvar xarakterga ega. Ibrat ijodidagi an’ana va yangilanish, asarlarining mavzu ko‘lami va janr xususiyatlari, poetikasi masalalari qiyosiy-tipologik tadqiq metodi asosida o‘rganishga mushtoq. Shoirning o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini belgilash, ijodidagi an’ana va yangilanish tamoyillarini aniqlash, shuningdek, “formal”, “biografik”, “psixologik”, “struktural”, “sotsiologik” metodlar, “germenevtika” singari kompleks talqin usullaridan foydalanish ham u yoki bu darajada qiyosiylikka asoslanadi.

Ibratning boy adabiy merosi unga zamondosh Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, shoir va adiblariga nisbatan mavzu ko‘lami kengligi va sermahsulligi bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. Is'hoqxon to'ra Ibrat lirikasi ishqiy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va hajviy mavzularda yaratilgan. Ibratning ijtimoiy-siyosiy voqealar qalamga olingan she'rlari orasida fors tilida bitilganlari ham bor. Shoirning "Tarixi hammom" forscha g'azali 1905-yilda "Turkiston viloyati gazeti"ning 13-iyun 23-sonida bosilgan. Ushbu g'azal eski o'zbek yozuvidan ilk bor joriy imloga o'girildi va "Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti va adabiy faoliyati" ilmiy-adabiy risoladan o'rin oldi. (Boltaboyeva O. Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti va adabiy faoliyati. – Namangan: Arjumand media, 2021-yil.134-bet). Ushbu g'azal fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Tarjimon: arab-fors tili bo'yicha matnshunos Abdumajid Abdurahimov. O'n olti baytdan iborat bo'lgan ushbu g'azal 1905-yil Ibratning o'z hisobidan qurdirgan hammomi ta'rifi haqida:

Sayyidi Is'hoqxo'ja dono,
Qozi shar'i millati bayzo
(Sayyidi Is'hoqxo'ja dono millat oftobi, shariat qozisidur)[2:134].

Ushbu misralar orqali bilish mumkinki, Ibrat 1905-yilda ham To'raqo'rg'on qozisi bo'lgan. Is'hoqxon To'ra Ibrat ilg'or fikrli, har bir madaniy yangilikni o'z xalqiga in'om etishga qodir, mamlakat taraqqiyoti uchun bor kuch-g'ayratini ayamaydigan fidoyi inson edi. Bu esa uning ko'p yil qozilik faoliyatini davom ettirib, xalq manfaati yo'lida xizmat qilishiga imkon berdi. Ibrat haj safaridan qaytgach, Xonobodda, so'ngra To'raqo'rg'onda qozilik lavozimida ishlagan. Ibratning "Lug'ati sittati alsina" asari haqida yozilgan axborotda "Namangan uyezdiga tobe' To'raqo'rg'on qozisi Is'hoqxon to'ra", "ul janobi qozining ixtiro qilgan kitoblari", "ul janobi qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagon lug'at kitoblari" kabi jumlalar tilga olingan.[1] Undan oldin esa Is'hoqxon to'raning 1900-yil N.P.Ostroumovga yozgan murojaat maktubida qozi so'zi ishlatilmagan. Maktubda Ibrat o'zini "Is'hoqxon to'ra" deb tanishtirgan [7].

Manbalarning guvohlik berishicha, Ibrat 1916-yilda yozgan "Tarixi Farg'ona" asarida oxirgi marotaba qozi sifatida tilga olingan [4]. Keyingi u haqdagi manbalarda esa Ibrat "Is'hoqxon to'ra To'raqo'rg'oniy" tarzida berilgan [5]. Bu manbalar Is'hoqxon to'ra Ibrat 1901-1917-yillarda uzluksiz To'raqo'rg'on qozisi lavozimida faoliyat olib borganini anglatadi.

Ibratdagi bor ilm, madaniyat va shijoat zamondoshlaridan bir qadam ilgari yurishiga sabab bo'lgan. Diniy va dunyoviy ilmni chuqur egallagan olim har qanday og'ir sharoitda ham o'zining insonparvarlik xislatini yo'qotmadi. Ushbu baytlarda ham shoir qurdirgan hammom xalq manfaati uchun xizmat qilishi ta'kidlangan:

Kard hammom baroye naf' avom,
Az inoyat Qodiri yakto.

(Qudratli va tengsiz Alloh inoyati bilan xalq manfaati uchun hammom bino qildi)

Fazli Haq nosir va ma'iyyanash bod,
Dar sabohu ravoh, subh maso.

(Quyosh chiqib botguncha, ya'ni tongdan shomgacha madadkor Haq fazli doim birga bo'ldi)

Onki oyad darun garm obe,
G'usl oyad ba xonai tanho.

(U yerda cho'milish uchun alohida xona, issiq suv mavjud)

Bizu kuronos mug'tasili,
Har yaki ro namudand judo....

(Har bir ayol-u erkak uchun alohida cho'milish xonasi ajratilgan) [2: 134].

Shuningdek, shoirning Nodim Namangoniy vafotiga bag'ishlab yozgan tarix-marsiyasi ham fors tilida bitilgan. Ushbu marsiya 1910-yil 26-avgustda "Turkiston viloyatining gazeti"da e'lon qilingan:

Xostam nuktai tarix az on,
Guft: – Ey kotibi devoni rusum.
Xez az ro'i beho' binavis:
Voy Eshon Boboxon marhum [8].

She'rdagi "Voy, eshon Boboxon marhum" so'zlari tarix moddasi, ya'ni abjad hisobiga aylantirilsa, undan 1328-hijriy yil, 1910-milodiy yil bilan shoir Nodimning vafot etgan yili kelib chiqadi. Xilvatiy ham o'z marsiyasida Nodim vafot etgan yilni "hazoru sehsadu bistu hasht" (1328) deb yozadi [9]. She'riyatda muhim tarixiy voqealar sanasini abjad hisobi bilan ifodalovchi she'r yaratish san'ati ham, shu usulda bitilgan asar ham ta'rix deb atalgan, bu janrdagi lirik she'rlarni yozish uchun shoir abjad hisobini – arab alifbosi harflarining son ifodasini yaxshi bilishi lozim. Mazkur tarix-marsiya Nodim vafot etgan yilni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Haqiqatan ham, Nodim 1910-yil 26-iyunda vafot etgan.

Ibratning ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan tarix she'rlari publitsistik maqolalarida ham berib borilgan. Uning 1903-yil 8-martda "Turkiston viloyatining gazeti" № 9-sonida "Voqeayi zilzilayi Andijon" tarix-she'ri chop etilgan. Ushbu musaddas ham birinchi marta O. Boltaboyevaning "Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti va adabiy faoliyati" deb nomlangan ilmiy-adabiy risolasida chop etildi. (Boltaboyeva O. Is'hoqxon to'ra Ibrat hayoti va adabiy faoliyati. – Namangan: Arjumand media, 2021-yil.170-bet). Adabiyotshunoslikda toshkentlik shoir Karimbek Kamiyning ham xuddi shu zilzilaga atab yozgan "Andijon zilzilasi xususida" she'ri borligi haqida ma'lumot uchraydi [10:93].

1902-yil 10-dekabrda sodir bo'lgan ushbu zilzila tafsilotlari va andijonliklarga berilayotgan yordam haqida she'r bitgan ko'plab shoirlar ijodi "Turkiston viloyatining gazeti"da muntazam berib borilgan. Masalan, bu zilzila haqida Olim, Muhyi, Rahimxo'ja eshon, Ostonaqul Muhammad, Muqimiy, Xo'jaxon qozi, Fozil Yunusxon o'g'li, Shohiy va Said Abdumajid Shavqiy kabi o'nlab shoirlar marsiya yozishgan. (Olim. She'r. Turkiston viloyatining gazeti, 1902. 16-dekabr.

– № 49; Muhyi. Muxammas. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 22 -yanvar. – № 3; Rahimxo‘ja Eshon. Muxammas. Turkiston viloyatining gazeti, 1903, 14 -fevral. – № 6; Ostonaqul Muhammad. Masnaviy. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 22 -fevral. – № 17; Muqimiy. G‘azal. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 22 -aprel. – № 15; Xo‘jaxon qozi. She’r. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 7 -may. – № 18; Fozil Yunusxon o‘g‘li.She’r. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 21-may. – № 20; Sho‘hiy. She’r. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 9 -iyun. – № 22; Said Abdumajid Shavqiy. She’r. Turkiston viloyatining gazeti, 1903. 30-iyun. – № 25)

Ilmiy tadqiqotlar natijasida, ya’ni “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etilgan Ibrat she’rlarini kuzatish davomida Karimbek Kamiydan so‘ng Is’hoqxon to‘ra Ibrat ham Andijon zilzilasi bilan bog‘liq o‘n uch bandli musaddas shaklida she’r yozgani va bu ta’rix she’r o‘ziga xos uslubda ya’ni, aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yaratilgani ma’lum bo‘ldi. She’r zilzila tufayli ko‘p talofat ko‘rgan andijonliklarga hamdardlik bildirish ruhida yozilgan. Zilzila tafsilotlari haqida shoir Allohning hukmi bilan ramazon oyining o‘n beshinchi kunida Andijonda kuchli zilzila yuz bergani, bu vaqt soat tungi ikki yarim bo‘lib, jumla aholi ro‘zadorligi haqida bayon etadi:

Eshiting ey dahr eli, xalqi jahon,
Fe’li falak fitna hadas tav’amon.
Bo‘ldi Qadar hukmi bila Andijon,
Munhadam ul shahri vo tolofijon.
Ketti bino boshi tahi po o‘lub,
Tarix ango zilzila g‘abro o‘lub.....
(talofi–zararni qoplash, xun haqi berish)

Xamsa ashir shahri sharif erdi kun,
Soyim edi jumla aholi butun.
Yavmu solis erdi nahori junun,
Sohat edi ikki yarimga bu tun.
Ketti bino boshi tahi po o‘lub,
Torix ango zilzila g‘abro o‘lub [2:170].

She’rda jamiyatdagi adolatsizlik, fitna va ig‘volarning haddan oshib ketishi, halollik va barakaning yo‘qolganligi bois zilzila yuz berganligi haqida aholi orasida tarqalgan turli-tuman mish-mishlar ham qalamga olingan. Musaddasda zilzila tufayli madrasa-masjidlar vayron bo‘lgani, ularni tiklash uchun ko‘p mablag‘ ketishi va yuz bergan zararni qoplash uchun keltirilayotgan yordam haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Musaddasning takrorlanib keluvchi ikki misrasida shoir zilzila sodir bo‘lgan sanani abjad hisobida she’rga soladi. She’r so‘nggida: “Ulul alboblarg‘a ma’lum va makshuf (makshuf – ochilgan, kashf qilingan o‘lg‘oykim, zilzilayi g‘abro o‘lub ibratiydin. bino boshikim harf “b” dur. isqot (isqot– olib tashlash, tushirib qoldirish) qilinsa, bir ming uch yuz yigirma hosil bo‘lsa kerak” – deb nasriy ma’lumot berilgan. Bu ta’rixda zilzila hijriy 1320-yil, milodiy 1902-yil sodir bo‘lganligi bayon etilgan. Ushbu musaddasda qo‘llangan “bu tun”, “butun” so‘zlari orqali ham tajnis san’atidan mohirona foydalangan.

Xulosa. Zullisonayn shoir Ibratning san’atkorlik mahoratini yoritish tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan biridir. Is’hoqxon to‘ra Ibratning ta’rix san’ati aks etgan asarlari adabiyotshunoslikda bir necha tarixiy ma’lumotlar sanasini aniqlashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat lirik merosi insonlar qalbiga ezgulik, ishonch, saxovat va go‘zallik hadya etgan bo‘lsa, bu tuyg‘ularni his eta olganlar hayotiga, albatta, yuksalish, ilm-ma’rifat, ma’naviyat va madaniyat kirib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axborot / Turkiston viloyatining gazeti. 1901. № 30. 4 -avgust.
2. Boltaboyeva O. Is’hoqxon to‘ra Ibrat hayoti va adabiy faoliyati. – Namangan: Arjumand media, 2021-yil. 134-bet.
3. Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an’ana va yangilanish: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. 146-bet.
4. Ibrat I. Tarixi Farg‘ona. – 1916 -yil. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma, inv. № 11616. 1-bet.
5. Ibrat I. Tarixi madaniyat. – 1926 -yil. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma, inv. № 10117. 106-bet.
6. Karimbek Kamiy. Andijon zilzilasi xususida. Turkiston viloyati gazeti, 1903-y, 31-yanvar.
7. O‘zRMDA. F–1009. 115 ro‘yxat. 15-16-betlar.
8. Turkiston viloyatining gazeti, 1910 -yil, 26 -avgust. – № 63.
9. Xilvatiy. Devon. O‘zR FA SHI. Q., inv. № 4176, varaq 188a.
10. Тўлабоев Олим Олтинович. Каримбек Камийнинг ҳаёт ва ижод йўли: Филол. фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. Б.93.

Asqar ESHMUMINOV,
TerDU dotsenti

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINONIMIYA HODISASINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada leksik-semantik munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan sinonimlar va ularning o‘zbek tilshunosligida ilmiy o‘rganilishi haqidagi ma’lumotlar hamda ushbu o‘rganilishning davriy ketma-ketligi haqidagi qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *sinonim, sinonimiya, ma’nodoshlik, mutloq sinonimlar, kontekstual sinonimlar, uslubiy sinonimlar.*

Annotation: this article provides information on synonyms, which are a component of lexical-semantic relations, and their scientific study in Uzbek linguistics, as well as valuable information on the periodic sequence of this study.

Key words: *synonyms, synonymy, semantic similarity, absolute synonyms, contextual synonyms, stylistic synonyms.*

Аннотация: в данной статье представлены сведения о синонимах, входящих в состав лексико-семантических отношений, и их научном изучении в узбекском языкознании, а также ценные сведения о периодической последовательности этого исследования.

Ключевые слова: *синоним, синонимия, синонимия, абсолютные синонимы, контекстуальные синонимы, стилистические синонимы.*

Sinonimiya o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan hodisalardan. A.Hojiyev, Y.Tojiyev, H.Shamsiddinov, M.Vafoyeva, M.Hakimova tadqiqotlarida maxsus tadqiq qilingan. Sinonimik munosabat xususida jahon va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar bajarilgan va olib borilayotgan bo‘lsa-da, ushbu hodisaning mohiyatini aniq va to‘liq aks ettiradigan, hamma e’tirof etgan ta’rif mavjud emas.Ko‘pincha, sinonimiyani izohlashda ma’nodagi to‘liq yoki qisman aynanlik, biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llana olishi mavjudligi kabilar hisobga olinadi .

Sinonimik munosabat ma’nodoshlik munosabati deb ham yuritiladi. Adabiyotlarda sinonimlar, asosan, to‘rt turga bo‘linadi :

1) ma’no ottenkasiga putur yetkazmay, bir-birining o‘rnida bemalol ishlata oluvchi so‘zlar mutlaq deyiladi: tilshunoslik – lingvistika;

2) ma’no jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik tipga kiradi: botir, jasur, qo‘rqmas, dadil;

3) nutq vaziyati yoki kontekstda ma’nolari jihatdan bir-birining o‘rnida ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonim sanaladi: shoir, yozuvchi, adib;

4) ifoda bo‘yoqlari bilan farqlanuvchi sinonimlar uslubiy sinonim deyiladi: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq.

H.Ne’matov, R.Rasulovlar ham ma’nodoshlik (sinonimiya) qatorlarining o‘zbek tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan leksik paradigmalardan biri ekanligini ta’kidlaydilar. Shaklan har xil, mazmunan bir xil so‘zlar qatorining muayyan o‘xshashlik asosida o‘zaro bog‘lanishi, bu birliklar orasidagi farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqish sabablari bir necha ilmiy tadqiqotarda, qo‘llanma va darsliklarda o‘z yechimini top¬gan . Sinonim leksema semalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanadi.

Ma’nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste’moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma’nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, ibora, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so‘z, so‘z birikmasi, nutqiy ko‘chma so‘z bilan to‘lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go‘zalligi va boyligini ta’minlovchi vosita sanaladi.

M.Irisqulov sinonimga shunday ta’rif beradi: “Bir xil yoki bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar sinonimlar deyiladi. Masalan: beparvo, befarq, betashvish, loqayd; chiroyli, go‘zal, barno va h. Sinonimlar bir narsa yoki hodisani har xil belgilarini nazarda tutib ifodalashi tufayli doim ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi, qo‘llangan taqdirda ham ularning ma’nolari bir-biriga aynan to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababdan tillarda mutlaq sinonimlar yo‘q deyiladi. Agar shunday sinonimlar uchrab qolsa, ulardan biri tezda iste’moldan chiqib ketadi. Samolyot va aeroplan so‘zlari mutlaq sinonimlar, shuning uchun bu sinonimlarning ikkinchisi (aeroplan) hozirgi vaqtda iste’moldan tushib qoldi. Xullas, sinonimlar ma’nodosh so‘zlar sifatida o‘zlari ifoda qilayotgan narsa va hodisalarning har xil belgilarini ifodalaydi. Natijada ularda qo‘shimcha ma’nolar mavjud bo‘ladi, ana shu ma’nolar evaziga ular bir-biridan farq qiladi. Ularni birlashtirib turadigan narsa esa sinonim so‘zlardagi yetakchi ma’nodir” .

A.Hojiyev lingvistik terminlar sifatida sinonimning mutlaq/absolyut, kontekstual/matniy, grammatik, ideografik, affiksal, frazeologik sinonim kabi turlarini farqlaydi. A.Hojiyevning fikricha, absolyut/mutlaq sinonimlar – ma’nosi, qo‘shimcha ottenkasi kabi jihatlari bir-biriga to‘la teng keluvchi so‘zlar. Olim bunday sinonimlar tilda juda sanoqli bo‘lib, asosan,

terminlarda uchrashini ta'kidlaydi . Masalan: tilshunos-/ tilchi, leksikografiya-lug'atchilik kabi.

Affiksal sinonimlar affikslar orasidagi ma'nodoshlik: -siz va -be (farqsiz – befarq) kabi. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida grammatik birliklarnnng (so'z shakli, so'z birikmasi yoki gaplarning) o'zaro sinonim bo'lishini grammatik sinonimiya yoki sintaktik sinonimiya hodisasi deb baholangan. Denotativ ma'no nozikligiga ko'ra o'zaro farqlanadigan sinonimlar (yordamlashmoq – ko'maklashmoq – qarashmoq) ideografik sinonimlar, nutqiy matn asosida belgilanadigan sinonimlar kontekstual yoki matniy sinonimlar deb atalgan. Bir xil ma'noga ega bo'lgan, ma'no nozikligi, uslubiy bo'yog'i va boshqa jihatdan o'zaro farqlanadigan frazeologik birliklar – frazeologik sinonimlar deyilgan: og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabi. M.Hakimova esa sinonimiya hodisasini shunday ta'riflaydi: "Sinonimiya munosabati tilda ko'p uchraydigan, universal hodisa bo'lishi bilan birga, u butun lug'at tarkibini qoplaydigan kategoriya emas. Ya'ni lug'at tarkibidagi barcha leksemalar o'z sinonimlariga ega bo'lmaydi. Sinonim leksemalarda ma'no aynanligi, umumiyligi bo'lishi bilan birga, semantik farqlilik ham mavjud bo'ladi. Albatta, sinonimlarda semantik umumiylik semantik farqlilikdan ustun bo'ladi va sinonimiya ma'no umumiyligi asosida voqe bo'ladi. Semantik farqlilik absolyut sinonimlarda (leksik dubletlarda) kuzatilmaydi: affiks – qo'shimcha, chapak – qarsak. Bunday sinonimlar ko'proq boshqa tillardan kirgan so'zlar hisobiga voqe bo'ladi" .

XX asrning 80-yillarida o'zbek tilining uslubiy xususiyatlarini jiddiy tekshirish asosida ko'plab tilshunoslar sinonimlar borasida o'ziga xos ta'riflarni ilgari surdilar. Chunonchi, E.Qilichev sinonimik qatordagi so'zlarning: 1) emotsional-ekspressiv bo'yoq jihatidan; 2) qaysi uslubga oidligi jihatidan; 3) adabiy til va sheva munosabatiga ko'ra farqlanishini aytib o'tadi hamda sinonimlarning keng iste'moldagi sinonim va poetik sinonimlar turini ajaratadi . (XX asrning 90-yillariga kelib esa, olim o'zining "O'zbek tilining amaliy stilistikasi" nomli qo'llanmasida grammatik sinonimiya borasidagi qarashlarini bayon qiladi .) O'rni bilan e'tirof etish zarurki, shunday tavsif A.Hojiyevning bungacha chop etilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da ham keltiriladi .

Yuqorida ta'kidlanganidek, 90- va undan keyingi yillar fanida sinonimiyani barcha ma'no nozikliklari bilan tahlil qilish jadallashdi. Xususan, o'zbek leksikologiyasining taniqli vakili B.Yo'ldoshev iboraviy birliklar o'rtasidagi sinonimiya hodisasini tekshirib, ulardagi sinonimlikning nafaqat ma'no nozikligi, balki uslubiy bo'yog'i, qo'llanilish doirasi bilan ham farqlanishini qayd etadi. Shuningdek, tilshunos H.Shamsiddinov ham sinonimlarda ularni birlashtirib turadigan bir xil ma'no bo'lish bilan birga, o'zaro farqlab turadigan belgilar ham mavjudligini ta'kidlaydi hamda sinonimlikka leksik ma'noning bir xilligi sifatida yondashuvchilarga "leksik ma'no va so'zning kontekstda reallashadigan ma'no asosida sinonimlik hosil bo'lmaydi" degan munosabatni bildiradi . Shuningdek, Odiljon Bazarovning o'zbek tilidagi darajalanishni o'rganishga bag'ishlangan ishi ham mazkur muammo yuzasidan ilmiy haqiqatlarni yuzaga chiqaruvchi jiddiy tadqiqot. Bunda olim o'zbek tilidagi darajalanish qonuniyatlarini tabiiy-ontologik, falsafiy, mantiqiy, gnoseologik-metodologik mohiyatlar orqali ochib berdi .

Ko'rinadiki, XX asr ikkinchi yarmidan o'zbek tilshunosligida so'zlar (sintaktik konstruksiyalar)dagi sinonimiyaga munosabat taraqqiy etib, bu boradagi izlanishlar XXI asr o'zbek tilshunosligida ham zinhor susaygani yo'q. Vaholanki, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalova tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining "Leksik-semantik munosabatlar" hamda professor B.Mengliyev muallifligidagi "Hozirgi o'zbek tili" nomli darslikning "Leksik-semantik munosabatlar" qismida sinonimik munosabatlarga doir qimmatli fikrlar bildirilgan. Professor M.Mirtojiyev "Semasiologiya" nomli monografiyada, professor S.Karimov "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida ham sinonimlar to'g'risida e'tiborli fikrlarni bayon qilganlar. O'zbek tilida lug'aviy sinonimiya va graduonimiyaning o'zaro munosabatini o'rgangan tadqiqotchi G'.Rahmonov o'zbek tilshunoslaridan Sh. Rahmatullayev, R.Yunusov, E.Qilichev, E.Begmatov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, R.Rasulov, S.G'iyosov, R.Safarova, O.Bozorov, D.Xo'jayeva, Sh.Orifjonova, H.Shamsiddinov, L.Xudoyberdiyeva, N.Shirinova, J.D.Jumabayevalarning bu boradagi tadqiqotlarini e'tirof etadi.

Ta'kidlash zarurki, XXI asrning birinchi o'n yilligi mobaynida o'zbek tilshunosligida jamiyat a'zolarida lingvistik tafakkurni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor berildi. Xususan, maktab o'quvchilarining ijodiy fikrlashini o'stirish uchun "O'zbek tilining so'zlar darajalanish o'quv lug'ati"ning nashr ettirilishi bu boradagi jiddiy yutuq. Shu kabi, professor B.Mengliyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" muallifligidagi darslikda sinonimlarning paradigmaga munosabati masalasining qo'yilishi bugungi oliy ta'lim uchun yangilik. Qolaversa, mazkur tadqiqotimiz orqali sinonim so'zlarni o'zbek tilining milliy korpusiga tatbiq etishga bo'lgan harakatlarimiz sinonimiyani tekshirish ilm-fan doirasidan ta'lim-tarbiya, kibernetika sohalari qadar siljigani hamda tadqiq obyekti sifatida zalvorli ko'lam kasb etganini dalillaydi.

Sinonimik qatordosh leksemalar bir qancha umumiy semalarga ega bo'lishi bilan birga, semantik jihatdan quyidagicha farqlanishlarga ham ega bo'ladilar:

1) konnotativ ma'nodagi farqlilik;

2) denotativ ma'nodagi farqlilik;
3) uslubiy farq.

M.Hakimovaning ta'kidlashicha, Bir denotatni, ya'ni voqelikdagi aynan bir narsani nomlovchi leksemalar konnotativ ma'no (emotsional-ekspressivlik) nuqtayi nazaridan farqlanadi. Mazkur holatda sinonimlar aynan bir hodisani nomlaydi, lekin ularda ushbu hodisaga bo'lgan munosabat farqli bo'ladi: novcha, dorg'ul, naynov, daroz. Bunday sinonimik qatorlarda atash semalari aynan bo'ladi, ifoda semalari har xil bo'ladi. Demak, bu kabi sinonimik qatorlarda denotativ ma'no va denotativ ma'no asosida hosil bo'ladigan signifikativ ma'no ham umumiy, aynan bo'ladi. Farqlilik esa konnotativ (emotiv) ma'noda yuz beradi. Kulimsiramoq, jilmaymoq, iljaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq sinonimik qatoridagi hamma leksemalarning denotata bitta, umumiydir: ovoz chiqarmay xursandchilikni ifoda qilish uchun bajariladigan ko'z, lab harakati. Jilmaymoq ijobiy konnotativ ma'noga, iljaymoq, irshay¬moq, tirjaymoq, ishshaymoq esa salbiy konnotativ ma'noga ega. Salbiy konnotativ ma'noga ega sinonim leksemalar ham o'zaro salbiylikning darajasiga ko'ra farqlanadi. Masalan, iljaymoq sinonimida salbiydik darajasi kuchsizroq bo'lsa, tirjaymoq leksemasidagi salbiylik esa kuchliroqdir. Ijobiylik yoki salbiylikning oshib va, aksincha, kamayib borishi asosida sinonimik qatordagi leksemalar darajalanishi mumkin: oraz – jamol – chehra – diydor – yuz – bet – aft – bashara – turq. Bunda darajalanish ijobiylikdan salbiylik tomon ortib bormoqda. Ayrim sinonim leksemalarning denotatida ham sezilarsiz farqlilik bo'ladi va o'z-o'zidan signifikativ ma'noda ham farqlilik mavjud bo'ladi. Achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrlanmoq sinonimik qatoridagi leksemalarning denotatlariga e'tibor qilsak, ushbu leksemalar bitta denotatning turli nomlari emas, balki har biri alohida o'zaro yaqin denotatlarning nomidir. Zero, achchiqlanish, g'azablanish va qahrlanish bir turdagi, umumiy belgilarga ega turli hodisalar.

Denotativ ma'nolari bilan farqlanuvchi sinonimlarda bir xil, umumiy atash semalari mavjud bo'ladi. Farqlilik esa bir denotativ sema doirasida kuzatiladi. Sinonimik qator lekse¬malari bitta semaning turli darajalarini ifodalaydi va shu asnoda farqlanadi. Kuchli, baquvvat, zabardast sinonimik qatorida "jismoniy kuchga egalikning ortiqligi" kuchlidan zabardastga tomon darajalanmoqda. Bu kabi sinonimik qatorlarda atash semasi bilan birga ifoda semasining ham darajalanib borishini ko'rish mumkin. Masalan, zukkolik belgisining (denotativ) tadrijiy kamayib borishiga salbiy munosabatning (konnotativ) oshib borishi darajalari to'g'ri keladi: sodda - ovsar - go'l - laqma - pandavaqi - merov. Sinonimiyaning bu turini ayrim tilshunoslar ma'nodoshlik munosabati deb hisoblamaydilar. Bunday ma'no munosabatini mazmuniy graduonimiya deb baholaydilar.

Sinonim leksemalar tilning qanday uslubiga xosligi, qo'llanilish doirasi, leksemaning davrga munosabatiga (yangilik, eskilik, zamonaviylik) ko'ra o'zaro farqlanadi. Buloq, chashma sinonimlaridan buloq so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, chashma badiiy uslubga xos; buyruq, amr, farmon sinonimlaridan amr eskirgan so'z sanaladi.

Yuqoridagi izoh va tavsiflar asosida sinonimlarning turlari haqida aniq bir to'xtamga kelishimiz lozim. Demak, sinonimlarning absolyut/mutlaq sinonim (a); ideografik/semantik sinonim (b); uslubiyk sinonim (v); kontekstual/mantiy sinonim (g); frazeologik sinonim (d) kabi turlarini ajratamiz.

Bizningcha, kontekstual (matniy) sinonimlarni nutqiy sinonim nomi ostida alohida guruh sifatida ajratish lozim. Chunki sinonimlarni teglash jarayonida lug'atda sinonim sifatida ajratilgan va lug'atda ifodalanmagan sinonimlarni teglash turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Korpus uchun sinonimlarni teglashda sinonimlar lug'ati lingvistik ta'minot vazifasini o'tashini inobatga olsak, lug'atda aks etgan sinonimlarni teglash boshqa yo'l bilan, lug'atda aks etmagan, faqat ma'lum nutqiy vaziyatlardagina sinonimlikni yuzaga chiqaradigan (nutqiy) sinonimlarni teglash boshqa yo'l bilan amalga oshiriladi. Lisoniy sinonimlar teglash masalasi quyida, nutqiy sinonimlarni teglash masalasi ishning keyingi qismlarida izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Плунгян В.А. Зачем нужен Национальный корпус русского языка? Неформальное введение / В.А. Плунгян // Национальный корпус русского языка: 2003 – 2005. – М.: Индрик. – С. 6 – 20.
2. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. – Қарши, 2019.
3. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)…дис. афтореф. – Қарши, 2018
4. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. 22-18-б.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. - Тошкент. "Ўқитувчи", 1974.308- б.
6. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.183-б.
7. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексиколосия ва фразеология (Педагогика институтлари филология факультетларининг сиртқи бўлим студентлари учун қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. 25-27- б.

8.Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. 44-45- б.
9. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.32- б.
10. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. Йўлдашев Б.. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланмаси. - Самарқанд: СамДУ нашри, 1998. 200-б.
12.Шамсиддинов Ҳ. Сўзлар функционал-семантик синонимларининг шаклий ва маъновий табиати. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008. 4-b.
13.Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 1997.
14. Bobojonov Sh., Islomov I. O`zbek tilining so`zlar darajalanishi o`quv lug`ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
15. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath). - Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
16.Shukurov O., Bahriddinova B. O’zbek tilining ma’nodosh so’zlar o’quv lug’ati. Maktab o’quvchilari uchun. – Toshkent, 2006.
17.Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996 3; 24-b.
18.https://studme.org/113414/literatura/obschaya_harakteristika_sinonimov_sinonimicheskogo_ryada.

Shoxida ABDULLAYEVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: abdullaevashoxida9@gmail.com

MOLIYAVIY-IQTISODIY MATNLARDA SEMANTIK TARJIMA VA TILDAGI O‘ZGARISHLAR

Annotatsiya: maqolada moliyaviy-iqtisodiy matnlardagi semantik tarjima masalalari, xususan, ayni jarayonda tilda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni samarali tarjima qilish strategiyalari yoritilgan. Tarjima texnologiyalari xalqaro kommunikatsiyani osonlashtirsa-da, tillar va madaniyatlar orasidagi farqlar tufayli semantik muammolar saqlanib qolmoqda. Semantik tarjima asl matnning kontekstual ma’nosini bu farqlarni hisobga olgan holda aniq yetkazishga qaratilgan. Bu yondashuv, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy matnlarda muhim bo‘lib, tarjimonlar terminologik aniqlik va lingvistik moslikni muvozanatlashtirishi kerak.

Kalit so‘zlar: *semantik o‘zgarish, moliyaviy-iqtisodiy matn, lug‘aviy ma’no, leksik moslashuv, semantik tarjima, asl mazmun, murakkab tuzilma, iqtisodiy terminologiya, semantik yaxlitlik, strukturaviy element.*

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы семантического перевода финансово-экономических текстов, в частности, стратегии эффективного перевода языковых изменений, происходящих в этом процессе. Хотя технологии перевода облегчают международную коммуникацию, семантические проблемы сохраняются из-за различий между языками и культурами. Семантический перевод направлен на точную передачу контекстуального значения исходного текста с учетом этих различий. Этот подход особенно важен в финансово-экономических текстах, где переводчики должны соблюдать баланс между терминологической точностью и лингвистической уместностью.

Ключевые слова: *семантическое изменение, финансово-экономический текст, лексическое значение, лексическая адаптация, семантический перевод, исходное значение, сложная структура, экономическая терминология, семантическая целостность, структурный элемент.*

Annotation: the article discusses semantic translation issues in financial-economic texts, particularly focusing on effective translation strategies for managing language changes that occur during this process. While translation technologies facilitate international communication, semantic challenges persist due to differences between languages and cultures. Semantic translation aims to accurately convey the contextual meaning of the original text while considering these differences. This approach is especially important in financial-economic texts, where translators must balance terminological precision with linguistic appropriateness.

Key words: *semantic change, financial-economic text, lexical meaning, lexical adaptation, semantic translation, original meaning, complex structure, economic terminology, semantic unity, structural element.*

Kirish. So‘nggi yillarda moliya bozori munosabatlarining globallashuvi xalqaro iqtisodiy hamkorlik aloqalarida moliya-iqtisod matnlarini aniq tarjima qilishning dolzarbligini oshirdi. Xususan, moliyaviy-iqtisodiy matnlarda semantik tarjimaning murakkabligi oddiy lingvistik o‘zgarishlardan tashqari, ham texnik aniqlik, ham madaniy moslashuvni o‘z ichiga olgan holda o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqarmoqda. Zero, moliyaviy terminologiyaning rivojlanishi va iqtisodiy tushunchalarning tobora murakkablashuvi bu maxsus sohada faoliyat yuritayotgan tarjimonlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda [1: 179]. Binobarin, semantik tarjima va moliyaviy-iqtisodiy matnlarning o‘zaro kesishishi ayniqsa muhim, chunki bu turdagi matnlar ko‘pincha maxsus terminologiya, murakkab konseptual tizimlar va madaniyatga xos iqtisodiy amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, semantik tarjima nafaqat moliyaviy atamalarning texnik aniqligini, balki turli iqtisodiy tizimlar va madaniy doiralardagi kontekstual ahamiyatini ham saqlab qolishi kerak [2: 245]. Vaholanki, “iqtisodiy tilning dinamik tabiati” tufayli atama va tushunchalarning global moliyaviy innovatsiyalar va bozor o‘zgarishlariga javoban doimiy rivojlanib borishi bu vazifani yanada murakkablashtiradi [3: 157]. Bundan tashqari, moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangi iqtisodiy tushunchalarning paydo bo‘lishi madaniyatlararo moliyaviy kommunikatsiyada aniqlik va dolzarblikni saqlab qolish uchun tarjima strategiyalarining doimiy moslashuvini talab qiladi.

Asosiy qism. Hozirgi zamon xalqaro aloqalarida tarjima muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u turli til guruhlaridagi odamlar o‘rtasida axborot almashish va umumiy til topishga yordam beradi. Biroq zamonaviy tarjima texnologiyalariga qaramay, semantik muammolar hali ham sezilarli darajada mavjud. Bu muammolar asosan, turli tillarda g‘oya va fikrlarni ifodalash usullaridagi farqlardan kelib chiqadi. Har bir til o‘ziga xos struktura va xususiyatlarga ega bo‘lib, bu esa boshqa tillarga aniq va to‘liq tarjima qilishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Avvalambor, semantik tarjima – bu tarjima jarayonida asliyat matnning kontekstual ma’nosini imkon qadar to‘liq va aniq tarzda, tarjima qilinayotgan tilning grammatik va leksik birligida ifodalashga qaratilgan usuldir. Bu metod, til va madaniyatlar o‘rtasidagi semantik farqlarni hisobga olgan holda, asliyat matnning muallif tomonidan ifodalangan fikrlarini yoki ma’lumotlarini saqlashga intiladi.

Semantik tarjima jarayonida ikki asosiy strategiya mavjud: birinchisi, tarjima qilayotgan tilning mavjud ifodalash shakllariga asoslanish, ya’ni tarjima qilinayotgan tilga xos sintaksis va leksikaning xususiyatlarini hisobga olish, ikkinchisi esa, asl matnning aniq ifodalarini saqlab qolishga qaratilgan, bu usulda tarjimon asl matnning semantik xususiyatlarini iloji boricha buzmaslikka harakat qiladi, ba’zan hatto so‘zma-so‘z tarjima qilishga ham murojaat qiladi.

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda kontekst muhim ahamiyatga ega, chunki har bir jumla nafaqat terminologiya, balki matnning umumiy semantik mazmunini ham aks ettiradi:

Lingvistik o‘ziga xosligi shundaki, ushbu strategiyada tarjimon matnni tarjima qilinayotgan tilning leksik va sintaktik o‘ziga xosliklariga moslashtiradi. Maqsad o‘quvchiga matnni ona tilida tabiiy va tushunarli shaklda yetkazishdir. Ushbu yuqoridagi fikrlarni misollar orqali quyida tahlil qilsak.

Ingliz tilidagi jumla: *“The balance sheet provides a snapshot of the company’s financial position, detailing its assets, liabilities, and equity at a specific point in time”.*

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Balans jadvali kompaniyaning moliyaviy holatini aks ettiradi, unda uning aktivlari, majburiyatlari va kapitali ma’lum bir vaqtdagi ko‘rinishda bayon etiladi”.*

Bu tarjimada *“balance sheet”* atamasi *“balans jadvali”* deb tarjima qilingan va u o‘zbek iqtisodiy terminologiyasida keng qo‘llaniladi. Ushbu strategiya tarjima qilinayotgan tilga xos uslubiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, mazmunni tushunarli qilib yetkazishga qaratilgan. Shu bilan birga, *“snapshot”* so‘zi o‘zbek tilida *“ko‘rinish”* deb erkin tarjima qilingan, bu esa o‘quvchi uchun tabiiyroq o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bu yondashuv leksik moslashuvni ta’minlaydi, lekin asl atamaning lingvistik o‘ziga xosligi qisman yo‘qolishi mumkin.

Asl mazmunni saqlashga yo‘naltirilgan strategiya yondashuvda tarjimon matnning semantik mazmunini saqlashni ustuvor vazifa sifatida qo‘yadi, hatto ba’zida so‘zma-so‘z tarjimaga murojaat qiladi.

Ingliz tilida: “*Return on investment (ROI)”.*

O‘zbek tilida: “*Investitsiyadan qaytgan daromad”*.

Bu yerda ingliz tilidagi atama *return* so‘zini o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri *“qaytish”* deb tarjima qilmaslik muhim. O‘zbek tilida iqtisodiy mohiyatni aniq saqlash uchun *“daromad”* termini qo‘llanadi. Mazkur strategiya matnni semantik jihatdan to‘liq va to‘g‘ri aks ettiradi, ammo sintaktik soddalikni chetlab o‘tadi.

Ingliz tilidagi jumla: *“Depreciation expense represents the allocation of the cost of a tangible asset over its useful life to match revenues generated by the asset”.*

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Amortizatsiya xarajatlari moddiy aktivning foydali xizmat muddati davomida ushbu aktiv orqali olingan daromad bilan bog‘liq ravishda uning xarajatlarini taqsimlashni ifodalaydi”.*

Inglizcha *depreciation* atamasi so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, *“qiymatning pasayishi”* degan ma’noni anglatadi. Biroq iqtisodiy kontekstdagi ma’noni saqlab qolish uchun o‘zbek tilida *“amortizatsiya”* terminidan foydalaniladi. Shuningdek, *“allocation of the cost”*

ifodasi *“xarajatlarni taqsimlash”* deb aniq va lo‘nda tarzda tarjima qilingan. Bu usul asliyatdagi atamaning ma’nosini to‘liq saqlaydi va o‘zbek iqtisodiy tilining normativ standartlariga mos keladi.

Murakkab tuzilmali iqtisodiy jumlalarni tarjima qilishda asosiy e’tibor nafaqat terminologiyani to‘g‘ri qo‘llashga, balki matnning strukturaviy va semantik yaxlitligini saqlashga qaratiladi. Quyida ingliz tilidan o‘zbek tiliga murakkab iqtisodiy jumlani tarjima qilish xususiyatlari tahlil qilingan:

Ingliz tilidagi jumla: *“The company’s equity financing strategy ensures a lower debt-to-equity ratio, which improves its ability to attract investors and maintain financial stability in the long term”.*

O‘zbek tilidagi tarjimasi: *“Kompaniyaning kapitalni jalb qilish strategiyasi qarz va kapital nisbatini pasaytirishga imkon beradi, bu esa uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni saqlash va investorlarni jalb qilish imkoniyatini yaxshilaydi”.*

Strukturaviy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Murakkab jumlalar tarjimasida sintaktik moslashuv va matnni soddalashtirmasdan saqlash muhim. Asl matnda murakkab tuzilma relativ ibora yordamida yaratilgan:

Asosiy qism: “*The company’s equity financing strategy ensures a lower debt-to-equity ratio”.*

Qo‘shimcha qism: “*Which improves its ability to attract investors and maintain financial stability in the long term”.*

Tarjima jarayonida bu murakkab strukturani saqlash uchun quyidagi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birlashtiruvchi vositalar: O‘zbek tilida *“bu esa”* kabi bog‘lovchi birikmalar qo‘llangan. Bu jumla qismlari orasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniq ifodalaydi.

So‘z tartibining moslashuvi: O‘zbek tilining sintaktik qoidalariga mos ravishda bo‘laklar qayta tuzilgan. Masalan, *“qarz va kapital nisbatini pasaytirish*” kabi ifoda asl matndagi “predicate”ni o‘zbekcha verbal birikmaga moslashtiradi.

Terminologiyaning tarjima xususiyatlari quyidagicha ifodalanadi:

Murakkab iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda terminlarning mazmunini saqlash va ularni maqsad tilga moslashtirish zarur: *“Equity financing strategy”.*

Ushbu atama o‘zbek tilida *“kapitalni jalb qilish strategiyasi”* deb berilgan. Bu tarjima *“equity”* so‘zining iqtisodiy kontekstdagi *“kapital”* ekvivalentini va *“financing strategy”* iborasining *“mablag‘ jalb qilish strategiyasi”* ma’nosini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek iqtisodiy terminologiyasida *“kapital”* atamasi xalqaro iqtisodiy tushunchalarning muqobilidir. Bu xalqaro me’yorlarga mos keluvchi uslubiy yondashuvni aks ettiradi.

“Debt-to-equity ratio” bu ibora *“qarz va kapital nisbati”* deb tarjima qilingan. Ingliz tilidagi ifodaning texnik mohiyati to‘liq saqlangan. Tarjimada *“ratio”* – *“nisbat”* sifatida ko‘chirilgan, bu esa matematik va iqtisodiy terminologiyaga mos keladi. Shu bilan birga, qarz va kapitalni birlashtiruvchi “*va”* bog‘lovchisi o‘zbekcha o‘quvchi uchun matnni tushunishni osonlashtiradi.

Semantik mazmunni saqlash muhim omil sifatida ifodalanadi. Semantik tarjimada asosiy maqsad – asliyat matnning ma’nosini buzmasdan, uni maqsadli tilda qayta yaratishdir.

Sodda va mantiqiy bog‘liqligi: Tarjimada asl jumlaning sabab-oqibat aloqasi *“qarz va kapital nisbatini pasaytirish... moliyaviy barqarorlikni saqlash va investorlarni jalb qilish imkoniyatini yaxshilaydi”* qatorida saqlangan.

Mazmunni saqlash: *“Financial stability”* iborasi *“moliyaviy barqarorlik”* deb aniq tarjima qilingan, bu esa mazmunni xalqaro moliyaviy atamalarga mos ravishda yetkazadi.

Stilistik moslashuv. Tarjima jarayonida ingliz tilining rasmiy uslubdagi murakkab tuzilmalari o‘zbekcha iqtisodiy matn uslubiga moslashtirilgan. Ingliz tilidagi qisqa, murakkab iboralar o‘zbek tilida erkinroq va aniqroq tuzilgan. Tarjima rasmiy uslubni saqlagan holda, o‘zbek tilida tushunarliroq shaklga keltirilgan. Bu tarjimaning professional iqtisodiy matnlarga mos tushishini ta’minlaydi. Mazkur yondashuv murakkab strukturalar tarjimasida nafaqat terminologiyani, balki matnning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini ham saqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdiki, moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda, lingvistik o‘ziga xosliklarga asoslangan strategiya matnni o‘quvchiga qulay va tushunarli yetkazishda ishlatiladi. Asl mazmunni saqlash strategiyasi esa matnning texnik va semantik jihatdan aniq aks ettirilishini ta’minlaydi. Moliyaviy matnlarni tarjima qilishda tarjimon kontekstni tahlil qilib, strategiyani moslashuvchan qo‘llashi kerak. Shu orqali matnning iqtisodiy mohiyati ham, uning tilga mosligi ham ta’minlanadi. Murakkab sintaktik tuzilmalarning moslashuvi ingliz tilidagi murakkab gaplar o‘zbekcha so‘z tartibiga moslashtirish orqali asliyatdagi mantiqiy aloqalar buzilmasligiga erishishga yo‘l ochiladi. Mazkur yondashuv murakkab strukturalar tarjimasida nafaqat terminologiyani, balki matnning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini ham saqlash imkonini berishi dalillanadi.

E’tirof etish joizki, semantik tarjima jarayonida ekspressiv va strukturaviy elementlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, matn mazmunini to‘g‘ri va mantiqiy yetkazishni ta’minlaydi. Ekspressiv elementlarga umumiy leksik ifodalar, stilistik vositalar, metaforalar va tipik madaniy belgilarning tarjimasi kiradi. Strukturaviy elementlarga esa sintaktik tuzilmalar, morfologik shakllar va punktuatsiya belgilari kiradi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda bu elementlar ayniqsa muhim,

chunki bunday matnlar terminologik aniqlik, uslubiy mustahkamlik va madaniy moslikni talab qiladi. Quyida buni tahlil qilish uchun iqtisodiy matndan olingan jumla asosida misol keltiramiz:

Ingliz tilidagi jumla: "*The volatility of the foreign exchange market requires strategic hedging mechanisms to mitigate potential risks and stabilize corporate cash flows".*

O'zbek tilidagi tarjimasi: *"Valyuta bozoridagi o'zgaruvchanlik korporativ pul oqimini barqarorlashtirish va ehtimoliy xavflarni kamaytirish uchun strategik himoya mexanizmlarini talab qiladi".*

Ekspressiv elementlar – bu jumladagi ma'no va hissiy ranglarni yetkazishga xizmat qiladigan vositalardir. Jumlada quyidagi elementlar mavjud: "*Volatility of the foreign exchange market".* Tarjimada "*Valyuta bozoridagi o'zgaruvchanlik"* iborasi ishlatilgan. Bu ibora, asl matndagi *"volatility"* so'zining ekspressiv ma'nosini, ya'ni *bozorning o'zgaruvchan* va *xavfli tabiatini* aniq ifodalaydi.

Ekspressiv ma'noni to'g'ri yetkazish moliyaviy atamalarning madaniy va ijtimoiy kontekstini hisobga olishni talab qiladi. *"O'zgaruvchanlik"* o'zbek tilida xalqaro moliya terminologiyasiga mos keluvchi atama sifatida tanlangan. *"Strategic hedging mechanisms"* iborasi *"strategik himoya mexanizmlari"* deb tarjima qilingan. *"Hedging"* so'zini *"himoya qilish"* deb umumlashtirish ekspressiv ma'noni kamaytirmagan, aksincha, uni iqtisodiy faoliyatning kontekstiga moslashtirgan. Metaforik ma'noga ega bo'lgan *"hedging"* so'zi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmasdan, iqtisodiy kontekstga mos ravishda ishlatilgan, chunki bu ibora moliyaviy xavflarni boshqarish mexanizmlarini anglatadi.

Strukturaviy elementlar jumladagi sintaktik va morfologik tuzilmalarning maqsad tilga mos ravishda qayta tashkil etilishini o'z ichiga oladi:

Sintaktik tuzilma. Ingliz tilidagi murakkab gapning qismi bo'linib, o'zbek tilida ikkita qisqa, mantiqan bog'langan jumlaga aylantirilgan: *"Valyuta bozoridagi o'zgaruvchanlik korporativ pul oqimini barqarorlashtirish...", "...va ehtimoliy xavflarni kamaytirish uchun strategik himoya mexanizmlarini talab qiladi".*

O'zbek tilida murakkab gaplarning qismlari ko'pincha soddalashtiriladi yoki so'z tartibi o'zgartiriladi. Bu o'quvchi uchun tushunarliroq matn yaratishga xizmat qiladi.

Morfologik shakllar. *"Requires"* fe'lining ma'nosi o'zbek tilida *"talab qiladi"* shaklida ko'chirilgan. Bu morfologik moslik sintaktik mantiqni saqlashga xizmat qilgan. Ingliz tilidagi fe'l va uning ergash gapidagi rolini o'zbek tilida alohida so'zlar yordamida ifodalash talab etiladi.

Punktuatsiya. Ingliz tilida vergul va boshqa punktuatsion vositalar murakkab gap qismlarini ajratish uchun ishlatilgan. O'zbek tilida esa bu bog'lovchi iboralar ("va", "uchun") yordamida amalga oshirilgan. Har bir tilning punktuatsion qoidalari mazmunni tushunishga yordam beradi, bu esa tarjimada hisobga olinishi zarur.

Demak, semantik tarjima jarayonida ekspressiv va strukturaviy elementlarning birgalikda ko'rib chiqilishi matnning umumiy ma'nosini, mantiqiy bog'lanishini va stilistik yaxlitligini saqlashga yordam beradi. Moliyaviy-iqtisodiy kontekstdagi murakkab jumlalarni tarjima qilishda bunday yondashuv tilning texnik va madaniy jihatlarini qamrab olishni ta'minlaydi.

Xulosa. Keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, semantik tarjimaning mohiyati shundan iboratki, u faqat asl matnning lug'aviy ma'nosini emas, balki uning ijtimoiy, madaniy va psixologik kontekstlarini ham hisobga oladi. Bu, ayniqsa tilning turli madaniyatdagi ta'siriga bog'liq bo'lgan, o'zaro semantik tafovutlarning o'ziga xosligini inobatga olishni talab qiladi. Masalan, ba'zi tillarda muayyan atamalar yoki iboralar mavjud bo'lmasligi yoki ular boshqa ma'nolarni anglatishi mumkin. Shuningdek, ba'zi lug'aviy birliklarning tarjimasi murakkab bo'lishi mumkin, chunki ular o'z madaniyati va tarixiy kontekstiga bog'liq.

Umuman olganda esa, semantik tarjimaning afzalligi shundaki, u asl matnning barcha semantik qatlamlarini (ya'ni, yuzaki va chuqur ma'no qatlamlarini) tarjima qilinayotgan tilga iloji boricha aniq o'tkazishga imkon beradi. Bunda, asosan, ma'lumotning to'liqligi va tarjimaning madaniy mosligi saqlanadi. Shuningdek, semantik tarjima usuli, ayniqsa matnning til tizimi o'zgarmasligiga e'tibor qaratilsa-da, ba'zi holatlarda asl ma'lumotni aniq va to'g'ri tarzda yetkazish uchun ba'zan so'zma-so'z tarjimaga, shuningdek, madaniy moslashtirishlarga ham ehtiyoj seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Baker M., Saldanha G. Routledge encyclopedia of translation studies (3rd ed.). – London: Routledge, 2021. – 900 p. https://doi.org/10.4324/9781315678627.

2.Munday J. Introducing translation studies: Theories and applications (4th ed.). – London: Routledge, 2016. – 394 p. https://doi.org/10.4324/9781315691862.

3.Newmark P. A textbook of translation: Theory and practice. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2018. – 292 p.

Zoxira XIDRALIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dots.v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

IQON SHEVASI LEKSIKASINING MAVZUVIY GURUHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilining kichik bir bo‘lagi sifatida o‘zining lug‘at tarkibida ko‘plab umumturkiy va umumo‘zbek shevalariga xos so‘zlar bilan birga rang-barang maxsus dialektal so‘zlarni saqlab kelayotgan Iqon shevasining ayrim ma’noviy-mavzuviy guruhlariga xos xususiyatlar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: *adabiy til, sheva, leksika, leksik tarkib, dialektal so‘z, lahja.*

Аннотация: *в данной статье освещаются особенности некоторых семантико-тематических групп Иканского диалекта, сохраняющих в своем лексическом составе различные особые диалектные слова наряду со многими общетюркскими и общеузбекскими диалектными словами, как малой части узбекского языка.*

Ключевые слова: *литературный язык, лексика, лексическое содержание, диалектное слово, диалект.*

Annotation: this article highlights the features of some semantic and thematic groups of the Ikan dialect, which retain various special dialect words in their lexical composition along with many common Turkic and common Uzbek dialect words, as a small part of the Uzbek language.

Keywords: *literary language, vocabulary, lexical content, dialect word, dialecticism.*

Ma’lumki, o‘zbek shevalarining leksik tarkibi nihoyatda boy va rang-barang. Jumladan, Iqon shevasining lug‘at boyligida ham o‘zbek adabiy tili va boshqa shevalarda uchramaydigan turli leksik birliklar mavjudki, bunday o‘ziga xoslik, ayniqsa, uning mavzuviy guruhlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ayni bir tushunchani ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlar o‘zbek shevalarida xilma-xil, chunki bu shevalar yagona umumxalq o‘zbek tiliga mansub bo‘lsa-da, ular turli lahja, dialekt va shevalarga bo‘linadi. Tabiiyki, bunday farqlar turli areallarda yashovchi sheva vakillarining tabiatga, o‘zlarini o‘rab turgan atrof-muhitga, jamiyatga hamda bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari, turmush tarzi, tafakkuri, madaniy saviyasi, dunyoqarashi va mehnatga munosabatlari bilan bog‘liq ravishda adabiy tildan va shevalararo farqlanuvchi dialektal so‘zlar yuzaga keladi.

Quyida Iqon shevasi leksik tarkibidagi so‘zlarning mavzuviy guruhlarini ko‘rib chiqamiz.

Oziq-ovqat nomlari. Ularni o‘z navbatida yana quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

taom nomlari: *tamaq* (ovqat), ***gürüš*** *a:š* (mastava), *u:maš* (umoch- xamirini kaftda uvalab tayyorlanadigan suyuq osh), *pul aš // tä:ŋgä* ***a:š*** (xamiri 1sm^2 qilib kesiladigan suyuq osh), ***ja:vγana:š*** (go‘shtsiz tayyorlangan, qatiq qo‘shilmagan suyuq ovqat), *kö:ʒä* (go‘ja), ***sö:ka:š*** (so‘kdan tayyorlangan suyuq ovqat), *bašmaltaq* (***xamiri 2sm***^{2} qilib kesiladigan quyuq ovqat), *xa:mïr* (shilpildoq), *qa:vušqulaq* (xamiri qalinroq yoyilib, to‘rtburchak shaklda kesiladi hamda bo‘lakchalarning ikki burchaklari romb shaklda birlashtiriladi. Xamiri suvda pishirilib, ustidan qayla solinib tanovul qilinadi), *ba:šma:ltaq* (xamiri qalin yoyilib, kichkina kvadrat shaklda kesiladi, suvda pishirilib olinadi va ustiga qayla solib yeyiladigan ovqat), ***čüšbärä*** (chuchvara), *qo:γïrtaq* (qovurdoq), *bo:lamaq* (atala – yog‘da unni kuydirib, so‘ngra suv qo‘shib tayyorlangan suyuq taom), *jupqa* (chalpakning qiyma tayyorlab o‘ralgan turi), *čo:zma* (yog‘da pishirilgan pishiriq turi), *sirg**ürüš*** (shirguruch), *buγdaj aš // qajïš aš* (lag‘monga o‘xshatib kesilgan xamir ovqat), ***sö:ktär*** (so‘kni qaynatilgan suvda ivitilib, saryog‘ va shakar aralashtirib tayyorlanadi);

oziq-ovqat uchun ishlatiladigan mahsulotlar nomi**:**

a:γ u:n, qa:ra u:n, et (go‘sht), *qaq et* (tuzlab, quritilgan go‘sht), *qarak**äsä**k* (yog‘siz, tuzlab quritilgan go‘sht), ***sü:r*** **et** – tuzlab, qoqlangan go‘sht, *no:š pij:az* (urug‘i olinadigan piyoz), ***mä:skämaj*** (tabiiy uy sharoitida, kuvida tayyorlangan sariyog‘), *sa:rïmaj* (kuydirilgan sariyog‘ning, ya’ni durdaning ustki qatlami, tuzsiz turi), *to:tramaj* (sariyog‘ni qizdirganda tagida qoladigan cho‘kma, tuzli qismi), *qujruq* (dumba), *qujruqma:j* (eritilgan dumba yog‘i), ***čä:rbimaj*** (molning ichak atrofidagi yog‘i), *toŋmaj* (eritilgan charvi yog‘i), *a:mïtqa maj* (omuxta yog‘), *a:šγan xamir* (non yopish uchun achitilgan, tayyor xamir), *pistamaj* (paxta yog‘i, har qanday o‘simlik yog‘i), *xamba:ja* (uy sharoitida maxsus tayyorlangan xamirturush), *tu:zsu:* (tuz eritilgan suv, namakob) va b.;

3) ichimlik nomlari: *da:γsu:(v)* (qaynagan suv), *bo:za* (bo‘za – arpa, bug‘doydan tayyorlanadigan kayf beruvchi ichimlik), *čala:p* (qatiq yoki suzmani suv qo‘shib suyultirish), *ajran* (kuvida pishib, yog‘i olingandan

keyingi suyultirilgan *qatiq), sü:t* (sut), *a:γarγan* (sut va sut mahsulotlari), ***sü:tča:j*** (achchiq pamilchoyga sut qo'shib tayyorlangan choy), *qurta:ba* (qurutni suvda ezib tayyorlangan ichimlik), *qïmïz* (ot sutidan maxsus achitish yo'li bilan tayyorlangan shifobaxsh ichimlik), *qïmran (*tuya sutidan tayyorlangan ichimlik);

4) non nomlari: *patir* – xamirturush qo'shmasdan, ya'ni achitilmasdan tayyorlanadigan non turi. Uning *ta:z pätir* va *maj pätir* kabi turlari mavjud. *Ta:z pätir* (yog'siz, achitmasdan, faqat piyoz va garmdori qo'shib *tayyorlangan non turi*). *T*a:z leksemasi shevada *kal ma'nosida* qo'llanadi, shu bois ham yog'siz patirni *ta:z patir* deyishadi. *Maj pätir* (yog'li patir), *qatlama pätir* (patirning yog'li va qatlam-qatlam qilib pishirilgan turi), *a:šïrγan nan* (patirning zidi, ya'ni oddiy oshirma xamirdan tayyorlangan yumshoq va bo'rsildoq non), ***kü:lčä*** (tarkibida yog', sut bo'lgan, hajm jihatidan nondan kichik va tirnoq bilan ishlov berilgan non turi), *to:qaš* (to'qoch, bo'g'irsoqning turi), ***kö:mäš*** (ko'moch, ya'ni tandirdan oqib, issiq kulga pishgan non), ***pö:lkäna:n*** (bulka), *pičina:n* (pechenye), *pišmä* (pishiriq);

5) ovqat tayyorlash jarayonida qo'llanuvchi so'zlar: *zuva:la* (yumaloqlangan, ma'lum miqdordagi xamir), *ja:praq* (shilpildoq xamirining bir parchasi), š***ö:rtäk*** (nordon), *ilmä* (qaynagan sut tepasida hosil bo'luvchi parda), *joγïrïš* (xamirni qorish).

6) ba'zi shirinliklar nomi: *qumšäkär* (shakar), *qaqa-quqa* (to'ydan to'yga yuraverib, eskirib ketgan konfetlar), š***ö:rtäk*** (shimadigan konfet), ***čü:ǯik*** (iris, konfet va shokolad kabi shirinliklarning umumiy nomi), *väri:jnä* (murabboning turi), *kä:mpit* (konfet), ***kä:lläqant*** (qandning yirik turi), *čaqmaqqant* (kallaqandning maydalangan turi), *qa:q* (quritilgan mevalar: **ö:**rik qa:qï, qa:γun qa:qï, a:lma qa:qï), *qa:nqurt* (qovunni qaynatib, quritib tayyorlanadi) va b.

Kiyim-kechak nomlari. Ushbu guruhga kiyimlarning umumiy, aniq xillari nomi, shuningdek, kiyimlarning biror qismi nomi, kiyim materiallariga oid leksemalar kiritildi:

bosh kiyim nomlari: *ta:qïja* (do'ppi), *tumaq* (yelka va quloqlarni berkitib turuvchi, ko'pincha tulki mo'ynasidan tikiluvchi telpak), ***bö:rk*** (bosh kiyim), *qula:qčïn, qa:šbaq* (peshonani tang'ish uchun mo'ljallangan kichik ro'mol), *joma:l* (ro'mol), *je:läk* (ayollar boshiga tashlanadigan maxsus tikilgan kiyim), *läčäk* (ayollar boshiga kiyiladigan o'rama);

ustki kiyim nomlari: *ǯi:letkä* (nimchaga nisbatan ixcham, tanaga yopishib turadi), *i:tk**öjn**äk* (mayin materiallardan chaqaloqlar uchun qulay qilib tikiladigan ko'ylak), *kämzu:l* (kostyumning turi), *to:n* (qo'yning terisidan tayyorlangan ichki tomoni junli, issiq po'stin), *ča:lbar* (shalvar, shim);

oyoq kiyim nomlari: *kä:piš // tä:piškä* (tapochka), *sandal* (bolalarning yozgi oyoq kiyimi), *mä:ssi* (mahsi), *kä:lävüš* (kalish), *ta:škä:lävüš* (qattiq materialdan tayyorlangan), *ča:rïq* (kovushning turi), ***ö:tik*** (etik: ki:jgiz ***ö:tik, re:zi***ŋkä ***ö:tik***), ***bo:tïj*** (yomg'irda kiyish uchun mo'ljallangan rezina etik);

4) kiyim qismlarining nomi: *balaq* (pocha), *boγma jaqa* (bo'g'ma yoqa), *čö:nčäk* (cho'ntak, kissa), ***o:mïz* (yeng),** *ädib* (ko'ylakning qayriladigan etak qismi), *a:rqalïq* (ayollar ko'ylagining ko'krak qismiga tikiladigan astari), *išta:nba:γ* (ipakdan to'qib tayyorlangan, shalvar va ishtonlar uchun rezinka vazifasini bajargan).

Ma'lum vaqt, fasl va mavsum bilan bog'liq nomlar: *bursugun* (indinga), *ta:lčü:š // qa:qčü:š* (ayni tush payti), *bünnä*:k*ün* **(**o'tgan kuni**)**, *bunna:γïjïl* (o'tgan yili), *e:r* (vaqtli), *bemäzgil* (bevaqt), *buruŋγï* (oldingi), **azan** (tong yorishgan payt) *aza:nnap* (ertalab), *a:zanda* (ertaga), ***ä:rtäŋ*** (ertaga), *šugäz* (shu payt), *šumä:äl* (shu mahal), *a:ra-ču:ra* (ba'zida), *sä:r* (sahar), ***äskidin*** (ilgari, burun), *jä:gädä* (gohida, ba'zida), *kü:zläj* (kuz bo'yi), *ja:zlaj* (yoz bo'yi), *qïrqïm* **(**payt), ***tö:lgä:zi*** (qo'zilash mavsumi), *qa:γun pišïγï* (yoz, qovun pishadigan payt), *qa:raŋγïqïšda* (qahraton qish payti), *buγda:jpišïγïda* (bahorning so'nggi kunlari).

Tabiat bilan bog'liq so'zlar: *qarasavuq, japalaq qa:r, no:šar* (do'l), ***tügünčäk*** (mayda do'l), *ja:γïn-če:čin* (yog'inli kunlarga nisbatan aytiladi), *ǯïq* (shudring), *izγa:r* (qattiq sovuq), ***üšik*** (sovuq urishi).

O'lchov, miqdor ifodalovchi so'zlar. Iqon shevasidagi o'lchov-miqdor ifoda etuvchi so'zlar umumo'zbek tilidan deyarli farq qilmaydi. Ammo ularning shakli va talaffuzida shevaga xosliklar bor*: qačavuš* (hovuch), *jo:maq* (zuvaladan yulib olingan kichik xamir bo'lagi), *qa:rïš* (qarich), *ä:li (bir ä:li, i:kki ä:li* – barmoq hajmidagi o'lchov birligi: *be:š qa:rïš i:kki ä:li), qïja:* (*bir qïja: ǯa:j* – ancha uzoq joy).

Yaqinlik va qarindoshlikni anglatuvchi so'zlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) yaqinlikni ifoda etuvchi so'zlar: *do:s* (do'st), *e:š* (dugona), *tavušqa:n* (qarindosh), *atalaš* (ota urug'idan bo'lgan qarindoshlar), *ǯägǯa:d* (uzoq qarindosh), *a:γajnï* (qarindosh), *qaraγan* (urug' toifalari: *ha:ǯïxï:l, so:bïxï:l, xo:ǯa, toqlï...), to:γγan ata* (o'z otasi), *kä:linqï:z* (qarindoshga tushgan kelin), *qï:z qo:ndï* (quda tushdi), *ba:j* (er, turmush o'rtoq), *kä:nna:ja* (kelinoyi), ***da:da*** (otaning do'sti)*;*

2) qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar: *a:ja* (ona), *a:pa* (buvi), *ä:ttä* (dada, aka), *to:tï* (opa), *a:jto:// a:jto:tï* (opajon), *ini* (uka), *kälin-kä:ǯäk* (yosh kelin-qizlar), *hä:mä* (amma), *hä:mäto:tï* (ammasining qizi), *äkäǯi* (egachi), *ba:ldïz* (qayinsingil), *je:znä* (pochcha), *bö:lä* (xolavachcha), *ǯe:n* (jiyan) va b.

Ba'zi mayda jonivorlar va hasharotlar nomi. Bu guruhga kiruvchi leksemalarni ham ikki guruhga bo'lish mumkin:

mayda jonivorlar nomi: *čopaq* (kaltakesak), *jarγa:nat* (ko'rshapalak), *zäväräk* (suvarak), *qo:šajaq čišqan* (yumronqoziq);

hasharotlar nomi: *čibin* (pashsha), *jo:lčibin* (pashshaning turi), *qavuzγa:n* (qora qo'ng'iz), *a:j (qïzïla:j, sa:rïγa:j, qa:baγa:j* – ari va uning turlari),

čö:kirtkä (chigirtka), *äpäläk* (kechqurun chiroq atrofida uchadigan parvona), *ǯuma:l* (chumoli), *majǯuma:l* (mayda chumoli).

Qurilish, joy, o‘rin bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar:

joy, o‘rin anglatuvchi so‘zlar: *qula:q ba:šï, a:jda:la* (keng dala), *jilan jo:l, bi ajaq jo:l,* ***čoqalaq*** (chuqurcha), ***bosaγa*** (ostona), *qara jo:l* (qishloq o‘rtasidan o‘tgan magistral yo‘l), *kültäpä, tö:män, qa:rïq, a:tïz;*

binokorlik va yashash joyi bilan bog‘liq tushunchalar nomi: *hajva:n* (ayvon), *ö:j* (uy), *kätt(ä) ö:j* (ota-ona istiqomat qiladigan hovli barcha farzandlar uchun katta uy sanaladi), *a:γö:j* (uyning mehmon kutadigan xonasi, zal), *kiškin(ä)ö:j* (bolalar xonasi yoki yotoqxonasi), *tünäk, ravaq, ašqultaq* (zina), *bädräp // ubornij* (hojatxona), *pisäk* (hovli devori);

bino, qurilishning qismlari va qurilishga daxldor ba’zi qurol-aslahalar, materiallar nomi: *zulpinǯa* (zanjir), *jo:maz* (yumaloqlangan loy), *kilt* (kalit), darancha (fortochka, tunakka havo almashinishi uchun qo‘yilgan), *kä:n, käsäk dava:l* (devor), *pa:xsa dava:l, balar* (to‘sin), *la:jsuvaq, a:jna* (deraza), *tündük* (tuynuk), *te:k* (tokcha).

Uy-ro‘zg‘or buyum nomlari. Bu guruhga konkret buyumlar, ro‘zg‘or asboblari, ularning ayrim qismlari, buyumlarni tayyorlashda foydalanilgan material turlari va hokazolar kiradi.

uy-ro‘zg‘or buyumlarining umumiy nomi: *duqa:ba* (kosa), *käväš* (sopol idiš), *ča:lγï* (ovqatni suzish asbobi), *täli:ŋkä* (tarelka), *čïpta* (qamishdan to‘qilgan predmet, pishirilgan xamirni yoyib, sovutish uchun mo‘ljallangan);

uy jihozlari nomlari: *a:bdïra* (katta sandiq), *te:kčä* (kichik sandiq), *ča:čïq* (dasturxon), *qo:raq kö:rpäčä, so:zan,* (so‘zana), *tuginčäk* (bo‘g‘cha), *pö:stäk* (qo‘y-echkilarning terisidan tayyorlangan to‘shama);

biror ishni bajarishga xizmat qiluvchi qurol va vositalar nomi: *je:ŋsäk,* (tandirning haroratidan saqlanish uchun non yopganda qo‘lga kiyiladigan moslama), *lä:ptä* (nonni tandirga yopishda qo‘llanadigan moslama), *a:t do:rba* (otlarga yem yedirishda ot boshiga osiladigan xalta), *ǯa:m* (kir yuvishga mo‘ljallangan katta tos), *i:lgäk* (eshik, deraza, sandiqlarni berkitish uchun moslangan qism), *sü:zäläk* (sut suziladigan asbob), *ö:lčäk* (sut o‘lchagich), *täŋiz äläk* (teshiklari katta g‘alvir), *käna:ra* (go‘sht ilish uchun yog‘och yoki temirdan yasalgan moslama), *ortmoq* (go‘shtni yoyib yoki savatdagi qurutni ilib, quritish uchun ishlangan moslama);

idish nomlari: *mo:ndï* (katta sopol idish), *tabaq* (tovoq), *täkäš* (tog‘oradan kichik tovoqdan katta sirli idish), *tu:zlïq* (tuzdon), *čila:pčïn* (qo‘lga suv quyishda ishlatiladigan mis idish), *čö:bäläk* (sopol idish), *qa:pčïq* (kichik qop).

Organizm va uning muchalariga oid so‘zlar:

tashqi muchalar: *qa:lǯa* (gavda), *maŋnaj* (peshona), *če:š* (soch), *murt* (mo‘ylov), *čat* (ikki oyoq orasi), äŋäk (iyak), *čatanaq* (ikki oyoq orasining eni), *činataj* (kichkina barmoq), *alaqa:n* (kaft), äzik (labning burchagi, ikki lab tutashgan joy), *šavšaq* (barmoq), *ba:šmaltaq* (boshbarmoq), *ä:nsä* (ensa), *o:mrav* (yelka), *bö:ksä* (beldan past qism), *baqaj* (baqbaqa), *si:jraq* (oyoq soni), *taqïm* (tizzaning bukiladigan orqa qismi) va b.;

ichki muchalar: ***bü:r*** (oshqozon buri), *čuv* (hayvon tuqqanda tushadigan yo‘ldosh), *jaq* (jag‘), *zä:rä: zä:räsi ja:rïldï* (o‘t qopi), *tö:š* (qovurg‘a osti go‘shti), *qa:pïrtqa* (qovurg‘a), *qursaq* (qorin), *bayïr* (jigar), *ja:tïr* (bachadon), *julun* (kishi markaziy nerv tizimining umurtqaga joylashgan qismi, orqa miya), *käpirčäk* (burun suyagi), *qujmïš* (dumg‘aza).

Ba’zi kasalliklar nomi: *kö:jdirgi, köza:rïq* (ko‘z og‘riq), *maŋqa* (dimog‘ida gapiruvchi), *bïdïq* (tushunarsiz, tez gapirish), *sïzlavuq* (chipqon), *tämirätkä, u:čïq, učïnïq, čïlpïq* (ko‘z yiringi), *ni:näči* (govmichcha), *ïrïn* (yiring), **ïš** (shish), *jerik* (boshqorong‘i, toksikoz), *šapaq* (shabko‘r), *tilkičäk* (tilga chiqadigan yara), *qïlï:j* (g‘ilay), *qa:qrïq* (balg‘am), *siŋir* (so‘gal), *jel qa:ršïš* (qorin damlik), *gära:n* (kar, garang), *mïšlaq* (burni oqib yuruvchi), *päkältäk* (past bo‘yli), *damba* (juda semirib ketgan), *taz* (kal), *mögädäk* (tug‘ma nogiron), *quniš* (bukri), *po:pa* (qizilcha).

To‘y marosimi bilan bog‘liq so‘zlar: *pa:ta:š // kičiga:š ~ fotiha oshi, kü̈jövsalam, qï:zkö:rdi, kü̈jövta:lat, be:šikkä:rtik // qula:γïnï čišlätkän* ~ chaqaloqligida unashtirib qo‘yish. *Gilämqa:qtï, bäta:čar, a:š, ča:jišti, ǯümä* (chaqiriq, charlar), *zija:pat* (kuyovning do‘stlariga kelin tomonidan beriladigan ziyofat), *ja:stïqqo:ra:t* (yostiq quramoq) tadbiri nikohdan bir kun avval kunduz kuni qizning xonadonida xatm qilib, qarindosh-urug‘lar, qudalar mehmon qilinadi. *kä:jtastï, šo:rpa, kö:šäŋgäče:šti, qudata:nïšu:(v), kä:jt ta:naš, kä:linčü:šti, qï:zčïqa:rdï, kü̈jövkö:rdi (kü̈jövsala:m), bo:sayaba:stï, pa:xtasa:lïš, jo:lto:sïš, ja:stïqba:šï* ~ kuyov tomonidan yangalarga atalgan suyunchi puli; *tü:bäš* ~ turli munosabatlar bilan (sovg‘a, tog‘ora va shunga o‘xshash narsalar bilan) yo‘qlash; ***gülta:qqan e:š*** (eng yaqin dugonasi), *köza:jdïn, kä:nba:šï, če:čü:(v), mäslä:ta:šï* ~ sunnat to‘yidan oldin qarindosh va do‘st-u yorlar bilan yig‘ilib, to‘yni o‘tkazish haqida maslahat qilinadigan tadbir, ***gilämqa:qtï*** – qizko‘rdi (katta osh kuni kechqurun bo‘ladigan bazm), qizning dugonalari va yigit tomonidan kelgan yosh-yalang qizlar ishtirokida o‘tadigan bazm. Turkiston shahrida ***gilämqa:qtï*** – bolalar sunnat qilinganda, ertasiga qarindosh-urug‘larga beriladigan yengil ziyofat.

Xulosa shuki, Iqon shevasi leksikasidagi turli mguruhlar va ularga oid dialektal so‘zlarning o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalari leksikasidan keskin farq qilmagan holda, mazkur shevada shevalararo farqlovchi dialektal leksikaning mavjudligi Iqon arealining O‘zbekiston hududidan tashqarida Qozog‘iston Respublikasida mustaqil rivojlanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, sheva vakillarining geografik areali, ijtimoiy faoliyati, tabiat hodisalariga munosabati, turmush va yashash tarzi, urf-odat, rasm-rusmlari, dunyoqarashi kabi qator omillar bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966.
3. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.
4. Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросими номлари: филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001.
5. Xidraliyeva Z. Iqon shevasi hamda Alisher Navoiy asarlari tilida leksik moslik // Til va adabiyot.uz – Toshkent, 2023, №11.
6. Xidraliyeva Z. Iqon shevasi leksikasining o‘zbek adabiy tiliga munosabati // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. – Termiz, 2023, № 10/11.

Mahbuba AXATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
f.f.d. (DSc)

“PIRI MUG‘ON” BIRIKMASINING TASAVVUFIY SHE’RIY MANBALARDA KELGAN MA’NOLARI TAHLILI

Annotatsiya: tasavvufiy she’riyat namunalarida, ayniqsa, Boborahim Mashrab va Ahmad Yassaviy ijodida ko‘p uchraydigan “piri mug‘on” birikmasining leksik-semantik xususiyatlari xususida mulohaza yuritilgan, mazkur birikmaning manbalarda uchraydigan ma’no ottenkalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik xususiyat, birikma, tasavvuf psixologiyasi, tasavvufiy she’riy manba, birikma ma’nosi, ma’no ottenkasi, robita, nozik ma’no, dastlabki ma’no, turli nozikliklar bilan tasvirlash, tub mohiyatni so‘z orqali ifodalash.*

Аннотация: в образцах мистической поэзии, это особенно отражено на лексико-семантических особенностях комбинации “пири мугана” у Баборахима Машаба и Ахмада Яссави, источник значения произошел в источниках этого соединения, выявленные.

Ключевые слова: *лексик-семантический особенности, составной, мистический психология, значение для мистического стихотворения, сема составной, семантический оттенка, робита (психиатрический), смысл, предварительное значение, иллюстрация, выражение окончательной сущности словом.*

Annotation: the aphic features of the “pies coat” in mystical poetry, especially in the Bababochahim of Jassab and Ahmad Yasabi, are mentioned in the sources of the values found in the sources.

Key words: *lexical-semantic, composite, mystical pool, meaning, meaning for a mystical poem, meaning, is the value of the meaning, value, the main value, many tons, is the value of the value.*

Tasavvufiy she’riyatda shaxsning Mutlaq haqiqatga erishish bosqichlaridagi sirli xayollari bo‘yoqdor tasvirlanadi, insonning ruhiy hayoti, yuksak va murakkab psixologik holatlari chuqur tadqiq etiladi. Quyida mumtoz she’riyat namunalarida, ayniqsa, Boborahim Mashrab va Ahmad Yassaviy ijodida ko‘proq uchraydigan ***piri mug‘on*** birikmasi xususida mulohaza yuritiladi:

Piri mug‘on nazar qildi, sharob ichtim,
Shibliy yanglig‘ samo’ urub jondin kechdim,
Sarmast bo‘lub yer ostig‘a kirdim mano.
Qul Xoja Ahmad, men daftari soniy ayttim,
Ikki olam ishratlarin mayga sottim [2, 33].

Baytdagi “***Mug‘on***” so‘zi hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilmaydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “***mug‘***” ifodalangan va bu so‘zga ham esk. belgisi qo‘yilgan hamda uning dastlabki ma’nosi quyidagicha izohlangan:

“***Муғ*** *(ф-т) эск. 1. Зардўшт динига мансуб киши: оташпараст. Оташпарастлар руҳонийси; коҳин”* [1].

O‘zbek tilidagi fors - tojik tilidan kirgan “Nag‘ma chaluvchi sozanda, nag‘ma bilan qo‘shiq aytuvchi xonanda” mazmunini anglatuvchi ***mug‘anniy*** so‘zi bilan “***mug‘***”ning bog‘liqligi bo‘lishi mumkin.

Chunki “***mug‘***” mumtoz poetikada “mayxona egasi; mayfurush” mazmunini anglatish maqsadida qo‘llanilganini uchratish mumkin hamda mug‘anniy anglatgan ma’no bilan “***mug‘”***ning ko‘chma ma’nosi orasida ma’lum bir o‘xshashlik va yaqinlik mavjud. Ya’ni, nag‘ma bilan chalingan kuy ham, kuylangan qo‘shiq ham mayfurush (ya’ni mug‘) quyib bergan sharob kabi ma’lum darajada mast qilish xususiyatiga ega.

Piri mug‘ondagi ***mug‘on***ga keladigan bo‘lsak, “***Piri mug‘on*** nazar qildi sharob ichdim, Shibliy yonglig‘ samo’ urub, jondin kechdim” deyiladi “Hikmat”da.

Demak, bu so‘z ham ***mug‘anniy*** kabi ***mug‘***dan olinganligi aniq. Uning ma’nosi (“mayxona egasi, mayfurush”) ga borib taqaladi:

"Qul Xoja Ahmad, men daftari soniy aytdim,
Ikki olam ishratlarin mayga sottim" [2, 78].

Masalaga boshqa jihatdan qarash ham mumkin, ya'ni Alloh Taoloning go'zal ismlari – Asmoi Husnada Mug'niy sifati ham mavjud. Mug'niy "Behojat qiluvchi. U zot o'z bandalaridan xohlaganini behojat qilib qo'yguvchidir".

"***Mug'on"*** Allohning Mug'niy sifatidan olingan bo'lishi ham mumkin.

Chunki Haq oshiqlari uchun axloqiy bir dastur va amaliy hayot nizomiga aylangan "Mutu qabla an tamutu" – "O'lmasdan burun o'ling" mazmunidagi hadisning mavjudligi barchaga ayon va bu hadis aynan dunyodan butkul behojat bo'lish kerakligini anglatadi. Shu bois ham Ahmad Yassaviyning ayrim hikmatlari shu hadisning she'riy ta'rifi o'laroq yaratilgan bo'lsa, ba'zi hikmatlarda undan ayni shaklda foydalanilgan. Imom Rabboniy "... o'lmasdan burun o'lim haqiqatga aylanmaguncha muqaddas zotga yetishmak mumkin bo'lmas... Bu fano holi valoyat (valiylik) martabalariga tashlanadigan ilk odimdir va ishning ibtidosida hosil bo'ladigan bir kamol darajasi erur," [3, 27] – degan. Shuning uchun ham dunyo ne'matlaridan hojatsiz bo'lish uchun Haq Taoloning xos odamlari sayr-u sulukda ishni o'lmasdan burun o'lishdan boshlagan.

Yana boshqa bir masala ham bor: mumtoz poetikada "***piri mug'on***" qaysi ma'noni ifodalaydi?

"Shayx Ahmad Yassaviy hikmatida shunday deydi:

Sakkizimda sekiz yondin yo'l ochildi,
Hikmat ayt, deb boshlarimg'a nur sochildi,
Bihamdilloh, ***piri mug'on*** *may ichurdi,*
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.
Piri mug'on *haq Mustafo beshak biling,*
Qayda borsang vasfin aytib ta'zim qiling,
Durud aytib, Mustafog'a ummat bo'ling,
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga" [2, 25].

Keltirilgan baytlardan ma'lum bo'ladiki, ***piri mug'on*** ilohiy ishq mayini quyuvchi Alloh elchisi Muhammad (s. a. v.) dir: "***Piri mug'on*** *haq Mustafo beshak biling"*

"Devoni hikmat"da yana shunday misralar bor:

Qirq birimda ixlos qildim yo'l topay deb,
Eranlardek bir sir ko'rsam men yopay deb,
Piri mug'on *izin olib men o'pay deb,*
Zoti ulug' Xojam, sig'nib keldim sango.
Qirq ikkimda tolib bo'lib, yo'lg'a kirdim,
Ixlos qilib, yolg'uz Haqqa ko'ngil berdim.
Arshu Kursi, Lavhdin o'tub, Qalam kezdim,
Zoti ulug' Xojam, sig'nib keldim sango [2, Б. 28].

Birinchi to'rtlikda "***Piri mug'on izin olib men o'pay deb, Zoti ulug' Xojam, sig'nib keldim sango"*** degan misralar mavjud va ikkinchi to'rtlikda esa "Ixlos qilib, yolg'iz Haqqa ko'ngil berdim" misrasi bor. Agar ular e'tibor bilan o'qilsa, keltirilgan baytlarda tasvirlangan "izini o'pib sig'inishga loyiq" ***piri mug'on*** kim, degan tabiiy bir savol tug'iladi. Albatta, barchaga maqtovlar ila maqtalgan – Hamid zot, duolarni ijobat qiluvchi, birov so'ramasa ham, hech bir evaz olmasdan, narsalarni ko'plab ato qiluvchi. Qarama - qarshiliklardan pok. Karamli ishlar va xislatlar sohibi. Mujib va Kariym zot Alloh Taolodir. "Ixlos qilib, yolg'iz Haqqa ko'ngil berdim" misrasi esa, sig'inishga loyiq yagona ma'bud Alloh Taologa qaratilganligi o'z - o'zidan ayon va bu mazmun esa yuqorida keltirilgan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Demak, ***piri mug'on*** deb mumtoz tasavvuf she'riyatida Alloh Taologa nisbatan ham, Muhammad Mustafo (s. a. v.)ga ham nisbatan qo'llanilar ekan. Ba'zi holatlarda mumtoz poetika namunalarida murid o'z shayxini piri mug'on deb ataydi.

Bu mulohazani robita tushunchasi orqali shunday asoslash mumkin:

Robita murid jisman murshidi bilan birga bo'lmasa ham, ruhan uning huzurida ekanini o'ylab, odob saqlashi va murshidining ma'naviy mavqeining davomiyligini saqlovchi vositadir. U tasavvuf psixologiyasida muhim o'rin tutadi. Robita – muridning ma'naviy martabasi va uni bajarilish shakliga ko'ra turli xususiyatlar keltirib chiqaradi, ya'ni mubtadiy murid (boshlovchi)ning shayxiga qilgan robitasi: murid har on va har joyda shayxining huzurida turgandek harakat qiladi, xayolan shayxi bilan birga ekanini his qilib, o'zini shunga qarab nazorat qilishidir.

Mutavassit muridning Muhammad (s. a. v.) ga qilgan robitasi. Bu xil robita esa sayr-u sulukda ma'lum bosqichdan o'tgan solik hayotining har onida Muhammad (s.a.v.)ning huzurida va muroqabasi ostida ekanligini o'ylab, rasul (a.s.)ning axloqi bilan xulqlanishga intilishidir. Muntahiy murid Alloh bilan robita – aloqa o'rnatadi. Bu martabada solik har on va har joyda Alloh Taoloning huzurida ekanini idrok etadi. Robitaning eng mukammal va oxirgi ko'rinishi bo'lgan bu maqomda murid, butun borlig'ini Allohga fido qilib, o'zini va dunyoni Allohning borlig'i oldida hech narsa emasligini anglab yetadi.

Demoqchimizki, mubtadiy murid uchun ***piri mug'on*** (ya'ni, ilohiy sharob quyuvchi) yuqoridagi robita orqali bog'langan o'z shayxi hisoblanadi. Mutavassit murid uchun esa ***piri mug'on*** Muhammad (s. a. v.)dirlar. Muntahiy murid uchun, albatta, Alloh Taoloning yolg'iz o'zi ilohiy ishqning mayini quyguvchi ***piri mug'on***dir.

Piri mug'on va uning tasavvufiy she'riyatda qo'llanilishini turli nozikliklari bilan tasvirlash, tub mohiyatini so'z orqali ifodalash chuqur bilim va katta mas'uliyatni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildli (I, II jild). – Moskva: Russkiy yazik, 1981.

2.Yassaviy Ahmad Xoja. Devoni hikmat (nashrga tayyorlovchi Rasulmuhammad Ashurboy o'g'li Abdushukurov). – Toshkent: G'afur G'ulom, 1992.

3.Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.

Dildor ESHMURATOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, f.f.f.d., (PhD), dotsent v.b.

INGLIZ BIBLIYA IBORALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu tadqiqot, ingliz bibliya iboralarining tilshunoslik aspektlarini ko'rib chiqishga qaratilgan. Bunda iboralar tahlil qilinadi va ularning ma'nosi, konteksti va xususiyatlari aniqlanadi. Natijada, ingliz tilidagi diniy matnlarning tafsiri va tushunilishi yaxshilanadi.

Kalit so'zlar: *lingvistika, ingliz tili, bibliya, iboralar, tahlil, ma'no, kontekst*.

Аннотация: это исследование направлено на изучение лингвистических аспектов выражений английской Библии. В нем анализируются выражения, и определяются их значения, контекст и особенности. В результате улучшился перевод и понимание религиозных текстов на английском языке.

Ключевые слова: *лингвистика, английский язык, библия, выражения, анализ, значение, контекст.*

Annotation: this research is aimed at studying the linguistic aspects of English Bible expressions. It analyzes expressions and determines their meanings, context, and features. As a result, the translation and understanding of religious texts in English have improved.

Keywords: *linguistics, english language, bible, expressions, analysis, meaning, context*.

Kirish. Lingvistika ilmi nihoyatda keng va o'z ichiga ko'plab sohalar, shu jumladan, tilshunoslik, fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika kabi sohalar kiradi. Lingvistika, matnlarni sharhlaydigan va ma'noni aniqlovchi ilm sifatida xizmat qiladi, shuning uchun bibliya iboralarining tilshunoslik aspektlarini o'rganish juda dolzarb bo'lishi mumkin. Ushbu tadqiqot ingliz bibliya matnlarini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini o'z ichiga oladi. Ilmiy jihatdan, bu tadqiqot tilshunoslikning maxsus qismi bo'lib, diniy matnlar bilan ishlashda tilshunoslikning roli va ahamiyatini ko'rsatadi. Amaliy jihatdan esa, bu tadqiqot ingliz tili o'qituvchilari, tarjimonlar va kitobxonlar uchun foydali bo'ladi. Chunki, u diniy matnlar tafsiri va tushunilishini yaxshilaydi. Ushbu tadqiqot diniy tilshunoslikka katta hissa qo'shadi va tilshunoslikning diniy sohaga qanday qo'llanilishi to'g'risidagi tushunchalarni kengaytiradi. U tilshunoslik va diniy sohalar orasidagi bog'lovchini o'zgartiradi va ushbu ikki sohada juda muhim, amaliy va ilmiy jihatdan yorqin ko'rinish beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi M.U.O'rinbekova o'zining ilmiy maqolasida frazeologik birliklarning sintaktik belgilariga quyidagicha ta'rif beradi. "*Frazeologik birliklar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib, alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni frazeologik birliklarda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi*" [2: 71-b].

Badiiy adabiyotda birliklar nafaqat moddiy tilning qobiliyatini boyitishda, balki insoniyatning ma'naviy va ruhiy kechinmalarini ifodalashda ham katta rol o'ynaydi. Tilshunoslikning tilni diniy nuqtai nazardan o'rganuvchi bo'limi teolingvistika bo'lib, bu atama haqida turli ilmiy tushunchalar va fikrlar o'tgan asrimizning o'rtalarida mashhur olim A.K.Gadomskiy tomonidan berib o'tilgan [1: 18-b].

Dinning evolutsiyasi teolingvistikaning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kuni bilan bog'liq. Teolingvistika tilshunoslikning bir tarmog'i sifatida A.K.Gadomskiyning asarlarida ko'plab tilga olingan va yetarlicha ilmiy manbalar bilan uning tilning diniy tomonlarini o'rganishni maqsad qilganligini asoslangan. A.K.Gadomskiy, E.Kucharskaya, Drays va boshqa olimlar diniy sohaning turli elementlarini o'rganishgan.

Asosiy qism. Muammoning ilmiy mazmuni shundan iboratki, ingliz tilidagi bibliya iboralarining tilshunoslik aspektlarini aniq tahlil qilish va ularning ma'nosi, kontekst va xususiyatlarini aniqlash juda murakkab va tadqiqot talab qiladigan masala. Ko'p hollarda, bu iboralar aniq tushunilmaydi, rang tafsir qilinadi yoki kontekstdan tushunilmaydi yoki g'alati tushuniladi. Bu muammo, tilshunoslik va diniy sohalar orasidagi bog'lovchilikni mustahkamlash, tafsirni to'g'rilash va ingliz tilida diniy matnlarni aniqroq tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu diniy tilshunoslikning rivojlanishiga va ushbu sohadagi bilim va tushunchalar sonini oshirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi bibliya iboralarining tilshunoslik tahlilini amalga oshirish, ularning ma'nosini, kontekstini va xususiyatlarini aniqlovchi metodlarni ishlab chiqishdir. Shuningdek, bu tadqiqot ingliz tilidagi diniy matnlarni tushunish, tafsirlash va o'qitish jarayonlarini yaxshilashga ham qaratilgan. U tilshunoslik va diniy sohalar orasidagi aloqani o'rganish orqali bu ikki sohani birlashtiradigan yangi yondashuvlarni kiritishga intiladi. Bu ingliz tili o'qituvchilari, tarjimonlar va kitobxonlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Tadqiqotning natijalari tilshunoslikning diniy sohada qo'llanilishini kengaytiradi va ushbu soha bo'yicha

tushunchalar sonini oshiradi, shuningdek, diniy tilshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Ushbu tadqiqotda bir nechta usullar qo‘llanilgan. Asosan, tilshunoslik tahlilining deskriptiv (*tavsiflovchi*) usuli, semantik (*ma’noviy*) tahlil usuli va kontekstual (*kontekstga asoslangan*) tahlil usuli ishlatilgan.

Deskriptiv usul tahlil qilinayotgan matnni tavsiflovchi holda talqin qilishga yordam beradi. Bu usul yordamida iboralar tilshunoslik jihatdan qanday tuzilganligi, ularning grammatik tuzilishi, so‘z tartibi va boshqa tuzilish jihatidagi xususiyatlari o‘rganiladi. Bu usulning asosiy maqsadi iboralarning tilshunoslik jihatdan tushunilishini yaxshilash.

Semantik tahlil usuli esa iboralar ma’nosini tahlil qilishga yordam beradi. Bu usulda, har bir so‘zning mazmun-ma’nosini, so‘zlarning bir-biri bilan bog‘liqlik va ularga tegishli kontekst ma’lumotlari asosida tahlil qilish amalga oshiriladi. Bu usulning maqsadi iboralar ma’nosini to‘g‘ri tushunish va tafsirlash.

Kontekstual tahlil usuli esa iboralar kontekstini, ya’ni uning matn doirasidagi o‘rni va unga nisbatan boshqa matn elementlarining ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi. Bu usul matnni to‘liqroq tushunishga, matnni to‘g‘ri interpretatsiya qilishga va uning ma’nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik ilmi va diniy sohalar orasidagi bog‘lovchilikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Bu natijalar o‘z navbatida, tilshunoslikning diniy matnlar tahlilida qanday qo‘llanilishi, diniy tilshunoslik tushunchalarini rivojlantirish uchun qanaqa usullar qo‘llanishi kerakligi va ushbu usullarning amaliy natijalarini ko‘rsatadi.

Natijalarni umumlashtirish mumkin bo‘lganicha, ushbu tadqiqot tilshunoslik va diniy sohalar orasidagi bog‘lovchilikni mustahkamlash, tilshunoslik usullarini diniy tilshunoslikka qo‘llash va diniy matnlarni aniqroq tushunish uchun yangi yondashuvlarni kiritishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu natijalar ingliz tilida diniy matnlarni o‘qitish, tafsirlash va tushunishga qaratilgan tadqiqotlarda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot davomida bir nechta muammolar va cheklovlar bilan to‘qnashilgan.

Birinchi bo‘lib, diniy matnlarning tilshunoslik tahlilini amalga oshirishda an’anaviy tahlil usullarining cheklovlari bilan uchrashilgan. Bu usullar ko‘pincha adabiy matnlarni tahlil qilishda ishlatiladi, lekin diniy matnlar tomonidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi, shu bilan birga, bu usullar hamma holatda samarali bo‘lmaganligi aniqlandi. Bunday cheklovlarni yengish yo‘li sifatida, diniy matnlarga mos keladigan yangi tilshunoslik tahlil usullarini tayyorlash va ularni amalga oshirish zarur bo‘lgan.

Ikkinchidan, diniy matnlar an’anaviy tilshunoslik tahlil usullariga mos kelmaydigan grammatik va lug‘aviy xususiyatlar bilan ajralib turishi, tahlil jarayonini qiyinlashtiruvchi omildir. Bunday muammolarni yechish yo‘li sifatida, tilshunoslik tahlil usullarini diniy matnlar xususiyatlariga ko‘ra moslashtirish va yangi tilshunoslik tahlil usullarini ishlab chiqish zarur bo‘lgan.

Uchinchidan, diniy matnlar kontekstini tushunishda uchraydigan muammolar ham mavjud. Kontekstual tahlil usuli diniy matnlar kontekstini aniqlovchi qiyinchiliklar bilan to‘qnashgan. Bu muammolarni yechish uchun, kontekstual tahlil usulini yanada takomillashtirish va bu usulni diniy matnlarning kontekstini aniqlovchi qiyinchiliklar bilan birga ishlatish kerak.

Agar ushbu muammolarni muvaffaqiyatli yechish mumkin bo‘lsa, tilshunoslikning diniy soha bilan aloqasini yanada mustahkamlash va diniy matnlarni aniqroq tushunish uchun yangi yondashuvlarni kiritish imkoniyati yuzaga keladi [1: 18-b].

Ingliz bibliya iboralari tilning lingvistik tizimida noyob o‘rin egallab, ularning fonetik, grammatik, semantik va stilistik jihatlari alohida tadqiqotlarga loyiq. Ular faqat tilda emas, balki ingliz jamiyatining madaniy va ijtimoiy sohalarida ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu mavzuni o‘rganishda zamonaviy lingvistik metodlar, masalan, korpus lingvistikasi va madaniyatlararo tahlil usullari juda foydali bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi diniy terminlar bilan solishtirish lingvokulturologiyaning qiziq jihatlarni ochib berishi mumkin.

Tadqiqotning muammolarini hal etishda muvaffaqiyati tilshunoslikning diniy soha bilan bog‘lanishini mustahkamlashda va diniy matnlarni aniqroq tushunish uchun yangi yondashuvlarni kiritishda ifodalandi. Tadqiqotning natijalari tilshunoslik ilmi, tilshunoslik tahlil usullari va ulardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida juda muhim ma’lumotlarga asoslanadi. Ushbu tadqiqot diniy matnlarning tilshunoslik tahlilida an’anaviy usullarning kamchiliklarini ko‘rsatib beradi, shu bilan birga, yangi tilshunoslik tahlil usullarini tayyorlash va ularni amalga oshirishning zarurligini aytib beradi.

Xulosa. Kelajakdagi tadqiqotlarda, diniy matnlarni tilshunoslik tahlilida qanday qo‘llanish kerakligi to‘g‘risida aniqroq ma’lumot berish uchun, tilshunoslik usullarining diniy matnlarga moslashuvi yo‘qotiladi. Shuningdek, yangi tilshunoslik tahlil usullarini ishlab chiqish va ularni diniy matnlarni tushunishda qanday qo‘llanish kerakligi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish zarur. Bu bilan birga, tilshunoslik usullarining diniy matnlarni aniqroq tushunishda qanday qo‘llanilishi kerakligi to‘g‘risida tushunchalar olish uchun, ushbu sohada amaliy tadqiqotlar olib borish va shu asosda yangi usullar yaratish zarur. Ushbu tadqiqotlarning natijalari tilshunoslik ilmi, o‘ziga xos tilshunoslik usullari va ulardan foydalanishning ahamiyati to‘g‘risida juda muhim ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.D.U.Eshmuratova, O‘zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. - Termiz. 2023. 20-bet.

2.M.U.O‘rinbekova, Ingliz tilida frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari. Journal of new century Innovations. Volume 15, ISSUE - 1, October 2022, 74-76-betlar.
3.G.Constable Metaphors for religious life in the middle ages. London, P.236-235.
4.R.F.Payozov Abdulla Qodiriyning asarlaridagi diniy birliklarning lingvistik tadqiqoti. Journal of new century Innovations. Volume 15, ISSUE - 1, 2022, 108-bet.
5.Smith. A., Tilshunoslik usullarining diniy matnlarni tushunishda ahamiyati. 2018: 23-24p.
6.natlib.uz.

Dilbar NIYAZOVA,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

YOZUVCHI LISONIY SHAXSINING BADIIY ASARDAGI O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada, badiiy asar har xil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, turlicha yosh, jins, ruhiyat, xarakterga ega kishilarning nutqiy harakatlarini aks ettiruvchi manba sifatida ahamiyatli ekanligi, badiiy asar muallifi yoki personaj nutqida ham muayyan tilning imkoniyatlari, ham shaxsga xos eng muhim sifatlar (jins, kasb-kor, ijtimoiy mavqe, yosh belgisi va boshqalar) namoyon bo‘lsagina, ularni lisoniy shaxs sifatida talqin etish mumkinligi haqida bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: *badiiy matn, lisoniy shaxs tipi, shaxs, hissiyot, ruhiy holat, personaj, til, nutq.*
Аннотация: в статье отмечается значимость художественного произведения как ресурса, отражающего речевые действия людей разного возраста, пола, психики, характера, занимающихся различной профессиональной деятельностью, утверждается, что речь автора художественного произведения или персонажа может быть истолкована как языковая личность только в том случае, если в ней проявляются как возможности того или иного языка, так и важнейшие качества личности (пол, профессия, социальное положение, возрастной признак и т.д.).
Ключевые слова: *художественный текст, тип языковой личности, личность, эмоция, психическое состояние, персонаж, язык, речь.*
Annotation: in the article, the fact that the work of art is significant as a resource that reflects the speech actions of people engaged in various professional activities, of different ages, gender, psyche, character, the author or character speech of a work of fiction describes that both the possibilities of a particular language and the most important qualities inherent in an individual (gender, profession, social status, age sign, etc.) can be interpreted as a linguistic person.
Key words: *artistic text, linguistic personality type, personality, emotion, mental state, character, language, speech.*

Tashqi olam har bir nutq egasida turlicha aks etadi. Olamning lisoniy manzarasi qay darajada va qay tarzda tasvirlanganini aniqlash uchun turli nutq ko‘rinishlari (matnlar)ni o‘rganish maqsadga muvofiq. Olamning lisoniy manzarasi, ayniqsa, badiiy asarda o‘ziga xos milliy ifodasiga ega bo‘ladi. Badiiy asar har xil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, turlicha yosh, jins, ruhiyat, xarakterga ega kishilarning nutqiy harakatlarini aks ettiruvchi manba sifatida ahamiyatlidir. Shu bois badiiy asarda bir-biridan farqlanuvchi turli lisoniy shaxs tiplarini ajratish mumkin bo‘ladi. Badiiy asarda lisoniy shaxs turlicha namoyon bo‘ladi. N.Normurodovaning fikricha, badiiy dialogda lisoniy shaxs – bu nutq yaratishi hamda idrok etishi shart qilib qo‘yilgan personajlarning qobiliyatlari va tavsiflari jamlanmasi bo‘lib, u tilning semantik-stilistik murakkablik darajasi, lisoniy shaxsga tavsif berishda kommunikativ-pragmatik, konseptual-kognitiv omillarning lisoniy reprezentatsiyasi xarakteriga ko‘ra farqlanadi. [3;7]

Bu o‘rinda badiiy asarda nafaqat personajlar, balki yozuvchi lisoniy shaxsining o‘rniga ham e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Badiiy asarda lisoniy shaxs tiplarini ajratishda, bizningcha, quyidagi jihatlar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

1. Adib yoki u yaratgan personajning nutq (matn) yarata olganligi.
2.Adib yoki u yaratgan personaj nutqida uning lisoniy qobiliyatining namoyon bo‘lganligi.
3.Adib yoki u yaratgan personajning shaxsiga oid sifatlarning tilda namoyon bo‘lganligi.

Quyida badiiy asar muallifi nutqi orqali yozuvchi lisoniy shaxsini aniqlab, uning asardagi maqomiga baho beramiz.

Har qanday badiiy asar ijodkorning individual nutqi asosida yaratiluvchi asar hisoblanadi. Shu bois unda,

avvalo, yozuvchi lisoniy shaxsi namoyon bo‘ladi. Sh.Safarov qayd etganidek, muallif yaratgan matn olam manzarasini voqelantirishning individual shakli, bunda nutq subyekti lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.[6;18]

Mashhur rus tilshunosi V.V.Vinogradov ham badiiy asarda muallif shaxsining o‘rniga alohida ahamiyat berar ekan, quyidagilarni yozadi: “Muallif obrazi – bu individual xususiyatli, so‘z-nutq strukturali, badiiy asar tuzilishini tarkib toptiruvchi hamda uning barcha elementlarining aloqasi va o‘zaro ta’sirini belgilovchidir”.[1;176]

Har qanday matnda shaxsga xos xususiyatlar muayyan darajada aks etadi, shu bois u orqali nutq egalarining lisoniy tiplarini belgilash mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, turli personajlar nutqi aks etgan badiiy asarlarda lisoniy shaxsning bir qator tiplarini farqlash mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda badiiy asarda ishtirok etgan har bir personajga uning nutqi orqali lisoniy shaxs maqomini berish mumkinmi, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Bizningcha, badiiy asarda ishtirok etgan har qanday personaj lisoniy shaxs rolini bajaravermaydi. Badiiy asar muallifi yoki personaj nutqida ham muayyan tilning imkoniyatlari, ham shaxsga xos eng muhim sifatlar (jins, kasb-kor, ijtimoiy mavqe, yosh belgisi va boshqalar) namoyon bo‘lsagina, ularni lisoniy shaxs sifatida talqin etish mumkin. Sh. Qalandarov to‘g‘ri qayd etganidek, “Adib personajlarni matnda jonli til sohiblariga tenglashtira olsagina, ularni lisoniy shaxs deyish mumkin”.[4;109]

Ijodkor badiiy asarda til vositalari orqali olam haqidagi qarashlarini aks ettirar ekan, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham bevosita badiiy matnga ko‘chadi. Bu, ayniqsa, avtobiografik asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Avtobiografik asarlarda yozuvchi o‘zi ko‘rgan, boshidan o‘tkazgan voqea-hodisalarni qalamga olar ekan, bu jarayonda o‘z shaxsini qayta “shakllantiradi”. Masalan, G‘.G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini bolaligida o‘zi guvoh bo‘lgan voqea asosida yozganligi ma’lum. Shu bois bu hikoya avtobiografik asar sifatida baholanadi. Asar voqealari bola tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi bu obraz orqali o‘zini qaytadan bola qiyofasiga “kiritadi” yoki kampir va o‘g‘ri obrazlari orqali o‘zining shaxsiy qarashlari, kechinmalarini yoritadi. Bola nutqida ishlatilgan “Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda?” jumlasi orqali bolaligi vaqtida atrofidagi odamlarning yetim oilalarga bo‘lgan munosabatini oshkora bayon qiladi, “qora buvi” tilidan “Zamon qattiq, o‘g‘rigina bolam, zamon qattiq!” deb yozar ekan, bolalik davrida hayotining naqadar og‘ir o‘tganligiga ishora qiladi. Ko‘rinadiki, yozuvchi hikoyada bola, buvi yoki o‘g‘ri tilidan gapirmasin, u asarning “markaziy qahramoni”ga aylanadi. Asarda bola nutqi “qayta shakllangan yozuvchi lisoniy shaxsi”ni hosil qilsa, buvi va o‘g‘ri personajlarining har biri alohida lisoniy shaxs tiplarini shakllantiradi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, lisoniy shaxs tiplari, avvalo, badiiy asar turiga ko‘ra farqlanadi. Lirik she’rlarda asosiy hollarda yozuvchining yakka o‘zi lisoniy shaxs tipini hosil qiladi. Murakkab syujetli asarlarda esa yozuvchi nutqi va u yaratgan personajlar nutqi farqlanadi. Bu jihatdan badiiy asarda dastlab yozuvchi lisoniy shaxsi va personajlar nutqiga asoslangan lisoniy shaxs tiplarini ajratish lozim bo‘ladi. Badiiy asarning hamma turida yozuvchi asarning boshidan oxirigacha lisoniy shaxs maqomida bo‘ladi. U o‘z nutqi orqali gohida notiqlik vazifasini bajarsa, goho hissiyotlarini oshkora yoki yashirin ifoda etuvchi til egasi sifatida gavdalanadi, ba’zan o‘z personajlarini harakatlantiruvchi “yo‘lboshchi” sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchining nutqi oddiy tavsif ruhida ham, ba’zan hissiyotlarga to‘la ko‘rinishda ham bo‘ladi. Yozuvchi badiiy matnda qanday mavqeni egallamasin, uning nutqi alohida lisoniy shaxs tipi, ya’ni yozuvchi lisoniy shaxsini hosil qiladi.

L.A. Isayeva va V.V. Katermina rus yozuvchisi A.S.Pushkin yaratgan matnlar asosida uning “onomastikoni”ni aniqlashga harakat qilishgan va u orqali adib lisoniy shaxsida kuzatilgan xususiyatlarga tavsif berishgan. Ular A.S.Pushkinning “onomastikoni”ni o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelishgan: “Birinchidan, badiiy matnda personajlar uchun tanlangan atoqli otlar deyarli hamma vaqt (tarixiy va hujjatli asarlari bundan mustasno, zero, ularda ham to‘qima obrazlar bo‘lishi mumkin) yozuvchining lisoniy, nolisoniy va tilga aloqador bo‘lmagan qiziqishlari haqida ma’lumot beradi; ikkinchidan, badiiy matnda nomlar antroposentrik mohiyati sababli matnda badiiy obraz yaratishda muhim detal hisoblanadi va uning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Shuning uchun badiiy obraz nutqi matn hosil qiluvchi omil hisoblanib, uning lingvistik tadqiqi bugungi kunda badiiy matnning lingvistik tahlilida yangi va muhim vazifalardan biri bo‘lishi mumkin; uchinchidan, atoqli otlar nafaqat nominativ, appelyativ vazifa bajaradi; balki ijtimoiy markerlash vazifasini ham bajaradi, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning shu davrga xarakterli bo‘lgan me’yorlarini aks ettiradi, ya’ni nom tanlash lisoniy shaxs “nominator”ning milliy o‘ziga xos, umummadaniy jamoaviy va individual o‘ziga xos xususiyatlarining bir butun kompleksi haqida gapirish imkonini beradi; to‘rtinchidan, badiiy matnga, undagi shaxsiy onomastikondan tashqari, boshqa matnlardagi nomlar, shuningdek, “vertikal kontekst”dagi madaniy belgi sifatidagi nomlar, dunyo tarixida yoki milliy madaniyatda yoxud ushbu matnda konseptuallashgan birliklar ham kiradi, bunday birliklar mazkur shaxslar haqida til egalari ongida mavjud bo‘lgan konseptual tasavvurlar bilan murakkab munosabatga kirishadi, zero, muallif ularni “konsept-shtamplar” sifatida ham, “qiyofasini o‘zgartirgan” konseptlar sifatida ham

qo‘llashi mumkin; beshinchidan, u yoki bu nom – konseptlarning tanlanishi, qo‘llanish chastotasi muallif ongida mavjud bo‘lgan tezaurus fondini tavsiflashga xizmat qiladi.[2]

Ma’lum bo‘ladiki, matn tahlili orqali muallif lisoniy shaxsiga xos eng muhim ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, muallifning so‘z boyligi, tezaurus fondi haqidagi ma’lumotlar uning lisoniy shaxs sifatidagi individual xususiyatlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М., 2005. – С. 176.

2.Исаева Л.А., Катермина В.В. Языковая личност А.С.Пушкина: особенности проявления в номинасии персонажей // ҳттп://досплаер.ру/40326759-Язйковая-личност-а-с-пушкина-особенности-проявления-в-номинасии-персоназҳей.ҳтмл

3.Нормуродова Н. Виражение язиковой личности в художественном диалоге (на материале английского язика): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 2012. – С.7.

4.Qalandarov Sh. O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ... diss. – Farg‘ona. 2019. B. 109.

5.Safarov Sh. Tarjimonning lisoniy shaxs sifatida bajaradigan faoliyati // Xorijiy filologiya. 2018. №3. – B. 18.

Muqaddas TOJIBOYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori
tojibayevamuqaddas71@gmail.com

MO‘MINJON TOSHQIN IJODIDA TAZKIRANAVISLIK AN’ANASI

Annotatsiya: maqolada XX asr o‘zbek adabiyotida tazkiranavislik Mo‘minjon Toshqin (Muhammadjonov) ijodida bo‘y ko‘rsatganligi, mazkur tazkira asar XX asrning birinchi yarmidagi tarixiy-adabiy muhitga baho berishda muhim manba vazifasini o‘tashi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *an’anaviylik, tazkiranavislik, adabiy-badiiy materiallar, Toshkent adabiy muhiti, o‘ziga xoslik.*

Аннотация: в статье высказывается мысл о том, что тазкиранавис показал свою высоту в творчестве Моминджона Ташкина (Мухаммаджонова) в узбекской литературе XX века, и что это произведение тазкира служит важным источником для отсенки историко-литературной среды первой половины 20 века.

Ключевые слова: *традиционализм, литературно-художественные материалы, литературная среда Ташкента, самобытност.*

Annotation: in the article, the idea that tazkiranavis has shown its height in the work of Mominjon Tashkin (Muhammadjonov) in Uzbek literature of the 20th century, and that this tazkira work serves as an important source for evaluating the historical and literary environment of the first half of the 20th century.

Key words: *traditionalism, tazkiranavis, literary and artistic material, literary environment of Tashkent, originality.*

Kirish. Mo‘minjon Muhammadjonov XX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-madaniy, adabiy muhitning daqiq va teran kuzatuvchisi maqomida e’tibor topgan ijodkor. U o‘zining “Turmush urinishlari” xotira-romanida hayoti davomida, xususan, madrasalarda olgan ta’limi jarayonida juda ko‘p jadid adabiyoti vakillari bilan tanishganligi, ular bilan ko‘p safarlarda birga bo‘lganligi xususida yozgan. Shu boisdan ham Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek Mo‘minjon Toshqinga o‘zi ko‘rgan, eshitgan, suhbatda bo‘lgan shoirlar haqida, ularning she’riyati to‘g‘risida majmua yozishni taklif qiladi. Bu taklif o‘ylab yurganlarini amalga oshirish uchun ayni turtki bo‘lgan edi. M.Toshqin 1945-yildan boshlab “Toshkent shoirlari” tazkirasini yozishga kirishdi. Bu tazkira bir muddat keyinroq, sho‘ro davrida yozib bitildi. Asarda, asosan, milliy uyg‘onish davrida ijod qilgan shoirlar tarjimayi holi, ijodi zikr etilgan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda mumtoz adabiyotimizning vakillari Fuzuliy, Alisher Navoiy, ma’rifatchilik adabiyotining vakili Zavqiy haqida, 40 dan ziyod shoirlar haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ular yetti daftarga jamlangan. Qori Fazlulloh Almaiy, Karimbek Kamiy, Chokar, Miriy, Gulshan, Kotib, Muztarib, Nasriy, Ramziy, Roiq, Rog‘ibiy, Dilafgor, Munir, Mujallo, Sayfiy, Habibiy, Zavqiy, Kamoliy, Soqiy, Axtariy, Omiliy, Mu’tiy, Mulla Qo‘shoq Miskin, Abdulla Avloniy, Sayyid Haybatullaxo‘ja, Hislat, Sadoyi, Pirmat, Ergash, Hayratiy, Mo‘minjon Toshqin, Tinbandiy, Sayfiy, Partaviy, Jambilbek kabi shoirlarning hayoti haqida ma’lumotlar berib, ijodidan namunalar keltiradi. Shu o‘rinda adabiyotshunos olim H. Boltaboyevning XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi masalalariga munosabati aniq va ravshan ifoda topgani bilan e’tiborli:

“Tazkirachilik bu davrda mazmunan boyib, tarkib jihatdan rang-baranglashdi, nafaqat adabiy tanqidning, balki umumiy adabiyotshunoslikning faol sohasiga aylangan”[2.30.] ligini o‘rinli ta’kidlaydilar.

Asosiy qism. Ma’lumki, Sharq tazkiranavisligida arabiyzabon adabiyotning XI asrgacha bo‘lgan manzarasi Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ud-dahr fi mahosin ahli asr” tazkirasida o‘z ifodasini topgani bilan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”si XV asrgacha bo‘lgan forsiyzabon adabiyot haqida muhim tasavvurlar hosil qilganligi bilan, Hasanxoja Nisoriyning 1566-yilda tuzilgan “Muzakkir ul-ahbob” tazkirasi forsiy va turkiy adabiyotning o‘rta asrlardagi holatini butun bo‘y-basti bilan namoyon etganligi bilan qimmatli. Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasida esa forsiy, turkiy tildagi she’rlar uchraydi, forsiy she’rlarning salmog‘i o‘zbekcha she’rlarga nisbatan ko‘proqligi, ya’ni she’rlarning miqdoriy qiyosi bu davrda she’riyatning tili qaysi til bo‘lgani haqidagi savolga javob beradi. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari esa o‘zbek tilidagi tazkiranavislikning eng go‘zal va mukammal namunasi hisoblanadi. XX asrga kelib an’anaviy adabiyotning bu shaklida Po‘latjon Qayumiyning “Tazkirayi Qayyumiy”, Mo‘minjon Muhammadjonovning “Toshkent shoirlari” tazkiralari paydo bo‘ldi. Shu o‘rinda “Toshkent shoirlari” tazkirasida forsiy tilda berilgan she’r namunalari ko‘p bo‘lmasa-da, uchrashini qayd etamiz.

“Toshkent shoirlari” tazkirasi o‘zbek tazkiranavisligining an’anaviy davomi sifatida e’tiborga molikdir. Tazkirada o‘zbek adabiyotining muhim davri va hududiga aloqador shoirlar hayoti, adabiy faoliyatlari hamda ular yaratgan she’rlaridan namunalar keltirilgan. Ayni chog‘da, mazkur tazkira asosida shu tarixiy-adabiy muhit va hududga baho berishda muhim manba vazifasini o‘tay oladi. Adabiy-badiiy materiallar asosida yoritilgan “Toshkent shoirlari” XX asr adabiy-ma’rifiy hayoti, adabiy jarayon, madaniy harakatchilikning qizg‘in faoliyati haqida umumiy tasavvur uyg‘otadi. Mo‘minjon Toshqin davrning adabiyotga daxldor bo‘lgan ijodkorlarini aniqlash, kitobxonlarga tanishtirish, asarlaridan misollar keltirish bilan o‘quvchida ularning ijodiy mavqei borasidagi tasavvurni hosil qildiradi. Bu davr ijodkorlarining ro‘yhatini keltirish bilan birga shoirlar hayoti va ijodiga doir faktik va aniq materiallar beradi. Toshqin ma’lumotlaridan ma’lum bo‘ladiki, demak, tazkirada nomi zikr etilgan qalam ahllari o‘z iste’dodiga ko‘ra ham, adabiy merosi nuqtai nazaridan ham, ijtimoiy-adabiy hayotda tutgan o‘rniga ko‘ra ham bir xil darajada deb bo‘lmaydi. Ularning ichida chinakam ijodkorlar bilan bir qatorda madhiyaboz, zamonasoz havaskorlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Yana bir jihati borki, “Toshkent shoirlari”da nomlari qayd etilgan shoirlarning barchasi Toshkent adabiy muhitiga mansub emas. Toshkent madrasalarida tahsil olgan, Toshkentga kelgan yoinki bu yerda bir muddat ijod qilgan shoirlarni ham muallif o‘z tazkirasiga kiritgan. Masalan, Xiva adabiy muhitiga mansub bo‘lgan Chokar, Qo‘qon shoirlaridan Zavqiy, xo‘jandlik Munir, namanganlik shoir Soqiy va boshqalar. Ular yurtning turli hududlarida yashasa-da, Toshkent adabiy muhitining shoirlari sifatida tartiblangan. Bu holatni Mo‘minjon Toshqinning 1914-1918-yillar oralig‘ida Namangan, Jalolobod, O‘sh, Qo‘qon, Xorazm shaharlarida yashagani, o‘sha davr mahalliy ijodkorlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lgani bilan izohlash mumkin. “Toshkent shoirlari”ida mavjud an’analarga yondashuvdagi o‘ziga xoslikni kuzatish mumkin. Ya’ni muayyan adabiy muhitning yetakchi xususiyatlari, ijod ahlining mavzu va janrlarga munosabati, ijodkorlarning shaxsiy salohiyatlari kabi muhim masalalarni aks ettirishdagi jihatlar bilan belgilash mumkin. “Toshkent shoirlari”da zikr etilgan shoirlar haqidagi ma’lumotlar hamda ularning asarlaridan keltirilgan namunalar Toshkent adabiy muhiti doirasidagi adabiy jarayonning XIX asr oxiri XX asrning birinchi yarmiga xos yetakchi xususiyatlarini belgilab berishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan ijod namunalarining mavzu va shakl belgilari, ularning badiiy mahorat masalalari esa, tazkirada qayd etilgan shoirlar haqida, ularning darajasi xususida muayyan tasavvurni tug‘diradi, ijodkorlarni saralash imkonini yaratadi. “Toshkent shoirlari”da zikr qilinganlarning hammasi ham tan olingan shoir bo‘lmasdan, ularning ko‘pchiligi shoirlikni o‘ziga qo‘shimcha kasb deb bilgan kishilardir. Kamiy, Almaiy, Xislat, Miriy, Avloniy, Mo‘minjon Toshqinlar adabiy muhitning peshvolari sifatida e’tirof etilsa, ayrim bir shoirlarning nomlari, masalan, Munir, Rog‘ibiy, Safoiy, Tig‘bandiy, Hayratiy, Pirmat kabi shoirlarning nomlari faqat majmua orqali ma’lum bo‘ladi. Ya’ni tazkirada hali adabiyot ahliga unchalik ma’lum bo‘lmagan, mavjud ilmiy tadqiqlarda nomlari zikr etilmagan bu kabi qalam ahllari xususidagi ma’lumotlar o‘quvchini qiziqtiradi va ularning asarlarini izlab topish, o‘rganish uchun rag‘bat uyg‘otadi.

Tazkiraning tarkibi va tuzilishidagi o‘ziga xosliklar shundaki, unda shoirlarning tug‘ilgan joyi, ismi, taxallusi, izlanish hollari, hayotlaridagi muhim o‘zgarishlar, vafoti, ayrim materiallarda qabri qayerdaligi, shoirning ota-onasi, ijtimoiy ahvoli, oilaviy sharoiti, keyin ibtidoiy va yuqori tahsil onlari, ba’zan shoirga aloqador bir yoki bir necha kulgili, qiziqarli, latifanamo voqealar, adabiy holi bilan bog‘liq fikrlar, baholar, asarlari va ulardan namunalar keltiriladi. Natijada o‘quvchi shoir yashagan davr, tazkirada keltirilayotgan ijodkor haqida to‘la tasavvur

hosil qila oladi. Qolaversa, har bir faslning oxirida ijodkorga xos alohida fazilat “eskartma” tarzida berib borilgan va undan so‘ng majmua tartib qilingan paytda hayot bo‘lgan ijodkorlarning uy manzili ham aniq ko‘rsatilgan.

Tazkirada XX asr boshlari Toshkent adabiy muhiti, uning maydonga kelishi, ko‘lami, o‘ziga xos xususiyatlari, ma’lum bir yo‘nalish sifatidagi taraqqiyot bosqichlarining boshlang‘ich adabiy tasnifi sifatida xizmat qiladi. Tazkira 1905-1920-yillar adabiyotini ma’rifatparvarlik bosqichi, uning ijodkorlarini ma’rifatparvar adib deb baholashni Kamiy, Avloniy, Mo‘minjon Toshqin, Miriy, Axtariylar hayoti va ijodini yoritgan fasllar belgilaydi. Va ular an’anaviy g‘azal janrida ham qalam tebratganligi, she’rlarida ma’rifatchilik g‘oyalari ustunlik qilganligini alohida qayd etiladi. “Toshkent shoirlari”ning uchinchi daftarida shoir Axtariyni Afandixon maxzum Axtariy deb tanishtiradi. 1870-1946-yillarda Toshkentda yashaganligi, she’rlarining adadi ko‘p bo‘lsa-da, devon tartib bermaganligi, g‘azal janrida yaxshigina she’rlari borligi haqida yozadi. Shuningdek, XIX asrning II yarmida yashab, ijod etganligi tufayli ma’rifatchilik g‘oyalari ustunlik qilganligi, “Sadoi Turkiston” gazetasida xalqni ilm-ma’rifatga targ‘ib etib yozgan she’rlari nashr etilganligini ma’lum qiladi. Shuningdek, tazkirada Ramziyning “Rahmu shafqatsiz savdogarlar” sarlavhali she’rini keltirib o‘tadi. She’rning sarlavhasidan ham ko‘rinadiki, u ijtimoiy mazmun kasb etgan lirikaning namunasidir. Ramziy haqidagi ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, uning ijtimoiy voqeaga kengroq to‘xtalishi bejiz emas, sababi shoirning o‘zini ijtimoiy masalalarga moyilligi bor. Tazkirada Sayfiy taxallusli shoir va uning she’riyati xususida qisman ma’lumotlar bor. Toshqin uning “Baho bizniki”, “Xabar ber” she’rlarini kiritgan. Ijodini dastlab ishqiy mavzudagi she’rlar bilan boshlagan Miskin ko‘p o‘tmay ijtimoiy mazmundagi, jamiyat dardiga davo istab yozilgan she’rlar bita boshlaganligi qayd etiladi. Majmuadan o‘rin olgan she’rlarida jamiyatdagi nohaqliklar bilan bir qatorda oddiy xalq turmushining g‘oyat og‘irligi ochiq va keskin ifodalangan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi 459 nafar adib nomining keltirilganligi bilan emas, ayni chog‘da ularning ijodi va asarlarining miqyosini belgilab berganligi, shuningdek, ular asarlariga adabiy tanqid nazari bilan qaralganligi bilan e’tiborni tortadi. Xususan, Atoyi she’rlari turkiylar orasida mashhur bo‘lganligini qayd etgan holda “qofiyasida aybg‘inasi bor...” deya kamchiliklarini ham ro‘yi rost ochib beradi. Yoki Gadoiyni turkiylarning “mashohiri” sifatida e’tirof etadi. M.Toshqin ham salaflar yo‘lidan borib, shoirlar ijodiga o‘z munosabatini bildirib boradi. Andijonlik shoir Sayfiyni “ancha zakiy va muqtadir shoir bo‘lib, she’r va adabiyot san’atida “Furqatiy” singari bir shoirdir. Agar yozuvchilar sayuzi buning tarbiya va ta’minotiga ahamiyat bersa, zamonamizning “Muqimiy” va “Furqatiy”si bo‘lishda shubha yo‘qdir, chunki uning bir necha she’rlarini o‘zidan o‘qitib, eshitib, men shu fikrga keldim” deya baho beradi. Toshkentlik Sultonmuhammad domla – “Rog‘ibiy” Mirzo Ohund o‘g‘li (1835- 1898) ni esa “arabiy, forsiy ilmlarga mohir”, taniqli “maktabdor”, “she’r va adabiyot san’atida ham ustodlik darajasiga yetib, domla Umarbek qozi davrida “yetti mavlono” ning biri bo‘lgan” shoir sifatida e’tirof etadi. Rahimxo‘ja qozi Xatmiy, Mirahmad a’lam Miriy, Qori Fazlulloh Almaiy, Sururiy, Gulshan kabi shoirlar bilan adabiy davradosh bo‘lganligi, o‘g‘li Mulla Holiqqul – Azko ham shoirlikda tanilib borayotganligi haqida yozadi. Ammo tazkirada Miskinning “badihago‘y shoir bo‘lgan”ini ta’kidlaydi. Shoir Dilafgorni esa “kuchsiz bir shoir bo‘lib, ko‘p she’rlari “nazira – o‘xshatma”lar bilan yozilgan”likda ayblaydi. Tazkiraning oltinchi daftaridan o‘rin olgan Pirmat, Ergash, Safiy, Partaviy, Jambilbek kabilarning rangsiz, jonsiz, takrorlarga boy bo‘lgan haybarakalla satrlar yig‘indisidan iborat she’rlari ham uchraydi. To‘g‘ri, bu kabi she’rlar to‘laqonli badiiy estetik hodisa vazifasini bajarmasa-da, til va mazmuniga ko‘ra xalqqa yaqin bo‘lgan yangi she’riyatning boshlanishidan nishona sifatida qarash mumkin.

Xulosa. Har qanday tazkira yoki tazkira xarakteridagi asarni muayyan xalq adabiyotining ko‘zgusi sifatida ishonchli manba sifatida belgilar ekanmiz, Toshkent shoirlari ham XX asr boshidagi adabiy jarayon, adabiy hayot manzarasi borasidagi tasavvurlarni to‘ldirishga xizmat qilishi tayin. Ammo tazkirada nomi zikr etilgan shoirlarning katta qismi adabiyotshunoslik ilmida deyarli to‘liq yoki mutlaqo o‘rganilmagan. Adabiyotning umumiy manzarasi haqida bir to‘xtamga kelish uchun esa muayyan olingan bir davrda ijod qilgan shoirlar asarlarini bir nuqtaga to‘liq jam qilish va ularga xolis baho berish zarurati bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboyev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. Fil.fan.d.ri diss. – Toshkent, 1996. 30-bet.
2. Muhammadjonov Mo‘minjon. Toshkent shoirlarining tarjimai hollari. Qo‘lyozma asar.

Jahongir TURDIYEV,
ORIENTAL universiteti,
Sharq tillari kafedrasi
dotsent v.b., filol.f.b.f.d (PhD).
e-mail: jahongirshoh15@mail.ru

"ME'ROJNOMA" ASARINING NASTA'LIQ XATIDAGI NUSXASI VA UNING MATN KOMPONENTLARI

Annotatsiya: mazkur maqola turkiy tildagi "Me'rojnoma" asarining Istanbulda saqlanayotgan nasta'liq xatidagi nusxasi va uning matn komponentlariga bag'ishlangan. Undagi komponentlar matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan. "Me'roj" Alloh taolo so'nggi payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamni Quddusi sharifdan yuqoriga, ya'ni O'zining huzuriga ko'tarishidir. Shu hodisaga bag'ishlab yozilgan asarlar "Me'rojnoma" deb ataladi. Buning singari asarlar dastlab arab adabiyotida yaratildi. Keyinchalik fors va turkiy adabiyotda ham "Me'rojnoma"lar mustaqil asar sifatida shakllana bordi.

Kalit so'zlar: *nastaliq komponent, qo'lyozma, Me'rojnoma, matnshunoslik tadqiqi, tarjima, xattotlik.*

Аннотация: статья посвящена копии тюркоязычного произведения «Мерожноме» в писме насталик, хранящейся в Стамбуле, и эе текстовым компонентам. Эго компоненты анализируются с текстологической точки зрения. «Мирадж» - это вознесение последнего Пророка Мухаммада (мир эму и благословение Аллаха) из Иерусалима в небеса к Аллаху. Произведения, посвященные этому событию, называются «Мираджнаме». Подобные произведения изначально были созданы в арабской литературе. Позднее в персидской и тюркской литературе «Мираджнаме» сложилас как самостоятелное произведение.

Ключевые слова: *насталик, компонент, рукопис, Мираджнаме, текстологический анализ, перевод, каллиграфия.*

Annotation: this article is devoted to the copy of the Turkic language work «Merojnoma» in the nastalik letter kept in Istanbul and its textual components. Its components are analyzed from a textological point of view. "Meraj" is the ascension of the last Prophet Muhammad (peace and blessings of Allah be upon him) from Jerusalem to heaven to Allah. The works dedicated to this event are called "Mirajnama". Such works were originally created in Arabic literature. Later in Persian and Turkic literature, Mirajnama was formed as an independent work.

Keywords: *nastalik, somponent, manuscript, Mirajnama, textual analysis, translation, calligraphy.*

Kirish. Tasavvuf adabiyotida Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Me'rojga ko'tarilishlari bayon etilib, shu hodisaga bag'ishlab yozilgan asarlar me'rojnoma deb ataladi. Islom dini tarixida alohida ahamiyat kasb etgan ushbu voqea yoritilgan asarlardan biri "Me'rojnoma" bo'lib, uning turkiy tildagi bir necha nusxalari kunimizgacha yetib kelgan. Ma'lumki, qo'lyozma qanchalik qadimiy bo'lsa, uning qadri shunchalik yuqori bo'ladi. Turkiy "Me'rojnoma" asarining arab yozuvida bitilgan ko'hna qo'lyozmalaridan biri hozirgi kunda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih fondida 2848-raqami ostida saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozma 1b-12b sahifalari "Me'rojnoma", 14-153-sahifalari esa Farididdin Attorning "Tazkiratu-l-avliyo" asarlarini o'z ichiga oladi. Bu nusxa hijriy 917-yil rajab oyining 20-sanasida (milodiy 1511- yilning 13-oktyabrida) Misrda Nuriddin Ali bin Kichkina Sayyid Ali at-Taliqoniy tomonidan o'qilishi qulay bo'lgan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Bu haqda qo'lyozma tarixida shunday bitilgan: *"Tarix toquz yüz on etidä rahmat ayïnïŋ yigimisidä Nuriddin Ali bin Kičkina Sayyid Ali at-Taliqāniy bitidi".* (Tarix 917 da rahmat oyining yigirmasida Misrda Nuriddin bin Ali bin Kichkina Sayyid Ali at-Taliqoniy yozdi). [3. 12 b]. "Me'rojnoma" qismining birinchi va oxirgi sahifalaridan tashqari barcha sahifalari 15 satrdan iborat bo'lib, o'lchami 29.5x20 sm, jildi rangli qalin qog'ozda. Asar arab yozuvining nasta'liq xat turida ko'chirilgan bo'lib, xattot Qur'on oyatlari, hadis hamda duolarni, shuningdek, Tangri, Muhammad, Rasul, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali va yana ba'zi so'zlarni tilla rangli va qizil siyohda yozgan. Ushbu qo'lyozma Misrda ko'chirilgan arab yozuvli, turkiy til va adabiyotini o'rganishda qimmatli va nodir yozma yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Turkiy "Me'rojnoma"ning arab yozuvli Istanbul nusxasi muqaddima, so'nggi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallamning me'rojga chiqishlari, jannat bilan do'zax sayohati, farishta Jabroil alayhissalom qanotiga minib Qof tog'iga chiqib shu yerda yashagan payg'ambar Muso alayhissalom ummatlariga nasihat berish qismlariga bo'linadi.

"Me'rojnoma" asari muqaddimasi muxtasar bo'lib, mazkur muqaddima ham Islom olamida yaratilgan asarlar an'anasiga muvofiq Allohga hamd bilan boshlanadi: *"Šukr va sepas va satāyiš Ül qādïr, lam yazal ön sakiz miŋ älämni yaratqan, türätkän, munazze', bir-ü bār, erklik Täŋri ta'ālāqa jalla jalalahu va tuqad-*

disu ismahu huva va la ilaha ğayri [1. 1 b.]. ("Shukr va hamd ul mangu qodir, o'n sakkiz ming olamni yaratgan, tartibga keltirgan va ularni ne'matlantirgan, biru bor hukmdor, Undan o'zga iloh bo'lmagan Tangri taologa (buyukligi yuksalsin va ismlari muqaddas bo'lsin").

Shundan so'ng Allohning so'nggi payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamga salovat, durud-u salomlar va ul zotning ahli bayti, sahobalariga rahmatlar yo'llangan: "*Yänä yüz miŋ salāvat-u tahiyyat Täŋri ta'ālāniŋ habibi yüz yigirma tört miŋ payğambarniŋ sarvari Muhammad rasulullāhniŋ jāniqa teksün, üküš rahmat rasuli alayhissallamniŋ avlādi bila čāryāriqa teksün. Rizvanallah alayhim ajma'in" [1. 1 b.].*

Hamd va na't qismidan so'ng keladigan quyidagi jumlalardan asarning nomini va turkiyga o'girishdan ko'zlangan maqsadni bilib olishimiz mumkin:

"*Emdi bilgil-kim, bu kitabniŋ atï "Merajnama" türür. "Nahjul-faradis" atlïq kitabdïn türk tiligä evürdük. Köp kišilärgä fāyda teksün tep, Täŋri ta'ālänïŋ tavfiqï birlä tamām bitilib, xalāyiqnïŋ köŋli közigä širin körüngäy" [1. 1 b.]. ("Endi bilginki, bu kitobning nomi "Me'rojnoma"dir. "Nahj ul-farodis" nomli kitobdan turkiy tilga o'girdik. Ko'p kishilarga foydasi tegsin deb. Tangri taoloning tavfiqi bilan yozilib xalqning ko'ngil ko'ziga shirin ko'ringay).* "Nahjul-farodis" kitobi nomining ma'nosini asar so'nggida berilgan quyidagi jumladan bilish mumkin:

Bu kitabkä "Nahj ul-faradis" deyü ism qïlïndï, ma'nisï učmaqlarnïŋ ačuq yolï temäk olur.[6. 21b].

Turkolog YA.Ekmann "Me'rojnoma"da tilga olingan "Nahjul-farodis" tili forscha ekanligini taxmin qilgan va quyidagi fikrlarni bildirgan: "Men bu yerda bahs mavzusi bo'lgan "Nahjul-farodis"ni ikki nuqtaga asoslanib forscha ekanligini taxmin qilmoqchiman: 1) Pave de Kurteyl tomonidan nashr qilingan "Merojnoma"da asar nomining birinchi qismi harakatli bo'lib نهج "*nahaj*" shaklida berilganki, bu – Vullers lug'atiga ko'ra – so'zning forscha talaffuzidir; 2) "Me'rojnoma"da asl me'roj faslidan keyin Jannat va do'zax sayohati bo'limining boshida, *İmam Bağavï rahmatu'llahi 'alayhi Masabih atlïk kitabïnda bü hädisni keltirmiš türür* jumlasidan so'ngra arabcha hadis o'rniga *"farsi bitildi"* ("forscha yozildi") qaydi, shundan so'ng esa hadisning turkiy tarjimasi bordir. Bu qayddan shunday ma'no chiqarish mumkin: "Me'rojnoma" tarjima qilingan "Nahjul-farodis" forscha yozilgan, balki, arabchadan tarjima qilingandir. Turkiy mutarjim ham bu hadisning forschasini keltirishni lozim deb topmay, "forscha yozildi" qaydini keltirib qisqartirgan. Asar arabcha bo'lganida bu jumla hech bir ma'no ifoda etmasdi [2. 47-48 b.].

Yuqorida aytilganidek, asar boshida sahoba imom Bag'avi rahmatullohu alayhning "Masobih" nomli kitobidan arab tilidagi hadis keltirilgan.

"*Anas ibn Mālik Rasul alayhissalāmdin rivāyat qilürkim, Jabrāil Me'rāj tünindä kelib meniŋ üčün bir Burāq keltürdi. Eyarlik, yüganlik. Rasul alayhissallām Burāqqa minayin tesa Burāq qöymas erdi. Jabrāil äytti: ya Burāq Muhammaddin azizrāq senga Täŋri ta'ālā dargāhida heč kimersa minmädi teb tedi. Ersa Burāq terläb teri āqä bāšlädi"* [1. 2 b.].

Mazkur hadis bilan birinchi bo'lim boshlanadi. Bu bo'limda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Buroq nomli bir jonivorga minib, me'rojga chiqishlari, yetti qavat osmon hamda u yerdagi farishtalarning tavsifi, har bir qavat osmon oraliqlarida o'zlaridan oldingi o'tgan yirik payg'ambarlar bilan muloqotda bo'lganliklari, Sidrotul-muntahoga yetganliklari, besh vaqt namozning farz qilingani sodda va ravon tilda bayon qilingan:

"*İkkinči qat kökkä ettük... Yänä äntin äšib ikki kiši kördüm. Bülär kim türür teb sördüm. Jabrāil äytti: Biri Yaxyā payğambar, birisi Zakariyā payğambar türür teb. Alarqa salām qildim. Älär äyttilär: Ya Muhammad, xuš keldüŋ, kök elini mušarraf qildiŋ. Täŋri ta'ālāniŋ suyurğālï qutluq bölsün teb"* [1. 3 b.].

Dastlabki bo'lim "*Antin söŋrä arš üzä čïqïb Täŋri ta'ālāqa sajda qïlïb hamd-u sanā äyttim. Taqï qayttïm"* [1. 8 b.]. jumlalari bilan o'z nihoyasiga yetadi.

Ikkinchi bo'lim "*Emdi yänä rasul alayhis-salamniŋ učmāq tamuqni tafarruj qilğānïn bäyān qïlalï. İmām Bağaviy rahmatullāhi alayhi Masabih atlïq kitabinda bü hadisni keltirmiš türür"* [1. 8 b.]. degan jumlalar bilan boshlangan va birdan hadisning turkiy tarjimasi keltirilgan. Bo'lim *"Ya Muhammad sen uluq köŋgül tütünmağïl. Uluq köŋül tutğan kišini sevmäsman"* [1. 12 b.]. jumlalari bilan yakuniga yetadi. Bu qismda Muhammad sollallohu alayhi vasallamning jannat bilan do'zax sayohati, jannat manzaralari tavsifi, do'zax manzaralari tavsifi, farishta Jabroil alayhissalom bilan Kavsar hovuziga borganliklari kabi voqealar bayon qilingan.

So'nggi uchinchi bo'lim "*Äntin söŋrä Jabrāil meni qanāti üzä mindürüb Qāf tāğïqa keltürdi. Qāf tāğïnï kördüm"* [1. 12 b.]. jumlalari bilan boshlanadi. Bu bo'lim Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Jabroil alayhissalom qanotiga minib Qof tog'ini hamda bu tog'da Jabaliso va Jabaliqo nomli ikki shaharni ko'rganliklari, shu yerda yashagan payg'ambar Muso alayhissalom ummatlari bilan suhbatlashgani va ularga nasihat berishlari bilan nihoyasiga yetadi.

So'nggi bo'lim "*Täŋri ta'ālā barčaqa yaqšïlïq tā'at tavfiqini bersün, taqï tamuq azabidin āzad qïlïb učmaq ravza qïlsun. Amin, ya Rābbil a'lamin".*[1. 12 b.]. jumlalari bilan yakunlanadi.

"Me'rojnoma" ning muqaddimasida kelgan jumlalar hamda asar matnining nihoyatda sodda va xalqchil tilda bitilganligi asarning turkiy tilga o'girilish sababini ko'rsatadi. "Me'rojnoma"ni turkiy tilga o'girishdan asosiy maqsad – oddiy aholi ham asarni o'z tillarida o'qib tushunishlari va ular uchun foydali bo'lishi ko'zlangan.

Turkiy tildagi “Me’rojnoma” asari va unda badiiy vositalarning ishlatilishi o‘zbek adabiyotining uzoq tarixga egaligini ko‘rsatadi.

Nodir durdonalardan bo‘lgan “Me’rojnoma” asarining arab yozuvli qo‘lyozmasining ham o‘ziga xos tarzdagi odobi tasnifda yozilganligi e’tiborga loyiq.

Turkiy tildagi “Me’rojnoma”ning Istanbul nusxasi o‘zbek matnshunosligi tili, adabiyoti va o‘zbek kitobatchilik san’atini o‘rganishda nodir yozma obidalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.NURIDDIN Ali at-Taliqoniy “Me’rojnoma”. 2848 raqamli qo‘lyozma. Misr. 1511.
2.ECKMANN, Janos. “Harezm, kıpçak ve çağatay türkçesi üzerine araştırmalar” Ankara. 2003.
3.SERTKAYA, Osman Fikri. İslami Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. Boçum. 1977.
4.AN-NAIM. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent. 2003.
5.NADJIP Emir. “Regionы i etapы formirovaniya tyurkskix pismennыx yazkov i literatur”. – Turkestan. 2007.
6.SODIQOV, Qosimjon. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent. 2006.
7.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent. 2002.

Ro‘ziqul MUSTAFOQULOV,
Termiz davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

H. H. NIYOZIY BOLALAR ADABIYOTINING ASOSCHISI

Annotatsiya: H.H.Niyoziy – o‘zbek bolalar adabiyotining asoschisi bo‘lib, uning ijodi bolalar uchun eng muhim va ma’rifatli asarlarni yaratishga qaratilgan. Uning asarlari bolalar dunyosiga bo‘lgan qiziqish va ularning ruhiy kamoloti uchun muhim o‘rin tutadi. Niyoziy o‘zining o‘ziga xos uslubi bilan o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Kalit so‘zlar: *H.H.Niyoziy, bolalar adabiyoti, asoschi, ijod, o‘zbek, ma’rifat, rivojlanish, yoshlar.*

Annotation: H.H.Niyoziy is considered the founder of Uzbek children's literature, creating works that play a significant role in the intellectual and moral development of young readers. His works explore the world of children with a unique style and contribute greatly to the growth of Uzbek children's literature, shaping its cultural and educational values.

Key words: *H.H.Niyoziy, children's literature, founder, creativity, Uzbek, education, development, youth.*

Аннотация: Х.Х.Ниёзи считается основателем узбекской детской литературы, его произведения играют важную роль в интеллектуальном и моральном развитии детей. Работы Ниёзи исследуют детский мир через уникальный стиль и значительно способствуют развитию узбекской детской литературы, формируя ее культурные и образовательные ценности.

Ключевые слова: *Х.Х.Ниёзи, детская литература, основатель, творчество, узбекский, образование, развитие, молодежь.*

Kirish. Jahonda bolalar dunyosining betakror asarlarini yaratgan ijodkorlar ko‘p. Bunday asarlar bir vaqtda kattalarning ham sevimli asarlari bo‘lib qolgan. Demak, adabiyotda “bolalarniki”, “kattalarniki” degan chegara ham nisbiy, agar u haqiqiy adabiyot bo‘lsa. Zotan, “Shum bola”, “Robinzon Kruzo”, "Don Kixot"lar bolalarning ham, kattalarning ham sevimli asarlari bo‘lib qolgan. Bolalar adabiyoti hamisha ma’rifat va madaniyatning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Shu bois, qo‘liga qalam olgan ijodkor borki, u albatta, ozmi-ko‘pmi, bolalar uchun ham asarlar yaratishni unutmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Darhaqiqat, har bir yozilgan yaxshi asar, xoh katta bo‘lsin, xoh kichik bo‘lsin, yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga ta’sir etib, qadim-qadim zamonlardan odobnoma vazifasini o‘tab kelgan. Shu bois, har bir adib qo‘liga qalam olib ijod gulzoriga kirar ekan, bolalar, o‘smirlar tarbiyasiga bag‘ishlab asarlar yozishni ham unutmagan. Mumtoz adabiyotning buyuk namoyandalari Sa’diy Sheroziy,

Mirzo Bedil, Abdurahmon Jomiy, Farididdin Attor, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Anbar otin va boshqalar; XX asr adabiyotining nomdor adiblari S.Ayniy, H.H.Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, G‘afur G‘ulom, H.Olimjon, Uyg‘un va boshqalar ham bu mavzuni chetlab o‘tmaganlar, aksincha, ko‘proq o‘z ijodlarini bolalarga bag‘ishlashni sharaf deb bilganlar. Bolalar ruhiyatini aks ettirish uchun, V.G.Belinskiy aytganidek, “bolalar yozuvchisi bo‘lib tug‘ilgan” va o‘zbek bolalar yozuvchisi degan sharafli nomga ega bo‘lgan: Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Ilyos Muslim, Qudrat Hikmat, O‘tkir Rashid, Adham Rahmat, Xudoyberdi To‘xtaboyevlarning bolalarga, o‘smirlarga bag‘ishlab yozgan asarlari beqiyosdir. Bu adiblarning hayoti va faoliyati, asarlari adabiyotshunoslik fanida keng o‘rganilgani holda, viloyatlardagi bolalar tarbiyasiga bag‘ishlab asarlar yozgan adiblar faoliyati e’tibordan chetda qolib kelmoqda.

Tahlil va natija. Har bir davr o‘z qahramonlari, donishmandlari hamda san’atkorlarini maydonga chiqaradi. Ular o‘z faoliyatlarida davrning ilg‘or ruhini, xalq kurashi va orzularini qanchalik mujassam qilganliklariga qarab qadr topadilar, barhayotlikka yuz tutadilar. Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z davrida o‘zbek xalqining erk yo‘lidagi asriy kurashi va intilishlari, ezgu orzularini mujassam etgan ulug‘ fuqaro, serqirra daho, san’atkor, ijtimoiy arbob sifatida tarixga kirdi. Avlodlar nazdidan o‘chirib bo‘lmas va ulug‘vor haykal sifatida mangu – barhayotlik kasb etdi. H.H.Niyoziy tashabbus ko‘rsatib, mehnatkash xalq farzandlariga ma’rifat o‘choqlarini ochdi. Barcha asarlarida ilg‘or ideallarni g‘oyaviy-badiiy jo‘shqinlik bilan yoritdi. Jangovar shoir, dramaturg, kompozitor, teatr san’atining yirik mohir pedagogi va faol jamoatchisi Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Qo‘qonda tarokchi oilasida tug‘ildi.

U ijodini, asosan, 1905-yildan boshladi. O‘z faoliyatini ilm va ta’lim, pedagogika masalalari bilan boshladi. Shoir ikki yil davom etgan chet el safaridan so‘ng (1914-yil) adabiy-ijodiy ish bilan birga pedagogik ishlarini ham faol olib bordi. U Qo‘qonda “Dorul-aytom” (“Yetimlar maktabi”) nomi bilan maktab ochib, unda o‘zi o‘qituvchilik qildi, maktab uchun zarur bo‘lgan qo‘llanmalarni ham o‘zi tuzdi.[ ]

Ijodning muhim qirrasi bo‘lgan poeziyasiga xalqimizning asriy she’riy madaniyatida erishilgan kamolotni, ayniqsa, Navoiy va zamondoshlari Muqimiy, Furqat singari so‘z san’ati an’anaviy ustalarining hayotbaxsh va serjilo intilishlarini singdirdi. Bunga shoirning “Devon” (1907–1917), “Yengil adabiyot” (1914), “O‘qish kitobi” (1914), ”Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi (1915), “Yashil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul” (1916), “Safsar gul” (1917) [ ] kabi to‘plam- kitoblaridagi eng yaxshi she’rlarida qanoat hosil qilamiz. Zamonaning dolzarb masalalariga hozirjavoblik, gumanistik g‘oyalarini xalqchillik yo‘sinida ifodalash, samimiyat bu asarlarning yetakchi g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tadqiqotlarda, umuman Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodiyoti ko‘lami xususida gap ketganida, uning o‘zbek bolalar adabiyotini shakllantirish borasidagi xizmatlarini o‘rinli ta’kidlaydilar. Bizningcha, bu masalaga yondashishda uning mazkur sohadagi xizmatlarini davrlar mohiyatigagina qarab emas, o‘sha kezlardagi asarlari salmog‘i ham badiiy saviyasiga suyanib baho bermoq kerak. Negaki, adibning inqilobgacha bolalar adabiyoti xazinasiga qo‘shgan ulushi va bu borada tutgan o‘rni bilan ayni shu sohaga inqilobdan keyin qo‘shgan hissasi o‘rtasida katta tafovut bor. Hamza inqilobgacha bo‘lgan davr ijodida jamiyatimizning kelajagi hisoblanmish bolalar adabiyotiga, ularning ta’lim-tarbiyaviy ishlari boshqa biror so‘z san’atkori — pedagogi bilan tenglashtirib bo‘lmas darajada katta ulush qo‘shdi. Bunday hissaning salmog‘ini chamalab ko‘rmoq uchun ustoz adib inqilobgacha bo‘lgan davrda bolalar adabiyotiga daxldor tarmoqlarning uch bo‘g‘inida samarali va sobit qadam bilan tinimsiz ishlaganligini mamnuniyat bilan qayd etib o‘tish zarur: uning hayot yo‘li yozmalaridan – biografiyasidan ayonki, Hamza avvalo, o‘lkamizning turli shahar va qishloqlarida maktablar ochib, o‘zi bevosita muallimlik qilgan, el-yurtimiz ma’rifatli bo‘lishi yo‘lida jonbozlik qilgan. Ikkinchidan, shaxsan o‘zi maktablar uchun maxsus qo‘llanma – darsliklar tuzib, ularga materiallar tanlashda o‘quvchilar uchun og‘irlik qilmasligiga, sodda va tushunarliligiga alohida e’tibor bergan. Buni Hamza tuzgan birinchi kitobning “Yengil adabiyot” (1914) [ ] deb nomlanishi ham tasdiqlab turadi. Qirq besh darsga mo‘ljal qilingan va birinchi sinf o‘quvchilariga atalgan bu kitobda ta’limning soddalikdan asta-sekin murakkablikka o‘sa borishi, o‘quvchilar bilimi doirasining kengaya borishi hisobga olinganligi davrning ilg‘or pedagogik va ta’lim-tarbiya talablariga hamohangligidan dalolatdir.

Hattoki, H.Hakimzoda o‘zbek alifbesini (“Yengil adabiyot”)ni, o‘qish kitobi (“O‘qish kitobi”)ni va adabiy o‘qish kitobi (“O‘qish kitobi”)ni tuzib, yangi o‘zbek o‘quv adabiyotini bog‘lab berganligi aytiladi.

Yirik pedagogning “Ikkinchi sinf uchun qiroat kitobi” (1915) [ ] ham ta’lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashdek ezgulik yo‘lida paydo bo‘ldi. Uning bu va shunga o‘xshash boshqa qo‘llanma hamda

darsliklari o‘quv-tarbiya ishlari ravnaqiga xizmat qilishi bilan birga yangi savodxon kitobsevarlarni tarbiyalash ishiga xizmat qildi. Demak, masalaning bu tomoni bilan Hamza o‘zbek bolalar adabiyotining nazariy asoslariga munosib tamal toshi qo‘ydi.

Uchinchidan, Hamzaning qo‘llanma va darsliklaridagi namunalarning aksariyati adibning o‘zi tomonidan bolalarbop saviyada, nutqiy normalarda ijod etilgan she’r va prozaik namunalardan iboratligi bilan kichkintoylar kitobxonligi davrasini kengaytiruvchi xalqchil asarlar edi. Hamza bular bilangina chegaralanib qolmay, bolalar uchun mustaqil va maxsus badiiy asarlar yaratganligi esa adib faoliyatining bu sohasi qadrini, salmog‘ini yanada bo‘rttiradi. To‘g‘ri, bunday namunalarning ko‘pchiligi o‘sha darsliklarda ilk bor o‘z aksini ko‘rgandi. Biroq bunday hol ularning mustaqilligini, o‘zbek bolalar adabiyotining noyob namunalaridan hisoblanishini inkor qilmaydi, aksincha, muallifning mazkur sohaga qo‘shgan hissasini ko‘z-ko‘z qilib turadi.

Darhaqiqat, adibning bolalarga bag‘ishlangan she’rlari shu adabiyotning beshigi hisoblangan folklor poetikasiga hamohangligi, undan ilhomlanganligi, obrazli, sodda, samimiy hamda xalqchil xususiyatlari bilan diqqatga loyiqdir. Ularni g‘oyaviy-tematik yo‘nalishiga qarab ikki guruhga ajratib tahlil g‘alviridan o‘tkazish ma’qul. Zero, bir to‘p she’rlari (“Toshbaqa va chayon” “O‘rik”, “Gilos”, “Olucha” kabilar)da ta’lim-tarbiyaviy, insoniy masalalar tabiatning organik va noorganik mavjudotlariga munosabat orqali, ularga mansub xususiyatlarni bir-biriga qiyoslash vositasida aks ettiriladi. Bunday she’rlarda obrazlarni ko‘chma-majoziy ma’noda poetiklashtirish ularning ta’sirchanligini, misralarning xayollarga chulg‘ovchi, o‘ylantiruvchi, gap mag‘zini chaqishga undovchi xususiyatini chuqurlashtiradi. Aytaylik, mashhur “Toshbaqa va chayon” nomli masalida do‘stlik, birodarlik hamda hamdamlikda sadoqatli bo‘lish singari insoniy tuyg‘ularga xiyonat qilish, nosamimiylik, asli dushmanlikni tilyog‘lamalik bilan yashirish hamda yomonlik qilish uchun payt poylash, g‘ayirlik – aldoqchilik qoralanadi. Bunday hollar fojiaviy qismatlarga olib kelishi Toshbaqa va Chayon allegorik obrazlari munosabatlari misolida konkretlashtiriladi. She’rdan chiqadigan pedagogik xulosa nihoyatda lo‘nda va aniqdir.

Hissa: kimki g‘ayrni ulfat etar,
O‘z-o‘ziga boshiga kulfat yetar.

Xulosa. Adibning bolalarga bag‘ishlangan she’riy asarlari ta’sirchanligini, hayotbaxshligini oshiruvchi muhim badiiylik omili ularga xalqchil yumorning chuqur singdirib yuborish mahoratidadir. Agar biz shoir she’riyatiga, bolalarga bag‘ishlangan namunalarga nazar tashlasak, ularga yengil va xushchaqchaq yumordan tortib, achchiq istehzo va zaharxanda, masxaralovlari misralar tomir-tomiriga singdirib yuborilganligining guvohi bo‘lamiz. Sirasini aytganda, ijodkor uchun nihoyatda noyob bo‘lgan bunday jihatlar Hamzaning publitsistik, poetik, prozaik hamda dramatik ijodi uchun mushtarak hisoblangan zo‘r hajvkorlik talanti bilan omuxtadir. Bolalarga bag‘ishlangan asarlarda esa yumorning zohir bo‘lishi bunday namunalarning hayotiy kuchini, ta’sirini oshiruvchi san’atkorona noyob fazilatlardandir. Demak, Hamza bolalar adabiyotining ana shu talab va xususiyatlarini to‘la anglab, idrok etib, his qilib, qalam tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмуд Қошғарий. “Девону луғотит турк”. – Тошкент, 1961. 19-б.
2. Абдурасулов М. Ўзбек маърифатпарвар шоирлар илм-маърифат ҳақида. “Ўқитувчи” нашриёти, 1972. 70-74 б.
3. Воронкова Л. Олов қалб Ҳамза. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1981.
4. Қаюмов Л. Сайланма. 1-2-жилдлар. – Т., 1983; Ҳамза Ҳакимзода ижоди проблемалари. – Т., 1988.
5. Қўшжонов М. Ҳамза маҳоратидан лавҳалар. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1968.
6. Ҳатамов А. Ҳамза қалбимизда. Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.
7. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. “Тўла асарлар” тўплами. 1-том. Девон. “Фан” нашриёти, 1988.

Maxzuna XAMRAEVA,
Qarshi shahar Turon universiteti, G'arb tillari kafedrasi v.b.dots.
e-mail:makhzuna.khamraeva@gmail.com

EVIDENSIALLIK KATEGORIYASI HAMDA ANAFORIK INDEKSIKAL KOMPONENTLAR INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI KESIMIDA

Annotatsiya: maqolada evidensiallik lingvistik kategoriyasi ingliz olimlarning qarashlari yordamida ochib berilgan. Unda evidensiallik kategoriyasi hamda anaforik indeksikal komponentlar ikki til, ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi matnlar tahlili tarzida ochib berilgan. Shuningdek, evidensiallik hamda anaforik komponentlarning har bir o'xshash hamda tafovutli xususiyatlari gaplar orqali ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *anaforik propozitsiya, parentetik, kontekstual, lingvistik, bevosita, bilvosita, tarixiy, mish-mish, xulosaviy evidensiallik.*

Аннотация: в данной статье раскрывается лингвистическая категория эвиденциальности на основе взглядов английских учёных. Категория эвиденциальности и её индексикальные компоненты представлены в виде текстового анализа на двух языках как английский и узбекский. Кроме того, автор выделил каждые сходственные и различные характеристики эвиденциальности и анафорических компонентов на примере предложений.

Ключевые слова: *анафорическая пропозиция, парентетическая, контекстуальнаяб лингвистическая, прямая, косвенная, фольклёрная, выводная эвиденциальность, слухи.*

Annotation: in the following article, the linguistic category of evidentiality is exposed based on the views of English scientists. The category of evidentiality and its indexical components are provided in the form of text analysis in two languages as English and Uzbek. Furthemore, the author classified every similar and distinctive features of evidentiality as well as anaphorical components in the sample of sentences.

Key words: *anaphoric proposition, parenthetic, contextual, linguistic, direct, indirect, folklore, hearsay, inferential evidentiality.*

Kirish. Ma'lumki, evidensiallik gapning semantik xususiyatlari bilan aloqador bo'lgan grammatik kategoriya bo'libgina qolmasdan, subyekt yetkazayotgan ma'lumotning mazmuniga munosabatini aks ettiradigan lisoniy hodisa sifatida ham qaraladi. Mazkur lisoniy hodisa dunyoning ko'pgina (fransuz, nemis, tukano, tariana, cheyenne) tillarida grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bunda biror evidensial morfema voqelikka aloqador bo'lgan bir nechta ma'lumotni qamrab olishi mumkin.

Tadqiqot obyekti. Evidensiallikning asosiy jihati uzatilayotgan ma'lumotning kelib chiqishini belgilashga xizmat qiladi. O'z navbatida, asos bir tomonlama subyektning shaxsiy kuzatishi, ya'ni bevosita guvohlik berishi natijasida, ma'lum obyektni yohud voqelikni sezgi organlari bo'lmish ko'rish, ta'm bilish va *his qilish* orqali yetkazsa, boshqa tomondan ma'lumot asosi umuman boshqa manbaga tegishli bo'lib, bilvosita yuzaga chiqadi. Mazkur ma'lumot boshqalardan *eshitib olish* yoki *tinglash* kabi amallar yordamida qabul qilinadi. Ta'kidlash joizki, evidensiallik subyekt o'zi guvoh bo'lgan, eshitgan yoki bilvosita o'zlashtirgan ma'lumotini ifodalovchi *leksik, grammatik, sintaktik, diskursiv* kabi lisoniy vositalar orqali aniqlanadi.

Bert Kornili evidensiallik tushunchasini "Idrokni aks ettiruvchi til tarkibining kognitiv-lisoniy voqelanishi natijasida paydo bo'ladigan real voqelikka aloqador hodisa" [1; 52] deya ta'riflaydi.

Ronald Langaker esa "Evidensiallik real voqelikda lingvistik tarkibning ta'sirchanligi, ma'lumotni yagona tavsifga birlashtirish orqali muvofiqlashtirish, ma'lumotning asosini aks ettiruvchi asosiy lisoniy birlikni izlash kabi o'lchovlarda amalga oshiriladi" [2; 51] deydi.

Loyd Andersonning ishlarida evidensiallik ba'zi umumiy nazariy tushunchalardan biri bo'lmish semantik funksiyada ustunlikka ega hisoblanishi hamda u lug'aviy ma'no va grammatik ifodaga nisbatan fundamental va izchil xususiyatlariga ega ekanligi yoritib berilgan [3; 33].

Ta'kidlash joizki, evidensial voqelikni anglatuvchi grammatik vositalar mavjudligi hamma tillarga ham xos xususiyat emas. Biroq grammatik evidensiallik ayrim tillar (jumladan, ingliz, nemis, rus, fransuz)da rivojlangan bo'lib, unda leksik birliklar va diskursiv ko'rsatkichlar muhim o'rin tutadi, modallik ifodasi hamda grammatik belgilar yordamchi ko'rsatkich sifatida amal qiladi. Mazkur tillarda evidensiallik nutqda gap yoxud matnda birlamchi neytral kategoriya sifatida yuzaga keladi.

Ma'lumot sifatida shuni aytib o'tish joizki, ayrim

tillarda xulosaviy evidensiallik mavjud bo‘lib, tilshunoslar uni uch guruhga ajratishgan:

1. Ma’lumot jismoniy dalilga asoslanib olinadi;
2. Ma’lumot so‘zlovchining ayrim holatlardagi tajribasi asosida xulosalanadi yoki taxmin qilinadi);
3. Bo‘lib o‘tgan ish-harakat keyinroq amalga oshiriladi [4; 34].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Evidensiallik lingvistik kategoriya bo‘lib, undagi bosh ma’no ma’lumot manbasi sanaladi. Biror kimsaning boshqa kimsaga yetkazayotgan ma’lumotida sodir bo‘lgan va sodir bo‘lmagan ish-harakat sodir bo‘lgan kabi tinglovchi tomonidan qabul qilinaveradi. Evidensiallikda morfemalar ma’lumotdagi chuqur yoki tag ma’noga qaratilgan bo‘lib, u belgilanmagan yoxud bajarilmagan ish-harakat borasidagi ma’lumotni ham ifodalashi mumkin [5; 3].

Ingliz tilida evidensiallik quyidagi 3 ta asosiy konstruksiyalarda va so‘zlovchining nutqida anaforik referens holatida uchrashi mumkin. Evidensiallik kategoriyasi anaforiya referens atamasi bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Anaforiya bu – grammatik substitutsiya bo‘lib, retorik xususiyatga ega bo‘lgan tushunchadir, chunki so‘zlar, iboralar va gaplarning matnda takror kelish holatlari unda kuzatiladi. Anaforik xususiyatga ega bo‘lgan evidensiallikni quyidagi gaplarda uchratish mumkin: Masalan, ingliz tilida:

Cecilia scolded the dog, I saw it – vizual

Cecilia scolded the dog, I heard it – novizual/ mish-mish

Cecilia scolded the dog, I inferred it - tahminiy [6; 134-135].

O‘zbek tilida esa quyidagi holatda kelishi mumkin:

Anavi yerda ko‘prik bor, men o‘zim ko‘rdim – vizual

Anavi yerda ko‘prik bor emish, deb aytishdi menga – novizual/mish-mish

Suv bo‘ylab osilib turgan allanimani ko‘rayapman, menimcha, anavi yerda ko‘prik bor – taxminiy.

Ingliz tilidan farqli ravishda, mazkur jumlani tarixiy evidensiallikka ham kiritish mumkin. Misol uchun:

Anavi yerda ko‘prik bor bo‘lardi, avvallari – tarixiy

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi jumlalarning barchasi ham evidensiallikka, ham anaforik referensga misol bo‘ladi. O‘zbek tilidagi dastlabki ikkita jumla ham evidensiallik, ham anaforik referensni, uchinchi jumla esa kataforik referensni ifodalab kelmoqda. Zero, anaforik referens matn tarkibidagi so‘z hamda matndagi boshqa g‘oyalarni oldin takrorlanganiga, kataforik referens esa mazkur g‘oyalarni keyin takrorlanganiga ishora qiladi.

Evidensiallik kategoriyasi krosslingvistik tadqiqot natijalariga ko‘ra boshqa lingvistik kategoriyalardan tubdan farqlanishi mumkin, chunki u tilshunoslikda turlicha ko‘rinishlarda, xususan, har xil grammatik va leksik birliklar, ya’ni verbal affikslar, klitikalar, fe’llar, ravishlar, yuklamalar hamda grammatik kategoriyalar sanalmish zamon, aspekt, modallik kabi kategoriyalar ko‘rinishida ham uchrashi mumkin. Misol uchun, ingliz tilida:

It is raining out – visual evidensiallik

It must be raining out; I just saw Jim come in with a soaking wet umbrella – xulosaviy evidensiallik.

It apparently snowed – ravish

It may rain tomorrow – modallik [7; 230]

O‘zbek tilida esa quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Aytishlaricha, ertaga qor yog‘arkan – ravish.

Ertaga qor yog‘adi, deb aytishdi menga – ko‘chirma gap.

Qor yog‘ayotganini ko‘rayapman – vizual, sezgi fe’li.

Yaaaaa, qor yog‘ayapdi-ku – ta’kid yuklamasi

Ertaga qor yog‘ishi mumkin – modallik.

Evidensial konstruksiyalarning ikki asosiy semantik turi bor: birinchisi so‘zlovchi shaxsning ma’lumot manbasiga hissa qo‘shsa, ikkinchisi gapning kuch bilan potensial to‘g‘rilanishiga undaydi. Evidensiallikda ma’lumot grammatik, leksik va kontekstual yo‘llar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, ulama, ajratilgan (parentetik), ravishli va kontekstual konstruksiyalar orqali ifodalanishi mumkin. Chunonchi ingliz tilida:

I hear my father was sick all night – ulama konstruksiya

My father was sick all night, I hear – ajratilgan/ parentetik

My father was reportedly sick all night – ravishli

Early this morning, my mother called. My father was sick all night – kontekstual.

Xuddi shu gapning o‘zbek tilidagi muqobiliga e’tibor qaratamiz:

Eshitishimcha dadam tuni bilan og‘rib chiqibdi. – ulama konstruksiya

Dadam tuni bilan og‘rib chiqdi, eshitib qoldim. – ajratilgan konstruksiya

Aytishlaricha dadam tuni bilan og‘rib chiqibdi – ravishli

Onam qo‘ng‘iroq qilib dadam tuni bilan og‘rib chiqqanini aytdi. – kontekstual

Xuddi shu jumlani kvotativ hamda guvohiy evidensiallikda ham ishlatilish holatini ko‘rishimiz mumkin:

Onam qo‘ng‘iroq qildi va dedi: Dadang tuni bilan og‘rib chiqdi. – kvotativ evidensiallik.

Dadam tuni bilan og‘rib chiqdi, o‘zim ko‘rdim. – guvohiy evidensiallik

Keltirilgan jumlalar nafaqat anaforik referensni, balki evidensiallikni ham ifodalab kelmoqda. *Margaret stole Pete's truck.* Dalillar manbai: hisobot qayerdan olinganligi – aniqlanmagan. Dalil egasi: dalillarga ega bo'lgan – ma'ruzachi. Dalil manbai odatda, aniqlanmagan, ammo uni anaforik tarzda talqin qilish mumkin. Dalil egasi odatda, deklaratsiyalarda so'zlovchi bo'ladi, lekin ba'zi kontekstlarda boshqa shaxslar ham bo'lishi mumkin.

I talked to Pete earlier. Margaret apparently stole his truck [5; 223] – Men Peter bilan avvalroq gaplashgandim. Ko'rib turganimizdek, Margaret uning mashinasini o'g'irlab oldi. – reportativ

I talked to Pete earlier. Margaret reportedly stole his truck – Aytishlaricha, Margaret uning mashinasini o'g'irlab olibdi. – mish-mish

I saw Margaret stole his truck – Margaret uning mashinasini o'g'irlayotganini ko'rdim. – vizual

I suppose only Margaret stole his truck – Menimcha, aynan Margaret uning mashinasini o'g'irlagan – xulosaviy

Yuqorida keltirilgan dastlabki ikkita kontekst aynan anaforik referens deyiladi, chunki unda *apparently* hamda *reportedly* kabi ravishlar qo'llanishi orqali, kontekstlar takror qo'llanmoqda, biroq keyingi ikkita kontekst inson sezgilari orqali ifodalangani bois, ham evidensiallik ham nutqiy akt hisoblanadi. Shu kabi hodisani o'zbek tilida ham uchratish mumkin:

Aytishlaricha, oxirat yaqinlashayotganmish. – kataforik

Menga oxirat yaqin, deb aytishdi. – anaforik

Oxirat yaqinligi ko'rinib turibdi. – anaforik

Evidensiallik ingliz tilida ma'lumot manbasini ochib beradi, ammo evidensial propozitsiya sifatida asosiy fe'lga qo'shiladi, ramkali propozitsiyada alohida ajratib olinadi. Misol uchun,

I hear Margaret stole Pete's truck – Margeret Peterning mashinasini o'g'irladi deb eshitdim. (Bilvosita). Margaret stole Pete's truck, I hear – Margaret Peterning mashinasini o'g'irladi, o'zim eshitdim. (Bevosita) [8; 218]

Har ikkala gap grammatik evidensiallik sifatida bir-biriga parallel bo'lishiga qaramasdan, ular turlicha gaplar sanaladi. Bunda "Peter kim?", "Kim Peterni mashinasini o'g'irladi?", "Nimani eshitding?" kabi savollar tug'ilishi tabiiy.

I didn't hear that Margaret stole Pete's truck – Margaret Peterning mashinasini o'g'irladi, deb eshitmadim, boshqa narsani eshitdim. (Gumon)

Margaret stole Pete's truck, I didn't hear – Margaret Peterning mashinasini o' g'irlabdi, men eshitganim yo'q. (Tuhmat)

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, evidensiallik shaxs hamda ma'lumot to'plamidan iborat bo'lib, ba'zan dalil manbaiga, boshqa paytlarda dalil egasiga, ya'ni dalilga ega bo'lgan shaxsga ishora qiladi. Dalil manbasi aniqlanganda evidensiallikni, aniqlanmagan holida anaforani ifodalab kelishi mumkin. Evidensiallikni nafaqat grammatik kategoriya sifatida, balki pragmatik kategoriya sifatida ham tilshunoslikda uchratish mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Aikhenvald A. Evidentiality (Linguistiss) - Oxford university press: 2004. – P 193.

2.Anderson L.B. Evidentials, paths of change and mental maps//Typologisally regular asymmetries. – Norwood: 1986. – P 273.

3.Cornillie B. Evidentiality and epistemic modality, on close relationship between two categories. Functions of language. Amsterdam. – John Benjamins Publishing company: 2009. – P 52.

4.Kratschmer A. The Linguistic Realization of Evidentiality in European Languages. – Mouton de Gruyter: 2010. – P 134.

5.Langaker R. Cognitive Grammar. – Oxford: Oxford University Press: 2008. – P 51.

6.Lazard G. Mirativity, Evidentiality, Mediativity or other. // Linguistis typology. – Mouton de Gruyter: 1999. – 376 p; Lloyd B.A. Evidentials, paths of change and mental maps//Typologically regular asymmetries. –Norwood:1986. – 273 p.

7.Murray S. Evidentiality, modality and speech acts. – Cornell university, Ithaka New York, USA, volume 7. P 213-233.

8.Tenbrink T. Space, time, and the use of language: an investigation of relationships. – Berlin: Copyright by Walter de Gruyter, 2007. – 353 p;

Dilara DOSPANOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot o‘qitish metodikasining zamonaviy ta’lim jarayonidagi dolzarb masalalari tahlil qilinadi. O‘quvchilarni badiiy-estetik tafakkurga o‘rgatish, texnologik yangiliklarni darslarda qo‘llash va interfaol metodlardan foydalanish kabi mavzular ko‘rib chiqiladi. Milliy va jahon adabiyotini uyg‘unlikda o‘qitish hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, maqolada adabiyot o‘qitishda mulohazalarni tashkil etishning innovatsion usullari va o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlili batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot darsi, mulohaza, ijodiy fikrlash, o‘quvchilar faolligi, pedagogik texnologiyalar, foydali manbalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, adabiyot metodikasi, zamonaviy ta’lim, texnologik yondashuvlar.*

Аннотация: в статье анализируются актуальные вопросы методики преподавания литературы в современном образовательном процессе. Рассматриваются такие темы, как обучение учащихся художественно-эстетическому мышлению, использование технологических инноваций на уроках, использование интерактивных методов. Обосновывается важность преподавания отечественной и мировой литературы в гармонии и личностно-ориентированного подхода. В статье также дается подробный анализ инновационных методов организации рефлексии в преподавании литературы и педагогических технологий, используемых для закрепления знаний учащихся.

Ключевые слова: *урок литературы, рефлексия, творческое мышление, активность учащихся, педагогические технологии, полезные ресурсы, личностно-ориентированное образование, методика литературы, современное образование, технологические подходы.*

Annotation: this article analyzes the current issues of literature teaching methodology in the modern educational process. Topics such as teaching students to artistic and aesthetic thinking, the use of technological innovations in lessons, and the use of interactive methods are considered. The importance of teaching national and world literature in harmony and a person-oriented approach is substantiated. The article also provides a detailed analysis of innovative methods of organizing reflections in literature teaching and pedagogical technologies used to consolidate students' knowledge.

Key words: *literature lesson, reflection, creative thinking, student activity, pedagogical technologies, useful resources, person-oriented education, literature methodology, modern education, technological approaches*.

Kirish. Adabiyot – inson ma’naviy dunyosini boyituvchi va estetik didni shakllantiruvchi muhim fan hisoblanadi. XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar adabiyot o‘qitish jarayoniga ham yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Metodikaning dolzarb masalalari sifatida ta’lim mazmunining zamonaviylashuvi, texnologik integratsiya va o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mos yondashuvlarni belgilash mumkin.

Asosiy qism. Adabiyot o‘qitishning asosiy muammolari quyidagilardir:

1.**Yangi davrga mos darslik va dasturlar yaratish:** Zamonaviy o‘quvchilar ko‘pincha o‘z hayotiy qiziqishlariga mos kelmaydigan eski metodikalar bilan o‘qitiladi. Darsliklarning amaldagi mazmuni milliy qadriyatlar bilan bir qatorda global masalalarni ham aks ettirishi zarur.

2.**O‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshirish** Adabiyotga qiziqishning pasayishi zamonaviy texnologiyalar va o‘yin-kulgiga yo‘naltirilgan vositalar ta’sirida yuzaga kelmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun darslarni texnologik va ijodiy yondashuv bilan boyitish kerak.

3.**Adabiyotni amaliy hayot bilan bog‘lash.** Badiiy asarlar mazmunini bugungi kun muammolari va o‘quvchilarning kundalik hayotidagi vaziyatlarga mos ravishda tahlil qilish o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

2. Metodik yondashuvlarni takomillashtirish

1.**Interfaol metodlarning qo‘llanilishi.** Interfaol metodlar, masalan, debatlar, klaster usuli va rolli o‘yinlar o‘quvchilarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu metodlar yordamida badiiy asarlarning chuqur tahlil qilinishi va o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi.

2. **Texnologik vositalardan foydalanish**:

Elektron darsliklar va audio kitoblar: o‘quvchilarga materiallarni mustaqil o‘rganish imkonini beradi.

Multimediali prezentatsiyalar: matnni vizual ravishda o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Onlayn platformalar: virtual muhitda jamoaviy ishlashni tashkil etadi.

3.**Badiiy asarni tahlil qilishning yangi usullari** An’anaviy metodlardan voz kechmasdan, zamonaviy yondashuvlarni qo‘shish zarur. Masalan:

Kompozitsion tahlil: asarning tuzilishi va g‘oyaviy mazmunini o‘rganish.

Qahramonlar tahlili: har bir qahramonning xarakteri va harakatlarining sabablarini aniqlash.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: adabiyot o‘qitishda har bir o‘quvchining qiziqishlari, intellektual darajasi va ehtiyojlarini inobatga olish muhimdir. Shu maqsadda:

Mustaqil o‘qishga topshiriqlar (o‘quvchilarga qiziq bo‘lgan asarlarni tanlash huquqi);

Kreativ vazifalar (she’r yozish, badiiy obrazlarni sahnalashtirish);

Differensial yondashuv (o‘quvchilar qobiliyatiga qarab turli murakkablikdagi topshiriqlar).

4. Milliy va jahon adabiyotini uyg‘un o‘qitish: o‘quvchilarni milliy madaniyat bilan bir qatorda jahon madaniy merosini ham o‘rganishga yo‘naltirish muhimdir. Bu jarayonda:

Milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi mavzu va g‘oyaviy bog‘liqlikni ochib berish;

Buyuk yozuvchilar ijodi orqali insoniyatning umumiy qadriyatlarini tushuntirish.

5. Baholash va natijadorlikni tahlil qilish: adabiyot o‘qitish jarayonida baholash tizimini modernizatsiya qilish zarur. An’anaviy sinovlardan tashqari, quyidagi usullar qo‘llanishi mumkin:

Yozma ishlar (ijodiy insholar, xulosaviy tahlillar);

Portfel usuli (o‘quvchilar ijodiy ishlari to‘plami);

Taqdimot va sahna chiqishlari (asarlar asosida kichik spektakllar).

Xulosa. Adabiyot o‘qitish jarayonida o‘quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o‘qituvchidan o‘quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning qanchalik to‘g‘riligini tekshirish va dalillashga, bu yo‘lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishni o‘rgatishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlarga, hattoki, o‘qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat’i nazar, o‘z fikrini aytishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Adabiyot o‘qitish metodikasining zamonaviy masalalarini hal qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

Darsliklar va dasturlarni yangilash, ularni zamonaviy o‘quvchining qiziqishlariga moslashtirish.

Texnologik vositalarni keng joriy qilish va interfaol usullarni rivojlantirish.

O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash.

Milliy va jahon adabiyotini integratsiya qilish orqali umumiy madaniy tafakkurni shakllantirish.

Adabiyot o‘qitishning samaradorligi, bir tomondan, badiiy-estetik qadriyatlarni singdirishga, ikkinchi tomondan, zamonaviy bilimlarni o‘quvchilar dunyoqarashiga uyg‘unlashtirishga bog‘liqdir. **Umuman olganda**, adabiyot o‘qitish metodikasining takomillashtirilishi o‘quvchilarning nafaqat badiiy tafakkurini rivojlantirishga, balki ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon samaradorligi uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash, ta’lim dasturlarini zamonaviylashtirish va texnologik yutuqlardan foydalanishni kengaytirish zarur. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning adabiyot darslariga nisbatan qiziqishlarini oshirish va ular tomonidan badiiy-estetik qadriyatlarni chuqur anglashga olib keladi. Shunday qilib, adabiyot fani ta’limning nafaqat nazariy, balki amaliy va tarbiyaviy jihatlariga ham ulkan hissa qo‘shishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Nazarov, H. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.
2. Qodirov, S. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va adabiyot darslari. – Samarqand, 2019.
3.Ismoilov, A. Badiiy asarni o‘qitish metodlari. – Toshkent, 2021.
4.https://inacademy.uz/index.php/si/article/download/32336/20677/32669.
5.https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/14939/10578/10344.
6.https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRTIAI/article/download/3336/2559/2549.

Mohigul FOZILOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

ADABIYOT DARSLARINI O‘QITISHDAGI MULOHAZALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot darslarini samarali o‘qitishda mulohazalar (diskussiyalar)ning o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Mulohazalar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada adabiyot o‘qitishda mulohazalarni tashkil etishning innovatsion usullari va o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *adabiyot darsi, mulohaza, ijodiy fikrlash, o‘quvchilar faolligi, pedagogik texnologiyalar, foydali manbalar, qadriyat, ilm.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль и значение размышлений (дискуссии) в эффективном преподавании на уроках литературы. Размышления служат важным инструментом в развитии навыков творческого и критического мышления учащихся. В статье анализируются инновационные методы организации рефлексии в преподавании литературы и педагогические технологии, используемые для закрепления знаний учащихся.

Ключевые слова: *урок литературы, рефлексия, творческое мышление, деятельность учащихся, педагогические технологии, полезные ресурсы, ценность, наука.*

Annotation: this article examines the role and importance of reflections (discussions) in effective teaching of literature lessons. Reflections serve as an important tool in developing students' creative and critical thinking skills. The article analyzes innovative methods of organizing reflections in teaching literature and pedagogical technologies used to consolidate students' knowledge.

Key words: *literature lesson, reflection, creative thinking, student activity, pedagogical technologies, useful resources, value, science.*

Kirish. Adabiyot fanini o‘qitish maqsadi nafaqat o‘quvchilarga badiiy asarlarni tushunib o‘qitish, balki ularda mustaqil fikrlash, ma’naviy yuksalish va hayotni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu sababli adabiyot darslarida mulohazalar tashkil qilish alohida ahamiyatga ega.

Har qanday jamiyatning taqdiri, unda yashaydigan insonlar tafakkuri va axloqining qandayligi bilan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa’riga tortish ham shunga bog‘liq. Shuning uchun ham jamiyat ahli, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy va intellektual kamoloti muhim hayotiy masala hisoblanadi. Bu hol butun ta’lim tizimi, undagi darslik hamda metodik qo‘llanmalarning shu yo‘nalishga solinishini taqozo qiladi. Ular mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog‘lom fikrli va ezgu ma’naviyatli odam shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Milliy pedagogika ilmi ham ma’naviy barkamol avlod tarbiyalash yo‘llarini tadqiq etmog‘i zarur[1].

Asosiy qism. Mulohaza jarayoni o‘quvchilarning aqliy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu dars davomida faqat muallif nuqtayi nazarini emas, balki o‘quvchilarning individual qarashlarini ham shakllantiradi. Masalan, badiiy asar qahramonlari harakatlarini baholashda turli fikrlarni bildirgan o‘quvchilar o‘z fikrlash doirasini kengaytiradi.

Adabiyot darsida mulohazalarni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Savol-javob usuli: muhokama qilish uchun muayyan savollarni o‘rtaga tashlash;

Kichik guruhlarda ishlash: o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularning fikrlarini yozib olishga imkon berish;

Bahsli mavzularni kiritish: badiiy asardan kelib chiqqan holda, bahs-munozara uyushtirish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida mulohazalarni interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish katta samaradorlikni ta’minlaydi. Masalan:

“Klaster” usuli yordamida badiiy asarning asosiy g‘oyalarini tahlil qilish;

“Fikrlar daraxti” orqali o‘quvchilarning nuqtai nazarlarini tizimlashtirish;

Raqamli platformalarda virtual muhokamalar tashkil etish.

Adabiyot o‘qitishning zaruriyati – insonning ma’naviy va intellektual rivojlanishi, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni avlodlarga yetkazish va jamiyatda estetik didni shakllantirish kabi asosiy maqsadlarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida uning asosiy zaruriyatlari haqida tahlil

1 Muhammad Yasin Eldash, Razia Sadri Sarepul ADABIYOT O‘QITISHDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2023. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyot-o-qitishda-mustaqil-fikrlashning-ahamiyati (дата обращения: 28.11.2024).

beramiz:

1. Ma’naviy kamolot – adabiyot o‘qitish orqali shaxsda axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanadi. Tarixiy asarlar milliy o‘zlikni anglashga, zamonaviy asarlar esa hozirgi davrning dolzarb masalalarini tushunishga yordam beradi.

2. Til va ifoda madaniyatini rivojlantirish – adabiyot til madaniyatini rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Adabiy asarlarni o‘qib, o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, go‘zal va ravon fikrlashni o‘rganadi, nutq madaniyatini shakllantiradi.

3. Dunyoqarashni kengaytirish – adabiyot inson dunyoqarashini kengaytiradi, turli hayotiy masalalar va insoniy munosabatlarga chuqur yondashuvni shakllantiradi. Bu esa yosh avlodni ilm-fanga va ijodkorlikka rag‘batlantiradi.

4. Tarixiy va madaniy merosni saqlash – adabiyot darslari o‘quvchilarga milliy tarix va madaniyatni o‘rganish, qadrlash imkoniyatini beradi. Buyuk shoirlar va yozuvchilarning ijodi orqali madaniy merosni avlodlarga yetkazish – adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biridir.

5. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish – adabiyot o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish, estetik didni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maydon yaratadi. Har bir insonning hayotiy maqsadlari va qiziqishlariga mos keladigan asarlar orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati mavjud.

6. Kreativ fikrlashni shakllantirish – adabiyot fikrlash va ijod qilishni o‘rgatadi. O‘quvchilar asarlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va muallifning g‘oyalarini anglash orqali kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Adabiyot darslari orqali insonda nafaqat bilim, balki hissiyot va estetik didning uyg‘unligi shakllanadi. Shu sababli, adabiyot o‘qitish ta’lim tizimining ajralmas va muhim qismidir.

Xulosa. Adabiyot darslarini o‘qitishda mulohazalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ushbu metodlarni tizimli ravishda joriy etish orqali darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Adabiyot darslarini o‘qitishda informatika vositalari, aynan veb texnologiyalardan foydalanish ushbu darslarni o‘zlashtirilishi darajasini o‘stiradi. O‘quvchilar uchun mavzuni tushunish va mavzudagi har bir ma’lumotni qabul qilish samaradorligini oshiradi[1].

Adabiyot o‘qitish jarayonida o‘quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o‘qituvchidan o‘quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning qanchalik to‘g‘riligini tekshirish va dalillashga, bu yo‘lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishni o‘rgatishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlarga, hattoki o‘qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat’i nazar, o‘z fikrini aytishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Muallim tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtirib borishi; qolipda fikrlashga yo‘l qo‘ymasligi, nafaqat darslik mualliflari, balki o‘rtoqlarning fikr-mulohazalarini ko‘r-ko‘rona takrorlamaslikka, ijodiy izlanishga yetaklashi; har bir o‘quvchining aql-idrok darajasini hisobga olib, ularning aqliy imkoniyatlarini ishga sola bilishi; har bir o‘quvchi oldiga o‘ziga xos muammo qo‘ya olishi va uni yechishga yo‘naltirishi, uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga odatlantirishi zarur.

1 Mavlyanova Shahodat Djambulovna ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyot-fanini-o‘qitishda-interfaol-usullari (дата обращения: 28.11.2024).

Foydalanilgan adabiyotlar

1.www.ziyonet.uz.

2.ADABIYOT O‘QITISH METODIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI. (2024). *“XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA’LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR” Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi*,*2*(5),399402. https://universalpublishings.com/index.php/itfttdm/article/view/5791

3.https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/15793/11370/11147.

4.https://e-library.sammu.uz/uploads/books/Uzbek%20tilidagi%20adabiyotlar/Pedagogika/Adabiyot%20o%60qitish%20metodikasi-%20Tom%202-%20Husanboyeva%20Q-%202022.pdf.

5.https://tsuull.uz/sites/default/files/4._r.niyozmetova._adabiyot_oqitish_metodikasi.pdf.

Shaxnoza KADIROVA,
TerDPI Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi p.f.f.d., PhD, dotsent

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI-PEDAGOGLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, kerakli bilimlarni berishda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik madaniyati tasvirlangan.

Kalit so‘z: *bola, xalq, ijod, vosita, g‘urur, ta’lim, pedagogik.*

Annotation: one of the main tasks of pedagogues of preschool educational organizations in forming a sense of national pride in preschool children through folk art is to acquire pedagogical culture. Pedagogical culture of teachers-pedagogues is described in providing highly qualified, necessary knowledge for educatingthe young generation, and in forming a sense of national pride in children of preschool age.

Key words: *child, people, creativity, tool, pride, education, pedagogy.*

Аннотация: одной из основных задач педагогов дошкольных образовательных организаций в формировании у дошкольников чувства национальной гордости посредством народного творчества является приобретение педагогической культуры. Педагогическая культура учителей-педагогов характеризуется предоставлением высококвалифицированных, необходимых знаний для воспитания подрастающего поколения, формированием чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: *ребенок, человек, творчество, инструмент, гордость, образование, педагогика.*

Kirish. Ma’lumki, tarbiyachilar bolalarga insonni o‘rab olgan olamning murakkabligini, ajoyibotlarini, sirliligini anglashlariga, tabiat inson turmush tarzi qulayliklarining garovi ekanligini tushunib yetishlariga shu sababdan tabiatni muhofaza qilishni idrok qilishlariga yordamlashadilar. Shuni unutmaslik lozimki, tabiatdagi hamma narsa, voqea-hodisalar bolalar uchun qiziqarli va sirli topishmoqday tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar. Bola dastlabki tizimli ta’limni maktabgacha ta’lim tashkilotida oladi. Binobarin, uning sog‘lom, har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishi bevosita pedagog-tarbiyachi faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan qo‘llanilgan “milliy g‘urur” tushunchasining mazmuni umumiy obyektiv va subyektiv dialektik yaxlitligini birlashtiradi, bu ma’naviy tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur muhim hodisaning haqiqiy, amaldagi holatini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ma’naviy ong mexanizmlarining obyektiv talablari va qonuniyatlariga tayanish, bir tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarini hisobga olish, boshqa tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning ma’naviy madaniyati ko‘rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil va natija. Tadqiqot ishlari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda bolalarning o‘zbek xalqining milliy an’analari bilan izchil tanishtirib borish zaruratini ko‘rsatdi.

Biz, bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishni, ularni o‘zbek xalqining hayoti, madaniyati va san’ati bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiqligiga amin bo‘ldik, chunki mazkur yosh davrida barcha tarbiya masalalarini aniq va tushunarli bo‘lishiga erishish mumkin.

Shuning uchun ham, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma’naviy madaniyatini kengaytirish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni inobatga olib va mazkur yosh davrida milliy g‘ururni tarbiyalashning nazariy, metodologik holatlariga asoslanib, quyidagi tanlov tamoyillari belgilandi.

I. Agar vazifalar pedagogik vazifalar singari aniqlashtirilgan, haqiqiy ma’naviy imkoniyatlarni, o‘z xalqining bevosita uning hayot faoliyatiga yaqin bo‘lgan an’analarini, tarbiyalanuvchi jalb etilgan ijtimoiy insonparvarlik munosabatlari tizimi inobatga olinsagina, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs ma’naviy sifatlari va xususiyatlarini to‘laqonli tarbiyalash mumkin.

II. Shaxsga yaxlit yondashuv tamoyili. Alohida cheklangan sifatlar tarbiyaning bevosita maqsadi bo‘la olmaydi, chunki sifatlarning o‘zi maqsad, vazifasi, mazmuni, obyektni o‘rganish, ta’sir etish metodlari tizimi ularni to‘g‘rilash, natijalarni hisobga olish kabilarni qamrab oluvchi tarbiyaviy jarayonning markaziga qo‘yilgan yaxlit shaxs mazmunidagina haqiqatda namoyon bo‘lishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyat tizimining optimal qurilishi holatlariga binoan, maktabgacha katta yoshdagi

bolaning xulqi alohida cheklangan maqsadlar bilan emas, balki aniq sharoitlarda ularga erishish orqali belgilanishi sababli, shaxsning u yoki bu sifati kengaytirilmay, balki shaxsga tegishli barcha sifatlar va xususiyatlar to‘liq qamrab olinganda dasturning samaradorligi yuqori bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-ahamiyatli motivlar asosidagi yaxlit shaxsining bunday sifatlar va xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

1) maktabgacha ta’lim tashkilotlariga, uning hayot faoliyati tarziga, tarbiyachiga, tengdoshlar guruhiga, oilasiga, o‘z-o‘ziga ma’naviy-insonparvarlik xarakterdagi munosabat xususiyati bilan.

2) ijodiy ehtiyojlar va qobiliyatlarning to‘liq rivojlanishi asosida, faoliyatni bajarish usullarini egallashda yaratuvchanlik, jarayonga kiritilgan bolalar faoliyati turlarining hajmida turli-tuman qiziqishlar asosidagi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar uyg‘unlashuvi asosidagi faoliyat madaniyati bilan.

3) kattalarga hurmat, tengdoshlarini tan olish asosidagi ijobiy o‘zaro munosabatlarni ta’minlovchi guruhli o‘zaro ta’sir sharoitida muhim ijtimoiy funksiya sifatidagi muloqot madaniyati bilan. Shu orqali shaxsiy-subyektli munosabatlari insonparvarlik va hamkorlik asosida quriladi.

4) insonparvarlik munosabatlari tizimida namoyon bo‘luvchi shaxsning ma’naviy-irodaviy va ijobiy hissiy sifatlari hamda xususiyatlari bilan, ularni hayotdan mamnunlik, qadr-qimmat, pedagogga, boshqa katta insonlarga va tengdoshlariga ishonchli munosabat, kamtarlik, haqgo‘ylik, adolatlilik, ozodalik, do‘stonalik, mustaqillik tashkil etadi.

Sanab o‘tilgan tarkibiy tashkil etuvchilar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini tarbiyalash mazmunini belgilab beradi. Ular ma’naviy tarbiya jarayonining tarkibiy tashkil etuvchilari hisoblanadi, maktabgacha yosh davrida ma’naviy-barkamol shaxsni rivojlantirishni belgilab beradi.

Milliy g‘urur to‘g‘risidagi tushunchalarning funksiyalari tarbiya tizimiga pedagogik jarayonning “teskari aloqa” xususiyati va natijalarini ochib berish, yosh guruhlari orasidagi, shuningdek MTM va boshlang‘ich maktab orasidagi ichki jarayonning uzluksizligiga majmuaviy yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday yondashuv ahamiyatli bo‘ladi, chunki tarbiyalanuvchilarning ma’naviy qobiliyatlari, tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida pedagogik o‘zaro ta’sir, hamkorlikning rivojlanishini dolzarblashtiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishning tanlov tamoyillarining zarurati, ma’naviy-axloqiy madaniyat va qalb kuchi uchun ikki asosiy jihatlar zarur ekanligi bilan belgilandi:

birinchisi – xalqning ruhiy psixologik uslubini shakllantiruvchi milliy ong;

ikkinchisi – madaniyatning umuminsoniy elementlari, umuminsoniy qadriyatlarga aloqadorlik hissi.

Ma’lumki, milliy o‘z-o‘zini anglash milliy cheklanishdan xolis bo‘lgan xalqlardagina chuqur va moslashuvchandir. Shuning uchun tarbiyaviy dasturning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy an’analar bilan integratsiyasini, milliy ong, umuminsoniy madaniyatli millatning ruhiy madaniyati shakllanishining asosiy sharti deb hisoblaymiz.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Umumiy mazmunda madaniyat tushunchasi ostida ma’naviy va moddiy boyliklarni jamlash tushuniladi, katta inson esa ularni tarixdan hozirgi vaqtga va kelajakka yetkazuvchi hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari va tarbiyalanuvchilarining ota-onalarida bir xilda yuzaga keladigan qator muammolarni ajratish lozim. Birinchidan, pedagogik madaniyat nima ekanligi va uni namoyon etish usullari qandayligi to‘g‘risidagi yaqqol tushuncha mavjud emas. Ikkinchidan, ota-onalarning o‘z ishlarida, tarbiyachilar esa pedagogik jarayonni amalga oshirishda haddan ortiq bandliklari tufayli kattalarning teatrlar, muzeylar, ko‘rgazmalarga tashrif buyurishga vaqtlari yetishmaydi. Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha pedagoglari ham ota-onalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish metodikasiga bir xilda ega emaslar.

Milliy g‘urur madaniyat bilan inson faoliyatining boshqa faoliyat turlaridan ko‘proq bog‘liqdir. U jamiyatning alohida sohasi hisoblanib, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy insonni shakllantirishni amalga oshiradi, madaniy meros, shaxsni ijtimoiylashtirish, uning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun ham, mutaxassisning madaniyati uning kasbiy faoliyatida alohida rolga ega, u shaxsga yaxlit ta’sir ko‘rsatadi, kasbiy-shaxsiy munosabatlar tizimida mustahkam o‘rin egallashga, o‘zini va faoliyatdagi o‘z rolini anglashga ko‘maklashadi, tanlangan kasb doirasida ijodning integral ko‘rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Mutaxassis madaniyatining umumiy mazmundagi ko‘rsatkichi sifatida shaxsning dunyoqarashi kengligi va yo‘nalganligini, ijtimoiy faolligi darajasini, hissiy ta’sirchanlik xususiyatlarini ham qabul qilish mumkin.

Aytilganlarga ko‘ra, pedagogik madaniyat pedagogik jarayonning integrativ tavsifini ifodalaydi. U insonlarning orttirgan ijtimoiy tajribalarini hamda bir avloddan boshqa avlodga yetkazib berish bo‘yicha bilimlar, ko‘nikma, malakalar, kompetensiyalar va maxsus institutlar ko‘rinishida mustahkamlangan mazkur faoliyatning natijalarini yetkazib berish bo‘yicha bevosita faoliyat yaxlitligidan tarkib topadi.

Agar madaniyat ixtiyoriy aniq bir faoliyat turiga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni ifoda etsa, unda

pedagogik madaniyat yosh avlodni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha faoliyatga qo‘yiladigan talablarni ifodalaydi.

Xulosa. Ishning barcha bosqichlari va davrlarida, ota-onalar bilan ishlashning turli-tuman usullari faol qo‘llaniladi: bayon etilayotgan material bo‘yicha ota-onalarga savollar; bahsli masalalar; muqobillari berilgan takliflar; adabiyotlardan misollar keltirish; shaxsiy tajribasidan misollar keltirish.

Tajribalar ko‘rsatishicha, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va metodik kompetentligi qanchalik yuqori bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining mazkur ko‘rsatkichlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.X.Abdullayev. O‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Fil. fan. nomz. ... yozilgan. diss. – T., 1994. 11-b.
2. D.A. Abdurahimova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Ped. fan. nomzodi … diss. – T., 1998.
3. N.Safarova. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. Fil.fan.nom....dis. – T.: O‘zR.FAA. A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti, 2005.
4. N.A.Moreva. Osnovы pedagogicheskogo ma¬sterstva [Tekst] / N. A. Moreva. - M.: Prosveщyeniye, 2006. - 320 s.
5. O.L.Zvereva. Semeynaya pedagogika i do¬mashneye vospitaniye detey rannego i doshkolnogo vozrasta [Tekst] / O. L. Zvereva, A. N. Ganicheva, T. V. Krotova. - M.: Sfera, 2009.-256 s.
6. K.S.Xudoyberdiyevna. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda oilaning o‘rni //Innovation in the modern education system. – T., 2023. 3. – №. 29. 67-79-betlar.
7. K.S.Xudoyberdievna. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda oilaning o‘rni //Новости образования: исследование в XXI веке. – T., 2022. 1. – №. 5. 360-370-betlar.

Dilnoza NOSIROVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
pedagogka fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), v.v.b.dotsent

MAKTABGACHA TA’LIMDA HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNI O‘TKAZISHNING BA’ZI JIHATLARI

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta’limda harakatli o‘yinlarni tashkil etish va ularni o‘tkazishning ba’zi jihatlari batafsil yoritilgan. Harakatli o‘yinlarning bog‘chalarda kichik, o‘rta va katta guruhlarda tashkil etilishida farqlar mavjudligi ta’kidlangan. Harakatli o‘yinlarning mazmuni va qoidalarini tushuntirish tarbiyachidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur o‘yinlar orqali bolalarning tasavvurlari aniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosan dunyoqarashi kengayadi.

Kalit so‘zlar: *bola, xalq, ijod, vosita, g‘urur, ta’lim, pedagogik.*

Annotation: the article describes in detail some aspects of organizing and conducting mobile games in preschool education. It was noted that there are differences in the organization of movement games in kindergartens in small, medium and large groups. Explaining the content and rules of action games requires careful preparation from the teacher. Through these games, children's imaginations are defined, their attitude towards game characters is formed, and their outlook on the world expands.

Key words: *child, people, creativity, tool, pride, education, pedagogy.*

Аннотация: в статье подробно описаны некоторые аспекты организации и проведения подвижных игр в дошкольном образовании. Отмечено, что существуют различия в организации двигательных игр в детских садах в малых, средних и больших группах. Объяснение содержания и правил подвижных игр требует от воспитателя тщательной подготовки. Посредством этих игр определяется воображение детей, формируется их отношение к игровым персонажам, расширяется взгляд на мир.

Ключевые слова: *ребенок, человек, творчество, инструмент, гордость, образование, педагогика.*

Kirish. Tarbiyachining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga

oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi, bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o‘yinni o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi.

Asosiy qism. Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko‘ra sodda bo‘lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o‘yinlar tashkil etiladi. Bu o‘yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig‘ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo‘ladi…) bajaradilar.

Uch yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o‘rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo‘ladi).

O‘rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o‘yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o‘tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshiriq jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek, jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o‘yinlarini, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikning rivojlanishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har xil o‘tishi mumkin, biroq bu tadbir doimo emotsional jihatdan qiziqarli, bolalarni quvnoq o‘yin faoliyatiga tayyorlaydigan, o‘yinni tezroq boshlash istagini tug‘diradigan va o‘yin topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishga undaydigan bo‘lishi kerak.

Mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali ohangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir nechta savollar beradi. O‘yinning qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan o‘tadi.

Musobaqa elementlari mavjud o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini, musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlari va yaxshi uddalashlariga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy kamoloti va yakka o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar – komandalarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qo‘shib qo‘yadi.

Ba’zan o‘yinga sport ko‘rinishini berish uchun komanda sardorlari, hakam va uning yordamchilarini saylash mumkin. Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish. Tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘z o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusini faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin. O‘rta guruhlarda – tanish o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish bilan cheklanishi kifoya.

Katta guruhlarda o‘yin mazmunini eslashni bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachining yordamisiz o‘yinni tashkil eta boshlaydilar. O‘yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani rag‘batlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir bo‘lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o‘ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo‘rqib turgan tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni xursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi.

Shuningdek, boshlovchi saylashni bolalarning o‘ziga havola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so‘rashi mumkin. Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachining o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar harakati va o‘zaro munosabatlari, qoidalarning bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi.

O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan holga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin.

O‘yin tugagan zahoti uning yakunini chiqarish kerak emas, bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta’sir etadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordamini ko‘rsatgan bolalar nomini aytadi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi.

Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarni harakatli o‘yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda

o‘yinlarning borishini va ayniqsa, qoidalarning bajarilishini hamda bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni kuzatib boradi. U bolalarga harakatli o‘yin variantlarini uning mazmuni, qoidasini, o‘yin harakatlarini o‘zgartirgan holda o‘ylab topish, keyinchalik yangi o‘zi o‘ylab o‘yin topish kabi topshiriqlar beradi.

Katta guruh bolalarida mustaqillik, tashkilotchilik malakasini tarbiyalash maqsadida tarbiyachi ularga kichik guruh bolalari bilan o‘yin tashkil etishni taklif etadi. O‘yin kichik guruh tarbiyachisi kuzatuvi ostida o‘tkaziladi. Harakatli o‘yinlar bolalarni har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. O‘yin faoliyati qaysi shaklda ifodalanmasin bolani quvontiradi, ularda ijobiy hislarni uyg‘otadi. Harakatli o‘yinlar bola dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni bilishida o‘ziga xos vosita hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlardagi qoidalar o‘yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini yo‘lga soladi, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Har bir bolaning o‘yin qoidasini anglashi va unga rioya qilishda kattalarning rahbarligi katta ahamiyatga egadir. O‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljal olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o‘yinlar ijodiy xayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi.

Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmini o‘zi ham juda takomillashadi. Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi bir tomondan o‘yin vaziyatini (bevosita idrok qilinadigan) va ko‘rish-motor reaksiyasini (o‘yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomondan, o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab etadi.

O‘yinlar mazmunini, butun o‘yin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o‘rnini, o‘yin atributlarini va harakat yo‘nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko‘rsatish, o‘tkazilgan o‘yinga baho berish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Harakatli o‘yinlar katta yoshdagi bolalarda ijodiylikning rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklari mazmuni asosida kichik o‘yinlar o‘ylab topishlari mumkin, harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. O‘yin harakatlarining rang-barangligi ularni bolalar aniq chaqqonlik bilan, o‘ziga xos ifodali bajarishlarida ifodalanadi. Harakatli o‘yinlarda musiqani qo‘llash katta estetik ahamiyatga egadir.

Xulosa. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi, bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o‘yinni o‘tkazish o‘rni, shuningdek, bolalar qiziqishlarining o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongining o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.S.Usmonxo‘jayev Harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1992.
2. K.M.Maxkamdjanov, F.A.Nurmatov, L.A.Inozemseva, L.Rustamov Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. Darslik. – T., 2008.
3. P.Xojayev, K.D.Raximqulov, B.B.Nigmanov. “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi”. – T.: Cho‘lpon nashriyoti, 2010.
4. R.I.Azizova. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2010.
5. K.D.Raximqulov. Milliy harakatli o‘yinlari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2012.
6. М.Н.Жуков. М.: Подвижные игры: Учеб. для студ. пед. вузов. Издательский центр «Академия» 2000. - 160 с.
7. F.Xo‘jayev, M.Murodov, S.Mirsolixov. “Xalq milliy o‘yinlari” 1-qism. – Toshkent, 2001.
8. K.D.Rahimqulov, T.S.Usmonxo‘jayev. “Jismoniy tarbiyadan bolalar va o‘smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o‘yinlar”. 2001.

Nasiba XOLBOZOROVA,
SDHPI o‘qituvchisi

“DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA’LIMIDA TALABALARNI O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI (boshlang‘ich talim yo‘nalishi misolida)”

Annotatsiya: differensial ta’lim turli tashkiliy shakllarda, turli ta’lim vositalari yordamida va turli darajadagi (xususan, uslubiy, texnologik, umumiy pedagogik, ijtimoiy) amalga oshiriladi.Zamonaviy o‘quv amaliyotida differensiatsiyaning turlari va shakllarining quyidagi tasnifi qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *differensial ta’lim, metodika, o‘qituvchi, ta’lim oluvchi, sinf, yechim.*

Аннотация: дифференцированное образование реализуется в разных организационных формах, с использованием разных образовательных инструментов и на разных уровнях (в частности, методическом, технологическом, общепедагогическом, социальном). В современной образовательной практике используется следующая классификация видов и форм дифференциации.

Ключевые слова: *дифференциальное обучение, методика, учитель, обучающийся, класс, решение.*

Annotation: differentiated education is implemented in various organizational forms, using various educational tools and at various levels (in particular, methodological, technological, general pedagogical, social). In modern educational practice, the following classification of types and forms of differentiation is used.

Key words: *differentiated education, methodology, teacher, learner, class, solution.*

Bir xil guruhlarni shakllantirish uchun asos bo‘lgan bolalarning xarakterli individual psixologik xususiyatlariga asoslanib, differensiatsiya ajratiladi:

— yosh tarkibi bo‘yicha(maktab sinflari, yosh parallelligi, turli yosh guruhlari);

— jinsi bo‘yicha (erkak, ayol, aralash sinflar, jamoalar, maktablar);

- qiziqishlari bo‘yicha(gumanitar fanlar, fizika-matematika, biologiya-kimyo va boshqa guruhlar, yo‘nalishlar, kafedralar, maktablar);

— yutuqlar darajasi bo‘yicha;

— shaxsiy psixologik tiplar bo‘yicha (fikrlash turi, xarakter aksentatsiyasi, temperament, sotsiotip va boshqalar);

- salomatlik darajasiga ko‘ra (jismoniy tarbiya guruhlari, ko‘rish, eshitish, kasalxona sinflari).

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion yondashuvlar, blended learning, lingvistik qiyinchiliklar, madaniy farqlar, simulyatsiya va rolli o‘yinlar, virtual ta’lim.*

Аннотация:в данной статье изучаются трудности, возникающие в процессе развития коммуникативной компетентности студентов-туристов на английском языке, и технологии их устранения. Подчеркивается, что в нынешнюю эпоху глобализации от профессионалов сферы туризма требуется умение эффективно общаться на английском языке. В статье анализируются языковые, культурные и психологические трудности и предлагаются современные образовательные технологии для их преодоления, включая смешанное обучение, симуляцию, ролевые игры и виртуальную среду обучения. Также обсуждаются преимущества межкультурного обучения и мобильных приложений. В статье освещены инновационные подходы, направленные на повышение качества образования в сфере туризма, а также включены рекомендации по развитию коммуникативной компетенции на английском языке.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, современные образовательные технологии, инновационные подходы, смешанное обучение, языковые трудности, культурные различия, симуляционные и ролевые игры, виртуальное образование.*

Annotation:this article studies the difficulties encountered by tourism students in the process of developing their communicative competence in English and the technologies for their elimination. It is emphasized that in the current era of globalization, the ability to communicate effectively in English is required from tourism professionals. The article analyzes linguistic, cultural and psychological difficulties and proposes methods for their elimination, including modern educational technologies, including Blended Learning, simulation, role-playing games and virtual learning environments. It also discusses the advantages of cultural cross-training and mobile applications. The article highlights innovative approaches aimed at improving the quality of education in tourism and includes recommendations for the development of communicative competence in English.

Key words: *communicative competence, modern educational technologies, innovative approaches, Blended Learning, Linguistic difficulties, cultural differences, simulation and role-playing games, virtual education*

Kirish. Globallashuv jarayoni va xalqaro hamkorlikning kengayishi turizm sohasini dunyo iqtisodiyotining muhim tarmog‘iga aylantirdi. Turizm sohasi mutaxassislaridan yuqori darajada til bilimini, xususan, ingliz tilida mukammal kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishni talab qiladi.Turizm yo‘nalishi talabalari ingliz tilida erkin so‘zlasha olishi, kasbiy muloqot jarayonlarini samarali boshqara olishi va turli madaniyatlar vakillari bilan o‘zaro tushunish qobiliyatini shakllantirishi zarur. Biroq, ushbu jarayonda ko‘plab qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Mazkur maqolada turizm yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalar hamda metodik yondashuvlar tavsiya etiladi.

Turizmda kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati

Turizm sohasida mutaxassislar turli mamlakatlar vakillari bilan ishlaydi, bu esa ularning ingliz tilida yuqori darajada muloqot qilish qobiliyatini talab qiladi. **Kommunikativ kompetensiya** - bu tilni grammatik to‘g‘ri qo‘llash bilan birga, muloqot vaziyatlarini

tushunish, madaniy xususiyatlarni hisobga olish va aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Turizm yo‘nalishidagi talabalar uchun kommunikativ kompetensiyaning ahamiyatini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Mehmonlar bilan muloqotda samaradorlik: mehmonxona yoki gid sifatida ishlaganda, tashrif buyuruvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatish zarur.

Xalqaro miqyosda ishlash imkoniyati: ingliz tilini yaxshi bilish talabalarni dunyo bozorida raqobatbardosh qiladi.

Turli madaniyatlarga moslashuv: millatlararo madaniyatni tushunish turizmdagi ish jarayonlarini yengillashtiradi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi qiyinchiliklar

Ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklar yuzaga keladi:

Lingvistik qiyinchiliklar

Talabalar ko‘pincha grammatik bilimlarga ega bo‘lsa ham, ularni muloqot jarayonida qo‘llashga qiynaladilar. Shuningdek, kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish ham qiyinchilik tug‘diradi.

Madaniy farqlar

Muloqot jarayonida turli millat vakillari madaniy o‘zgarishlariga muvofiq tarzda til qo‘llash zarurati yuzaga keladi. Masalan, turizmda mehmonlarga hurmat bilan murojaat qilishning madaniy farqlari bor.

Psixologik qiyinchiliklar

Ko‘pchilik talabalarda so‘zlashuv ko‘nikmasini amalda qo‘llashda ishonchsizlik va xato qilish qo‘rquvi mavjud. Bu esa ularning so‘zlashuvga bo‘lgan rag‘batini pasaytiradi.

O‘quv jarayonidagi chegaralar

Amaliy mashg‘ulotlar yetishmasligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdagi cheklovlar talabalarning so‘zlashuv qobiliyatini cheklaydi.

Qiyinchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari

Talabalarning ingliz tilida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion metodlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Quyida asosiy yechimlar va texnologiyalar keltiriladi:

Blended Learning (Aralash o‘qitish)

Blended Learning usuli an’anaviy dars jarayoni va zamonaviy onlayn ta’lim texnologiyalarini uyg‘unlashtiradi. Bu usul talabalarga:

Onlayn platformalar orqali so‘z boyligini kengaytirish.

Interaktiv mashqlar va simulyatsiya orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Simulyatsiya va rolli o‘yinlar

Simulyatsiya texnologiyalari, masalan, turizmda ishlash jarayonlarini aks ettiruvchi senariylar, talabalarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Rolli o‘yinlar orqali talabalar so‘zlashuv ko‘nikmalarini qo‘llay oladilar.

Virtual ta’lim muhiti

Masofaviy o‘qitish platformalari (*Moodle*, *Coursera*) turli dars materiallarini taqdim etadi. Ushbu muhit talabalarga mustaqil ravishda malakasini oshirish imkoniyatini beradi.

Madaniy kross-treninglar

Turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga yo‘naltirilgan treninglar talabalarning xalqaro muloqotga tayyorgarligini oshiradi.

Mobil ilovalar va interaktiv o‘quv vositalari

Zamonaviy ilovalar (*Duolingo, Busuu, Memrise*) talabalarga tilni har kuni mashq qilish imkonini taqdim etadi.

Qo‘shimcha metodika: Case Study

Masalan, bir o‘quv jarayonida Blended Learning metodi qo‘llanilganda, talabalarga:

10 kun davomida turizm terminologiyasiga oid onlayn mashg‘ulotlar beriladi.

5 kunlik simulyatsiya mashg‘uloti o‘tkaziladi, unda mehmonlarni kutib olish, mehmonxona xizmatini tushuntirish kabi vazifalar bajariladi.

Natijada talabalarning muloqotga bo‘lgan ishonchi 20% oshishi qayd etiladi.

Xulosa. Ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish turizm sohasi mutaxassislari tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Yuqorida keltirilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interaktiv usullar va mobil vositalardan foydalanish talabalarni samarali o‘qitishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni xalqaro darajada raqobatbardosh mutaxassisga aylantiradi.Shu bois, turizm yo‘nalishida ta’lim sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini yanada chuqurroq o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kodirovna Y. D. Peculiarities of teaching English based on a communicative approach to students of the Tourism department //International journal of pedagogics. – T, 2022. №.2.10. – C. 68-71.

2. Yuldasheva D. The importance of cooperative learning and group work in English classes //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – T. 100.

3.Yuldasheva D. Methods of developing communicative competence in English for students of tourism //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 293-298.

4. Юлдашева Д.Turizm yo‘nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o‘rgatish usullari //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – T, 2023.3.

Umida ISAYEVA, **Nigora AKRAMOVA**
Associate professors. Foreign language department. Foreign language faculty. Tashkent State Pedagogical University.

VIDEO RESOURCES FOR DEVELOPING LISTENING SKILLS OF B2 LEVEL PUPILS

Annotation: the present investigation investigates the efficacy of various types of video materials in improving the listening comprehension skills of B2-level language learners. The research investigates both the advantages and disadvantages of employing authentic video content, such as movies, podcasts and YouTube educational channels. The study's goal is to show the importance of video in increasing comprehension, vocabulary acquisition and listening skills at the intermediate language competency level.

Key words: *listening, comprehension, exercises, materials, methods, video resources.*

Annotatsiya: ushbu tadqiqot B2 darajasidagi til o'rganuvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini yaxshilashda turli turdagi video materiallarning samaradorligini o'rganadi. Tadqiqot filmlar, podkastlar va YouTube ta'lim kanallari kabi haqiqiy video kontentidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganadi. Tadqiqot maqsadi - o'rta darajadagi til malakasi darajasida tushunish, so'z boyligini o'zlashtirish va tinglash qobiliyatlarini oshirishda videoning ahamiyatini ko'rsatishdir.

Kalit so'zlar: *tinglash, tushunish, mashqlar, materiallar, usullar, video manbalar.*

Аннотация: настоящее исследование исследует эффективность различных типов видеоматериалов в улучшении навыков понимания речи на слух у изучающих язык на уровне B2. В исследовании изучаются как преимущества, так и недостатки использования аутентичного видеоконтента, такого как фильмы, подкасты и образовательные каналы YouTube. Цель исследования — показать важность видео для улучшения понимания, приобретения словарного запаса и навыков аудирования на среднем уровне языковой компетенции.

Ключевые слова: *аудирование, понимание, упражнения, материалы, методы, видеоресурсы.*

Introduction

Listening is an important skill for students of foreign languages, especially at the B2 level of competency, where learners are expected to absorb went further speech and complicated texts. The study looks at many forms of video resources such as movies, educational videos, YouTube channels and podcasts, and assesses the effectiveness of each in enhancing understanding what is said. Regular exposure to podcasts helps learners tune into several distinct speaking speeds as well as understand how to pick out meaning compared to just auditory data. (Vandergrift & Goh, 2012).

Methods

The study takes a qualitative approach by analyzing existing literature on video-based language learning and gathering data from student responses. The study was carried out in a language school, where a group of 30 B2-level students participated in a series of video-based listening activities for six weeks. These activities included watching short snippets, full-length movies and instructional YouTube videos, which were followed by inquiries regarding comprehension and conversations. One of the most significant advantages of using video resources is exposure to actual, conversational language. According to Vandergrift (2007), real-world listening materials such as movies and YouTube videos provide language in its natural context and this is often livelier than prepared for instructional material dialogues. As an illustration, after seeing a film, students can join in discussions, answer comprehension questions or complete tasks such as that summarizes or predicting (Nation, 2007). Teachers might consider providing pre-viewing vocabulary tasks to get familiar with pupils with the tough the spoken word prior to observing them. (Graham, 2006).

Materials

The following video resources were chosen for the study:

Resource Type	Example	Purpose
Movies	*The Pursuit of Happyness*	Exposure to natural conversation, idiomatic expressions
YouTube Channels	BBC Learning English	Focused listening practice with subtitles
Podcasts	TED Talks	Advanced listening with varied accents
TV Shows	*Friends*	Casual conversation and humor

Procedure

Pre-Activity: the learners received a brief introduction to the film and a list of relevant terminology.

Main activity: Students watched the video (without or with optional English subtitles).

Post-Activity: Immediately following viewing, learners had group discussions to reflect on the listening content, emphasizing challenging vocabulary as well as understanding.

Some films may have vocabulary that is particular or colloquial idioms which might be challenging for B2 learners to comprehend. Teachers might consider providing pre-viewing vocabulary tasks to get familiar with pupils about tough language prior to checking it out. (Graham, 2006).

Results

The analysis of student feedback and comprehension tests indicated the following key findings:

Improvement in Comprehension

Participants communicated great improvements in regards to their capacity to understand spoken English, especially in real-world situations.

Vocabulary Acquisition

Understanding new language was another significant advantage, with students reporting an increase in both passive and active vocabulary usage.

Resource Type	Vocabulary Gains (%)
Movies	60%
YouTube Channels	80%
Podcasts	75%
TV Shows	65%

Challenges Faced

Given that video materials have enormous promise for enhancing listening abilities, instructors should be aware of a number of problems when using them with B2-level learners.

Intermediate learners may struggle with native speaker talks because to their quick speed and accents. For individuals to build self-assurance, start with slower-paced videos or provide optional subtitles.

Complexity of Language: Some videos may contain specialized vocabulary or idiomatic expressions that are difficult for B2 learners to understand. Teachers should consider providing pre-viewing vocabulary activities to familiarize students with challenging language before watching (Graham, 2006).

Cultural References: Some videos, especially movies or TV shows, may contain cultural references that are unfamiliar to students.

Challenge	Percentage of Students Reporting Difficulty (%)
Speed of Speech	55%
Accents	50%
Idiomatic Language	45%

Discussion

The research results indicate that video resources, particularly YouTube educational channels, are extremely successful at developing listening abilities at the B2-level. Such materials provide authentic, yet accessible content that adapts to the learners' pace. Channels such as BBC Learning English and TED Talks offer a diverse range of accents, topics and levels of difficulty, allowing students to grow in time while remaining engaged.

While students loved the natural flow of discourse in various mediums, many struggled with the pace and informality. It is critical for instructors to carefully select video content that corresponds to the learners' interests as well as requirements for language.

Podcasts, as a more audio-focused forms of entertainment, proven to serve as an advantageous instrument, especially for improving listening accuracy. The complete absence of visual signals in podcasts, also known however, could represent a difficulty to B2 learners, especially since they are dealing with unexpected accents or complex topics.

Conclusion

Video resources can help B2-level foreign language students improve their listening abilities. The utilization of various products in order such as movies, YouTube channels, podcasts and television shows, provides rich, authentic language exposure. To enhance the usefulness of these tools, instructors should carefully choose movies that strike a balance between language complexity and instructional interests.

References

1.Akramova, N. (2023). IMPROVING SELF-STUDY SKILLS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS' STUDENTS. Educational Research in Universal Sciences, 2(18), 458–465.

2.Isayeva, U. (2023). MODERN TRENDS AND INNOVATIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Educational Research in Universal Sciences, 2(18), 396–405.
3.Muniskhon, R. (2023). Improving the use of design thinking methodology in teaching English for specific purposes (ESP). Genius Repository, 26, 58-60.
4.Nation, I. S. P. (2007). The four strands. Innovation in Language Learning and Teaching, 1(1), 1-9.
5.Rajabova Muniskhon Rajabovna. (2022). MODERN APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND MAKING STUDENTS INTERESTED IN THE LESSON. Web of Scientist: International Scientific Research Journal,3(4), 109–113.
6.Sagdullaev Pulatbek. (2023). IMPROVING THE LANGUAGE COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS BY MEANS OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Academia Science Repository*, *4*(04), 116–124.
7.Vandergrift, L. (2007). *Recent developments in second and foreign language listening comprehension research*. Language Teaching, 40(3), 191-210.
8.Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and learning second language listening: Metacognition in action*. Routledge.

Махсудахон ПАРПИЕВА,
старший преподаватель кафедры
узбекского языка и обучения
языкам Ферганского политехнического института

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Аннотация: данная статья посвящена интеграции современных технологий, включая онлайн-платформы, виртуальные классы и мобильные приложения, в языковое образование. С помощью смешанного метода были собраны данные от преподавателей языка и студентов для оценки влияния цифровых инструментов на языковую компетентность и вовлеченность.
Ключевые слова: *преподавание языка, цифровые технологии, онлайн-платформы, электронное обучение, интерактивное обучение, виртуальные классы.*
Annotation: this article focuses on the integration of modern technologies, including online platforms, virtual classrooms and mobile applications, into language education. Using a mixed method, data were collected from language teachers and students to assess the impact of digital tools on language competence and engagement.
Keywords: *language teaching, digital technologies, online platforms, elearning, interactive learning, virtual classrooms.*
Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, onlayn platformalar, virtual sinflar va mobil ilovalarni til ta’limiga integratsiyalashga bag‘ishlangan. Aralash usullardan foydalangan holda, raqamli vositalarning til kompetensiyasi va ushbu jarayondagi ishtirokiga ta'sirini baholash uchun til o'qituvchilari va talabalardan ma'lumotlar to'plandi.
Kalit so'zlar: *til o'rgatish, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, e-learning, interaktiv ta'lim, virtual sinflar.*

Решение задачи повышения качества образования является велением времени в условиях модернизации содержания и структуры образовательного процесса и требует поиска новых подходов к совершенствованию методов и форм обучения. [1.4]

Современный период развития общества характеризуется сильным влиянием на него компьютерных технологий, которые проникают во все сферы человеческой деятельности, обеспечивают распространение информационных потоков в обществе, образуя глобальное информационное пространство. Неотъемлемой и важной частью этих процессов является компьютеризация образования [2.5]. Быстрое развитие цифровых технологий существенно повлияло на образование, особенно на изучение языка. Традиционные методы обучения хотя и эффективны, но не могут привлечь технически подкованных учащихся или удовлетворить требования разнообразных учебных сред.

Цифровые инструменты и онлайн-платформы предлагают возможности для интерактивного, доступного и персонализированного языкового образования. В этой статье рассматривается роль современных технологий в преподавании языка, уделяя особое внимание тому, как такие инструменты, как онлайн-платформы, виртуальные классы и мобильные приложения могут улучшить усвоение языка. В ней также изучаются преимущества, проблемы и будущие направления интеграции цифровых технологий в языковое образование.

Область языкового образования стала свидетелем смены парадигмы с появлением цифровых технологий. Важно понимать, что информатизация образования обеспечивает достижение двух стратегических целей. Первая из них заключается в повышении эффективности всех видов образовательной деятельности на основе использования информационных и телекоммуникационных технологий. Вторая – в повышении качества подготовки специалистов с новым типом мышления, соответствующим требованиям информационного общества [3.7].

Традиционные методы обучения в классе, которые часто опираются на учебники и очное обучение, всё чаще дополняются или заменяются онлайн-платформами, мобильными приложениями и интерактивными инструментами. Эти современные технологии предлагают новые возможности для улучшения изучения языка, предоставляя учащимся гибкий, увлекательный и персонализированный опыт. Такие онлайн-платформы, как Zoom, Duolingo и Moodle, изменили способ взаимодействия студентов и преподавателей, обеспечивая общение в реальном времени, совместные упражнения и доступ к разнообразным ресурсам. Виртуальные классы способствуют глобальной связности, позволяя учащимся практиковать языковые навыки со сверстниками из разных культурных и языковых слоев. Между тем, мобильные приложения и программные решения обслуживают обучение на ходу, предлагая такие функции, как геймификация и мгновенная обратная связь для поддержания мотивации. Несмотря на эти преимущества, интеграция цифровых инструментов в преподавание языка не лишена проблем. Такие проблемы, как ограниченный доступ к технологиям, пробелы в цифровой грамотности и необходимость в подготовке учителей, могут препятствовать эффективному внедрению. Однако потенциал цифровых технологий для преодоления географических, временных и социальных различий делает их важнейшим компонентом современного образования.

Цифровые технологии обеспечивают динамичный и гибкий подход к преподаванию языка, удовлетворяя разнообразные потребности в обучении. Возможность персонализировать обучение, отслеживать прогресс и включать мультимедиа повышает как вовлеченность, так и эффективность. Однако успешная реализация зависит от устранения пробелов в цифровой грамотности и обеспечения равноправного доступа к технологиям. Преподавателям также необходимо постоянное обучение для эффективной интеграции цифровых инструментов в свои стратегии обучения.

В последние годы Узбекистан добился значительных успехов в интеграции цифровых технологий в свою систему образования, включая преподавание языка. С акцентом на модернизацию образования для соответствия мировым стандартам страна все чаще использует онлайн-платформы, мобильные приложения и другие цифровые инструменты для улучшения опыта изучения языка. Однако проблемы, связанные с инфраструктурой, подготовкой учителей и цифровой грамотностью, по-прежнему влияют на широкое внедрение этих технологий.

Правительство Узбекистана уделяет первостепенное внимание модернизации своего сектора образования посредством различных инициатив, направленных на повышение качества преподавания и обучения по всей стране. «Стратегия развития образования до 2030 года» делает основной акцент на интеграции технологий для лучшего оснащения студентов навыками, необходимыми в глобализированном мире.

Языковое образование, особенно на английском языке, рассматривается как важнейший компонент этих реформ, поскольку оно открывает двери для международного сотрудничества, доступа к мировым знаниям и карьерным возможностям. Такие программы, как Платформа цифрового образования и партнерские отношения с международными организациями способствовали использованию цифровых инструментов в изучении языка. Правительство стремится к технологическим инновациям, включая создание виртуальных классов и интеграцию онлайн-ресурсов в школьные и университетские учебные программы.

Несмотря на прогресс, остается несколько проблем в широком внедрении цифровых техно-

логий в языковом образовании:

– Цифровое неравенство: в то время как городские районы, такие как Ташкент, имеют относительно хороший доступ к технологиям, сельские регионы по-прежнему сталкиваются с проблемами с подключением к Интернету, доступом к устройствам и цифровой инфраструктурой. Это цифровое неравенство препятствует эффективному использованию онлайн-платформ для изучения языка в менее развитых районах.

– Цифровая грамотность: многие преподаватели и студенты не обладают необходимыми навыками цифровой грамотности для полного использования онлайн-инструментов и платформ. Это особенно актуально для старших поколений преподавателей, которые могут быть не так хорошо знакомы с новыми технологиями, что влияет на качество цифрового обучения.

– Подготовка учителей: в то время как некоторые преподаватели языков приняли цифровые технологии, необходимы обширные программы профессионального развития, чтобы гарантировать, что учителя будут оснащены для эффективного использования онлайн-платформ и цифровых инструментов в своих методах обучения. Правительство начало решать эту проблему с помощью таких инициатив, как Институты подготовки учителей и Онлайн-курсы для преподавателей.

Будущее преподавания языков в Узбекистане многообещающее, с продолжающимися усилиями по интеграции цифровых технологий в класс. Растет признание.

Интеграция цифровых технологий в преподавание языка представляет собой значительный прогресс в образовании. Несмотря на то, что проблемы сохраняются, их потенциал для улучшения доступности, вовлеченности и результатов обучения делает их незаменимыми инструментами для современного языкового образования. Постоянные инвестиции в технологии, инфраструктуру и обучение еще больше усилят их воздействие, гарантируя, что изучающие язык смогут преуспеть в цифровом мире.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Лазутова Людмила и Пискунова Светлана и Янкина Оксана. (2022). Использование современных образовательных технологий в процессе практической подготовки учителя иностранных языков. Самарский научный журнал. 11. 290-294. 10.55355/snv2022113311.
2. Никифорова Ирина Николаевна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ: ПЛЮСЫ И МИНУСЫ // Вестник Санкт-Петербургского научно-исследовательского института педагогики и психологии высшего образования. 2023. №1 (5). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-tsifrovyh-tehnologiy-pri-obuchenii-inostrannomu-yazyku-plyusy-i-minusy (дата обращения: 29.11.2024).
3. Титова Т. В. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В НЕЯЗЫКОВОМ ВУЗЕ // МНКО. 2023. №3 (100). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-sovremennyh-tsifrovyh-tehnologiy-v-obuchenii-inostrannomu-yazyku-v-neyazykovom-vuze (дата обращения: 29.11.2024).
4. Парпиева Махсуда Махмуджановна. Информационно-коммуникационные технологии в процессе обучения русскому языку как неродному // Вопросы науки и образования. 2018. №7 (19).
5. Буторина Т.С., ШиршовЕ.В. Дидактические основы использования информационно – педагогических технологий в подготовке электронного учебника // Открытое образование. 2001, № 4.
6. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии. Волгоград, 2007.
7. Никишина И.В. Инновационная деятельность современного педагога. Волгоград, 2007.

Baxtiyorjon OMONOV,
PhD, o'qituvchi, Qo'qon DPIs

TERMINLARNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada terminlarning o'ziga xosligi, ularning kasbiy va ilmiy bilimlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Maqolada empirik va nazariy yondashuvlar orqali terminologiyani o'rganish jarayoni, terminlarning semantik mazmuni, polisemiya va omonimiya kabi hodisalar ko'rib chiqilgan. O'rganish metodologiyalari, jumladan, terminlarning haqiqiy foydalanishi va kontekstualizatsiya haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotda terminlar va ularning o'zaro bog'lanishi, shuningdek, funksional yondashuv orqali terminologiyaning rivojlanishi muhokama qilinadi. Maqolada, shuningdek, terminlarning ijtimoiy funksiyalari va ilmiy muloqotdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *terminologiya, tilshunoslik, empirik yondashuv, nazariy yondashuv, semantik mazmun, polisemiya, omonimiya, lingvistik belgilar, ilmiy muloqot, kontekstualizatsiya.*

Аннотация: в данной статье анализируется своеобразие терминов, их связь с профессиональными и научными знаниями. В статье с помощью эмпирического и теоретического подходов рассматривается процесс изучения терминологии, смысловое содержание терминов, такие явления, как полисемия и омонимия. Предоставляется информация о методологиях исследования, включая фактическое использование терминов и контекстуализацию. В исследовании рассматриваются термины и их взаимосвязь, а также развитие терминологии посредством функционального подхода. В статье также подчеркиваются социальные функции терминов и их значение в научной коммуникации.

Ключевые слова: *терминология, лингвистика, эмпирический подход, теоретический подход, семантическое содержание, полисемия, омонимия, языковые знаки, научная коммуникация, контекстуализация.*

Annotation: this article analyzes the uniqueness of terms, their relationship with professional and scientific knowledge. The article examines the process of studying terminology, the semantic content of terms, phenomena such as polysemy and homonymy through empirical and theoretical approaches. Information is provided on the study methodologies, including the actual use of terms and contextualization. The study discusses terms and their interrelationships, as well as the development of terminology through a functional approach. The article also emphasizes the social functions of terms and their importance in scientific communication.

Keywords: *terminology, linguistics, empirical approach, theoretical approach, semantic content, polysemy, homonymy, linguistic signs, scientific communication, contextualization*

Terminning o'ziga xosligi uning maxsus tushunchani nomlashida ko'rinadi. Termin – tilning, kasbiy va ilmiy bilimlarning asosiy tarkibiy qismidir va bu jihat uning ikki tomonlama xususiyatiga asoslanadi. Lingvistik yondashuv doirasidagi tadqiqotlarda, jumladan, G.O.Vinokur, S.V.Grinyov, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, O.V.Lunyova, I.V.Derkach, L.A.Morozova, R.G.Piotrovskiy, A.V.Superanskayalarning ishlarida termin har qanday til birligiga xos bo'lgan umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan til va tilshunoslikka oid obyekt sifatida talqin qilinadi.

Amaliy lingvistika bo'yicha yetuk chet el olimi B.E.Antianing "Terminologiya va tilni rejalashtirish: amaliyot va nutqning muqobil doirasi" ("Terminology and language planning : an alternative framework of practice and discourse") doktorlik ishining 4-bobida terminologiyada konsepsiya nazariyasi muhokama qilinadi. Bu shuni ko'rsatadiki, umumiy tilda lingvistik belgining an'anaviy hisoblari, ular asosidagi gnoseologik pozitsiyalar tufayli, maxsus tilda belgi bilan ishlash uchun yetarli emas. Tajribalarda kuzatilgan bir qator muammolar ushbu ikkita belgi modeli yoki model turkumlari o'rtasidagi farqning to'liq amalga oshirilmaganligidan kelib chiqadi, deb taxmin qilinadi .

"Terminning semantik mazmuni kasbiy bilimlarning majmui bo'lib, shu asosda termin (til birligi sifatida) ilmiy muloqotning muhim sharti, ya'ni ijtimoiy funksiyaga ega bo'ladi. Umumiy foydalanishdagi so'zlar kabi termin ham tegishli ravishda tarkibiy va semantik maydonning birligi hisoblanadi, unga polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi xususiyatlar xosdir" .

Terminologiyani o'rganishda empirik va nazariy yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Har bir yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bor.

Empirik yondashuv, asosan, amaliy tajribaga va kuzatilgan hodisalarga asoslanadi. Bu yondashuvning asosiy xususiyatlari:

1) Ma'lumot to'plash: empirik yondashuvda tadqiqotchilar turli manbalardan, jumladan, so'rovnomalar, intervyular va tajriba o'tkazish orqali

ma'lumot to'playdilar.

2) Kuzatish: o'rganilayotgan terminlarning haqiqiy foydalanishini va ularning kontekstini kuzatish muhimdir. Bu tilshunoslikda terminlarning qanday ishlatilishini aniqlash imkonini beradi.

3) Tahlil: olingan ma'lumotlar statistik usullar va boshqa tahlil metodlari yordamida qayta ishlanadi. Bu jarayon tadqiqot natijalarini aniqroq va ishonchli qilishda yordam beradi.

Uning afzalliklari quyidagicha: real holatlarni o'rganish orqali amaliy natijalarga erishish; terminlarning haqiqiy kontekstdagi ishlatilishini tushunish.

Kamchiliklari esa olingan natijalar ko'pincha maxsus sharoitlarga bog'liq bo'ladi va umumiylashtirish qiyin bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar to'plash jarayoni ko'p vaqt va resurs talab qiladi:

Keyingi yondashuv nazariy yondashuvdir. Nazariy yondashuv, asosan, ilmiy nazariyalar va konseptlarga asoslanadi. Bu yondashuvning asosiy xususiyatlari:

1) Teoriyalar: o'rganish jarayonida mavjud nazariyalarni tahlil qilish va ulardan foydalanish. Masalan, lingvistik nazariyalar, semantikalar va pragmatika.

2) Model yaratish: terminologiya va uning o'zaro bog'lanishini tushunishda nazariy modellar yaratish.

3) Kontekstualizatsiya: terminlarning ma'nosini va ularning qanday ishlatilishini nazariy asoslar orqali o'rganish.

Uning afzalliklari quyidagicha: nazariy yondashuvlar kengroq va umumboshqaruvchi tushunchalarni taqdim etadi. Teoriyalar orqali yangi g'oyalarni rivojlantirish va yangi tadqiqot yo'nalishlarini kashf etish imkonini beradi.

Kamchiliklari esa amaliyot bilan bog'liq bo'lmagan nazariyalar ko'pincha real hayotdagi terminologik masalalarni hal qilishda yetarli bo'lmasligi mumkin.

Ba'zan nazariy yondashuvlar konkret misollarda qo'llanilishi qiyin. Terminologiyani o'rganishda empirik va nazariy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. Empirik yondashuv real ma'lumotlarga asoslanib, nazariy yondashuv esa tushunchalarni kengaytiradi va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ikkala yondashuvni birlashtirish terminologiyani o'rganish jarayonini yanada samarali va keng qamrovli qiladi.

Tadqiqotda terminologik polisemiya hodisasi obyekt sifatida, avvalo, termin ma'nosining ixtisoslashuvi bilan bog'liq jihatlarini o'rganishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, terminologik omonimiyadan farqli o'laroq, polisemantik so'zning struktural-semantik variantlari, ularning prototipik jihatdan o'zaro o'xshashligini namoyon etadi. Terminologik polisemiyaga yoki ko'p ma'nolilikka misol qilib, fragment terminini keltirish mumkin (parcha, bo'lak) va quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin: a) tog' jinsi yoki mineralining zarrasi, tog' jinsi bo'lagi. Terminologik noaniqlik kategorial xususiyatga ega bo'lib, metonimik konversiya natijasi hisoblanadi, masalan, harakatning moddiy natijasi va harakatning o'zini bildiradigan terminlar, masalan, drift: qum uyumi va olib ketmoq. Bu o'rinda terminning leksik va semantik xususiyati so'z ma'nosining polisemantik rivojlanishidan omonimiyaga ixtisoslashuvi kuzatiladi. Bularning barchasi esa, uning qo'llanilish doirasi va tadqiqot obyektiga bog'liqdir. Bunday holatlarni farqlash uchun tegishli kontekst zarur bo'ladi.

Ilmiy bilimning turli aspektlarida grafik va fonetik majmui jihatidan terminologik omonimiya bir xil terminologiyani qo'llashda namoyon bo'ladi va bu holat butunlay har xil kontekstlarda kuzatiladi: Reef: 1. Ma'dan nomi; 2. Rif. Terminologik omonimiya holatlari terminlarning kontekstual muhiti va ularning qaysi tizimga mansubligi asosida ham oson farqlanadi. Bu turdagi omonimiyaga quyidagilar misol bo'la oladi: spread (zilzilani aniqlash) va spread (daryo): "iflos botqoq yoki kichik ko'l" .

Terminlar tizimidagi bunday sinonimik hodisa aksariyat aspektual va dublet belgilardan tashkil topadi. Masalan, ingliz tilidagi age of ferns va the Pennsylvanian. Ferns – bu paporotniklar, eng qadimgi o'simliklar oilasi vakili. Ular Mezozoy erasining boshlanishidan 360 million yil oldin paydo bo'lgan. The Pennsylvanian esa pensilvaniya davri – geologik vaqt shkalasiga ko'ra, yuqori karbon davriga kiruvchi vaqt oralig'ini izohlaydi. U taxminan hozirgi paytdan 323,2 milliondan 298,9 million yil oralig'idagi davrda davom etgan. Ushbu age of ferns va the Pennsylvanian tadqiqotning bir turdagi obyekti (geologik vaqt birligi)ga bo'lgan turli yondashuvni ifodalovchi aspektual sinonimlardir.

Watercycle va hydrologiccycle so'zlari yer va atmosfera o'rtasidagi suvning uzluksiz harakatini ko'rsatuvchi tabiiy aylanish jarayoni, gidrologik sikl va bu takroriy yoki bir xil sinonimlarga misol.

Terminologik antonimiya ilmiy tadqiqot obyekti bo'lgan til birligining barcha xususiyatlarini yuzaga chiqaradigan alohida muhim vazifani bajaradi: leeward: shamol ↔ windward: shamolli; levelice: silliq muz ↔ pressureice: qattiq muz (baland va past) emergence (gidrologiya): ko'tarish ↔ submergence: pastga tushirish.

Umumiy foydalanishdagi so'zlarga nisbatan terminologik polisemiya va sinonimiya hodisalari terminning muhim xususiyatlari munosabatida juda cheklangan xarakterga ega bo'lib, uning nominativ-definitiv vazifasini bajaradi.

"Bir qator mualliflarning fikricha, maxsus

so‘zlar tilning alohida qatlamlariga mansub bo‘lib, maxsus terminologiya nazariyasi funksional uslublar nazariyasiga mos kelmaydi. Keltirilgan yondashuvga asos sifatida sinonimik qatordagi paradigmatik farqlar va umumiy foydalanishdagi hamda maxsus leksikaning derivatsion salohiyatiga oid dalillar keltiriladi” . Hozirgi kunda til birliklari tahlilida funksional yondashuv ustuvor hisoblanib, termin leksik birliklarni ilmiy va xizmatga oid muloqotda qo‘llash vazifasini bajaruvchi birlik sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuv natijasida terminning asoslanganligi muayyan nutq materialida o‘z tasdig‘ini topadi. Shu asnoda so‘zlarning aksariyati terminologik ma’noga ega bo‘ladi. Ular ixtisoslashmagan sohadan terminologiya sohasiga jalb qilinishi mumkin. Terminlar va terminologik komponentning minimal muhim tarkibiy qismi terminlarga tegishli. Misol tariqasida, kelib chiqishi yunon -lotin tillariga borib taqaluvchi bir qancha terminologik baynalmilal so‘zlarni keltirishimiz mumkin: anti-: qarama-qarshi ma’noni ifodalovchi prefiks muqobil; infra-: ostida; ultra-: ko‘proq; inter-: o‘rtasida; logos: so‘z va hokazo. Termin hosil qilishning semantik usuli eng odatiy va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bu usul ko‘p qo‘llaniladigan so‘z ma’nosining semantik transformatsiyasiga asoslanadi. Bu o‘zgarish so‘zning metonimik transformatsiyasi hamda metaforik ko‘chishi natijasida sodir bo‘ladi .

Zamonaviy fan ilmiy metaforaning yutuqlaridan keng foydalanadi, bu esa noma’lum, yangi ma’noni anglash va yaqin ma’nolar bilan tushunish imkonini yaratadi. Bunday izoh zamirida tilning umumiy so‘z boyligi yotadi. Fikrimizcha, ushbu dalillar mazkur dissertatsiyada muhokama qilingan terminni keltirib chiqaradigan semantik jarayonlarni lingvistik tadqiq qilish imkoniyati va zarurligini ko‘rsatadi.

Lisoniy birlik sifatida termin tildagi barcha so‘z va iboralarga xos zarur struktur-semantik va formal xususiyatlarga ega. Terminologik birliklarning paydo bo‘lishida umumqo‘llanishdagi so‘zlarni o‘zlashtirish nisbatan ko‘p uchrashi terminlar xususiyatiga funksional yondashish imkonini beradi. Bu holatning isboti sifatida “yerning ichki tuzilishi”: core: yadro; mantle: mantiya; crust: “yerning ustki qismi” kabi shakldagi terminologik majmuani keltirishimiz mumkin. Bu uch terminning barchasining asosida ilmiy bilish sohasiga oid nutqda ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar yotadi. Ulardan foydalanib, yuqorida qayd etilgan terminologiya majmuasi shakllantiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bu o‘zgarishlarni termin maqomini olgan til birligining funksional va maqsadli o‘zgarishlariga ikkinchi darajali, deb qarash mumkin. Aniq obrazli ifodaning nominativ funksiyasi, umumiy foydalanishdagi so‘zlarga xos bo‘lgan maishiy tushuncha terminologik tizimda maxsus tushunchaning nominativ funksiyasi bilan almashtiriladi. Inson tafakkuri va ijtimoiy tartib taraqqiyotining dialektik qonuniyatlari so‘zning terminga aylanishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, til birligining vazifasi, unga mos derivatsion, sintagmatik va paradigmatik xususiyatlari ham o‘zgaradi. Biz terminning tabiatiga funksional nuqtai nazardan yondashamiz va terminologik birlikni ilmiy (ilmiy-texnikaviy) tushunchani nomlash va til birligining mazmun xususiyatlarini saqlab qolishning ixtisoslashgan funksiyasiga ega bo‘lgan til belgisi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adab B. Bassey Edem Antia. Terminology and language planning–an alternative framework of practice and discourse //Language Policy. – 2003. – T. 2. – №. 3. – C. 285-288.
2. Суперанская, А.В. Подольская, Н.В. Васильева, Н.В. Общая терминология: вопросы теории [Текст] / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. Т.Л. Канделаки: Изд.5-е. – М.: Либроком, 2009. –248 с
3. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977. – 90 с.
4. Тольковый словарь английских геологических терминов ТСАГТ МИР, – Москва, 1977 г., 592 с
5. Omonov B. X “Ingliz va o‘zbek tillaridagi geologiyaga oid terminlarning qiyosiy tadqiqi”. Fil.f.d. diss. ...avtoreferati. – Toshkent, 2022.
6. Omonov, B. (2022). Инглиз ва ўзбек тилларидаги геология соҳасига оид терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Scienceweb academic papers collection.

Go‘zalxon MUHAMMADJONOVA,
FDU, dotsent, filologiya fanlari doktori

BEHBUDIY VA MATBUOT: TIL VA TARIX MASALASI

Annotatsiya: maqolada jadid matbuotida Behbudiy ijodining o‘rni, publitsistikasining janriy va mavzuviy rang-barangligi yoritilgan. Behbudiy maqolalarida tarix va millat taqdiri masalasi, milliy tarixni shakllantirishda ziyolilar va matbuotning roli ko‘rsatib berilgani asoslangan. Shuningdek, til masalasi, turkiy til va lahjalarning sofligini saqlash, adabiy til taraqqiyoti, xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlarning ona tiliga salbiy ta’siri yuzasidan Behbudiyning qarashlari o‘rganilgan. So‘zlarning etimologik asoslari, bu boradagi munozara va qarashlar, xorijiy tilni bilishning afzalliklari, milliy til qadri va xorijiy tilni o‘rganish tamoyillari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Behbudiy, matbuot, mavzu, janr, adabiy-estetik qarashlar, til va tarix masalasi, uslubiy mahorat.*

Аннотация: в статье освещается разнообразие жанров и тем публицистики Бехбуди, его место в джадидской прессе. Обосновано, что в статьях Бехбуди подняты вопросы истории и судьба нации, рол интеллегенции и прессы в формировании национальной истории. Также исследованы взгляды Бехбуди на вопросы языка, на сохраненые тюрского языка и диалектов, на развитие литературного языка, на отрицательное влияние слов усвоенных с иностранных языков. Исследованы этимологических основы слов, дисскуссии и взгляды по этому поводу, примущества знания иностранных языков, достоинство национального языка.

Ключевые слова: *Бехбуди, пресса, тема, жанр, литературно-эстетических, вопросы языка и истории, стиль, мастерство.*

Annotation: the article highlights the significance of Behbudi's work in Jadid press, as well as the genre and thematic diversity of his publicistic writings. It is substantiated that Behbudi’s articles discuss issues related to history and the fate of the nation, emphasizing the role of intellectuals and the press in shaping national history. Additionally, Behbudi’s views on language issues are explored, particularly the preservation of the purity of the Turkic language and dialects, the development of literary language, and the negative influence of foreign words on the native language. The etymological foundations of words, debates, and perspectives on this topic, as well as the advantages of knowing a foreign language, the value of the national language, and the principles of learning foreign languages, are also studied.

Keywords: *Behbudi, press, theme, genre, literary-aesthetic views, language and history issues, stylistic mastery.*

Kirish. Matbuot jamiyatning taraqqiyotida, insonning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-estetik tafakkuri takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Davr bilan hamnafas holda yangi ma’lumotlarni xalqqa yetkazish, xalqning ong-shuurini uyg‘otish matbuotning asosiy vazifalaridan biridir. Ma’rifat darg‘alari o‘zlarining ilg‘or fikrlarini xalqqa tez, ta’sirli yetkazish yo‘lini matbuot va teatr san’atida ekanligini teran angladilar hamda faoliyatlarida mazkur sohalarga jiddiy e’tibor qaratdilar. Ayni jihatiga ko‘ra jadid Behbudiy publitsistikasini o‘rganish juda dolzarb va ahamiyatlidir. Ishimizning asosiy maqsadi Behbudiyning ijtimoiy-publitsistik, adabiy-estetik qarashlarida millat tafakkurining asosini ko‘rsatuvchi til va tarix masalasi talqinini o‘rganishdir. Muallifning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammoni teran anglash, uning ildizlarini, sabab natijalarini o‘rganish va yechimi yuzasidan takliflarini berishdagi uslubiy xosliklarini aniqlash tadqiqotning vazifalarini tashkil etadi.

Asosiy qism. Adabiyotshunos, muarrix, madaniyat arbobi, milliy mustaqillik harakati rahbari Mahmudxo‘ja Behbudiy – O‘rta Osiyoga jadid g‘oyalarini olib kirgan va uning yoyilishida jonbozlik ko‘rsatgan ma’rifatparvar. Qator pedagogik, dramatik asarlar, darsliklar, hurlik va ozodlik kuylangan she’rlar muallifi Behbudiyning matbuotdagi xizmatlari ham salmoqlidir. Muallif ijodi, xususan, publitsistikasida muhim o‘rin tutuvchi til va tarix masalasini germenevtik, biografik, qiyosiy metod va tavsifiy usullarda o‘rganish adabiyotshunoslik hamda publitsistika sohasiga muayyan ilmiy xulosalar tuhfa etishi, shubhasiz.

Behbudiyning badiiy-estetik tafakkuri adabiyotshunos B.Qosimov, N.Karimov, I.Baldauf, M.Tojiboyeva kabi qator olimlar[1.] tomonidan o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Tarixiy tafakkuri esa D.A.Alimova, D.A. Rashidova[2.] kabi tarixshunoslar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan.

Behbudiy publitsistikasi mavzu jihatidan rang-barang. Unda adabiy mavzular – ma’rifat va erk masalasi, tarix va millat taqdiri, til qadri, ma’naviy oqsoqlik, milliy mentalitetdagi illatlarga qarshi kurash, mulkni to‘g‘ri tasarruf etish kabi masalalar yetakchilik qiladi. Shuningdek, zamon bilan hamnafas holda mamlakat boshqaruvidagi muammolar, ularni bartaraf etish omillari, turkiy tilning sofligi uchun kurash, teatr va san’atshunoslikka oid qarashlar ham o‘z ifodasini topgan. Mavzularning rang-barang bo‘lishi muallifning adabiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga ham bog‘liq. Behbudiy o‘z tafakkuridagi jadid ta’limotida

Sharq falsafasi va Yevropa falsafasining sharqqa mos keladigan qimmatli tomonlarini uyg‘unlashtira olgan. Ayni jihatiga ko‘ra uni nafaqat diniy, balki dunyoviy bilim, ilmning sohibi ekanligi, ularni gumanistik qarashlar asosida uyg‘unlashtirib, elga, millatga manfaatli qarashlar, g‘oyalarni ishlab chiqqanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Behbudiy jadidlarning asosiy tamoyili “Najot – ilmda” ekanligini ta’kidlagani holda bilim(diniy va dunyoviy) o‘rganish qiz va ayollar uchun ham birdek vojib ekanligini, xususan, asosiy sarmoyani chet eldagi ilg‘or bilimlarni olishga qaratish lozimligini, bu borada esa qiz-ayollar ham birdek g‘ayrat qilishlari millat ertasi uchun manfaatli ekanligini ta’kidlaydi. Behbudiy ta’lim sohasiga millatning ertasi uchun suv va havodek zarur ehtiyoj, hayot-mamot masalasi, deb qaraydi. Buga hatto uning “Vasiyatnoma”si ham shohidlik beradi.

Tarixsiz kelajak yo‘q. Millatning tarixini xolis va haqqoniy yoritib berish, o‘rganish va o‘rgatish jamiyat taraqqiyotidagi muhim masala. Behbudiyning ““Turkiston tarixi” kerak” (“Oyna”, 1914, 38-son, 898-900-b.) nomli maqolasida millat tarixini o‘rganish tamoyillari bayon qilinadi: Tarixni “qahramon bobolarimizning na yo‘l ila taraqqiy va madaniyat davrig‘a kirib va nima sababdan oxiri munqariz bo‘lib ketganlarini o‘qub, bilub, heyla ibrat olar eduk” [3. 154.]. Ya’ni tarixni ajdodlar shon-shavkati, merosidan rag‘batlanish, g‘ururlanish uchungina emas, yaxshiliklaridan ibrat olish, xatolardan xulosa chiqarish uchun o‘rganish lozim. Bu borada Turkiston va turklar tarixi yuzasidan arab va forsiy tillarda yoritilgan adabiyotlar borligini ta’kidlagani holda, o‘z tilimizda, o‘z qarashlarimiz asosida Turkiston tarixini yozishni muhim vazifa sifatida qo‘yadi. Retseptiv estetika tabiatiga ko‘ra, ushbu vazifaning qo‘yilishi o‘rinli va to‘g‘ridir. Millat tarixini ayni millat vakillari tomonidan yoritilishi milliy mentalitet, jug‘rofiy-tarixiy sharoit, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, o‘z-o‘ziga nisbatan tanqidiy yondashuvlar asosida to‘laqonli namoyon bo‘lishiga asos bo‘ladi. Behbudiy asosiy muammoni o‘rtaga tashlash, uning ko‘lamini belgilash, bu boradagi asosiy xatolarni sharhlash asnosida uning yechimlarini ham ko‘rsatib beradi. Zero, matbuotning asl vazifasi ham shu. “Chunki bizning xalqlar andog‘ kitoblardan ko‘ra xurofotlik qissa, hikoya va oshiqona g‘azal kitoblarig‘a ziyoda rag‘batlik bo‘lganidan moddiy foydasini ko‘zlab, shunday afsona va aslsiz kitoblarni tab’ va nashr etmakdamiz” [3. 155.]. Nashriyotlar oldiga “mo‘tabar tarixiy, axloqiy va adabiy risola, kitoblarni nashr etmoq” vazifasini qo‘yar ekan, asl tarixni yoritishni ham yosh, o‘zining tiniq fikriga ega mutaxassisga ishonadi. Tarixshunoslikdagi tarixiy zaruriyat, tarixiy sharoit, tarixiy tasodif tamoyiliga ko‘ra, Behbudiy o‘zi yashab turgan zamonni chin tarixiy haqiqatni yaratishdagi muhim davr sifatida baholaydi.

Behbudiy publitsistikasida turkiy til va lahjalarning sofligini saqlash, adabiy til qadrini yuksaltirish yuzasidan munozaralar ham aks etgan. “Til masalasi” (“Oyna”, 1915, 11-12-b.) maqolasi adabiy til me’yorlariga amal qilish, ona tiliga arabiy va forsiy tillarning ta’siri, shevalardagi keskin farqlanishlar va ularning mazmunni anglash, anglatishdagi muammolari xususida so‘z boradi. Zukko tilshunos sifatida xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlarning ona tiliga salbiy ta’siri masalasidan qayg‘uradi. Adabiy til quvvatini kuchaytirish xususida keskin fikrlar bildiradi.

Matbuot janrlari orasida ilmiy-publitsistik maqolani munoraza asosida davomli shakllantirish alohida o‘rin tutadi. Bu borada “Sart” so‘zining etimologiyasi xususidagi munozara va munosabatlarni misol keltirish mumkin. “Sart so‘zi majhuldir” (“Oyna”, 1915) va “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” kabi nomlanishlar bilan nashr etilgan maqolalarda ayni so‘zning etimologiyasi, istifoda etilishi chuqur o‘rganiladi. Bu kabi yondashuvni milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi muhim qadamlardan, desak mubolag‘a qilmaymiz. Jadidlar ona tilini qadrini va sofligini saqlash, undagi har bir so‘zning ma’nosi va qo‘llanishiga zukkolik bilan munosabatda bo‘lishni dasturilamallaridagi asosiy vazifa deb qaraganlar. Ayonki, tilda xalqning ruhi mujassam bo‘ladi. Ushbu harakatlarning barchasi ruhiyat pokligi va ruhiy quvvat manbaini asramoq uchun bo‘lgan. Shuning uchun ham bu masalaga qayta-qayta e’tibor qaratiladi. Publitsistikaning asosiy vazifalaridan biri nafaqat muammoning yechimini taklif etish, balki uning bartaraf bo‘lishi yo‘lidagi kurash va natija ham turadi. Behbudiy ushbu masalaga qayta murojaat qilishni o‘z vazifasi deb bildi va “Sadoyi Farg‘ona”da “jaridag‘a darj etmoqg‘a tanzil etmagani yoki munosib ko‘rilmagani uchun” ushbu maqolani “bir oz tafsili ila” “Oyna” jurnalida chop ettirishga erishadi.

“Ikki emas, to‘rt tilni bilish lozim” (“Oyna”, 1913. 1-son) maqolasi xorijiy tilni bilishning afzalliklariga qaratilgan. Maqolaning sarlavhasidayoq asosiy muddao aks etadi. Eng muhimi, ushbu tamoyil bugungi kunimiz uchun ham o‘ta dolzarbdir. Unda xorijiy tilni o‘rganishda zarurat va ehtiyojni hisobga olish, elga, jamiyatga manfaatli jihatlariga e’tibor qaratish masalasi ko‘tariladi. Mamlakat, millatning har sohadagi taraqqiyoti kaliti bir necha tillarni puxta bilish, bu asnoda ko‘plab bilim va yangi ma’lumotlarga ega bo‘lishlikdadir, deb ta’kidlaydi. Shu asosda har bir fuqaroning oldiga aniq vazifa qo‘yadi: “Xulosa, bugun bizlarg‘a to‘rt tilg‘a tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy”.

Xulosa. Behbudiy o‘zbek matbuotini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan ma’rifatparvardir. Uning publitsistik maqolalarida nafaqat XX asr boshlaridagi, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan masalalar ko‘tarilgan. Xususan, millat, yurt tarixini o‘rganishda xolislik tamoyillarining ustuvor bo‘lishi, haqqoniy tarixni aks ettirishda barcha birdek mas’ul ekanligi yuzasidan aniq vazifalar ko‘rsatilgan. Til qadrini va sofligini saqlash, xorijiy tilni o‘rganishda ijtimoiy munosabatlar, zaruriyat va ehtiyojlar masalasiga ham alohida e’tibor

qaratish yuzasidan yechimlar taklif etiladi. Ayni jihatlar xalq tafakkur tarziga jiddiy ta'sir o'tkazish barobarida o'zbek publitsistikasida jiddiy qadam bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимов Б. Милий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.; 400 б.; Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият, 2011.; Каримов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Т., 2010.; Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси. Фил.ф.д. дис... автореферати. – Т., 1993; Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2011,Тожибоева М. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: MUMTOZ SO`Z, 2017, 126 б., Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масаласи. – Тошкент: MUMTOZ SO`Z, 2017, 126 б.

2. Алимова Д., Рашидова Д. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Т.: Академия, 1999. 53 б.

3. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият,1997.

Hafiza ASLANOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

TASAVVUF VA BADIIY IJODNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada tariqatlar haqida so'z yuritiladi. Tariqat manbalarida badiiy ijodning ifodalanishi tahlil qilinadi. Ularning tasavvufiy g'oyalari badiiy ijodda yoritilishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: *tasavvuf, tariqat, g'oya, ijod, g'arb, sharq, xalq.*

Аннотация: эта статья о сектах. Анализируется выражение художественного творчества в источниках секты. Исследуется освещение их мистических идей в художественных произведениях.

Ключевые слова: *суфизм, секта, идея, творчество, запад, восток, народ.*

Annotation: this article is about sects. the expression of artistic creativity in the sources of the sect is analyzed. The coverage of their mystical ideas in works of art is explored.

Key words: *Sufism, sect, idea, creativity, West, East, people.*

Tasavvuf islom dinining ildizlari obi hayot olgan yerlardan unib chiqqandir. Tasavvuf istiloh sifatida nihoyatda turli ma'nolarni ifodalaydi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy "Bahoriston"da yozganlarki: "Shayx Abu Said Abdulhayirdan: Tasavvuf nedir? – deb so'raganlar. U "Boshingdagi hamma narsalarni chiqarib tashlash, kaftingdagi bor narsani berish, o'zgalardan senga ne ranj-u kulfat yetsa, bariga chidash – tasavvuf", - deb javob berganlar [1; 26-b].

Tasavvuf so'zini Koshifiy so'zma-so'z tarjima qilganlar: "T" – tajrid, ya'ni ortiqcha narsalardan holi bo'lish, behuda ishlardan chetlashish; "S" – sidqu safo; "V" – vafo; "F" – fano ma'nolarini anglatadi. Yana Imom G'oziy ham tasavvufni ikki ishga qiyoslaydi. Biri Olloh buyurganidek to'g'ri yurmoq, to'g'ri turmoq (ya'ni Olloh farz qilgan barcha amallarga rioya etmoq). Ikkinchisi notariqiy ishlarda boshqalardan ajralmoqdir. Kimki Olloh buyurganini to'liq ado etsa, yurish-turish, xulqi, odamlar bilan muomalasi yumshoq va chiroyli bo'lsa, o'sha zotni haqiqiy so'fiy deyish mumkin, degan fikrni ifodalaydi. "Tasavvuf nima?" degan savolga shayh Nuriy shunday javob berganlar: -Tasavvuf nafs lazzatlaridan voz kechishdir. Shayx Safi Alimshoh javobi esa bunday: Tasavvuf nafs manzillarini bosib o'tishdir. Shayx Rabim: Tasavvuf Xudo yo'lida nafsdan kechmoqdir, deydi. Atoqli so'fi shoir Bobo Tohir esa, bu ma'noni yanada aniqroq qilib bayon etgan: Tasavvuf – o'limi yo'q hayot va hayoti bo'lmagan o'limdir, ya'ni nafsoniy, hayvoniy hayotda o'lmoq va insoniy hayotda yashamoqdir.

U tasavvuf – maqom deb ataladi. Ya'ni shu yo'lga kirgan inson ustoz orqali (murid deb ataladi) unga yetishadi va uning o'zi murid deb ataladi. Murshidlik va muridlik ustoz-shogirdning ma'nosini ifodalaydi. U e'tiqod ko'zlagan manba solik, silsila deb yuritiladi. "Silsilatus-zahab", ya'ni oltin zanjir deb nomlanadi. Silsilaga kirgan shaxs – suluk, solik ham deb ifodalanishi mumkin. Solikning Ollohga bo'lgan imoni bosqichma-bosqich maqomlardan o'tishi shart qilib qo'yilgan. Buning uchun solik avvalo shariatni to'laqonli bilishi va unga itoat qilishi lozim. Har bir inson borki, tariqatga bo'ysunadi, uning mezonlariga so'zsiz itoat etadi.

Keyingisi tariqat, ya'ni shu bosqichda solik o'zining yo'lini tanlaydi. Keyingi bosqich ma'rifat bo'lib, solik unda ilm egallaydi va oxirgisi haqiqatdir. Bu oliy maqom hisoblanadi.

Ma'lumki, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqiy insonni kamolotga yetkazuvchi maqomdir. Shariat hukmlari Olloh taolo farz, payg'ambar alayhissalom tomonidan sunnat qilib berilgan. U hukmlarni bajarish musulmon kishiga shart. Zero:

Shariatga kishikim bo‘lsa munkir,
Gumon yo‘qdur bo‘lur albatta kofir.

Shariat hukmlariga to‘la-to‘kis amal qilmagan inson tariqatni mutlaqo tushunmaydi. Tariqatga kirish uchun esa, shariat birinchi zinapoya hisoblanadi.

Shariat aytadur, o‘ldur ilonni,
Tariqat aytadur o‘ldirma jonni.

Mazkur bayt shariat bilan tariqat o‘rtasidagi farqni ma’lum ma’noda ko‘rsatib turadi. Darvoqe, Jomiy “Nafohatul-ulus min hazrat al-quds”ida o‘z farishtasini ko‘rgan pir haqida xabar berganlar. Pir: “Pir farishtani ko‘rmoq uchun odam ne qilmog‘i kerak?”, – deb so‘rasalar, farishta: “Hech bir jonivorga ozor bermaydigan kishi farishtani ko‘rishi mumkin”, deb javob beribdi. Kunlardan bir kun haligi pirni chumoli chaqibdi, ul zot chumolini olib tashlayotganlarida noxos o‘ldirib qo‘yibdilar va o‘sha kundan e’tiboran pir o‘z farishtalarini qayta ko‘rolmabdilar.

Ulamolar quyidagicha qiyos qilganlar: shariat yong‘oq po‘chog‘i bo‘lsa, tariqat po‘choq ichidagi mag‘iz. Darhaqiqat, mag‘iz po‘stloqsiz hosil bo‘lmas. Lekin, shariat hukmlariga amal qilib, ikki dunyo saodatiga erishsa bo‘ladi. Ammo, to‘la ma’nodagi ma’naviy yetuklikka erishmoq uchun, Olloh ma’rifatini har tamonlama o‘rganmoq uchun ulamolar tariqat yo‘liga kiradilar.

Shariat – yer, tariqat mazkur yerda unga daraxt, haqiqat esa, shu daraxtning mevasidir, deb ta’rif bergan mashoyixlar. Lekin, shariat zaminida unmagan daraxtning mevasi zahardir. So‘fi Olloyor aytadilarki.

Shariat hukmidan tashqi riyozat,
Emas toat, qabohatdur, qabohat.
Amal qilmoq uchun kirsang bu yo‘lga
Kerakdur shamai ilm albatta qo‘lga…
Ko‘zing gar bo‘lmasa, ey aqli hushyor,
Asokashsiz qadam hey qo‘yma zinhor.

Tariqat istilohi quyidagichadir: Tariqat arabcha so‘z bo‘lib, “usul”, “yo‘l”, “maslak”, “so‘fiylik yo‘li” ma’nolarini anglatadi. Tariqat ahli so‘fiylardir. Shayx Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniya” asarida yozilishicha, tariqat ma’nosi “rost, to‘g‘ri yo‘l”dir. Tariqat ahli, ya’ni so‘fiylar esa, uch narsada: dam, qadam, qaramida o‘zgalarga ibrat bo‘lishlari lozim. Ya’ni keraksiz, o‘rinsiz gaplardan tiyilmoq – dam, behuda ishlarga qadam bosmaslik qadam, foydali ishlar, ya’ni oxiratga foydasi tegadigan ishlarni qilishi kerak hisoblanadi.

Koshifiy yozadilarki, shariat, tariqat, haqiqat bir-biri bilan bog‘langandir, shariat hukmlari ravshan, aniq, hurmatlash lozim. U hukmlarga hamma amal qilmog‘i lozim. Tariqatni esa, qidirmoqqa to‘g‘ri keladi, bu ish sa’y-harakat bilan riyozat chekish ila amalga oshiriladi. Tariqatda bayon bor, bu yo‘lda xizmat qilmoq lozim. Haqiqat mingtadan bittaga nasib etadi, Unda Haq qudratini ko‘rasan, u senga ayon bo‘lur, bu unga ulug‘ hislat bilan erishish mumkin. Koshifiy ta’kidlaydilar: “Agar pursand, kiy samrai har yaki chist, bigo‘y, samrai shariat vafost ba ahd, samrai tariqat – fanost, ya’ni az botil buridan va ba kori haq payvastai ast”. Mazmuni: agar so‘rasalarki, ular (shariat, tariqat, haqiqat)ning samarasi ne? Javob bergilki, shariat samarasi ahdga vafodir, ya’ni islomning besh arkoniga rioya etmoq, til bilan dil gapining bir bo‘lishidir. Tariqat – fano, ya’ni o‘zidan kechish, haqiqat – baqo, ya’ni botil (buzilgan, behuda) ishlardan kechib, haq ishlariga bog‘lanmoq.

Nasafiyning “Maqiadul asqo” asarida yozilishicha, Muhammad alayhissalomning ahli islom amal qilishi lozim bo‘lgan ishlarni buyurganlari– shariatdir. Tariqat esa, hazrat alayhissalomning ish – faoliyatlari hisoblanadi. Haqiqat – hazrat alayhissalomning Alloh taoloning qudrati ila bunyod etilgan kimarsa va nimarsalarning ko‘rganlaridir. Demak, shariat – payg‘ambar alayhissalomning buyurganlari, tariqat – ul zotning qilgan ishlari, haqiqat – botin ko‘zi ila ko‘rganlar. Shariat – qonun, tariqat – yo‘l. “Qonun” – vujud va qalbni tarbiyalaydi, “yo‘l” – ko‘nglini poklab, ruhni nurlantiradi [3;18-b]. Abu Bakr ibn Tohir al-Abhariydan, “Haqiqat ne?” deb so‘raganda: “Haqiqatning bari ilmdur”, deb javob berganlar. “Ilm ne?” deyilganda: “Ilm haqiqatdur”, degan ekan. Tariqat yo‘lining poyoni bormi? So‘fi Olloyor:

Bu yo‘lni chunki hech poyoni yo‘qdur,
Agar yetdim desang, imkoni yo‘qdur,

deganida haq edi. “Tariqat (ar-yo‘l, usul). Unga ko‘ra, so‘fiy yoki solik tirikchilikning barcha tashvishlaridan voz kechishi, doim kambag‘allikda qashshoqlik qilib yashashi, tarki dunyo qilishi, har narsani Xudodan deb bilishi, Xudoni sevishi va unga intilishi, ixtiyorini bir murshidga topshirishi lozim. Bundan tashqari, tariqat tushunchasi ko‘proq tasavvuf yo‘nalishi (suluki) tarmog‘i ma’nosida qo‘llaniladi. Tariqatda tasavvuf tariqatini noto‘g‘ri tushunish va talqin qilish natijasida ba’zi mutasavvuflikka berilishi holatlari ham kuzatilgan. Tasavvufda tariqat ko‘p bo‘lgan. Masalan, tayfuriya, qodiriya, bektoshiya va boshqalar” [2; 283-b].

O‘rta Osiyoda Naqshbandiya, kubrovilik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan. Xoja Bahovuddin Naqshband Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy va boshqalar tariqatida olg‘a surilgan g‘oyalarini umumlashtirib, uni yagona ta’limot darajasiga ko‘tardi, ustozlaridan ilgarilab ketdi va shu bilan tarixda Xojalar nomini oldi, tasavvuf ta’limotini yanada takomillashtirdi. Xoja Bahovuddinning juda ko‘p maktablari vujudga keldi, u ko‘p o‘lkalarda va xalqlar o‘rtasida tarqaldi. U tariqat islom dini, shariat ahkomini xalq orasida targ‘ib etishda, musulmonlarni Alloh bilan yaqinlashtirishda ularning irqi, nasli va millatidan qat’i nazar bebaho xizmat qildi.

Xoja Bahovuddin Naqshband o‘z tariqatini nazariy jihatdan asoslaganda, uch rashhani (tomchini) qo‘shdi. Bu vuqufi damoni, vuqufi adadi, vuqufi qalbiyardir. Birinchi rashhada Xoja Naqshband so‘fi o‘z umrini qanday o‘tkazishi to‘g‘risida o‘ylashi kerak, deydi. Nazarimizda, Xoja Bahovuddin Naqshband ta’limotining mohiyati va asosiy mag‘zini shu rashhalardan izlamoq

kerak. Vaqt – undan oqilona foydalanish muammosi barcha zamonlarda so‘fiylarning diqqat- e’tiborida bo‘lib kelgan edi. Xoja Bahovuddinning so‘fiy oldidagi vaqt va zamon muammosiga alohida ahamiyat berganligi tasodifiy emas. Vaqtni mehnat bilan o‘tkazish (bu borada mehnatning hamma turlari ko‘zda tutiladi), alohida ahamiyat kasb etgan edi.

Insonning, jumladan, tasavvuf ahlining axloqiy qiyofasini belgilaydigan qadriyatlar turkumida halol mehnatga bo‘lgan munosabat g‘oyasi asosiy edi.

Shunday qilib, Naqshbandiya tariqatining falsafiy - ijtimoiy va iqtisodiy negizini o‘n bitta rashha tashkil etadi. Bu rashhalar turli davrlarda Naqshbandiya tariqatining asoschilari Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Bahovuddin Naqshband tomonidan asoslangandir. Aytish mumkinki, xojalar ta’limotiga rashhalar qo‘shish davomlidir.

Naqshbandiya g‘oyasiga ko‘ra, tariqat yo‘lidan boruvchi har bir kishi sog‘lom aql egasi, o‘tkir zehnli, obro‘li, xudojo‘y, ko‘ngilchan, kishilar bilan munosabatda juda ehtiyotkor, jiddiy, bilimga chanqoq, boshqalarni o‘qitishga qodir, birovlar uni xafa qilsada, hech kimni xafa qilmaydigan, faqat e’tiqod to‘g‘risida gapiradigan, saxovatli, yomon narsalardan o‘zini yiroq tutadigan, safardagilarga madadkor, yetimlarga otalardek mehribon, ko‘rinishi dilkash, har xil sharoitda o‘zini dadil tuta oladigan, birovga sir bermaydigan, oliyhimmat, muloyimso‘z, kamtar, odamlarga ishonadigan, tetik, ig‘vogarlik qilmaydigan, qanoatli, ro‘za tutadigan, rostgo‘y, yashash joyi tayin, hasadgo‘ylik qilmaydigan, qalbi pok va hamisha o‘z tariqati majburiyatlarini chin ko‘ngildan bajaradigan, bir so‘zi bilan yaxshi bir inson bo‘lmog‘i lozim. Tasavvufdagi bu talablar Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Bahovuddin Naqshband va Xoja Ahrori Valiy nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, bora-bora ular kengaygan va ko‘paygan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. – Д. “Адаб” 1987.
2. O‘zbekiston ensiklopediyasi. “Davlat ilmiy nashriyoti” 2004. 283-bet.
3. Жуковский В.А. Человек и познание г персидских мистиков. – Сант Петербург, 1895, стр. 18.
4. Rashohat. O‘zbekiston. Fanlar. Akademiyasi sharqshunoslik instituti fondi. №1428, 23 bet.
5. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991.
6. Жузжоний А. Тасаввуф ва инсон. – Т., 2001. 189-б.

Sharipboy BOBOJANOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent

O‘ZBEK TILIDAGI LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLARNI LEKSIKOGRAFIK TALQINDA AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada leksik birlikning mohiyati uning ma’nodoshlik qatorida ma’lum bir tomondan ochilishi ta’kidlab o‘tilgan. Ma’nodosh birliklar atash va vazifa semalari umumiyligi asosida bir mikrotizimga birlashsa, ifoda semalarining har bir leksema sememasida o‘ziga xosligi ularning mohiyatiga ta’sir qilishi maqolada aks etgan.

Kalit so‘zlar: *leksema, so‘z, talqin, ma’no, leksikografiya, tilshunoslik, o‘zbek tilshunosligi, me’yor, lug‘at, so‘z boyligi.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается, что сущностью лексической единицы является ее раскрытие с определенной стороны по линии семантики. В статье отражено, что при объединении семантических единиц в одну микросистему на основе общности схем наименования и задач специфика схем выражения в каждой лексемной схеме влияет на их сущность.

Ключевые слова: *лексема, слово, толкование, значение, лексикография, языкознание, узбекское языкознание, норма, словарь, лексика.*

Annotation: in this article, it is emphasized that the essence of the lexical unit is its opening from a certain side in the line of semantics. It is reflected in the article that when semantic units are combined into one microsystem based on the generality of naming and task schemes, the specificity of expression schemes in each lexeme scheme affects their essence.

Key words: *lexeme, word, interpretation, meaning, lexicography, linguistics, Uzbek linguistics.*

Bugungi kunda istiqlol natijasi o‘laroq, milliy mafkurani tarkib toptirish, milliy g‘oyani (1,4-19) taraqqiy ettirish

talabi milliy fanlarda, xususan, o‘zbek tilshunosligida, uning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek lug‘atchiligida ham o‘zbek tilining sof turkona tabiatini aks ettirishni taqozo qiladi. Zero, til millatning bosh belgisidir. Ma’lumki, lug‘atlarning vazifasi nafaqat biror tilning lug‘at boyligi haqida tasavvur uyg‘otish, balki shu bilan birgalikda, so‘zlarning semantikasini, lisoniy qiymatini belgilash, ular ma’nolarining sistemaviy munosabatlarini berish ham bo‘lmog‘i lozim. Chunki bu ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolarini yorqinroq chegaralab olish, yaqin ma’noli so‘zlarning semantik qiymatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Demak, leksikografik tadqiqotlar semasiologiya sohasining yutuqlari asosida leksik semantikani ochishda lingvistik tadqiqotlarning maxsus usuli darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim, degan masalaning qo‘yilishi quyidagilardan tegishlisini talab qiladi:

1.So‘zning sof leksik ma’nosi.

2. Tushuncha.

3. Obyektiv borliq hodisasi (narsa).

Leksikograf Yu.N.Karaulov ta’kidlashicha, leksikografik talqindan uchta tarkibiy qism o‘rin olmog‘i lozim:

1. Borliq hodisalari asosidagi mantiqiy-semantik munosabatlar.

2. So‘zlarning lug‘aviy ma’nolari.

3. Sintaktik munosabatlar (35,23).

Ma’lumki, Yu.N.Karaulov tadqiqotlari ideografik lug‘atlar yaratish, leksikografik talqin tili(metatil) ni ishlab chiqish tamoyillarini yaratishda butunlay yangi bosqichdir. Muallif o‘zi e’tirof etganidek, bu usul “semantik maydon nazariyasini onomosiologik tekshirish tamoyillari sintezi asosida leksemani yangicha o‘rganishdir” (36,3;37). Bu usul alifbo tartibiga asoslangan va “semantik betartiblikka ega bo‘lgan alifbodan yangi – ham amaliy, ham nazariy ahamiyatli lug‘atlar yaratish imkonini beradi (95,22). “Ideografik tasnif qilishga erishish amaliy ahamiyatga egadir. Ammo bu leksikaning sistema qurilishi umumnazariy muammolarni va lisoniy nominatsiya, maydon nazariyasining qator masalalarini hal qilishni, lug‘atlarning struktura va xususiyatlarini o‘rganishni va ochishni zarur qilib qo‘yadi” (36,4). Har qanday narsa o‘z tizimdoshi haqiqiy mohiyatini, ontologik “qiyofa”sini namoyon qiladi. Shu boisdan dialektiklar narsaning muayyanligi haqida so‘z ketganda, munosabatlardan, o‘z butunligidan uzilgan narsadan mavhumroq narsa yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas degan g‘oya tarafida bo‘ladilar. Boshqa lisoniy birliklarda bo‘lgani kabi leksemalarning mohiyati ham ularning o‘z semantik munosabatlaroining leksikografik metatilga muvofiq ravishda lug‘atlarda aks etishi va ichki ma’nolarni farqlovchi muhim yechimlarning leksikografik talqiniga “yedirib” yuborilishi muayyan ma’no bilan so‘zning semantik tizimdagi o‘rnini aks ettirgan lug‘atlarning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Chunki semantik munosabatlarni ochish asosidagina tilning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan farqlash, differensiatsiya amalga oshiriladi. Quyida ana shu leksik-semantik munosabatlarning leksema (bizning talqinimizdagi leksikografik birlik) mohiyatini ochishdagi roli va o‘rni masalasiga qisqacha to‘xtalinadi. Avvalo, leksik birlikning mohiyati uning ma’nodoshlik qatorida ma’lum bir tomondan ochiladi. Ma’lumki, ma’nodosh birliklar atash va vazifa semalari umumiyligi asosida bir mikrotizimga birlashsa, ifoda semalarining har bir leksema sememasida o‘ziga xosligi ularning mohiyatiga ta’sir qiladi yoxud undan dalolat beradi. Masalan, sifat so‘z turkumida yetakchi ma’no belgi -xususiyat bo‘lganligi sababli, “xunuk” ma’noli ma’nodoshlik qatori a’zolari bo‘lgan [xunuk], [badbashara], [badburush], [badqovoq], [tasqara], [bedavo], [ta’viya], [beo‘xshov], [beso‘naqay], [sovuq], [badsurat], [karomat] leksemalari mazkur belgi-xususiyat umumiy ma’nosini o‘ziga xos tarzda bir xil atash semalari va unga muvofiq vazifa semalari sifatida juz’iylashtiradi va buni “sifat”, “xususiyat”, “tashqi ko‘rinish”, “kishini o‘ziga jalb qilmaydigan” tarzida belgilash mumkin. Bu qatordagi barcha leksemalar uchun birdaydir. Biroq har bir leksemada ular uchun umumiy bo‘lgan “shaxsiy salbiy munosabat” ifoda semasi turli darajada xususiylashadi. Bu ifoda semasining ma’lum bir leksemada qay darajada ekanligini uni ma’nodoshlik qatoridan uzib olgan holda baholab bo‘lmaydi. Busiz esa ifoda semalari relevant bo‘lgan leksemaning semantik mohiyati qorong‘i va mavhumligicha qolaveradi. Buning uchun avvalo, leksemaning barcha ma’nodoshlari mavjud qator tiklanishi va darajasi asosida leksemaning qatordagi o‘rni muayyanlashtirilishi lozim bo‘ladi. So‘ngra tegishli leksema izohida bu qator leksikografik maqola tarkibiga kiritiladi. Qator leksemaning ma’nodoshlari deb nomlanadi va tegishli leksema qatorda qora yoki kursiv harflar bilan ajratiladi. Masalan:

BADBURUSH

1. ma’nodoshlik qatori: xunuk, badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, bedavo, ta’viya va hokazo.

Agar leksema ko‘p ma’noli bo‘lsa, har bir ma’nosida unga ma’nodosh leksemalar qatori alohida-alohida beriladi. Masalan:

Xunuk 1 ...

1. ma’nodoshlik qatori: xunuk, badbashara, badburush, badqovoq va hokazo.

Xunuk 2 ...

1. ma’nodoshlik qatori: yoqimsiz, jirkanch, xunuk va hokazo.

Xunuk 3 ...

1. ma’nodoshlik qatori: quloqqa yoqmaydigan, ko‘ngilsiz, noxush, xunuk va hokazo.

Leksemalarning darajalanish asosidagi sinonimik qatorini olish, belgilab olish sinonim va sinonim bo‘lmagan birliklarni ajratish imkonini beradi.

Masalan:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da [gulobi] leksemasi

gulob rangli, pushti (112,197) pushti-shaftoli gul rangidagi, och qizil (113,608) qizil-qon rangidagi, qirmizi, alvon (113,570), ol-qizil, qirmizi (113,529), qirmizi- qizil rangli, qizil, ol (113,581) tarzida izohlanadi.

Tilshunos Sh.Orifjonova mazkur leksemalarni darajalanish nuqtayi nazaridan tavsiflar ekan, “Lug‘atda bu so‘zlar o‘z tizimidan ajratib tavsiflangan, agar lug‘at mualliflari ushbu so‘zlar qatorini lisoniy tizimda tavsiflaganida” izoh mukammal bo‘lgan bo‘lishini ta’kidlaydi (73,28) va tavsifni quyidagicha beradi:

1.Gulobi – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo‘yoqli rang;
2. Pushti – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to‘qroq;
3. Qizg‘ish – pushtidan to‘qroq, qizildan ochroq, qizg‘imtir rang;
4. Qizil – qon rangli;
5. Ol – qizildan to‘qroq rangli;
6. Qirmizi – to‘q qizil rangli (73,11).

Xulosa, ushbu maqolada ma’nodoshlar tizimini butunlikda olishning boshqacha variantini taqdim etish holati va xususiyatlarini qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, –Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil.
2. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-yil.

Nilufar UMIRZAKOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNALISTIKADA OBRAZ HAMDA IMIJ TUSHUNCHALARINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Annotatsiya: bu maqolada, jurnalistikada obraz va imij tushunchalarini dunyo olimlari talqinida tahlilga tortilib, o‘xshash hamda farqli jihatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, obraz va imijni qiyosiy tablitsa orqali ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: *obraz, imij, televideniye, media, zamon, tushuncha, tadqiqotlar.*

Аннотация: в данной статье, понятия образ и имидж в журналистике анализируются в трактовке мировых ученых, обсуждаются сходства и различия. Это также выражается через сравнительную таблицу образов и имиджа.

Ключевые слова: *образ, имидж, телевидение, медиа, время, понятия, исследования.*

Annotation: in this article, the concepts of image and image in journalism are analyzed in the interpretation of world scientists, similarities and differences are discussed. This is also expressed through a comparative table of images and image.

Keywords: *image, television, media, time, concepts, research.*

Kirish. Insoniyat dunyoni o‘zgartirish jarayonida g‘aroyib mo‘jizalar yaratdiki, XX asrning ana shunday ixtirolaridan biri televideniyedir. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotida aniq va gumanitar fanlarni o‘zida mujassamlashtirib taraqqiy etgan va etayotgan zangori ekransiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin.

Pyer Ronder «Televideniye haqidagi mulohazalar»ini I asr avval shunday boshlagan: «Istasam butun dunyo uyimga keladi, bugungi kun televideniyesi shunday mo‘jizakor qudratga ega» .

Zamonaviy media muhitida televideniye har bir xonadonga kirib borish kabi ulkan imkoniyatga ega ekan, u qiziqishlari va fikrlari turlicha bo‘lgan tomoshabinlar auditoriyasini qamrab olib, ta’sir ko‘rsatuvchi eng kuchli vositalardan biriga aylandi. Televideniye – jurnalistika bilan birlikda san’atning ham xususiyatlarini o‘zida mujassam

etib, har bir ko‘rsatuv – ekran tilida real hayotning ko‘zgusi sifatida aks etadi.

Telejurnalist, televideniyening muhim xususiyati bo‘lgan sintetikligidan foydalanib, har qanday mavzuni ekran orqali yoritib bera oladi. Obrazlilik – telejurnalistikaning muhim va zaruriy jihatidir. Televideniye kontekstida tomoshabin obrazini badiiy iste’dod ila nozik his qilish jurnalistning kasb mahorati sifatida hisobga olinishi lozim.

«Obraz» tushunchasini ma’lum bir ilm-fan doirasida ochib berish jamiyat uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham munozarali bo‘lib, uni dunyo voqealarini yoritishdagi yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish talab etiladi.

«Obraz» va «imij» tushunchalarini mazmun jihatdan qamrab olish va ularning har birini o‘z o‘rnida qo‘llash juda qiyin vazifadir. Bugungi kunda «imij» atamasi nafaqat imijeologiyada, balki jurnalistika, kommunikatsiya nazariyasi, siyosatshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlarda qo‘llaniladi va shu bilan birga har birida o‘z talqiniga ega. Bu tushunchaning ilmda nisbatan «yangi»ligini, shu bilan birga ko‘p ma’noni anglatishini hisobga olsak, yagona ta’rifi yo‘q. Bundan tashqari, mutaxassislar bir-biriga yaqin atamalar («stereotip», «brend», «reputatsiya» va boshqalar)ning mazmunini faol muhokama qilmoqdalar, bu esa «imij» tushunchasining mohiyatini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Obyektdagi obraz – tasvirlash nuqtayi nazaridan obyektivdir. Lekin shakl jihatidan u hamisha subyektivdir . Shakl jihatidan subyektiv bo‘lgach, biz obrazni filologik, psixologik va ijtimoiy yo‘nalishlarda turlicha tasvirlash imkoniyatiga egamiz.

Filologik tadqiqotlarga ko‘ra, obraz tushunchasi «badiiy va adabiy ijodning tabiati, shakli va vazifasini belgilovchi – estetikaning asosiy tushunchasi» deb talqin qilinadi. Ushbu holatda obraz tushunchasi, ko‘pincha muayyan badiiy obraz nuqtayi nazari orqali ifoda etiladi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar, «obraz» tushunchasini muallifning ijodiy dunyoqarashi bilan real voqelikni idrok etish nuqtayi nazari va uning shaxsiy talqini bilan bog‘laydilar .

N.D. Arutyunovaning ta’kidlashicha, «Inson ongida aniq obraz yaratishda ko‘pincha «olam va hayotni beixtiyor tadqiq etish mexanizmlari» ishtirok etadi». Tadqiqotchi «obraz» intuitsiya orqali shakllanadi, deb aniqlik kiritgan .

A. Ebru bo‘lsa, «keng ma’noda olganda obraz tushunchasi – mavzuning ong orqali aks etishidir yoki tasavvurdagi hodisalarni individual tasvirlash» deb, hisoblaydi .

Ilmiy ishlarda ommaviy axborot vositalari tomonidan shakllantirilgan mediaobrazning o‘ziga xosligi ta’kidlangan. Ba’zi tadqiqotchilar, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlarga asoslanib, emotsional va ratsional g‘oyalar yig‘indisini mediaobraz deb ataydilar. Boshqalar esa, «mediaindustriya tomonidan ommaviy auditoriyaga taqdim etilgan maxsus obraz» deb, aniqlik kiritadilar .

T.N. Galinskaya bu tushunchaga kengroq yondashadi: «mediaobraz» – mediamakonda yaratilgan barcha matnlar (professional jurnalistlar, blogerlar, ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar va boshqalar)ning voqelik tasviridir» . Olimning fikricha, tor ma’nodagi «mediaobraz» tushunchasi jurnalist tomonidan voqealarni bosqichma bosqich strukturalash jarayonida yaratiladi, keng ma’noda esa «mediaobraz» kommunikator va respiyentlar o‘rtasidagi ikki tomonlama jarayon doirasida real voqeani to‘satdan va erkin yaratishni nazarda tutadi.

Natijalar. «Obraz» va «imij» tushunchalarining asosiy jihatlarini aniqlab, quyidagilarni qayd etish mumkin:

Obraz	Imij
Intuitiv jihatdan shakllangan tasavvur	Maqsadli shakllangan tasavvur
Taassurot	O‘ziga xos tashqi xususiyatlar yig‘indisi
Auditoriya fikrini subyektiv ifodalash	Mavjud bo‘lgan (ko‘pincha tashqi) fazilatlar
Beqaror, tartibsiz o‘zgarishlarga qaram	Doimiy, barqaror sifatlar majmui

Xulosa. «Imij» atamasi «obraz» so‘zining ingliz tilidagi ekvivalenti bo‘lsa ham, ma’no jihatdan farq qiladi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda ma’no bir xil bo‘lsada, tushunchalarni chuqurroq o‘rganishimiz atamalarni farqlash imkonini beradigan xususiyatlarni ochib beradi. «Obraz» keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, ingliz tilidagi ekvivalenti orqali aniqlik kiritib bo‘lmaydi. Ba’zi kontekstlarda «imij» emas, «obraz» toifasidan foydalanish ahamiyatga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 40 мнений о телевидении. Деятели культуры и телевидения.– М.: «Искусство», 1978. – С. 4.
2. Каримова К.Р. Понятия «образ» и «имидж» в практике СМИ и научных исследованиях//Знак: проблемное поле медиаобразования. 2019. №2.- С.138.
3. Головина Е. В. Категория художественный образ в лингвистике и литературоведении // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов, 2016. № 11 (65). – С.101.
4. См., напр.: Рахматуллин Р. Ю., Семенова Э. Р., Хамзина Д. З. Понятие образа // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов, 2012. № 12 (26). – С.167-170; Чапаева М. В. Проектирование имиджа: учебное пособие. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2013 и др.
5. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека: 2-е издание, исправленное. Москва: Языки русской культуры, 1999. – С.138.
6. Эбру А. Языковые средства создания образа политического деятеля в американских и британских СМИ: дисс. канд. фил. наук: 10.02.04
7. Богдан Е.Н. Медиаобраз России как понятие теории журналистики // Вестник Моск. ун-та. Сер. 10: Журналистика. 2007. – №4. – С. 124
8. Галинская Т.Н. Понятие медиаобраза и проблема его реконструкции в современной лингвистике// ВЕСТНИК ОГУ №11 (160)/ноябрь.2013. –С.91ащищена 04.12.17. Москва, 2017. – С.28.

Lobar MARDONOVA,
TerDPI, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SAROY XONIMLARI OBRAZLARI VA TEMURIYLAR SALTANATIDA AYOLGA MUNOSABATNING BADIIY IN’IKOSI

Annotatsiya: Temuriy malikalarni yagona nuqtaga birlashtirib turuvchi kuch ular tabiatidagi ayol, ona, malika sifatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirganligida yanada bo‘rtib, qabariq holda ko‘rinadi. Ularning ayol, ona, malika sifatidagi individual xususiyatlarini bo‘rttirish orqali umumlashtirishga erishilgan. Tetralogiyada ana shu jihatlarga qat’iy amal qilinganligi uning to‘laqonli yaxlit hayot syujetini ta’minlagan omil darajasiga ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ilm-fan, san’at, adabiyot, axloqiy qonuniyatlar, odob-axloq, madaniyat, ma’rifat*

Аннотация: сила, объединяющая тимуридских принцесс в единую точку, становится более преувеличенной и раздутой, когда они сочетают в своей природе качества женщины, матери и принцессы. Обобщение достигалось за счет преувеличения их индивидуальных характеристик как женщин, матерей и принцесс. В тетралогии строгое следование этим аспектам возведено в уровень фактора, обеспечивающего ее полноценный целостный жизненный сюжет.

Ключевые слова: *духовность, наука, искусство, литература, нравственные законы, нравы, культура, просвещение.*

Annotation: the unifying force of the Timurid queens is further accentuated and emphasized by the fact that they combine the qualities of a woman, mother, and queen in their nature. Their individual characteristics as women, mothers, and queens are generalized by exaggerating them. The strict adherence to these aspects in the tetralogy has risen to the level of a factor that ensures its full-fledged integral life plot.

Key words: *spirituality, science, art, literature, moral laws, manners, culture, enlightenment*

Temuriy malikalardan biri Xalil Sultonning xotini Shodimulkbegim haqida tarixiy manbalarda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Ayrim ma’lumotlar bir-biridan tubdan farq ham qiladi. Biroq aksariyat tarixchilar bu malikani temuriylar saltanatining tanazzuliga sababchi bo‘lgan, deb qayd etishgan. Muarrix Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodimulkbegim Samarqandda oddiy bir hunarmand oilasida tug‘ilgan. Xalil Sulton Shodimulkbegimni sevib qolgan va o‘sha davr urf-odatiga, Amir Temurdek qattiqqo‘l ota, qudratli saltanat sohibi istagiga xilof tarzda unga uylangan. Amir Temur kelinini yoqtirmagan va avval-boshdanoq bu nikohga qarshi bo‘lganligi, hatto uni qatl etishga farmon berganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Sohibqiron vafotidan keyin hukmdorlikni egallagan Xalil Sultonning saltanatni boshqarishida Shodimulkbegim muhim o‘rin tutgan. Uning xazina va saltanat ishlaridagi aralashuvi ayniqsa, salbiy oqibatlarga olib kelgan. Yozuvchi Shodimulkbegimning Xalil Sultonga bo‘lgan o‘ta kuchli ta’sirini, hatto saltanatga doir har bir farmongacha malikaning ixtiyori bilan amalga oshirilishini, xazinani qisqa muddatda sovurib yuborishini, uning xohishiga ko‘ra bir talaygina noloyiq kishilar yuqori lavozimlarga tayinlanishini juda ishonarli va hayotiy tasvirlay olgan. Shodimulkning yovuz qilmishlari odamning aqlini shoshirib qo‘yadigan darajada ko‘p va qo‘rqinchli. Shulardan biri Sohibqironning bevalari va kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in’om qilishga Xalil Sultonni ko‘ndirishidir. Mahdi ulyo Saroymulkxonimdek oliynasab malikaning g‘urur va sha’nini toptab, majburlab turmushga berilishi, Xalil Sulton va onasi o‘rtasidagi munosabatlarning buzilib ketishini uyushtirgan ham Shodimulk edi. 1411-yilda Xalil Sultonning o‘limidan keyin, eridan so‘ng yashashni istamagan Shodimulk o‘z joniga qasd qilgan. Uning o‘limi tafsiloti ayrim manbalarda zahar ichgan deb ko‘rsatilgan.

Shodimulk obrazida inson ruhiyatining turfa qirralari turli rakurslarda ko‘rinadi. Usmon Azimning “Xalil Sulton” tarixiy dramatik dostoni, T.Fayziyevning “Temuriylar shajarasi” risolasida bu malikaning murakkab shaxsiyati yoritilgan. Usmon Azim asarida Shodimulk oqila, dono, qalbi mehr-muhabbatga to‘la, o‘z erini sevadigan, ma’rifatli ayol sifatida tasvirlangan. Ammo bu ma’lumotlar tarixiy manbalarga bir qadar mos kelmaydi.

Xalil Sulton va Shodimulk muhabbati tarixiy va badiiy asarlarda turlicha baholangan. Jumladan, P.Shermuhammedovning yozishicha: Oradan yillar, asrlar o‘tadi. Xalil Sulton bilan Shodimulkning ishqiy sarguzashtlari haqida badiiy va ilmiy asarlar yoziladi. Ular orasida Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang” dostoni hamda fransuz adibasi Milena Nakovichning “Samarqand ustida yoqqan oltin yomg‘ir” romanini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. Fransuz temurshunos olimi Lyus’en Keren keyingi asarni “O‘zbek Romeo va Julettasi” deb ta’rif qiladi.

Amir Temur va Saroymulkxonim o‘rtasidagi suhbatda Shodimulk masalasi muhokama qilinganda, sohibqiron Shodimulkni badarg‘a qilish fikrida qat’iy turadi. Shunda Saroymulkxonim shahzodaga bo‘lgan mehri tufayli bo‘lsa kerak, Shodimulkni “yukli” deb yolg‘on gapiradi. Vaholanki, mahdi ulyo o‘sha paytda Shodimulkni hatto tanimas ham edi. Ana shu xabarni eshitgandan keyin ham Amir Temur fikrini biroz o‘zgartirsa-da, bu kanizakni saroydan uzoqlashtirish kerak, degan fikrida qoladi.Ya’ni, chevarasi tug‘ilgandan keyin chaqaloqni Tuman oqa katta qilishini, Shodimulkni esa biror bir qulga uzatib yuborishini bildiradi.

“Mahdi ulyo Saroymulkxonim suyukli nabirasi Xalil Sultonni balolardan asrab qolganiga Xudoga shukrlar etdi. Savob ish qilganidan quvonchi cheksiz, tahlikada qolgan malikalarni tinchlantirish uchun Bog‘i Chinorga yo‘naldi. Lekin vaqtlar kelib, nopoklikning kasri urishini, yaxshilikka qaytgan yomonlikdek, o‘zi qutqarib qolgan kanizak uning, nafaqat uning, balki ulug‘ saltanatning boshiga ham qora kunlar solishini zinhor o‘ylamasdi” .

Pirmat Shermuhammedovning “Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini” badea-romanida Xalil Sulton asirlikdan qutqarilgach, Hirotga keladi va yana o‘sha sazoyi qilingan, tutqunlikda saqlanayotgan Shodimulk bilan ko‘rishadi. Ammo Xonzoda xonim aytganidek: “...xatolar turli xil bo‘ladi. Lekin xiyonat kechirilmaydi. Aytishga til bormaydi. Ammo hech qachon haqiqatni yashirib bo‘lmaydi. Sizlar hazrat bobongiz vasiyatini tinglamay, bir umr jazosini tortib o‘tasizlar”. Xonzoda xonim farzandiga shu so‘zlarni ayta turib, qondoshi Pirmuhammadga qarshi jang qilganligi, Amir Temurning xotini Tuman oqani Shayx Nuriddin nikohiga kiritganini, Shohruh Mirzoning nasihatlarini tinglamaganini, nima uchun Mirzo Ulug‘bekni yomonotliq qilganining sababini so‘raydi, ammo savollari javobsiz qoladi.

Xalil Sulton ham, Shodimulk ham sog‘ligi yomonlashgan, aqldan ozish darajasiga tushgandi. Xalil Sulton vafot etadi, Shodimulkni esa Sohibqironning ruhi ta’qib qilardi: “Hazrat oyi, – dedi u yoshli ko‘zlarini artar ekan, – kecha g‘alati tush ko‘rdim. Tushimda hazrati qayinotam Amir Temur qo‘lida qilichi bilan ustimga bostirib keldi.

– Hazrati ota, gunohlarimni kechiring, – deyman men unga yalinib.

– Yo‘q, kechirmayman. Negaki, sen Xalil Sultonning taxtga o‘tirishiga, xazinaning talon-taroj qilinishiga, malikalarning xo‘rlanishiga sababchi bo‘lding. Bilib qo‘y, sen hech qachon bu qutlug‘ xonadonga kelin bo‘lgan emassan, – deydi g‘azab bilan” .

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala yozuvchi ham tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani g‘oyatda ustalik bilan uyg‘unlashtira olishgan. Xatoning badalini to‘lash shart, degan oddiy hayotiy haqiqatning tasdig‘i

tetralogiyada ham, roman-badeada ham to‘la o‘z tasdig‘ini topgan. Ayolning oila va jamiyatdagi mavqei va roli haqida baho berar ekanmiz, temuriy malikalarning hayot yo‘li har birimizga yaxshigina ibrat maktabi vazifasini o‘taydi. Sharqona odob-axloq, hayo va ibo, kamtarinlik, bag‘rikenglik singari ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hech qachon eskirmaydi. Milliy qadriyatlar va an’analar oilalar tinchligi, farovonligi, jamiyat ravnaqini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yosh avlod tarbiyasida ayni shu jihatlarni hisobga olish shart.

“Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining Amir Temur haqida yozilgan boshqa ko‘pgina asarlardan farqli bir tomoni bor: asarda sohibqiron oilasi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Adibga bu ish oson bo‘lmagani aniq, negaki, o‘sha paytdagi urf-odat, qolaversa, islomiy aqidaga ko‘ra birovning oilasi, ahli ayoli to‘g‘risida yozish odob qoidalariga tamoman zid sanalgan. Shunday bo‘lsa-da, faqat shu xonadonga yaqin bo‘lgan, bevosita Amir Temur yoki temuriylarning xohishiga ko‘ra tanlangan muarrixlarning asarlarida oz bo‘lsa-da, ma’lumotlar mavjud. G‘arb tarixchilari asarlarida ma’lumotlarning ko‘pligiga sabab ular temuriy malikalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishgan yoki ma’lum muddat Amir Temur istagiga ko‘ra saroyda xizmat qilishgan. Tetralogiya adabiyotimizdagi mana shu bo‘shliqni to‘ldirganligi bilan alohida qadr-qimmatga ega. Asarda kitobxon shu paytga qadar nomlarini ham eshitmagan tarixiy shaxslar – temuriy malikalar haqida juda muhim tarixiy-ilmiy dalillar mavjud.

Hayotda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, muhabbat va nafrat, sadoqat va xiyonat goh yonma-yon, goh biri ikkinchisi bilan o‘rin almashtirib turadi. Tug‘ilish bor ekan, demak, o‘limning bo‘lishi ham aslida tabiiy bir hol. Narsalarning asl mohiyati ularning ziddiga qarab anglashiladi. Agar o‘lim bo‘lmaganida inson hayotni bunchalar sevmasdi, ehtimol. Baxt va balo har doim insondan tashqarida, hayotda yuz beradigan har qanday voqea-hodisa, ko‘rgulik va musibat odamning botinidadir. Bani odam bolalarining eng katta fojiasi o‘zidan tashqarida nimanidir izlashidir. Biz o‘zimizning hosilamiz, o‘z-o‘zimizning tarjimamizginamiz, xolos.

Shodimulkning qilmishlari, Xalil Sultonni jarga boshlab borgani, saroy malikalarini xor qilgani, saltanat xazinasini sovurib yuborgani hammasidan oshib tushadi. Kechagina kanizak sifatida sotib yuborilgan Shodimulk taxtni va Xalil Sultonni egallab olgach, temuriylar sulolasi batamom yemirila boshlaydi. Amir Temur ardoqlagan Saroymulkxonimdek mo‘tabar ayolning sha’nini bulg‘ashgacha borgan Shodimulkning ko‘zini kutilmagan baxt ko‘r qilgan, hech kimning nasihatiga quloq tutmas edi.

Shodimulkni bir paytlar Saroymulkxonim muqarrar o‘limdan asrab qolgan edi, u hatto shuni ham esdan chiqardi. Oxir-oqibat Xalil Sulton Shodimulkning hiylayu nayranglari qurboniga aylandi, malikaning o‘zi esa o‘z joniga qasd qildi. Bu fojialarning sababchisi uning o‘zi edi. Albatta, har bir kishining hayoti uning xatti-harakatlariga tutilgan ko‘zgudir.

Temuriy shahzoda va malikalarning taqdiri nega bunchalar g‘amgin, nega ular ayni balog‘atga yetgan davrlarida bu hayot bilan xayrlashishga majbur bo‘ldi? Bu sirni yechish, uni izohlash, qanday talqin qilish kitobxonga havola qilingan. Yozuvchi temuriy malikalarning fojiasini ko‘rsatadi, agar diqqat qilinsa, uning sababi ham ayon. Sabab-oqibat natijasi bo‘lgan qismatni yaratish inson amallariga, niyatiga ham bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Chunki bu tan olamizmi-yo‘qmi, hayot haqiqati, hayotning yozilmagan qonuni, ilohiy haqiqatdir.

Temuriy malikalarni yagona nuqtaga birlashtirib turuvchi kuch ular tabiatidagi ayol, ona, malika sifatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirganligida yanada bo‘rtib, qabariq holda ko‘rinadi. Ularning ayol, ona, malika sifatidagi individual xususiyatlarini bo‘rttirish orqali umumlashtirishga erishilgan. Tetralogiyada ana shu jihatlarga qat’iy amal qilinganligi uning to‘laqonli yaxlit hayot syujetini ta’minlagan omil darajasiga ko‘tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiy turlar va janrlar. 1 jild. Epos. – Toshkent: Fan, 1991. 347- bet.
2. Ali, Muhammad. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. –T: O‘qituvchi, 1996. 310- bet.
3. Alimbekov A. Tarixiy romanchiligimizga bir nazar. Ozod Vatan saodati. Adabiy tanqid. –Toshkent: Adib, 2013. 313- bet.
4. Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU. 2020. 390- bet.
5. Alimov R. A. So¬hibqiron Amir Temur (metodik tavsiyanoma) – T., 1995.
6. Yoqubov I.Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2021. 336- bet.
7. Ulug‘ saltanat vasfi. – Toshkent: Mashhur press, 2017. 352- bet.

Begzod ABDULLAYEV,
"University of economics and pedagogy" NOTM v.b. dotsenti,
PhD, Andijon davlat universiteti doktoranti,
ADCHTI o'qituvchisi

BOZOR MUNOSABATLARIDA DISKURS

Annotatsiya: ushbu maqolada reklama diskursining bozor munosabatlarida shakllanishi va reklama matnlaridagi pragmatik hodisalarning kuzatilishi, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi nutqiy munosabatda murojaat, taklif va ko'ndirish jarayonida qo'llaniladigan leksemalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *diskurs, reklama, kommunikativ muloqot, pragmatika, reklama matni.*

Аннотация: в данной статье рассматривается формирование рекламного дискурса в рыночных отношениях и наблюдение за прагматическими явлениями в рекламных текстах, лексемами, используемыми в процессе обращения, предложения и убеждения в речевых отношениях продавца и покупателя.

Ключевые слова: *дискурс, реклама, коммуникативный диалог, прагматика, рекламный текст.*

Annotation: this article discusses the formation of advertising discourse in market relations and the observation of pragmatic phenomena in advertising texts, lexemes used in the process of appeal, offer and persuasion in the speech relationship between the seller and the buyer.

Key words: *discourse, advertising, communicative dialogue, pragmatics, advertising text.*

Bozor munosabatlarida diskurs bozor sharoitlarida muloqot va aloqa jarayonlarini ifodalovchi lingvistik va sotsiolingvistik tushunchadir. Diskurs nafaqat nutq, balki til vositalari, ijtimoiy munosabatlar va madaniy kontekst bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Bozor munosabatlarida diskurs quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Tijorat nutqi.

Reklama, savdo va biznes sohasidagi muloqot vositalari orqali shakllanadi. Bu diskurs iste'molchilarga mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot berish, ularni xarid qilishga undash va ular bilan doimiy muloqotni saqlashga qaratilgan.

2. Til vositalarining ta'siri.

Leksik vositalar: maqsadli auditoriyaga moslashgan so'zlar va iboralar.

Pragmatik yondashuv: bevosita murojaat qilish, talab yoki takliflarni bildirish.

Stilistik elementlar: reklama va savdo diskursida jozibadorlikni oshirish uchun metaforalar va alliteratsiyalar.

3. Madaniy kontekst.

Diskursning samaradorligi ko'pincha milliy va madaniy qadriyatlar bilan mos bo'lishiga bog'liq. Masalan, o'zbekcha bozor diskursida samimiylik va yaqinlikni ifodalovchi nutq shakllari keng tarqalgan.

4. Raqamli kommunikatsiya.

Zamonaviy bozor munosabatlarida diskurs ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat platformalari va raqamli marketing vositalari orqali yangi shakllarga ega bo'lmoqda. Bu muloqotning ko'pkanalliligi va o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadi.

5. Diskursiv strategiyalar.

Argumentatsiya: mahsulot yoki xizmatning foydasini isbotlovchi dalillar.

Narrativ yondashuv: brendlar o'z xizmatlari va mahsulotlarini hikoyalar orqali taqdim etishadi.

Vizual va verbal birikma: Reklama matnining mazmuni bilan tasvirlarning uyg'unligi iste'molchilar e'tiborini jalb qilish uchun ishlatiladi.

Savdo jarayonida ba'zan illokutiv fe'llarning ochiq semalari ochiq tarzda bayon qilinadi. Misol uchun: *Savdoda halollik – yolg'on ishlatmaslikdir. Men aytgan narxda olsangiz, shu ko'ylakdan 10 ming foydalanaman, bo'lmasa harajatlarim chiqmaydi. Xohlasangiz, rozi bo'lib shu narxda sotib oling!* (Jizzax viloyati, Zarbdor kiyim bozori. 03.05.2023).

Bu muloqotda "*10 ming foydalanaman*" va *"sotib oling"* fe'llari *"ozroq qoladi"*, *"ustiga qo'yaman"*, *"oling"*, *"olib keting"* kabi illokutiv fe'llarning ochiq semalari hisoblanadi. Bu jarayon pragmalingvistikada *performativ formula* (qolip) atamasi bilan nomlanadi.

J.Ostinning qaydicha, har bir nutqiy tuzilma illokutiv harakatni bajarish uchun xizmat qiladi va modal ko'rsatkichlar (mayl shakli, so'z tartibi, ohang va boshqalar) so'zlovchiga u qandaydir illokutiv maqsadni ifodalash niyatida bo'lganligini bildirish imkonini beradi. Nutqiy akt nazariyasida bunday tuzilmalar "aniq performativ"lar deb ataladi. [1.36]

Bundan tashqari, O'zbekistonda bozor munosabatlarida shunday sintaktik-tuzilmalar mavjud-ki, ular anglatayotgan pragmatik mazmun doimo, barcha savdo munosabatlari jarayonida bir xil illokutiv kuchga ega bo'ladi va albatta, bunday jumlalar tarkibida illokutiv fe'llar qo'llaniladi: *"Arzonlatib beraman»; "Yo'lida qilib beraman"; "Kelishtirib beramiz"* va hokazo.

O'zbekiston bozorlarida savdo munosabatlari – og'zaki reklamalarda hududga qarab illokutiv fe'llar turlicha bayon qilinadi. Ko'p savdo joylarida bir xil illokutiv fe'llardan ("*Optomiga sotamiz!", "Arzon qilamiz!"* kabi) foydalanar ekan. Izlanishlar davomida alohida jihatlari bilan ajralib turgan ba'zi sintaktik tuzilmalar

o‘rganildi. Bularni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

Hududiy bo‘linma	Illokutsiya jarayonida ishlatilgan so‘zlar va fe’llar
Andijon	*“Arzonlatib **beraman, agar** “**Jahon”da** mendan **arzon bersa**, pulizi **qaytarib**, shu tuflini ham **olmiman**!”, “Yo‘lida **bo‘ladi**”, “**Kelishamiz,** aka. **So‘rangchi**, axir”, “**Ko‘ring-chi**?”, “Uka **so‘rorasiz**, bozor-ku!”*
Toshkent	***Olor**, o‘zi arzon-ku uka!”, Menga qara uka, bitta non **topaman** deb **o‘tirippan**! Sen **bergan** pulingdan shu qolsa, jiyanlaring **yediraman**. Xalol savdo **deding, aytdim**”*
Farg‘ona	*“Bu narxni **ko‘tarmaydi**, bizda”, Axir, **bir narsa deng** siz ham”, Behijolat, akajon, **izlab kelasiz**!”, Pulizi olib, **aldasam**, otam **haydavoradi**!”.*
Surxondaryo	*Yaxshi yetib **keldizmi**?”, 2 ta patir o‘ttiz **sotaman**, **bo‘ladimi**. Bir joyga oborsangiz **uyalmaysiz**, otvechat qilaman! **Bo‘ladimi? Yana oling!”***
Navoiy	*“**Olabering**, kelasiz yana!”, Bachalarizga **olasizda**, **kelishamiz**!”, Bu suvni gazi oshqozonni **davolamasa**, meni **deysiz!** Yaxtakkina **ichasiz,** 1 kun suv **demeysiz!”***
Sirdaryo	*Halizamon **kelasiz, qaytib**”, Bu **bo‘maydimi**? Qarang aka, Optim 5000, men 1000 so‘m, suvni pulini **so‘radim**. Oqmoyni dog‘lanmaganini **aldab**, 5000 desa **arzon desangiz, olabering**!”*
Qashqadaryo	*Do‘konimiz tepadaligiga arzon, tekindek **oling!**”, **Ishlab chiqorgan** firmaga **qarang**, narxiga ham **qarang**, **bilasiz!”,***
Buxoro	*“**Ko‘ring** qani, **kiyib ko‘rsayiz, olorasiz. Yoqib qoladi**”, “**Yolg‘on bo‘maydi, bugun juma!** Allohdan **so‘radim, beradi,** sizni **aldab nima olaman!** ”,*
Namangan	***Narsa qilib olsangiz**, **arzonlatib beraman**”, Ako, buni materialini **ko‘ring**, pul **so‘ramayman**! Agar boshqa do‘konda bersa, pulizi **qaytarmagan** nomard!”*
Jizzax	*Yaxshi **keldizmi**, **Mana ko‘ringchi**”, Ishga bo‘lsa **bos**! Rezinkamas padoji. O‘zi **yoqib**, puli yoqmasa 65 ga **ol**!”, **olsang**, rahmat **deysan**!”, Bu Turkiya, uka. Siz O‘zbekistonnikini **ko‘rgansiz**! Men ham beroraman, arzon qilib. **Ano dedim**, **boya kelgan**, jiyanimga! Shu qizchaga **olasizmi**?”*
Sirdaryo	*Yanagi kelganda **qo‘shib berasiz**, **oloring**”, **Aytaymi, aldamasangiz, halol bo‘ladi**! O‘sha narsani **olib**, bolamga **yediraman-ku**!”, Kiyib **ko‘ringlar**, yoqsa, **olasiz**! Sifati pulizga **arziydi**!”*

N. D. Arutyunova nutq aktidagi adresatning omili muammosi haqida gapirganda, nutq aktining pragmatik ahamiyatini nafaqat gapiruvchi subyektga, balki nutq holatiga, shuningdek qabul qiluvchidan sezilarli darajada bog‘liq qiladi.[2.14]

Bunday jarayon xaridor bilan sotuvchi kommunikativ munosabatining izchilligi va aloqani to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq olib borishni ta’minlaydi.

Bozor munosabatlarida diskurs iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat til vositalarini, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham qamrab oladi. U samarali muloqot uchun mos strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy omil hisoblanadi. Diskursni tahlil qilish tijorat va reklama sohalarida muvaffaqiyat qozonish uchun muhim nazariy va amaliy asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, *John*. Philosophical Papers. *Oxford*: *Oxford University Press*, 1960. —. How to *Do Things* with *Word*

s. Oxford: *Oxford University Press*, *1962/1975. 2nd ed*.
2. Арутюнова, Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике [Текст] / Н.Д. Арутюнова - М.: Изд-во АН СССР, 1973. – С. 84-92.
3. KH, Abdullaev B. “A LOOK AT ADVERTISING AND THE HISTORICAL FORMATION OF ADVERTISING IN UZBEKISTAN.” *Open Access Repository* 8.12 (2022): 684-686.
4. Ф.К.Хабибуллаева. К проблеме воссоздания национальной самобытности в художественном переводе. «Содружество культур» (материалы республиканской научно-практической конференции), Наманганский государственный университет, 20-21 май.2026 – С. 84-92.

Husanboy RAHMONOV,
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi (PhD)

BADIIY MANZARA VA UNDA ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyo tilshunoslari tomonidan assotsiativ tilshunoslik masalalariga qiziqishning ortishi va bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, juda ko‘p tillarda assotsiativ lug‘atlarning yaratilganligi, assotsiativ grammatikaning tuzilganligi ushbu yo‘nalishning mustaqil rivojlanayotgan soha sifatida e’tirof etilishi aytib o‘tiladi. Bugungi kunga kelib assotsiativ tilshunoslikning o‘rganish obyekti, predmeti aniq belgilangan, tadqiq metodlari ishlab chiqilgan, nazariy masalalari, dolzarb muammolari belgilangan. Assotsiativ tilshunoslikda matn yaratuvchi ijodkor shaxsning assotsiativ tafakkuri, tasavvurlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarning badiiy matnga ko‘chishi, bunday birliklarning badiiy matndagi roli, ijodkor idiostilini shakllantirishdagi o‘rni kabilarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni muayyan ijodkor badiiy asari misolida tadqiq etish assotsiativ tafakkur – til – matn munosabati masalasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishi muqarrar.

Kalit so‘zlar: *assotsiatsiya, semantika, pragmatika, kommunikativ, grammatik, inson, til, kontekst, amaliyot, lug‘aviy.*

Annotation: this article discusses the growing interest of linguists around the world in the issues of associative linguistics and the fact that many studies have been carried out in this area, associative dictionaries have been created in many languages, and associative grammar has been developed, which has led to the recognition of this area as an independently developing field. To date, the object and subject of study of associative linguistics have been clearly defined, research methods have been developed, theoretical issues and current problems have been identified. In associative linguistics, it is important to study the transfer of associations that arise in connection with the associative thinking and imagination of the creative person creating the text to the artistic text, the role of such units in the artistic text, and their role in the formation of the creator's idiostyle. Studying this problem on the example of a specific creative work will inevitably enrich scientific and theoretical views on the issue of the relationship between associative thinking - language - text with new knowledge.

Keywords: *association, semantics, pragmatics, communicative, grammatical, human, language, context, practice, lexical.*

Аннотация: в данной статье отмечен рост интереса к вопросам ассоциативной лингвистики со стороны мировых лингвистов и то, что в этом направлении было проведено большое количество исследований, создание ассоциативных словарей во многих языках, структура ассоциативной грамматики и В данной статье речь идет о признании этого направления как самостоятельной развивающейся области. К настоящему времени четко определен объект исследования, предмет ассоциативной лингвистики, разработаны методы исследования, определены теоретические вопросы и актуальные проблемы. В ассоциативной лингвистике важно изучение передачи ассоциаций в художественном тексте, роли таких единиц в художественном тексте, роли творческой личности в формировании творческого идиостиля и т. д. Исследование этой проблемы на примере конкретного художественного произведения художника неизбежно обогатит научно-теоретические взгляды на проблему связи ассоциативного мышления – языка – текста с новыми знаниями.

Ключевые слова: *ассоциация, семантика, прагматика, коммуникативность, грамматика, человек, язык, контекст, практика, лексика.*

Ma’lumki, har bir matnning semantik va sintaktik jihatdan shakllanishida, qismlarining mantiqan bir-biri bilan bog‘lanishida o‘zaro assotsiativ aloqada bo‘lgan til birliklari muhim rol o‘ynaydi. Assotsiativ birliklar matnni nafaqat mantiqiy, semantik-struktur jihatdan shakllantirish xususiyatiga ega, balki unda ifoda etilayotgan axborot

mazmunini oldindan tasavvur qilishga ham imkon beradi. Masalan, til egalarida qish leksemasiga nisbatan hosil bo‘lgan sovuq, qahraton, izg‘irin, qor, bo‘ron assotsiatsiyalari bu birliklar ishtirokida tuzilgan matnda qish tasviri o‘z aksini topganligidan darak beradi. Demak, tilshunoslikda ko‘pincha “verbal assotsiatsiyalar” deb nomlanuvchi bunday birliklar, D.Lutfullayeva qayd etganidek, matnni hosil qiluvchi, uni semantik-sintaktik jihatdan shakllantiruvchi asosiy tayanch birliklar vazifasini o‘taydi. [1:66] Bu holat matn tadqiqida uni shakllantiruvchi assotsiativ aloqadagi tayanch birliklarning xususiyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Assotsiativ birliklar matnni shakllantirish barobarida til egalarining tashqi olamni idrok etishi, uni qay darajada o‘zlashtirganligi, ya’ni olam haqidagi bilimlari, voqelikka bo‘lgan munosabati kabilarni matnga olib kiradi. Assotsiativ birliklar ijodkor shaxsga olamning badiiy manzarasini tasvirlashida yengillik yaratadi. Chunki assotsiativ bog‘langan birliklar voqelikning bir-biri bilan bog‘liq, ammo alohida xususiyatli qismlarini yaxlit tasvirlash imkonini yaratadi.

Assotsiativ birliklar yozuvchi yoki shoirning olam haqidagi bilimlari va tasavvurlari orqali ularning lisoniy ongida shakllanib, badiiy asarga ko‘chiriladi. Shu sababli ham bir ijodkorda tashqi olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalar bo‘yicha uning dunyoqarashi, tasavvurlari, bilimlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan o‘z assotsiativ birliklari shakllanadi.

Ma’lum bo‘ladiki, olam badiiy manzarasining yaratilishi uni idrok etish, tushunish, shuningdek, ongda yangi badiiy obrazlarni yaratish bilan bog‘liq holda kechadi.

Yozuvchi yoki shoir olamning badiiy manzarasini yaratishda, avvalo, o‘z assotsiatsiyalariga tayanadi. Ma’lum bo‘ladiki, olamning badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ aloqa-munosabatdagi birliklar muhim o‘rin tutadi. Quyida berilgan misolda mazkur birliklar muallif tasavvurida tiklangan assotsiatsiyalar bo‘lib, Qor konseptining tasviri uchun xizmat qilgan. Assotsiativ birliklar muallif tasavvurida tiklangan o‘ziga xos mazmuniy obrazni badiiy matnda aks ettirishga hamda uning istak-xohishini yuzaga chiqarishga yordam bergan. Jumladan, matnda qo‘llangan quyidagi assotsiativ birliklar qorning belgi-xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan: oqlik (2), undan (qordan) “bobo” yasamoq, kumushrang qanotlarini yoygancha erkalanib yotgan oq kaptar.

Matnda oqlik assotsiativ birligi 2 marta takrorlangan, u orqali muallif qorning oqlik ramzi ekanligiga ishora qilgan. Undan “bobo” yasamoq assotsiativ birligi esa bolalarning qordan qorbobo yasashi epizodini yodga tushirgan. Bu assotsiativ birlik qordan yasash mumkin bo‘lgan narsalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladi. Kumushrang qanotlarini yoygancha erkalanib yotgan oq kaptar murakkab so‘z birikmasi qorni kumushrang qanotli kaptarga o‘xshatish natijasida hosil bo‘lgan assotsiativ birlik hisoblanadi.

Qor yoqqandan keyingi holat tasviri quyidagi assotsiativ birliklar orqali ifoda etilgan: yer oqarmoq, qadamlardan g‘alati tovushlar chiqmoq.

Qor yoqqanidan so‘ng amalga oshiriladigan tozalash ishlari matnda tomlar, yo‘laklarni tozalamoq assotsiativ birliklari orqali yoritilgan.

Matnda qo‘llangan ko‘hna chelak, ko‘mir, cho‘ltoq supurgi assotsiativ birliklari qorbobo so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan, qor so‘zi bilan esa bilvosita bog‘langan assotsiatsiyalar hisoblanadi.

Matnda ajratilgan erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko‘tarilmoq, Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi assotsiativ birliklari turtki so‘z bilan bilvosita bog‘langan birliklar hisoblanadi. Erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko‘tarilmoq birliklari qorga o‘xshatilgan oq kaptarga nisbatan hosil bo‘lgan assotsiativ birliklardir. Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi assotsiatsiyasi esa ushbu kaptar – qorga nisbatan muallifning istak-xohishini ifodalab kelgan.

Ko‘rinadiki, QOR konsepti ifodalangan ushbu matnning tayanch qurilish birliklari assotsiativ birliklardir. Ular matnni semantik-sintaktik jihatdan shakllantirish bilan birga, olamning kichik bir fragmenti bo‘lgan QOR konseptining milliy tasvirini yaratishga xizmat qilgan. Bizningcha, olam manzarasi insonning nafaqat bilimlari to‘plamini, balki uning tashqi olamga bo‘lgan munosabati, qarashlari, hissiyotlarini ham qamrab oladi.

Olamning lisoniy manzarasi tushunchasi olam manzarasining tarkibiga kiradi va uning til bilan aloqador jihatini aks ettirishda qo‘llanadi. Negaki lisoniy ong inson ongidan tashqarida emas, olamning lisoniy manzarasi terminida olam manzarasining tilda namoyon bo‘lishiga urg‘u beriladi. Demak, olamning lisoniy manzarasi va olam manzarasi terminlari o‘zaro bog‘liq, bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatadi, ammo bir-biridan farqlanadi.

Shu narsa aniqki, olamning lisoniy manzarasi tushunchasi tafakkur – borliq – til munosabatini aks ettiradi. Bu tushuncha til egalariga xos bo‘lgan olamni idrok etish tarzi, u haqidagi bilimlari, tasavvurlari, bahosining tilda aks etgan manzarasidir. Umumiy planda olganda, tilshunoslikda olam manzarasi tushunchasi dunyoning inson dunyoqarashi va tasavvurlariga asoslangan holda aks ettirilgan yaxlit, global tasviriga nisbatan ishlatiladi.

Yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarida yaratgan olam manzarasida ularning bilimlari qatorida tasavvurlari, hissiyotlari, qarashlari, tashqi olamga munosabati jamlanadi. Ijodkor tashqi olamni idrok etar ekan, uni qalban his qiladi, uni tushunishga harakat qiladi, mavjud bilimlarini ishga solib, o‘xshashliklarni qiyoslaydi, farqlarni ajratadi va shu tariqa tafakkurida individual olam manzarasini chizadi. Yozuvchi yoki

shoir yaratgan olam manzarasi badiiy xarakterga ega bo‘lganligi uchun u olamning badiiy manzarasi deb ataladi.

Olam badiiy manzarasining yaratilishi individual xarakterga ega bo‘lganligi uchun har bir ijodkorda turlicha aks etadi. Y.A. Tirishkinaning ma’lumot berishicha, olam manzarasining yaratilishida an’anaviy tarzda 2 turli yo‘nalish farqlanadi:

1) insonning hayot faoliyati asosida yotuvchi dunyo fragmentlarini anglash, tushuntirish, ajratish, obyektivlashtirish;

2) tizimli xarakterga ega bo‘lgan maxsus refleksiyaning amalga oshishi jarayonida dunyoning yangi obrazlarini yaratish, ijod qilish, rivojlantirish. [2:22]

Ma’lum bo‘ladiki, olam badiiy manzarasining yaratilishi uni idrok etish, tushunish, shuningdek, ongda yangi badiiy obrazlarni yaratish bilan bog‘liq holda kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С.51. (– 314 с.)
3. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М., 1988. – С.55.
4. Серебренников Б. А. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. – М., 1988. – С.179. (– 212 с.)
5. Тырышкина Е.А. Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. … канд. филол. наук. – Новосибирск, 2002. – С. 22.
6. Хайдеггер М. Время картины мира // Хайдеггер М. Время и бытие: статьи и выступления / Пер. с нем.; комм. В.В. Бибихина. – М.: Республика, 1993. – С. 49. (– С. 41-63.)
7. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. Б. 36.

Gulnoza DJURAKULOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

O‘ZBEK EPOSLARIDA EPIK FORMULALAR: NAZARIY TAHLIL VA TADQIQOTLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq epik adabiyotidagi epik formulalar tahlil qilinadi. Epik formulalar folklor janrlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida urf-odatlar, hikoya qilish uslublari, obrazlar va tematik tuzilmalarning ifodalanuvchi vositalaridir. O‘zbek eposlari, ayniqsa, "Alpomish", “Go‘ro‘g‘li”, "Kuntug‘mish" kabi asarlar, milliy folklorimizning noyob namunalarini tashkil etadi va ularning ichida epik formulalar muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ushbu formulalarning tarixiy va madaniy kontekstdagi o‘rni, shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, ularning badiiy maqsadlari va folklorshunoslikda qanday ahamiyat kasb etishi haqida batafsil tahlil berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek eposi, epik formulalar, folklor, obrazlar, badiiy uslublar, hikoya qilish usullari.*

Аннотация: в данной статье анализируются эпические формулы в узбекской народной эпической литературе. Эпические формулы, как одна из основных составляющих фольклорных жанров, являются выразительными средствами традиций, стилей повествования, образов и тематических структур. Узбекские эпосы, особенно такие произведения, как «Алпомиш», «Гёроглы», «Кунтугмыш», являются уникальными образцами нашего национального фольклора, и важную роль в них играют эпические формулы. В статье дается подробный анализ роли, становления и развития этих формул в историко-культурном контексте, а также их художественных целей и значения в фольклористике.

Ключевые слова: *узбекский эпос, эпические формулы, фольклор, образы, художественные стили, способы повествования.*

Annotation: this article analyzes epic formulas in Uzbek folk epic literature. Epic formulas, as one of the main components of folklore genres, are expressive means of traditions, narrative styles, images and thematic structures. Uzbek epics, especially such works as "Alpomish", "Gerogly", "Kuntugmysh", are unique examples of our national folklore, and epic formulas play an important role in them. The article provides a detailed analysis of the role, formation and development of these formulas in the historical and cultural context, as well as their artistic goals and significance in folklore studies.

Keywords: *Uzbek epic, epic formulas, folklore, images, artistic styles, methods of narration.*

Kirish. Epik formulalar xalq adabiyoti asarlarining strukturalarini tashkil etuvchi muhim elementlardir. Ular nafaqat badiiy tasvirlarni, balki xalqning dunyoqarashini, ma'naviy qadriyatlarini va tarixiy xotirasini aks ettiradi. O'zbek xalq eposlari, uzoq asrlar davomida yaratilib, ajdodlarimizning dunyoqarashini, maqsadlarini va urf-odatlarini saqlab kelgan bebaho adabiy yodgorliklardir. Ushbu eposlarda keng qo'llaniladigan epik formulalar, voqealar va obrazlar orqali xalqning hayotiy tajribasini, ehtiroslarini va g'oyalarini aks ettiradi.

Epik formulalar, odatda, qadimdan shakllanib, o'ziga xos strukturalarga ega bo'lib, ular hikoyaning asosiy tematik va badiiy jihatlarini tashkil etadi. Eposdagi qahramonlar va ularning sarguzashtlari orqali milliy va madaniy identifikatsiya jarayoni amalga oshiriladi. Ushbu maqolada, epik formulalar tahlil qilinadi, shuningdek, Milman Parry, Albert Lord, Sergey Putilov, Karl Rayxl va Jabbor Eshonqulning nazariy qarashlari orqali formulalarning tarixiy, madaniy va adabiy kontekstdagi ahamiyati o'rganiladi.

Epik formulalar: nazariy asoslar.

Epik formulalar – bu adabiy va folklor asarlarda takrorlanuvchi, ko'pincha belgili yoki musiqaviy uslubda tasvirlanadigan, voqealarni yoki obrazlarni tashkil etuvchi elementlardir. Folklor tadqiqotlariga ko'ra, epik formulalar xalq eposlarida, odatda, ma'lum bir strukturani tashkil etib, uni yaratishda an'anaviy shakllar va stereotiplar qo'llaniladi.

Mifologik va folklorik matnlar tahlilida epik formulalar, asosan, voqealar va qahramonlarning psixologik va ma'naviy holatini aks ettirishda katta rol o'ynaydi. Bunday formulalar, o'z navbatida, o'zbek eposlarida xalqning qadriyatlarini, orzu-umidlarini va qadimiy dunyoqarashini ifodalaydi. Masalan, "Alpomish" eposida qahramonning jasorati, odob-axloqi va jangdagi g'alabalari orqali, o'zbek xalqining qahramonlik va sadoqatga bo'lgan ishonchi yuksak darajada ko'rsatilgan.

O'zbek eposlarida epik formulalarning tarixi va rivoji.

O'zbek eposlarida epik formulalar tarixiy sharoitlarga va madaniy rivojlanish bosqichlariga bog'liq ravishda shakllangan. Eposlar nafaqat badiiy an'analarni, balki tarixiy voqealarni, geografik va madaniy o'zgarishlarni ham aks ettiradi. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" kabi asarlar o'zbek eposlarining eng yorqin namunalari hisoblanadi va unda epik formulalarning turli shakllari mavjud. "Alpomish" eposidagi epik formulalar ko'pincha qahramonning jasorati, xalqiga bo'lgan sadoqati va adolat uchun kurashi bilan bog'liqdir. Alpomishning jangda yengilmasligi, uning o'ziga xos jihatlarini tashkil etuvchi epik formuladir.

O'zbek eposlarida formulalarning tasviriy va semantik tahlili.

O'zbek xalq eposlarida epik formulalar, odatda, konkret obrazlar va voqealar orqali ifodalanadi. Bu formulalar, an'anaviy hikoya qilish uslubidan foydalanib, har bir voqeani kengaytiradi va yanada dramatik tarzda namoyon qiladi. Misol uchun, Alpomishning yengilmasligi va har doim yenggan janglari janrga xos bo'lgan epik formuladir. Bu voqea avvaldan belgilangan va qahramonning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Semantik tahlil orqali, epik formulalarning nafaqat til, balki psixologik va madaniy qatlamlarini ham ko'rib chiqish mumkin. Har bir epik formulada qahramonning maqsadi, ularning ichki kurashi va muhit bilan aloqasi aniq aks ettirilgan. O'zbek eposlaridagi bu formulalar xalqning qadriyatlarini va dunyoqarashini tan olishda muhim ahamiyatga ega.

Epik formulalar va og'zaki an'ana: Milman Parry va Albert Lord nazariyasi.

Milman Parry va Albert Lordning nazariyasi epik formulalarning xalq adabiyotidagi o'rni va ularning shakllanishini tahlil qilishda muhim asosni tashkil etadi. Parry va Lordning fikricha, epik formulalar, avvalo, og'zaki adabiyotning maxsus xususiyati sifatida voqealarni eslab qolish va ularni yozmasdan ifodalash uchun ishlatilgan. Parry "Oral poetry" haqidagi ilmiy ishlarida, xalq hikoyachilari og'zaki ifoda orqali uzun va murakkab voqealarni qisqa, yodda saqlash mumkin bo'lgan ifodalarga ajratganini ta'kidlaydi. Bu jarayonni ta'minlovchi asosiy elementlar epik formulalar bo'lib, ular yordamida xalq eposi davomiyligi va shakllanishi ta'minlanadi.

Lordning "The Singer of Tales" asarida esa og'zaki poetika va epik formulalar aloqasi keng yoritilgan. Ularning nazariyasiga ko'ra, epik formulalar nafaqat badiiy vosita, balki xalq hikoyachilarining texnikasini va voqealarni shakllantirishdagi oddiy qoidalarini tashkil qiladi. O'zbek eposlarida, masalan, "Alpomish"da Alpomishning janglardagi yengilmasligi va uning doimo muvaffaqiyatga erishishi, Milman Parry va Lordning nazariyalariga mos ravishda epik formulalarning shakllanishini ko'rsatadi.

Epik formulalar va folklor: Sergey Putilov nazariyasi

Sergey Putilov – rus folkloristi va adabiyotshunosi epik formulalar va folklor janrlari o'rtasidagi aloqani o'rganadi. U folklor tahlilida formulalar va motivlar orasidagi farqlarni aniqlab, ularning voqealar va tasvirlarning ko'p marotaba qaytarilishini ta'kidlaydi. Putilov formulalarni, xalq adabiyotida doimiy ravishda mavjud bo'lgan, lekin o'zgarmaydigan elementlar sifatida ko'rib chiqadi. Ularning xalqning urf-odatlari, axloqiy qadriyatlari va tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi elementi sifatida ishlatilishini belgilaydi. Putilovning nazariyasi, o'zbek eposlaridagi epik formulalar tahlilida o'zining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Epik formulalar va madaniyat: Karl Rayxl nazariyasi.

Karl Rayxl – folklorist va madaniyatshunos, epik formulalarning jamiyatdagi ahamiyatini va ularning madaniy identifikatsiyasini qanday aks ettirishini

o‘rganadi. Rayxlning fikricha, epik formulalar jamiyatda ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qadriyatlarning ifodasi bo‘lib, ular xalqning madaniy shaxsiyatini belgilovchi markaziy vositalardir. Ularning yordamida xalq o‘zining tarixiy xotirasini saqlaydi va o‘ziga xos madaniyatini yangi avlodlarga yetkazadi.

O‘zbek xalq eposlarida, masalan, "Kuntug‘mish"da epik formulalar xalqning adolat, jasorat va o‘ziga bo‘lgan sadoqatini tasvirlash orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Rayxlning nazariyasi, o‘zbek eposlaridagi epik formulalarning madaniy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

O‘zbek eposlaridagi epik formulalar xalqning milliy g‘ururini, adolatga bo‘lgan ishonchini va erkinlikka bo‘lgan orzusini aks ettiradi. Bu formulalar, avloddan avlodga o‘tish orqali, xalqning madaniy merosini saqlashga yordam beradi.

Xulosa. O‘zbek eposlaridagi epik formulalar nafaqat adabiy san’atning bir shakli, balki xalqning tarixiy, madaniy va ma’naviy xotirasining izlaridir. Ular xalqning dunyoqarashini aks ettirgan holda, o‘zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari va qadimiy ishonchlarini ifodalaydi. Epik formulalar orqali xalqning g‘oyalarini va orzu-umidlarini kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, ularning tahlili, o‘zbek eposlarining badiiy, madaniy va tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

O‘zbek eposlaridagi epik formulalar, o‘ziga xos badiiy vosita bo‘lib, xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Milman Parry va Albert Lordning og‘zaki poetika nazariyasi, Sergey Putilov va Karl Rayxlning folklor tahlillari hamda Jabbor Eshonqulning o‘zbek folkloriga oid fikrlari orqali epik formulalarning xalq adabiyotidagi ahamiyatini chuqurroq tushunish mumkin. Epik formulalar nafaqat badiiy elementlar, balki xalqning milliy kimligini saqlash va avlodlarga yetkazishning asosiy vositalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Parry M. (1971). “The Making of Homeric Verse: The Collected Papers of Milman Parry”. Oxford: Clarendon Press.
2. Lord A. (1960). “The Singer of Tales”. Harvard University Press.
3. Putilov S. (2003). “Russian Folklore: Genres and Themes”. Moscow: Nauka.
4. Rayxl K. (1998). “Folklor va madaniyat: Tahliliy nazariyalar”. Berlin: Akademiya nashriyoti.
5. Eshonqul J. (2006).“O‘zbek xalq eposining badiiy xususiyatlari”. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Abdullayev M. (2012). “O‘zbek eposining badiiy va ijtimoiy xususiyatlari: Dissertatsiya”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
7. Tursunov B. (2015). “Folklor va epos: Nazariy tahlil va amaliyot”. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti.

Sanobar DJUMANOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi
marifat.88@mail.ru

SUN’IY INTELLEKT YARATGAN MATNLAR TILI VA USLUBI

Annotatsiya: maqolada jurnalistika sohasiga sun’iy intellekt kirib kelishi, neyrotarmoqlardan jurnalistik matnlar tayyorlash jarayoni, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan matnlar tili va uslubining o‘ziga xosliklari, ulardagi mantiqiy buzilishlar, imlo va punktuatsion xatoliklar haqida so‘z yuritiladi. Matnni insoniylashtirish tushunchasi tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, neyrotarmoqlar, matnni insoniylashtirish, til, uslub, tahrir.*

Аннотация: в статье рассматривается проникновение искусственного интеллекта в сферу журналистики, процесс создания журналистских текстов с помощью нейронных сетей, особенности языка и стиля текстов, сгенерированных искусственным интеллектом, логические нарушения в них, а также орфографические и пунктуационные ошибки. Анализируется концепция гуманизации текста.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, нейросети, гуманизация текста, язык, стиль, редактирование.*

Annotation: the article discusses the introduction of artificial intelligence into the field of journalism, the process of generating journalistic texts using neural networks, the distinctive features of language and style in texts created with artificial intelligence, their logical inconsistencies, and spelling and punctuation errors. The concept of humanizing text is also analyzed.

Keywords: artificial intelligence, neural networks, text humanization, language, style, editing.

Kirish. Sun'iy intellekt jurnalistikadagi yangi raqamli chegara sifatida sohaning samaradorligini oshirib, axborotni olish va yetkazishni tezlashtirmoqda. Ushbu texnologiya jurnalistikadagi axborot yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish, yangiliklarni tezkorlik bilan ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Jurnalistlar maqolalar yaratishda sun'iy intellektning matnni generatsiya qiluvchi funksiyasidan foydalanmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar tili va uslubidagi o'ziga xosliklar, undagi mantiqiylik buzilishlar, imloviy va punktuatsion xatoliklarni o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism. Zamonaviy dunyoda til inson va sun'iy intellekt munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Oldin lison, muloqot faqat insonga xos hodisa sifatida qaralardi. Sun'iy intellekt taraqqiyoti bu holatni o'zgartirdi. Endi "Sun'iy intellekt texnologiyasida insonning kognitiv jarayonlarini ramziy tasvirlash o'rniga sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanish o'z-o'zini o'rganuvchi modellarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada, sun'iy intellekt tilni insonlar tomonidan belgilangan qo'llanish usullariga bog'liq bo'lmagan tarzda ishlatmoqda"[1; 111].

Jurnalistikaga sun'iy intellektning Sun'iy intellekt tomonidan yozilgan matnlarda ba'zan mantiqiy buzilishlar va noaniqliklar uchrab turadi. Ushbu buzilishlarning bir necha sababi bor va ularning har biri sun'iy intellekt texnologiyasi xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Birinchidan, sun'iy intellekt tilni tushunishda yetarli darajada kontekstga e'tibor bermasligi mumkin. Bu uni inson mantig'idan chetlashishiga olib keladi. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni sintez qilish va qayta ishlashda algoritmik usullarga tayanadi, bu esa ba'zi mavhum yoki murakkab kontekstlar uchun mos kelmaydi.

Ikkinchidan, tilning turlicha bo'lishi va bir xil so'zning turli kontekstlarda alohida ma'nolarga ega bo'lishi sun'iy intellekt yaratgan matnlarda mantiqiy muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, bir nechta o'zgaruvchan va mantiqan murakkab tuzilmali matnlarda yuzaga keladi.

Uchinchidan, sun'iy intellekt ayrim tilda kam ma'lumot yoki noaniq ma'lumotlarga asoslangan holda matn yaratgani uchun, mantiqiy ketma-ketlik yoki bog'lanishlarda kamchiliklar uchrashi mumkin.

Sun'iy intellekt tomonidan yozilgan matnlarda imlo xatolariga sabab bo'luvchi omillar ham turlicha. Bundagi asosiy sabablardan biri, sun'iy intellekt tizimlari o'qitish jarayonida noto'g'ri yoki kamchiliklarga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plami bilan ishlashi va natijada, imlo xatolari paydo bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt foydalanayotgan bazadagi to'g'ri va yuqori sifatli ma'lumotlar sun'iy intellektga yanada aniqroq natijalar hosil qilishda yordam beradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt bir nechta tilni qo'llab-quvvatlaganda, har bir tilning o'ziga xos imlo qoidalari va grammatik qurilmalariga to'liq rioya qilmasligi mumkin. Bu esa xatolarning paydo bo'lishiga olib keladi, ayniqsa, kamroq ishlatiladigan til modellarida bu kabi xatoliklar ko'proq ko'zga tashlanadi. Ba'zida esa sun'iy intellekt modellarida imlo va grammatikani to'g'ri o'rganish uchun yetarli ma'lumot va vaqt yetishmasligi mumkin. Bu cheklovlar imlo va til uslubidagi xatolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi so'zlar va jumlalar turli kontekstda turlicha mazmunga ega bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt ushbu turli xilliklarni har doim to'g'ri ajrata olmasligi natijasida imlo xatolari yuzaga kelishi mumkin.

Dunyodagi yirik gazetalar jurnalistik faoliyatda yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanmoqda. Bundagi asosiy muammo mualliflik huquqi masalasi bo'lsa, ikkinchi masala sun'iy intellekt tayyorlagan matnda yolg'on, haqiqatga mos bo'lmagan axborotlarning ko'pligidir. Masalan, 2023-yilda ba'zi nashriyot tashkilotlari maqolalar yozish uchun sun'iy intellektdan foydalanib, yo'ldan adashgani va tanqid, qoralash hamda obro'sini yo'qotish bilan to'qnash kelganini ko'rsatadigan ko'plab hodisalar sodir bo'ldi [2]. Buning eng yorqin misoli Amerikaning nufuzli Sports Illustrated (SI) sport jurnali, Gannett gazetalar tarmog'i va CNET texnologik veb-sayti bilan bog'liq voqealardir. Nashrlarda yolg'on xabarlarning tarqalishi natijasida obro'si tushdi, shartnomalar bekor qilindi va auditoriyaning ishonchi kamaydi. Demak, sun'iy intellekt jurnalistika rivojlanishi uchun vosita sifatida qaralsa-da, gazetalar aslida kontentni o'zlari ishlab chiqarishlari kerak yoki sun'iy intellektdan foydalanganini ko'rsatishi kerak.

Ba'zi tahririyatlar, shuningdek, kontent ishlab chiqarish vazifalarida ChatGPT kabi sun'iy intellekt (genAI) kreativ texnologiyalarini sinab ko'rdilar va ishlatdilar, ammo faqat sharhlar, sarlavhalar yozish yoki vizual hikoyalar yaratish bilan cheklanishdi. Bundan tashqari, imlo tekshiruvi uchun Grammarly va boshqa sun'iy intellekt vositalari yozma kontentni tahrirlash, tuzatish va sifatini yaxshilash uchun ishlatilmoqda. Hatto sun'iy intellekt xato qilgan, faktlarni noto'g'ri keltirgan, sun'iy intellekt tarafkashlikka yo'l qo'ygan holatlar monitoring ham qilib borilmoqda [3].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning tili va uslubi tez sur'atlar bilan yaxshilanib bormoqda. Generative Pre-trained Transformer (GPT) kabi matnni inson tiliga o'xshash tarzda yaratishga harakat qilmoqda.

Sun'iy intellekt generatsiya qilgan matnlarda

mantiqiy xatolar, kontekstni tushunmaslik, ijodkorlik yo‘qligi kabi xatoliklarni bartaraf etish, shuningdek, yaratilgan matnlarning grammatik jihatdan to‘g‘ri, leksik boy, uslubi (rasmiy, norasmiy va h.k. aniq bo‘lishi barobarida inson yozganiga o‘xshash bo‘lishi ustida ishlanmoqda. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni insonlashtirish, ya’ni ularni inson tomonidan yozilgan matnlardan farq qilmasligi uchun ishlov berish jarayonidir. Bu jarayon turli xil texnikalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Insonlashtirilgan sun’iy intellekt matnlari inson tomonidan yozilgan matnlardan farq qilmaydi, shuning uchun ularga ishonch kuchayadi. Uni o‘quvchilar yaxshiroq qabul qiladi.

Ko‘pchilik sun’iy intellekt modellari jamiyatni o‘zgartiradi hamda ta’lim tizimi va axborot yaratishda sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi, deb hisoblaydi. Olimlar sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentning sifatini tizimli ravishda baholash uchun inson tomonidan yozilgan va ChatGPT tomonidan yaratilgan argumentativ talabalar insholarini taqqoslaydi [4]. Xulosaga ko‘ra, insonlar va generativ sun’iy intellekt modellari o‘rtasidagi yozish uslublari sezilarli darajada farq qiladi: masalan, GPT modellari ko‘proq nominalizatsiyalardan foydalanadi va gaplarni murakkab (ya’ni ilmiy) tuzadi, talabalar esa shaxsiy munosabatini ifodalashga moyil bo‘lib, modal va epistemik konstruksiyalardan ko‘proq foydalanadilar. Demak, hozirgi holatda sun’iy intellektning aqli, fikrlashi inson darajasiga yetmadi. Olimlar taxminiga ko‘ra, 2030-yilgacha sun’iy intellekt “Tyuring testi”dan o‘tadi. Ya’ni uning javoblari, o‘zini tutishi, his-hayajoni insonnikidan mutlaqo farqlab bo‘lmaydigan darajaga yetadi [5].

M.G. Shilina, I.I.Volkova, A.Y.Bombin va A.A. Smirnova sun’iy intellekt hodisasini sun’iy kommunikatsiya sifatida qayta ko‘rib chiqib, mualliflar "sun’iy jurnalistika" atamasini taklif qiladilar [6]. Ularning tadqiqotida ilk bor sun’iy intellektga asoslangan jurnalistikaning turli konseptual nyuanslarini yoritishga, uning ijtimoiy dinamikasiga ta’sir ko‘rsatib, ushbu sohaning asosiy texnologik va kommunikativ atributlarini qanday o‘zgartirishini tadqiq etishga harakat qilinadi.

Bu kabi tadqiqotlar ham sun’iy jurnalistikada matnlar sifati va ishonchliligini oshirish muammosi mavjudligini ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tajribali jurnalistlar yoki muharrirlar ko‘rib chiqqani maqsadga muvofiq. Inson va avtomatlashtirilgan tizimlarning hamkorligi matn sifati va ishonchliligini oshiradi. Muharrirlar matnlar mazmunini va grammatikasini diqqat bilan tekshiradilar.

Xulosa. Tahlillarda ko‘ringanidek, sun’iy intellekt, xususan neyrotarmoqlar, jurnalistik matnlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan zamonaviy texnologiya sifatida faol ishlatilmoqda. Ushbu texnologiyalar matn yaratish jarayonida ishtirok etar ekan, ularning tili va uslubidagi o‘ziga xos xususiyatlar alohida e’tiborni talab qiladi. Imlo va punktuatsion xatolarni kamaytirish uchun ham inson nazorati talab qilinishi mumkin. Matnni insoniylashtirish sun’iy intellekt orqali yaratilgan matnlarni yanada intuitiv, o‘qilishi oson va inson ko‘nikmalariga moslashtirishni nazarda tutadi. Insoniylashtirish orqali tilning tabiiyligiga, ko‘proq hissiyot va muloqotni aks ettirishiga erishiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jurnalistikada qo‘llanilishi davomida inson aralashuvi zarurdir. Bu aralashuv matnlarning yuqori sifatini va ishonchliligini ta’minlash, ularni mantiqan izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri qilib ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bylieva, D. Language of AI // Technology and Language. 2022. № 3(1). P. 111-126.
2. https://www.vietnam.vn/ru/bao-chi-can-tranh-nhung-vet-xe-do-trong-ky-nguyen-ai/
3. https://tech.co/news/list-ai-failures-mistakes-errors
4. Herbold, S., Hautli-Janisz, A., Heuer, U., Kikteva, Z., & Trautsch, A. (2023). A large-scale comparison of human-written versus ChatGPT-generated essays. Scientific Reports, 13(1).
5. https://xs.uz/uzkr/post/sunij-intellekt-imkoniyatmi-yo-tahdid
6. Shilina, M. G., Volkova, I. I., Bombin, A. Y., & Smirnova, A. A. (2023). Artificial journalism: the reverse of human-machine communication paradigm. Mapping the field of AI critical media studies. RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism, 28(4). https://doi.org/10.22363/2312-9220-2023-28-4-757-768

Ozodabegim MAVLONOVA,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy o‘qituvchisi

ADABIYOT MUALLIMLARIGA OTLIQ YOR HAQIDA YOXUD JONNI OTI AYOG‘IGA NISOR ETAY...

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 371- g‘azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: *takovar, hino bog‘la, chobuk, samand, abrash, raxsh.*

Annotation: in this article, the 371st ghazal of Alisher Navoi's collection "Khazayin ul-Maoni" is analyzed. In addition to the analyzes of our other narcissistic teachers, new ideas were added

Key words: *takovar, hino bagla, chobuk, samand, abrash, rakhsh*

Аннотация: в данной статье анализируется 371-я газель сборника Алишера Навои «Хазаин ул-Маони». В дополнение к анализам других наших нарциссических учителей были добавлены новые идеи.

Ключевые слова: *таковар, хино багла, чобук, саманд, абраш, рахш*

Bugungi maqolamizda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 371- g‘azal 3- baytining 1- misrasi borasida suhbatlashamiz. Uchinchi baytning birinchi misrasi quyidagicha: **Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la.**

Hazrat qaysi mavzuda fikr bildirmasinlar uning ichiga chuqur kirib borganliklarini, bu temani atroflicha bilishlarining guvohi bo‘lamiz. Bu misrada gap yor oti tulpor haqda bormoqda. Shoir g‘azallarini kuzatar ekanmiz otlarning o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan ko‘plab nomlarini uchratamiz. Otlar fe’li va rangiga qarab: **tavsan** – sho‘x o‘ynoqi asov ot; **takovar**- chopqir yurumol ot; **ashhab** – kulrang, ko‘k bo‘z ot; **samand** – ko‘k xolli ot; **abrash** – oq qizil yo oq qora targ‘il ot; **ablaq** – qashqa ola bula ot; **raxsh** – olachipor yugurik qizil ot kabi nomlar bilan atalganligining guvohi bo‘lamiz. Shoir g‘azallarida ot mingan yorga nisbatan **chobuk** – *chaqqon, sho‘x, chavandoz* yoki **chobuksuvor –** *otni ustalik bilan boshqara oluvchi suvoriy* so‘zlari sinonim – ma’nodosh sifatida ko‘p qo‘llanganligini ko‘ramiz. G‘azallarda samand arg`umoqli yor goh ovchi, goh shaddod chavgondoz, goh turktoz mohir suvoriy timsollarida gavdalantirilgan. Navoiy asarlaridagi otliq yor – chobuksuvor timsoliga munosabat bildirilayotganda o‘sha g‘azal misralarida tasvirlanayotgan holatlargagina emas, balki shoir ijodiga umumiy planda qarab boshqa ko‘plab otli tasvirda chizilgan yor obrazlarini ham taxayyulda bir **tipiklashtirib so‘ng mulohazalar bildirilsa, bizningcha, sharh to‘g‘ri yechimga olib boriladi**. Aytaylik, shoir shu o‘rinda ovchi yorni nazarda tutayotgan bo‘lsa, har g‘azalda ***uning ovchiligiga urg‘u berib*** “ovchi yorim” deb yozishi mazmun, mantiq va vazn talabiga muvofiq shart emas... Ovchiligi borasida boshqa biror ishorat: yoy, novak, o‘q, nuk, sayd, paykon, it, hina (ramziy qon) so‘zi va boshqalar bo‘lishi ham mumkin, bunday holatni sinchkov muxlis umumiy tarzda anglab oladi. G‘azaldagi umumiy silsilaviy voqebandlik, ishqiy tafsilotlar bayoni sabab muxlis uni **ovga, chavgon maydoniga yoki ko‘ngilxushlik azmi sayriga** chiqqanligini xayolan tasavvur etish va tiklashga urinadi. Ikkinchi devonning 83-g‘azali “ot” radifli asar. Ushbu g‘azalning matla’si quyidagicha:

Chobukim qatl uchun surdi yana maydong‘a **ot,**
Odame qolmas tirik solg‘an zamon javlong‘a **ot.**

Baytlar bo‘ylab borar ekanmiz bu otlig‘ yorni “**qatl**”, “**odame qolmas tirik**” , “**qolg‘on ekan bir kishi, to oning ham jonin olg‘ay**” so‘zlarini o‘qib: “**Ne balo qotig‘ ko‘nguldururkim qatl el qonig‘a**” degan o‘y keladi-da, bu bir xunxo‘r yor ekan-ku, deysiz. Bu o‘rinda badiiylashtirish: **lof, mubolag‘a** san’atlarini his qilmasangiz ahvol chatoq. To‘g‘ri, yorning sochi, yuzi, beli, ter (xay)i, ko‘zi shoir g‘azallarida xunxo‘r, jallodbin chiziladi. Bular barchasi badiiy to‘qima, bo‘rttirib tasvirlash mahorati. Bu yerda yor o‘zining **chobuksuvorligi, sho‘xligi, shaddodligi, mohir chavandozligi** bilan elni lol qoldirib “**o‘ldirmoqda”.** Qizning bunday mahorati oshiq qalbida qizg‘anish, yorni o‘zidan o‘zgaga munosib ko‘rmaslik tuyg‘usini kuchaytirmoqda. Bu qizg‘anish – **rashk.** “ Har kishini **qatlikim** aylar **o‘larmen rashkidin”** misrasini o‘qiganingizdan keyingina bular barchasi badiiy mubolag‘a ekanligini anglaysiz. Bu rashk oshiqni: **“Kimni “o‘lturmoq”qa otsang o‘q, mening jonim chiqar”** degan yakunga olib keladi. Bu o‘qlar barchasi: ***noz, nazar, g‘amza, ishva, ishqiy chobuklik talanti va mahorati novaklari***... Oshiq yigit ularning barchasini o‘z qalbiga sanchilmog‘ini juda-juda istaydi. Oshiq qizning bu chavandozlik mahorati uchun ***lol qolib, besh ketib,*** shoir iborasi bilan aytilganida: “o‘larmen rashkidin” deb har on qurbon bo‘lishga shayligini ochiqlamoqda. Hazrat Navoiy ikkinchi devonning 97-g‘azalida:

Surdi ko‘nglimni buzib **xoki tanim uzra samand,**

Yelga berdi **tufrog‘in,** bu uyni vayron aylagach, – deb yozadilar. Qiz mahorati oshiq qalbini shunchalar hayratga solmoqdaki, yor tulpori ostida qolib bo‘lsa-da toptalib ham tanni, ham ko‘ngilni tufroqqa aylanishiga

ham mone' emas. Shoir g'azallarida otliq yor tasvirlari:

Chiqib sarkash, chopib **abrash,** kirar maydong'a ul mahvash,

Ajab ermas agar tushsa bori olamg'a rustohez.

O'yla maydon ichra kirmish tund ul **chobuksuvor,**

Kim degaysen charx uza sekretkusidur **ashhabin.**

Ul minmayin hanuz **TAKOVAR**g'a, voykim,

Mendin qaror-u sabr-u ko'ngul qildilar vido.

Otlanib boshimni **raxsh**ing ayog'i ostig'a,

Tig' birla solg'udek masti sarandoz aylading.

Maydong'a chopdi **tavsanin** ul nav'ikim degil,

Kim charx shahsuvori bila qilgusi nizo...

Na'lidin choqilmas o't balkim shararlar ayrilar,

Har taraf maydon arokim o't kibi sursang **samand.**

Xullaski, shoir ijodidan bunday chizgilarga ko'plab misollar topish mumkin. Ayrim g'azallarda bu yor **ishqdan sarxush** holda tasvirlanadi:

Chiqib **sarxush** , chopib **abrash** , qilib javlon, olib maydon,

Vujud iqlimidin mahv aylasa nom-u nishonimni.

Parivash **raxsh** uza **sarxush** pari javlon qilur netsun,

Junun jonig'a qilmay bodapalo ahli taqvi fash.

Chu yana **sarxush** chiqib ko'nglakcha **raxsh**iga berib javlon,

Bo'lub shaydo ko'ngul behol aqli maslahatbin ham.

Demak, g'azaldagi yor – lirik qahramon kimligi (qiz-yor, ovchi ma'shuqami yo yigit) haqida muxlis qat'iy qarorga kelishi uchun shoir ijodiy laboratoriyasidagi **otliq yorga bag'ishlangan g'azal yoki baytlari turkumidan bir oz kengroq** xabardor bo'lmog'i lozim kechadi.

Endi 3-baytning 1-misrasiga qaytsak, oshiq yordan otiga bag'ir qonidan hina bog'lashi so'ralmoqda. Qadimda otlarning salobatini oshirish, ov oldidan irim bilan qon chiqarish o'rniga **qizil hina surtish odati** ham bo'lgan. "Ey ovchi yorim, takovoringg'a" deyilsa, vazn o'lchoviga sig'maydi. She'riyat sintaksisi o'ziga xos uslub. Bu yerda **ishora hina** yoki yoy, novak, o'q, kamon, sayd, paykon, **otlanib** so'zi va boshqa ishoratlar bo'lishi ham mumkin. Shoir ijodida ***ko'ngil oviga*** otlangan yor chizgilari ham bisyor:

Magar (sayyod) **tavsan minib,** sanchib etak, tortib qilich har dam,

Ulus (oshiq el) **qatlig'a** javlon qilmish ul **chobuksuvor** anda.

Sekritib (otin) **chiqdi yana** maydon sari ul **turki mast,**

To yana qaysi (oshiq) **ko'ngul mulkiga qilg'ay turktoz.**

CHIQTI OV AZMIGA javlon aylab ul **chobuksuvor,**

Jon nisor ul sayd uchunkim jon ong'a qilg'ay nisor.

Otliq (qiz) tasvirlaridagi bu umumlashma yor juda ham chavgon o'ynashga mohir va o'ch ekanligi ko'rinadi:

Senga ish javlon qilib **maydonda chavgon o'ynamoq,**

Manga ollingda **boshimni go'y** etib jon o'ynamoq.

Vah, nedur **maydonda** hayron azmi javlon aylamak,

Bizga yetgach o'zga yon ohangi (ila) maydon aylamak.

Go'ydek boshim necha **raxshing ayog'i** zarbidin ,

Po'ya qilg'ay goh-gohi yetkur anga **chovgon**ni ham.

Bosh ovuchlab egma qomat birla qolmon **raxsh**idin,

To tilar **chobuksuvorim** ko'ngli **chavgon o'ynamoq**...

Zulfidin **chavgon** chekib el **boshini go'y etgali,**

Ko'z yoshimdin **go'ydek** har sori g'ilton aylamak.

Yor g'amzasidan yuz oshiq o'lib, chuqur (daqiq) ma'noli va shirin so'zlaridan esa yuz xaridor jazmanni tiriltirayotgan bu chobuk ba'zan mast (usruk) holatda ham aks ettirilganining guvohi bo'lamiz:

Ne nav bordi erkin uyga kecha ul **chobuk,**

Ki tun qorong'u edi, **raxshi** tund, **o'zi usruk.**

Nechukki yeldin o'lur har taraf *niholg`a* mayl,

Samand uza **egilar erdi,** ul *qaddi* ***nozuk.***

Oshiq o'ldurmakka chiqmish **mast,** vah ishqim so'zin,

Ey raqib, etsang ne ul beboki nadonimg'a arz...

Tun qorongu **mast otlandi**, ko'ngulning shu'lasin ,

Aylabon mash'al borurmen uyiga yetkurgali .

Mast otlandi *ul oy* qilmay xabar ahbobqa,

G'arqa maylik shihsa yanglig'dur ko'ngul xunobqa.

Ham erurkim ofarinishdin chiqarg'aysen domor,

Bazmdin **o'sruk** chiqib maydong'a chopsang **otlanib**.

*Netib o'lmay*kim yana *ul sho'x* usruk **otlanib**,

Ter suvi markab yelidin soldi to'fon har taraf.

Netib o'z iligida qolg'ay inoni, hush-u xirad.

Ki **boda kuchluku raxsh**i inoni ham kuchluk.

Ul quyosh **mast o'ldi** , go'yokim qilib egri xirom ,

Yuz jafo jomimg'a aylar charxi kajraftordek.

Yuqorida dalillash uchun keltirilayotgan iqtiboslar misralaridagi: *"ul sho'x", "pari", "parivash", "niholg'a", "ul quyosh", "sarxush pari", "ul oy", "zulfidin", "qaddi nozuk"* singari tasvirlarga tayanib bu otliq yor er kishi emas degan yakunga olib keladi. Bunday sifatlashlar yigitga nisbatan qo'llanilmaydi...

Oshiqqa bu yorning ikki qora ko'zi ikki xil munosabatda bo'luvchi: fatton hiylagar-u sitamkor yaxnigoh; ishvali sehrgar-u xunxo'r qassob; lo'livash g'amzador-u qotilvash jallod; maftunkor oxuxuy-u oshiqkush qattolko'z Yor doim oshiq (yurak) bag'ri qoniga o'ch obraz sifatida gavdalantiriladi. Nafaqat yor, yor iti, yor ko'yi itlari ham oshiq yurak-bag'ri xuniga chanqoq, undan tu'ma – luqma umidvor tarzda aks ettiriladi. Yorning cheksiz noz-istig'nosi shevasini chuqur anglab yetgan niyozmand oshiq o'zga oshiq (raqib) eldan rashki sabab o'z yurak-bag'ri (jigar) qonini har dam ma'shuqa vasli yo'lida hina uchun sadqa qilishga shay. Eslang: ***Chiqti ov azmiga*** *javlon aylab ul* ***chobuksuvor,***

***Jon nisor ul sayd uchun**kim jon ong‘a qilg‘ay nisor.*

Buning evaziga oshiq **yordan** faqat va **faqat bir o‘tinchi bor:** u ham bo‘lsa, o‘ziga munosabatda mardumdorlik – **muloyimlik va mardumlig‘** (odamiylik) ko‘rsatishini juda-juda istaydi. O‘ziga muomalada **DILOZORLIK** qilmaslikni o‘tinadi. Shu bois hech ikkilanmay o‘z bag‘ir xunini yor otiga ham, itiga ham irimli xina uchun berishga har vaqt hozir. Oshiq ilinji nima qilib bo‘lsa ham yorga raqib (ag‘yor) dan avval yetishmoq uning rishtai maqsadi. Ustoz avvalgi maqolasida ta’kidlaganlaridek, shoir idealidagi manzur bir **malak siymo pari. Shu bois u odam naslidan emasligi vajdan insoniylik – mardumlig‘ shevasidan olis**. Oshiq bag‘ir qoniga tashna **bag‘ritosh mardumkush bu Pari** o‘z sevguvchilariga dard, hajr, g‘am, g‘ussa, azob berishga juda o‘ch. Garchi hozir HUSN BOG‘I – **go‘zallik sultonbegimi** ekan, taqdir oshig‘i uning qo‘lida ekan, bu **vaziyatdan bisyor foydalanib qolishga** urinayotgan bu g‘amzador ma’shuqa o‘z noz-u ishvasini haddan ziyod ortgani sayin yanada orttirib, husniga bino qo‘yib oshiqqa ko‘proq jabr-u jafo yetkazib, uni azoblash yo‘li bilan bundan huzur olishga intilishini kuzatamiz. Bechora bu ahdiga vafodor va sadoqatli niyozmand har qancha fig‘on-u nola, ranj-u alam, hijron-u uqubat, jabr-u alam tortsa-da, og‘zining zikri: “**Jonni oti oyog‘iga nisor etay”...** Demak, oshiq o‘z jonini yor takovari oyog‘i ostiga dur donalaridek (yo muzli do‘l soqqalaridek) sochib yuborishga har dam hozir-u nozir. Bu oshiqning tilidagi yagona salovati: **“Jon nisor ul sayd uchunkim, jon ang‘a qilg‘ay nisor”**. Voqean, oshiqqa mehr-u vafodorlik, ma’shuqaga esa jabr-u jafodorlik xos ekan. Alhosil, bu misrada shorihlar oldida yechilishi lozim bo‘lgan savol: ***nima uchun oshiq bag‘ir qonini yor oti*** (itiga ham)***ga hina uchun berishi kerak?***

Yoqar o‘lsang iting iligiga hino qonim ila,
Qoyki avval supuray gardini mujgonim ila.

Demak: “Takovarg‘a bag‘ir qonidan hino bog‘la”moqning hikmati: “YOQAR olsang oting (iting) iligiga hino qonim ila” ekan. Oshiqning qalbdagi bosh maqsad rishtasi raqib ulusdan avval ma’shuqa dilini topish (olish) va shu sheva ila yor ko‘nglini ishg‘ol etmoq, ***yor yuragiga kirib bormoq*** ekanligi ayonlashmoqda. Yorning otini tutsalar, yo sekinlatsalar shu imkon sabab badan ichra ruh (jon)idan mosuvo bo‘lish ahvolidagi bir g‘amzada oshiq ekan. Bu borada hazratning o‘zlari shunday deydilar:

Otin tutsalar nogoh **ketar** o‘yla **hushumkim,**
Badan ichra ruhimdin degaysan **asar yo‘q tur...**
Chobukim raxsh uza hijron yo‘lida poya qilib,
Men **oning kenicha** (itdek) **goh yugurib, goh yiqilib...**
Ey Navoiy **chobukingning istasang pobo‘sini,**
Bo‘ynig‘a ip taqmoq ummedi ila **itdek erish.**
Toki yetkursam **rikobig‘a boshimni** koshki,
Qilsa shaklimni **qazo it shakli birla** oshkor.
Men kim-u **o‘pmak yuzung ko‘zgusini,**
Bas muyassar bo‘lsa **na’li markabing.**

Oshiqqa kun-u tun halovat, xotirjamlik bermayotgan yagona ORZU ilinji garchi “**it shakli“ga kirib bo‘lsa-da,** Yor oti ayog‘iga yo rikobiga yoki na’li markabig‘a **yuz surtmoq** ekan...

It kibi necha **samanding** so‘ngicha poya uray,
Nogoh o‘tsam boqibon sen yana o‘tkuncha turay...

Xullas, yor takovari ayoqlariga qon ila “hino” bo‘lmoq otliq manzur ayoqlaridan poybus – muchak (o‘pich) olmoq **orzusi** ekan. Oshiq uchun **qiz oyoqlaridan bo‘sa olmoq eng qo‘l(**lab)**yetmas biiiiir orzu-ku,** avval itlari poyiga yetishib olsa edi:

Navoiyyo, qo‘yako‘r itlari oyog‘iga bosh,
(Yor)Ayog‘ig‘a chu malak boshin qo‘ya olmas...

O‘n beshdan ortiq shu g‘azalni tahlil qilishgan shorihlarni ko‘p: “...qiynagan, o‘ylantirgan, adashtirgan va hanuzgacha o‘z ilmiy, ishonarli yechimini namoyon etmagan” bosh muammo: “G‘azaldagi asosiy lirik qahramon – “qorako‘z” kim? “Qaro ko‘zum” g‘azali tadqiqi tarixida ushbu muammo **boshdan-ayoq bosh masala** sifatida ko‘ndalang turibdi”, deya afsus-la kuyinib yozadi nufuzli shorih. Go‘yo mazmunan g‘azal aniq yoshdagi shaxsga emas, umumlashgan yor timsoli tasviri va oshiq yor iztiroblari asosiga qurilgandek ko‘rinadi shorihlarga. “Haqiqatan, bu asar mavhum(roq) “beadab-u tund xuy”li , mardumlig‘ shevasidan (go‘yoki) yiroq bir abstrakt yorga an’anaviy murojaatdan boshlangan. G‘azalning mazmun-mundarijasidan anglashiladigan umumiy hissiy ta’sir moyasi – Dard. Bu dard aniq obyekt – tarixiy real shaxsga qaratilmagan. Uning bor jozibasi, sirliligi afsun kuchi ham mana shu adresat umumiyligi, ma’shuqa tasvirining to‘liq ochiqlanmaganligidadir, ehtimol”, – deb yozadi ustoz Oqilxon Mavlon. Agar professional olim: “Bizningcha, asarda bor obrazdan chiqib kelishimiz kerak, yo‘q narsalarni to‘qib chiqarish kerak emas” deb qat’iy hukm bilan chegaralab qo‘ymaganida edi, kulliyotdagi o‘zga g‘azal va baytlarida tasvirlangan otliq yor tavsiflari, harakat-holat chizgi-shtrixlarni qiyoslash, analiz va sintez qilish yo‘li bilan (yuqorida biroz bu ishlar aytib o‘tildi) ayrim yakunga kelish ham mumkin edi. Hozircha esa bu boradagi munosabatlarimizni **qisman** ochiqladik. Dastlabki yakun: **bu obraz er kishi (yigit) emas...** Bularni Ustoz asarning o‘zidan iqtiboslar keltirib “***Qorako‘z – sochi boshdin-ayoq chin-u shikanli ma’shuqa*** (qiz)” maqolasida isbotlashga uringanlar. Endi bu yor ovchi qizmi yoki shunchaki odatiy otliq manzura chizgilarimi degan savol tug‘ilsa, unga bizning muxlisona javobimiz, bu obraz *ko‘ngil “ovlash” (*oshiqlarni hissiy azoblash uchun) **oshiq jazmanlarni kuydirishga azmi qaror qilgan,** o‘z chobuklik mahorati bilan oshiq elni lol qoldirib ulusni bir “o‘ldirmak”ni niyatlagan sho‘x, shaddod, ishvagar mohir **“ovchi” qiz** deymiz. Hazrat bunday kuydirgich,

jozibali ko‘ngil ovchisi bo‘lgan “sho‘xi sitamgar” timsolini bir g‘azalida:

Gar mening sho‘xi sitamgarim **parizod o‘lmasa**,

Mumkin ermas, **odamiy bo‘lmoqlig‘ ul miqdor sho‘x**, – deya tasvirlaydilar. Bunday ko‘ngil “ovchisi” haqidagi shoir xulosasi shunday:

Ul pari paykarki bo‘lmish **ins-u jondin** xo‘broq,

Bor aningdek xo‘bkim, **mumkin yo‘q ondin xo‘broq.**

Shoir ijodiy laboratoriyasining mundarijaviy tavsif va tasvirlariga tayanib **y**o‘lida ko‘z gavharini-yu jon javharini nisorliq etmoqqa munosib **bu qalb “ovchisi”** – sho‘x, shaddod mohir bir chobuk (suvor) ekanligi ayonlashadi.

Yo‘lida aylay fido **ko‘z gavharin, jon javharin,**

Ey (Navoiy) oshiq, yetsa ul **chobuk nisorimdur** mening.

Mehmon bo‘lsang Navoiyg‘a **nisor aylar uchun,**

Obro‘ bo‘lg‘ay ko‘zining mardumi dur poshig‘a.

Demak, oshiqqa yor takovari ayoqlariga hina bo‘lmoq muyassar bo‘lmasa, hech bo‘lmasa mahbuba oti tuyoqlaridan qolgan izlaridan poybo‘s olmoq nasib-u ro‘z aylasa edi...

Gar ayog‘i raxshining o‘pmak muyassar bo`lmasa ,

Ko‘z solib har yerdakim **ko‘rsang ayoq bosqonin o‘p.**

Hazrat ta’kidlaganlaridek: “Ka’bai maqsud – Vaslin istasang”:

Ne sharaf otingg‘a bo`lg‘ali **poymol,**

Ne iting poybo‘sig‘adur **dastras.**

Ushbu baytda oshiq: “Qani edi men uchun sharaf toji bo‘lgan takovaring tuyoqlari ostida poymol bo‘lmoqlikdek rishtai orzumga yetishmoq uchun avval unung debochasi sanalmish iting poyidan o‘pich olish imkoni paydo bo‘lsa...” deya niyatlamoqda. Xullas, nihoyat g‘amzada oshiq visol yo‘lida o‘z oshufta joniga:

Qilmam ul bebok keskan na’lni o‘pmak havas,

Kim **samandi na’lini o‘pmak muyassar bo‘lsa bas,** – deb o‘ziga tasalli bermoq maqomida sabr etmoqqa mahkum ekanligi oydinlashmoqda. Demak, qiz takovari oyoqlariga hina bog‘lash: ***Yoqar olsang oting iligiga hino qonim ila,*** ekan. Hozircha Navoiy ijodiy laboratoriyasi iqtiboslariga asoslanib bildirishni istagan mulohaza – munosabatlarimiz shulardan iborat, aziz hamkasblar.

Ro‘zixon MAVLONOVA,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani faxriy ustozi;
Ozodaxon MAVLONOVA,
mustaqil tadqiqotchi

ISHQDAN BUZUG‘ KO‘NGIL NOLALARI YOXUD ZULF ARO SAYD AYLAMAK ISTAR KO‘GULLARNI KO‘ZING

(Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag‘ishlanadi)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi 371- g‘azalining 5-bayti tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.

Kalit so‘zlar: yuz, ko‘ngullar, chin ila shikan, soch.

Аннотация: в данной статье анализируется 5-я строфа 371-й газели куллиата «Гараиб ус-сигар» Алишера Навои «Хазаин ул-Маони». К моим идеям других преподавателей-экспертов «Навои» добавились новые идеи.

Ключевые слова: *лицо, сердечки, чин и шикан, волосы*

Annotation: in this article, the 5th stanza of the 371st ghazal of Alisher Navoi's "Khazayin ul-Maoni" kulliyat "Gharaib us-sigar" is analyzed. In addition to the opinions of our other navoi-scientist teachers, new opinions were also added.

Key words: *face, hearts, chin and chican, hair*

Assalomu alaykum, yosh navoiyxon hamkasblar! Sizga sarlavhadan ayonlashdiki, bu galgi suhbatimiz Navoiyning “Xazoyin ul-ma’oniy” kulliyotining birinchi devoniga kirgan 371-g‘azalning beshinchi bayti haqda.

Bayt misralari ifodasi quyidagicha:

Yuzung visolig‘a yetsun desang ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il.

O‘tgan galgi maqolamizda berilgan bir qancha sitatalarni lug‘atingiz yordamida qayta ko‘rib chiqqan bo‘lsangiz, bugungi suhbatimizga o‘tsak ham bo‘ladi... Bu baytdagi timsollarga to‘xtalsak, dastlab **yuz** haqida fikr shuki, avvalgi maqolamizda obdon so‘zlagandik. Muxtasar eslatsak: yuz – qiz chehrasi, husn-u jamol oyinasi, go‘zallik mazhari, tajalli ko‘zgusi, yor istarasi. Oshiq Yor yuzi visoliga yetishmoq uchun din-u, aql-u, jonni avvaldan xiroj etmoqqa to‘g‘ri keladi, ya’ni

xonumondan ayrilmoq lozim bo‘ladi.

Ko‘ngullar so‘zi ko‘ryapsizki, ko‘plik sonda qo‘llanyapti. Balki uni shoir vazn taqozosidagi hijolar sonini to‘ldirish maqsadida shunday qo‘llayotgandir. Bizning o‘yimizcha esa, uning ko‘plik (**-lar**)da qo‘llanishiga sabab bu so‘z qamrayotgan ma’noda... U ko‘plikda (ko‘ngu**llar**ni) turganida bitta ko‘ngilni emas, birqancha, sanog‘i aniq bo‘lmagan miqdordagi ko‘ngillarni bildirmoqda. Bu bilan go‘zal yorga bitta emas, bir nechta yoki ko‘p, sanoqsiz yigitlar oshiq bo‘lgan, demoqchidek... Sening ko‘yingda sarson bo‘lgan oshiqlar haqi-hurmati ularni visolingga yetishiga imkon ber, yo‘l ko‘rsat, sharoit yarat, deyayotgandek go‘yo. Agar shoir bir oshiq borasida so‘zlamoqchi bo‘lganida, uni birlik sonda (**ko‘ngil**) qo‘llar, vazn talabini biror so‘z: bog‘lovchi, yuklama va boshqalar bilan to‘ldirib qo‘ya qolardi... Bulbul gulistonga oshiq bo‘lib, undan ishqiy bahra topganidek, ko‘ngil ham Haq sirlariga oshiq bo‘lib, bu o‘ziga xos oshiqlik qo‘rg‘onining ma’nolar olami va irfoniy go‘zalligidan bahramand bo‘lishga urinadi. Jannatdek yoqimli hid ufurib turuvchi bo‘ston ham – ko‘ngil, tajalli (haqiqat zuhuri) chirog‘ining nuri aks etuvchi ko‘zgu (mazhar) ham – ko‘ngil. Shu vajdan haqni idrok etgan ko‘ngil ma’rifat nuriga ham manzil, ham manba bo‘la oladi. Navoiy “ko‘ngullarni” deganida mana shunday qalb egalari bo‘lgan oshiqlarni nazarda tutganligi shubhasiz... Oshiqlar: **Aftoda ko‘ngullardur, farsuda bandalardur.**

Chin ila **shikan**. Najmiddin Komilov ustoz bu so‘z ma’nosini quyidagicha izohlaydilar. **Chin**: rost, to‘g‘ri (o‘zbekcha); o‘ram, bukum, halqa-halqa (forscha ma’nosi).

Shikan: 1. Pech-u tob, qat-qat bo‘lish, o‘ram-o‘ram, zanjirsimon shakl olish. 2. Iskanja, azob. Hazrat tashbehlaganlaridek:

Ardag‘ol(pistirma) ichra qaroqchi maxfiy o‘lg‘ondekdur,

Fitna xaylig‘a panoh zulfing dog‘i CHIN-u SHIKANi. (II-502-g.)

Soch – yor zulfi. She’riyatda: ***zanjir, arqon, tuzoq, tun, oqshom, o‘tkinchi dunyo, ilon, qorong‘ulik, bepoyonlik, dunyo tashvishlari, silsila, tugun, dor, ayriliq, kamand*** singari ma’nolarda qo‘llanib kelgan. Husn-u jamol nishonasi, tajalli olami, qiz husni. Shoirning o‘zlari yorning iskanjali pech-u tobli, rax-rax zulflarining har bir shikanida yuz shikasta ko‘ngil (oshiq)lar o‘ralib, chigal yo‘lda manzur yuzi sari yo‘l topolmayapti, deyaptilar.

Ko‘rdung Navoiy ul (yuz) **sori zulf** uzra **yuz shikan,**

Ko‘r endi yuz shikasta ko‘ngul har shikan aro. (21- g‘azal.)

Endi an’anamizga ko‘ra, shoir g‘azallaridan **chin** va **shikan**ga iqtiboslar izlaymiz, natija:

*Tararda ukdalig‘ **zulf**in musalsal ayladi **chin**lar,*

*Girih – “mim”, ikki **zulf**i ikki – “lom”, iynak: tarog‘ – “sinlar”.* (157- g‘azal.)

Purshikan zulf**ing aro tushdikim, ey ahd **shikani,

*Yuz **shikan** soldi **ko‘ngullar**ga aning har **shikan**i.* (585- g‘azal.)

***Zulf**ing har **halqasi**da bir **shikan**dur o‘ylakim,*

Xafs zanjirida har tav’ ichra bir ahli gunah. (523-g‘azal.)

Endi ko‘ngilga bag‘ishlangan sitatalar:

*Qayd et **ko‘ngulga silsilai zulfin**, ey hakim ,*

Kim telbaga munosib erur band ayla iloj. (II- 95-g‘azal.)

*Tan uyida **ko‘nglum** andoqkim **buzug‘da xor-pusht,***

Baski atrofida paykoning turibtur, sonchilib. (II- 53-g‘azal.)

***G‘unchadek ko‘nglum** bir ochilg‘on sensiz qon yutar,*

*Tah- batah a’zosi qon bog‘lab yaqosi yurtilib. (*II- 59-g‘azal.)

***Zulf**ingga **majnun ko‘ngul** bog‘landi xotir jam’ qil,*

*Telba qayda borg‘usi **zanjiri yerga sudralib**.* (II-54-g‘azal.)

*Qaddi shavqidin **havo qilmoq tilar ko‘ngul** qushi,*

*Necha tan zindonida **mahbus** qolg‘ay qiynalib.* (II-60-g‘azal.)

*Eyki berding ishq sultonig‘a **ko‘nglung kishvarin,***

Anglog‘ilkim jon-u aql-u din erur avval xiroj. (II-93-g‘azal.)

Ko‘nglum zaqaning ichra** ko‘rub yoyding anga **zulf,

Choh uzra kabutarg‘a yoyar domin sayyod. (II-177-g‘azal.)

*Javrlarkim qildi **ul kofir** (qora ko‘z) **unutmaydur ko‘ngul,***

*Kim hisobidin **girihlardur**ki, zunnorimda bor.* (II-151-g‘azal.)

*Har parikim ochti bir devonaning **qasdig‘a zulf,***

*Aylading **zanjirini** bo‘ynumg‘a mahkam, ey **ko‘ngul*** (II- 392- g‘azal.)

***Soch** ila qoshing aro jabhangni ko‘rgan sog‘inur*

*Kim, to‘kilmish **qadr shomi nuri** mehrob ustina.* (II-565-g‘azal.)

*Erur kirarga **ko‘ngul hayli** ul taraf bir-bir,*

***Taroq sochingdaki yo‘llar yasab turar rax-rax**.* (II- 108-g‘azal.)

***Zulf aro sayd aylamak istar kongullarni** ko‘zung,*

*Shab shikor ul nav’ikim qilg‘ay kelibon(ikki) **qora sayd**.* (II- 119-g‘azal.)

***Sunbuli rishta**larini rishtai maqsad dema,*

*Kim **ko‘ngullar qushi domig‘a erur barcha sabab**.* (II- 40- g‘azal.)

*Xay chakon orazmudur, yo husni bandi **zulf aro,***

*Yuz asir o‘lg‘on **ko‘ngullar** holig‘a giryonmudur.* (II- 161-g‘azal.)

***Zulfungda** tugun ermas, ko‘yungda g‘ubor ermas,*

*Aftoda **ko‘ngullardur**, farsuda **bandalardur.*** (II-165-g‘azal.)

Keltirilgan iqtiboslardan ko‘rinyaptiki**, ko‘ngul**

so‘zini ko‘plik sonda qo‘llash shoir she’riyatida ancha tipik hol ekan. Ikkita misol: “Ne balo... ot surar”, keyingisi “otin tutsalar”...dan birida qattiqko‘ngil yor, keyingisida ko‘ngilchan, ko‘nglibo‘sh oshiq tasvirlari o‘rin olganini ko‘ramiz...

Ne balo ***qotig‘ ko‘nguldururkim qatl el qonig‘a,***
Ot surar *surg‘an masallik lolavu rayhong‘a ot* . (II-83-g‘azal.)

Otin tutsalar *nogoh ketar o‘yla hushumkim,*
Badan ichra ruhumdin degaysan asar yo‘qtur. (II- 166-g‘azal.)

Navoiyning ikkinchi devonidagi “Kelib” radifli 58-g‘azalida biz sharhlayotganimiz baytdagi oshiqning riyozat chekib ko‘rgan azob-u jafolari, sarguzashti o‘z ifodasini topgan:

Tiyg‘ ila ***xoki tanim****ni har taraf yording kelib,*
Naqdi jon olmoqqa bu tufrog‘n*i axtarding kelib.*
Kelding-u ***ko‘nglimni yuz chok*** *etmaguncha bormading,*
Ba’d umre, ey sitamgar, yaxshilar bording kelib.
Jon senga qurbonki, olib jon ***ko‘ngul afg‘onidin****,*
Ham o‘zungni, ham meni, ham elni qo‘pording kelib.
Qatl bas erdi*, tanim ul ko‘ydin sudramaking,*
Ortuq erdi, ey jafojo‘, haddin o‘tkarding kelib.
Ey ko‘ngul*, ozdur senga bu hamki, ul oy* ***ko‘yidin****,*
Man’lar qildim vale yuz qatla yolbording kelib...

Ana sizga xiradmand tan necha bor manlar qilsa-da, yuz bora yalinib to‘xtatsa-da yor kelishini kutayotgan niyozmand oshiqqa jafojo‘ ma’shuqning sitamkor jafolari tasviri. Albatta, oshiqni yor ko‘yiga solgan hajr, firoq, muhabbat, visol orzusi kabilar. Mana oshiq ko‘ngil mulkiga, oshiq el qatliga javlon qilgan ko‘ngil ovi azmig‘a turktozlik ila yurish qilgan jafojo‘ yor sitamlari. Shoir 160-g‘azalda:

Balo dashti aro ***yuz ming o‘lukdur anda qotil****(zulf) ishq,*
Xirad mag‘lub xayli birla go‘yokim suvoshibdur,- deydilar .

Yor yuzi visoliga yetishga urinayotgan **Ko‘ngullar**ning g‘am-g‘ussasi, fig‘on-u jafosi shunday dardga to‘laki, u shoirning nazmiy ishq daftari baytlarida mujassam: Ma’shuqa ko‘yida Yorni ko‘rgach ko‘ngul:

Qaddi*ni ko‘rgach ham* ***o‘ldum****, ham tirildim ollida,*
Rost, gar dersen: ***qiyomat*** *de aning* ***qomatimudur****,*
– degan mulohazalarga keladi.

Ko‘ngul ko‘zlar yo‘lin tutmoqda hajringda shitob aylar,

Birin tutguncha, birining sayli olam(oshiq)ni **xarob aylar.** (II.185-g‘azal.)

Albatta, biri jon olib, biri jon beruvchi yorning qora ko‘zlari o‘z kipriklaridan oshiq qalbiga paykonlar yog‘diradi:

To‘libtur ***ko‘ngul*** *ishqing o‘tidan andoq,*
Ki ko‘p o‘q dog‘i o‘qqa mahkam bo‘lubtur. (II .169- g‘azal.)

Ko‘ksima otsang bir o‘q, *ot yana bir yonidankim,*
Ul dag‘i ***ko‘nglimni*** *shod aylar, bu ham mahkam bo‘lur*. (II. 170- g‘azal.)

Ikki qora ovchi otayotgan bunday nazar va nigoh novaklari oshiq ko‘ngul kulbasini vayron qiladi-da:

Netib kuymayinki (qalbdagi) g‘aming kovkovi,
*Yetibdur****, ko‘ngul uyi barham bo‘libtur****.* (II.169 -g‘azal.)

Shubhasizki, bunday jon azoblari oshiq diydalari ko‘zyoshi selini yuzaga keltiradi:

Qilib ***xoki ko‘yingni balchiq sirishkim,***
Tutashqon ***yalang tang‘a marham bo‘lubtur****.*

Oshiq tragediyasini yakunlash uchun bir *g‘azal maqta’sidagi so‘zlarni qahramon nomiga o‘zgartirishga jur’at etdim.* Ya’ni:

Oshiqqa *(Navoiyga) rahm aylagil, ey* ***Yuz visoli*** *(parivash),*
Kim ul telba (yuz, visolni deb) rasvoi olam bo‘lubtur...

“Ul kofir” qorako‘z o‘z takovarini vafodor oshiqning telba ko‘nglini sayd aylab *uni butkul barham etmoq, yurak-bag‘rini chok-chokidan buzmoq, tanni tufroq, qalbini urfoqqa aylantirmoq* maqsadida oshiq jussasiga samand soldi, **tufrog‘ini esa yelga sovurishga** ahd qildi:

Surdi ko‘nglimni buzib xoki tanim uzra samand,
Yelga berdi tufrog‘in*, bu uyni vayron aylagach. (II.97-g‘azal)*
Ey ***ko‘ngil, qoningni*** *istarsen tovonig‘a* ***hino,***
Ko‘zlarim xunobi rangi ham sening qoningcha bor. (II.461-g‘azal)

Ushbu iqtiboslarga singib, sumurib razm solgan bo‘lsangiz bosh tragediya oshiqning o‘lishi, **tanni,** so‘ng **yurak-u bag‘ir**ni, nihoyat, **ko‘ngil**ni to‘sh-to‘shidan parkand- parkand etilib yor ko‘yi tufrog‘ida xun loyiga qorishgan xoki ko‘ngul g‘uborlarining **yor takovari tuyoqlari ostida ayovsiz** parkandalanishi epizodining xayoliy guvohi bo‘lasiz... Ko‘ngilning rishtai maqsadi yor yuziga yetish edi. Yuzga yetmoq uchun biror **ulov-markab** lozim... Dunyo tashvishlari tugunini dor kabi oshiq boshiga solayotgan, hayotini o‘tkinchi dunyoda bepoyon qorong‘ulikka tashlayotgan, unga tun kabi tuzoq qo‘yayotgan bu yor sochi **– zulf.** Endi esa ko‘ngil yorning **yuz jamoliga** yetishi uchun ulov ham xuddi shu “**chin-u shikan**” larga to‘la **yor zulfidir**. Yor sochi xilqatidagi zanjirsimon halqalari oshiq yuragi g‘uborlarini yuz visoliga yetkazishda vosita bo‘luvchi ikki quloch kamanddir. Faraz qiling, bir guruh bolalar chang ko‘chada to‘p o‘ynashmoqda... O‘yin qizigandan qiziganda razm solsangiz ko‘y tufroqlari chang o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tarila boshlaydi... Bu tabiiy jarayon...

Shu singari Yor ko‘chasida xoki tan, xoki ko‘ngil qorishib yotgan oshiq qalbi chang-g‘uborlari tezroq visolga yetish uchun bir imkon kerak. **Shoir taxayyulicha bu markab zulfdir.** Nihoyat, soch avval edi tuzoq, olayin deb savob, xoki ko‘ngullarga rax-rax yo‘l ochish uchun **ulov ham bo‘ldi**. E’tibor bergan bo‘lsangiz, ayrim

misralarda oshiq xoki tanini **yel**ga, saboga, **shamol**ga sovirish uchun uning izmiga topshirish istagi bot-bot takrorlanadi. Negaki, **shaboda** ham bu xoklarni uyurib yor yuzi visoliga yetkazuvchi **ramziy vosita**. Demak, yor yuziga yetishish uchun silsila, zanjir, bandi zulf, yo bir quloch "kamand" kerak. Shunda shoir yechim uchun **ma'shuqa sochiga ishora qilib qo'ya qoladilar:**

***Yuzin** (visolin) **istarsan** (oshiq) Navoiy**, qochma zulfi fikridin**,*

Kim sen istar aysh** (qovishish)**ning ummidi bu qayg'uda bor.

Navoiy o'z she'rlarida so'z saralashda ham juda zukkodir. Qarang, shu yerda "umidi bu" orzuda, xayolda, o'yda, fikrda, ma'nida, niyatda bor desalar ham bo'ladi. Biroq nuktadon shoir ular ichidan aynan "qayg'u" so'zini oladilar...

"**Qayg'u**" desak, oshiqning barcha iztiroblari: ***hajr, ayriliq, g'am, firoq, g'ussa, hasrat, anduh, dard*** kabi yana biz eslolmagan barcha ishq azoblari gavdalanadi. **"Qayg'u" dardga** hamohang. Endi orzu, o'y, xayol... desak, juda yuki yengil, salmog'i tosh bosmaydi**... Baytlarni sharhlash uchun hamma javob shoirning o'zi asarlarida mavjud.** Faqat vaqt, sabr va umid-u ishonch kerak muxlisga. Devondagi g'azallar baytlaridagi misralar aro so'zlarni "titkilash", lug'at bilan ishlash, ma'nosini ochiqlashga urinish kerak, xolos.

Endi sharhi ojizimizcha, baytning nasriy bayoni quyidagicha:

"Ey yor, ko'ngul(oshiq)lar yuzing visoliga erishsin desang, zulfingning zanjirsimon girih(tugun) larini halqa-halqa qil. Shunda oshiqlaring qalbi xoklari bu bir quloch kamandning "chin"u "shikan-"lari "zinapoya"si aro yuzing jamoliga uruj(ko'tarilish) aylasin". Mana bor haqiqat shu ekan. Bu g'azalni tasavvuf ramzlariga bog'lamasdan ham sharhlasa bo'lar ekan, o'zingiz buning ishtirokchisi bo'ldingiz.

Endi tasavvufga bog'lab ham biroz tahlil qilishga urinaylik... Men iqtiboslar yig'ish davomida baytdagi "**boshtin-ayog'"** birikmasining qo'llanishini kuzatib bordim va birinchi devonda sakkiz o'rindan oltitasida "ayo**g**" ikkitasida "ayo**q**" tarzida yozilgan ekan. Birikmadagi shu "**ayog**" so'ziga tayanib yana bir ma'no kashf etish mumkin. "Misrada **soch** so'zi bor, uning sinonimi **zulf**dir. Tasavvufda **zulf –** beqaror, o'zgaruvchan **olam timsoli.** Endi shu zulfning **"olam**" ma'nosidagi shaklini misraga joylab o'qib ko'raylik:

Yuzing visoliga yetsun desang ko'ngul (jon)larni,

Olam (soch) ni, boshtin- ayog'(oxirigacha) chin ila shikan qilg'il!

Endi fikr biroz oydinlashdi. Oshiq ko'ngil (ruh)larni yuzing visoliga yetsin desang, bu bevafo buqalamun dunyoni ostin-ustun (ayqash-chuyqash, chigal, yo yo'q qilib buzib yubor), kunfayakun qil. Chunki u oshiqlar yo'lidagi to'siq (g'ov, balo)dir, demoqdalar... Shoir iborasi bilan aytganda: "**Sovrul, ey charxi nigun, vey dahri dun barbod bo'**l".

Bu g'azal – kulliyotning birinchi devoni (T-59-yil) 389-betidagi ifodasida "**boshtin-ayog**" shaklida yozilgan. Hozirgi adabiy tilimizdagi "**ayoq**" deylik desak, so'z "**g'**" bilan tugagan. Demak: "ayog'" deyilmoqchi... Xuddi shu devonning 800-betidagi lug'atda: **ayog'** – **piyola, may**, (ayog'-ayoq) deya izohlangan. Bilinadiki, u ikki ma'noda qo'llanar ekan. Asli hozirgi imlomizga ko'ra: **boshdin-ayoq** (boshdan ayog'igacha, boshidan oxirigacha) yozilishi kerak edi. Lekin g'azal shoir davri merosi bo'lganligi vajdan tabiiy yozilish shaklini olamiz. Alhosil, shu "**ayog'**" birlamchi ma'noda: piyola, **may** ekan, shu ma'nosiga tayanib baytdan yana bir mazmun chiqarish mumkin. Navoiy **olam** (zulf, soch)ni boshdan oxirigacha deyishi mumkin edi, negadir **ayog'** so'zini qo'llaydilar. Bu yerda bir "**ishora bordir**", u bejizga shunday ishlatilmagan... Xullasin, shu **ayog'** – **may, qadah** so'zlarining sinonimi. Demak, ana shu **ayog**' (may) esa tasavvufda **ilohiy nur, irfon** timsoli sanaladi. Shu asosga ko'ra misrani quyidagicha tushunish ham mumkin:

Yuzing visoliga yetsun desang ko'ngul (ruh)larni,

Olam (soch)ni boshidanoq (azaldayoq) **ayog' (irfon**) ga burkab (chin-o'rib, shikan-jingalaklab) yaratishing lozim edi... Yo'qsa: "Gar buldur olam – kishi (oshiq)ga mumkin emas anda kom..." (visol).

Endi bu visolni ilohiy vahdadmi, qiz va oshiq yetishuvi deb tushunasizmi qolgani sizning tanlovingizda... Buni misradagi **ko'ngullar** so'zi tasdiqlaydi. Agar shoir bir oshiq yigitni nazarda tutganlarida "**ko'ngul"** shaklida birlik sonda qo'llagan bo'lar edilar... Demak, ko'ngullar so'zida so'fiyona yuk bor.

Shu kungacha shorihlarni qiynab kelgan: Ko'ngullarning yor visoliga yetishuviga yor sochining nima aloqasi bor? – savolidir. Bizningcha, badiiy asardagi barcha tasvirlarni real, sodir bo'lishi zarur va mumkindek, mantiqqa qattiq "yopishib olib" anglamaslik lozim. U bir badiiy obraz... Unda badiiylik: mubolag'a, **lof,** bo'rttirish, vahimaga solish, xullas, ta'sirlantirish usullari mavjud bo'ladi. Demak, bunday tasvirlarga bir badiiy obraz, badiiy ishlanma, badiiy to'qima sifatida qarab baholasak, savqi tabiiy sabab to'g'ri yechimga boramiz. Shunday usullardan foydalanilmasa, she'riyatning nima keragi bor? Tarixiy haqiqat yo'lidan borib voqea o'rni, shaxslar, asbob-uskunalar borasida xronologik ma'lumot berib qo'ya qoladi-da... Bunday matn esa bizni ta'sirlantirmaydi, hayajonga solmaydi. Tasavvur va taxayyuldan mosuvo qiladi. Xullas, g'azal syujetidan guvoh bo'ldingizki, voqeot davomida oshiqqa **ikki marta "o'lish"**ga to'g'ri keldi. Asli, avvalo, oshiqni **ko'z va yuz** jamoli allaqachon **ado qilgan edi.** Birinchi "o'lim" yor takovari oyog'i ostida oshiq yurak-bag'ri ezilib, ma'shuqa itlariga bag'ri parokanda bo'lib tani xokka aylanganda ro'y beradi. Ikkinchi "olim" esa manzur hayodan xijolat tortib ruxsorida **ibo terlari** balqiganda sodir bo'ladi... Demak, oshiq vujudi visolga yeta olmagan ekan, hech bo'lmasa uning tan tufroqlari bu orzudan **ramziy "o'lgach"** "bahramand" bo'lishlari kerak-ku... Shuni nazarda tutgan shoir visolga yetishning

mumtoz yechimini beradilar. Xullas, bu biz boya yuqorida ta'kidlaganimizdek, oshiq tani xoki visolga mushtoq ekan, yigit ko'ngil xoklari, yorning purshikan girihli, silsila(zinapoya)li soch halqalarining tuganak zulf zanjiri bandlari **"chin- u" "shikan"**lari bo'ylab yor yuzi me'rojiga uruj aylasin... Vassalom! Xulosa hazratning "o'zlaridan":

Ko'ngullar *nolasi zulfing* ***kamandin*** *nogahon ko'rgach,*
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko'rgach. (I – 96- g'azal)
Gar ***kon'gullarni*** *jaloyi vatan(tashlab ketish) istar bo'lsnag ,*
Yech tuhun(chin-u shikan)lar(i)niyu zulfingni tara, ey qaroko'z. (I-218-gazal.)

Akram MAHMUDOV,
Oriental universiteti
Sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi
usmanhalifa90@gmail.com

ISHTIG'OL VA UNING GAPLARDA QO'LLANISH TARTIBI VA TAHLILI

Annotatsiya: ma'lumki arab tili grammatikasining qoidalari juda ko'p va bir-biridan qiziqarli. Shunday bo'lishiga qaramasdan ba'zi arab tiliga qiziquvchi yosh talabalar arab tili qoidalarining barchasini o'rganishga imkon topmaydi yoki ayrim qoidalarga ahamiyat bermasdan e'tiborsiz qoldiradilar. Talabalarga manfaatli bo'lishini istab bu maqolada o'quvchilarga arab grammatikasidagi "Al-ishtig'ol" masalasini o'zbek tilida yoritish maqsad qilindi.

Kalit so'zlar: *ishtig'ol, sifatdosh, olmosh, lafz, mahal, nasb, mashg'ul, marfu', rojih.*

Аннотация: известно, что правила арабской грамматики многочисленны и интересны. Однако некоторые молодые студенты, интересующиеся арабским языком, не имеют возможности выучить все правила арабского языка или игнорировать некоторые правила. Чтобы быть полезной студентам, эта статья призвана объяснить студентам вопрос «Аль-Иштигол» в арабской грамматике на узбекском языке.

Ключевые слова: *род занятий, прилагательное, местоимение, слово, махал, насб, машгуль, марфу, родих.*

Annotation: it is known that the rules of Arabic grammar are numerous and interesting. However, some young students who are interested in Arabic do not have the opportunity to learn all the rules of Arabic or ignore some rules. In order to be useful to students, this article aims to explain the question of "Al-Ishtigol" in Arabic grammar in Uzbek to students.

Keywords: *occupation, adjective, pronoun, word, mahal, nasb, mashgul, marfu, rodikh.*

الاشتغال

حقيقة الاشتغال: أن يتقدم اسم و يتأخر عنه عامل هو فعل أو وصف. كل من الفعل و الوصف المذكورين مشتغل عن نصبه له بنصبه لضميره لفظاً نحو: «زيداً ضربته» أو محلاً نحو: « زيداً مررت به» أو لما لابس ضميره, نحو: «زيدا ضربت غلامه» أو «مررت بغلامه»[1].

Ishtig'ol u: Bir (mansub) ism oldin o'tgan bo'lib, undan keyin fe'l yoki sifatdosh (ismu foil yoki mafu'l) keladi, ulardan har biri avval o'tgan ismning olmoshini lafz yoki mahal e'tibordan yoki oldingi ismning olmoshi bilan birikib kelgan ismni nasb qilish bilan mashg'ul bo'lgani bois, o'zidan oldingi ismni mansub qila olmaydi, masalan:

«زيداً ضربته» أو محلاً نحو: « زيداً مررت به» أو لما لابس ضميره, نحو: «زيدا ضربت غلامه» أو «مررت بغلامه».

أركان الاشتغال ثلاثة

Ishtig'olning asoslari uchta bo'lib, ular:

1. مشغول عنه: هو الاسم المتقدم.

"Mashg'ulun anhu" (undan mashg'ul bo'lingan) Omil (fe'l)dan avval kelgan mansub ko'rinishdagi ism.

2. مشغول: هو الفعل المتأخر.

"Mashg'ulun" (biron narsa bilan mashg'ul bo'lgan) "Mashg'ulun anhu"dan keyin kelgan fe'l (omil).

[1] قطر الندى و بل الصدى جمال الدين أبو محمد عبد الله بن يوسف الأنصاري، المعروف بابن هشام، دار الفجر. الطبعة الرابعة. ص: 291 – القاهرة: 2012 م.

[2] Ishtig'ol bu, bir omilni ikkita tushum kelishigida kelgan ma'mullardan biri bilan mashg'ul bo'lib, avvalgi ismni omilsiz qolishi yoki uning omili qaysi ekanligini aniqlashdan iboratdir.

3. مشغول به: هو الضمير الذي تعدّى إليه الفعل بنفسه أو بواسطته.

“Mashg‘ulun bihi” – fe’ldan oldin zikr qilingan ism (“Mashg‘ulun anhu”)ning kishilik olmoshi bo‘lib, fe’l o‘zicha yoki boshqa vosita yordamida unga ta’sirini o‘tkazadi.

ولكل واحد من هذه الأركان الثلاثة شروط.

Mazkur uchala asoslarning har birining o‘ziga xos shartlari mavjud.

اختلاف النحويين في ناصب المشغول عنه

ذهب الجمهور إلى أن ناصبه فعل مضمر وجوباً، و يكون الفعل المضمر موافقاً في المعنى لذلك المُظْهَر، هذا يشمل ما وافق لفظاً

Nahvchi olimlarning ko‘pchiligi aytadilar: “Mashg‘ulun anhu”ni nasb qiluvchi omil, u muqaddar qilinishi vojib bo‘lgan fe’l bo‘lib, “Mashg‘ulun anhu”dan keyin kelayotgan fe’l bilan ma’noda moslashishi shart qilinadi.

Bu qoidadagilarni o‘z ichiga oladi: lafz tomonlama moslashishni, masalan:

« زيداً ضربته» إن التقدير «ضربت زيداً ضربته»

Lafzda emas ma’noda moslashishni, masalan:

« زيداً مررت به» إن التقدير «جاوزت زيداً مررت به».

المذهب الثاني يقول: إنه منصوب بالفعل المذكور بعده، هذا مذهب كوفي، فقال قوم منهم: إنه عمل في الضمير و في الاسم معاً، فإذا قلت: «زيداً ضربته» كان «ضربت» ناصباً لزيد و الهاء، و ردّ هذا المذهب بأنه لا يعمل عامل واحد في ضمير اسم و مُظهَره، و قال قوم: هو عامل في الظاهر و الضمير ملغى، و ردّ بأن الأسماء لا تلغى بعد اتصالها بالعوامل.

Ikkinchi tomon nahvchi olimlar aytadilar: “Mashg‘ulun anhu” o‘zidan keyin kelayotgan fe’l sababli mansub bo‘lishini aytadilar, bu kufaliklar yo‘nalishi bo‘lib, ulardan ba’zilari: “Mashg‘ulun anhu”dan keyin kelgan fe’l “Mashg‘ulun anhu”ga ham uning olmoshiga ham, omil bo‘ladi dedilar. Agar: «زيداً ضربته» desangiz, mazkur fe’l Zaydni va uning olmoshini nasb qiladi, dedi. Ularga quyidagicha javob beriladi: bitta omil bir ism va uning olmoshiga omil bo‘la olmaydi.

Bir toifa nahvchilar aytadilar: “Mashg‘ulun anhu”dan keyin kelgan fe’l “Mashg‘ulun anhu”ning omili bo‘lib, uning olmoshi e’tiborsiz qoldiriladi.

Ularning fikrlari: “Ism (olmosh)lar agar omillarga tutashib kelsa, hech qachon uning omili yo‘q deb e’tiborsiz qoldirilmaydi.

القول الراجح هو ما قاله الجمهور.

Bu boradagi fikrlarni qarab chiqilgandan so‘ng jumhur nahvchi olimlarning qarashlari rojih ekanligi ma’lum bo‘ladi.

ذكر النحويون أن مسائل هذا الباب على خمسة أقسام. أحدها: ما يجب فيه النصبُ، الثاني: ما يجب فيه الرفعُ، الثالثُ: ما يجوز فيه الأمران والنصب أرجحُ، الرابع: ما يجوز فيه الأمران و الرفع أرجحُ، و الخامس: ما يجوز فيه الأمران على السواء.

Nahv ulamolari aytadilar: Bu bobning masalalari besh qismdan iboratdir. Birinchisi: Oldin zikr qilingan (mashg‘ulun anhu)ni mansub (tushum kelishigi)da o‘qish. Ikkinchisi: “Mashg‘ulun anhu”ni marfu’ (bosh kelishik)da o‘qish. Uchinchisi: Bunda ikkala kelishikda ham o‘qish mumkin bo‘lib, nasb o‘qish rojih. To‘rtinchisi: Bunda ikkala kelishikda ham o‘qish mumkin bo‘lib, marfu’ o‘qilishi rojih. Beshinchisi: Ikkala kelishikda o‘qish bab-baravar joiz.

Quyida mazkur beshala qismning shartlari va misollari berib boriladi.

Birinchisi:

يجب نصب الاسم السابق إذا وقع بعد أداة لا يليها إلا الفعل كأدوات الشرط نحو: إن و حيثما

Uni (مشغول عنه) tushum kelishigida o‘qish shart qilinadi, agar undan oldin fe’lga qo‘yiladigan إن و حيثما kabi omillar kelgan bo‘lsa, masalan:

إنْ زيداً أكرمْته أكرمك، حيثما زيداً تلقه فأكرمه

Agar Zaydni izzat qilsang, u ham seni izzat qiladi. Zaydga qayerda yo‘liqsang, uni izzatlagin.

Ikkinchisi:

يجب رفع الاسم المشتغل عنه إذا وقع بعد أداة تختص بالإبتداء، كإذا الفجائية، و كذلك إذا ولي الفعلَ المشتغلَ بالضمير أداة لا يعمل ما بعدها

فيما قبلها، كأدوات الشرط والاستفهام و ما النافية، نحو:

“Mashg‘ulun anhu” ismni marfu’ o‘qish shart qilinadi. Agar إذا “iza fujaiyya” kabi gapning boshida kelishiga xoslanadigan omillardan keyin kelsa, shuningdek, shart, so‘roq va inkor yuklamalaridan so‘ng ham “Mashg‘ulun anhu” marfu’ o‘qiladi. Masalan:

خرجتُ فإذا زيدٌ يضربه عمرو، زيدٌ إن لقيته فأكرمه، و زيدٌ هل تضربه، و زيدٌ ما لقيته، فيجب رفع زيد في هذه الأمثلة.

Uchichisi:

إذا وقع بعد الاسم فعل دال على الطلب كالأمر و النهي و الدعاء.

Agar ismdan keyin talabga dalolat qiluvchi buyruq, qaytariq va duo kabi so‘zlar kelsa, “mashg‘ulun anhu”ni marfu’ va mansub qilib o‘qish mumkin bo‘lib, mansub o‘qish rojih hisoblanadi. Masalan:

«زيداً اضربْه، زيداً لا تضربْه، زيداً رحمه الله»،

Shuningdek, ko‘pincha أ istifhomi kabi o‘zidan keyin fe’l keladigan omillardan so‘ng ism keltirilsa ham, “mashg‘ulun anhu”ni mansub o‘qish afzal bo‘ladi, masalan:

أ زيداً ضربته

كذلك يختار النصب إذا وقع الاسم المشتَغَل عنه بعد عاطف تقدمه جملة فعلية لم يفصل بين العاطف و الاسم، نحو: قام زيدٌ و عمراً أكرمته، جوز رفع عمرو و نصبه، و المختار نصبه، لتعطف جملة فعلية على جملة فعلية.

Agar “mashg‘ulun anhu” harfi otif (bog‘lovchi harf)dan keyin kelib, undan oldin o‘tgan otif bilan “mashg‘ulun anhu”ning orasi ajratilmagan bo‘lsa. Mazkur misollar kabi.

To‘rtinchisi:

كل اسم لم يوجد معه ما يوجب نصبه و لا ما يوجب رفعه، ولا ما يرجح نصبه و لا ما يجوّز فيه الأمرين على السواء. نحو: زيدٌ ضربته، يجوز رفع «زيد» و نصبه، و المختار رفعه لأن عدم الإضمار أرجح من الإضمار.

“Mashg‘ulun anhu” bilan uni mansub yoki marfu’ o‘qitadigan yoki nasbligini rojih qiladigan yoki ikki holatni ham tengligiga dalolat qiladigan omillar topilmasa, “mashg‘ulun anhu”ni marfu’ va mansub o‘qish mumkin bo‘lsada, marfu’ o‘qish afzal hisoblanadi.

Beshinchisi:

إذا وقع الاسم المشتغل عنه بعد عاطف تقدمته جملة ذات الوجهين جاز الرفع و النصب على السواء، الجملة ذات الوجهين هى جملة صدرها سم و عجزها فعل، نحو: «زيدٌ قام و عمرو أكرمته» فيجوز رفع «عمرو» مراعة للصدر و نصبه مراعة للعجز[3].

Agar “mashg‘ulun anhu” atf harfidan keyin kelib, undan oldin ikki tarafli gap o‘tgan bo‘lsa “mashg‘ulun anhu”ni marfu’ va mansub o‘qish barobar deb hisob qilinadi. Ikki tarafli gap deb: ism bilan boshlangan fe’l bilan tugagan gapga aytiladi. Bu atama faqat shu bobga tegishlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharhu ibn Aqil ala alfiyati ibni Molik. Bahouddin Abdulloh bin Abdurahmon bin Abdulloh bin Aqil. Birinchi jild. – Qohira: Dorut Turos, 2005.
2. An-Na’im. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Xalq merosi, 2003.
3. Shuzuru-Azzahab fi ma'rifatil kalamil-arab. Abu Abdulloh Jamoliddin ibn Hishom Ansoriy. – Bayrut: Ar-Risola, 2019.
4. Qotrun-Nado va Ballus-Sado. Abu Abdulloh Jamoliddin ibn Hishom Ansoriy. – Qohira: Darut –Taloi', 2009.

Maftuna NURBOYEVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti,
Alfraganus universiteti o'qituvchisi
E-mail: maftunanurboyeva@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK OMONIMIYA MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: maqolada tilshunoslikda, shuningdek, frazeologiya sathida omonimiya hodisasi va unga turli tilshunoslik maktablaridagi lingvistik munosabat, frazeologik omonimlarning o'rganilishi va ularni mazmuniy guruhlarga ajratgan holda tadqiq etish hamda ularning turli klassifikatsiyalari bilan tanishtirish kabi masalalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *omonimiya, frazeologik omonimiya, ichki frazeologik omonimlar, omonimik muvofiqliklar, faol va nofaol frazeologik omonimlar, gomogen va geterogen omonimlar, to'liq va qisman omonimlar.*

Аннотация: в статье рассматриваются такие вопросы, как явление омонимии в лингвистике, в том числе на уровне фразеологии, лингвистическое отношение к нему в различных языковедческих школах, изучение фразеологических омонимов и их исследование с разделением на смысловые группы, а также ознакомление с их различными классификациями.

Ключевые слова: *омонимия, фразеологическая омонимия, внутрифразеологические омонимы, омонимические соответствия, активные и пассивные фразеологические омонимы, гомогенные и гетерогенные омонимы, полные и частичные омонимы.*

Annotation: this article examines various aspects of homonymy in linguistics, including at the phraseological level. It explores the linguistic approaches to this phenomenon in different schools of thought, studies phraseological homonyms and their classification into semantic groups, and presents an overview of their various categorizations.

Keywords: *homonymy, phraseological homonymy, intra-phraseological homonyms, homonymic correspondences, active and inactive phraseological homonyms, homogeneous and heterogeneous homonyms, complete and partial homonyms. Homonymy, phraseological homonymy, internal phraseological homonyms, homonymous correspondences, active and passive phraseological homonyms, homogeneous and heterogeneous homonyms, complete and partial homonyms.*

Til birliklarining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ichida nisbatan kam tadqiq etilgani va alohida munosabat turi sifatida ajralib chiqishi ham olimlar tomonidan keng muhokamalarga sabab bo'lgani, shubhasiz, omonimiya hodisasidir. Miloddan avvalgi yunon faylasuflari ham leksik tizimdagi omonimiya haqida fikr bildirib o'tgan bo'lsalar-da[3; 42], o'tgan asr o'rtalarigacha tilshunoslar bu mavzuni alohida o'rganishni grammatika va nutq vaziyati uchun ahamiyatsiz deb hisoblaganlar. Birgina rus tilshunosligi nuqtayi nazariga diqqat qaratsak, qator olimlar, jumladan, A.V.Isachenko o'z tadqiqotlarida "so'zlovchi va tinglovchi uchun, nutq vaziyati uchun omonimiya muammo tug'dirmaydi" deb hisoblagan, ya'ni, aytaylik, so'zlovchi "Men bog'ga bordim" deganda tinglovchi uning [bog'] so'zi orqali omonim birlikdan foydalanganini xayoliga ham keltirmaydi, chunki so'zning kerakli ma'nosini umumiy kontekst orqali anglay olishini ta'kidlab, omonimiyaning har qanday ko'rinishi mavhum muammo ekani, bu mavzu faqat tilshunoslar, leksikograflar uchungina ahamiyatli bo'lishi haqida fikr bildiradi[4;29]. Shuningdek, bu kabi qarashlar 80-yillargacha ham davom etgan, xususan, M.P.Kochergan omonimiyani polisemiyaning bir turi, aniqroq aytadigan bo'lsak, "Ko'p ma'nolilikning eng chekka qutbi" deb hisoblab, buni quyidagicha izohlaydi: "Lug'atlarda omonim sifatida talqin qilingan so'zlarning ma'nolari birikuvchanligi va diagnostikasi umumiy jihatdan polisemantik so'zlar semantikasining birikuvchanligi va diagnostikasidan prinsipial farq qilmaydi" [5;54]. Bunda tadqiqotchi leksik sathda omonimiya mavjud bo'lsa, uni tilning boshqa sathlariga ekstrapolyatsiya qilish kerak, deb hisoblaydi. Bu mulohazalarni avvalgi tadqiqotlarda ham uchratish mumkin [6].

Biroq omonimiya dunyo tillarining barchasida keng tarqalganligi uning obyektiv mavjudligini isbotlaydi. Chunonchi, o'tgan asrning 20-yillaridayoq L.A.Bulaxovskiy: "Omonimlar boshqa hamma tillardagi kabi lisoniy sathning qonuniy farzandlaridir", deb ta'kidlagan edi[7;48]. Shuningdek, Y.S.Maslov ham buni tasdiqlab, "Omonimik birliklar ming yillar davomida inson aralashuvisiz, o'z-o'zidan shakllangan va har qanday tabiiy tilda uchrovchi hodisalardan biridir" deydi. [8;201]. Tilshunoslik rivojining keyingi bosqichlarida qator olimlar til

sistemasining turli sathlarida omonimiya mavjudligini e'tirof eta boshlashadi (leksemalar, frazeologizmlar, morfemalar doirasida). Bu haqida D. N. Shmelyov tadqiqotlarida ta'kidlab o'tganidek: "Omonimiya hodisasining mavjud yoki mavjud emasligini u yoki bu mantiqiy qurilmalar nuqtayi nazaridan muhokama qilishning ma'nosi yo'q. Bu tilning aniq fakti bo'lib, u o'zining qonuniyligini isbotlashga muhtoj emas. U tushuntirish va o'rganishni talab qiladi, lekin mantiqiy dalillashni emas" [9;87].

Omonimik munosabatlar shu bilan namoyon bo'ladiki, sathlararo mutlaqo har xil mazmun bilan bir xil shaklga ega bo'lgan til birliklari uchraydi. Bu birliklar bir-biri bilan faqat tashqi shaklining o'xshashligi bilan bog'langan. Shuning uchun ham hozirgi zamon tilshunosligida omonimiya formal oppozitsiya deb yuritiladi.

Tilning barcha sathlarida uchrovchi omonimlarning dastlabki ta'riflaridan biri Sh. Balliga tegishli bo'lib, u omonimlarni "bir xil ifodaga ega, ammo turli ma'noli ikkita belgi" deb ta'riflaydi [10;188]. Bu omonimiyaga nisbatan "keng" yondashuv deyish mumkin, chunki bu qarash turli til sathlariga mansub birliklar o'rtasida ham omonimlik yuzaga kelishi mumkin, degan hukmga olib keladi, ya'ni, frazeologik birlikning erkin so'z birikmasi teng kelib qolish holati ham omonimlik deb qaralgan. Omonimiyaning bunday tushunilishi sathlararo omonimiya haqidagi tasavvurga asos bo'ladi. Shunga o'xshash fikrni sal avvalroq V.V.Vinogradov ham ilgari surgan edi: olim frazeologik omonimiyaning ikki turini ajratib ko'rsatgan: 1) ichki frazeologik omonimiya: ikki va undan ortiq frazeologik birliklarning tovush jihatdan o'xshashligi; 2) omonimik muvofiqliklar: frazeologizmlar va erkin so'z birikmalarining tovush jihatdan mos kelishi [11].

Aksariyat tadqiqotchilar Sh. Balli tomonidan taklif etilgan omonimiya tushunchasini omonimlikning muayyan cheklovlarini kiritish orqali toraytiradi. Masalan, V. N.Teliya omonimiyaning majburiy sharti (shuningdek, polisemiya ham, chunki bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liq) sifatida frazeologik birliklarning bir xil sistemaga mansub bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: "Omonimlik munosabatlari, shuningdek, ko'p ma'nolilik faqat sistem jihatdan bir xil sathga mansub bo'lgan birliklar o'rtasida o'rnatilishi mumkin. Shuning uchun, frazeologik omonimlar deb faqat bir sathga mansub bo'lgan iboralarni kiritamiz, masalan: Boshlarini qovushtirmoq – I. Yarashtirmoq. II. Kelin-kuyov qilmoq kabi" [12;76].

Frazeologiya sathida omonimiyaning tan olinishi tadqiqotchilar oldiga frazeologik omonimlarni aniqlash va chegaralash mezonlari masalasini ko'ndalang qo'ydi. Bu mavzudagi tadqiqotlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, shakli bir xil, ammo mazmuni farqli bo'lgan frazeologik birliklarni ajratish va chegaralash mezonlari turli tadqiqotchilarda turlicha ekanligi ma'lum bo'ladi. Ba'zilar omonim frazeologik birliklarning barcha shakllari har tomonlama mos kelishi talabi asosida ajratsa, boshqalari bir necha variantda qo'llanish holatlarini ham omonimlik sifatida ajratadi, uchinchilari esa birliklarning semantik-grammatik xususiyatlarini farqlovchi belgilar sifatida ko'rib chiqadi. Buning natijasida turli tadqiqotchilarda frazeologik omonimlar doirasi va ularning tipologiyasi sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli, ayni bir birliklar ba'zi ishlarda omonim deb tan olinsa, boshqalarida bunday deb hisoblanmasligini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, omonim iboralarning kelib chiqishiga ko'ra ham qator tasniflarni uchratish mumkin: M.I.Sidorenkoning fikricha, frazeologik omonimlarning bir necha turlari mavjud [13;56-58]: 1) gomogen va geterogen omonimlar. Bir etimologik tasvirga borib taqaladigan, polisemantik birliklar o'rtasidagi semantik aloqa uzilishi natijasida yuzaga kelgan birikmalar gomogen hisoblanadi, masalan: Yuragini yormoq – I. Qattiq cho'chitib yubormoq, II. Yuragidagini to'kib solmoq kabi. Geterogen omonimlarga esa bir etimologik ildizga borib tutashmaydigan, bir shaklga ikki xil ma'noning tasodifiy mos kelishidan yuzaga kelgan frazeologik omonimlar kiradi, bunga avvalgi tadqiqotlarimizda ham ko'rib o'tganimizdek, namuna ancha kam, chunki o'zbek frazeologik sathidagi aksariyat omonim iboralar gomogen turkumga kiradi, geterogen omonimiyaga esa o'ng kelmoq frazemasini misol qilish mumkin: I. Qulay kelmoq, to'g'ri kelmoq, II. Voqelikka, chinga aylanmoq kabi ma'no imkoniyatiga ega bo'lgan bu omonim shakl o'z tarkibida omonim leksema [o'ng] tashigani uchun, bu ikki xil ma'no bir semantik ildizga bog'lanmaydi.

2) to'liq va qisman omonimlar. Muallif butun paradigmatikasida komponent tarkibi bir xil bo'lgan birliklarni to'liq omonim deb hisoblaydi. Masalan, barq urib I (Aks etmoq, jilolanmoq) va barq urib II (gurkiramoq, yashnamoq, rivojlanmoq) iborasini shu tipga kiritish mumkin – ibora qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha o'rinlarda farqlilik yaratmaydi. Qisman omonimlarda esa birliklarning qo'llanishida grammatik jihatdan xilma-xillik kuzatiladi, qulog'iga quymoq I (qattiq uqtirmoq) va qulog'iga quymoq II (xotirasida mustahkam saqlamoq) iborasi matn tarkibida nutq vaziyatiga qarab, turli shaxs qo'shimchalari bilan shakllanib kelishi mumkin va shu bois qisman omonimlar safiga kiritsak bo'ladi.

3)bir xil uslubga va har xil uslubga mansub

omonim frazemalar. Bunda iboralar har bir ma'nosi bir xil uslubda yoki turli xil uslubda qo'llanishiga ko'ra farqlanadi: joni bor I (hali tirik, o'lmagan) va joni bor II(gapida asosi bor) iboralari bir xil uslubiy imkoniyatga ega bo'lsa, ko'ngil ochmoq I(xursandchilik qilmoq, dilini xushlamoq) va ko'ngil ochmoq II(dil izhori qilmoq) iboralari qo'llanish uslubiga ko'ra farqli: biri uslubiy betaraf bo'lsa, ikkinchisi, asosan, badiiy uslubda ishlatiladi.

4) faol va nofaol frazeologik omonimlar. Faol frazeologik omonimlarning har bir omonim shakli nutqda qo'llanish jihatdan faol bo'lsa, nofaol omonimlarda biror ma'nosi nutqda aktiv qo'llansa, ikkinchisi eskirgan bo'lib, qo'llanish chastotasi pastroq bo'ladi. O'rnak sifatida qo'l bermoq I(salomlashish uchun qo'lini uzatmoq) va qo'l bermoq II(murid bo'lmoq) iborasini keltirish mumkin, iboraning ikkinchi omonim shakli nisbatan eskirgan bo'lib, nutqda birinchisiga nisbatan kam ishlatiladi.

5)iboralarning omonimlik imkoniyatiga ko'ra ikki a'zoli va ko'p a'zoli frazemalar. Bunda bir iboraning necha xil omonimik doira hosil qilishi e'tiborga olinadi, asosiy qismni esa ikki a'zoli frazeologik birliklar tashkil qiladi. Uch va undan ortiq omonimlikni hosil qiluvchi iboralar esa sanoqli bo'lib, bunga javobini bermoq I(javob qilmoq), javobini bermoq II(haydamoq) va javobini bermoq III(fotiha qilmoq) iborasini o'rnak qilish mumkin.

Ko'rinadiki, frazeologik omonimlar tasnifi frazeologik va leksik omonimiyaning o'zaro munosabati asosida tuzilgan. Bunda tadqiqotchilar leksik omonimiya va frazeologik omonimiyaning bir xil emasligini izchil ravishda ta'kidlaydilar: Leksik va frazeologik omonimlar o'rtasida ularning tipologiyasi nuqtayi nazaridan to'liq muvofiqlik yo'q: frazeologiya tarkibida leksikada mavjud bo'lgan sodda va yasama omonimlar uchramaydi; bundan tashqari, leksik sathda frazeologiyada keng tarqalgan qisman omonimlar yo'q, ya'ni turli xil variantda qo'llanishi mumkin bo'lgan birliklar leksik sathda paronimlar safidan joy oladi. Nihoyat, frazeologik tarkibda ko'p a'zoli omonimik guruhlar juda kam, aksincha, lug'at tarkibida ko'p a'zoli omonimlar esa ko'p uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966.
2. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Номзодлик диссертацияси. – Москва, 1952. Б. 52.
3. Салахова Р. Омонимичные суффиксы татарского языка. – Казань: Гуманитарная, 2007. 190 с. с. 42.
4. Исаченко, А. В. О грамматическом значении [Текст]./ Исаченко А. В.// Вопросы языкознания 1961. №1. 29.с
5. Кочерган, М. П. Лексическая сочетаемость омонимов и лингвистический статус омонимии [Текст]/ Кочерган М. П. // НДВШ. Филол. науки. 1981. №5. 54-с
6. Данеш, Фр. Опыт теоретической интерпретации синтаксической омонимии [Текст] / Данеш Ф. // Вопросы языкознания, 1964.
7. Булаховский, Л. А. Из жизни омонимов [Текст] / Булаховский Л. А. // Русская речь. Нов. сер. – М., 1928. Вып. III. 48-с
8. Маслов, Ю. С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) [Текст] / Маслов Ю.С. // Вопросы теории и истории языка: Сб. в честь проф. Б. А. Ларина. Л., 1963. 201-с
9. Шмелев, Д. Н. Современный русский язык. Лексика. [Текст]/ Шме лев Д. Н. – М. 1977. 87-с.
10. Балли, Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. [Текст] / Ш. Балли – М., 1955. 188-с
11. Виноградов, В. В. Об омонимии и смежных явлениях. [Текст] / Виногра дов В. В. // Вопр. языкознания 1960. №5.
12. Телия, В. Н. Что такое фразеология. [Текст] / Телия В. Н. – М. 1966. 76-с.
13. Сидоренко, М. И. Парадигматические отношения фразеологических еди ниц в современном русском языке. [Текст] / Сидоренко М. И. - Л. 1982. 56-58-с.

Dilafruz MAXMUDOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi
o'qituvchisi

QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLARI BADIIY ADABIYOTDA SAYQALLANISHI

Annotatsiya: badiiy matnda qishloq xo'jaligi terminlarining linvopoetik xususiyatlari ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog'liq holda metaforik ko'chim vazifasida yoki o'xshatishli qurilmalar tarkibida kelib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishi xususida bahs yuritilganligi bilan qimmatli.

Kalit so'zlar: *qishloq xo'jaligi terminlari, badiiy matn, linvopoetik, metafora, badiiy-estetik butunlik, poetik aktuallashish.*

Annotation: the lingupoetic features of agricultural terms in the artistic text are discussed in connection with the artistic thinking of the creator in the function of metaphorical transfer or in the composition of simile devices, and the realization of the linguopoetic purpose.

Key words: *agricultural terms, artistic text, linvopoetic, metaphor, artistic-aesthetic whole, poetic actualization.*

Аннотация: лингвоэтические особенности сельскохозяйственных терминов в художественном тексте рассматриваются в связи с художественным мышлением творца в функции метафорической передачи или в составе сравнительных приемов и реализации лингвопоэтической цели.

Ключевые слова: *сельскохозяйственные термины, художественный текст, лингвопоэтика, метафора, художественно-эстетическое целое, поэтическая актуализация.*

« Har birimiz bizni dunyoga keltirgan va bizga o'zining eng muqaddas boyligi — tilini hadya qilgan xalqimizdan bir umr qarzdor ekanligimizni hech qachon unutmasligimiz shart, Agar biz o'z ona tilimiz, uning rivoji haqida jiddiyroq o'ylamasak, bora-bora uning yo'qolib ketishi hech gap emas. Tarixdan shu narsa ma'lumki, tilning yo'qolishi oson, yo'qolgan tilning esa qayta paydo bo'lishi amrimahol. Yangi tillar vujudga keladigan zamonlar allaqachonoq o'tib ketgan. Shuning uchun ham mavjud. tilimizni asrab avaylashimiz, uni rivojlantirishimiz kerak [1].

Ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat bejizga: " Go'zal san'atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bulsa, go'zal san'at musiqiy bo'ladir; buyoqlar, chiziqlar bo'lsa, rasm bo'ladir; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik buladir; tosh, yog'och, kirpich, ganj, tuproq bo'lsa, me'morliq bo'ladir; tan, myg'a (muqom, mimika) harakatlari esa, o'yun (tans) bo'ladir; gap, so'z esa, adabiyot bo'ladir" deb juda chiroyli tarzda adabiyotga ta'rif beradi: "Adabiyot - fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir [2].

Ma'lumki, terminologik tizimlar fan tilining asosini tashkil etadi. Terminlar yozuvchilar, shoirlar tomonidan badiiy matnda qo'llanilib, ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog'liq holda metafora, o'xshatish vazifasida qo'llanilib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Hech bir termin alohida olinganda, lingvopoetik qimmatga ega bo'lmaydi, va u bu qimmatni faqatgina matn ichida, boshqa so'zlar bilan bog'langandagina o'zida aks ettira oladi.

Agar nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, qishloq xo'jaligi atamalari, mashina qismlari hamda buyum asboblarini anglatish uchun xoslangan ko'z, oyoq, qadam, barmoq, qo'ltiq, to'siq, qobirg'a, og'iz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, panja, musht, tuynuk, til, tish, ketmon, traktor kabi so'zlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu so'zlar o'zlarining birlamchi ma'nosini yo'qotib, yakka ma'noli ilmiy atamaga aylanadi, badiiy matnlarda esa ko'p ma'noli bo'lib kelishini ko'ramiz.

Jumladan, qishloq xo'jaligi terminlarini badiiy adabiyotda qo'llash ushbu soha terminlariga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Bu o'rinda qishloq xo'jaligi terminini alohida qaraydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi bu birlamchi tarmoqning iqtisodiy faoliyatidir. U atrof-muhitni yanada moslashtirish uchun uni o'zgartirishga qaratilgan barcha xatti-harakatlarni qamrab oladi hamda shu bilan tuproqning yuqori unumdorligini hosil qiladi. Bundan tashqari, u to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilish yoki undan keyin sanoatni qayta ishlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi, natijada qo'shimcha qiymatga ega bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi dastlab tosh asri neolit davrida rivojlangan, garchi uning kelib chiqishi tarixdan boshlangan va turli madaniyatlar tomonidan mustaqil ravishda rivojlangan bo'lsada, unga qadar odamlar faqat ovchilik, baliqchilik va ko'chmanchilik bilan shug'ullanishgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaradigan mahsulot hajmiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

Yordamchi dehqonchilik: ushbu qishloq xo'jaligining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning past darajasini

saqlab qolishdir. Yagona maqsad barqaror jamoani boqishdir va bu odamlar sonini kamaytiradi. Bu juda past ishlab chiqarish bo‘lgani uchun, odatda tuproqning katta o‘zgarishiga olib kelmaydi.

Sanoat qishloq xo‘jaligi: bu tuproqdan katta hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Bu nafaqat inson ehtiyojlarini qondirishni kafolatlaydigan, balki boshqa mamlakatlarga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishning ortiqcha qismini tijoratlashtirishga intiladigan sanoatlashgan va rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Qishloq xo‘jaligining boshqa turlari ishlab chiqarish jarayonida suvning ahamiyatiga asoslanadi. Bular quyidagilar:

Sug‘orish: bu qishloq xo‘jaligining asosiy turi, chunki u sug‘orish tizimiga ega va sug‘orishda turli tabiiy va sun'iy usullardan foydalanadi. Bu yerdagi barcha turlar doimiy suvga muhtoj. Eng yaxshi ma'lum sug‘orish tizimlaridan biri bu tomchilatib sug‘orishdir.

Yomg‘ir: bu yerda sun'iy ravishda sug‘orish kerak emas, ammo ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan namlik yomg‘ir bilan ta'minlanadi. Fermerning aralashishiga hojat yo‘q.

Amaldagi ishlab chiqarish vositalariga va ularning ishlash ko‘rsatkichlariga qarab qishloq xo‘jaligining boshqa turlari farqlanadi:

Ekstensiv qishloq xo‘jaligi: ekstensiv qishloq xo‘jaligining maqsadi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki tuproqni parvarish qilishdir. Buning sababi shundaki, eroziya yerlarining katta maydonlaridan foydalaniladi va ishlab chiqarish darajasi pastroq bo‘ladi. Ekstensiv qishloq xo‘jaligining asosiy afzalligi shundaki, tuproqlar buzilmaydi va u bunday katta ta'sirga ega emas.

Intensiv qishloq xo‘jaligi: asosiy maqsad yerdagi juda kichik maydonda oziq-ovqat mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarishdir. Madaniyatning bu turi atrof-muhitga zarar yetkazadi, chunki u tuproqning sifatini pasaytirib, unumdorligini yo‘qotishiga olib keladi. Odatda u barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo‘llaniladi.

Asosiy maqsadda qo‘llaniladigan texnikaga qarab, qishloq xo‘jaligining boshqa turlari ham mavjud:

Industrial: ushbu ishlab chiqarish shakli mahalliy bozorda va ortiqcha eksport qilish uchun ko‘p miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini olishga qaratilgan.

Ekologik qishloq xo‘jaligi: uning ustuvorligi atrof-muhitni o‘zgartirish va ta'sirlarni minimallashtirish emas. Tuproqni parvarish qilish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak va buning uchun tegishli usullar va texnologiyalar qo‘llaniladi.

An'anaviy qishloq xo‘jaligi: bu asosan ma'lum bir mintaqaning mahalliy texnikasidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Ushbu usullarning barchasi joy madaniyati tufayli avloddan-avlodga tarqaldi.

Terminlarning, jumladan qishloq xo‘jaligi terminlarining badiiy matnda poetik aktuallashish imkoniyatlarini ayrim misollarda ko‘rib o‘tamiz:

Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida chanoq so‘zi

1)o‘yib yasalgan kichik hajmdagi yog‘och idish;

2)kosa, tovoq, lagancha ma’nolarida qo‘llangan;

Bu leksema eski o‘zbek adabiy tilida hayvonlar suv ichadigan idish ma’nosini anglatgan [3].

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida ham qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan terminlar uchraydi. Masalan, besh dostondan iborat “Xamsa” dostonining “Farhod va Shirin ” dostonida “tesha” atamasi ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin:

Bu xoro tesha birla bo‘lmas afgor,

Nechukkim tesha metin aylamas kor.

Bu yerda ustachilik va xo‘jalikda ishlatilgan buyumlarning maydalashda ishlatiluvchi buyum ma’nosida kelganiga guvoh bo‘lamiz.

Shuningdek, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida urush davridagi qishloq aholisining hayoti tasvirlangan. Unda front ortidagi ayollarning mashaqqatli mehnati, qishloq hayotida kerak bo‘ladigan barcha mehnat qurollarini badiiy tilda yorqin tasvirlanganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan: Bultur traktor tepib, bir oy azob chekkanim yodimga keldi... [5]

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki, badiiy matnda qo‘llangan qishloq xo‘jaligi terminlari ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog‘liq holda metaforik ko‘chim vazifasida yoki o‘xshatishli qurilmalar tarkibida kelib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Buyuk adib P.Qodirov ta’kidlaganidek, “Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g‘ishtdan, oynadan, po‘latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po‘lat va g‘ishtning ham o‘rniga badiiy so‘z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo‘yoqlar vositasi bilan emas, so‘zlar vositasi bilan yaratilishida ko‘rinadi [7]. Demakki, hech qanday termin alohida olinganda lingvopoetik qimmatga ega bo‘lmaydi. Qachonki terminlar bu xususiyatini faqat matn qurshovida, boshqa so‘zlar bilan munosabatda namoyon qila olsagina o‘zining badiiy qiymatini orttiradi. Shu bois qishloq xo‘jaligi terminlarining ham ma’noviy xususiyatlarini badiiy matnda aniqlash yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tili va adabiyoti.1987. 2-son. 3—9-betlar.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2006. 12-13-betlar.

3. (DTS 1969.138.).
4. O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi” –Toshkent-2015
5. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligiga oid terminlarning uslubiy xoslanish imkoniyatlari M.D.Alijonovna Qo‘qon DPI. ilmiy xabarlar 3, 169-174
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2006. 12-13-betlar.

Sitorabonu ATAULLAYEVA,
Ingliz tili o’qituvchisi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o’zbek tili va adabiyoti universiteti
sitorabonuataullayeva@gmail.com

ABDULLA QAHHOR – REALIZM USULIBINING USTASI

Annotatsiya: mazkur maqola Abdulla Qahhor ijodini adabiyotda o‘rganish masalasiga bag‘ishlanadi. Unda yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati, asarlaridagi asosiy mavzular, adabiy uslubi va uning o‘zbek adabiyotiga ta’siri keng tahlil qilinadi. Shuningdek, Abdulla Qahhor ijodining xalqaro adabiyotshunoslikda va zamonaviy o‘zbek madaniyatidagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: *uslub, syujet, voqealar rivoji, hikoya, ramziylik, obraz, personaj, motiv, an’ana.*

Annitation:this article is devoted to studying Abdulla Kahhor's work in literature. It extensively analyses the writer's life and creative activity, the main themes of his works, his literary style, and his influence on Uzbek literature. It also considers the place of Kahhor's work in international literary studies and modern Uzbek culture.

Keywords: *style, plot, development of events, story, symbolism, image, character, motive, tradition.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению творчества Абдуллы Каххора в литературе. В ней подробно анализируются жизнь и творческая деятельность писателя, основные темы его произведений, его литературный стиль и влияние на узбекскую литературу. Также рассматривается место творчества Каххора в международном литературоведении и современной узбекской культуре.

Ключевые слова: *стиль, сюжет, развитие событий, сюжет, символика, образ, персонаж, мотив, традиция.*

Abdulla Qahhor – XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodi realizm yo‘nalishida yuqori badiiylik darajasiga erishgan. U o‘zbek nasrini yangi bosqichga olib chiqib, xalq hayotining muhim jihatlarini badiiy tasvir orqali chuqurroq yoritdi. Uning ijodi o‘z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi adabiy asarlar to‘plamidan iborat bo‘lib, inson ruhiyati va jamiyat hayotining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatishda yetakchi rol o‘ynadi.

Abdulla Qahhorning hikoyalari, qissalari va romanlari xalqning ma’naviy ehtiyojlariga mos ravishda shakllangan. Uning asarlarida insoniylik, adolat va haqqoniylik masalalari bosh mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u ijtimoiy tengsizlik va inson tabiatining murakkab jihatlarini yoritishda katta badiiy mahorat ko‘rsatgan.

Qahhor ijodining alohida xususiyati uning sodda, ammo mazmunan chuqur tasvir uslubida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi o‘z asarlarida xalq tiliga yaqin, hayotiy voqealarni haqqoniy aks ettirgan holda milliy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan. Ayniqsa, uning hikoyalari o‘z qisqaligi, lakonikligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Abdulla Qahhor (1907–1968) o‘zbek adabiyotining ulug‘ vakillaridan biri bo‘lib, o‘z asarlari orqali milliy adabiyotning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchilardan sanaladi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati xalq hayotining turli jabhalarini tasvirlash, milliy va universal qadriyatlarni aks ettirishga qaratilgan. Yozuvchining shaxsiy hayoti, ijodiy shakllanishi va asarlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish Qahhorni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Yozuvchining asarlarida zamon voqeliklari va ijtimoiy masalalar haqqoniy yoritilgan. Bu holat u yashagan davrning murakkab siyosiy sharoitida adibning jasoratini ko‘rsatadi. Masalan, “Sarob” romani qishloqning yangi hayotga o‘tish jarayonidagi ijtimoiy va shaxsiy muammolarni ochib beruvchi asar sifatida tanildi.

Abdulla Qahhorning asarlarida hayotiy voqealarning haqqoniy va aniq tasvirlanishi asosiy o‘rin tutadi. U yozuvchilik faoliyatida realistik uslubga asoslanib, o‘quvchini hayotning eng oddiy ko‘rinishlari orqali chuqur mulohazalarga chorlaydi. Yozuvchining

hikoyalari qisqaligi bilan ajralib turadi, ammo bu qisqa shakl o‘z ichida chuqur mazmunni yashiradi.

Uning lakonik va mazmunli uslubi zamondosh adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholangan. Adib xalq hayotini sodda, ammo ta’sirchan qilib tasvirlay olgani uchun o‘z davrining yetakchi yozuvchilaridan biri sifatida tanilgan.

Abdulla Qahhorning ijodiy merosi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. U xalqning hayoti va turmush tarzini haqqoniy aks ettirib, o‘z asarlari orqali insoniy qadriyatlarni targ‘ib qildi. Adibning hikoyalari va romanlari o‘zbek adabiyotida yangi mavzular va yangi qahramonlarni olib kirdi. Shuningdek, uning asarlari orqali o‘zbek milliy adabiyoti jahon adabiyoti bilan uyg‘unlikda rivojlandi.

Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyati uning shaxsiy dunyoqarashi, mahorati va millatga bo‘lgan muhabbatining ifodasidir. U milliy adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan ijodkor bo‘lib, uning asarlari zamonaviy o‘quvchilar uchun ham dolzarb va qiziqarli bo‘lib qolmoqda.

Abdulla Qahhor ijodining asosiy mavzulari

Abdulla Qahhor ijodi mazmunan boy va rang-barang bo‘lib, u o‘z asarlarida inson, jamiyat va tabiatning bir-biriga bog‘liq jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Yozuvchi realistik yo‘nalishda ijod qilib, zamonasining dolzarb ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy masalalarini yoritgan. Qahhorning asarlarida uchraydigan asosiy mavzular quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalari

Abdulla Qahhor o‘z asarlarida jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik masalalarini chuqur yoritgan. Ayniqsa, qishloq hayoti, dehqonlarning qashshoqlikdagi kurashi, boy va kambag‘allar o‘rtasidagi ziddiyatlar uning qahramonlari hayotida aks etgan.

Masalan, “Sarob” romani qishloqdagi ijtimoiy muhitni tasvirlaydi. Bu asarda qahramonlar yangi hayot sari intilsalar ham, eski urf-odatlar, tengsizlik va korrupsiya ularni oldinga siljishga to‘sqinlik qiladi. Romanda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning ta’siri va bu jarayonning murakkabligi haqqoniy yoritiladi.

Shuningdek, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanida yangi qurilayotgan kolxoz hayotidagi qiyinchiliklar, odamlarning turmush tarziga bo‘lgan intilishlari orqali inson va jamiyatning murakkab o‘zaro aloqasi ko‘rsatiladi. Qahhor boy va kambag‘alning jamiyatdagi o‘rnini, yangi ijtimoiy hayotga moslashish jarayonida yuzaga kelgan keskinliklarni badiiy tasvir orqali ochib beradi.

2. Milliy qadriyatlar va zamonaviylikning to‘qnashuvi

Abdulla Qahhor ijodining yana bir muhim mavzusi milliy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatdir. Yozuvchi bu mavzuni milliy oila, urf-odatlar va jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlar kontekstida yoritadi.

“O‘g‘ri” hikoyasi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Hikoyada o‘g‘rilikni amalga oshirgan qahramonning ruhiy kechinmalari orqali ma’naviyat va adolat haqida mulohaza yuritiladi. Ushbu hikoya o‘quvchini insonning axloqiy qadriyatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni haqida o‘ylashga undaydi.

“Bemor” hikoyasi esa milliy urf-odatlar va insoniy munosabatlarni yangi yondashuvda ochib beradi. Asarda kasallikka chalingan qahramonning ruhiy kechinmalari orqali sog‘liq, jamiyat va inson munosabatlari tasvirlanadi. Bu hikoya inson qadriyatlarining universal mohiyatini ko‘rsatadi.

3. Inson ruhiyati va ichki ziddiyatlar

Qahhorning ijodida inson ruhiyati, ichki dunyosi va ziddiyatlari alohida o‘rin tutadi. U o‘z qahramonlari orqali insonning ichki kechinmalari, hayotdagi murakkab qarorlar va shaxsiy rivojlanish yo‘lini tasvirlagan.

Masalan, “Anor” hikoyasida anor mevasi orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va ularning jamiyat bilan munosabatlari ochib beriladi. Anor mevasi go‘zallik va armon timsoli sifatida tasvirlanib, hikoya o‘quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi.

Shuningdek, “Bemor” hikoyasida kasallik holati insonning ichki dunyosini ochib berish uchun metaforik vosita sifatida ishlatiladi. Bu asarda yozuvchi hayot va o‘lim, insoniylik va mas’uliyat kabi muhim mavzularni ko‘taradi.

4. Qishloq hayoti va oddiy odamlarning turmushi

Abdulla Qahhor asarlarida qishloq hayoti va oddiy odamlarning turmushi markaziy o‘rin tutadi. Yozuvchi oddiy odamlar hayotini tasvirlab, ularning kundalik qiyinchiliklari, orzulari va kurashlarini yoritadi.

“Og‘riq tishlar” hikoyasi qishloq hayotining kulgili, ammo haqqoniy tasvirini beradi. Asarda bir qarashda kulgili bo‘lib tuyulgan voqea orqali qishloq aholisi hayotining murakkab tomonlari ochib beriladi. Qahhorning bunday asarlari uning xalq hayotini chuqur anglashini va o‘quvchilarga haqqoniy ko‘rsatishni maqsad qilganini isbotlaydi.

5. Satira va yumor orqali tanqid

Qahhor ijodida satira va yumor muhim o‘rin tutadi. U o‘z zamonasidagi ijtimoiy muammolarni ochib berish uchun satirik va yumoristik uslubdan mohirona foydalangan.

Masalan, “Muhabbat” hikoyasi o‘zbek oilaviy munosabatlarini tanqidiy va kulgili tarzda tasvirlaydi. Bu hikoyada yozuvchi o‘quvchini kuldirgan holda, uni hayotning jiddiy muammolari haqida o‘ylashga undaydi.

Abdulla Qahhorning yumori nafaqat kulgi, balki ijtimoiy o‘tkir masalalarga e’tibor qaratish vositasi bo‘lgan. U o‘z asarlarida satira yordamida nafaqat individual xatolarni, balki jamiyatning tizimli kamchiliklarini ham ochib bergan.

Abdulla Qahhor ijodidagi asosiy mavzular uning ijtimoiy va badiiy e’tiqodlarini aks ettiradi. U xalq hayotining murakkab tomonlarini haqqoniy yoritib, insonning ichki dunyosini va jamiyatdagi o‘rnini badiiy

yuksaklikda tasvirlashga erishgan. Bu mavzular adibning ijodini nafaqat o‘z davri, balki bugungi kunda ham dolzarb qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.А. А. Бурцев, М. А. Бурцева. Концепция человека в рассказахКэтринМэнсфилд.2017,С.191
2.Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее рассказы. Cm.: Кетрин Менсфилд. Рассказы. Перевод с англ. Москва. Книга. 1989, стр.13
3.А.П. Чехов. Страх. Cm.: А.П.Чехов. Рассказы. Moskva, 1992, стр.357
4.Dilmurod Quronov. Ilhom bilan yozilgan asar. Qarang: “Jahon adabiyoti” jurnali. 2007, № 5, 35-b.
5.Г.Т. Гарипова. Сравнительный анализ рассказов А. Чехова “Страх” и А. Каххара “Страх”. Cm.: Журнал “Преподавание языка и литературе”, 2012, № 8, стр. 40.
6.Абдулла Қаҳҳор: шахс ва ижодкор. (Архив қўлѐзмалари ва хотиралар асосида мақолалар тўплами). – Т.: Тамаддун, 2013. – 160 б.
7.Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.51-56.
8.Brunettière F. Évolution des genres dans l‘histoire de la littérature. – P., 1890.
9.Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриѐт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 364 б.
10.Кодуэлл К. Иллюзия и действительность. – М.: Прогресс, 1969. – 364 с

Doniyor ALIBEKOV,
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti ingliz tili o‘qituvchisi
mail: a_doniyor@mail.ru

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘XSHATISH VOSITASIDA HOSIL BO‘LGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ma’lumki, frazeologik birliklar har qanday tilning ajralmas qismi bo‘lib, frazeologiyani o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Frazeologizmlarning paydo bo‘lishida metafora, metonimiya singari tilning stilistik vositalari bilan bir qatorda shunday til vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatish ham alohida ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada zamonaviy frazeologiyaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning o‘xshatish vositasida paydo bo‘lishi hamda semantik-strukturaviy xususiyatlari chog‘ishtirma tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, turg‘un birikma, komparativ frazeologik birlik, qiyosiy bog‘lovchi, komponent, subyekt, obyekt, farqlovchi, ko‘chma ma’no.*

Аннотация: известно, что фразеологизмы являются неотъемлемой частью любого языка, а изучение фразеологии является одним из важных вопросов современного языкознания. Наряду с такими стилистическими средствами языка, как метафора и метонимия, особое значение в возникновении фразеологизмов имеет сравнение, являющееся одним из таких языковых средств. В данной статье изучается один из актуальных вопросов современной фразеологии формирование фразеологизмов в английском и узбекском языках посредством сравнения и семантико-структурные особенности передачи значения.

Ключевые слова: фразеологическая единица, устойчивое выражение, адъективный фразеологизм, *сравнительный союз, компонент,* субъект, *объект, дифференциатор, переносное значение.*

Annotation: it is common knowledge that phraseological units are an integral part of any language, and the study of phraseology is one of the important issues of modern linguistics. Along with stylistic devices of the language such as metaphor and metonymy, similie plays an essential role in the formation of phraseological units and set expressions. This article discusses the formation and semantic and structural features of phraseological units in English in comparison with Uzbek by means of similie as a type of meaning transference, which is one of the topical issues of modern phraseology.

Key words: *phraseological unit, set expression, comparative phraseological unit, comparative connector, component, subject, object, differentiator, transferred meaning.*

Kirish. Frazeologiya odatda, tilning frazeologik qatlami, ya'ni to'liq yoki qisman ma'no o'zgarishiga uchragan ikki yoki undan ortiq leksik birliklardan tashkil topgan til birliklarini o'rganuvchi tilshunoslik tarmog'i sifatida ta'riflanadi. Ushbu fan xususida so'z borganda rus tilshunosi A.V Kuninning quyidagi ta'rifini keltirish o'rinli: "Frazeologiya - frazeologik birliklar, ya'ni o'zgaruvchan birikmalarning generativ tarkibiy-semantik modellariga ko'ra shakllanmagan murakkab semantikaga ega so'zlarning barqaror (turg'un) birikmalari haqidagi fandir". [5; 4] Zamonaviy tadqiqotchilar T.A. Glotova, M.T. Bekoyeva hamda T.G. Tsakaldi singari tilshunoslar guruhi frazeologiyani tilning frazeologik tizimini hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi til to'g'risidagi fanning bir bo'limi sifatida e'tirof etadilar. [4; 9]

Frazeologiya va frazeologik birlik haqida so'z borganda o'zbek tilining frazeologik lug'atida quyidagi jumlalarni ko'rish mumkin: "Til qurilishining lug'at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Til qurilishining lug'at sathidagi frazeologik qatlam (uni o'rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi. Ilmiy tadqiqotlarda frazeologiyaning hajmini keng va tor tushunish kuzatiladi. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga, so'zlarning turg'un birikmalaridan tashqari, maqol, matal, aforizm ham mansub, deb qaraladi. Frazeologiya sifatida so'zlarning semantik bog'lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so'zlarning turg'un birikmalarini – til birligi, deb baholash mumkin". [8; 7]

Tildagi turli lisoniy vositalar ba'zan tilning nolisoniy omillari bilan chambarchas bog'liq holda frazeologik birliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday lisoniy vositalar qatoriga metafora, metonimiya, sinekdoxa, eyfimizm singari leksik ma'no ko'chishi yordamida hosil bo'luvchi til birliklariga o'xshatish vositasini ham kiritish mumkin. Barcha frazeologik birliklar ikki sathli – shakl va mazmun asosida shakllanganligidek, o'xshatish uslubiy vositasida shu kabi jihatni kuzatish mumkin, ya'ni o'xshatish asosida shakllangan frazeologizmning ayrim komponenti o'z ma'nosida qo'llanilsa, boshqa qismi ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Ushbu stilistik vositaning mohiyatini uning nomidan anglash qiyin emas. Turli xil hodisalar sinfiga mansub bo'lgan ikki tushuncha biror bir jihatiga ko'ra bir-biri bilan qiyoslanadi va bu qiyos ayrim so'z yoki boshqa lisoniy birlik (ingliz tilidagi as, such as, as if, like, seem va o'zbek tilidagi kabi, singari, misoli, …dek singari) yordamida rasmiy ifodani oladi. O'xshatish uslubiy vositasining zaruriy sharti bo'lib, biror bir o'xshashlikka xizmat qiladi.[3; 169]

O'zbek tilshunoslaridan R. Qo'ng'urovning mazkur til vositasi xususidagi quyidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega: "Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qimmatini yo'qotgandir. Bu tipdagi o'xshatishlarga lingvistik hodisa sifatida qarash kerak". [11;42]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Turli tillardagi frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar so'nggi yillardagi tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda tez-tez uchraydi. Shunday ilmiy izlanishlar orasida o'xshatish til vositasi yordamida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning turli jihatlarini o'rganish ham alohida o'ringa egadir. Frazeologiyada bunday frazeologizmlar odatda, komparativ frazeologik birliklar (KFB) atamasi bilan nomlanadi. Qiyosiy semantikaga ega bo'lgan tilda bir butunlikni hosil qiluvchi va o'zining strukturaviy va sintaktik jihatlariga ko'ra qiyosiy bog'lovchilar ko'rinishidagi formal xususiyatlarni tavsiflovchi nutqning bunday turg'un birikmalari komparativ frazeologik birliklar deyiladi. [9; 13]

Mazkur turdagi frazeologizmlar ham alohida til doirasida, ham ikki, hattoki uch til doirasida chog'ishtirma tadqiq etilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Xususan, rus tilshunosi O.M. Nevedomskaya [7] ikki til - nemis va rus tillarining KFBni solishtirsa, N.I. Demyanovich [1: 257] o'xshatish vositasida hosil bo'lgan frazeologik birliklarning qardosh bo'lgan uch – rus, chex va slovak singari slavyan tillari materiali asosida tadqiqot olib boradi. Mazkur sohaga doir yana bir tadqiqot I.V. Kuznetsova [6; 224] tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, muallif slavyan tillari sanaluvchi rus, ukrain va serb-xorvat tillaridagi o'xshatish asosida paydo bo'lgan frazeologizmlarning o'ziga xos jihatlarini chog'ishtirma tahlil qiladi. Mazkur turdagi frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan eng so'nggi tadqiqotlardan biri S.P. Saparovga [10; 62] tegishli bo'lib, muallif ingliz va qoraqalpoq tillaridagi o'xshatish asosida yasalgan turg'un birikmalarning lingvokonseptual, leksik hamda semantik xususiyatlarini chog'ishtirma tahlil qiladi.

Frazeologizmlar so'zlarga qaraganda ancha murakkab leksik birliklar bo'lganligi bois ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganish maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Tilning frazeologik qatlami nihoyatda murakkab bo'lganligi sababli frazeologik birliklarni tadqiq etishda aynan bitta maxsus metoddan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Biroq "frazeolog qanday maxsus tadqiqot metodidan foydalanmasin, u dialektikaning qoidalaridan foydalanadi, uning tamoyillari frazeologiya sohasida konkretlashtiriladi". [5;16] Frazeologiya tarixida N.N. Amosova (kontekstologiya metodi), V.L. Arxangelskiy (variatsion metod), S.G. Gavrin (komplikativ metod) singari ko'plab tilshunoslaar tomonidan olg'a

surilgan turli tadqiqot metodiga guvoh bo‘lish mumkin. Mazkur tadqiqotda A.V. Kunin tomonidan kashf etilgan frazeologik tasvirlash metodi hamda D.O. Dobrovolskiy tomonidan ishlab chiqilgan tilning frazeologik tizimlarni tahlil qilishning strukturaviy-tipologik metodi qo‘llaniladi. [2] Bundan tashqari, o‘xshatish vositasida yasalgan frazeologik birliklarning komponent tarkibining transformatsiyasi ham qo‘llaniladi. Mazkur tadqiqotda frazeologizmlar struktura sifatida taqdim etilib, ularning birinchi komponenti ko‘p hollarda sifat so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, odatda, o‘z ma’nosida qo‘llanilsa, ikkinchi komponenti asosan, ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, u ko‘chma ma’noni ifodalaydi.

Natijalar. O‘xshatish asosida yasalgan frazeologizmlar boshqa qiyoslash turlari kabi ikki sathliligi (planliligi) bilan ajralib turadi: biri boshqasi bilan solishtiriladi. Ingliz tilidagi bunday frazeologizmlarning birinchi komponenti, yuqorida ta’kidlanganidek, asosan, sifat so‘z turkumiga tegishli so‘z tub ma’nosida qo‘llanilsa, ikkinchi komponentning vazifasi ma’noni kuchaytirishni ifodalash sanaladi, chunki ikkinchi komponent birinchi komponent tomonidan ifodalangan belgi-xususiyat darajasini ko‘rsatadi. Frazeologik birlik tarkibidagi birinchi komponent o‘xshatish asosi bo‘lsa, ikkinchisi o‘xshatish obyekti hisoblanadi hamda ular ko‘pincha **as** bog‘lovchisi yordamida bog‘lanadilar. Bundan tashqari, qiyoslash subyekti mavjud bo‘lishi mumkinligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim, u asosan, o‘zgaruvchan element bo‘lib, gapda ko‘pincha ega vazifasida keladi. Masalan, ingliz tilidagi “Gertrude Morel was very ill when the boy was born. Morel was good to her, **as good as gold**” gapida **Gertruda Morel** – qiyoslash subyekti, **good** – qiyoslash asosi, **gold** – o‘xshatish obyekti, **as** – bog‘lovchi vazifada keladi.

Bundan tashqari, bo‘lovchi sifatida **like, than** singari so‘zlar ham uchraydi. Ingliz tilidagi qiyoslash asosida yasalgan frazeologik birliklar sintaktik strukturasiga ko‘ra turlari quyidagi jadvalda keltiriladi.

1-Jadval. Ingliz tilidagi o‘xshatish asosida yasalgan frazeologizmlarning sintaktik strukturaviy tuzilishi.

Yasalishi	Misol
as sifat + as + sifat	as good as new
as sifat + as + sifat + ot	*as quiet as a church mouse*
as sifat + as + sifatdosh + ot	*as pure as the driven snow*
as sifat (ravish) + as + gap	*as solid as the ground we stand on*
as sifat +as + gerundiyli birikma	*as quick as lightning*
qiyosiy darajadagi sifat+than+sifat	*more dead than alive*
qiyosiy darajadagi sifatdosh+than+ot	*more honoured in the breach than the observance*
like+son+ot	*like two peas in a pod*
like+gerundiy+ot	*like threading a needle*

O‘zbek tilida o‘xshatish asosiga qurilgan frazeologik birliklar tez-tez uchraydi. Mazmun jihatdan ingliz tilidagi frazeologizmlar singari ko‘chma ma’noni ifodalasa-da, shaklan ingliz tilidagi ekvivalentlaridan nisbatan farqlanadi. Xususan, ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek tilidagi o‘xshatish asosida yasalgan frazeologik birliklarning birinchi komponenti ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, o‘xshatish obyekti sanalsa, ikkinchi komponenti o‘z ma’nosida qolib, o‘xshatish asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘xshatish asosi va obyekti esa **go‘yo, kabi, singari, misli, misoli, o‘xshash** singari ko‘makchi so‘zlar hamda **-dek (-day)** qo‘shimcha yordamida yasaladi,

2 - Jadval. O‘zbek tilidagi o‘xshatish asosida yasalgan frazeologizmlarning sintaktik strukturaviy tuzilishi.

Yasalishi	Misol
ot+dek (day) + sifat	kundek (kunday) ravshan
qaratqich kelishigidagi ot + ot+dek (day)	Bo‘zchining mokisiday
ot+dek (day) + sifat	zahardek achchiq
ot+dek + fe’l	Do‘mbiradek shishmoq
son + ot+dek (day) + sifat	O‘n to‘rt kunlik oydek go‘zal

son + ot+dek (day) + fe'l	besh qo'ldek bilmoq
Qo'shma ot+dek sifat	aka-ukadek yaqin
ot + sifatdosh+dek + sifat	mum tishlagandek jim
xuddi + ot	xuddi azroil
mis(o)li + ot	misli ajdar
Go'yo + (qo'shma) ot + kabi + fe'l	Go'yo yosh bola kabi aldanmoq

Muhokama. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi o'xshatish asosida yasalgan frazeologik birliklarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Komparativ frazeologik birliklar asosan, **as, like, than** singari bog'lovchi va ko'makchilar yordamida yasaladi. O'zbek tilidagi mazkur turdagi frazeologizmlar esa strukturasiga ko'ra juda xilma-xil bo'lib, frazeologik birlik yasalishida **go'yo, kabi, singari, misli, misoli, o'xshash** singari ko'makchi so'zlar hamda **-dek (-day)** qo'shimcha qatnashishi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir frazeologik birlik bir nechta sintaktik strukturaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi **boladay** o'xshatishi *xuddi boladay, xuddi yosh boladay, go'yo (yosh) boladay, yosh bola kabi, yosh bola singari* bir nechta variantlarga ega. Misol sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin:

Ayol kishi aksar sodda bo'ladimi, go'lmi, **boladek** ishonuvchanmi… (O. Muxtor.)

Bu qadar **bola kabi** beg'ubor bo'lmasa, bu Boboturk degani. (N. Qobul)

Uning kulgusi … **yosh boladay** beozor, qo'yday yuvosh… (O. Yoqubov)

Esimni taniganimdan beri amal demay, mansab demay … uch-to'rt manfaatparastlardan **go'yo yosh bola** kabi aldandim. (A. Qodiriy)

Baxtiyor **xuddi yosh boladek** pish-pish qilib beozor uxlardi. (M. Hazratqulov)

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillaridagi o'shatish til vositasi asosida yasalgan frazeologik birliklar har ikki til boyligining ajralmas qismi bo'lib, ular til tarkibida muhim ahamiyatga egadir. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni alohida ta'kidlash mumkinki, sintaktik strukturasiga ko'ra o'zbek tilidagi o'xshatish yoki qiyos asosida paydo bo'lgan frazeologizmlar ingliz tilidagi ekvivalentlariga solishtirganda ancha xilma-xil va murakkab shaklga ega ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Demyanovich, N.I. (1980). Rus, chex va slovak tillarida holatni ifodalovchi turg'un o'xshatishlar (qiyosiy tahlil): Filol. fan. nomzod. dissert. – Leningrad.
2. Dobrovolskiy, D. O. (1990). Idiomalar tipologiyasi. *Rus tilining mashina fondidagi frazeografiya.* – Moskva, 48–64.
3. Galperin, I.R. (1958). Ingliz tili stilistikasidan ocherklar. – Moskva.
4. Glotova, T.A., Bekoyeva, M.T., & Tsakaldi, T.G. (2019). Umumiy frazeologiya nazariyasi: o'quv qo'llanma. – Vladikavkaz.
5. Kunin, A.V. (1996). Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi. – Moskva.
6. Kuznetsova, I.V. (1995). Rus tilidagi turg'un o'xshatishlar (ukrain va serb-xorvat tillari bilan qiyosan): Filol. fan. nomzod. dissert. – Sankt-Peterburg.
7. Nevedomskaya, O.M. (1973). Nemis tilidagi komparativ frazeologik birliklarning rus tilidagi ekvivalentlari bilan qiyosi: Filol. fan. nomzod. dissert. – Leningrad.
8. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O'razova, I., & Rixsiyeva. K. (2022). O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom.
9. Royzenzon, L.I., & Shugurova Z.I. (1968). Komparativ frazeologiya va leksikografiyaning nazariy muammolari. *Frazeologik lug'atlar tuzishning frazeologiyaga oid masalalari*. – Baku.
10. Saparov, S.P. (2024). Komparativ adyektiv iboralar shakllanishining konseptual asosi va ularning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus.
11. Qo'ng'urov, R.(1977). O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan.

Zumradxon JONBO'TAYEVA,
Turon Xalqaro Universiteti filologiya kafedrasi o'qituvchisi
zumradxonjonbotayeva@gmail.com

FALERONIMLARNING IZOHLI TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek onomastikasida faleronimlarning o'rni va mazmun ko'lami, bu guruhga xos so'zlar tasnifi haqida munosabat bildirildi. Ordenlar tarixi turi, nomlanishi xususida, ular bog'langan sohalar bo'yicha fikrlar berildi.

Kalit so'zlar: *faleronimlar , ordenlar, mukofotlar , medallar, unvonlar*

Annotation: this article discusses the role and scope of phaleronyms in Uzbek onomastics, the classification of words specific to this group. Opinions are given on the history, types, and naming of orders, as well as the areas to which they are related.

Key words: *phaleronyms, orders, awards, medals, titles*

Аннотация: в данной статье рассмотрены роль и сфера применения фалеронимов в узбекской ономастике, классификация слов, характерная для этой группы. Были даны мнения об истории, типе и наименовании орденов, а также о сферах, с которыми они связаны.

Ключевые слова: *фалеронимы, ордена, награды, медали, звания.*

O'zbek xalqi azaldan milliy va umuminsoniy qadriyatlari , ma'naviyati va ma'rifati bilan tanilgan xalqlardan biridir.Mana shu xalq vakillari jamiyatda yashab , biror kasb –hunar bilan shug'ullanar ekan , albatta , yutuqlari taqdir -lanishini , e'tirof etilishini xohlaydi.Bu maqsadda xalqimiz hayotida faleronim larning o'rni beqiyos. Faleronim –har qanday orden, medal, ko'krak nishonlari, tojlar va shu kabi narsalar atoqli oti.[1] Shaxslarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish uchun beriladigan ushbu faleronimlar tilshunoslikning onomastika bo'limida o'rganiladi. Bu atoqli ot turlariga orden , medal , mukofot va faxriy yorliqlar kiradi. Faleronimlar bo'yicha jahon tilshunosligida Superanskaya ,Podolskaya va Suprunlar olib borgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. Faleristika onomastikaning yosh bo'limi bo'lib, o'z nomini lotin tilidan olgan. Bu so'z eng jasur legionerlarga topshirilgan falera plaketi ma'nosida qo'llangan.Faleristika mukofotlarni o'rganish bilan shug'ullanadi: ordenlar , medallar , nishonlar. Orden (lotincha ordo – qator,daraja) - metall nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot [2].

"Orden" tushunchasi 11-asrdan beri mavjud, ammo zamonaviy ma'noda emas. U dastlab ritsarlar faoliyatida kuzatilgan, ular bosh kiyim kiyib, bo'yin -lariga qimmatbaho metalldan yasalgan krest taqib yurishgan [3]. Bu ularning muayyan ritsarlik tashkilotiga tegishli ekanligini bildirib turgan. Dastlabki ordenlar XIV-XVI asrlarda paydo bo'lgan.1348-yilda inglizlarning Bog'ichlar ordeni , 1399-yildan Bani ordeni, 1429-yildan avstraliyalik va ispanlarning Oltin Jun teri ordeni kabilar hisoblanadi. Rossiyada birinchi ordenni 1698-yilda Pyotr I ta'sis etgan.U avliyo apostol Andrey Pervoznanniy ordenidir. Yevropadagi qadimiy ordenlardan biri bu Garter ordeni bo'lib, u egasining olijanob odamlar qatoriga mansubligini anglatadi.1699-yilda Pyotr I tomonidan jasorat uchun mukofot sifatida tasdiqlangan.Ushbu ordenning birinchi sohibi shvedlar bilan jangda ajralib turuvchi admiral Golovin edi.Pyotr I bu ordenni faqat 1703-yilda ikkita dushman kemasini qo'lga kiritgani uchun bergan. 1711- yilda ayollar uchun birinchi ordenlardan biri Pyotr I ning rafiqasi Ketrin sharafiga yaratilgan.[4] O'zbekistonda ordenlar mustaqillikka erishganimizdan so'ng joriy etila boshlandi. Mustaqillikdan so'nggi ilk orden birinchi Prezident Islom Karimovning 1993-yil 4-martdagi farmoniga muvofiq ta'sis etilgan "Sog'lom avlod uchun " ordeni hisoblanadi. Azaldan o'zbek xalqi bolaning dunyoga kelishi ,uning parvarishi va ta'lim tarbiyasiga yuksak e'tibor qaratgan. O'zaro mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish , kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, el ishiga kamarbasta, vatanparvar, jismonan chiniqqan va ma'nan yetuk avlodni kamol toptirish umrboqiy qadriyatlarimizdan sanaladi.O'zbekistonning ilk ordeni "Sog'lom avlod uchun" deb nomlanishida ham ana shu ezgu maqsad mujassam. Keyingi ordenlarga kelsak , 1994-yilda "Mustaqillik" va "Do'stlik" ordeni , 19995-yilda "Mehnat shuhrati" , "Shon-sharaf" ordeni ,1996-yil "Buyuk xizmatlari uchun " va "Amir Temur ordeni , 1998-yilda "El-yurt hurmati" ordeni , 2000-yilda ,"Jaloliddin Manguberdi' ordeni , 2003-yilda 'Fidokorona mehnati uchun" ordeni , 2012-yilda "Mardlik" ordeni, 2020-yilda "Oliy darajadagi do'stlik ordeni" , "Faxriy murabbiy" , I va II darajali "Salomatlik" ordeni, 2022-yilda "Imom Buxoriy" ordeni kabilar ta'sis etildi.[5] Bunday ordenlar bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mehnat va jango -var xizmatlari, samarali davlat , ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun taqdirlanish- lari mumkin.

Shuningdek , O‘zbekiston Respublikasi uchun xizmat ko‘rsatgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ham, ayrim hollarda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, ijodiy jamoalar va harbiy bo‘linma lar, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy birliklari ham mukofotlanishi mumkin. „Davlat mukofotlari to‘g‘risida“ O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 22-dekabrdagi qonuniga ko‘ra, orden va medallar Oliy Majlis tomonidan ta’sis etiladi, orden va medallar bilan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti taqdirlaydi.[6]

Tilning asosiy vazifasi jamiyatdagi kishilar o‘rtasida turli xil vositalar orqali aloqa munosabatini ta’minlashdan iborat. Ammo har qanday tilning vazifasi shu bilangina cheklanib qolmaydi.O‘tmishdagi ajdodlar hayoti, turmush tarzi, qiziqishlari, doimiy tirikchilik manbayi, boshqalar bilan aloqasi,orzu-armonlari ,boshidan o‘tkazgan voqealar, kasbiy tushunchalar til vositasida avloddan -avlodga yetib keladi.Bizning qadimgi ajdodlarimiz haqidagi barcha tasavvurlarimiz, bilimlarimiz til orqali yetib kelgan ma’lumotlar asosida shakllangan. Mana shu kabi vazifalarni tilda bajaruvchi birliklar qatoriga toponim , antroponim , xrono- nim, ideonimlar qatori faleronimlar ham kiradi. Faleronimlar onomastik birlik sifatida ideonimlar makro guruhiga kiruvchi atoqli otlar guruhini tashkil qiladi.

Faleronimlar onomastikaning to‘liq o‘rganilmagan sohalaridan biridir. Superanskaya , Podolskaya , A.Avlaqulov, X.Maqsudovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida bu guruhdagi so‘zlar haqida ideonimlar guruhiga kiruvchi so‘zlar qatorida ma’lumot berib o‘tilgan bo‘lsa-da ,yetarli tadqiqot ishlari olib borilmagan.Ular qatoriga kiruvchi atoqli otlar ham maxsus o‘rganilmagan.Faleronimlar onomastik birlik sifatida o‘ziga xos nominativ , motivatsion ,leksik-semantik va struktural xususiyatlarga ega. Faleronimlar jamiyatning iqtisodiy-siyosiy , ma’naviy – ma’rifiy, ijtimoiy hayoti haqida muayyan ma’lumotlarni tashiydi.Shu jihatiga ko‘ra ular nominativ funksiyadan tashqari quyidagi lisoniy vazifalarni ham bajaradi:

1) faleronimlar o‘zida qaysidir bir davr haqida ma’lumot berish orqali information vazifani bajaradi. Masalan, 1942-yil 20-mayda ta’sis etilgan “Vatan urushi’ordeni bilan 9 milliondan ortiq urush qatnashchilari mukofotlangan bo‘lsa, 1924-yilda ta’sis etilgan Mehnat Qizil Bayroq Ordeni — Sovet Ittifoqida mehnat faoliyati, iqtisodiyot, madaniyat, ilm-fan, va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishgan shaxslarni taqdirlash uchun berilgan mukofot edi;

2) faleronimlar tarixiy shaxslar , qahramonlar nomi, faoliyatini ifodalash nomi sifatida milliy-madaniy funksiyani bajaradi:”Jaloliddin Manguberdi” ,”Amir Temur”, “Imom Buxoriy” kabi ordenlar alohida shaxslar nomiga va turli faoliyat egalari uchun berilgan.

“Amir Temur” ordeni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me’morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san’atni, shu jumladan harbiy mahoratni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissalari uchun mukofotlanadilar.“Amir Temur” ordeni bilan davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni hamda xalqlar o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlash ishiga alohida hissa qo‘shganlik uchun ham taqdirlanadilar.[7]

“Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog‘ini himoya qilishda hamda uni ko‘z qorachig‘iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar.

“Oliy darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan ilm-fan va madaniyat, islom ma’rifati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma va mutafakkirlar hayoti hamda ilmiy merosini o‘rganish va xalqaro maydonda keng targ‘ib qilishda katta yutuqlarga erishgan shaxslar mukofotlanadilar.

3) faleronimlar qanday faoliyat turi uchun berilishiga, ajratilishiga ko‘ra differensiyatsiyalash(farqlash) vazifasini bajaradi:1922-yilda ta’sis etilgan “Qizil Yulduz” ordeni bilan Markaziy Osiyoda aksilinqilobiy kuchlarga qarshi janglarda ko‘rsatgan xizmatlari uchun Buxoro Xalq Respublikasi askarlari taqdirlangan bo‘lsa, “Qahramon ona” – ko‘p bolali onalarga beriladigan eng yuqori orden hisoblangan.

4) faleronimlar ma'lum tarixiy davr , voqea-hodisalar nomlarini saqlash va mustahkamlash bilan epistemik funksiyani bajaradi.Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mustaqillik ordeni kabi birliklarda shu holat kuzatiladi.

Faleronimlar atoqli otlarga mansub alohida tur bo‘lib , ularning denotati konkret va tarixan mohiyatlidir. Boshqa atoqli ot turlaridan faleronimlar denotatlarining turg‘unligi bilan ajraladi. Shu jihati bois ularni boshqa atoqli otlar bilan almashtirib bo‘lmaydi.Faleronimlar turlari va modellariga ko‘ra alohida sistemani tashkil etadi. Faleronimlar publitsistik, so‘zlashuv, badiiy hamda so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. Ular nutq jarayonida fonetik-fonologik, leksik, morfologik, sintaktik variantlarda qo‘llanishi, uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi ham mumkin.Onomastika sohasi faleronimlar tadqiqida tarix, xronologiya , etnologiya, madaniyatshunoslik kabi fan hamda sohalarga tayanadi, ular tadqiqi bir qancha fanlar uchun ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatlidir.Faleronimlarning lisoniy tadqiqi yilnomalar, solnomalar, yozma hujjatlar tuzishda muhim ahamiyatga ega. . Umuman, faleronimlar juda boy va serqirra bo‘lib, ular shu kungacha maxsus to‘planmagan va chuqur tadqiq etilmagan. Kelgusida bu sohani monografik o‘rganish o‘zbek onomastikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Begmatov “O‘zbek antroponimikasi”.–Toshkent:”Fan”nashriyoti, 2013.
2.O‘zME. birinchi jild.–Toshkent, 2000.
3. O‘zME. birinchi jild. –Toshkent, 2000.
4. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. –Moskva:Nauka,1988.
5.https://uz.m.wikipedia.org/wiki.O‘zbekiston_Respublikasining_davlat_mukofot-lari
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni,11.04.2018-yildagi O‘PQ-473-son.
7. Xusanova M.N. Sodda dignitonim va ularning izohli tahlili. “So‘z san’ati” xalqaro jurnali, 4-jild.4-son. –T., 2021, 300-bet.

Umidjon EGAMOV,
GulDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

USMON AZIM SHE’RIYATIDA METAFORANING QO‘LLANISHI VA UNING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: sir emaski, metafora narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishidir. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Ushbu maqolada Usmon Azim she’riyatida metaforaning qo‘llanishi va uning badiiy-estetik xususiyatlari haqida so`z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvistik metaforalar, til taraqqiyoti, subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabat, badiiy matn tili, konnotativ ma’no.*

Аннотация: не секрет, что метафора – это передача смысла, основанная на сходстве вещей, событий и событий. Метафора — один из самых распространенных способов создания переносного смысла, в нашей классической литературе он называется «метафорой». В данной статье говорится об использовании метафоры в поэзии Усмана Азима и ее художественно-эстетических особенностях.

Ключевые слова: *лингвистические метафоры, языковое развитие, субъективное (положительное или отрицательное) отношение, язык художественного текста, коннотативный смысл.*

Annotation: it is no secret that metaphor is a transfer of meaning based on the similarity between objects, events and phenomena. Metaphor is one of the most common methods of creating a portable meaning, and in our classical literary studies it is called “allusion”. This article discusses the use of metaphor in the poetry of Usman Azim and its artistic and aesthetic properties.

Key words: *linguistic metaphors, language development, subjective (positive or negative) attitude, language of the literary text, connotative meaning.*

Kirish.Ma’lumotlarga qaraganda, metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik yo‘q, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi.” Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog‘i – stolning oyog‘i, odamning ko‘zi – uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi kabi.* Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni muallifning unga bo‘lgan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatini qo‘shib ifodalagan holda yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, badiiy bo‘yoqlarda yorqin va obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi.

Asosiy qism.“Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnotativ ma’no yorqinroq aks etadi,- deydi badiiy matn tilini teran tahlil qilgan olim M. Yo‘ldoshev.-Masalan, *ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. *Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirligi* kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi.” (Ta’kidlar bizniki: U.E)

Tilshunoslikda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi, ya'ni *odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalar* farqlanadi. Badiiy nutq uchun bulardan jonlantirish va sinestetik metaforalar xos bo'lib, tasvirni badiiy-estetik ifodaga aylantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, jonlantirishda jonsiz narsa-hodisalar odam kabi gapirish, jonli mavjudotlardek gapirish, hatti-harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, *sinestetik metafora*larda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala kabi. Bu misollarda keltirilgan *shirin, yengil, og'ir* sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi *"shirin"* va o'lchovni ifodalovchi *"yengil"* so'zlari *"yoqimli"* ma'nosida, *"og'ir"* so'zi esa *"yoqimsiz"* ma'nosida kelgan.

Badiiy metaforaning paydo bo'lishi va lingvopoetik vosita sifatida amalda bo'lishiga e'tibor berilsa, bir qator jihatlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Avvalo, badiiy metafora poetik nutq jarayonida hosil bo'ladi. Uning shakllanishi to'g'ridan-to'g'ri yozuvchi shoirning etnopsixolingvistik fikrlash doirasi, intelektual-hissiy olami qamrovi bilan bog'liq. Ijodkor inson faoliyati juda ham serqirra bo'lib, u tabiat va jamiyatda bo'layotgan har bir jiddiy o'zgarishni kuzatib boradi, ijtimoiy muhim voqea-hodisalar, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma'lum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar, obrazli tafakkur natijalari o'rni kelganda badiiy nutqqa ko'chib ko'chma ma'no kasb etadi, nutqqa ko'chadi. Bu xususiyatlar Usmon Azim she'riyatida qo'llanilgan badiiy metaforalar uchun ham xarakterli. Usmon Azim badiiy metaforalar yaratishda ot, sifat, fe'l turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangani kuzatiladi. Jumladan, u ot-metaforalardan ko'pincha xususiy yashirin ma'nolarni implitsit tarzda ifodalashda, ta'sirchan, obrazli ifodalar yaratishda; sifat-metaforalarning konnotativ ma'nolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, surati va siyratini tasvirlashda, g'oyaviy-badiiy ta'sirchanlikka erishishda; fe'l-metaforalardan tasvir obyekti, harakat-faoliyatining o'ziga xos intensivligini ko'rsatishda, ta'sirchan omil sifatida foydalanib, she'rlari ifodaviyligi, tasviriyligini, badiiy-estetik kuchini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Shoirning quyidagi she'rida *"gulim", "otash", "nur"* ot metaforalari lirik qahramonning o'z sevgilisiga bo'lgan yoniq muhabbati, ko'ngil zorlari, muxtasar va yorqin ifodasini topgan:

Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, ***gulim****,*
Kul bo'lishga qismatimni ko'ndirolmayman, ***gulim.***
Kim bilur ***otashda*** *yongan kunlarimning qadrini,*
Kecha qalblarni ***nur****imga to'ldirolmayman,* ***gulim***

Mazkur she'riy bandda metafora sifatida tanlangan til birliklarining ular ifodalab kelayotgan hodisalar mohiyatiga qanchalik mos kelishi, qanchalik yangi, o'zgacha ekanligi, poetik ta'sirchanligi matnning mazmunan boyligi, ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Mahoratli so'z san'atkorlari, iste'doli ijodkorlar qatori Usmon Azim ham o'z she'rlarida tilimizdagi hammamiz biladigan odatdagi so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali she'riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va poetik ta'sirchan bo'lishiga muvaffaq bo'lgan.

Metaforalar, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Bunday ifoda-tasvir vositalari badiiy matnning o'ziga xosligini ta'minlovchi, bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda lingvopoetik vosita o'rinli qo'llanilsa, muallif tomonidan tanlangan til biriligi yorqin badiiy bo'yoq kasb etib, o'quvchi yoki tinglovchida his-hayajon uyg'otuvchi tasviriy vosita maqomida harakat qila boshlaydi. Shu sababli badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar o'z ta'sirchanlik xususiyati bilan o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari, ot-metaforalar muallifga o'z shaxsiy kechinmalari, g'oya-fikrlarini uzundan-uzun jumlalar orqali ifodalashdan qutqaradi. Ot-metaforalar yordamida ijodkor simpatiyasi yoki antipatiyasi qisqa va ta'sirchan obrazli tarzda o'z ifodasini topadi. Chunki ot o'zi nomlab kelayotgan shaxs, narsa-hodisaning belgi-xususiyati, harakat-faoliyati haqida ham ma'lumot tashish imkoniyatiga ega. Agar u hamma biladigan, ko'pchilik taniydigan inson, narsa-hodisaning nomini bildiradigan ot bo'lsa bu ma'lumot zahirasi yanada keng, boy bo'ladi. Qolaversa, ularga muallifning sub'ektiv munosabati ham singan, yo'g'rilgan bo'ladi. Bu amalda ot-metaforalarning cheksiz tasvir-ta'sir imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Usmon Azim ijodida qo'llanilgan ot-metaforalar ham shunday tasvir vositalari hisoblanib, o'zlari ko'chma ma'noda nomlab kelayotgan jonli-jonsiz narsa-hodisalaring harakterli xususiyatlariga ishora qilish bilan birga shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg'ularining obrazli ifodasi sifatida ham alohida ahamiyatga molikdir.

Qayd etilganlarning barchasi ot turkumiga oid badiiy metaforalar orqali yaxlit holda o'quvchiga yetkaziladi.

Ma'lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan faollashtirilgan ko'chma ma'noning tabiat va jamiyatdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy, mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, inson ruhiyati, kechinmalari

tasviriga asoslangan poetik matnlarda ot-metaforalar emotsional-ekspressiv munosabat bildirishning eng qulay obrazli vositasidir. Quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

Qancha shirin damdan kechmog'im mumkin,
Faqat sen o'ynagin, quvongin, kulgin.
Sen mening ***taqdirim, oxir azalim,***
Sen mening ***bahorim, oyim, g'azalim***

Ta'kidlangan metaforalar bo'yoqdorlik va ta'sirchanlik kuchiga ega tasviriy vosita hisoblanadi. Ularning lirik qahramonning sevgilisiga bo'lgan otashin muhabbati yorqin ifodasini topgan. Xuddi shunday metaforik ma'no hosil qilish badiiy matnlarda qo'llanuvchi deyarli barcha lingvopoetik vositalarga xos xususiyatdir.

Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarda shoirning salbiy yo ijobiy munosabatda bo'lishi she'rda kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday usullar vositasida unga munosabat bildirishiga bog'liq bo'ladi. Shoir quyidagi she'rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metaforani qo'llab yorqinlik va poetik effektga erishgan. Unda lirik qahramonning tasvir obyektiga bo'lgan cheksiz e'tiqodi ifodalangan:

Endi mendan ketdi ixtiyor!
Yuragimni qo'yib kaftimga
Shivirlayman besabr, takror:
Qiblanamom, *yo'l ko'rsat menga!*

Mana bu parchada esa u yorga nisbatan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi, balki unga nisbatan kutilmagan yoyiq metafora qo'llab she'r ta'sir kuchini karrasiga oshiradi, go'zal ammo imkonsiz munosabatini yetkazishga erishadi:

Xavotir ichinda deding: «Men ketdim...»
To'xtading. Xo'rsinding. Jo'nading shitob.
Kuzgi chorbog' aro yo'qolding, yitding,
Atlas liboslarga belangan sarob

Metaforalarning o'ziga xos xususiyatlari badiiy matn doirasida qaraluvchi she'riy asarlarda yuqorida ko'rganimizdek, darhaqiqat, bo'rtib turadi. Shuning uchun Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarning o'ziga xos jihatlarini aniqlashda ularning shoir she'riyatida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim.

Usmon Azim o'z she'riyatida metaforani qo'llashda bu vositaning estetik ta'sirini oshirishga harakat qiladi. Uning she'rlarida metafora o'zi bog'liq bo'lgan matnda yetakchilik qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Usmon Azim ijodida badiiy metaforaning o'ziga xos estetik qimmati boshqa ko'chimlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'ladi. Usmon Azim tomonidan tanlangan va she'riy asarlar tilida mahorat bilan qo'llanilgan metaforalar mazmunning ta'sirchanlik, shakliy jozibadorlik va ohangdorlik kabi lingvopoetik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, shoir tomonidan sevimli yorga nisbatan qo'llanilgan metaforalar shoir she'riyati bilan tanishgan kitobxonni turli ichki kechinmalarga, ruhiy holatlarga soladi, o'quvchini shoirning xayolot olamiga tomon yetaklaydi, uning estetik ta'sir kuchini sezilarli darajada oshiradi. Shoir she'rlarida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar bilan tanishgan kitobxon metaforik ma'nolarni anglash, o'qish jarayonida ulardan qattiq ta'sirlanadi hamda Usmon Azim she'riy asarlari quvvatini his etadi. Shoirning o'ziga xos uslubi shundan dalolat beradiki, u o'z qahramoni ichki kechinmalarini anglagan, uning g'am-qayg'ulariga sherik bo'lgan holda hayotiy voqea-hodisalarga obrazlilik nuqtai nazaridan yondashadi va shunga xos badiiy individual metaforalarni tanlaydi. Quyida u yoriga nisbatan "**she'rim**" metaforasini qo'llaydi:

Ammo, sen kelmassan, yo'qotgan ***she'rim,***
Hamon turibdirsan ostonada tik.
Kutasan: «Qaytgin», deb aytadi yering,
Yana ochiladi yopilgan eshik

Boshqa bir o'rinda esa unga "Panohim" deb murojaat qiladi:

Panohim, *uchyapmiz yulduzlar aro,*
Yulduzlar ichida eng go'zali — siz!

Tilimiz so'z va iboralarga, turli xil ifoda vositalarga juda boy. Bu esa ijodkorga tilimiz lug'at tarkibidan joy olgan o'z kommunikativ, g'oyaviy-badiiy maqsadiga mos keluvchi so'z va iboralarni metaforik qo'llashiga zamin hozirlaydi. Mana uning bir she'rda ayolga nisbatan qo'llagan badiiy metaforalari:

Behisht gulshanlari topdilar zavol,
Qiyomat gullarni ayladi g'orat.
Sen, ey, ***farishtalar hamdami*** *— ayol,*
Do'zaxda qolganing bo'lsin muborak!
Do'stlaring bor yedi — payg'ambar, rasul —
Har biri o'zicha yaratgan olam.
Ey, ***podshoh qismatga sadoqatli qul,***
Qutlug' bo'lsin yangi shayton do'stlar ham.
Uni-ku gapirmay... O'tdi u — ertak,
O'tli hislarini poyingga yozdi.
Sen, ey, ***olovlarda muzlagan erka,***
Muzda uyg'onishning lazzati sozmi?

Mana bu she'rda esa lingvopoetik vositalarning, ya'ni badiy metafora (oppoq qo'lcha) va jonlantirishning o'zaro uyg'unlik hosil qilganligi seziladi:

Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor,
Oppoq qo'lchalarni yelkamga tashlab.
Sokin shivirlaydi: «Nima gaping bor?»—
Qadamim tovshidan uyg'ongan uylar.

Xulosa

Xulosa qilish mumkinki, lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan metaforalar Usmon Azim she'riyatida xilma-xil ko'rinishda faol qo'llanilib, uning she'riy asarlari tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi, ularning ko'pchiligi o'ziga xos badiiy, individual metaforalar bo'lib, shoir g'oyaviy niyati ruhiy olamining badiiy-estetik ifodasi poetik tasvir-tavsifi darajasidagi

ifoda vositalaridir. Bunday metaforalar shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga faol ijodiy yondashuviga bog‘liq holda hosil bo‘ladi. Shu sababli ular obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita o‘laroq Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o‘ziga xos individual uslubini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shoir she’rlarida lug‘aviy ma’noli mustaqil so‘zlarning, xususan ot, sifat, fe’llarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishidan yuzaga kelgan badiiy metaforalar ko‘p kuzatiladi. Ular orasida kutilmagan obrazlilik hosil qilgan individual metaforalar ham bor. Bu jihatdan ot-metaforalar ajralib turadi. Bunday paytda ular ko‘pincha sifatlovchi-aniqlovchi olib, kengayib keladi. Kengaytuvchilar esa, sifat, son, fe’lning sifatdosh kabi vazifadosh shakllari bo‘lib ko‘chma ma’no fonida bo‘ladi va ot-metafora bilan birga g‘oyaviy mazmunni badiiy-estetik ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 151.

2.Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. –Т., 1976, 13-б.; Абдураҳмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. НД.-Т., 1997, 105-б

3.Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД.-Т., 1989, с-13.

4.Usmon Azim. Ko‘rsatilgan adabiyot.

5.Soatova, N. (2020). Adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(09), 5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2677

6.Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент,1962.

7.Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексикстилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. -Тошкент, 2010.

8.Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.

Shahnoza MAJIDOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi
majidovashahnoza59@gmail.com

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SUV LEKSEMASINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: suv – tiriklik manbai, poklik va tozalik timsoli sifatidagi qarashlar necha asrlarki, o‘zbek xalqining tasavvurida yashashi, farovonlik, rizq-ro‘z, to‘kin-sochinlik manbai sifatida qaralishi, suv bilan bog‘liq barcha tasviriy ifodalar Allohga bo‘lgan majoziy va ilohiy ishq asosiga qurilgan bo‘lib, bu tasviriy ifodalar nutqning rang-baranglig-ini, ta’sirchanligini, ifodaliligini oshirgan. Navoiy ijodida suv asosida shakllangan *qora suv* - siyoh yordamida yor suratini tasvirlash, *suv xatlari*, *suvga solingan naqsh* - suvning to‘lqinlanishi, shabada esganda suv yuzida hosil bo‘lgan mavjlanish, *istig‘no suvi* - gunoh qilishdan saqlovchi, pok va to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ma’nolarini anglatuvchi tasviriy ifodalardir.

Kalit so‘zlar: *rangin suv, qizil suv, gulgun suv, gulruhsor suv, naysitonning suyi, og‘iz suvi, olov rang suv, uzum suvi.*

Аннотация:вода – источник жизни, символ чистоты и чистоты, уже сколько веков она живет в воображении узбекского народа. все родственные образные выражения строятся на основе метафорической и божественной любви к Богу, и эти образные выражения увеличивают разнообразие, выразительность и выразительность речи. В творчестве Навои черная вода образовалась на основе воды – изображение пейзажа тушью, водяными буквами, узором, помещенным в воду – рябь воды, рябь, образующаяся на поверхности воды при дуновении ветерка, Вода для омовения – образное выражение, означающее избавить от греха, стать чистым и встать на правильный путь.

Ключевые слова: *цветная вода, красная вода, розовая вода, розовая вода, ниситоновая вода, ротовая вода, огненная вода, виноградная вода.*

Annotation:water - the source of life, the symbol of purity and cleanliness, has been alive in the imagination of the Uzbek people for centuries, it is considered a source of prosperity, sustenance, and prosperity. All figurative expressions related to water are built on the basis of figurative and divine love for Allah, and these figurative ex-pressions increase the color, impact, and expressiveness of speech. In Navoi’s work, black water formed on the

basis of water - depicting the image of the moon with the help of ink, water lines, patterns in water - the ripples of water, the ripples formed on the surface of the water when the wind blows, and hot water - protecting from sin, purifying and guiding on the right path are all figurative expressions that convey the meanings.

Key words: colored water, red water, rose water, rose water, water of the nassitan, mouthwash, fiery colored water, grape water.

Kirish. Tasavvuf namoyondalaridan biri Alisher Navoiy ijodini o‘rganar ekanmiz, suv so‘zi bir necha o‘rinlarda turli ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llanganligini ko‘rish mumkin. Mavzumizga doir ishlarda bu borada to‘liq ma’lumotlar yo‘qligi bois, Navoiy asarlarida qo‘llanilgan suv komponentli birikmalarni to‘liq o‘rganib chiqishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Suv so‘zi Navoiy asarlarida *yo‘q bo‘lmoq, erib bitmoq, ro‘yo (xom-xayol), go‘zallik, ma’shuqa, Alloh vasli, ishq-muhabbat, mehr-muhabbat, ko‘z yoshi, yor ko‘zi, yor labi, bo‘sa olmoq, may, yorug‘lik, poklik, shudring (suvi dona), yomg‘ir tomchisi, qutbaraka, tiriklik (abadiy hayot),* singari ma’nolarini ifoda etgan. Quyidagi baytda suv so‘zi o‘t so‘zi bilan birga kelgan:

Kamoli sur’atidin sarvi gulro‘
Ravon aylab uzori o‘tidin suv. (Farhod va Shirin)

Ushbu baytda oshiq yorni ko‘rganida go‘zalligi, tik va sarv misoli qomati uning yuragini kuydirganligini yozadi. Bu misralarda go‘zal yor Alloh timsolida ifodalangan. Kishining Allohga bo‘lgan muhabbati nazarda tutilgan.

Yog‘ib istig‘no sahobidin yog‘in,
Yuz tuman olamni suv yeltur sog‘in. (Lison uttayr)

Ushbu baytda esa Allohning amri bilan qutbaraka yomg‘iri yog‘ib olamga fayz, barokat bag‘ishlaydi. Suv olamdagi jamiki tirik mavjudot va insoniyat uchun kerakli noz-ne’matlar yaratuvchisi timsolida tasvirlangan.

Qachonkim topib suv aro sham’i mehr
Ki, lu’bat ayon aylar erdi sipehr. (Saddi Iskandariy)

Oshiq may (suv)ni oshiqib ichadi ya’ni may bu yorning labi. Yordan bo‘sa olgan oshiq ma’shuqaning mehrini qozonadi. Bu baytdagi may Allohga bo‘lgan ishq ma’nosini ifodalagan.

Alisher Navoiy ham so‘fiylikdan murod – soflanish degan tushunchada bo‘lgan. Uning asarlarini o‘rganar ekanmiz, suv so‘zi turli birikmalar tarkibida qo‘llanilib xilma-xil ma’nolarni ifodalab kelgan.

Quyida suv so‘zining birikmalardagi shakllarini ko‘rib chiqamiz: *rangin suv, bir qatra suv, bag‘rim suv, ashk suvi, qizil suv, chuchuk suv, zangor suv, suzuk suv, gulgun suv, bir ayoq suv, gulruhsor suv, ozor suv, hayvon suvi, chirkin suv, suv jamoliyati, sayl suvi, achchig‘ suv, samar suvlar, hamul suv, oqor suv, ko‘k suv, ko‘z suvi, metin suv, qora suv, suv tubi, naysitonning suyi, chashma suv, suv hanjori, suv qirog‘i, suv sayri, suv amvoji, hayrat suvi, kavsar suvi, suv zahmati, suvluq buloq, suv xatlari, suv xurushi, tavba suvi, hasrat suvi, boqiylik suvi, zam-zam suvi, suv tasavvuri, dam suvi, havzlug‘ suv, og‘zi suvi, rahmat bulutining suvi, hayot suvi, olov rang suv, uzum suvi, Xizr suvi, suv olami, shahroh suvi, o‘qing suvi, bir tomchi suv, pushaymonlik suvi, xursandlik suvi, shod-xurramlik suvi, baqo suvi, suv yuzidagi xas, musallo (machit, ibodat joyi) suvi, gulshan suvi, boda suvi, xarobot suvi, zilol suv, istig‘no suvi, quyosh suvi, suv odami, suvga solingan naqsh, (toza) suv, qon suvi.*

A**DABIY**O**TL**A**R T**A**HLILI V**A **MET**O**DOL**O**GIY**A

Otli birikmalar: *rangin suv* (Farhod va Shirin), *gulgun suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *achchig‘ suv* (Farhod va Shirin), *naysitonning suyi* (Saddi Iskandariy), *olov rang suv* (Devoni Foniy), *uzum suvi* (Devoni Foniy), *xursandlik suvi* (Devoni Foniy), *shodu xurramlik suvi* (Devoni Foniy), *boda suvi* (Devoni Foniy), *bir qatra suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *bag‘rim suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *ashk suvi* (Badoyi’ ul-bidoya), *chuchuk suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *zangor suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *suzuk suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *bir ayoq suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *gulruhsor suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *ozor suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *hayvon suvi* (Badoyi’ ul-bidoya), *chirkin suv* (Badoyi’ ul-bidoya), *suv jamoliyati* (Hayrat ul-abror), *sayl suvi* (Hayrat ul-abror), *samar suvlar* (Farhod va Shirin), *oqor suvlar* (Farhod va Shirin), *hamul suv* (Farhod va Shirin), *ko‘k suv* (Farhod va Shirin), *metin suv* (Farhod va Shirin), *qora suv* (Sab’ai sayyor), *suv tubi* (Saddi Iskandariy), *chashma suv* (Saddi Iskandariy), *suv hanjori* (Saddi Iskandariy), *suv qirog‘i* (Saddi Iskandariy), *suv sayri* (Saddi Iskandariy), *suv amvoji* (Saddi Iskandariy), *hayrat suvi* (Majolis un-nafois), *kavsar suvi* (Majolis un-nafois), *suv zahmati* (Mahbub ul-qulub), *suvluq bulog‘* (Mahbub ul-qulub), *suv xatlari* (Mahbub ul-qulub), *ko‘z suvi* (Munshaot), *tavba suvi* (Munshaot), *hasrat suvi* (Vaqfiya), *boqiylik suvi* (Xamsat ul-mutahayyirin), *zam-zam suyi* (Tarixi anbiyo va hukamo), *dam suv* (Nasoyim ul-muhabbat), *suv tasavvuri* (Nasoyim ul-muhabbat), *havzlug‘ suv* (Nasoyim ul-muhabbat), *og‘zi suvi* (Nasoyim ul-muhabbat), *og‘zining suvi* (Devoni Foniy), *rahmat bulutining suvi* (Devoni Foniy), *hayot suvi* (Devoni Foniy), *Xizr suvi* (Devoni Foniy), *suv olami* (Devoni Foniy), *shahroh suvi* (Devoni Foniy), *o‘qing suvi* (Devoni Foniy), *bir tomchi suv* (Devoni Foniy), *pushaymonlik suvi* (Devoni Foniy), *baqo suvi* (Devoni Foniy), *musallo (machit, ibodat joyi) suvi*

(Devoni Foniy), *(gulshan) suvi* (Devoni Foniy), *gulshan suvi* (Devoni Foniy), *zilol suv* (Devoni Foniy), *zilol (toza) suv* (Devoni Foniy), *istig'no suvi* (Devoni Foniy), *quyosh suvi* (Devoni Foniy), *suv odami* (Devoni Foniy), *suvga solingan naqsh* (Devoni Foniy), *yurak xunobi* (*qon suvi*) (Devoni Foniy). Bu birikmalar Haq vasliga yetish shunday mashaqqatliki, oshiqni odamlardan uzoqlashtiradi. Unga yetish uchun toshqinday harakatda bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy tasavvuf ta'limoti namoyondalari ijodidan bahramand bo'lish bilan birgalikda o'z asarlarida suv so'ziga alohida to'xtalgan. Uning asarlarini tahlil qilar ekanmiz, yuzlab suv asosida shakllangan tasviriy ifodalarning mahorat bilan qo'llaganligini ko'ramiz. Bularning ma'nolarida xilma-xillik aks etgan. Masalan, *hayvon suvi, hayrat suvi, kavsar suvi, boqiylik suvi, zam-zam suvi, hayot suvi, Xizr suvi* kabi tasviriy ifodalar vositasida suv emas, balki tiriklik, jannat bulog'ining suvi, hayot suvi ma'nolarini anglatgan. *Rangin suv, qizil suv, gulgun suv, bir ayoq suv, gulruhsor suv, naysitonning suyi, og'iz suvi, olov rang suv, uzum suvi, xursandlik suvi, shod-xurramlik suvi, baqo suvi, musallo (machit, ibodat joyi) suvi, boda suvi, qon suvi* shaklidagi tasviriy ifodalar sharob, may, chog'ir ma'nolarini ifodalab kelgan. Bu so'zlar esa majoziy Allohning ishqi, vasfiga yetishish, abadiylik, mangulik, doimiylik, abadiyat, cheksiz hayot ma'nosida qo'llangan. Ushbu suvni ichgan kishi xumor balosidan qutilib, o'limdan xalos bo'ladi. Baqo suvi - Allohga bo'lgan ishq mazmunini ifodalaydi. Oshiq butun umr Allohga yetishish ilinjida yashaydi. Navoiy ijodida *achchiq suv, ozor suv, suv zahmati* kabi birikmalar yor vasliga mashaqqat va qiyinchilik bilan erishish ma'nosini ifodalagan.

Xulosa.Ko'z yoshi esa *rangin suv, bir qatra suv, ashk suvi, ko'z suvi, tavba suvi, hasrat suvi, o'qing suvi, pushaymonlik suvi, sho'roba* kabi tasviriy ifodalar bilan beriladi. Oshiqning ko'z yoshlari ma'shuqaga bo'lgan alanga olgan ishq o'ti taftini biroz bo'lsada, pasaytiradi.*"Ashk"* ko'z yoshi ma'nosini ifodalaydi, yor hajrida to'kilgan alamli, g'amli, qayg'uli ko'z yoshi *"sirishk"* ya'ni qonli ko'z yosh deb keltiriladi. Navoiy ijodida ko'z yoshi fors tilidagi *"sho'r"* va *"ob",* ya'ni sho'r suv ma'nosini ifodalovchi *"sho'roba"* so'zi orqali berilgan. Alloh ko'z suvini sho'r qilib yaratilishiga sabab, bu shaffof ko'zlarni har xil chang-g'uborlardan va zararli bo'lgan narsalardan asrab-avaylash edi. Ko'zga tushadigan chang-g'uborlarni ko'z yoshi orqali tozalash imkonini beradi. *"Qatra suv"* ko'z yoshi ma'nosi bilan birgalikda yomg'ir suvi ma'nosini ham ifodalaydi. Bulutdan tomgan har bir yomg'ir tomchisi osmondan yerga dur-marvarid bo'lib sochiladi. Yomg'ir tomchilari yerga tushishi bilan tabiat jonlanadi, o't-o'lanlar o'sadi, gullar ochiladi, yer bag'ridagi shirin-shakar mevalar yetiladi. Buning o'zi osmondan dur, injular yog'ilishiga qiyoslanadi. Bundan tashqari yomg'ir suvi ma'nosini ifodalovchi *"rahmat bulutining suvi"* tasviriy ifodasi ham qo'llaniladi. *Zangor suv, suzuk suv, ko'k suv, zilol suv* kabi tasviriy ifodalar Navoiy ijodida tiniqlik, soflik, tozalik ma'nolarini ifodalagan. Yorning yuzi shunchalar tiniqki, bunday tiniqlik suvda ham bor. Tiniq suvga qarasang, aksing ko'rinadi. Yorning yuziga qarasang ham, unda aksingni ko'rishing mumkin. Yuqorida keltirilgan suv bilan bog'liq barcha tasviriy ifodalar Allohga bo'lgan majoziy va ilohiy ishq asosiga qurilgan. Bu tasviriy ifodalar nutqning rang-barangligini, ta'sirchanligini, ifodaliligini oshirgan.

Suv Navoiy ijodida yor labiga, mayga, yor yuzidagi dona xolga, ko'z yoshiga yorning yuziga, mehr-muhabbatga, nurga o'xshatilgan. Bundan tashqari yorning labi rangin suvga, qonning, ko'z yoshining oqishi suvning oqishiga, qonli ko'z yoshi lolaning rangiga, suvning yaltirashi chiroqning yonishiga, ko'z yoshining to'xtamasligi shamolning esishiga o'xshatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Munshaot. – T.: Ma'naviyat, 2001.
2. Alisher Navoiy. 20 tomlik Mukammal asarlar to'plami. –Toshkent.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti;1987.
3. Ashirov Adhamjon. O'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzida qadimiy diniy e'tiqodlar. –T., 2008.
4. Usmon Nuriy To'pbosh. Bir ko'za suv. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2005.

Nigora JO‘RANAZAROVA,
Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA IBORALARNING LINGVISTIK JIHATDAN TAHLIL QILISH MEZONLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada iboralarning leksik, grammatik, semantik, stilistik va pragmatik jihatlariga to‘xtaldik. X.To‘xtaboyev asarlaridagi iboralar misolida leksik, grammatik, semantik, stilistik va pragmatik tahlillarni amalga oshirdik. Iboralarning lingvistik tahlilining tilshunoslikdagi o‘rnini misollar bilan tushuntirdik.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, leksik, grammatik, semantik, stilistik va pragmatik.*

Аннотация: в данной статье мы сосредоточили внимание на лексических, грамматических, семантических, стилистических и прагматических аспектах выражений. Мы провели лексический, грамматический, семантический, стилистический и прагматический анализы на примерах словосочетаний произведений Х. Тохтабоева. Роль лингвистического анализа словосочетаний в лингвистике мы объяснили на примерах.

Ключевые слова: *фразеологизмы, лексические, грамматические, семантические, стилистические и прагматические.*

Annotation: in this article, we focused on lexical, grammatical, semantic, stylistic and pragmatic aspects of expressions. We carried out lexical, grammatical, semantic, stylistic and pragmatic analyzes on the examples of phrases in the works of H. Tokhtaboyev. We explained the role of linguistic analysis of phrases in linguistics with examples.

Key words: *phraseologism, lexical, grammatical, semantic, stylistic and pragmatic.*

Kirish. Iboralarning lingvistik tahlili leksik, grammatik, semantik, stilistik va pragmatik turlarga bo‘linadi. Ularning har birini alohida tahlil mezonlari mavjud. Misollar bilan har bir tahlil turini izohlab beramiz.

Asosiy qism. “Bo‘yi yetib qolgan” iborasi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida bolalarning o‘sish jarayoni, ruhiy va jismoniy o‘zgarishlarini badiiy ifodalash uchun ishlatilgan obrazli ifodalardir. Ushbu iboralarni leksik, grammatik va stilistik jihatdan tahlil qilib chiqamiz:

1. Leksik tahlil:

“Bo‘yi yetib qolgan”

Bu ibora o‘zbek tili leksikasida mazmunan bolaning voyaga yetayotganini bildiradi. Metaforik tarzda insonning yosh, tajriba va fiziologik rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi.

2. Grammatik tahlil:

“Bo‘yi yetib qolgan”

Bu ibora tarkibida aniqlik uchun mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘z (qol-) ishlatilgan.

Ibora tarkibidagi fe’l — “qolgan” — o‘tgan zamonda keltirilib, davom etgan jarayonning tugallanganligini bildiradi.

3. Stilistik tahlil:

Xudoyberdi To‘xtaboyev ushbu iboralar orqali bolalarning o‘ziga xos hayotiy jihatlarini, his-tuyg‘ularini jonli va ta’sirchan tasvirlaydi.

“Bo‘yi yetib qolgan” iborasi qahramonning jismoniy o‘zgarishlarini, ulg‘ayish bosqichini tasvirlashda ishlatilgan.

“***Teppa sochi tikka bo‘ldi”:***

1.Leksik jihati.

Ibora teppa sochi (boshning yuqori qismidagi soch) va tikka bo‘lmoq (to‘g‘ri, tik ko‘tarilmoq) so‘zlaridan tuzilgan. Ma’noda hayrat yoki cho‘chishni bildirish uchun ishlatiladi. Bu ibora kontekstda qahramonning his-tuyg‘ularini yorqin tasvirlaydi.

2. Grammatik jihati.

Fe’l birikmasidan iborat bo‘lib, unda asosiy fe’l — “bo‘ldi” (tugallangan harakatni bildiradi).

Tikka so‘zi bu yerda ravish bo‘lib, hol vazifasida ishlatilgan.

3. Stilistik tahlil.

“Teppa sochi tikka bo‘ldi” qahramonning hayrat yoki qo‘rquvni his qilgan lahzasini aks ettiradi.

Bu iboralar kontekstda voqealar rivoji va qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Ushbu iboralar To‘xtaboyev uslubining jonli va tasviriy ekanini ko‘rsatadi. Har bir bola o‘z hayotida shunday o‘zgarishlarni boshdan kechiradi va muallif buni o‘quvchiga sodda, lekin ta’sirchan tarzda yetkazadi.

Bu iboralar o‘zbek xalqona uslubidagi badiiy asarning milliy ruhini ham aks ettiradi. Shu sababli, bu iboralar nafaqat tildagi boy ifoda vositalari, balki asar poetikasining ajralmas qismidir.

Keling, “Ichi qora” iborasini lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqamiz:

1. Leksik tahlil.

Tarkibiy qismlar: ichi – ichki qismni, ya’ni insonning qalbi, ma’naviy dunyosini yoki ichki niyatlarini bildiradi.

Qora – rang sifatida ishlatilsa-da, metaforik ma’noda yomonlik, hasad yoki salbiy his-tuyg‘ularni anglatadi.

Umumiy ma’nosi: “Ichi qora” iborasi insonning qalbida hasad, g‘azab yoki yomon niyat mavjudligini bildiradi. Bunda “ich” so‘zi insonning botiniy, ko‘rinmas tomonlariga ishora qiladi, “qora” esa salbiy tasavvur

uyg‘otadi.

2. Grammatik tahlil.

Bu ibora sifat birikmasi hisoblanadi. Unda: ichi – aniqlovchi (kimning? nimasining? degan savolga javob beradi). Qora – aniqlanayotgan so‘z (bu yerda sifati va botiniy mazmuni haqida gapiradi). Mazmunan ibora odatda, majoziy ma’noda qo‘llanadi va so‘zma-so‘z emas, balki badiiy tasviriylik orqali tushuniladi.

3. Stilistik tahlil.

“Ichi qora” iborasi salbiy emotsional baho beradi. Bu, odatda, insonning yaxshi fazilatlari yo‘qligini, yomon fikrlari yoki niyatlarini ta’riflash uchun ishlatiladi.

Badiiy adabiyotda yoki xalq og‘zaki ijodida bu ibora inson xarakteridagi salbiy jihatlarni o‘quvchi yoki tinglovchiga yaqqol ko‘rsatish uchun qo‘llanadi.

4. Asardagi yoki ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati.

Masalan, “Sariq devni minib” asarida qahramonlar orasida kimdir hasad yoki yomon niyat bilan harakat qilayotgan bo‘lsa, muallif bunday hissiyotlarni ifodalash uchun ushbu iborani ishlatgan bo‘lishi mumkin.

5. Milliy madaniyatdagi roli.

Bu ibora xalq orasida keng qo‘llanilib, odob-axloq normalariga muvofiq bo‘lmagan xulqni qoralash vositasi sifatida ishlatiladi.

Ma’nosi jihatidan “qalbi qora”, “yuragi kir” kabi boshqa iboralar bilan sinonim hisoblanadi. Shu bilan birga, u xalq orasida an’anaviy tasavvurlarni boyitishda muhim o‘rin tutadi.

“Ichi qora” iborasi majoziy va badiiy vosita sifatida, salbiy mazmunli his-tuyg‘ularni yoki insoniy xatti-harakatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Adabiy asarlarda bu ibora inson ruhiyatining murakkab tomonlarini ochib berishga yordam beradi.

Xulosa. Iboralar insonning muammolarga yoki atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini yorqin va ta’sirchan tasvirlash vositasidir. U xalqona tasvir uslubi bilan inson xulq-atvorining turli jihatlarini ochib beradi. Adabiy asarlarda bunday iboralar orqali muallif qahramonlar xarakterini chuqurroq ifodalashga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devning o‘limi. “Yangi asr avlodi”, 2017.
2. Xudoyberdi To‘xtaboyev. “Besh bolali yigitcha”. “Yangi asr avlodi”, 2009.

Olmosxon NIYOZOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti koreys tili o‘qituvchisi
TDPU mustaqil tadqiqotchisi

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA KOREYS TILI GRAMMATIKASINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya:maqolada akademik litsey o‘quvchilariga koreys tili grammatikasini o‘rgatishda morfologik strukturalar, turli yondashuvlardan foydalanishning o‘ziga xosliklari, koreys tilidagi hurmat shaklining rasmiy va norasmiy shakllari, so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun kontekstual yondashuv haqida ma’lumotlar va misollar keltirilgan. Bundan tashqari, o‘zbek tili va koreys tili grammatikasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlar o‘qitish jarayonidagi ayrim qiyinchiliklar va o‘ziga xosliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *koreys tili grammatikasi, kontekstual yondashuv, agglyutinativ til, hurmat shakli, fe’l zamonlari, grammatik struktura.*

Annotation:the article provides information and examples on the peculiarities of using various approaches to teach Korean grammar to academic lyceum students, focusing on morphological structures. It discusses the formal and informal forms of honorifics in the Korean language, as well as the contextual approach to express relationships between words. Moreover, it highlights the similarities and differences between the grammar of Uzbek and Korean, the challenges and specificities encountered in the teaching process.

Key words: *korean grammar, contextual approach, agglutinative language, honorific forms, verb tenses, grammatical structures.*

Аннотация:статья предоставляет информацию и примеры особенностей использования различных подходов при обучении грамматике корейского языка студентов академического лицея, с акцентом на морфологические структуры. Рассматриваются формальные и неформальные формы вежливости в корейском языке, а также контекстный подход для выражения отношений между словами. Кроме того, в статье подчеркиваются сходства и различия в грамматике узбекского и корейского языков, а также сложности и особенности, с которыми сталкиваются преподаватели в процессе обучения.

Ключевые слова: *грамматика корейского языка, контекстный подход, агглютинирующий язык, формы вежливости, времена глаголов, грамматические структуры.*

Turli madaniyatlar va tillar kesishmasi dolzarblashib borayotgan zamonda xorijiy tillarni, turli davlatlar madaniyatlari va ularnining o‘ziga xosliklarini o‘rganish dolzarblashib bormoqda.So‘ngi yillarda O‘zbekistonning Koreya bilan aloqalari yanada jadallashishi natijasida koreys tilini o‘rganishga qiziqish oshib bormoqda. Buning natijasida O‘zbekistondagi oliy ta’lim va o‘rta ta’lim muassasalarida koreys tili yo‘nalishlari ochilishi bilan birga Koreyadagi ta’lim dargohlarida ham o‘zbek tilini o‘rganish jarayoni nisbatan jadallashdi. O‘zbek va korey tili bir til oilasiga mansub bo‘lgani uchun bu tilning grammatik strukturasini o‘rganish o‘zbek o‘quvchilarida nisbatan osonroq kechadi.

Koreys tili grammatikasini o‘rgatishning o‘ziga xosliklari, asosan, uning til tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Koreys tili, boshqa tillardan farqli o‘laroq, o‘ziga xos sintaktik, morfologik va leksik xususiyatlarga ega. Quyida koreys tilining grammatikasini o‘rgatishda yuzaga keladigan ba’zi muhim o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqamiz.

Koreys tili grammatikaning o‘ziga xos xususiy tuzilishi mavjud. Masalan, SOV (Subyekt - Obyekt – Fe’l) tuzilishi: koreys tilida gap tuzilishi asosan **SOV** (subyekt + obyekt + fe’l) shaklida bo‘ladi, bu esa ko‘plab boshqa tillarda (masalan, ingliz yoki rus tilida) uchraydigan **SVO** tuzilishidan farq qiladi. Misol: **Men kitobni o‘qidim. → 나는 책을 읽었어요.** (Naneun chaegeul ilgeosseoyo).Bu farq, o‘rganuvchilarga grammatikani o‘rganishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, chunki ular gap tuzilishini o‘zbek yoki boshqa tillardagi tuzilmalar bilan solishtirishadi.

Koreys tili so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun **kontekstual** yondashuv hisoblanadi, ya’ni bir necha grammatik ma’nolarni ifodalash uchun fe’l yoki so‘zning oxiriga turli qo‘shimchalar (postpozitsiyalar, yordamchi fe’llar va boshqalar) qo‘shiladi. Bu qo‘shimchalar yordamida vaqt, shaxs, xilma-xillik (masalan, hurmat ko‘rsatish) kabi grammatik xususiyatlar bildiriladi. Masalan, fe’lning oxirida qo‘shimchalar orqali rasmiylik darajasi, zamon va tushuncha o‘zgarishi mumkin:읽다 **(ilgda)** - o‘qimoq, **읽어요 (ilgeoyo)** - o‘qiyapman (oddiy rasmiylik), **읽습니다 (ilgseumnida)** - o‘qimoq (rasmiy va jiddiy) O‘quvchilarga bu qo‘shimchalar va ularning ishlatilishini o‘rgatish juda muhimdir, chunki rasmiylik darajasini anglash Koreyada ahamiyatli.

Koreys tilida ijtimoiy ahamiyat va hurmat juda katta rol o‘ynaydi. Shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga qarab, so‘zlar va jumlalar rasmiy yoki norasmiy bo‘lishi mumkin. Bu til o‘rganish jarayonida o‘quvchilardan ko‘proq e’tibor talab etadi. **Norasmiy**: **“너 뭐 해?”** (Neo mwo hae?) – “Sen nima qilayapsan?”, **Rasmiy**: **“당신은 무엇을 하세요?”** (Dangshineun mueoseul haseyo?) – “Siz nima qilayapsiz?” Hurmat formasining qo‘llanilishi o‘quvchilarga tilni to‘g‘ri kontekstda ishlatishni o‘rgatadi, bu esa koreys tilida jamiyatda o‘zaro muloqot qilishda katta ahamiyatga ega. Koreys tilida so‘zlarning oxiriga qo‘shiladigan **partikllar** (postpozitsiyalar) grammatik ma’no yaratadi.Bu, boshqa tillarda fe’l yoki so‘zning holatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan prepozitsiyalarga o‘xshaydi, lekin koreys tilida bu qo‘shimchalar fe’l va so‘zga qo‘shiladi. Masalan: **에** (e) – joyni bildiradi: **학교에 가다** (Hakgyo-e gada) – maktabga borish **에서** (eseo) – joyni bildiradi: **학교에서 공부하다** (Hakgyo-eseo gongbuhada) – maktabda o‘qish, **와/과** (wa/gwa) – bilan: **친구와 함께 가다** (Chingu-wa hamkke gada) – do‘stim bilan borish.

O‘quvchilar uchun bu qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘pincha qiyin, chunki ularning ona tilidagi ekvivalentlari bo‘lmasligi mumkin.

Koreys tilida so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun **kontekstual** yondashuv ishlatiladi. Masalan, so‘zlar o‘rtasidagi o‘zgarishlar, rasmiylik darajasiga yoki ifodalash tarziga qarab, o‘zgarishi mumkin.Koreys tilidagi grammatik qoidalar va fe’llarning o‘zgartirish qoidalari o‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lishi mumkin, chunki bunday xususiyatlar ko‘plab o‘zbek yoki boshqa turkiy tillarda yo‘q. Koreys tilida ham **zamonda** gapirish o‘zbek tiliga o‘xshab ko‘proq qo‘shimchalar bilan amalga oshiriladi. Fe’lning zamon shakli va qo‘shimchalar yordamida vaqt, tasavvur va boshqa ko‘plab tushunchalar ifodalanadi.

현재 (hyeonjae) – hozirgi zamon : **가고 있어요** (Gago isseoyo) – borayapman

과거 (gwageo) – o‘tgan zamon: **갔어요** (Gasseoyo) – bordim

미래 (mirae) – kelasi zamon: **갈 거예요** (Gal geoyeyo) – boraman

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar zamon va tushunchalarni to‘g‘ri ajratishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin, chunki bu o‘zbek tilida yoki boshqa tillarda boshqacha ishlatiladi.

Koreys tilida **fe’l** va **sifat** (adjective) o‘rtasidagi farq juda noaniq bo‘lishi mumkin, chunki koreys tilida sifatlar asosan fe’l sifatida ishlatiladi. Misol: **멋있다 (meositta)** – “Zo‘r, ajoyib” (Bu so‘z aslida sifat bo‘lib, lekin u fe’l kabi ishlatiladi) **슬프다 (seulpeuda)** – “Xafa bo‘lish” (sifat-fe’l).

O‘quvchilar sifat va fe’lning o‘rtasidagi farqni anglashda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin. Koreys tili grammatikasida o‘quvchilar tez-tez xatolar qilishlari mumkin, chunki ular grammatik qoida yoki sintaksisni to‘g‘ri tushunmasligi mumkin. Masalan, fe’lni noto‘g‘ri joylashtirish, to‘g‘ri qo‘shimchani ishlatmaslik yoki rasmiylik darajasini noto‘g‘ri tanlash.

Xulosa qilib aytganda akademik litsey o‘quvchilariga koreys tili grammatikasini o‘rgatishda turli yondashuvlar mavjud va har bir yondashuv o‘quvchilarning ehtiyojlariga, o‘rganish maqsadlariga va o‘qitish usuliga qarab tanlanadi.Bu yondashuvlar orasida **deduktiv** va **induktiv** usullar an’anaviy bo‘lsa, **kommunikativ**,

integrativ va **task-based** yondashuvlar tilni yanada amaliy va samarali o‘rgatishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning rivojlanishiga mos ravishda turli yondashuvlarni uyg‘unlashtirishi mumkin. Koreys tili grammatikasini o‘rgatishda tilning o‘ziga xos tuzilishi, grammatik qoidalar, ijtimoiy kontekst va tilning murakkabligi o‘quvchilarga qiyinchiliklar yaratishi mumkin. Shu sababli, o‘quvchilarga tilni o‘rgatishda bu o‘ziga xosliklarni hisobga olish, vaqti-vaqti bilan takrorlash va kontekstual misollar orqali o‘rgatish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1,박은희(2021). "텍스트 마이닝을 활용한 영어 쓰기교육 연구동향 분석", 응용언어학 37(3), 95-122.
2.신영현(2018). "대학생의 영어 글쓰기 능력 향상을 위한 교양영어수업 연구", 교양교육연구 12(4), 37-65
3.Andrews, R., Torgerson, C., Beverton, S., Freeman, A., Locke, T., Low, G., & Zhu, D. “The effect of grammar teaching on writing development”, British Educational Research Journal 32(1), (2006). 39-55
4.Brown, H. D. Principles of language learning and teaching (Vol. 4), New York: Longman.(2000).
5.Hinkel, E. “Research findings on teaching grammar for academic writing”, English Teaching 68(4), (2013). 3-21
6.Начало формы
7.Конец формы

Oqiljon MAVLONOV,
Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani
faxriy o‘qituvchisi

QORAKO‘Z – SOCHI BOSHDIN-AYOQ CHIN-U SHIKANLI MA’SHUQA QIZ
(Adabiyot muallimlari e’tiboriga taqdimot)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo‘shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo‘shildi.
Kalit so‘zlar: “Qaro ko‘zum” g‘azali, qora ko‘zli ma’shuqa, mavhumiy timsol, takovar, chin-u shikan.

Bu galgi maqolamiz yana o‘shal mashhur g‘azal “Qaro ko‘zum” asaridagi Yor obrazi borasida bo‘ladi. Shu mavzu navoiyshunos olimlar tomonidan juda ko‘p bahs-u munozaralarga sabab bo‘lgan. Misralarda shoir tarannum etgan bu timsol uzoq yillardan buyon shorihlarning qizg‘in tortishuvlar obyekti bo‘lib kelgan, ularni o‘ylantirgan, adabiy yechimi qiynagan, ba’zan chalkashtirgan ham. Bu muammo: g‘azaldagi obraz qizmi, er kishi (yigit)mi yo ovchi ma’shuqami degan bahs. Bilamizki , ushbu g‘azal shoir muxlislari va shorihlar o‘rtasida eng ko‘p munozaraga sabab bo‘lgan asar sifatida el orasida juda tanilgan. O‘ylab qolaman: balki o‘z vaqtida To‘ychi hofiz bu asar o‘rniga aytaylik, boshqa bir g‘azalni shu kuyga joylaganlarida bugun ana **o‘sha o‘zga g‘azal el aro dovrug‘ toparmidi**? Ehtimolki, “Qaro ko‘zum” g‘azali xalq orasida bu qadar ommalashib ketishining tub boisi ham shu “Ushshoq” kuyiga solinganidadir balki... **Bu g‘azalni shu kuyga solinmagan deb bir faraz qilib ko‘ring-a...** Shu g‘azalning shoirning boshqa asarlaridan farqi, o‘ziga xosligi nimada ?? Mazmunan bu g‘azal aniq yoshdagi, aniq shaxsga emas, umumlashgan yor timsoli tasviri va oshiq iztiroblari asosiga qurilgan. Asar bir mavhum (roq) fe’l-u xuyli, odamiylik (mardumlig‘) shevasidan (go‘yo) yiroq bir abstrakt yor – pari paykarga an’anaviy murojaatdan boshlangan... Unda bu asarning sirlilik xususiyati nimada ko‘rinadi? She’rning mazmun mundarijasidan anglashiladigan umumiy hissiy ta’sir moyasi – dard. Ko‘rinadiki, bu dard aniq obyekt – tarixiy real shaxs (adresat)ga bag‘ishlanmagan. Balki bu g‘azalning keng yoyilish mavqe obro‘si, afsuni ham mana shu **mavhumlik, umumiylik DARDdadir.** Bu asarni qaysi muxlis o‘qisa, o‘zining kechinmalarini, iztiroblarini, qalb azoblarini topishi, hissiyotlariga malham, hamdardona hamnishin-u taxayyuliy sohibi asror bo‘lishidadir. O‘zi asli nazm ibtidosi dunyo g‘am-u azobi, dard-u g‘ussalari, ahyon sevinch-u quvonchlari, komronlik tuyg‘ularidan boshlanmaydimi?! Demak, **dastlabki hissa**: bu g‘azalni kim mutolaa qilsa, o‘zining dard-u g‘amini, dil iztiroblarini, qalbini azoblayotgan shaxsiy kechinmalarini ko‘rgandek bo‘ladi. Yo‘q-yo‘q bugina emas, balki bu ohangga yo‘g‘rilgan nazmiy matn orqali o‘z yarasiga qandaydir malham, shifo yoxud qalb o‘g‘rig‘iga bir mo‘jizaviy sohibi asror hamnishin, ruhiy taskin topganini, yengillashganini anglaydi, ehtimol. Oqibatda, shu she’rga mehri tushadi, ko‘ngil qo‘yadi va yana, **va yana** uni tinglagisi, shu malhamiy taxayyuliy hislar olamiga qayta-qayta sho‘ng‘igisi, xayolan dardlashgisi kelaveradi... Bu bayon bizning shaxsiy xayoliy ehtimoliy mulohazalarimiz. Bu mavzuga mutaxassis navoiyshunos olimlarimiz nima derkin? G‘azalning bu qadar ommalashuviga, o‘n beshdan ortiq sharhlar yuzaga kelsa-da, hamon bahs-u munozaralar davomiyligiga sabab nimada? Ularning professional

kuzatuv xotimasi qanday ekan o‘zi? Chunki badiiy asarni har bir muxlis o‘z dunyoqarashi asosida har xil anglaydi-ku...

Navbatdagi fikr men boya yuqorida aytganimdek, g‘azalning bu abstrakt – mavhumiy timsoli kim? G‘azalning lirik qahramoni qizmi, yigitmi yoki ovchi ayolmi ekanligi borasida mutaxassis-olimlar hanuzgacha biror ilmiy yoxud ehtimoliy ishonarli yakuniy munosabatlarini ochiqlashganlari yo‘q. Bu savolga balki otliq yor tasvirlariga bag‘ishlangan shoir kulliyotida mavjud barcha g‘azal va baytlarni kuzatib undagi yor (qiz), ma’shuq (er kishi) yoki ovchi yigit tasvirlarining mana **shu otliq umumlashma obrazlar aks ettirilgan turkumga oid g‘azallaridagi foizidan** bir taxminiy (albatta, bu kuzatuv shoir asarlariga nisbatan ilmiy) xulosaga kelish mumkin bo‘lar. Buning uchun “**Navoiy g‘azallarida otlig‘ obraz – chobuk (suvor) tasvirlari va talqinlari ”** mavzusini biror iqtidorli bo‘lajak olimga ilmiy ish uchun berilmog‘i lozim bo‘lar. Ana shundagina harqalay bu bahs ilmiy yechimini topmasa ham, ehtimoliy yakuniy xulosaga olib boradi. O‘sha tanlanadigan nomzodning ustozi fors (tojik) tilini (qaniydi arab tilini ham) yaxshi bilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lurdi. Sababi: Navoiyga ma’naviy ilhom bergan salaf ustozlari ijodiga ham shu mavzu bo‘yicha yo‘l-yo‘lakay (qiyosiy) bir nazar solib o‘tish ham foydadan xoli emas... Balki, ”Devoni Foniy“ni ham obdon kuzatmoq lozimdir. Chunki bu g‘azal shoirning yoshlik yillarida yozilganini hisobga olsak, balki bu qora ko‘zli yor (pari) timsoliga turtki bergan, ilhom bag‘ishlagan manba o‘zanni ham topish ehtimoli bo‘lar. Yana bir qarash shuki, yorga nisbatan qorako‘z tasvirini berishning ibtidosi ham ehtimol forsiy she’riyatdadir. Chunki Navoiygacha bo‘lgan turkiy mumtoz manbalarda **ma’shuqaga qora ko‘zli** deb urg‘u berish va sifatlash holati sezilarli an’anaviy tasvir emas... Shu ma’noda bunday chizgilar ildizi ham fors-tojik nazmidan topilsa ajab emas. Navoiy ijodining hosilasi o‘laroq Bobur ijodida qorako‘zga bag‘ishlangan bir nechta ruboiylari mavjud. Bizningcha, yorni **qora ko‘zli ma’shuqa** tarzida aks ettirish (turkiy she’riyatda) Navoiy **nazmiga xos fenomen, eks-faktor** deb o‘ylayman. Va bu holat shoirdan keyin ijod qilishgan mumtoz adabiyotimiz g‘azaliyotida ham siyrak, ko‘p uchrayvermaydi. Voqean, shoir she’riyatidagi: **olam uyi, ahli olam, yana ko‘plab tasavvufiy timsollar** singari bir qator obrazlarni boshqa turkiy lirika ijodkorlarida aslo uchratmaymiz... Balki bunday tasvirlar fors-tojik nazmiyatida an’anaviy mavjuddir.

Endi shoir shu g‘azalida aks ettirgan timsol qizmi yo er kishi degan savolga birinchi marta g‘azal tahlili tarixida nufuzli bir tilshunos alloma ustoz bu... “**savolga yigit deb javob berishimiz kerak bo‘ladi”** degan fikriy talqinlaridan so‘ng ayrim shorihlar bu qat’iy hukmga ergashib g‘azaldagi manzur yigit obrazi deyilgan munosabatlarini ochiqlay boshladilar. Men hurmatsizlik qilib bu nufuzli olimni rad etmoqchi emasman. Ehtimol, uning ilmiy asoslari bordir. Bu muammo hamon munozarali, hanuz **iqtibosiy** isbotlanmagan. Bu borada tahliliy an’anaga ko‘ra **g‘azal matnining o‘zida bor dalil-iqtiboslardan chiqib kelib isbotlanishi shart**, degan qarashlar mavjud. Lekin biz shunga qo‘shimcha boya yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoir lirikasiga xos bo‘lgan **otliq timsol aks ettirilgan** kulliyoti (4 devonda ham)da mavjud barcha otliq obrazda tasvirlangan timsollarni **mutaxassis-olimlar tomonidan sinchkovlik bilan obdon kuzatilib**, ularni (tavsiflab: nechtasi qizga, nechtasida er kishi, qanchasida ovchi yor yo ma’shuq aks ettirilgan) guruhlarga ajratilib shu turkumda egallagan foizidan bir nisbiy xulosaga kelish ham o‘rinliroqdir.

Endi yuqoridagi olimning asardagi qahramon “**yigit”** deb javob berilishiga garchi men bir oddiy muxlis bo‘lsam-da, o‘z munosabatlarimni bildirish uchun yana bir mutaxassisning: “Bizningcha, asarda bor obrazdan chiqib kelishimiz kerak, yo‘q narsani to‘qib chiqarish kerak emas” (N.Jumayev) degan fikriga ko‘ra **g‘azal matniga asoslanib** ayrim mulohazalarni bildirmoqchiman:

Birinchidan, g‘azalning 2-baytida “**qadding niholig‘a**” iborasi qo‘llangan, an’anaviy bu tashbeh mumtoz she’riyatda (hech qachon) er kishiga nisbatan qo‘llanilmagan. Bir erkak chobuk (suvor)ni ko‘z oldingizga keltring-**a...** Keng yelkador, barvastaqad, mushaklari baquvvat, jang (harb) ilmi bilan chiniqqan, xullas, risoladagi suvoriy yigit. Unga nisbatan qanday qilib “**qading niholi” tasvirini qo‘llash mumkin?** Er kishiga atlas chopon yo lozim berilmaydi-ku...

Ikkinchidan, g‘azalning 3-baytidagi: **“Takovaringg‘a bag‘ir qonidin hino bog‘la”** misrasidagi **hina so‘zi** ham bir ramziy ishora, ma’noviy kalit bo‘la olur. To‘g‘ri, ovchilar qadimda ov oldidan qon chiqarish o‘rniga irim bilan otlari dumi, yoli va tuyoqlaridan yuqori qismi (shillik) ga hina surtishgan. Lekin umumiy planda foiz jihatidan qaralsa, o‘sha davrda ovchilar hunarmand ahlining oz qismini tashkil etishgan... Endi shu ozchilik foizi nisbatini ayollar tabiati: qizil rangga o‘chligi, hina bilan bezanishga o‘ta moyilliligi va yorning oshiq bag‘ir hamda ko‘z yoshi qoniga juda xumorligi, ishtiyoqmandligi (an’anaviy ramziy tasvir misolida) hisobga olinsa, **bu takovardagi timsol er kishi emas,** (shoshmay tur hali yigit, bir sening qoningni ichmasammi, deya) balki noz u ishva, g‘azmzali karashma-yu chobuklik mahorati bilan **biiiir oshiqni “o‘o‘o‘ldiirmak”ka azmi qaror qilgan**, qo‘lida hina-yu qaddi nihol bir nozanin obrazi ekanligi ayonlashadi:

Oshiq “o‘ldurmak” ka chiqmish mast, vah ishqim so‘zin,

Ey raqib, etsang ul beboki nodonimg‘a arz.

Uchinchidan, 5-baytning 2-misrasidagi: “**Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il**” iltimos-niyozmandligidagi “**soch**” so‘zi ham yana bir ishora. Bu misrani er kishiga nisbatan aytilgan deyish

qanchalar to‘g‘ri? Xo‘p, o‘shal yigitning sochi o‘sgan deylik. O‘sha davr muhitini esga olsak, o‘tsa ko‘z oldimizdan majnun yoki sochi o‘sgan darvesh timsoli tiklanar. Ularning sochi ham juda borsa, yelkasidan 3, 4 enli pastda bo‘lgandir... Sochi qopqog‘idan o‘tgan darvesh yoki Majnunni tasavvur qila olasizmi? Alhosil, olimning bu qarori **noo‘rindek tuyuladi...** Bu yerda gap zulfi taqmiga urgan, yor shilligini yopuvchi “bo‘yi-yu sochi teng” obraz haqda bormoqda... Bu sochlarning (misradagi ishqiy mubolag‘aga ko‘ra) “chin-u shikan”iga oshiq emas, uning ko‘ngil va tan xoklari yopishib qiz yuzi visoli tomon ko‘tarilish ilinji borasida gap ketmoqda. Demak, **bunday uzun soch er kishida bo‘lishi aslo mumkin emas.** Shu **iqtibosiy keltirilgan dalillarga muvofiq g‘azaldagi otliq obraz yigit kishi emas...**

To‘rtinchidan, agar g‘azalning maqta’sidagi novakni Najmiddin Komilov ustoz tahlilidagidek “boshoqlig‘ o‘q”qa nisbatan aytilgan bir talqin (garchi ayrim shorihlar buni inkor qilishayotgan bo‘lsa ham) ga asoslanib **bu yoyni ramziy yor kiprigi** deb qarasak, bu munosabat ham yana bizni quvvatlovchi bir dalil. Hali hech qachon tabiatan o‘zi ayollar vasfiga qaratilgan g‘azal janrida er kishi kiprigi tavsiflanmagan. (Busiz ham yuqorida uchta iqtibos otliq timsol er kishi ekanligini inkor etmoqda.) Bu obraz **”yigit“** deya qat’iy xulosa bergan olimimiz fikrini: “**Chunki it bilan o‘qdan uning ovchi (**yigit**)ligi ma’lum**” deb davom ettirganlar. Bu qarashga ham qo‘shilmaymiz. **It va o‘q qiz (**yor**) da** ham bo‘lishi tarixan aniq tabiiy hol. Bizningcha, **u ovchi** (ko‘ngil ovlashga, kuydirishga azmi qaror qilgan) **yor timsoli**. Bu haqda keyingi maqolalarimizda o‘z iqtiboslarimizni ochiqlaymiz...

Beshinchidan, g‘azal matla’sidagi “Qaro ko‘zum” undalmasi ham yigit kishiga qaratilgan deb qat’iy hukm berolmaymiz. To‘g‘ri, ota va bola munosabatlarida: “ko‘zimning oq-u qorasi” ma’nosidagi ibora ishlatiladi. Biroq, bu she’rda ishq-sevgi munosabatlari borasidagi dard tavsiflanmoqda. Shoir devonlarida “qorako‘z, ey qora ko‘z” sifatlashlari ma’shuqa – qizga nisbatan qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Shu asoslarga ko‘ra ham bu undalma (yigit) er kishiga qarata aytilgan deya munosabat berish noo‘rin. Demak, bu qora ko‘z – sochi uzuun manzura timsoli, bizningcha.

Endi navbatdagi yana bir bahsli savolga ham baholi qudrat to‘xtalsak. “Ma’shuq yuzida ter paydo bo‘lishi bilan oshiq joni tanani tark etishi o‘rtasida **qanday mantiqiy bog‘liqlik bor? Bu tushunarli emas...** Mana shu muammo g‘azal tadqiqotchi (mutaxassis-olim O.M.)larini ko‘p qiynagan, o‘ylantirgan, adashtirgan va **hanuzgacha o‘z ilmiy, ishonarli yechimini namoyon etmagan“,** deyilgan munosabatlar ham bor.

Avvalo, har bir narsaga ayniqsa, badiiy adabiyotga baho berishda mantiqqa qattiq yopishib olmaslik kerak. Badiiy adabiyot va mantiq ayrim o‘rinlarda bir nuqtada kesisholmaydi. Adabiyotni badiiylashtirish usullari: mubolag‘a, lof, bo‘rttirish, vahimalashtirish vositalaridan ko‘p va xo‘b foydalanishi boisidan **mantiq qolipi**da turolmaydi. Luzumga qat’iy solib qo‘yilsa u badiiyligini yo‘qotadi. Adabiyot: tuyg‘u, shavq-hayajon, extiros, hissiy kechinmalar, xayoliy taxayyullar, ruhiy evrilishlar, xirsiy junbushlar, tafakkuriy buxron(va hokazo)lar in’ikosi... Mantiq isbottalab, qolipli tafakkur shakli va qonuniyatlariga ko‘ra me’yoriy yechim kutuvchi soha. Shu ma’noda badiiyat va mantiq murosa qilolmaydi. Savolni: “...ter paydo bo‘lishi bilan oshiq joni tanani tark etishi o‘rtasida qanday **mantiqiy** bog‘liqlik bor” deb emas, **“**...**qanday hissiy -emotsional bog‘liqlik bor”** deb qo‘yilsa o‘rinli edi. Shunda bu savolga hayotdan va asardan javob olish mumkin bo‘lurdi. Masalan, biz kichikligimizda to‘ylarga olib kelingan o‘yinchi (raqqosa) xirom etib, turli noz-u ishvalar qilib, sho‘x va shaddodlik bilan o‘ynasa, yoshi katta tomoshabinlar: “ Ofarin, qoyil, ado qilding-u, o‘ltirding bizni, butkul tugatding-u; voydod, ado bo‘ldim-u” kabi luqmalar bilan davrani qizitishardi... E’tibor bersangiz bu so‘zlar barchasi muxlislar hissiy kechinmalarining so‘z vositasida ifodalanishi, ya’ni badiiy mubolag‘a, lof, bo‘rttirish, hissiy kechinmalar zuhuri.

From a cultural perspective, the Oneirosphere reflects the ways societies have historically understood and utilized dreams. In ancient civilizations such as Mesopotamia and Egypt, dreams were often seen as prophetic messages from the gods or ancestors, guiding personal and political decisions. Similarly, in indigenous traditions around the world, dreams serve as a spiritual connection to other realms, enabling communication with ancestors, spirits or natural forces. Artistic and literary traditions have also drawn heavily from the Oneirosphere, using dreams as a source of inspiration for storytelling, visual art and even music. Surrealist artists like Salvador Dalí and writers like Franz Kafka famously tapped into their dreamscapes to produce works that blur the lines between reality and imagination.

This study seeks to illuminate the scientific,

psychological and cultural dimensions of the Oneirosphere, emphasizing its relevance not only to individual well-being but also to broader human creativity and understanding. By examining the neurological mechanisms of dreaming, its psychological significance and its cultural manifestations, we can uncover new insights into this enigmatic aspect of human life. Dreams, far from being mere nighttime musings, are windows into the complexities of the mind and the rich tapestry of human existence.

Methods

This study synthesizes findings from psychological theories, neuroscientific research and cultural analyses to provide a multidisciplinary perspective on the Oneirosphere. Sources include Freud's psychoanalytic theories, Jung's exploration of archetypes and Hobson's activation-synthesis model of dreaming. Additionally, artistic representations of dreams in literature, visual art and film are analyzed to understand their broader cultural significance.

Results and Discussion

The Psychological Basis of Dreams. Sigmund Freud posited that dreams are "disguised fulfillments of repressed wishes" and serve as a bridge between the conscious and unconscious mind (Freud, 2010). He argued that the manifest content (the literal storyline of the dream) conceals the latent content (its hidden meaning). For example, a dream about flying may represent a desire for freedom or escape.

Carl Jung expanded this perspective by introducing the concept of the collective unconscious. He stated, "Dreams are direct, natural expressions of the current condition of the dreamer's inner world" (Jung, 1964). Jung believed that archetypes, such as the Hero or the Shadow, appear in dreams and reflect universal human experiences.

Neurological Mechanisms of Dreaming. Dreams primarily occur during the Rapid Eye Movement (REM) phase of sleep. John Allan Hobson's activation-synthesis theory suggests that dreams are the brain's attempt to make sense of random neural signals generated during REM sleep (Hobson, 1988). Additionally:

Memory consolidation studies show that REM sleep strengthens emotional memories, enabling better recall and processing of significant events (Walker, 2017).

Neuroimaging has revealed heightened activity in the amygdala and limbic system during REM sleep, linking dreams to emotional regulation (Barrett & McNamara, 2007).

Dreams in Culture and Art.

Dreams have long been a source of inspiration for art, literature, and film:

In Literature: Franz Kafka's The Metamorphosis uses dreamlike logic to explore existential themes, while Edgar Allan Poe's works blur the line between dream and reality (Kafka, 1915).

In Art: Salvador Dalí's The Persistence of Memory captures the surreal and illogical aspects of dreams, with melting clocks symbolizing distorted perceptions of time (Dalí, 1931).

In Cinema: Christopher Nolan's Inception explores the layers of dreams within dreams, portraying the Oneirosphere as a space where reality and imagination merge (Nolan, 2010).

Practical Implications of Dreams.

Dream research has practical applications in mental health and creativity:

Psychotherapy: Freud's dream analysis methods are still used in psychoanalysis to uncover subconscious fears and desires (Freud, 2010).

Lucid dreaming: Studies show that lucid dreaming can help individuals overcome recurring nightmares and enhance creative thinking (Barrett & McNamara, 2007).

Future technologies: Advances in neuroscience may enable dream recording or simulation, offering new possibilities for human-machine interaction and AI development (Hobson, 1988).

The Oneirosphere holds significant psychological implications. It is a space where the unconscious mind can express itself in ways that might not be accessible during waking consciousness. Through dreams, individuals can confront fears, desires and unresolved emotional conflicts. Jungian psychology, for example, views dreams as messages from the unconscious, offering symbolic representations of aspects of the self that require attention or integration.

Furthermore, the Oneirosphere can serve as a therapeutic tool. Techniques like **lucid dreaming**, where the dreamer becomes aware of their dream state and can consciously navigate the dream environment, have been explored as a means of self-exploration and personal development. Lucid dreaming allows individuals to engage with their unconscious mind in a more direct and intentional way, offering a path for deeper understanding and resolution of inner conflicts.

Conclusion

The Oneirosphere offers a fascinating glimpse into the human mind, blending psychological, neurological and cultural dimensions. Dreams are not merely random events but essential processes for emotional healing, creativity and memory consolidation. By exploring the Oneirosphere, we can better understand the subconscious mind and its profound influence on human life. Future research should aim to bridge the gap between subjective dream experiences and objective scientific understanding.

The Oneirosphere offers a compelling lens through which to view the realm of dreams. By exploring dreams as a mental landscape in its own right, we can

begin to understand the complex and transformative nature of the unconscious mind. This realm is not just a space for reflection and fantasy, but a place where the mind can process emotions, confront fears and engage in creative problem-solving. Dreams allow us to break free from the constraints of waking reality, offering a window into the vast, uncharted territories of the human psyche. Whether serving as a mirror to our waking life or as a source of inspiration and revelation, the Oneirosphere is an essential component of our mental experience—one that continues to intrigue, mystify, and inspire.

REFERENCES:

1.Freud, S. The Interpretation of Dreams. Basic Books, 2010.
2.Jung, C.G. Man and His Symbols. Doubleday, 1964.
3.Hobson, J.A. The Dreaming Brain. Basic Books, 1988.
4.Walker, M. Why We Sleep: Unlocking the Power of Sleep and Dreams. Scribner,
5.2017.
6.Barrett, D. & McNamara, P. (Eds.). The New Science of Dreaming. Praeger, 2007.
7.Kafka, F. The Metamorphosis. 1915.
8.Dalí, S. The Persistence of Memory. Museum of Modern Art, 1931.
9.Nolan, C. (Director). Inception. Warner Bros., 2010.

Maxsuda SHERBUTAYEVA,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA FOLKLORIZMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatida folklorizmlar va ularning tabiati xususida fikr-mulohazalar yuritiladi. Folklor stilizatsiyasi bilan bog'liq nazariy masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *so'z, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, folklorizm, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, stilizatsiya, alla, obraz stilizatsiyasi*

Аннотация: в данной статье рассматриваются фольклоризмы и их природа в поэзии Эшкабила Шукура. Анализируются теоретические вопросы, связанные со стилизацией фольклора.

Ключевые слова: *слово, литература, фольклор, фольклоризм, простой фольклоризм, сложный фольклор, стилизация, алла, стилизация образа.*

Annotation: this article examines folklorisms and their nature in the poetry of Eshkabil Shukur. Theoretical issues related to the stylization of folklore are analyzed.

Key words: *word, literature, folklore, folklorism, simple folklorism, complex folklore, stylization, alla, stylization of the image.*

So'z qudratli bir kuchdirki, butun olamni anglash-u anglanishlarida, insonning botiniy va zohiriy his-tuyg'ulari ifodasida, tasavvurlar cheksizligida namoyon bo'lguvchi sarchashma.So'zning qudratini chuqur anglashni esa biz bevosita adabiyot orqali his qilamiz. Shu sababli olam va odam o'rtasidagi sirli xilqat bo'lmish so'zning asl mohiyati adabiyot orqali anglashiladi. Bu haqida Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning aytgan quyidagi fikrlari ham juda o'rinli: "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi.Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak".(1)

Badiiy adabiyotning asosini esa bevosita donishmand xalqimiz hayoti davomida orttirgan tajribalari asosida yuzaga kelgan folklor namunalari tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Badiiy adabiyot esa xalq og'zaki ijodi namunalaridan oziqlanib, ulardan ulgu olib yanada rivojlanadi, boyiydi. Ayniqsa, yozma adabiyot og'zaki ijod namunalari asosida yaratilsa, ular o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatilsa yozma va og'zaki adabiyot uyg'unligidan durdona asarlar dunyoga keladi. Bu jarayon esa adabiyotda folklorizm atamasi bilan yuritiladi. Folklorizm — yozma adabiyotda qo'llangan og'zaki poetik ijod materiali.Ilmiy adabiyotlarda folklorizm "ikkinchi shakl" (K.Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi.(2) Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, yozuvchi va shoir xalq og'zaki ijodiga xos tasvirlash uslublaridan namuna olib, folklor materialidan ya'ni biror syujet yoki motivdan o'z

asarida foydalansa folklorizm sanalar ekan. Bu borada adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, professor B.Sarimsoqov o‘z maqolasida quyidagilarni aytib o‘tadi: “Ma’lumki, folklor va yozma adabiyot munosabati o‘z ichiga ijodkor asaridagi oddiy folklorizmdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchillik, milliylik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari, u yoki bu san’atkorlar mahoratining yo‘nalishi va unda folklor an’analarining ta’siri kabi masalalari bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o‘zaro ta’sir masalalarigacha qamrab oladi”.(3)

Oddiy folklorizmlardan farqli o‘laroq, murakkab folklorizmda yozuvchi va shoir xalq maqol-u iboralarini o‘z ijod namunasiga aynan olib kirmasdan folklorga xos tasvir uslubiga ergashib, shu yo‘nalishda asar yaratadi.O‘zbek adabiyotida murakkab folklorizmlarga mansub asar yaratish holati ko‘proq uchraydi. Biz bu jarayonni shoir Eshqobil Shukur she’riyatida ham kuzatamiz va uning murakkab folklorizm yo‘nalishidagi asarlarini tahlil etishga harakat qilamiz.Barchamizga ma’lumki, shoir Eshqobil Shukur folklor namunalaridan bo‘lmish xalq ertag-u dostonlari, afsona-yu rivoyatlari, milliy qo‘shiqlari mahorat bilan kuylangan muhitda tug‘ilib, voyaga yetgan. Ayniqsa uning onasi Tojixol aya qishloqning gapga chechan ayollaridan bo‘lgan. Shu sababli har bir gapida matal-u tashbehlardan, maqol-u o‘xshatishlardan mohirona foydalangan. Tabiiyki, bu muhit Eshqobil Shukurda adabiyot olamiga havasning uyg‘onishiga sabab bo‘lgan va xalq og‘zaki ijodi xazinasidan bahramand bo‘lishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan.

Shu o‘rinda folklorizmlarni tahlil etishdan oldin stilizatsiya terminiga izoh berib o‘tsak mavzu yanada oydinlashadi, nazarimizda.Stilizatsiya – muayyan badiiy-estetik maqsadlarni ko‘zlab o‘zga bir ijodkor, davr, adabiy yo‘nalish va shu kabilarga xos uslubiy xususiyatlarni qayta tiklashga asoslangan usul. Manbalarda biron bir ijtimoiy guruhga mansub shaxs tilining o‘ziga xos jihatlarini qayta yaratish ham stilizatsiyaning bir ko‘rinishi deb ta’riflanadi.(4) Demak, yozma adabiyotda folklorga mansub uslubga o‘xshatib asar yaratish ham stilizatsiyaning keng tarqalgan ko‘rinishi hisoblanadi. Jumladan, I.Mirzo “Farg‘onacha” she’ri, U.Azimning “Baxshiyona” turkumi, X.Davronning “Baxshi o‘g‘illari haqida rivoyat”, Faxriyorning “Baxshi sevgisi” kabi asarlarni xalq dostonlariga stilizatsiya qilish asosida yaratilgan deyish mumkin.

Folklor uslubida yaratilgan asar stilizatsion folklorizm namunasi hisoblanib, ular to‘rt turga ajratiladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Folkloriy ritm stilizatsiyasi. Bularning barchasi XX asrning 70-80 -yillari o‘zbek she’riyatida eng ko‘p uchragan folklorizmlar sifatida e’tirofga sazovor.(5)

Adabiyotshunos olimlarning ilmiy izlanishlariga tayanib aytishimiz mumkinki, yozma adabiyotda dastlab maqol, topishmoq, yo‘qlov, yig‘i kabi folklor janrlar stilizatsiya qilingan.Ma’lum vaqt o‘tgach esa yor-yor, kelin salom, alla kabi marosim folklori janlarining ham yozma adabiyot namunalari yaratila boshlangan.Eshqobil Shukur she’rlari orasida shu xususiyatga asoslangan namunalarni uchratish mumkin.Ma’lumki, o‘zbek oilalarida yangi tug‘ilgan chaqaloq beshikka solinib, unga onasi tomonidan alla aytiladi.Alla mazmunida esa farzandning baxt-u kamoli, kelajagi porloq bo‘lishi, sog‘- omon bo‘lishi niyat qilinadi. Shoirning “Hamal ayvoni” turkumiga kiruvchi “Mehrinisoga aytgan allamiz” she’ri ham milliy qadriyatlar ohanglari sezilib turgan va alla musiqiyligiga hamohang tarzda yaratilgan.

Allasini yulduz aytsin,
Tun aytsin, kunduz aytsin,
Ena qiz uxlasin, ena qiz…(6)

She’rda tun-u kunduzlar, ko‘kda porlab turgan yulduzlar ham alla aytib go‘dak oromi uchun ko‘maklashishi dastlabki jumlada yangrasa,

Qadamlarga kulsin eshiklar,
Go‘daklarga to‘lsin beshiklar.
Ena qiz uxlasin, ena qiz…

misralarida esa onalar niyatiga vobasta go‘dak kelishi oilaga quvonch olib kelishini va har doim beshiklarni go‘daklar to‘ldirib turish niyatini onajonlar tilidan ifoda etadi muallif. She’rdagi “Ena qiz uxlasin, ena qiz…” jumlasi alla musiqiyligini oshirsa, go‘dak qizaloqning “”Ena qiz” deb erkalatishda esa Surxon shevasiga xos milliylik yaqqol sezilib turadi.

Eshqobil Shukur ijodida marosim folkloriga xos an’analar bilan yo‘g‘rilgan she’rlar ham talaygina. Jumladan, “Mengim momoning yo‘qlovi” she’ri motam marosimiga daxldor marsiya ko‘rinishidagi namunadir. Yo‘qlov, asosan, vafot etgan kishining muayyan portreti, tiriklik paytida xalq uchun, o‘z yaqinlari uchun amalga oshirgan xayrli ishlarining tafsilotlari, xarakter-xususiyatlari motam tutuvchining ichki ruhiy kechinmalari fonida xotirlash ko‘rinishida bayon etiladi.(8) She’r inqilob davrida Sibirga surgun qilingach, chekka hududlarda o‘z-o‘ziga yo‘qlov aytib olamdan o‘tgan Mengim momo tilidan hikoya qilinadi. Odatda marsiya qo‘shiqlari olamdan o‘tgan insonni xotirlab kuylanadi. Mengim momoning o‘z-o‘ziga yo‘qlovi esa o‘zga yurtlarda xor-zor bo‘lib, umidsizlikka tushib qolgan momoning eldoshlari bilan vidolashuvi, xayrlashuvi desak to‘griroq bo‘ladi.Asli boymoqli qishlog‘idan bo‘lgan Mengim momo haqida suhbatlarni tinglagan shoir bu voqelikni she’r ko‘rinishiga keltiradi, momoning o‘sha ondagi kechinmalarini his qilib, ularni qog‘ozga tushiradi:

Tog‘dan toshlar qulaydi,
Ko‘zdan yoshlar qulaydi,
Qismatning qora qo‘li
Peshonangni silaydi.

Voy, Mengim-a, sho‘r Mengim.
Uvv!..Uv!!!(9)

O‘zga yurtlarda kafansiz o‘lim bilan yuzlashayotgan momo qishlog‘idan eski, kir bo‘lsa-da kiyib kelgan ko‘ylagini o‘ziga kafan deb biladi va vatandan yiroq bo‘lsa ham Vatani aslida uning yuragida ekanligini his etib baxtli holda dunyodan o‘tadi:

Go‘rim o‘z yuragimda,
Yurakda bordir Vatan.
Qishloqdan kiyib kelgan
Ko‘ylagim bo‘lsin kafan.
Voy, Mengim-a, sho‘r Mengim.
Uvv!..Uv!!!

Barchamizga ayonki, to‘y marosimi folklorining turfa ko‘rinishlari bor. Ulardan biri o‘zbek millatigagina xos bo‘lgan kelinni olib kelganda kelin-kuyov ustidan turli shirinliklarni sochishdir. Bundan maqsad kelinning qadami qutlug‘ bo‘lishi, har doim oiladan qut-baraka arimasligi kabi niyatlar ifodasidir. Eshqobil Shukurning “Chimildiq” she’rida ayni shu sochala sochish odatini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Chimildiq torlari silkindi,
Chimildiq, yo‘lga soch gulingni.
Kuyovning qomati ko‘rindi,
Yangalar turtadi kelinni.

Sochala sochingiz, sochala,
Sepini ochingiz, chechalar.(10)

Eshqobil Shukur ijodida bolalar folklori asosidagi folklorizmlar ham uchraydi. Uning “Yetim bola” she’ri aynan shu yo‘nalishda yozilgan ijod namunasidir.

O‘g‘liga berdi butun kulcha,
Menga berdi kuyuk kulcha

Bolalar folklorida xuddi shu ko‘rinishda bo‘lgan matnga shoir biroz o‘zgarishlar bilan quyidagicha ijodiy yondashadi:

Bug‘doyzorlar shovullar,
Tun kelib, kun o‘tguncha,
O‘gay onam chuvillar,
Bergani kuyuk kulcha.(11)

Muallif yetim bola iztiroblarini, uning o‘zgalarga aytolmay dilining tubida yashirin armoni – ona sog‘inchini ifodalashga harakat qiladi, go‘yo. Bundan tashqari xalqimiz tomonidan yaratilgan va kuyga solinib qo‘shiq bo‘lib yangrayotgan “Sumbula” nomli xalq og‘zaki ijodi namunasi ham shoir Eshqobil Shukur tomonidan qayta ishlangan. Bunda ushbu folklor namunasi muallif she’ridagi lirik qahramon kechinmalari bilan hamohanglik hosil qilib, shoir tilida o‘zgacha jaranglaydi:

“Sumbula yo Sumbula,
O‘rab olay gul bilan.
Mening ko‘nglim siz bilan-ey,
Siz ketasiz kim bilan?
Sumbula, jon, Sumbula”
Turnalarim ketmoqdalar ko‘zyoshday qator-qator.
Turnalarim ketmoqdalar sochlaringizday uzun.
Osmonda bulut bo‘lib yig‘laydi g‘amgin bahor,
Qaldiroqlar qulab ketar ko‘kdan yerga siz uchun.
Sumbula, jon, Sumbula.
Siz ketasiz kim bilan?(13)

Yoridan ayriliqda bo‘lgan oshiq ko‘nglidagi oh-u zorlarini sumbulaga murojaat tarzida aytadi. Shu o‘rinda shoir lirik qahramon iztirob ila to‘kkan ko‘zyoshlarini turnalar parvoziga mengzaydi va ayriliqda bahor ham bulut bo‘lib ko‘zyosh to‘kishini, qaldiroqlar esa bu ayriliqqa dosh berolmay yerga qulab tushayotganini o‘ta mohirona o‘xshatishlar bilan ifoda eta olgan. Muallif she’rda milliylik va xalqona ohangni saqlab qolishga harakat qilgan va buning uchun o‘sha folklordan aynan iqtibos keltirish orqali ijodiy foydalangan. Bunga esa har bir band boshlanishida “Sumbula, jon, Sumbula, Siz ketarsiz kim bilan?” parchasini takror qo‘llash orqali erishilgan.

Adabiyotshunoslikda folklor obrazlarining yozma adabiyot tomonidan o‘zlashtirilishi “obraz stilizatsiyasi” termini bilan ataladi.Eshqobil Shukur tomonidan xalq dostonlari qahramonlari Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabi obrazlar stilizatsiya qilingan. Jumladan, uning “Alpomish dostoni ohanglarida” she’ri aynan obraz stilizatsiyasining namunasidir.

Yotib yesa, tog‘lar ham
Oda bo‘lar, yoronlar,
To‘rt-besh kaypang biriksa,
Poda bo‘lar, yoronlar

She’rda dostonga xos ohangdorlikni, milliylikni va shuningdek, “Alpomish” dostoniga xos syujet elementlarini ko‘rishimiz mumkin:

Ikki urug‘ birlashsa,
Quda bo‘lar, yoronlar.
Ikki urug‘ o‘rlashsa,
Oda bo‘lar, yoronlar.

Eshqobil Shukur ijodida shu kabi folklorizm namunalarini ko‘plab uchratishimiz mumkin. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘zbek adabiyotida folklorizm masalasi, shuningdek, shoir Eshqobil Shukur yaratgan she’riy va nasriy folklorizmlarni tahlil qilish, chuqurroq o‘rganish shoir poetik olamini, obrazlar tabiatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.president.uz. Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni ochilishidagi nutqidan. 20.05.2020
2. Sarimsoqov.B. Folklor va o‘zbek adabiyoti munosabatlariga doir izlanishlar. O‘zbek tili va adabiyoti. 1975. 5-son.
3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.:Akademnashr, 2010.118-b

4. L. Sharipova. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizmlar. Avtoreferat. –Toshkent., 2008.18-b.
5. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T.:” Sharq”, 2002. 14-b
6. O.Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent:“Musiqa” nashriyoti,2010. 147-bet
7. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 14-b
8. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 14-b
9. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 31-b
10. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 45-b
11. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 45-b
12. E.Shukur. Hamal ayvoni. –T,” Sharq”, 2002. 40-b

Shalola DAVLETOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universtiteti tayanch doktoranti
E-mail: shaloladavletova96@gmail.com

BORXES IJODIDA DINIY VA FALSAFIY ELEMENTLAR

Annotatsiya:inson hayot mohiyatini anglashga urinishni boshlagan zamonlardan beri diniy qarashlar ildiz ota boshlagani tarixdan ma’lum. Din va u bilan baqamti falsafiy qarashlar bu savolga ma’lum darajada javob topish mumkin bo‘lgan sohalardir. Aynan shuning uchun ham badiiy adabiyotni din va falsafaning rolisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ushbu maqolada Borxes ijodida diniy g‘oyalar hamda aqidalarning roli, falsafiy qarashlarning yozuvchi ijodini shakllantirgan omillardan biri ekanligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *yahudiylik dini, falsafa, xristianlik aqidalari, hikoya, islom dini, panteizm, Bibliya, alif, Qur’on*

Annotation:it is known from history that since the times when a person began to try to understand the essence of life, religious views began to take root. Religion and the baqamti philosophical views with it are areas in which an answer to a certain degree can be found to this harmonious question. For this reason fiction cannot be imagined without the role of religion and philosophy. This article talks about the role of religious ideas and creeds in the work of Borges, the fact that philosophical views are one of the factors that shaped the writer’s creativity.

Key words: *judaism, philosophy, Christian creeds, story, Islam, pantheism, Bible, alif, Qur’an*

Аннотация:из истории известно, что религиозные взгляды начали укореняться со времен, когда человек начал пытаться постичь суть жизни. Религия и связанные с ней философские взгляды-это области, в которых в определенной степени можно найти ответ на этот вопрос существования. Именно поэтому художественная литература немыслима без роли религии и философии. В этой статье рассматривается роль религиозных идей и догматов в творчестве Борхеса, а также тот факт, что философские взгляды являются одним из факторов, сформировавших творчество писателя.

Ключевые слова: *религия иудаизма, философия, христианские догматы, история, Ислам, пантеизм, Библия, Алиф, Коран*

Kirish. Borxes hikoyalaridagi diniy va falsafiy elementlar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar Borxes dahosi, uning diniy va falsafiy qarashlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lish uchun qimmatli manbalar hisoblanadi. Protestant buvisi hamda bolalikdagi yahudiy do‘stlarining yozuvchi badiiy faoliyatiga ta’sirini din uning asarlaridagi asosiy elementlardan biriga aylanganidan yaqqol anglash mumkin.Borxes hikoyalarida panteizm , ekzistensializm , Berkeley idealizmi singari falsafiy oqimlar ijodkor badiiy tafakkuri bilan uyg‘unlashib ketgan. Shu sababli ham ko‘plab tanqidiy asarlarning bosh mavzusiga aylangan makon va zamon singari mavhum falsafiy tushunchalar Borxes asarlarining markazida turadi.

Natijalar va munozara.Borxes hikoyalarida diniy elementlar personajlar shaxsiyati (ularning turli dinlarga mansubligi orqali), muqaddas kitoblar va hikmatli so‘zlar orqali; falsafiy qarashlar esa yozuvchi uslubidagi

jumboqlilik, simvolik obrazlar, detallar vositasida uyg‘unlashib ketgan. Amerikalik tadqiqotchi Karter Uilok Borxesni “xudosiz” va “agnostik” deb atagan bo‘lsa-da, Borxes o‘zining xristianlik va yahudiylik singari dinlarga dahldorligini o‘z ijodida keltirgan allegorik tasvirlar va didaktik hikoyalari orqali namoyish etadi.“Borxes masal yozuvchi sifatida” maqolasida Robin Lidenberg “axloqiy qarashlarga asoslangan masal adabiy shaklidan Borxes mutlaqo o‘zgacha qisqa fantastik janrni yaratdi” deydi. (32) Fikrini davom ettirarkan, Lidenberg Boxesning masallari shunchalik batafsil yoritilganligi jihatidan Bibliyaga o‘xshab ketishi hamda o‘quvchi o‘zini masal ichidagi obrazlardan biri sifatida tasavvur eta boshlashini qo‘shimcha qiladi. Ammo u yana bibliyaga oid masallar bilan Borxes masallari aynan bir xil emas, chunki Borxes asarlari ko‘picha klostrofobik (ichki qo‘rquv) hislar bilan uyg‘unlashib, ong oqimida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi.

Borxesning simvollardan badiiy vosita sifatida foydalanishga moyilligi uning parabolik (allegorik) yozish uslubi tanlovining asosiy sababidir. “Jumboqli vaziyat: Kafka va Borxes masallari” maqolasida Ben Bellit Borxes uslubini Franz Kafka uslubi bilan qiyoslaydi. Chunonchi, Borxes asarlarida Kafkaga murojaat qiladi.Ben Bellit ikkala yozuvchining asarlariga “jumboqli” sifatini berganiga asosiy sabab Borxes Kafkaning labirint parabolik uslubidan foydalanadi. Maqola so‘nggida Bellit shuningdek, Borxes asarlarini “Kabala” (yahudiy tasavvufiga asoslangan) asarlari bilan ham qiyoslaydi.

Borxesning kabalistik asarlar bilimdoni ekanligini hamda ushbu adabiyotga qiziqishini ochib beruvchi tanqidiy asarlar ham mavjud bo‘lib, Neil H.Golderning 1978-yildagi dissertatsiyasi shunday nomlanadi: “Xorxe Luis Borxes va hozirgi Qubala” . “Borxes, sirli mo‘jiza” maqolasida Jorj R.Makmurrey “Sirli mo‘jiza” hikoyasining bosh qahramoni chexoslovak yahudiy Jaromir Hladlik Borxesning o‘z shaxsiy qiyofasidir deya ta’kidlaydi. Borxes va Jaromir ikkovi ham “yahudiy madaniyati hamda kabalaga qiziqadi; ikkovi ham she’rlar yozadi; ikkala obraz ham hayotini adabiyotga bag‘ishlaydi” (43). Mathyu R.Sanders va Uilyam Sandersning “Borxesning Rabbinlar g‘ayrioddiy ertaklari” maqolasi shunday xulosalanadi: “Borxes yahudiy madaniyatidan boy bilimga ega”. Bu xulosani ular Borxes hikoyalarida keltirilgan yahudiy ilohiyotiga oid misollar bilan dalillashadi.

Borxes asarlaridagi kabalaga murojaatlar tadqiqi Jemi Alazraki muallifligidagi “Borxes va Kabala” va “Borxes hikoyalaridagi kabalistik qarashlar” hikoyalarida ham beriladi.Ikkinchi maqolada Alazraki “Borxes hikoyalarida kabala tasodifiy tushuncha emas, Borxesning kabala haqidagi bilimlari shunchaki tasodifiy tushunchalarga qaraganda chuqurroq tadqiq etiladi” (185) deydi. Alazraki ta’kidlashicha Borxes kutubxonasida bir nechta Kabalistik kitoblar bo‘lgan va ular Borxes ijodiga o‘z ta’siri ko‘rsatmay qolmagan.Borxes Kabalani chuqur o‘rganganligini u kabalistik usuldagi ijoddan ya’ni oksimoron hamda paradokslardan unumli foydalanganidan ham anglash mumkin.

Borxes yahudiylarning diniy ta’limotidan chuqur bilimga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, uning xristianlik dini va badiiyatidagi bilimlari ko‘lam borasida ustunlikni kasb etadi. Devid Uilyam Foster Borxes ijodiga Bibliyaning ta’siri haqida to‘xtalib o‘tar ekan, “tanholik nazariyasi, universal timsol, mukammal falsafa yoki afsona, hamma narsani qamrab oluvchi yagona kitob, borliqdagi jumboqlarga yagona kalit - Bibliya, uning barcha asarlarida namoyon” deydi (348). Borxesning Xristianlik dinidagi mavzular va motivlar Jon Dominik Krossanning “Iso va Borxesdagi badiiy kulgili esxatologiyaga qarshi reyd” kitobida ham tahlil qilinadi. Bu kitobda Krossan Borxes asarlarini Bibliyadagi maqollar, masallar va boshqa go‘zal badiiy shakllar bilan qiyoslaydi. U tadqiqot vazifasi etib Borxes metodologiyasini o‘rganish hamda Bibliya va Borxes asarlaridagi vaqt va odamlar qiyosini belgilaydi.

Borxes tarixiy voqealardan fantastik asarlar yaratishi uning kitobxonlariga yaxshi ma’lum. Ba’zida u xristianlikka tayangan holda o‘z ilohiy ta’limotini yaratayotgandek tuyiladi. Karter Uilokning “Borxes, jasurlik va xohish” maqolasi Borxesning insoniyat bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurashi tasviriga bag‘ishlanadi. Uilokning fikriga ko‘ra, Borxesning yaxshi va yomon haqidagi hikoyalarida xristianlikdagi “imon va mustahkam iroda” singari elementlar mujassam. Borxesning o‘zi kurashishlar insonlarning konfliktga qarshi harakati deya izoh bersa-da, Uilokning fikricha Borxes agar borliqda konfliktlar bo‘lmasa, inson o‘ylashga ham, kimligini anglashga ham harakat qilmagan bo‘lardi degan g‘oyani anglatmoqchi bo‘ladi. (378)

Eyzenberg muallifligidagi “Alef to‘quvchi: Borxesdagi bibliyaga oid, kabalistik va yahudiy elementlar” kitobi Borxes ijodiga bu dinlarning ta’siri borasida asosli manbadir. Bir qismi yahudiylik, yana bir qismi xristian dini haqidagi mulohazalarga boy bu asar Borxesning bu ikki ta’limotga qiziqishini ochib bergan.Alef to‘quvchini qaysidir ma’noda biografik asar deyish ham mumkin, chunki u Borxesning yahudiylik ta’limoti haqidagi bilimlarini

uning bolalik yillariga bog‘lagan holda ya’ni yahudiy maktabiga qatnagan davrini ham yoritib bergan. Borxeslar bilan birga yashagan uning otasi tarafdan buvisi juda dindor protestant bo‘lib Bibliyani yoddan bilgan. (4)

Borxes hikoyalarida xristianlik, yahudiylik va falsafiy qarashlar bilan bir qatorda islom dini ta’limotiga ham murojaat qilinadi. Hayratlanarli jihati shundaki, Borxes ijodida islom dini kam tadqiq qilingan. Islom diniga qilingan murojaat ko‘p hollarda ochiqdan-ochiq bo‘lmasa-da, islom aqidalari asar davomidagi voqealar rivoji tarkibida zimdan filtrlanadi va kutilmagan daqiqalarda tantanali ravishda o‘zini namoyon etadi: Qur’ondan iqtiboslar, “Ming bir kecha” turkumidan havolalar keltiriladi. Borxesning islomiy mazmunga murojaat qilgan turli vaziyatlari har bir hikoyada turlichalik kasb etadi. “Borxesning 1933-1956 yillarda yozgan islomga oid o‘nlab hikoyalari to‘g‘ri tartibda tuzilib talqin qilingani “Islom” dinini tushunishdagi murakkabliklar haqida xabardorlik kuchayganidan dalolatdir” .

Borxes aksariyat hikoyalarining bosh qahramonlari musulmon personajlar ekanligi yozuvchining islom dini ta’limotidan yaxshigina bilimga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ulardan biri Borxesning “Averros izidan” hikoyasida islom dinining muqaddas kitobi Qur’on bevosita keltirilgan hamda bosh qahramon Averros ong oqimida kechadigan savollar hamda asardagi boshqa obrazlar bilan kechadigan islomiy muhokamalar ham o‘rin olgan. Bundan tashqari, Borxesning “Alef” va “Zohir” hikoyalari islomiy konsepsiyalar chuqur singdirilgan asarlaridandir.

Xulosa.Xorxe Luis Borxes ijodini o‘rganish jarayonida uning hikoyalaridan quyidagi diniy-falsafiy elementlar o‘rin olgan degan xulosaga kelish mumkin.

1. Yahudiy maktabiga borganligi sababli yahudiylik dini; protestant buvisining ta’siri ostida xristianlik dini elementlari.

2. Borxes falsafasida panteizm, ekzistensializm, Berkeley idealizmi singari oqimlar ta’sirlanganlikni kuzatish mumkin.

3. Borxes Kabalani chuqur o‘rganganligini u kabalistik usuldagi ijoddan ya’ni oksimoron hamda paradokslardan unumli foydalanganidan ham anglash mumkin.

4. Xristianlik dini aqidalaridan yaxshi bilimga egaligi sababli, Borxes hikoyalarida unga tayanib o‘zining ilohiy ta’limotini yaratayotgandek tuyiladi.

5. Islom dini ham Borxes ijodining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘nlab hikoyalarida Qur’ondan iqtiboslar keltirib, musulmon personajlar vositasida o‘z badiiy niyatini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almond, Ian. Borges the post-orientalist: images of islam from the edge of the west. Project muse. http://muse.jhu.edu

2. Alazraki, Jamie. Borges and the Kabbalah. TriQuarterly 25 (1972): 240-267

3. Bellit, Ben. “The enigmatic predicament: some parables of Kafka and Borges”. TriQuarterly 25 (1972): 212-237.

4. Carter: A collection of essays. Ed. Catherine Vera and George R. McMurray. Laramie: U of Wyoming P, 1981. 43-48

5. Crossan, John Dominic. Raid on the articulate: Comic estachology in Jesus and Borges. New York: Harper and Row, 1976.

6. Foster, David William. Borges and Structialism: Toward an Implied poetics. Modern Fiction studies 19.3 (1973) 341-351

7.Golder, Neil.H. Jorge Luis Borges and Contemporary Quabalah.DAI x (1978). Cornell U.

8. Lyudenberg, Robin. Borges as a writer of Parables: Reversal and Infinite Regression. International fiction review 6 (1979): 31-39.

9. McMurray, George R. Borges, The secret miracle: A self concious, self-begetting fiction. In honor of Boyd G

10.Sanders, Matthew R., and William Sanders. Borges’ Rabbinic extraordinary tales. Romance notes 15 (1974): 602-604.

11. Wheelock, Carter. Borges, courage and will. International fiction review 2.2 (1975): 101-105.

Madina TOSHQO'ZIYEVA ,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
1-bosqich PhD tayanch doktoranti

INTERNET DISKURSI TILINING LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada internet diskursi tilining asosiy lisoniy xususiyatlari, internet kommunikatsiyada qo'llaniladigan til vositalari va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Internet tilining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy holati o'rganilgan. Tadqiqot natijasida internet diskursining lingvistik aspektlari, uning funksional xususiyatlari va nutqiy voqelanishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *internet diskurs, virtual kommunikatsiya, kibertil, neologizmlar, internetsleng, emotsional markerlar*

Аннотация: в этой статье анализируются основные языковые особенности языка интернет-дискурса, языковые средства, используемые в интернет-коммуникации, и их специфические аспекты. Изучено становление, развитие и современное состояние языка интернет. В результате исследования выявлены лингвистические аспекты интернет-дискурса, его функциональные особенности и речевая реализация.

Ключевые слова: *интернет-дискурс, виртуальная коммуникация, кибертиль, неологизмы, internetsleng, эмоциональные маркеры*

Annotation: this article analyzes the main linguistic features of the internet discourse language, the language tools used in internet communication, and their specifics. The formation, development and modern state of the Internet language has been studied. As a result of the study, the linguistic aspects of internet discourse, its functional features and speech phenomena have been identified.

Keywords: *internet discourse, virtual communication, cybertil, neologisms, internetsleng, emotional markers.*

Kirish. Internet kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi natijasida yangi til muhiti - internet diskursi shakllandi. Bu muhitda an'anaviy til me'yorlaridan farq qiluvchi o'ziga xos lingvistik xususiyatlar paydo bo'ldi [1]. Internet diskursi tili virtual kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida alohida o'rganishni talab etadigan hodisaga aylandi. Tadqiqotning maqsadi internet diskursi tilining lisoniy xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tavsifiy, qiyosiy-tipologik va komponent tahlil usullaridan foydalanildi. Internet diskursi tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishda ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi.

Crystal [2] internet tilini maxsus "kibertil" sifatida tavsiflaydi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Herring [3] kompyuter vositasidagi diskursning lingvistik jihatlari va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida Mengliyev va Xudoyberganova [4] internet diskursining milliy xususiyatlarini o'rganishgan. Rus tilshunosligida Galichkina [5] virtual kommunikatsiyaning lisoniy aspektlarini tahlil qilgan.

Natijalar va muhokama. Internet diskursi tilining asosiy lisoniy xususiyatlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, leksik jihatdan internet diskursi tilida neologizmlar va yangi so'z yasalish modellarining faol qo'llanilishi kuzatiladi. Bu jarayon, ayniqsa, texnologik rivojlanish bilan bog'liq yangi tushunchalarni ifodalashda yaqqol ko'rinadi. Internetsleng va professional jargonimlarning keng tarqalishi ham internet diskursi tilining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi [6]. Bundan tashqari, vaqtni tejash va tezkor muloqot maqsadida abbreviatura hamda qisqartmalarning ko'p ishlatilishi ham xarakterlidir.

Ikkinchidan, grammatik jihatdan soddalashtirilgan sintaktik konstruksiyalarning ustunligi kuzatiladi. Bu holat virtual muloqotning tezkorligi va qulayligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, an'anaviy punktuatsiya qoidalaridan chetga chiqish hollari ko'p uchraydi. Og'zaki nutq elementlarining yozma shakldagi voqelanishi ham internet diskursi tilining muhim xususiyati sanaladi [7].

Uchinchidan, pragmatik jihatdan emotsional markerlarning (emotikonlar, stikerlar) keng qo'llanilishi xarakterlidir. Bu vositalar yozma muloqotda emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalash imkonini beradi. Matnning gipermatnli tashkil etilishi va virtual identifikatsiya vositalarining mavjudligi ham internet diskursi tilining o'ziga xos jihatlari hisoblanadi [8].

Virtual kommunikatsiyada til me'yorlaridan chetga chiqish hollari kuzatilsa-da, bu holatlar kommunikativ samaradorlikka xizmat qiladi [9]. Internet muhitida tilning yangi funksional variantlari shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Bu jarayon zamonaviy jamiyatning kommunikativ ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, til tizimining tabiiy evolyutsiyasi sifatida baholanishi mumkin.

Internet diskursi tilining rivojlanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan lingvistik innovatsiyalar tez tarqaladi va keng ommalashadi. Bu jarayonda yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishi, ularning variativligi va transformatsiyasi kuzatiladi [6].

Internet diskursi tilida kodlar almashinuvi (code-switching) hodisasi ham keng tarqalgan. Bu ayniqsa ikki va undan ortiq tillarni biladigan foydalanuvchilar nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek internet segmentida o‘zbek-rus, o‘zbek-ingliz tillari elementlarining aralash qo‘llanilishi kuzatiladi. Bu holat zamonaviy virtual kommunikatsiyaning xarakterli xususiyati hisoblanadi [4].

Internet diskursi tilida paralingvistik vositalarning o‘ziga xos tizimi shakllangan. An'anaviy nutqda intonatsiya, imo-ishora va mimika orqali ifodalanadigan ma'nolar virtual muhitda maxsus grafik belgilar, emotikonlar va stikerlar yordamida ifodalanadi. Bu vositalar foydalanuvchilarga o‘z emotsional holatini samarali ifodalash imkonini beradi [8].

Virtual kommunikatsiyada genderlashgan til xususiyatlari ham kuzatiladi. Ayol va erkak foydalanuvchilarning til xususiyatlari, so‘z tanlash va ifoda usullarida ma'lum farqlar mavjud. Masalan, ayol foydalanuvchilar ko‘proq emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanishsa, erkak foydalanuvchilar ko‘proq neytral va rasmiy til elementlarini afzal ko‘radilar [9].

Internet diskursi tilida milliy-madaniy xususiyatlar ham o‘z aksini topadi. Har bir milliy internet segmentida o‘sha xalqning mentaliteti, qadriyatlari va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq lingvistik elementlar shakllanadi. Bu jihatdan internet tili madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi [10].

Internet diskursida neologizmlarning shakllanish mexanizmlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Yangi so‘zlar asosan quyidagi usullar bilan hosil bo‘ladi:

- ✓ mavjud so‘zlarning ma'no kengayishi;
- ✓ kompozitsiya (so‘z qo‘shish);
- ✓ abbreviatsiya;
- ✓ o‘zlashma so‘zlarning fonetik va grammatik adaptatsiyasi.

Internet diskursi tilida uslubiy chegaralarning yo‘qolishi tendensiyasi kuzatiladi. Rasmiy va norasmiy uslub elementlari erkin qo‘llaniladi, bu esa kommunikativ maqsadga erishishni osonlashtiradi. Shuningdek, internet tilida ekspressivlik va kreativlik muhim o‘rin tutadi. Foydalanuvchilar o‘z fikrini original tarzda ifodalashga intiladilar.

Internet diskursi tilida gipertekstuallik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Matnlar o‘zaro bog‘liq va ierarxik tarzda tashkil etiladi. Bu xususiyat foydalanuvchilarga kerakli axborotni tez topish va ma'lumotlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Virtual kommunikatsiyada vaqt va makon chegaralarining yo‘qolishi til xususiyatlariga ham ta'sir ko‘rsatadi. Real vaqtdagi muloqot (sinxron kommunikatsiya) va kechiktirilgan muloqot (asinxron kommunikatsiya) o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, internet diskursi tili dinamik rivojlanuvchi tizim sifatida zamonaviy jamiyatning kommunikativ ehtiyojlariga moslashmoqda. Bu jarayonda yangi lingvistik normalar shakllanmoqda va til tizimining evolyutsiyasi sodir bo‘lmoqda.

Xulosa.Internet diskursi tili zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Internet diskursi tili an'anaviy til me'yorlaridan farqlanuvchi o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar leksik, grammatik va pragmatik sathlarda namoyon bo‘ladi. Leksik jihatdan neologizmlar, internetsleng va qisqartmalarning ko‘pligi; grammatik jihatdan soddalashtirilgan konstruksiyalarning ustunligi; pragmatik jihatdan emotsional markerlarning faol qo‘llanilishi xarakterlidir.

Virtual kommunikatsiyada yangi til vositalari va ifoda usullari shakllanmoqda. Paralingvistik vositalarning o‘ziga xos tizimi, kodlar almashinuvi, gipertekstuallik kabi xususiyatlar internet diskursi tilining evolyutsiyasini belgilaydi. Bu jarayonda milliy-madaniy omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Istiqbolda internet diskursi tilining yanada rivojlanishi, yangi lingvistik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi va virtual kommunikatsiyaning yangi shakllarining shakllanishi kutilmoqda. Bu jarayonlarni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. London: Routledge.
2. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
3. Herring, S. C. (2012). Grammar and Electronic Communication. Encyclopedia of Applied Linguistics.
4. Mengliyev, B., Xudoyberganova, D. (2020). Internet diskursining lingvistik xususiyatlari. Toshkent.
5. Galichkina, E. N. (2018). Kompyuternaya kommunikatsiya. Moscow.
6. Baron, N. S. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press.
7. Thurlow, C. (2011). Digital Discourse: Language in the New Media. Oxford.
8. Yus, F. (2011). Cyberpragmatics: Internet-mediated communication in context. Amsterdam.
9. Androutsopoulos, J. (2006). Introduction: Sociolinguistics and computer-mediated communication. Journal of Sociolinguistics.

Shaxzoda XAMROYEVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
shkhamroeva@gmail.com

JEFFREY ARCHER “NOT A PENNY MORE, NOT A PENNY LESS” ASARIDAGI MUALLIF MUSHOHADASINING SEMANTIK-STILISTIK TAHLILI

Annotatsiya: so‘nggi yillarda badiiy matndagi muallif kategoriyasi, muallif modalligi, muallifning individual uslubi singari muammolar ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Badiiy asar kompozitsion, strukturaviy va murakkab tizimdir. Matndagi turli semantik, stilistik birliklarni tanlash va ularning matndagi ishlatilishi muallifning individual uslubini namoyon etadi. Tadqiqotchilar matnning lingvistik va kompozitsion dizaynida ifodalangan muallif obrazining kategoriyasini stilistikada matnning tuzilishini belgilovchi, uning yaxlitligi va birligiga erishishni belgilovchi markaziy kategoriyalardan biri sifatida qaraydilar. Ushbu maqolada badiiy matnning muhim elementlaridan hisoblangan muallif mushohadasi semantik-stilistik tahlilga tortilgan. Asardagi muallif mushohadasida badiiy asarning boshqa elementlaridagi singari stilistik vositalar mavjudligi aniqlandi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *muallif mushohadasi, muallif uslubi, fonetik stilistik vositalar, leksik stilistik vositalar, parallelizm, antiteza, epifora, alliteratsiya.*

Аннотация: в последние годы проводится много исследований по таким проблемам, как авторская категория, авторская модальность, индивидуальный стиль автора в художественном тексте. Художественное произведение представляет собой композиционную, структурную и сложную систему. Выбор в тексте различных смысловых и стилистических единиц и их использование в тексте раскрывают индивидуальный стиль автора. Исследователи рассматривают категорию авторского образа, выраженную в языковом и композиционном оформлении текста, как одну из центральных категорий, определяющих структуру текста в стилистике, определяющих достижение его целостности и единства.В данной статье семантико-стилистическому анализу подвергается авторское размышления, которое считается одним из важных элементов художественного текста.

Ключевые слова: *авторское наблюдение, авторский стиль, фонетико-стилистические средства, лексико-стилистические средства, параллелизм, антитеза, эпифора, аллитерация.*

Annotation: in recent years, many studies have been conducted on such problems as the author’s category in a literary text, the author’s modality, and the author’s individual style. A literary work is a compositional, structural and complex system. The choice of various semantic and stylistic units in the text and their use in the text reveal the individual style of the author. Researchers consider the category of the author's image, expressed in the linguistic and compositional design of the text, as one of the central categories that determine the structure of the text in stylistics, determining the achievement of its integrity and unity.In this article, the author’s medietion, which is considered one of the important elements of a literary text, is subjected to semantic-stylistic analysis.

Key words: *author’s mediation, author’s style, phonetic and stylistic devices, lexical and stylistic devices, parallelism, antithesis, epiphora, alliteration.*

Badiiy asar kompozitsion tuzilmasining ajralmas bo‘lagi sanalgan muallif obrazi tushunchasi XX asr boshlarida olimlar diqqat markazida bo‘lib, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida qaralgan. Muallif lison shaxsi, muallif nutqi, muallif uslubi va muallif obrazi tushunchalari badiiy asarlarni o‘rganishda markaziy muammolardan biriga aylandi [18; 21; 22; 23; 24]. Muallif obrazi badiiy asar tuzilishida mavjud bo‘lgan, voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatmaydigan, ko‘pincha syujet bilan zaif yoki sof rasmiy aloqaga ega bo‘lgan asar kompozitsiyasidagi syujetdan tashqari elementlarda ham namoyon bo‘ladi. Ayni elementlari muallif mulohazalarini ifodalab, asar mazmuni ko‘lamining yanada chuqur ochib berilishida muhim ahamiyatga ega. Badiiy asar voqealar rivojida muallif obrazining ishtiroki yaqqol yoki aksincha yashirin tarzda namoyon bo‘lishi asarning janriga, yozilgan davriga, g‘oyaviy-estetik mazmuniga va ijodkorning individual ijodiy yondashuviga bog‘liq.

Olib borilgan tadqiqot natijalari lisoniy hodisalarni keng miqyosda tadqiq etuvchi matn lingvistikasi sohasi rivoji bilan badiiy matn va uning alohida komponentlari tahlili muhim ahamiyat kasb etishini namoyish qildi. Bir qator olimlar, xususan, R.Bogrand , V.Dressler, T.Van Dijk, I.Galperin, O.Moskalskaya, Z.To‘rayeva, V.Kuxarenko, D.Ashurova, N.Mahmudov, Sh.Safarov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari badiiy matnni tadqiqot qilish mezonlarini shakllantirdi, yaxlit asar kategoriyalari, til unsurlari, funksiyalari va ixchamlashtirilgan matn modeli tamoyillarini yoritdi hamda uni batafsil o‘rganish uchun zamin yaratdi. Shuningdek, so‘nggi o‘n yillikda ushbu tamoyillar muallif obrazini tilshunoslar tomonidan tahlil qilishda keng foydalanilmoqda (N.S. Bolotnova, E.A.Goncharova, I.A.Shirova, E.I.Orlova va boshqalar), olamning lisoniy tasviri (G.N.Musagitova), badiiy asarning predmet-obyekt sifatida tashkil topishi (N.B.Antsiferova, N.M.Godenko), badiiy asarning subyektivligi (A.V. Popova) , matnning lisoniy tarkibi (N.Yu. Chugunova), muallif modalligi (E.T. Gorbunova, O.A.Trapeznikova).

Badiiy matn lingvistik stilistikasining muammolari va vazifalari hozirda sezilarli darajada kengayib, bu

fan sohasidagi tadqiqotlar turli davrlardagi yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlarini keng materiallar sifatida qamrab olmoqda [1, 2, 3 va boshqalar]. Badiiy matnning barcha tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab struktur-semantik birlik hisoblanib, uning tarkibiy elementlaridan hisoblangan muallif mushohadasining semantik-stilistik ahamiyati butun matnni idrok etish hamda talqin qilish jarayonidagi muhim roli bilan xarakterlanadi. Shu nuqtayi nazardan, muallif mushohadasi, hamda mushohadalardagi estetik effekt yaratishga hissa qo‘shadigan ma’lum signallarni tadqiq qilish ham katta ahamiyatga egadir. So‘nggi o‘n yillikda tilshunoslar tomonidan badiiy matnlarni tahlil qilishda muallif kategoriyasi faol o‘rganildi (N. S. Bolotnova, E. A. Goncharova, I. A. Shchirova, E. I. Orlova va boshqalar) hamda “idiostil”, olam surati, matnning lingvistik tarkibi, muallif modalligi singari tushunchalar zamonaviy paradigmada qamrab olindi. Shuningdek, badiiy matn kompozitsiyasi nazariyasiga oid filologik asarlarda muallif nutqi va muallif obrazi turli jihatlarda yoritilgan: sintaktik va stilistik jihatdan mavzuning badiiy rivojlanish usuli sifatida kompozitsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari (V. M. Jirmunskiy), matnning stilistik kategoriyalari sifatida “matn modalligi” va “muallif obrazi” (V. V. Vinogradov, G.Y.Solganik).

Badiiy asar kompozitsion, strukturaviy va murakkab tizimdir kompozitsion va semantik birliklar: leksik, semantik, sintaktik [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12,]. Ushbu birliklarni tanlash va ularning matndagi ishlashi muallifning idio-uslubi. Tadqiqotchilar matnning lingvistik va kompozitsion dizaynida ifodalangan muallif obrazining kategoriyasini stilistikada matnning tuzilishini belgilovchi, uning yaxlitligi va birligiga erishishni belgilovchi markaziy kategoriyalardan biri sifatida qaraydilar.

Ma’lumki, matnni talqin qilish orqali badiiy asar konseptiga kirib borish, muallifning lisoniy olam manzarasini va o‘quvchiga hissiy ta’sirini anglash mumkin bo‘ladi. Badiiy matnning syujetdan tashqari elementlari, xususan, muallif mushohadasi aks etgan fragmentlar ham yaxlit matn singari semantik-stilistik xususiyatlarga ega degan fikrni ilgari suramiz. Shu asnoda ko‘zga ko‘ringan bir qator ingliz va o‘zbek yozuvchilarining asarlaridagi muallif mushohadalari tahlilini olib boramiz.

Jeffrey Archerning qalamiga mansub **“Not a penny more, not a penny less”** asaridagi muallif mushohadasini ko‘rib chiqamiz:

“Making a million legally has always been difficult. Making a million illegally has always been a little easier. Keeping a million when you have made it is perhaps the most difficult of all. Henryk Metelski was one of those rare men who managed all three. Even if the million he had made legally came after the million he had made illegally, what put him a yard ahead of the others was that he managed to keep it all.”

Ushbu fragmentda emotsional ta’sir turli fonetik, leksik va stilistik vositalar:

antiteza - legally, illegally, difficult, easy, gap strukturalaridagi takror – parallelizm hamda gap boshida bir xil so‘zlarning takrori epifora - “Making a million legally... Making a million illegally...”, qo‘shni so‘zlarda o‘xshash tovushning ritmik takrori orqali alliteratsiya – making …million yordamida amalga oshirilgan. Shuningdek, kontekstda “million” so‘zining asl ma’nosi bo‘lgan yirik hajmdagi raqam emas ushbu so‘z orqali umumiy boylik, hashamat ma’nosi ifoda topgan. Umuman muallif “earn money” iborasini qo‘llash o‘rniga “make money” birikmasini qo‘llashi, shuningdek “legal”, “million” “illegal” singari leksik ifodalardan foydalanishi badiiy matnga boylik, moddiyatga erishish bilan bog‘liq jarayonlarga oid kriminal ruh berganini ko‘rish mumkin.

Fragmentdagi so‘zlarning o‘zaro semantik aloqalariga nazar solsak, antonimlar (legal, illegal) ning qo‘llanishi orqali qarama-qarshilik munosabati yaratilgan. Undan tashqari, “qonuniy ravishda million topish” (qiyin), “noqonuniy ravishda million topish” (kamroq qiyin), “millionni ushlab turish” (eng qiyin) gacha bo ‘lgan rivojlanish bosqichlari ierarxik shaklda ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абашева М. П. Литература в поисках лица: русская проза в конце XX века: становление авторской идентичности / М. П. Абашева. – Пермь: Изд-во ПГПУ, 2001. – С. 120 – 130.

2. Алагова Т. С. Диалектическое единство плавной и прерывистой речи: автореф. дис. на соискание учен. степени канд. филол. наук: спец. 10.02.04 “Германские языки” / Т. С. Алагова. – М., 1989. – С.22

3. Бухарин В. И. Вводные слова в аспекте актуального членения /Dolezel L. Heterocosmica : Fiction and Possible Worlds /L. Dolezel. – Baltimore and London : The John Hopkins UP, 1998. – 339 p.

4. Fillmore Ch. The case for case / Ch. Fillmore // Universals in linguistic theory / E. Bach, R. T. Harms (eds.). – New York : Holt, Rinehart and Wilson, 1968. – P. 1– 88.

5. Freeman M. Poetry and the scope of metaphor: toward a cognitive theory of literature / M. Freeman // Metaphor and metonymy at the crossroads. – Berlin – New-York, 2000. – P. 253–298.

6. Giora R. Understanding figurative and literal language: the graded salience hypothesis / R. Giora // Cognitive Linguistics. – 1997. –P.183–206.

7. Gozzi, R. A Review of General Semantics Text. / R.A. Gozzi // The Power of Metaphor. 1999/2000. – Vol. 56. – № 4.

9. Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. Style in
Language Text / R. Jakobson. New York-London, 1960. – P. 350 – 377.

10. Jakobson R. Language in relation to other communications systems / Jakobson R. // Selected writings. II. Word and language. The Hague : Mouton, 1971. – 205.

Kumri ALLABERDIYEVA,
TerDPI, Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d., PhD.

BOLALARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarni kasbga yo'naltirishda neyropedagogik xususiyatlarning ahamiyati, bu sohada olingan bilimlar bolalarni kasbga yo'naltirishda ularga qanday qilib samarali ta'sir qilish, ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy mahorat, psixologik bilimlar, pedagogik mahorat, kasb-hunar, neyropedagogik yondashuv, emotsional holati, kognitiv rivojlanish.*

Аннотация: данной статье говорится о значении нейропедагогических особенностей в профориентации детей, о том, как знания, полученные в этой области, могут эффективно влиять на детей в профориентации, а также о важности учета их индивидуальных особенностей и потребностей.

Ключевые слова: *профессиональное мастерство, психологические знания, педагогическое мастерство, профессия, нейропедагогический подход, эмоциональное состояние, когнитивное развитие.*

Annotation: this article talks about the importance of neuropedagogical features in career guidance of children, how the knowledge gained in this field can effectively influence children in career guidance, and the importance of taking into account their individual characteristics and needs.

Keywords: *professional skill, psychological knowledge, pedagogical skill, profession, neuropedagogical approach, emotional state, cognitive development.*

Kirish. Bolalarni kasbga yo'naltirishda neyropedagogik xususiyatlarning ahamiyati juda katta. Neyropedagogika — bu neyrobilimlar va pedagogikaga oid bilimlarni birlashtirgan soha bo'lib, bolalarning rivojlanish jarayonlarini va o'rganish faoliyatlarini yaxshilashda miya faoliyatining rolini o'rganadi. Bu sohada olingan bilimlar bolalarni kasbga yo'naltirishda ularga qanday qilib samarali ta'sir qilish, ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishda muhimdir.

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasida kasb tanlashdagi muvaffaqiyat shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, fe'l-atvori va temperamenti kabi xususiyatlarini kasb tomonidan mutaxassisga qo'yiladigan talablarga muvofiq kelishi bilan bog'liqligi e'tirof etiladi. Shunga ko'ra, kasbga yo'naltirishda neyropedagogik xususiyatlar quyidagi jihatlarda ahamiyat kasb etadi:

Individual yondashuv. Har bir bola o'ziga xos va noyob. Neyropedagogik yondashuv yordamida har bir bolaning o'rganish uslubi, qobiliyatlari, xotira va diqqatni jamlash xususiyatlari o'rganiladi. Buning asosida bolaga mos kasbni tanlashda yoki o'qitish usullarini tanlashda individual yondashuvni qo'llash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Ilk bor mazkur masala rus olimi I.P.Pavlovning ilmiy tadqiqotlarida qayd etilgan bo'lib, bunda odam nerv tizimidagi o'zgarishlar bilan nutq o'rtasidagi bog'liqlikka alohida ahamiyat qaratilgan. Inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishida hamda sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishida juda ko'p reflektorli bog'lanishlarning yuzaga kelishida nutq asosiy o'rin egallagan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, I.P.Pavlov nutqni "ikkinchi signal tizimi" deb atagan va uni birinchi signal tizimidan yuqori turishini e'tirof etgan. Odamning xulq-atvori esa har ikkala signal sistemasi hamda po'stloq osti tuzilmalarining birgalashib ishlashi natijasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda kognitiv neyrologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga asoslanib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi samarador yo'l va vositalardan biri – ularning nerv sistemasini, xususan, bosh miya yarimsharlarining funksional tashkil etilishiga oid bo'lgan individual tafovutlarini inobatga olish kerak, deb hisoblash mumkin.

Xususan, S.M.Platek, J.P.Keenan va T.K.SHakelfordlarning kognitiv neyrologik bilimlar evolyutsiyasini o'rganishga oid ilmiy izlanishlarida tirik organizm tomonidan qabul qilinayotgan ma'lumot avval (organizm tomonidan) moslashtirilishi, o'zlashtirilishi va shundan so'ng tashqariga uzatilishi qayd etilgan. O'zlashtirilgan ma'lumotni tashqariga uzatilishida xulq-atvor fiziologik faoliyat yoki boshqa psixologik mexanizmlar ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin.

Tahlil va natija. Bolalar qobiliyatlarining turli ko'rinishlarini aniqlash, ularning rivojlanishi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim bir qadam hisoblanadi. Har bir bola o'ziga xos va noyob, shuning uchun ularning qobiliyatlarini turli xil yo'nalishlarda aniqlash va rivojlantirish kerak. Qobiliyatlar nafaqat akademik yoki intellektual jihatdan, balki ijtimoiy, emotsional, motorik va ijodiy sohalarda ham ko'rinadi.

Tadqiqotchi va analitik qobiliyatlar. Tadqiqotchi yoki analitik qobiliyatlar bolaning bilimlarni o'rganish,

yangi g‘oyalar va natijalar yaratish qobiliyatidir. Bola yangi faktlarni o‘rganish, ma’lumotlarni tahlil qilish va shunga asoslanib qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyat ko‘rsatadi.

Aniqlash yo‘llari:

– Tadqiqot faoliyati: Bola qanday qilib yangi bilimlarni o‘rganadi, ilmiy va tadqiqot metodlariga qanday yondashadi.

– Muammoni tahlil qilish: Bola qanday qilib murakkab vaziyatlarni tahlil qiladi va yangi usullarni ishlab chiqadi.

– Analitik fikrlash: Bola ma’lumotlarni qanday tizimli tarzda tahlil qiladi va qarorlar qabul qiladi.

Liderlik qobiliyatlari. Liderlik qobiliyatlari bolaning boshqalarni boshqarish, o‘ziga jalb qilish va guruhni muvaffaqiyatga yo‘naltirish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat, odatda, bolalarning o‘zgaruvchan va mas’uliyatli vaziyatlarda boshqalarni yo‘naltirishga tayyorligini ko‘rsatadi.

Aniqlash yo‘llari:

– Guruhda boshchilik qilish: Bola guruh ichida qanday liderlik qiladi, qanday qarorlar qabul qiladi, guruhni qanday yo‘naltiradi?

– Mas’uliyat va inisiativas: Bola qanday qilib mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi va muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi.

Bolalar qobiliyatlarining turli ko‘rinishlarini aniqlash, ularning shaxsiy va akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Boshqacha aytganda, bolalar o‘zlarining individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun o‘qituvchilar, ota-onalar va psixologlar o‘rtasida yaxshilangan hamkorlik zarur. Ularning qobiliyatlarini erta aniqlash, ularga mos keladigan kasb va faoliyat sohalarini topishda yordam beradi.

Bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning yetakchi yarimsharini hisobga olish ularning kasbiy kamolotidagi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda yetakchi o‘ng yarimshar, chap yarimshar va aralash tiplardagi odamlarda kuzatiladigan quyidagi farqlanuvchi belgilariga e’tibor qaratilishi kerak:

Chap yarimsharlilarga ratsional-belgili tafakkur xos bo‘lganligi bois ularda asosan, analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktiv operatsiyalarni bajarishga moyillik ko‘proq kuzatiladi. Tahlil qilishda muammolar bilan ishlashni, muammolarni mantiqiy yo‘l bilan yechishni ma’qul ko‘rganliklari sababli boshqalarga qaraganda muloqotchan va faol insonlardir. Bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda aynan chap bosh miya yarimshari tayanch hisoblangan insonlar muhandislik, matematika, mantiq va falsafa, lingvistika kabi nazariy sohalarni muvaffaqiyatli ravishda egallashlari hamda ularga nisbatan faol ijtimoiy-kasbiy moslashishlari mumkinligini hisobga olish zarurdir. Shu sababli chap yarimshari yetakchi shaxslar nutq, mantiqiy fikrlash, jarayon va vaziyatlarni tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarni tanlaganlari maqsadga muvofiqdir. Ular faoliyat jarayonida aniq dalillarni qidirib, shu dalillar asosida xulosalar chiqarib, yangi g‘oyalarni ilgari surishga moyillar. Ta’kidlash joizki, insonning ta’lim va tarbiyasi chap yarimsharga bog‘liqdir.

O‘ng yarimshari yetakchi bo‘lganlar ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishni, intuitiv yo‘llar bilan murakkab savollar yechimini izlab topishni afzal ko‘radilar. O‘ng yarimshar obrazlarni bir butunlikda qabul qilib, dunyoni bir butunlikcha idrok qilishga imkon yaratganligi tufayli bunday insonlarga obrazli fikrlash xosdir. O‘ng yarimsharlilarga obrazli-intuitiv tafakkur xos bo‘lganligi bois ularda yorqin va turli tusdagi emotsionallik hamda vizual-makonda modellashtirish, loyihalash kabi xislatlar ko‘proq namoyon bo‘lib, ixtiro qilishda va asosiy g‘oyalarni aniqlashda faoldirlar. O‘ng yarimshari yetakchi bo‘lganlar tafakkur strategiyasining o‘ziga xosligi – berilgan axborotni murakkab, ichki ziddiyatlarga ega va bir ma’nodagi kontekstga keltirilishi qiyin bo‘lgan vaziyatlarda, ya’ni faoliyatida ijodiy yondashuv, yaratuvchanlik fazilatlarini talab etuvchi kasb sohalariga yo‘naltirilishining maqsadga muvofiqligidir. Shu sababli o‘ng yarimshari yetakchi bo‘lgan insonlar san’at, musiqa sohasidagi kasbiy faoliyatlarda muvaffaqiyatlarga erishishlarining imkoni katta.

Aralash yarimsharlar tipiga mansub odamlar vaziyatga qarab chap va o‘ng yarimsharlar strategiyasini qo‘llaydilar. Har ikkala yarimsharning sinxron ishlashi esa inson bosh miyasi faoliyati samaradorligini juda sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Chunki aralash yarimsharlilarda ma’lumotlarni tahlil qilish bir vaqtning o‘zida chap va o‘ng yarimsharlar yordamida bajariladi. Shuni aytish joizki, ma’lumotlarni aralash tipda tahlil qilishning bir necha afzalliklari mavjud. Masalan, chap yarimsharli yondashuv detallardagi, matnlardagi aniqlikda aks etadigan bo‘lsa, o‘ng yarimsharli yondashuv ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, insonda har ikkala yarimsharning faol ishlashiga harakat qilish kerakligini ta’kidlash joiz, deb hisoblaymiz. Aks holda ishga kam jalb etiladigan yarimshar “dangasa” bo‘lib, oqibatda yaxshi rivojlanmay qoladi. Bolalarda yarimsharlar rivojlantirilmasa, ular kelajakda tarbiyasi qiyin yoki xavf guruhiga kiruvchi bo‘lib voyaga yetishlari va buning oqibatida jamiyat uchun zararli bo‘lgan turli salbiy muammolarni yuzaga keltirib chiqarishlari mumkin.

Inson, ba’zi hollarda, o‘zi bilmagan tarzda, kasbiy yutuqqa erishishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim xislatlarini yengib o‘tishga yoki ularning o‘rnini boshqa xislatlar hisobiga to‘ldirishga harakat qiladi. Biroq kasbiy faoliyatni insonning psixofiziolgik xususiyatlariga to‘g‘ri kelmasligi uning psixosomatik salomatligiga putur yetkazadi. Masalan, kamgap

odamdan muloqotchanlikni yoki kamharakat odamdan tezkorlikni talab qiladigan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish asabiy zo‘riqishga olib kelishi, natijada ishchanlik qobiliyati pasayib, doimiy emotsional zo‘riqish esa asab xastaliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirishda bosh miya yarimsharlari funksional assimmetriyasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan kasb-hunarni noto‘g‘ri tanlanishi ularning psixosomatik sog‘ligiga zarar yetkazishi hamda ijtimoiy muhitga integratsiyasining qiyinlashishiga olib keladi. Shu sababli o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ular psixikasining har tomonlama va chuqur o‘rganilishi hamda individual xususiyatlari va neyrologik imkoniyatlar hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Брагина Н.Н., Доброхотова Т.А. Функциональные асимметрии человека. – М.:Медицина, 1988. 240 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. М., 1996.
3. Трошин О.В. Нейропедагогика. –Нижний Новгород., 1999.
4. Karimova Z.I. Ta‘limda kognitiv rivojlanish va shaxsga moslashtirilgan yondashuvlar. – Toshkent: Zebo prints, 2017.
5. К.Х.Аллабердиева. Мактабгача катта ёшдаги болаларда ижодий фаолликни шакллантиришнинг нейропедагогик имкониятлари // - ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 2020.
6. K.A.Xamrayevna. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age// International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). Ст.265-267.

Muxayyo RAYXONOVA,
Qarshi DU O‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

BORLIQDA INSONNING O‘RNI VA UNING VAZIFALARI MUAMMOSI
(Abdulla Oripov she’riyati misolida)

Annotatsiya: inson siymosida buyuklik va tubanlik birday mujassamlashganiga oid badiiy-g‘oyaviy mazmun shoir she’rlaridan qizil ip bo‘lib o‘tadi, shoir uni qayta-qayta ta’kidlayveradi. Shoirning butun ijodini yaxlit holda ko‘z oldimizga keltirsak, ayon bo‘ladiki, uni eng oliy mavjudot o‘laroq, xalq etilgan odamzodning shaytoniy qilmishlari ko‘proq tashvishga solgan. U insonning insonligini yo‘qqa chiqaradigan illatlarni ko‘proq qalamga olgan.

Kalit so‘zlar: *“Tilla baliqcha”, “Temir odam”, “Xatolar”, “Mo‘min Mirzo”, “Avgust to‘rtliklari”, siymosi, buyuklik, tubanlik*

Аннотация: художественно-идеологическое содержание одновременного воплощения величия и неполноценности в человеческой фигуре является общей нитью в стихах поэта, и поэт неоднократно это подчеркивает. Если посмотреть на все творчество поэта, то станет ясно, что его больше волновали дьявольские деяния человечества, созданного как высшее существо. Он больше писал о пороках, уничтожающих человеческую человечность.

Ключевые слова: *«Золотая рыбка», «Железный человек», «Ошибки», «Момин мирза», «Четверки августа», фигура, величие, дно.*

Annotation: the artistic and ideological content of the human figure, which embodies both greatness and baseness, runs through the poet's poems as a red thread, the poet repeatedly emphasizes it. If we consider the poet's entire work as a whole, it becomes clear that he was most concerned about the evil deeds of mankind, who was popularized as the highest being. He wrote more about the vices that destroy human humanity.

Keywords: *“Golden Fish”, “Iron Man”, “Mistakes”, “Mo‘min Mirzo”, “August Four”, figure, greatness, baseness*

Insoniyat hayotining hozircha yozilgan va biz bilgan tarixining ilk bosqichlarida odamzod tabiat qarshisida ojiz va unga qaram bo‘lgan. Tafakkuri u qadar rivojlanmagan ibtidoiy odamlar tabiatdagi tayyor mahsulotlar bilan oziqlanganlar, tabiat stixiyalari (chaqmoq, dovul, toshqin, sovuq, zilzila, to‘fon va h.k.)lardan qattiq qo‘rqqanlar. Shuning uchun ham, ilmiy tadqiqotlar ta’kidlaydiki, san’atning ilk bosqichlarida markaziy qahramon inson emas, tabiat va xudolar bo‘lgan. Masalan, antik adabiyotda ma’budlar odamlar hayotiga aralashib yurgan, ularning

hayotidagi yaxshiliklar ham, musibatlar ham o‘shalar tufayli sodir bo‘lgan. Insonning san’atning markaziy qahramoniga aylanishi uning tabiat stixiyalarini yengib, yirik ilmiy kashfiyotlar qilgan keyingi asrlarga xos. Geosentrizm nazariyasi bilan esa odamzod (garchand bu nazariya keyinchalik rad etilgan bo‘lsa-da) o‘zini uzil-kesil koinotning markaziga qo‘ydi.

Mutafakkir shoir sifatida Abdulla Oripov she’riyatining markazida ham inson va uning hayoti, borliqdagi o‘rni, vazifalari masalasi turadi. Albatta, shoir tug‘ilgan va dunyoqarashi shakllangan sho‘roning bosh shiorida ham – garchand mohiyat bo‘lakcha bo‘lsa ham – “Hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun!” deyilgan edi.

Abdulla Oripovning mashhur to‘rtligi bor:

Koinot gultoji – Insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Lekin u tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak! Ijoding buncha mukammal.

Mana shu to‘rtlik Abdulla Oripovning insonga oid nuqtayi nazarining ham, butun ijodining ham programmasidir, desak bo‘ladi. Chunki unda Abdulla Oripovning inson va uning borliqdagi o‘rniga oid qarashlari tezis shaklida o‘z ifodasini topgan. Ya’ni:

1. Inson – mulki borliqdagi eng ulug‘ mavjudot. Ya’ni koinot gultoji (1-misra).
2. Tafakkur faqat ungagina berilgan (2-misra).
3. Inson tubanlikda ham yagona (3-misra).
4. Ikki qarama-qarshi tomoni bilan u oliy darajada mukammal qilib yaratilgan (4-misra).

Shoir butun ijodi davomida insonning mana shu xil siymosiga turli rakurslardan nazar tashladi. Shu tezislarni lirik, dramatik, liro-epik planda keng badiiy voqelantirdi. Inson siymosida azal-abaddan mujassam etilgan ziddiyatni badiiy talqin qildi. Shoirning butun ijodini yaxlit holda ko‘z oldimizga keltirsak, ayon bo‘ladiki, uni eng oliy mavjudot o‘laroq xalq etilgan odamzodning shaytoniy qilmishlari ko‘proq tashvishga solgan. U insonning insonligini yo‘qqa chiqaradigan illatlarni ko‘proq qalamga olgan. Buni adibning badbinligi emas, o‘z qavmini mukammal, yorug‘ siymoda ko‘rish istagidan tug‘ilgan iztirob, dardlari deb tushunishimiz kerak. “Tilla baliqcha”, “Temir odam”, “Xatolar”, “Mo‘min Mirzo”, “Avgust to‘rtliklari” kabi qator she’rlarida insonlik rutbasiga soya soluvchi qusurlarni qalamga oladi.

Inson siymosida buyuklik va tubanlik birday mujassamlashganiga oid badiiy-g‘oyaviy mazmun shoir she’rlaridan qizil ip bo‘lib o‘tadi, shoir uni qayta-qayta ta’kidlayveradi. Hamma vaqt iftixor, maqtov bilan zimdan fojialar tasviri yonma-yon keladi.

Odamni mahv etur farzandi odam
Ammo odam erur tomoshabin ham....
O, buyuk mavjudot, hazrati inson,
Sening asling gohi g‘aflati inson.
Sen gahi barkamol bo‘lib ko‘rinding,
Gahi bechorahol bo‘lib ko‘rinding.
...olam uzra bu kun ko‘tarmishsan qad
Unutma, buyuksan, buyuksan behad.
(“Malomat toshlari” she’ri, 1976 yil.)

Abdulla Oripov insonni eng avvalo, tabiatning ajralmas bir bo‘lagi deb anglaydi. Agar shoirning o‘zi yozgan tarjimai holiga ham, she’rlariga ham sinchiklab nazar tashlasak, tabiatning juda ingichka tasvirlarini ko‘ramiz, ya’ni u tabiatni ham o‘zini bilgan kabi chuqur biladi, bilishga intiladi. “...hayotning buyuk saltanati bilan o‘z qondoshligini, mushtarakligini, birligini anglamaslik emas, balki anglash tuyg‘usi ruhimizni tabiatning sirli hodisalarida o‘z aksini ko‘rishga majbur etadi!.. – deb yozgan edi inson va tabiat munosabati haqida buyuk rus tanqidchisi V.Belinskiy. – Chamasi, ruhimiz insonda shaxs bo‘lib qaror topgan individualligi bilan umumdan ajrab chiqqan sayin o‘ziga qondoshligini sezishdan mahrum tabiat bilan yaxlitligini shu qadar jonliroq va teranroq anglay boshlaydi... Tabiatda bizning ruh yo‘q, lekin bizda tabiat ruhi bor. Negaki borliqning qonuni shunday: oliy mavjudot pastrog‘ini o‘zida jamlagan bo‘lishi shart. Ha, bizning ruhimizda tabiat bilan umumiylik bor va bu umumiylik hayotdir. Shuning uchun ham u ruhga shu qadar tushunarli va qardosh tilda so‘zlaydi”. A.Oripov ham 1974-yilda “Lekin inoq edim men aslim – tabiat bilan, Bepoyon xilqat bilan tunlar bo‘yi suhbatdosh” deb yozgandi bu holni o‘zi ham e’tirof etib. Insonga tabiat parallelida qarash Abdulla Oripovda uslub darajasiga ko‘tarilgan. Buning yorqin misoli sifatida “Qo‘riqxona”, “Dengizga”, “Momo oftob”, “Pushkin haykali qoshida” kabi she’rlarini keltirish mumkin. Shoirning ilk she’rlaridayoq inson va tabiat uyg‘unligi haqida so‘z boradi. Masalan, “Kuz xayollari” she’rida shunday satrlar bor:

Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma’yus va bezovta kuzni ko‘raman.
Uning shovqinida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida.

21 yoshli shoir ibtidoiy ajdodlardan qon va gen, ruh orqali yetib kelgan tasavvur bilan insonni obyektiv borliqning ajralmas bo‘lagi o‘laroq taqdim qilyapti. U kuzni moddiy borliq o‘laroq ko‘radi, uzilib tushish oldida turgan yaproqda odamzod qismatining ramzini ko‘radi, uning shitirlashida qismat oldida bosh egishga mahkum odamzod qalbining ohini eshitadi. Borliq va inson dialektikasi shu qadar chuqur idrok etilgan, bularning bari shu qadar tabiiy va samimiy aytilganki, uni 21 yoshli shoir aytganiga ishonish qiyin. U inson va tabiat o‘rtasidagi ko‘rib bo‘lmaydigan, faqat his etish mumkin bo‘lgan uyg‘unlikni savqi tabiiy bilan idrok etmoqda. Mashhur “Sen bahorni sog‘inmadingmu?”da esa “Yanog‘ingdan rang olgan dedim, Lolazorga burdim izimni” degan satrlar bor. Bu misralarda ham tashqi obyektiv olam va inson munosabatlari uzviyligi badiiy idrok etilgan va majoz orqali ifoda etadi. Lirik qahramon butun borliqda ma’shuqa siymosini

ko‘radi, uni axtaradi. “Sensiz men ham, bahor ham g‘arib” deydi. Biroq bahorning g‘aribligi – obyektiv hodisa emas, olamni subyektiv idrok etish natijasi. Ayriliq tufayli bahor ham o‘z holidan, o‘z ko‘rinishidan boshqacha qabul qilinyapti.

Shoir she’riyatida tabiiy mavjudot sifatidagi insonga oid ko‘zga hadeganda tashlanavermaydigan yana bir haqiqat badiiy idrok etilgan: odamzod hayotining tashqi tomonlari o‘zgardi – o‘zgaryapti – o‘zgaradi, lekin uning fitrati, tuyg‘ulari azaldan qanday berilgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi, o‘zgarmaydi.

Odam bolasi nimalarni kashf qilmadi!? O‘zga sayyoralar tuprog‘iga qadam qo‘ydi, bizning asrimizda Yerning bu chetida turib u chetidagi voqea-hodisalardan o‘sha lahzaning o‘zidayoq xabardor bo‘lish, mashriqda turib mag‘ribdagi odam bilan yonma-yon turganday gaplashish mumkin. Farzandsizlik ham odamzodning juda katta fojiasi bo‘lmay qoldi – eko-urug‘ ekish yo‘li bilan bu baxtsizlikni ham bartaraf etish mumkin. Jins o‘zgartirish, klonlashtirish, surrogat onalik kabi shakkokliklar haqida-ku, gapirmasa ham bo‘ladi. Bugun chiplashtirish degan usul haqida qizg‘in muhokama-munozaralar ketyapti. Unga ko‘ra, davlat ma’lum fuqaroga oid ko‘p-ko‘p ma’lumotlardan xabardor bo‘lib turadi va kerakli paytda unga yordam beriladi. Chip yordamida hatto odamning ongini ham o‘qib turish mumkin emish... Albatta, bular bari odamzod aql-u tafakkuriga Yaratgan tomonidan qanday ulkan imkoniyatlar jo etilganini, odamzod shu imkoniyatlarni kashf etish yo‘lidan dadil borayotganini ko‘rsatyapti. Bu yaxshi, albatta. Ikkinchi tarafdan, o‘sha aql-u tafakkurni yaxshilikka ishlatadimi, yomonlikkami – bu borada ham ixtiyor odamzodning o‘ziga berilgan. Demak, hayot o‘zgaryapti. Ammo yana bir haqiqat bor: odam bolasining qalbi, tuyg‘ulari hech qachon o‘zgarmaydi. Muhabbat – o‘sha muhabbat, hasad – o‘sha hasad, shodlik – o‘sha shodlik... Abdulla Oripov inson va uning yaratilishi, borliqdagi o‘rniga oid ana shu ilg‘anmas, ammo o‘ta muhim haqiqatni mutafakkirning ko‘zlari bilan ko‘ra olgan. Bu xil anglamda yangi zamon kishisini tarbiyalash da’vosidagi sho‘rocha konsepsiyaga yashirin raddiya bor kabi. Qizig‘i shundaki, shoir bu haqiqatni juda erta anglagan. 1965-yilda yozilgan “Uyqu” she’rida o‘qiymiz:

Asrim, samolarda yoqolding chiroq,
Yulduz qilib otding samoga o‘zni.
Qo‘zg‘ata olmading o‘rnidan biroq
Askar yelkasida turgan yulduzni.
Asrim, izga solding ummonlar kuchin,
Yaratmak istading so‘nmas bir chiroy.
Biroq gulzoringni toptamoq uchun
Qaydadir razilga berib qo‘yding joy.(78 b)

1979-yilda yozilgan “Kavkaz” she’rida ham xuddi shu motiv ko‘zga tashlanadi:

Qor kabi pokiza, tog‘dek sarbaland
O‘tyurak insonlar diydori armon.
Inson dasti ko‘kka yetsa ham garchand
G‘arib tuyg‘ularga tutqun u hamon.
Hamon qaylardadir hasad, xusumat
Eng oliy hislarni toptagay mutloq. (290-b.)

Birinchi parchaga ko‘ra, shoir deyaptiki: odam bolasi osmonga chiqdi, o‘zga sayyoralarni tadqiq qildi, ummon osti dunyosini tit-pitini chiqarib, zarrama-zarra o‘rgandi; lekin o‘zidagi tabiatida azaldan mavjud bo‘lgan urush bilan bog‘liq ochko‘zlik, o‘zgalar ustidan hukmron bo‘lish, razillik, buzg‘unchilik kabi mayllarni yenga olmadi. “Kavkaz”dan olingan parchada ham xuddi shu ruh bor: odamning qo‘li ko‘kka – yulduzlarga yetdi-yu, lekin tuyg‘ulari o‘sha-o‘sha. Badiiy matnning yuza sathlariga ko‘ra tahlil qilsak, manzara shunday. Lekin chuqurroq tushsak, ayon bo‘ladiki, yosh shoir g‘ayriixtiyoriy ravishda Yaratganning qudratini idrok etyapti. Insonning ixtiyoridan tashqaridagi, unga bog‘liq bo‘lmagan hodisalar ham borligidan so‘z yurityapti. Odam aql-u tafakkur bilan olam sirlarini ochishi, tabiatni o‘z foydasiga xizmat qildirishi va boshqa yana juda ko‘p buyuk ishlarni amalga oshirishi mumkin, lekin u Alloh belgilab qo‘ygan chegaradan o‘ta olmaydi – o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan narsalarni o‘zgartira olmaydi. Shoir Inson koinot gultoji bo‘lsa-da, o‘z Parvardigori oldida ojiz ekanligini e’tirof etyapti. Sho‘ro mafkurasi qanday o‘rgatib-uqtirgan bo‘lmasin, Abdulla Oripov o‘z badiiy tafakkurida ko‘rinib turgan – real voqeliklarni umumlashtirib, insonga oid azaliy haqiqatni idrok etyapti, o‘quvchiga uqtiryapti. Xuddi mana shu nuqtalarda Abdulla Oripov shunchaki shoir, olamni jahon ilm-u fanida jamlangan bilimlar vositasida o‘rgangan mutafakkirgina emas, borliqqa oid haqiqatlarni qalb bilan idrok etgan so‘fiy-avliyolarni esga soladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abdulla Oripov ijodi o‘quvchini asosan, insoniyatning mavjudlik, ma’naviyat, erkinlik, o‘zligini anglash va uni yanada boyitish va atrofdagilarni yaxshi tushunish va ularga hurmat bilan qarash tuyg‘ularini shakllantiradi. Abdulla Oripov ijodi orqali o‘quvchi qalbi tarbiyalanadi. Inson qalbi va uning inja tuyg‘ulari shoir ijodi orqali kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov A. TA. 1-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 2000. 329- bet.
2. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1987. 437- bet.
3. Bulgakov M. Knyaz tmi: Redaksii i varianti romana “Master i Margarita” / http://www.many-books.org/auth
4. Qo‘chqorov R. Uch “Sarob” // “Yoshlik”, 1986- yil, 3-son.
5. Parfi R. Sakina. – Toshkent: “Muharrir”, 2013. 305- bet.

Mahliyo XAYDAROVA
Termiz davlat pedagogika instituti

MAGISTRANTLARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA KREATIV YONDASHUVLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada magistrantlarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish va ushbu faoliyatda kreativ yondashuvning nazariyasi va amaliyoti haqida batafsil aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *magistrantlar, ilmiy tadqiqot, faoliyat, kreativ, nazariya, amaliyot, dissertatsiya.*

Аннотация: в данной статье подробно описана организация научно-исследовательской деятельности аспирантов, а также теория и практика творческого подхода к этой деятельности.

Ключевые слова: *магистранты, научные исследования, деятельность, творчество, теория, практика, диссертация.*

Annotation: this article describes in detail the organization of scientific research activities of undergraduates and the theory and practice of a creative approach in this activity.

Keywords: *undergraduates, scientific research, activity, creative, theory, practice, dissertation.*

Kirish.Magistrantlarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishda kreativ yondashuvlar nazariyasi va amaliyoti muhim ahamiyatga ega. Kreativlik (ijodiy fikrlash) nafaqat yangi va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga, balki an’anaviy ilmiy metodologiyalarni takomillashtirishga, ilmiy tadqiqotlarni samarali olib borishga ham yordam beradi. Magistrantlar uchun bu yondashuvlarni nazariy va amaliy jihatdan tushunish va qo‘llash, ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Kreativ yondashuvlar nazariyasi ilm-fan va amaliyotdagi yangi, original va ilg‘or g‘oyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuvda ba’zi asosiy tamoyillar mavjud:

Ijodiy fikrlash: Magistrantlarning ilmiy ishlarida ijodiy fikrlash kiritilishi kerak. Bu yangi g‘oyalarni yaratish va ilmiy muammolarni boshqacha yondashuvlar bilan hal qilishni anglatadi. Fikrlar va usullar o‘rtasidagi aloqalarni ochish orqali muammolarga yangi qarashlar olib keladi.

Innovatsion metodologiyalar: Ilmiy tadqiqotlarda yangi usullar va metodlar ishlab chiqish kiritiladi. Kreativ yondashuvlar asosida, yangi tadqiqot usullarini kiritish va mavjud bo‘lganlarni yanada takomillashtirish mumkin.

Muammo asosida fikrlash: Yangi ilmiy masalalarni aniqlashda va ularni hal qilishda kreativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar davomida aniq maqsadlar belgilanishi, ularni yechish uchun yangicha yondashuvlar tanlanishi lozim.

Raqobatbardoshlik va ijodkorlik: Ilmiy tadqiqotlarda yangi g‘oyalar yaratish va ularni raqobatbardosh qilish uchun ijodiy fikrlash kerak. Bunda yangi muammolarni hal qilishda betakror usullarni ishlatish ahamiyatlidir.

Natijalar. Kreativ yondashuvlarni ilmiy tadqiqot faoliyatida samarali qo‘llash uchun bir qator amaliy metodlar mavjud:

Interdistsipliner yondashuv: Yangi g‘oyalarni yaratish va ilmiy masalalarni hal qilishda, bir nechta fanlararo yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Magistrantlar turli fanlar va sohalardagi bilimlarni birlashtirib, o‘z ilmiy izlanishlarida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, biologiya va axborot texnologiyalarining kombinatsiyasi yangi ilmiy yondashuvlarni yaratishda yordam beradi.

Boshqacha fikrlarni qo‘llash: Ilmiy izlanishlarda kreativlikni amalga oshirish uchun yangi fikrlarni qo‘llash zarur. Bunda magistrantlar o‘zlarining tadqiqotlarida boshqa sohalarda ishlatilgan yondashuvlarni integratsiya qilishlari mumkin. Bu yangi bilimlar va texnologiyalarni birlashtirishga yordam beradi.

G‘oya yaratish va brainstorming: G‘oya yaratish, yangi fikrlarni ishlab chiqish va ular asosida yangi ilmiy yondashuvlarni aniqlashda kreativ metodlar qo‘llanadi. Brainstorming (fikrlar almashish) sessiyalari va guruh ishlari, magistrantlarga yangi g‘oyalar va fikrlar ishlab chiqishda yordam beradi. Bunday metodlar iloji boricha ko‘proq kreativ fikrlarni shakllantirishga imkon yaratadi.

Empirik tadqiqotlar va eksperimentlar: Kreativ yondashuvlar amaliyotda empirik tadqiqotlar olib borishda ham qo‘llaniladi. Yangi va noyob metodlarni ishlatish orqali magistrantlar ilmiy tadqiqotlarini yangicha shakllantirishlari mumkin. Eksperimentlar va amaliy tajribalar yordamida ilmiy tadqiqotlar natijalari yaxshilanadi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Ilmiy izlanishlarda muammolarni tan olish va hal qilish. Kreativ yondashuvlarni qo‘llashda muammolarni aniqlash va ularni innovatsion usullar bilan yechish kerak. Bu yondashuv, ilmiy ishda yangi muammolarni tan olish va ularga ijodiy yechimlar topishga yordam beradi.

Magistrantlarning ilmiy tadqiqot faoliyatida kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin:

Ilmiy rahbarlar va mentorlarning roli. Kreativ yondashuvlarni rivojlantirishda ilmiy rahbarlar

va mentorlarning yordamiga ehtiyoj bor. Ular magistrantlarga yangicha fikrlashni o‘rgatib, ilmiy tadqiqotlarda innovatsion metodlarni qo‘llashga rag‘batlantirishi kerak.

Ko‘p faoliyatli tadqiqotlar. Magistrantlarga bir vaqtning o‘zida bir nechta sohada tadqiqot olib borish imkoniyatlarini yaratish kerak. Bu ularning kreativ yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ilmiy konferensiyalar va tanlovlar. Magistrantlarning ijodiy fikrlashini oshirish uchun ilmiy konferensiyalar va tadbirlar tashkil etish zarur. Bu yerda yangi g‘oyalar almashiladi va izlanishlar yuksaladi.

Mustaqil ishlash va yangi metodlarni o‘rganish. Magistrantlar ilmiy tadqiqotlarida mustaqil ishlashga va yangi metodlarni o‘rganishga rag‘batlantirilishi kerak. Bu, ularning kreativligini oshiradi.

Kreativ yondashuvlarning ilmiy tadqiqotlarga ta’siri shundaki, ular magistrantlarga an’anaviy va ilgari sinovdan o‘tgan metodlardan tashqari yangi usullarni qo‘llashga imkon beradi. Yangi ilmiy yo‘nalishlar va metodologiyalar yaratish orqali kreativ yondashuvlar ilm-fan sohasida yangi paradigmalarni shakllantirishi mumkin.

a) Innovatsion tadqiqotlar. Magistrantlarning ilmiy izlanishlarida innovatsiya yaratish, birinchi navbatda, ilmiy sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kreativ yondashuvlar yangi va o‘zgacha metodologiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bu usullar, yangi texnologiyalarni joriy etish, data tahlilining ilg‘or metodlarini qo‘llash yoki ilgari noma’lum bo‘lgan masalalar ustida ishlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

b) Muammolarga yangi qarashlar. Kreativ yondashuvlar muammolarga yangi qarashlar yaratishda yordam beradi. Bu, ayniqsa, ilmiy tadqiqotda ilgari ko‘rib chiqilmagan yoki an’anaviy metodlar bilan hal qilinmaydigan muammolarni kashf qilishda qo‘l keladi. Masalan, ijodiy fikrlar yangi tadqiqot savollarini paydo qiladi, bu esa tadqiqotning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Amaliy jihatdan kreativ yondashuvlarni qo‘llash, magistrantlarga ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vosita sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuvlarning qo‘llanilishi ilmiy izlanishlarning samaradorligini oshiradi va natijalarini ko‘proq innovatsion qiladi.

a) Metodologiya va yondashuvlarni yangilash. Magistrantlar ilmiy izlanishlarida yangicha metodologiyalarni qo‘llash orqali yaratgan tadqiqotlarni yangilashlari mumkin. Bunday yondashuvlar ko‘pincha ilmiy tadqiqotda yangi istiqbollarni ochib beradi. Masalan, matematik tahlil metodlarini yangi texnologiyalar yordamida kengaytirish, yoki ijtimoiy fanlar bo‘yicha yangi statistik usullarni ishlab chiqish, tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

b) Kreativ usullarda tadqiqot olib borish. Amaliyotda kreativ yondashuvlar, turli fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirishga yordam beradi. Magistrantlar, o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida turli sohalardagi bilimlarni birlashtirib, yangi va kengroq qarashlarni yaratishlari mumkin. Interdisipliner tadqiqotlar, masalan, biotexnologiya va axborot texnologiyalarining birlashuvi orqali yangi tahlil usullarini yaratish imkonini beradi.

c) Yangi texnologiyalarni joriy etish. Kreativ yondashuvlarda yangi texnologiyalarni tadqiqotlarga tatbiq etish muhim o‘rin tutadi. Bu texnologiyalar orqali ilmiy izlanishlar yanada samarali amalga oshiriladi. Yangi ilmiy dasturlar, laboratoriya uskunalari va onlayn platformalar yordamida magistrantlar o‘z tadqiqotlarini yanada aniq va tezkor o‘tkazishlari mumkin.

Magistrantlarning ilmiy tadqiqotlarida kreativlikni rivojlantirish uchun ba’zi shartlar mavjud:

a) Ilmiy jamoa va hamkorlik. Kreativ yondashuvlarning rivojlanishida ilmiy jamoalar muhim ahamiyatga ega. Ko‘p sohalardan iborat guruhlar bilan ishlash, turli fikrlarni va yondashuvlarni birlashtirish orqali yangicha qarashlar yaratish mumkin. Tadqiqotlar guruhda olib borilganda, ijodiy fikrlarning kelib chiqishi tezroq va samaraliroq bo‘ladi.

b) Mentorlik va rahbarlik. Magistrantlar uchun kreativ yondashuvlarni rivojlantirishda ilmiy rahbarlar va mentorlarning roli katta. Ular magistrantlarga yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, ilmiy savollarni shakllantirish va amaliyotda qo‘llashda yordam berishi kerak. Rahbarlar yondashuvlar va metodlarni takomillashtirishga yordam berib, tajribalarni o‘rganish va muvaffaqiyatga erishishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishadi.

c) Tadqiqotlar va ta’lim resurslari. Magistrantlar o‘z tadqiqotlari uchun kerakli ilmiy resurslarga ega bo‘lishlari kerak. Bu resurslar kutubxonalar, onlayn ma’lumotlar bazalari, ilmiy maqolalar va laboratoriya jihozlaridan iborat. Resurslar yaxshi ta’minlangan bo‘lsa, tadqiqotlar tezroq va sifatli o‘tkazilishi mumkin.

Kreativ yondashuvlarni qo‘llashning ilmiy tadqiqotlarga ta’siri ko‘plab foydali natijalarga olib keladi. Ular quyidagi jihatlarda samarali bo‘ladi:

a) Yangiliklar yaralishi. Kreativ yondashuvlar yangi ilmiy g‘oyalar va nazariyalarni yaratishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, yangi sohalarda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatini ochib beradi.

b) Ilmiy tadqiqotlarda sifatni yaxshilash. Innovatsion va kreativ metodlarni qo‘llash ilmiy tadqiqotlarning sifatini yaxshilaydi. Magistrantlar o‘zlarining ilmiy ishlari orqali yangi metodlarni kashf qilish va shu bilan birga ilmiy izlanishlarning sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

c) Yangi ilmiy yutuqlar. Kreativ yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlarda yangi yutuqlarni keltirib chiqaradi. Bu yangi ilmiy yutuqlar, ayniqsa, muammolarni hal qilishda ilg‘or usullarni qo‘llash orqali erishiladi.

XULOSA

Magistrantlarning ilmiy tadqiqot faoliyatida kreativ yondashuvlarni qo'llash, ilmiy izlanishlar jarayonida yangi yondashuvlar yaratish, metodlarni takomillashtirish va yangiliklar kiritish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kreativlikni rivojlantirish, yangi g'oyalar va ilmiy usullarni yaratish uchun zarur sharoitlarni yaratish orqali magistrantlar ilmiy izlanishlarining sifatini oshiradilar va sohada muvaffaqiyatga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Guilford, J.P. (1950). *Creativity: Some evidence of its nature*. American Psychologist, 5(9), 444-454.

2.Runco, M.A. (2004). *Creativity. Theories and Themes: Research, Development, and Practice*. Elsevier Academic Press.

3.Csikszentmihalyi, M. (1996). *Flow: The Psychology of Optimal Experience*. HarperCollins.

4.Sternberg, R.J., & Lubart, T.I. (1999). *The concept of creativity: Prospects and paradigms*. In R.J. Sternberg (Ed.), *Handbook of creativity* (pp. 3-15). Cambridge University Press.

5.Amabile, T.M. (1996). *Creativity in Context*. Westview Press.

6.Shalley, C.E., & Zhou, J. (2008). *Organizational creativity research: A historical review*. In J. Zhou & C.E. Shalley (Eds.), *Handbook of organizational creativity* (pp. 3-31). Erlbaum.

Gulzoda TASHMATOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: maqolada hozirgi kundagi hayotimizning barcha jabhalarini raqamlashtirish, jumladan,oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogika mahoratini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning o'rni, zamonaviy ta'limning muammolari ko'rilgan. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy tomonlari, ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligining rivojlanishida raqamli texnologiyalar ahamiyati, ulardan oqilona va samarali foydalanish talablari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim, pedagogik mahorat, vazifa, samaradorlik, ta'lim, kadrlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, raqamli texnologiya, kognitiv faoliyat, raqamlashtirish.*

Аннотация: в статье рассмотрены цифровизация всех аспектов нашей жизни сегодня, в том числе роль цифровых технологий в высшем образовании, повышение педагогического мастерства будущих учителей, роль цифровых технологий в подготовке конкурентоспособных кадров, а также проблемы современного образования. . Представлены положительные и отрицательные стороны внедрения цифровых технологий в систему высшего образования, значение цифровых технологий в развитии профессиональной подготовки студентов, а также требования к их рациональному и эффективному использованию.

Ключевые слова: *цифровое образование, педагогическое мастерство, задача, эффективность, образование, кадры, информационно-коммуникационные технологии, цифровые технологии, познавательная деятельность, цифровизация.*

Annotation: in the article, the digitization of all aspects of our life today, including the role of digital technologies in higher education, improving the pedagogical skills of future teachers, the role of digital technologies in training competitive personnel, and the problems of modern education were seen. The positive and negative aspects of the introduction of digital technologies in the higher education system, the importance of digital technologies in the development of the professional training of students, and the requirements for their rational and effective use are presented.

Key words: *digital education, pedagogical skill, task, efficiency, education, personnel, information and communication technologies, digital technology, cognitive activity, digitization.*

Kirish. Axborotlashtirish muammolarini hal qilish uchun bolalikdanoq axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojlari va imkoniyatlarini shakllantirish zarur. Shu munosabat bilan zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi zamonaviy mikroprotsessor va kompyuterlar asosida amalga oshiriladigan axborotni to‘plash, izlash, to‘plash, saqlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanish bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarsiz mumkin emas. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarning ta’lim sifatini baholash kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagog xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning,,Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagog va professor o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”, - degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.

Raqamli ta’lim – ta’lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o‘quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta’lim vositalar orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, balki ta’lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko‘lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o‘rin tutadi. [4, 70 b]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “Pedagogik mahorat deganda, o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalari mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy estetikli munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”

O‘quv faoliyatining psixologik nazariyasida (P.Y. Galperin, V.V. Davidov , A.N. Leontev , A.K. Markova , S.L. Rubinshteyn , N.F. Talizina , D.B. Elkonin va boshq.) o‘qitish mazmunining o‘zlashtirilishi va tahsil oluvchining rivojlanishi (rivojlantirilishi) unga ba’zi ma’lumotlarni uzatish orqali sodir bo‘lmasligini, faqat uning o‘zining faol faoliyati jarayonida har doim malaka va ko‘nikmalar orqasida ma’lum xarakteristikalarga ega bo‘lgan harakati mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu holat XX asrning ikkinchi yarmi davomida ta’limning maqsadlari, mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga katta ta’sir ko‘rsatib kelayotgan o‘rganish faoliyatiga asoslangan yondashuvning psixologik asosini tashkil etadi.

V.I. Zagvyazinskiyning fikriga ko‘ra, ta’lim faoliyatga asoslangan yondashuv bo‘lib “barcha pedagogik tadbirlar jadal, tobora murakkablashib boradigan faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilganligini” nazarda tutadi, zero inson faqat o‘z faoliyati orqali ilm-fan va madaniyatni, dunyoni bilish va o‘zgartirish usullarini o‘zlashtiradi, shaxsiy sifat-fazilatlarini shakllantiradi va takomillashtiradi. [7, 51 b]

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyani o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmuyi va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta

samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg‘orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarni hayot bilan bog‘lay olishi lozim.

Ta’lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin: - mavjud o‘quv materiallarini, shu jumladan ma’ruzalar, prezentatsiyalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitni tarjima qilish o‘qituvchi va bola-o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan o‘qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, veb-seminarlar, munozarali forumlar o‘tkazish va hk; yangi turdagi o‘quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma’ruzalar, elektron topshiriqlar bazasi, kompyuter o‘yinlari; elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’limning tubdan yangi shakllarini yaratish; axborotni xayoliy uzatish spektrini kengaytirish, rolli o‘yinlar jarayonida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o‘yinlarga taqlid qilish va hokazo; sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga tatbiq qilishdir. [6,101-b]

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat: 1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi. 2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish. 3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish. 4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.[2, 75-b]

Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma’lum. Masalan, televideniye orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun “pedagogik mahorat” darslari raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirish vositasi sifatida vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta’minlash; - bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an’analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish; - ta’lim va tarbiya jarayonini kelgusida o‘qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlash uchun normativ hujjatlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy-texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston. –T., 2017.
2. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T., 2016.
3. Bo‘ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. –Toshkent, 2019.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H.,Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
5. Зеленецкая Л.П. Применение информаiонно-коммуникатsiонных технологий в образовании / Л.П. Зеленецкая // Молодой ученый. – 2020. – №18 (308). – С. 498–499 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://moluch.ru/archive/308/69449/
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T, 2016.

Dilrabo XUDOYQULOVA,
Renessans ta'lim universiteti katta o'qituvchisi

PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALARNING GNOSEOLOGIK MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA "KEYS-STADI" TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Annotatsiya: ushbu maqola pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirishda "keys-stadi" texnologiyasini qo'llashning muhim jihatlari haqidagi fikr-mulohazalarga va texnologiyani qo'llash natijasida qo'lga kiritiladigan samaradorlik to'g'risidagi ma'lumotlarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *motivlashtirish, keys-stadi, muammoli vaziyat, o'quv topshiriqlari, maqsad.*

Аннотация: статья посвящена мнениям о важных аспектах использования технологии «кейс-стади» в развитии гносеологической мотивации студентов в педагогическом образовании и информации об эффективности, получаемой в результате использования технологии.

Ключевые слова: *мотивация, кейс-стади, проблемная ситуация, учебные задачи, цель*

Annotation: this article is devoted to opinions about the important aspects of the use of "case-study" technology in the development of epistemological motivation of students in pedagogical education and information about the effectiveness obtained as a result of the use of technology.

Key words: *motivation, case-study, problem situation, educational tasks, purpose.*

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o'zlashtirish garchi talabalarning borliqni anglashlari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini u yoki bu ko'rinishdagi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifodalovchi hodisa, voqelik jarayonining tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorlikni tushunish, sabab va oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo'nalishi va eng muhim natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shu kabi salbiy holatning oldini olishda talabalarni "muammoli vaziyatlar"ga ro'para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Ma'lumki, motivlashtirish – bu ruhiy omil bo'lib, talaba faolligining manbai, sababi, dalili va har xil ehtimollaridir. U talabalarni bilim asoslarini, ko'nikmalarini, mutaxassislik fanlarini havas, qiziqish bilan o'rganish yo'lidagi jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir. [1].

Muammoli vaziyatning didaktik imkoniyatlari talabalarni o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatni yorituvchi tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash, "muammo – muammoni hal qilish jarayoni – echim" tizimi asosida masalani tahlil qilish, echim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, echimini bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyatida tanqidiy yondashish, o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi. Ya'ni, muammoli o'qitish, uni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan har tomonlama (aqliy, axloqiy, jismoniy, hissiy jihatdan) rivojlangan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta'minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitni vujudga keltiradi, shu sababli bugungi kunda ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish, muammoli ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari orasida muhim o'rin egallagan "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash tajribasi shakllanmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida ham "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash asosida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishga doir o'quv topshiriqlarni ishlab chiqish borasida boy amaliy tajriba to'plangan va mazkur texnologiya jahon o'qitish tizimida eng ommalashgan o'quv texnologiyasi sifatida e'tirof etilmoqda.

"Keys-stadi" texnologiyasi (inglizcha "case" – chemodan, metod, "study" –muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya, real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi, deya e'tirof etiladi.

Texnologiyaning asosiy maqsadi quyidagilardan

iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish etish.
4. Qarorlar qabul qilish va ularning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar majud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish.

“Keys-stadi” texnologiyasi talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi

Bular quyidagilardan iborat: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

Metodning imkoniyati: 1) talabalarda predmetni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni, amaliy ko‘nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi; 2) turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida bilimlarni faol o‘zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi

Hozirda ushbu texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Zamonaviy o‘qitish amaliyotida ta’limiy xarakterdagi keyslarning quyidagi turlari qo‘llanilmoqda.

- Muammoning echimi va qarorlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan keyslar;
- Qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar;
- Talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar.

Ta’limda qo‘llaniladigan “Keys-stadi”ning tayyor variantlari ham mavjud bo‘lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq eng samarali yo‘l har bir fan bo‘yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir.

Texnologiya talabalarda predmetni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni, amaliy ko‘nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o‘zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

“Keys-stadi” yordamida talabalar quyidagi ko‘nikma, malakalarga ega bo‘ladi .

1. Tahliliy ko‘nikmalar (ma’lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish. Ma’lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish, buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).
2. Amaliy ko‘nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).
3. Ijodiy ko‘nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammoni) echish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha echimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).
4. Muloqot ko‘nikmalari (unga ko‘ra talaba bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilish zarur).
5. Ijtimoiy ko‘nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o‘zini boshqara olishi lozim).
6. O‘z-o‘zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o‘zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo‘lishi mumkin) qilish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘qitishda muammoli ta’lim muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim texnologiyalari talabalarda fikrlash, qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu kabi texnologiyalar orasida “Keys stadi” texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keys stadidan ta’lim jarayonida o‘rinli, maqsadli va izchil foydalanish o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, shu bilan birga talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслоу А.Г. Мотивация и личность. СПб. : – Питер. 2016. 290 с.
2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A. Usmonboyeva M. Sayfurov D., To‘rayev A., – T.: Sano standart nashriyoti. 2015. 81-bet.
3. Савельева М.Г. Педагогические кейсы: консруивание и использование в процессе обучения и оценки компенций студентов / Учеб-мет. Пособие- Ижевск: ФГБОУВПО «Удмуртский университет» 2013. С.9
4. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла/ Уеб. Мет. Пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. С.3.

Yulduz KURBONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: ykurbonova1961@gmail.com

Bashorat ALIEVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularda tabiatga nisbatan ijobiy munosabat, ona vatanga muxabbat, go‘zallikdan zavqlanish, mehnatsevarlik, mexr-oqibatlilik kabi axloqiy sifatlar shakllantiriladi hamda ekologik ta’lim beriladi. Bularni amalga oshirishda guruhlarda tabiat burchaklarini tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada turli yosh guruhlarda tabiat burchagini jihojlash va unda bolalar faoliyatini samarali tashkil etish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tabiat burchagi, ekologik madaniyat, kuzatish, jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar, xona gullari.*

Annotation: by introducing preschool children to nature, moral qualities such as positive attitude towards nature, love for the motherland, enjoyment of beauty, hard work, benevolence, and environmental education are formed in them. The organization of nature corners in groups is also important in this implementation. The article provides information on ways to equip the nature corner and effectively organize children's activities in different age groups.

Key words: *corner of nature, ecological culture, observation, animate and inanimate nature, living organisms, indoor flowers.*

Аннотация: путем приобщения дошкольников к природе у них формируются такие нравственные качества, как положительное отношение к природе, любовь к Родине, наслаждение красотой, трудолюбие, доброжелательность, экологическое воспитание. В этой реализации также важна организация уголков природы в группах. В статье представлена информация о способах обустройства уголка природы и эффективной организации деятельности детей разных возрастных групп.

Ключевые слова: *уголок природы, экологическая культура, наблюдение, живая и неживая природа, живые организмы, комнатные цветы.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, hududlardagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongni va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiat burchagini tashkil etish orqali jonli va jonsiz tabiat haqida va ularga to‘g‘ri munosabat bildirishimiz va unga ko‘proq e’tibor qaratishimiz zarurligini anglatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish bevosita tabiat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Buni ta’minlovchi shartlardan biri maktabgacha ta’lim tashkilotida jonli tabiat burchagiga ega bo‘lishdir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va tizimli tarzda tanishtirish ularda tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko‘nikmalarni hosil qilish, kuzatuvchanlikni o‘stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko‘nikmalar asosida tabiatga ehtiyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi.

Tahlil va natija. Tabiat burchagi bolalarning diqqatini unda yashovchi hayvonlarga, ularning o‘ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning tabiat haqida chuqur bilim-ga ega bo‘lishlariga imkon yaratadi.Tabiatda bolalar uchratadigan o‘simlik hamda hayvonlarning xilma-xilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko‘rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan obyektlar bilan tabiat burchagi orqali tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etishga imkon yaratadi. Tabiat burchagida bolalar qisqa va uzoq muddatli kuzatuvlarni amalga oshiradilar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko‘rish, gullarning kurtaklashi va gullashini uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Jonli tabiat burchagi uchun o‘simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) o‘simlik yoki hayvon u biror bir ekologik guruhga xos bo‘lishi lozim. Bunda bolalarni o‘simlik va hayvonlarning katta guruhi uchun xarakterli bo‘lgan, asosiy, o‘ziga xos belgilari, yashash sharoitlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi;

2) tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish, qilinadigan mehnatning sifati, xarakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtga ko‘ra maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos (tarbiyachining ishtiroki va rahbarligi ostida) bo‘lishi lozim. Shuning uchun “beor” o‘simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi;

3) tabiat burchagidagi hayvon va o‘simliklar tashqi ko‘rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha yoshidagi bolalarning hali unchalik barqaror bo‘lmagan diqqatini o‘ziga jalb qila oladigan bo‘lishi lozim;

4) tabiat burchagida bu turdagi o‘simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo‘lishi lozim. Chunki bolalar kuzatish obyektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o‘ziga xos xususiyatli belgilarni ham ko‘ra olishlari kerak.

Bu bolalarning tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini bilib olishlariga yordam beradi;

5) tabiat burchagida o‘simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo‘lishi, bola-larning sog‘liqlariga hech qanday zarar yetkazmasligi kerak;

6) o‘simlik va hayvonlarning tabiat burchagidagi hayot faoliyati, o‘sishi va rivojlanishida binoning doimiy haroratini, karbonat angidrid gazining konsentratsiyasini, quruqligini, shovqin-suronning mavjudligini hisobga olish muhim hisob-lanadi.

Hayvon va o‘simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishda, birinchi navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga e’tibor berish lozim. Masalan, ba’zi xona o‘simliklari (chiroqgul, kaktus va boshqalar) quyosh nurini ko‘proq bo‘lishini talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug‘ joyga qo‘yish lozim, ba’zilari esa (masalan, uzambarg gunafshasi) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Shu bilan birga jonli tabiat burchagi ko‘zni quvontirishi, bezashi lozim. Bunda, obyektlarni shunday joylashtirish kerakki, bolalar ularning yoniga bemalol kela olishlari, kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari mumkin bo‘lsin.

Tabiat burchagida yashovchilarni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin. Doimiy yashovchilarga xona gullari, qafasdagi qushlar, akvariumdagi baliqlar, katta guruhlarda esa hayvonlar kiradi. Vaqtincha yashovchilarga qisqa muddatga olib kiriladigan mahalliy o‘lka o‘simligi, hayvonlar, dastlabki bahorgi gullar, kuzda qiyg‘os gullaydigan gulxonadagi dekorativ o‘simliklar, xonadagi manzarali o‘simliklar, hasharotlar va shu kabilar kiradi.

Kichik guruhda tabiat burchagi uchun o‘simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etish xususiyatlari shuningdek, ta’limiy masalalar nazarda tutiladi. Kichkintoylar 2-3 xil o‘simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini eslab qolib aytishlari lozim. Bolalar o‘simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadilar: ular o‘simliklarga suv quyadilar (suvni kattalar tayyorlab beradi, qancha quyish lozimligini ham ular ko‘rsatishadi), o‘simliklarning barglarini artadilar. Hayvonlarni kuzatar ekan, bolalar hayvonlarni tashqi aniq belgilariga: gavda qismlari, harakatlanish xarakteri, chiqaradigan ovozlari va hokazolarga ko‘ra tanib olishni, tanasining asosiy qismlarini farqlashni o‘rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarni kuzatishga, savolni anglashga, diqqatni kuzatilayotgan narsaga qaratib, uncha murakkab bo‘lmagan harakatlaridan foydalanishga, kuzatish jarayonida berilgan savollarga javob qaytarishga o‘rgatadi. Bu guruhning tabiat burchagiga asosiy qismlari (poyasi, bargi) aniq ifodalangan va yorqin, qiyg‘os hamda uzoq gullaydigan o‘simliklar joylashtiriladi. Masalan: xina, azaliya, fuksiya, xitoy atirguli va hokazolar. Aytib o‘tilgan turlardan yil davomida kuzatish uchun 3-4 o‘simlik tanlanadi.

Bu guruhda tabiat burchagiga akvarium joylashtiriladi.Akvariumga kichkintoylarning idrok etish xususiyatlaridan kelib chiqib, chiroyli rangdagi, yilning ko‘p qismida faol yashaydigan, ozuqani shoshib-pishib yeydigan baliqlarni tanlash lozim (masalan, oddiy tilla baliq, tilla yoki kumush rangdagi tovon baliqlar). Kichik yosh guruhlarning tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o‘zi xushchaqchaq bo‘lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashi maqsadga muvofiqdir. Kanareyka xuddi shunday qushlardandir. Biroq imkon bo‘lsa, sa’va, snegirni saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sut emizuvchilarni doimo saqlash mumkin emas.

Katta guruhdagi bolalar hayvonlar bilan tanishar ekan, ularning tashqi ko‘rinishi, tuzilishi, harakat qilishi, ovqatlanishining o‘ziga xosligini va dastlabki bog‘liqlik - harakat qilish xarakteri oyoqlarining tuzilishiga bog‘liq ekanligini bilib oladi. Jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish jarayonida bolalar unchalik murakkab bo‘lmagan ko‘nikmalarni egallaydilar: bular — o‘simlikni toza saqlash, uni to‘g‘ri sug‘orish, suvdon va oxur (donxo‘rak)larni yuvish, ozuqa berish kabi. Bu yoshdagi bolalar o‘simlik va hayvonlarni kuzatar ekanlar, ularning o‘sishi va rivojlanishidagi o‘zgarishlarni qayd qiladilar, o‘z kuzatishlarini to‘g‘ri gapirib berishni o‘rganadilar. O‘rta yosh guruhdagi bolalarning jonli tabiat haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida tabiat burchagining aholisini to‘ldirib, boyitib turish talab qilinadi. Xona o‘simliklari turli shakl va hajmdagi barglarga ega bo‘lishi lozim, chunki bolalar o‘simliklarni ozoda saqlashning o‘zlari uchun yangi bo‘lgan usullarini egallaydilar, egilgan barglarni mo‘yqalam bilan artadilar, gullarga suv purkaydilar. Bunda bolalar parvarish qilish usulini barglarning

xarakteriga: kattaligi, miqdori, sathining xarakteri, pishiqligiga ko‘ra aniqlashni o‘rganadilar. O‘rta yosh guruh jonli tabiat burchagida doimiy yashovchilar sifatida sut emizuvchilarni ham saqlash mumkin. Bu yoshdagi bolalar ularni parvarish qilishning oddiy malakalarini bemalol egallay oladilar.

Katta yosh guruh tabiat burchagi. Katta yosh guruhda narsalarni kuzatish, solishtirib ko‘rish, ularni turli belgilariga ko‘ra umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi. Kuzatishlarning asosiy mazmuni o‘simlik va hayvonlarni o‘sishi hamda rivojlanishini, ularning mavsumlarda o‘zgarishlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Bolalar o‘simlik o‘sishi uchun yorug‘lik, nam, issiqlik, tuproqdan oziqlanishini, turli o‘simlik turli miqdordagi yorug‘lik va namlik talab qilishini bilishlari kerak.

Xulosa. Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida tutqunlikda bola ochadigan qushlarni, yozda esa maydonchada tovuq, o‘rdaklarni (mahalliy sharoitga ko‘ra) boqish maqsadga muvofiqdir. Sut emizuvchilardan tabiat burchagida istalgan jonivor, ayniqsa hayot tarzi mavsumga muvofiq o‘zgaradiganlarini (tipratikan, olmaxon), maktabgacha ta’lim muassasalari hovlilarida esa katta bolalar quyonlarni parvarishlab boqishlari mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining turli yosh guruhlaridagi tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning bir muhim qismi hisoblanadi. Tarbiyachi tabiat burchagi tashkil etish orqali bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini boyitish bilan birga axloqiy va estetik jihatdan rivojlantirish vazifalarini hal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. –T.: “O‘qituvchi”, 1995-yil.
2. Djabborova X.J “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” –T.: TDPU 2002-yil.
3. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika.–T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013-y.
4. Djanpeisova G.E., Rasulxujaeva M.A. Tabiat bilan tanishtirish.–T.: “Inno-vatsiya Ziyo”, 2020-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishll to‘g‘risida farmoni. – Toshkent, 2018-yil. 3-oktabr PQ-3956-son.
6. Kurbonova Yulduz Djumaevna- Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ko`rgazmali metoddan foydalanish. Международный научный журнал № 14 (100),часть 1 «Научный импульс» Октября , 2023 г. 502-507 ст.

Gulnoza XASANOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING PEDAGOGIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR

Annotatsiya: ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo‘yilgan muhum vazifalardir. Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida talabalarning pedagogik qobiliyatini rivojlantirish metodlari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: *malakali mutaxassislar tayyorlash, professional kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berish, yangi texnologiya loyihalarini yaratish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish.*

Аннотация: внедрение инноваций в систему образования, эффективное использование современных педагогических технологий являются важными задачами современного образования. В данной статье говорится о методах развития педагогических навыков студентов, основанных на интегративном подходе.

Ключевые слова: *подготовка квалифицированных специалистов, обеспечение профессиональными кадрами, внедрение передовых образовательных технологий в сфере, морально-этическое, умственное и физическое воспитание детей, создание новых технологических проектов, повышение эффективности образования.*

Annotation: bringing innovations into the educational system, effective use of modern pedagogical technologies are important tasks for today's education. This article talks about the methods of developing pedagogical skills of students based on an integrative approach.

Key words: *training of qualified specialists, supply of professional personnel, introduction of advanced educational technologies in the field, moral-ethical, mental and physical training of children, creation of new technology projects, improvement of educational efficiency*

Kirish. Respublikamizda pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik

texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar: “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi” . Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta’limiy faoliyatlar innovatsion xarakter kasb etmoqda. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion yangi texnologiya loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan nafaqat mamlakatimiz, balki, butun dunyo hamjamiyati e’tibori ham yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyati va huquqlari himoyasiga qaratilib, Yoshlar huquqlari to’g’risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Olimlarning fikricha, oliy ta’lim muassasasi maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarining

pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlarida interfaol o‘qitish metodlarining assisment, simulyatsiya yoki rolli o‘yinlar, portfolio texnologiyasi, vitagen ta’lim texnologiyalari, SCORE metodi, refleksiv texnologiyalar, muammoli o‘qitish texnologiyalari, kreativ texnologiyalar, loyihaviy ta’lim texnologiyasi kabi innovatsion o‘qitish metodlari hamda texnologiyalar bevosita kasbiy kompitentlikni rivojlantirishda samalarli natija ko‘rsatadi . Biroq, malaka oshirish jarayonida uni to‘g‘ri tashkil etishdan tashqari oqituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metodlarning ham o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika ensiklopediyasida metod so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: “metod(yun. methodos- bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot)- ta’lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun hizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuidir”. Har bir ta’lim metodi talabalarning bilish faoliyatlarini faollashtirish bilan birga ta’limning samarali kechishiga xissa qo‘shadi. maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalari ta’lim metodini tanlaganda mashg‘ulot jarayonida o‘z yechimini topishi zarur bo‘lgan bosh maqsad va aniq pedagogik vaifalarni aniqlab oladi va unga muvofiq jihatdan ko‘zlangan asosiy maqsadlarga erishishni kafolatlovchi bir guruh metodlar ko‘rib chiqiladi.

Natijalar.ta’lim jarayonida talabalarni o‘quv materiallarni tez va faol o‘zlashtirishga qaratilgan bir nechta ta’lim modellari yordamida tashkil etish mumkin. Masalan, ekstrafaol (passiv) ta’lim modeli, faol (ichki), introfaol, interfaol ta’lim modellari. Ushbu ta’lim modellarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha tavfsiflanadi.

Ekstrafaol (ekstra-“tashqaridan” faol) ta’lim modeli- ta’lim amaliyotida uzoq yillardan buyon qo‘llaniladigan, an’anaviy xarakterdagi ta’lim modeli sanalib, mashg‘ulotlar jarayonida talabaning yetakchi bo‘lishiga asoslangan ta’lim modeli bo‘lib, unda talabalar o‘rganish talab etiladigan nazariy bilimlarni o‘qituvchining berayotgan axboroti, uning tomonidan uzatilayotgan ma’lumot hamda adabiyotlar asosida o‘zlashtirib boradilar.

Faol (ichki) ta’lim modeli- talaba berilgan vazifalarni mustaqil bajarib boradi, ijodiy izlanadi va mavjud yangi bilimlarni o‘zlashtirib boradi. Ushbu ta’lim modelida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik ko‘zga

tashlanmaydi.

Introfaol (intro-“tashqarida” faol) ta’lim jarayonida asosan talabalarning faolligi kuzatilib, ta’lim jarayoni talabalar tomonidan tashkil etiladi, ular bir-birlariga o‘z fikr, xulosalarini o‘rgatadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi ekspert va kuzatuvchi, tashkilotchi, boshqaruvchi, vazifasini bajarib, ayrim hollarda “talaba”ga ham aylanadilar.

Interfaol (ing.“inter”-o‘zaro, “akt”-faol xarakat, faollik, ta’sirchanlik) o‘zaro xarakat, birgalikdagi faoliyat ma’nolarini bildiradi. Interfaol ta’limda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida shuningdek, talabalarning o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik, hamfikrlik yuzaga keladi.

Muhokama. Sifatli ta’lim xizmatlarini imkoniyatlarini oshirish mehnat bozorining imkoniyatlariga mos keluvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta’lim muassasasi pedagoglarini hamda bo‘lajak mutaxassislarni kreativligini rivojlantirish, doimiy yangilanib turuvchi jamiyat hayotiga yangicha fikr va qarashlar bilan yondashuvchi yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash oliy ta’lim muassasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Fikrimizcha, bugungi kunda ekstrafaol, faol va introfaol ta’lim jarayonlariga interfaol ta’lim metodlarini tatbiq etilishi ularning samarali kechishini ta’minlash bilan bir qatorda zamonaviy ta’lim uchun o‘ta muhim sanalgan o‘zaro hamkorlik, shuningdek, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirish uchun ma’lum bir sharoitlarni yuzaga keltiradi. Interfaol shaklda tashkil etiluvchi ta’lim jarayonining muvaffaqiyati juda yuqori bo‘lib, R.A.Islamshin bunday ta’lim berish shaklining asosini 4 ta tamoyil tashkil qilishini aytib o‘tadilar va quyidagicha ta’riflaydilar:



Shuningdek, ta’lim jarayonida talabalarni o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlariga imkon yaratish, motivatsiyalarni aniqlash va oshirish, rag‘batlantirish va qayta aloqani yuzaga keltirish tamoyillarini hisobga olgan holda yondashishi bu jarayonning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta’limda talabalar va o‘qituvchi, hamda talabalar o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro munosabat, odatda, u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, mustaqil qarorlar qabul qilish, talabalarning shaxsiy tajribalari ta’limning asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modellar bo‘yicha tashkil etiladigan ta’limning mohiyatini umumiy holda 1-jadvaldagi sxemalar asosida tavsifladik.

Ta'lim berish modellari va ularning asosiy mohiyati.

Ta'lim berish modellari	O'quv jarayoning mohiyati	Sxema ko'rinishida tavfsifi
Ekstrafaol(tashqaridan) ta'lim	Meni kimdir (nima bilandir) o'qitadi	
Faol(ichki) ta'lim	Talabaning faolligi, mustaqilligi ta'minlangan bo'lsada, biroq o'qituvchining ishtiroki kuzatilmaydi	
Introfaol(tashqariga) ta'lim	O'quvchi-talabaga ta'lim beradi(men kimgadir ta'lim bera olaman)	
Interfaol(tashqaridan va tashqarida o'zaro o'rin almashgan holda) ta'lim	O'zaro hamkorlikda ta'lim olish	

Xulosa.Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishga uning pedagogik mahoratini oshirishga sabab bo'ladigan asosiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik mahorat esa jamiyatning madaniy-tarixiy taraqqiyotida pedagogik nazariya va amaliyot sintezini shuningdek, pedagogik faoliyatining sifat jihatdan muayyanligini jamlaydigan ijtimoiy pedagogik hodisa sanaladi. Oliy ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining mahoratini uning pedagogik qobiliyatini yaxlit shaklda muayyan ta'lim tizimining talablari majmuyi sifatida rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida oqituvchining uzluksiz ravishda o'zining malaka oshirib borishida sharoitlar yaratish, shuningdek, mazkur vazifalarni amalga oshirishda rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurati maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020. http://ma'rifat.uz
2. Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. diss. ped.fa.dokt.(DSc)–Toshkent, 2019.2188,145-b.
3. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta'limda integral darslar – innovatsion loyiha sifatida. "Science and Innovation". International sicentific journal. https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6626043 2022 y., 2-son. 292 b.
4. Abduqodirov A., Begmatova N., Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. –Qarshi, "Nasaf". 2011 y.. 232 b
5. I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi –Toshkent 2018 9-10 betlar
6. Islamshin R.A. Nauchniy osnovi funksionirovaniya modeli neprerivnogo obrazovaniya uchiteley v natsionalno –regionalnix usloviyax Tataristana//Monografiya–M.:Minobrazovaniye, 2005.-125c.
7. Kollesnikova I.A. O kriteriyax gumanizatsii obrazovaniya // Gumanizatsiya obrazovaniya: teoriya I praktika.-SPb.: GUPM, 1994.-133s

Iqboljon DJURAYEV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
"Matematika" kafedrasi
assistant o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanining mazmuni vazifalari va 7-sinf "Algebra" fanidan mavzularni qiziqarli metodlar yordamida interfaol darajada o'tish va tashkillash metodikasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *klaster, Algebra, Matematika, Sinkveny, Interfaol, Kubik, Tasvirlang, O'xshating, Taqqoslang.*

Аннотация: в данной статье освещены содержательные задачи математики в общеобразовательной школе и методика прохождения и организации предмета 7 класса «Алгебра» на интерактивном уровне с помощью интересных методов.

Ключевые слова: *кластер, Алгебра, Математика, Синкурентность, Интерактив, Кубический, Описать, Моделировать, Сравнить.*

Annotation: in this article, the content tasks of mathematics in general secondary schools and the methodology of passing and organizing the subjects of the 7th grade "Algebra" at an interactive level with the help of interesting methods are highlighted.

Key words: *cluster, Algebra, Mathematics, Cinquency, Interactive, Cubic, Describe, Simulate, Compare.*

Kirish. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak;

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to 'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o 'qitishning tarbiyaviy maqsadi o 'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi;

b) o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash. Ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir;

d) o'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O 'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni

yechishga tatbiq qila olishga o‘rgatish, Bunda asosan o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o‘rgatiladi;

b) matematikani o‘qitishda texnik vosita va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda o‘quvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik ko‘rgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi;

d) o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish.

Natijalar va Muhokama. “Matematika” faniga ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan; 7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

Jumladan 7-sinflar “Algebra” fani jami 102 soatdan iborat bo‘lib:

– 1-chorak 27 soat;
– 2-chorak 21 soat;
– 3-chorak 30 soat;
– 4-chorakda 24 soat.

7-sinf “Algebra” fanidan 2-chorakda olib boriluvchi “Funksiya tushunchasi” mavzusini “Kubik metodi” yordamida mustahkamlab o‘tishni ko‘raylik:

Kubik metodidan darsni mustahkamlash vaqtida foydalansa yaxshi natija beradi. 1-qadam: o‘quvchilarga mavzu o‘tilgandan so‘ng unga biror tushuncha shakllanadi. Shakllangan tushunchani quyidagicha yozish taklif etiladi.

1. Tasvirlang;
2. Taqqoslang;
3. O‘xshating;
4. Tahlil qiling;
5. Ishlating;
6. Foydali va zararli tomonlari.

Y=ax2+b funksiyaning grafigini tasvirlang va uni x ning har qanay holati uchun taqqoslab chiqing, olgan natijalaringiz o‘rtasidagi o‘xshashliklarni toping natijalarni tahlil qiling va amalda sinab kuring.

Sinkveyn metodi.

Sinkveyn fransuzcha so‘z bo‘lib "besh" degan ma’noni bildiradi. o‘quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim.

Ot (1 so‘z), Sifat (2 so‘z), Fe’l (3 so‘z). Ibora (gap bilan ta’rifi beriladi). Sinonim (1 so‘z yoziladi, otga yozilgan so‘z bilan ma’nosi bir xil bo‘lsin). Masalan mavzu: “Kesmaning yo`nalishi. Vektor ” Vektor Erkin, nol nuqta Yasash, yo`naltirish, qabul qilish. Agar vektorning boshi va oxiri ustma ust tushsa bunday vektor nol vektor deyiladi. Nur (chegaralangan).

Sinkveyn metodidan foydalanish o`quvchilarni chuqur mulohaza qilishga o`rgatadi.

Venn diagrammasi. «Diagramma vena» qiyosiy tahlilda juda qo‘l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni bir-biriga muhokama qilib o‘tishda qulay usuldir. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo‘shilishi holatida bo‘lib doiralarning ikki tarafiga tanlangan mavzuning faqat o‘ziga xos individual xususiyatlari yozilib, o‘rtada ikki doiraning qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliqda esa tanlangan ikki mavzuga xos turli fikrlar, xususiyatlar g`oyalar ko‘rinishi izohlab boriladi. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu usul o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, xotirani kuchaytiradi. U yoki bu mavzu ustida mustaqil ishlashga undaydi. Ikki mavzuning umumiy va individual, ya’ni faqat o‘ziga xos tomonlarini tez farqlaydi. Mavzu tez va uzoq vaqt esda qoladi. «Diagramma vena» o‘quvchini hushyorlikka, sezgirlikka chorlaydi. O‘quvchilar 4—5 tadan uch guruhga, jami 15 taga ajratiladi. 1-guruh doiraning o‘ng tomoni, 2-guruh doiraning chap tomoni, 3-guruh ikki doiraning qo‘shilishidan paydo bo‘lgan bo‘shliq ustida ishlaydi. Mavzuni keng qamrovli o‘zlashtirib olishga ko‘maklashadi. Guruxdagi qolgan o‘quvchilar esa kuzatuvchilardir, ya’ni «Diagramma vena» ustida ishlayotgan 3 guruhning harakatlarini kuzatadilar. Hatto baholashlari ham mumkin. Dars, mavzu, harakatlar uzoq vaqg esda saqlanib qoladi. «Diagramma vena» turli xil g`oya, fikrlar kurashi va hujumini, munozaralarni keltirib chiqaradi. O‘quvchilarni o‘ylantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi.

Bu metod o‘quvchini kattaliklarni qiyoslashga undaydi, quyidagiday doiralar chiziladi. Ikkita kattalik taqqoslanadi. Bir xil jihatlari o‘rtada (aylanalar kesishgan qismida yoziladi. O‘ziga xos jihatlari aylanada yoziladi. Klaster metodi. Klaster inglizcha so‘z bo‘lib (kluster) bosh, bir shingil, popuk ma’nosini anglatadi. Klaster - bu ma’lum mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir.

1-qadam: yangi mavzuning asosiy tushunchasi aylana (elips) shaklidagi chizma ichida yoziladi. Masalan yangi mavzu "Kvadrad" bo‘lsa quyidagicha daftarlariga chizish va yozish taklif etiladi.

2-qadam: o‘quvchilarga kvadrat deganda ko‘z oldingizga kelgan fikrlarni chiziqchalar yoniga yozish taklif etiladi. (Bunda o‘quvchi rasmini chizsa ham ruxsat beriladi).

3-qadam: taqdimot o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. (Guruhdan 1 o‘quvchi spiker aytib beradi). Bu fikrlarni doskada bo‘r yoki plakatda flomasterlar bilan yozish mumkin.

4-qadam: yangi mavzu o‘rganiladi.

5-qadam: darsni mustahkamlash bosqichida o‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi, qizil rangli

ruchkalaringizni (yashil, qora bo‘lsa ham bo‘ladi) olib yangi o‘rganilgan tushunchalar bilan boyiting. Son qatnashgan maqollar aytishuvi Maqsad: son qatnashgan maqollar orqali O‘zbek xalq maqollari degan boy merosimizdan foydalangan holda o‘quvchilarni milliy g‘urur,axloqiy his tuyg‘ularni shakllantirish, ma’naviy tuyg‘ularini rivojlantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab ,Vatan va Vatanga muhabbat tushunchalarini o‘quvchilar ongiga sindirish. ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish va sonning dunyodagi roli haqida tushuncha berib, ko‘nikma va malaka hosil qilish. Har bir o‘quvchi kamida 10 ta son qatnashgan maqol aytishi kerak . Aytish tartibi: navbatma-navbat, bitta-bittadan maqol aytiladi. 10 tadan kam maqol aytgan o‘quvchi o‘yinni tark etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gunter, G. (2020). Digital Literacy in Education: The Need for Critical Pedagogy. Educational Technology Journal, 25(3), 45-58.
2. Harris, L., & Atkinson, K. (2020). E-learning and Interactive Learning: Impact on Digital Literacy in Primary Education. Journal of Educational Technology, 38(4), 120-134.
3. Fletcher, L. (2021). Gamification in Education: Enhancing Digital Literacy in the Classroom. Journal of Educational Research, 55(2), 78-89.
4. Jung, J. (2019). The Role of Digital Literacy in Modern Education. International Journal of Education, 42(1), 112-126.
5. Miller, S. (2021). Interactive Technologies in Education: A New Paradigm for Learning. Pedagogical Review, 33(4), 210-225.

Sodiqjon TURDALIYEV,
Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
“Matematika” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

MATEMATIKA FANIDAN BILIMLARNI MUSTAHKAMLASHDA QUIZZIZ DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada bugungi kunda darslarni qiziqarli va interfaol tarzda tashkil etishda kerak bo’lgan metodlar va Quzziz dasturi uning imkoniyati va matematika fanidan bu dastur imkoniyatlaridan foydalanib nazoratlarni tashkil etish bilimlarni mustahkamlash metodikasi keng yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: *interfaol, Quzziz, test, dastur, platform, amaliy, og’zaki, metod*

Аннотация: в статье широко освещены методы, необходимые сегодня для организации уроков в интересной и интерактивной форме, возможности программы Quzziz, а также способ организации контроля с использованием возможностей этой программы по математике.

Ключевые слова: *интерактивный, Куззиз, тест, программа, платформа, практический, устный, метод.*

Annotation: in the article, the methods needed to organize lessons in an interesting and interactive way today, the possibilities of the Quzziz program, and the method of organizing controls using the possibilities of this program in mathematics are widely covered.

Key words: *interactive, Kuzziz, test, program, platform, practical, oral, method*

Kirish. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon didaktikasida o‘qitish metodlari tasnifida har xil yondoshish mavjud. Hozir ulardan bir qanchasini ko`rib chiqamiz.

1. Og’zaki metodlar. Bunda qisqa muddat ichida hajmi bo’yicha eng ko’p axborot berish, o’quvchilar oldiga muammolar qo’yish, ularni hal qilish yo’llarini ko’rsatish imkonini beradi. Bilimlarni tushuntirish metodining mohiyati shundan iboratki bunda o’qituvchi materialni bayon qiladi, o’quvchilar esa uni tayyor holda qabul qilib oladilar.

Material bayoni esa puxta, aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak.

2. Ko'rsatmali metodlar. O'qitishning ko'rsatmali metodlari – o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol shaklidir, bundan o'qitishda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda keng foydalaniladi. Tevarak atrofdagi predmet va hodisalar va ularning turli-tuman modellari (har xil tipdagi ko'rsatma qo'llanmalar) kuzatish obyektlari hisoblanadi. o'qitishning ko'rsatmali metodlarini o'qitishning og'zaki metodlaridan ajratib qo'yib bo'lmaydi. Ko'rsatma qo'llanmalarni namoyish qilishni har doim o'qituvchining va o'quvchilarning tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi. O'qituvchining so'zi bilan ko'rsatma vositalardan birgalikda foydalanishning 4 ta asosiy shakli aniqlangan:

1) o'qituvchi so'zlar yordamida o'quvchilarning kuzatishlarini boshqaradi;

2) og'zaki tushuntirishlar obyektning bevosita ko'rinmaydigan tomonlari haqida ma'lumotlar beradi;

3) Ko'rsatma-qo'llanmalari o'qituvchining og'zaki tushuntirishlarini tasdiqlovchi yoki konkretlashtiruvchi illyustratsiya bo'lib xizmat qiladi;

4) o'qituvchi o'quvchilar kuzatishlarini umumlashtiradi va umumiy xulosa chiqaradi.

3. Amaliy metodlar. Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mukammalashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan metodlar o'qitishning amaliy metodlari hisoblanadi. Xususan, bunday metodlar jumlasiga yozma va og'zaki mashqlar, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba'zi turlari kiradi. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodi sifatida

Yuqoridagi metodlardan tashqari bugungi kunda har qanday fandan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun turli xil dasturlar mavjud ulardan biri Quizziz dasturi hisoblanadi ho'sh u qanday dastur? Bu dastur yordamida siz har qanday fandan nazorat topshiriqlarini onlayn holatda tashkil etishingiz mumkin va baholashingiz ham mumkin hisoblanadi. Bu dastruga kirish uchun google qidiruv tizmiga Quzziz deb yozamiz.(1-rasm) Quzziz.com platformasiga kiramiz.



1-rasm Quzziz dasturiga kirish

Yuqoridagi oynadan Podpisatsiya bandini tanlaymiz va undan hosil bo'lgan oynadan o'z google akkauntingiz orqali davom etish bandi tanlanadi va quyidagi oyna hosil bo'ladi.(2-rasm)

2-rasm. Quzziz dasturining interfeysi

Yuqoridagi oynadan Bugun nimani qidiramiz bo'limiga "Algebraik ifodalar" mavzusini kiritamiz va natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.(3-rasm)



3-rasm. Quizziz dasturining imkoniyati

Bu oynadan uning bo'limlariga kirib biz o'zimiz uchun mavzuga doir qiziqarli videolarni, nazariy ma'lumotlarni, interaktiv metodlarni, testlarni olishimiz mumkin. Eng qiziqarlisi siz tayyor shablonlardan foydalangan holatda o'z darsingizni mustahkamlatishingiz mumkin ta'lim oluvchilarga. Dasturning qulay tarafi shuki dastur pedagog hodimlarning vaqtini tejash maqsadida va turli dasturlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklarni barataraf etish uchun va onlayn rejimda makondan qat'iy nazar o'zingiz uchun qulay bo'lgan vaqt rejimida ishlash imkoniyatini beradi.

Agar siz o'z o'quvchilaringizga testni ishlatmoqchi bo'lsangiz oynaning o'ng yuqori qismida turgan "O'ynang" bandiga sichqonchaning chap tugmasini bir marotaba bosishingiz kerak bo'ladi. Natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.(4-rasm)



4-rasm. Dasturni ishga tushirish qismi

Bu oynadan siz agar testlarning yana boshqa turlarini ko'rmoqchi bo'lsangiz oynada ko'rsatilgan summani kiritishingiz kerak bo'ladi. Dasturning yana bir qulay tomoni shundan iboratki dastur 7 kunlik bepul rejimda ham ishlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki siz dasturning yana boshqa imkoniyatlarini ko'rishingiz uchun 7 kunlik bepul rejimni ham tanlashingiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Quzziz dasturi hozirgi kunda keng tarqalgan onlayn platforma dasturi hisoblanadi va foydalanuvchilar uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu dastur bilan ishlash jarayonida siz o'z bilimlaringizni yanada mustahkamlashingiz va vaqtingizni tejagan holatda darsingizni tashkil etishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klarin M.V. «Innovatsionnie modeli obucheniya v zarubejnix pedagogicheskix poiskax», M., «Prosveshenie», 1994.

2. Kolyagin Yu.N. va boshqalar Metodika prepodavaniya matematiki v sredney shkole. Obhaya metodika., M.,

«Prosveshenie», 1988.
3. Alixonov S. «Matematika o‘qitish metodikasi». –T.: «O‘qituvchi» 1992 yil.
4. Alixonov S. « Matematika o‘qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O‘qituvchi» 1997 yil.
4. Gunter, G. (2020). Digital Literacy in Education: The Need for Critical Pedagogy. Educational Technology Journal, 25(3), 45-58.
5. Harris, L., & Atkinson, K. (2020). E-learning and Interactive Learning: Impact on Digital Literacy in Primary Education. Journal of Educational Technology, 38(4), 120-134.
6. Fletcher, L. (2021). Gamification in Education: Enhancing Digital Literacy in the Classroom. Journal of Educational Research, 55(2), 78-89.
7. Jung, J. (2019). The Role of Digital Literacy in Modern Education. International Journal of Education, 42(1), 112-126.
8. Miller, S. (2021). Interactive Technologies in Education: A New Paradigm for Learning. Pedagogical Review, 33(4), 210-225.

Nargiza PARMANOVA,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

REDJIO EMILIYA PEDAGOGIKASI ASOSIDA BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya:ushbu maqolada Redjio Emiliya pedagogikasi asosida bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Redjio Emiliya pedagogikasi, XX asrning o‘rtalarida Italiyada paydo bo‘lgan innovatsion ta’lim metodikasi sifatida, bolalarning ijtimoiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada ushbu pedagogik yondashuvning asosiy tamoyillari, jumladan, muhitning “uchinchi muallim” sifatidagi o‘rni, bolalarning mustaqil tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash, va ularning ijtimoiy muloqot jarayonidagi ishtiroki keng yoritilgan. Muallif bolalarning kommunikativ kompetensiyasi rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlik jarayonining ahamiyatini ta’kidlaydi. Bolalar o‘z dunyoqarashlarini so‘z, tasvir, harakat, musiqa va boshqa ijodiy shakllar orqali ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maqolada, shuningdek, Redjio Emiliya pedagogikasining o‘quv jarayonida innovatsion usullar orqali bolalarda muloqotga tayyorlikni shakllantirishda qanday ta’sir ko‘rsatishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Redjio Emiliya pedagogikasi, rivojlantiruvchi muhit, verbal kommunikativ qobiliyatlar, noverbal qobiliyatlar, tinglash madaniyati*

Annotation:this article analyzes the issues of developing communicative competences in children based on Reggio Emilia pedagogy. Reggio Emilia pedagogy, as an innovative educational methodology that emerged in Italy in the middle of the 20th century, is aimed at developing children’s social and personal abilities. The article broadly covers the main principles of this pedagogical approach, including the role of the environment as a «third teacher», supporting children’s independent research, and their participation in the process of social communication. The author emphasizes the importance of the social environment and the process of cooperation in the development of children’s communicative competence. Children have the opportunity to express their worldview through words, images, movements, music, and other creative forms. The article also discusses how Reggio Emilia pedagogy can influence children’s readiness for communication through innovative methods in the educational process.

Key words: *Reggio Emilia pedagogy, developmental environment, verbal communicative skills, nonverbal skills, listening culture*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы развития коммуникативных компетенций у детей на основе педагогики Реджо Эмилии. Педагогика Реджо-Эмилии, как инновационный метод обучения, появившийся в Италии в середине 20 века, направлена на развитие социальных и личностных способностей детей. В статье раскрыты основные принципы данного педагогического подхода, в том числе роль среды как «третьего учителя», поддерживающая самостоятельные исследования детей, их участие в процессе социального общения. Автор подчеркивает важность социальной среды и процесса сотрудничества в развитии коммуникативной компетентности детей. У детей будет возможность выразить свое мировоззрение через слова, образы, движения, музыку и другие творческие формы. В статье также рассматривается влияние педагогики Реджо Эмилии на формирование готовности детей к общению посредством инновационных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова*: педагогика Реджио-Эмилия, среда развития, навыки вербального общения, невербальные навыки, культура слушания.*

Redjio Emiliya pedagogikasi XX asrning o‘rtalarida Italiyaning Redjio Emiliya shahrida paydo bo‘lgan innovatsion ta’lim yo‘nalishi hisoblanadi. Uning asoschisi va ilhomlantiruvchisi italyan pedagogikasida mashhur shaxs — **Loris Malagussi** (1920–1994)dir. Bu ta’lim metodikasi asosan kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, bolalarning mustaqillik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi davrda urushdan keyingi Italyan jamiyatida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Urushdan keyin, bolalarning ta’limi va ularning rivojlanishiga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Redjio Emiliya shahrida aholi yangi, erkin va demokratik ta’lim tizimi yaratishni maqsad qildi. Shahar aholisi ta’lim jarayonida faol ishtirok etishni boshladi. Bu ta’limda faqat muallim emas, balki ota-onalar ham bolaning rivojlanishida muhim o‘rin tutishi g‘oyasini targ‘ib qildi. Loris Malagussi bolalarning ta’lim jarayonidagi tabiiy qiziquvchanligini asosiy nuqta deb hisobladi. Uning fikriga ko‘ra, bolalarning 100ta tili bor — ya’ni ularning his-tuyg‘ulari, ijodkorlik qobiliyatlari va o‘ziga xos o‘ylash usullari bor. Bu g‘oya Redjio pedagogikasining markaziy tamoyillaridan biriga aylandi.

Redjio Emiliya pedagogikasi avvalo mahalliy maktablarda qo‘llanila boshlandi. Keyinchalik bu metodika dunyo bo‘ylab keng tarqaldi. Bugungi kunda u Amerika, Yevropa, Osiyo va boshqa qit’alarda foydalanilmoqda.

Redjio pedagogikasi asosida 6–7 yoshli bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha izlanish yoki metodik ish rejasini tayyorlashda bir qancha muhim jihatlarni hisobga olish lozim. Quyida ushbu yo‘nalishda asosiy qadamlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Redjio pedagogikasi prinsiplari bilan tanishuv

Redjio pedagogikasi italyan pedagogikasi modeli bo‘lib, bolaning mustaqilligini, ijodiylikni va ustagacha qarashlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Uning asosiy prinsiplari bolaning qudratiga ishonch bildirish bunda bolalardagi imkoniyatlar va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhit yaratish kerak. Ikkinchi tamoyil rivojlantiriuvchi muhit yaratish. Bolalarni o‘rganishga ilhomlantiradigan va mustaqil tadqiqot qilishga yordam beruvchi muhit yaratish. Bolalar, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida hamkorlik asosida ta’lim jarayonini tashkil qilinadi.

Redjio pedagogikasida asosiy maqsad – bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu prinsiplarni bolalar ta’lim jarayoniga joriy etish orqali ularning mustaqilligi va muloqot qilish malakasini rivojlantirish mumkin.

Redjio pedagogikasi asosida bolalarda kommunikativ kompetensiya bolalarning muloqot qilish, fikr almashish, tushuntirish, eshitish, munosabat o‘rnatish va muammolarni hal qilish qobiliyatini qamrab oladi. Bu quyidagi salohiyatlarni o‘z ichiga oladi:

verbal kommunikativ qobiliyatlar: gapirish, tinglash, savol berish, tushuntirish;

noverbal qobiliyatlar: mimika, jestlar, ko‘z aloqa qilish.

guruhda ishlash malakasi: hamkorlikda fikr yuritish va qaror qabul qilish.

tinglash madaniyati: hamsuhbatni hurmat qilish va uning fikrini tinglash.

Redjio metodikasiga ko‘ra, ta’lim jarayonida bolalarning kundalik hayoti va qiziqishlariga bog‘liq mavzularni qamrab olish muhim: Masalan, “Qushlar dunyosini o‘rganamiz” mavzusida guruh bilan tadqiqot ishlarini tashkil qilish. Bolalar nafaqat ma’lumot yig‘adi, balki o‘z taassurotlarini bayon qiladi.

Redjio metodologiyasida bolalarning kommunikativ rivojlanishi doimiy ravishda kuzatiladi. Baholash jarayonida bolalarning ijodiy ishlari orqali (rasmlar, hikoyalar), suhbat jarayonlaridagi muloqot faolligi orqali, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish natijalari orqali amalga oshiriladi.

Redjio pedagogikasi bolani faol, bilim izlovchi shaxs sifatida ko‘radi. Uning barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun qulay muhit yaratiladi. Bolalar mustaqil fikr yuritishga va o‘z qarashlarini bildirishga rag‘batlantiriladi. Har bir bola o‘z qobiliyatlari va qiziqishlari bilan nodir hisoblanadi. Muhit bolalar uchun faol o‘rganishga ilhomlantiradigan muhim elementdir. U bolalarning mustaqil tadqiqot olib borishiga yordam beradi.

Redjio pedagogikasida ta’lim jarayoni asosan bolalarning qiziqishlariga mos loyihalar orqali amalga oshiriladi. Loyiha jarayonida bolalar faol muloqot qiladi, muammolarni hal qiladi va o‘z ijodkorligini namoyon qiladi. Redjio pedagogikasida bolalar, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarga katta e’tibor beriladi. Bunda asosan bolalar bir-biri bilan fikr almashadi, guruhda ishlashni o‘rganadi. Pedagog bolalarning maslahatchisi va yo‘lboshlovchisi sifatida harakat qiladi. Ota-onalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Redjio pedagogikasi bolaning his-tuyg‘ularini va fikrlarini turli yo‘llar orqali ifodalashini rag‘batlantiradi. Bu “100 ta til” konsepsiyasi deb ataladi. Bolalar o‘z fikrlarini surat, haykal, drama, musiqa, hikoya va boshqa usullar orqali ifoda qiladi. San’at bolalar uchun asosiy tadqiqot vositasi hisoblanadi. Redjio metodologiyasida ta’lim jarayoni doimiy ravishda hujjatlashtiriladi. Bolalarning ish jarayonlari suratlar, rasmlar va yozuvlar orqali qayd etiladi. Bu materiallar bolalarning rivojlanishini tahlil qilish va ularning yutuqlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Pedagog bolalarning fikrlariga hurmat bilan qarashga harakat qiladi. Har bir bolaning fikri yoki g‘oyasi muhokama jarayonining bir qismi sifatida ko‘riladi. Bolalarning

savollari va qiziqishlari ta'lim yo'nalishini belgilaydi. Bolalarga tadqiqot qilish, xato qilish va xulosa chiqarish uchun erkinlik beriladi. Pedagog bolalarni nazorat qiluvchi emas, balki ularga yo'l ko'rsatuvchi hisoblanadi.

Agar shu mavzuda qo'shimcha ma'lumot yoki amaliy maslahatlar kerak bo'lsa, men yordam berishga tayyorman!

Redjio pedagogikasida bolaning fikr va g'oyalarini hurmat qilish konsepsiyasi bolaning shaxsiy qarashlarini, qiziqishlarini va uning o'ziga xosligini qabul qilishga asoslangan. Ushbu yondashuvda bolalar faol o'rganuvchi, tadqiqotchi va yaratuvchi sifatida ko'riladi. Bu prinsip ta'lim jarayonining markaziy g'oyalaridan biri bo'lib, bolalarning ichki dunyosi va tajribalarini to'liq tushunishga qaratilgan. Redjio pedagogikasi bolaning har qanday fikri va g'oyasi muhim ekanligini tan oladi. Har bir bola o'z dunyoqarashiga ega, uni tinglash, tushunish va hurmat qilish lozim. Bolalarning savollari va fikrlari o'quv jarayonining yo'nalishini belgilab beradi. Bolalar turli yo'llar orqali o'z fikrlarini bildirishga rag'batlantiriladi. Pedagog bolalarning har qanday fikrini qo'llab-quvvatlaydi va uni mustahkamlaydi.

Pedagoglar bolalarning fikrlarini hurmat qilgan holda ular bilan teng hamkor sifatida ish olib boradi. Bolalar o'zaro fikr almashishga chorlanadi, bu ularning fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi. Bolalarning fikr va g'oyalarini erkin ifodalashi uchun qulay muhit yaratiladi. Guruh muhokamalari va muloqot uchun maxsus zonalar tashkil etiladi. Bolalarning fikrlari hujjatlashtiriladi (masalan, yozuvlar, chizma-chiziqlar orqali), bu ularning rivojlanishini tahlil qilishga yordam beradi. Bu jarayon faqat baholash uchun emas, balki bolalarning o'z yutuqlarini ko'rishlari uchun amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar rejasi: "Tabiatni tadqiq etamiz"

Maqsad: Bolalarni tabiatga qiziqtirish, tadqiqot va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning kommunikativ malakasini oshirish

.

1. Boshlang'ich bosqich: bolalarning qiziqishlarini aniqlash

Faoliyat:

Bolalardan "Tabiatda nimalarni o'rganishni xohlaysiz?" deb so'rash.

Bolalarning savollarini yozib olish (masalan: "Qushlar qanday ovoz chiqaradi?", "Nima uchun daraxtlarning barglari o'zgaradi?").

Kichik guruhlarda bolalar bilan qo'shimcha muhokamalar o'tkazish.

2. Tadqiqot bosqichi: qushlarni o'rganish loyihasi

Faoliyatlar:

Kuzatuv: bolalarni bog' yoki parkka olib borish, ulardan qushlarni kuzatishni so'rash. Bolalarga durbin yoki kattalashtiruvchi aynalar berish.

Suratga olish: qushlarning rasmlarini tushirish yoki ularni qog'ozga chizish.

Masalalar yozish: qushlar haqidagi qiziqarli savollarni birgalikda yozib chiqish.

3. Ijodiy bosqich: Qushlar haqida tasviriy ijod

Faoliyatlar:

Bolalar guruhlarda ishlaydi. Ularning vazifasi qushlarni qog'oz, karton, plastilin va boshqa materiallar orqali yaratish.

Bolalar o'z "qush dunyosi"ni hikoya qilib bersin. Masalan, qush qanday ovoz chiqaradi, qayerda yashaydi va nimalarni yaxshi ko'radi.

4. Hujjatlashtirish va tahlil

Faoliyatlar. Bolalar tomonidan yaratilgan ishlar ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Mashg'ulot jarayonidagi rasmlar va videolar ota-onalarga namoyish etiladi.

Bolalar o'z ishlarini qanday qilib amalga oshirgani haqida hikoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Redjio Emiliya pedagogikasi bolalar ta'limining innovatsion modellaridan biri bo'lib, uning asosida bolalarning mustaqil ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish yotadi. Mazkur yondashuvda bolalarning qiziqishlari, ijodiy izlanishlari va hamkorlik orqali o'qish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Redjio Emiliya pedagogikasi asosida bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalalari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur pedagogik yondashuv bolalarning o'z fikrlarini so'z, harakat, tasvir va boshqa ijodiy vositalar orqali ifoda qilishga yordam beradi. Bu bolalarni jamoaviy muloqotga tayyorlash, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va muloqot jarayonida o'zini erkin ifoda qilishda muhim rol o'ynaydi.

Muhitning «uchinchi muallim» sifatidagi ahamiyati, bolalarning qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi ijtimoiy muhit yaratish va ularning tabiiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash ushbu pedagogikaning asosiy tamoyillari sifatida belgilangan. Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda esa bolalarning mustaqil tadqiqotlari va ijtimoiy hamkorlik jarayonlari markaziy o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Redjio Emiliya pedagogikasi orqali rivojlantirilgan bolalar nafaqat muloqot qobiliyatini egallaydi, balki jamoada ishlash, ijtimoiy muammolarni hal qilish va yangicha g'oyalarni ijodiy tarzda amalga oshirish uchun ham tayyor bo'ladi.

Ushbu yondashuvning ta'lim jarayonidagi amaliyotda qo'llanilishi nafaqat bolalarning, balki pedagoglar va ota-onalarning ham rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shunday qilib, Redjio Emiliya pedagogikasi asosida bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kun ta'limida muhim va samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Малагуцци, Л.** (1996). *The Hundred Languages of Children*. Реджио Эмилия педагогикаси ғоялари ва амалий тажрибалари ҳақидаги асосий манба.
2. **Гандини, Л. ва Эдвардс, К.** (1998). *The Reggio Emilia Approach: Advanced Reflections*. Реджио педагогикасининг назарий ва амалий аспектларини ёритувчи муҳим тадқиқотлар.
3. **Выготский, Л. С.** (1986). *Мышление и речь*. Болаларнинг нутқ ва фикрлаш жараёнлари ҳақида назарий асослар.
4. **Дьюи, Дж.** (1916). *Democracy and Education*. Таълим жараёнида ижтимоий ҳамкорликни қўллаб-қувватлаш назарияси.
5. **Шульц-Бендалл, К.** (2010). *Encounters with Materials: Children Learning through Experiences*. Болаларнинг муҳит билан ўзаро таъсири ҳақидаги тадқиқотлар.
6. **Кац, Л. Г., ва Чард, С. К.** (2000). *Engaging Children's Minds: The Project Approach*. Лойиҳа асосида ўқитиш методологияси.
7. **ЮНЕСКО** (2010). *Early Childhood Care and Education Pedagogies*. Болалар таълимида инновацион ёндашувлар тўғрисида халқаро манбалар.
8. **Сарсенбаева, Р. Б.** (2020). «Современные подходы к развитию коммуникативной компетенции у детей дошкольного возраста». Таълимда коммуникатив компетенцияни шакллантиришга оид тадқиқотлар.
9. **Национальная образовательная инициатива «Наша новая школа»** (2011). Инновацион таълим моделлари ва уларнинг Россия таълимига таъсири.
10. **Беренсон, К. ва Лоренц, С.** (2008). *The Art of Reggio Emilia*. Реджио Эмилия педагогикасининг санъат орқали болалар ривожланишига таъсири.

Ayjamal JIYEMURATOVA,
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti izleniwshisi

JOQARÍ KLASLARDA QARAQALPAQ TILI STILISTIKASÍN OQÍTÍWDA MULTIMEDIALÍQ TÁLIM PLATFORMALARÍNAN PAYDALANÍWDÍ JETILISTIRIW

Annotaciya: maqalada ulıwma bilim beriw mekteplerinin 10-11 klasta qaraqalpaq tili pánin oqıtıwda multimedialıq texnologiyalardan paydalanıw, til stillerin zamanagóy sabaq usıllarınan qollap oqıtıw, interaktiv tálim platformalarında jaratılǵan shınıǵıwlar arqalı sabaq nátiyjeliligin arttırıw haqqındaǵı maǵlıwmatlar menen tanısasız.

Gilt sózler: *multimedia, informaciyalıq texnologiya, didaktika, kónlikpe, stil.*

Annotation: in the article, you will learn about the use of multimedia technologies in teaching the subject "Karakalpak Language" in the 10-11th grades of general education schools, the use of modern lesson methods, increasing the effectiveness of lessons through exercises created on interactive educational platforms.

Keywords: *multimedia, information technology, didaktic, skills, style.*

Аннотация: в статье вы ознакомитесь с информацией об использовании мультимедийных технологий в преподавании каракалпакского языка в 10-11 классах общеобразовательных школ, обучении языковым стилям с применением современных методов урока, повышении эффективности урока посредством упражнений, созданных на интерактивных образовательных платформах.

Ключевые слова: *мультимедиа, информационные технологии, дидактика, навыки, стиль*

Metodika-búgingi kúnde ilim tarawı hám tálim-tárbiya usılı bolıp qalmastan oqıwshılardıń oy-órisin rawajlandırıwshı qurallardı qollanıwǵa baylanıslı pán bolıp esaplanadı. Sol sebepli ana tilin úyreniwge fundamental tárepten de áhmiyet beriliwi kerek. Tildi úyreniw arqalı oqıwshı qorshaǵan ortalıq penen tanısadı, mádeniyatlılıqtı úyrenedi.

Ózbekstan Respublikasınıń «Bilimlendiriw haqqında» Nızamı mámleketimizde bilimlendiriw hám tálim-tárbiya jumısların alıp barıwda tiykarǵı hújjet bolıp esaplanadı. "Bilimlendiriw haqqında"ǵı Nızamnıń 35-statyasında: "ulıwma bilim beriw pánleriniń oqıw baǵdarlamaları shaxstı hár tárepleme kamal tabıwǵa, tálim alıwshılarǵa bilim, qánigelik, kónlikpelerdi, dúnya qarasın jetilistiriwge hám olardıń qábiliyetin rawajlandırıwǵa qaratılǵan bolıwı kerek" ekenligi haqqında atap ótilgen. Qaraqalpaq tili pániniń tiykarǵı maqseti bilim alıwǵa, kitaplarǵa, tariyx hám jámiyetke, oqıp izleniwge qızıǵıwshılıqtı oyatıw. Sol sebepli pedagoglar barlıq waqıtta sabaqlardı mazmunlı,

qızıqlı hám nátiyjeli shólkemlestire alıwı ayırıqsha áhmiyetli. Sabaq jarqın, sezimtal hám este qalatuǵın bolıwı kerek. Temanı durıs túsindiriw, hár bir oqıwshını sabaq processine belsendi bolıwǵa tarta biliw hám úyreniwge individual jantasıwdı ámelge asırıw zárúr. Sonda ǵana, oqıwshılarǵa berilgen bilim uzaq waqıt este saqlanadı hám ómiri dawamında xızmet etetuǵın bekkem fundamentke aylanadı.

XXI ásirde bilimlendiriw tarawında pedagog xızmetkerlerdiń aldına bir qansha talapalar qoyılǵan. Olar: bilim sapasın arttırıw, kompyuterlestiriw, internette paydalanıw múmkinshiligi bar bolǵan materiallardı qollanıw, elektron sabaqlıqlar jaratıw hám t.b. Informaciyalardıń hár qıylılıǵı (tekst, keste, audio, video, animaciya h.t.b) oqıwshınıń pánge bolǵan qızıǵıwshılığın ele de arttıradı. Maǵlıwmatlardı jetkerip beriwde multimedia qurallarınıń ornı óz aldına. Multimedia túsinigi 90-jıllarda ómirimizge kirip keldi. Kópshilik qánigeler bul termindi elege shekem analiz etpekte. Multimedia bul- informatikanıń dástúriy hám texnikalıq quralları tiykarında audio, video, tekst, grafika hám annimaciya effektleri tiykarında oqıw materialların oqıwshılarǵa jetkerip beriw usılı. Bul oqıwshılardıń házirgi zaman talabına say bilim alıwına, bilim sapasın arttırıwǵa xızmet etiwi menen áhmiyetli.

Ulıwma bilim beriw mekteplerinde qaraqalpaq tilin hám ádebiyatın oqıtıw máseleleri hám metodikası boyınsha belgili metodist alımlar E.Berdimuratov, Q.Pirniyazov, B.Qutlımuratov, Á.Nasrullaev, Q.Qojanazarov, Sh.Allaniyazova, J.Táńirbergenov, Q.Yusupov, Á.Paxratdinov hám basqalar tárepinen ilimiy izertlew jumısları alıp barılıp, nátiyjeler járiyalanǵan. Usı kóz qarastan X-XI klaslarında qaraqalpaq tilin oqıtıwda informaciyalıq texnologiyalardan paydalanıwdıń da ózine tán ózgeshelikleri bar. Informaciyalıq texnologiyalar insan iskerliginiń nátiyjesi sıpatında qaralıp, filosofiya, pedagogika, psixologiya, didaktika, kommunikaciya, menejment sıyaqlı tarawlardıń teoriyalarına súyenedi. Informaciyalıq tálim texnologiyalarınıń tiykarǵı qásiyetlerine tómendegiler kiredi:

-diagnostika tiykarında oqıtıwdıń maqsetlerin anıqlaw;

- mazmundı tańlaw hám sistemalastırıw;

- bilimlerdi bahalaw arqalı qayta baylanıstı ámelge asırıw imkaniyatı;

-sonday-aq juwmaqlawshı nátiyjeler.

Zamanagóy jámiyette tálim hám texnologiya rawajlanǵan sayın bilimlendiriw mákemelerinde jumıs alıp barıp atırǵan qánigelerden ilim-pán jańalıqlarınan turaqlı xabardar bolıw talap etilmekte.

Mekteplerde qaraqalpaq tilin hám hár tárepleme úyretiw-oqıwshılardıń bilimdi tereń iyelep alıwın támiyinleydi, oqıwshılardıń logikalıq oylawın rawajlandıradı, miynetke bolǵan súyiwshiligin arttıradı, jámiyetlik turmısqa materialistlik kózqarasın qáliplestiredi [B.Qutlımuratov:3].

Ilimpaz Á.Paxratdinov ana tilin oqıtıwda bir neshe prinsiplerge toqtalıp ótedi: ilimiylik hám oqıtıwdıń izbe-izligi sistemalılıq principi, teoriyanıń praktika menen baylanıslılıq principi, tildiń bólimleriniń bir-biri menen baylanıslılıq principi, aktivlilik principi, kórsetpelilik, túsiniklilik, oqıwshılarǵa jeke qatnas jasaw principleri [Á.Paxratdinov: 29]

XX ásirdiń ekinshi yarımınan baslap, dúnya júzinde informaciyalıq texnologiyalar tek ǵana jumıs islewshi kárxanalarda esap-kitap jumsıların orınlaw ushın ǵana emes, al shaxstı tárbiyalawshı hám tásir etiwshi texnologiya sıpatında da qollanıla basladı.

Ótken jıllar dawamında mámleketimizde jámiyettiń hár bir tarawın informaciyalastırıw boyınsha qatar is-ilajlar ámelge asırıldı. Elektron sabaqlıqlar, simulyaciyalar, programmalar jaratıldı. Házirgi kúnde ulıwma orta bilim beriw mákemelerinde ana tili pánin oqıtıwdıń mazmun-mánisi degende: oqıwshılarǵa beriletuǵın tálim-tárbiyanıń maqset hám wazıypaları menen anıqlanatuǵın bilimler, materiallar, shınıǵıwlar hám kónlikpe payda etiw qásiyeti hám maǵlıwmatlar kólemi túsiniledi. X-XI-klasta qaraqalpaq tili hám ádebiyatın oqıtıw ushın jámi 3 saat waqıt ajıratılǵan. Pándi oqıtıwda jaratılǵan sharayat, oqıtıw bólmesi, sabaq ushın tańlanǵan metod, usıl, shınıǵıw, oqıwshı hám muǵallim arasındaǵı kommunikaciyalıq baylanıs, oqıwshınıń psixologiyalıq jaǵdayı áhmiyetli. Optimallastırıw oqıwshılarda hár qıylı boladı. Sebebi, hár bir oqıwshı ózgeshe bir individ.

X-XI klasta qaraqalpaq tili pánin oqıtıwda tiykarǵı dıqqat oqıwshılarǵa tekstti stllik jaqtan talqılaw, til stillerin parıqlay alıwǵa qaratılǵan. Stilistika grek tiliniń sózi bolıp «Stilos» taxtaǵa jazıw ushın ushı súyir etip shıǵarılǵan «Tayaqsha» degen mánini ańlatqan. Filologiya iliminde stilistika eki mánide túsiniledi. 1) Til hám sóylew stilistikası. 2) Kórkem ádebiyat stilistikası «Stil» sóziniń mánisi keń. Ol til biliminde, ádebiyattanıwda, ónertanıwda, arxitekturada hár qıylı mánilerde qollanıladı. E.Berdimuratov: «Stil bul, haqıyqatında da, tildiń tariyxıy rawajlanıwınıń barısında turmıs tarawlarına, til arqalı qatnastıń túrli formalarına, konkret situaciyaǵa baylanıslı leksika-semantikalıq, grammatikalıq hám t.b. boyınsha sol tarawǵa funkcionallıq beyimliligi menen qáliplesken til qurallarınıń sisteması sıpatında kórinedi» degen pikirdi bildirgen.

Til stillerin bir-birinen ajıratıw ushın aldı menen ámeliy tapsırmalardı orınlaw áhmiyetli. Stilistikanı oqıtıwda ámeliyatqa baǵdarlanǵan oqıtıw usılınan paydalanıladı. Ulıwma bilim beriw mekteplerinde stilistikanı oqıtıw metodikasınıń ilimiy tiykarların islep shıǵıw izertlew dawamında lingvistikalıq túsiniklerge anıqlıq kiritiw hám usı tiykarda stilistikanıń predmetin, onıń tiykarǵı túsinikleri hám qaǵıydaların belgilewge jańadan jantasıw zárúrligi payda boldı.

Metodologiya páninde qaraqalpaq tili stilistikasın oqıtıw boyınsha jeterli maǵlıwmat berilmegen. Hár bir stildiń ózgesheligi hám uqsaslıq táreplerin ashıp beriw, olardı oqıwshılarǵa jetkeriw sheberligi hám kónlikpesin iyelew zárúrligi payda bolmaqta. Stilistikalıq qátelerdi anıqlaw ólshemlerin islep shıǵıw hám olardı zamanagóy metodlar tiykarında qollanıw hám jetilistiriw dáwir talabı. Stilistikanıń tiykarǵı qaǵıydaların úyretiw ushın tekstkerden paydalanıladı. Oqıwshılardıń sóylew mádeniyatı hám stilistikanı durıs iyelew kónlikpelerin payda etiw ushın olarǵa orfografiyalıq, leksikologiyalıq hám morfologiyalıq qaǵıydalardı tolıq ózlestiriwine erisiw lazım. Degen menen, 10-11-klass Ana tili sabaqlıǵında qaraqalpaq tilindegi stillerdi túrlerge ajıratıwda ózgeshelikler bar. Bul oqıwshılarda túsinbewshilikti keltirip shıǵaradı.

Ádebiy tildiń awızeki hám jazba stilleri bar. Házirgi ádebiy tilimizde jazba stil is qaǵazları stili, publicistikalıq stil, ilimiy stil hám kórkem ádebiyat stili sıyaqlı túrlerge bólinedi. Hátte, usı kórsetilgen stillerdiń de óz ishinde birneshe stillik ózgeshelikleri boladı. Máselen, kórkem ádebiyat stiliniń ózi poeziyalıq stil, prozalıq stil, satiralıq stil, tımsallar stili sıyaqlı ózgesheliklerge iye boladı. 10-klass Ana tili sabaqlıǵında til stilleri joqarıdaǵıday formada túrlerge ajıratılǵan. 11-klass Qaraqalpaq tili sabaqlıǵında til stilleri tómendegi túrlerge bólingen: 1) Sóylesiw stili (tildiń baylanıstırıw xızmeti); 2) Ilimiy stil; 3) Rásmiy is qaǵazları stili (tildiń xabar, informaciya beriw xızmeti); 4) Publicistikalıq stil; 5) Kórkem ádebiyat stili (tildiń tásir etiw, úgit-násiyat xızmeti).

Sóylew mádeniyatın iyelewdiń usıllarınan biri oqıwshılardıń orfografiyalıq qaǵıydalarǵa ámel qılıwı menen belgilenedi. Lingvistikalıq normalardı durıs hám maqsetke muwapıq tańlaw, olardı stilistikalıq ólshemler tiykarında erkin paydalana alıw qábiletine de baylanıslı. Solay etip, qaraqalpaq tilin mekteplerde oqıtıwda stilistikanıń ornı stilistikalıq bilimlerdi ózlestiriw hám stilistikalıq kónlikpelerdi jetilistiriw arqalı oqıwshılardıń sóylew mádeniyatın arttırıwdaǵı áhmiyeti menen belgilenedi. Stilistikanıń tiykarǵı túsiniklerin úyreniw qaǵıyda tárizinde hár qıylı stiller hám janrlardaǵı tekstler boyınsha ámelge asırıladı. Úyrenilgen bilimniń dárejesi oqıwshılardıń kognitiv qábiletleri, úyrenilgen bilimlerdi turmısta qollanıwı menen xarakterlenedi. Qaraqalpaq tilin oqıtıw barısında zamanagóy texnologiyalardı qollanıw arqalı stilistikanı oqıtıw usıllarınıń teoriyalıq hám ámeliy tiykarların islep shıǵıw tiykarǵı wazıypalardan biri.

Rásmiy is qaǵazları stilin oqıtıw. Rásmiy isler stili mektep sabaqlıǵında «is qaǵazlarınıń stili» degen tema menen oqıtıladı. Is qaǵazlarına mámleketlik joqarı organlarda hám adamlar arasında óz-ara qatnas, is-júrgiziw quralı bolǵan jazba húججetler, qatnas qaǵazları bolǵan nızam, párman, shártnama, málimleme, shaqırıqlar, buyrıq hám xabarlar, kelisim, ómirbayan, minezleme, arza, maǵlıwmatnama, akt, isenim xat, shaqırıw xat, daǵaza, telegramma, jollama, gúwalıq t.b. túrleri qatnas qaǵazı retinde qollanıladı. Is qaǵazların oqıtıwda interaktiv tálim platformalarınıń múmkinshiliklerinen paydalanıw jańa pedagogikalıq texnolgiyalardı sabaq processine engiziwge tiykar boladı.

a) PowerPoint. Bul qosımshada hár qıylı tekstler, diagrammalar, smart figuralar jaratı múmkinshiligi jaratılǵan. is qaǵazların túrlerge ajıratıwda bul qosımshadan paydalanıw sabaqtıń kórgizbeliligin arttıradı.



b) LearningApps.org platforması. Informaciyalıq texnologiyalardıń rawajlanıwı bilimlendiriw mákemelerinen metod hám resurslardı ele de jetilistirip barıwdı talap etpekte. Ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıwshılardıń sabaqta belsendiligin arttırıw, onlayn tapsırmalar beriw boyınsha zamanagóy texnologiyalardan paydalanıw sabaqqa jańasha jantasıwdıń kórinisi sıpatında júzege shıqpaqta. Oyınǵa tiykarlanǵan oqıtıw platformaları, mul-

timedialıq qurallar arqalı sabaqqa oyın elementlerin kirgiziw oqıwshılar belsendiligin hám bilim beriwdiń sapasın arttırıw ushın móljellengen texnologiyalar bolıp, oqıwshılarda tez qarar qabıl etiw, strategiyalıq pikirlew, mashqalalardı sheshiw hám basqa da kompetensiyalardı jetilistirip barıwda ámeliy járdem beredi.

Multimedialıq texnologiyalar bir waqıttıń ózinde maǵlıwmattı usınıwdıń bir neshe jolların paydalanıwǵa imkan beredi. Búgingi kúnde paydalanıwshılar ushın eń qolay platforma LearningApps.org platforması. Bul servistiń rásmiy ataması: LearningApps, tili: rus, siltemesi: http://learningapps.org/ LearningApps. org izertlew joybarı retinde PH Bern oqıtıwshılar kolledji oqıw informatika orayı tárepinen Mayns universiteti hám Zittau/ Gorlitz universiteti menen sheriklikte islep shıǵılǵan.

LearningApps. org - bul interaktiv modullar arqalı úyreniw hám oqıtıwdı qollap-quwatlaw ushın Web 2.0 qosımshası. Ámeldegi modullar tuwrıdan-tuwrı oqıw mazmunına kiritiliwi hám olardı qısqa waqıt ishinde ózgertiw yamasa jaratıw múmkin. Platformanıń maqseti, interaktiv bloklardı toplaw hám olardı hámme ushın ashıq qılıp qoyıw. Bunday bloklar (qosımshalar yamasa shınıǵıwlar dep atalatuǵın) usınıń sebepinen qandayda bir programma yamasa arnawlı bir baǵdarlamalarǵa kiritilmegen. Olardıń ayrıqsha mánisi bar, yaǵnıy interaktivlik. Óz wazıypalarıńızdı jaratıw hám saqlaw ushın siz dizimnen ótiwińiz kerek. Wazıypa jaratqanıńızdan keyin onı tezlik penen járiyalawıńız yamasa jeke paydalanıw ushın saqlawıńız múmkin. Tayın resurslarǵa kiriw dizimnen ótpegen paydalanıwshılar ushın da ashıq. Siz tapsırmanıń tómengi bólegindegi siltemeni nusqalaw arqalı basqalar tárepinen jaratılǵan tapsırmalardan da paydalanıwıńız múmkin ("snap" - tapsırmanı jeke sayt betińizdiń joqarı bólegindegi kishilew ramkada kórsetiwdi ańlatadı). Sonıń menen birge, siz hár qanday wazıypanı fayllar arxivi retinde júklep alıwıńız múmkin. Sayt kóp tilli, tillerdi joqarı oń múyeshtegi bayraqlar járdeminde almastırıw múmkin. LearningApps. org xızmeti anıq navigatsiyaǵa iye, jáne onı túsiniw qıyın bolmaydı. Nátiyjeni learningapps. org veb-saytında usınıs etilgen tapsırmalar mısalları arqalı bahalaw múmkin.

c) Flippity.net saytında interaktiv shınıǵıwlardı jaratıw ushın hár qıylı shınıǵıw úlgileri berilgen. Bul veb sayttı jaratıw ushın AQShlı informatika páni oqıtıwshısı Stiv Fortna 8 jıl izlenisler alıp barǵan. Bárshe tapsırmalar Google kestesi tiykarında jaratılǵan. Sol sebepli siz aldı menen Googledan dizimnen ótiwińiz kerek. Saytta berilgen shınıǵıw úlgileri arqalı túrli kesteler, viktorinalar, basqatırmalar jaratıw múmkinshiligi oǵada joqarı.

Jańa pedagogikalıq texnologiyalardıń hár qıylı usılların paydalanıw mektep oqıwshılarınıń sabaqtı úyreniwge bolǵan qızıǵıwshılığınıń artıwına alıp keledi. Kahoot.com, LearningApps.org, Flippity. net sıyaqlı interaktiv platformalarda jaratılǵan didaktikalıq oyın shınıǵıwları arqalı oqıwshılardıń óz betinshe oylaw qábiletleri rawajlanıp baradı, olardıń erkin pikirlew, kritikalıq pikirlew qábiletleri rawajlanadı. Bunnan tısqar,ı temanı ótkende tek sabaqlıq penen sheklenip qoymastan oqıtıwshınıń jańa usıllardı óz betinshe qollanıwına jol ashadı.

Juwmaqlap aytqanda, sabaqtıń sapası, nátiyjeliligi oqıtıwshı tárepinen kórilgen puqta tayarlıqqa baylanıslı. Bunda sabaq islenbesiniń házirgi zaman aldınǵı texnologiyalarǵa muwapıq jobalastırılıwı ayrıqsha áhmiyetke iye. Bilimlendiriw tarawında pedagogikalıq hám informaciyalıq-kommunikaciya texnologiyalarınan, internet hám informaciyalıq tálim resurslarınan paydalanıw sabaqtı joqarı dárejede shólkemlestiriwge járdem beredi. Bul tálim platformaları qaraqalpaq tilinde jaratılmaǵan. Soǵan qaramastan, hár bir oqıtıwshı óz pánine sáykeslestirip paydalana alıw múmkinshiligi jaratılǵan. Bilim beriw qaysı jol menen ámelge asırılıwına qaramastan, kópshilikke xızmet etse paydalı esaplanadı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR DIZIMI:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида» Қонуни. –Тошкент, 2020 йил, 23-сентябрь, ЎРҚ-637.
2. Abdinazimov Sh., Ismaylova Z., Kazimbetova Z. 10-klass Ana tili. –Tashkent, 2022-jıl 244 b
3. Бердимуратов Е., Пирниязов К. Орта мектеплерде қарақалпақ тилин оқытыў методикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 286 б
4. Қутлымуратов Б. Қарақалпақ тилин оқытыўдың айырым мәселелери. – Нөкис: Билим, 1992 -266
5. Петухова Е.И. Роль информационных технологий в повышении качества профессионального образования // Успехи современного естествознания. – 2013. – № 10. – С. 82-83 [Электронный ресурс]. URL:
6. Захарова И.Г. Информационные Технологии в образовании Москва Академия 2013 -208 с
7. https://nic-snail.ru/pedagogu/mediateka/learningapps

Turg‘unjon GAIPOV
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistri

INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TA’LIM BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari hajmini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi. Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini inklyuziv ta’lim sharoitida samarali o‘qitishning pedagogik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv, ta’lim, pedagogika, usul, muhit, o‘qituvchi, hamkorlik.*

Abstract: methodological foundations for organizing inclusive education in our country have been developed on the basis of ensuring strong integration of science, education and production based on the social needs and personal interests of learners. "In order to organize inclusive education for children with special educational needs, it is necessary to strengthen the material and technical base of educational institutions, to adapt educational programs, to increase the volume of quality health education services and highly qualified personnel suitable for this process. important tasks such as "preparation" were defined. This article is also dedicated to the study of the pedagogical aspects of effective teaching of elementary school students in the conditions of inclusive education.

Key words: *inclusive, education, pedagogy, method, environment, teacher, cooperation.*

Аннотация: методологические основы организации инклюзивного образования в нашей стране разработаны на основе обеспечения прочной интеграции науки, образования и производства с учетом социальных потребностей и личных интересов обучающихся. «В целях организации инклюзивного образования детей с особыми образовательными потребностями необходимо укрепить материально-техническую базу образовательных учреждений, адаптировать образовательные программы, увеличить объёмы качественных медико-просветительских услуг и высококвалифицированные кадры, подходящие для этого процесса. были определены важные задачи, такие как «подготовка». Данная статья также посвящена изучению педагогических аспектов эффективного обучения учащихся младших классов в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: *инклюзивное, образование, педагогика, метод, среда, педагог, сотрудничество.*

Kirish. jahon ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar uchun moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining ta’lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta’lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta’lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta’minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar hamda kattalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlashga qaratilgan me’yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta’limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta’minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Inklyuziv ta’lim tizimida barcha bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim ham jahon miqyosida, ham O‘zbekistonda barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim berishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qilingan. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida inklyuziv ta’limning ahamiyati yanada ortib, bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun maxsus va inklyuziv ta’limning ilmiy-metodik hamda nazariy aspektlari mamlakatimiz olimlaridan R.Sh.Shomaxmudova, L.R.Muminova, K.M.Mamedov, Z.Mamarajabova, D.A.Nurkeldiyeva, D.A.Nazarova, Sh.E.Taxtiyarova, U.Y.Fayziyeva, F.U.Qodirova, G‘.B.Shoumarov, D.J.Sharirova, D.Yakubjanova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida turli darajada tadqiq etilgan. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri va uning ta’lim siyosatini amalga oshirishdagi roli hamda imkoniyatlari

G‘.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulov, Sh.I.Botirova, R.Eshchanov, S.A.Toshtemirova, M.A. Sattorova, N.Koshanova va boshqalarning, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga kompetentlik jihatdan tayyor bo‘lishining pedagogik, psixologik, metodik va innovatsion jihatlari B.Abdullayeva, Sh.X.Abdullayeva, N.N.Azizxodjayeva, Y.M.Asadov, N.Muslimov, A.I.Rasulov, A.M.Jabborov, D.G.Muxamedova, N.S.Saidaxmedov, O‘.Q.Tolirov, R.H.Djo‘rayev, J.G‘.Yuldoshev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

Tahlil va natija. Ushbu tadqiqot natijalari inklyuziv ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga samarali ta'lim berish uchun muhim pedagogik jihatlarni aniqladi.

Mazkur natijalar asosida inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o‘zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi.Bu sayyoramiz aholisining o‘ndan bir qismini tashkil etadi. Umumjahon sog‘liqni ekologik saqlash tashkiloti ma’lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo‘lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir .

Mustaqil O‘zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda. Umumjahon miqyosida alohida e’tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko‘maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda .

Umumiy o‘qitish tizimida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik jihatlari, nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a’zosi sifatidagi o‘rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta’minlash hamda qo‘llab-quvvatlash o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o‘rin egallamoqda.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga samarali ta’lim berish uchun o‘qituvchilarning moslashuvchan yondashuvlari va maxsus bilimlarga ega bo‘lishi muhimdir. Mazkur pedagogik jihatlar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo‘lib, inklyuziv ta’lim amaliyotlarini muvaffaqiyatli joriy qilishda asosiy omillar sifatida qaraladi.

Birinchidan, moslashuvchan ta’lim usullari va differentsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyati Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi bilan mos keladi. Unga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘quvchilar uchun individual yondashuvni talab qiladi, bu esa inklyuziv ta’lim sharoitida yanada dolzarb bo‘ladi. Bu tadqiqotda moslashuvchan o‘qitish usullari (masalan, guruh bo‘lib ishlash va o‘z-o‘zini o‘qitish) inklyuziv sinflarda ijobiy natijalar berganini ko‘rsatdi, bu esa o‘qituvchilarning dars jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, o‘quv muhiti va uning qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatlari ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga binoan, bolaning rivojlanishi uning ijtimoiy va madaniy muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotda aniqlanganidek, ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti inklyuziv sinfda o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuviga va o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa inklyuziv ta’limda ijtimoiy tuzilmani hisobga olgan holda darslarni tashkil qilishning muhimligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha tayyorgarligi ham tadqiqotda asosiy omil sifatida ajralib turdi. Bunda o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim metodikasiga oid bilim va ko‘nikmalari yetarli bo‘lsa, o‘quv jarayonining samaradorligi oshadi. Bu natija xalqaro tadqiqotlarda ham tasdiqlangan, masalan, o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kaliti sifatida ko‘rsatiladi. Shu sababli, o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishi inklyuziv ta’lim uchun juda muhimdir.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham muhim pedagogik jihat sifatida aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi bolalarning o‘zlashtirish darajasiga va ijtimoiy moslashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish va ular bilan muntazam hamkorlik qilish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, qo‘shimcha psixologik va pedagogik yordamga ehtiyoj borligi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun maxsus mutaxassislarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilar turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, va psixolog va logoped kabi mutaxassislarning mavjudligi bu qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi.

Mazkur natijalar va muhokama asosida inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi: o‘qituvchilarning doimiy malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlik o‘rnatish va inklyuziv sinflarda maxsus mutaxassislar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qitishning pedagogik jihatlarini o‘rganib, bir qator muhim xulosalar chiqardi. Inklyuziv ta’limda samarali o‘qitish uchun moslashuvchan va individual yondashuvlarni qo‘llash,

qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish va o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash zaruriy ekani aniqlandi. Ushbu omillar o‘quvchilarning faqat bilim olishida emas, balki ijtimoiy moslashuv va rivojlanishida ham katta rol o‘ynaydi.

Ushbu xulosalar inklyuziv ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yanada samarali o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi va ta’limning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigotskiy L.S. O‘qitish va rivojlanishning psixologik asoslari. Moskva: 1986. Pedagogika nashriyoti.
2. Bronfenbrenner U. Inson rivojlanishining ekologik tizimlar nazariyasi. Boston: 1979. Harvard University Press.
3. Санакулова З. Т. Инклюзив таълимнинг педагогик асослари. Таълим ва инновация журнали, 2(1), 45-56. 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2020-2025-yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish dasturi”. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 24, 30-40. 2020 yil, 1-iyun
5. Ergasheva M. Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv o‘qitishning samaradorligi. O‘zbekiston Ta’lim Jurnali, 15(4), 60-68. 2021.
6. Salomova R. Inklyuziv ta’limning zamonaviy pedagogik usullari. O‘zbekiston Ilmiy Jurnali, 3(6), 95-110. 2023.
7. Slee R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. New York: Routledge. 2011.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta’lim amaliyoti” bo‘yicha metodik qo‘llanma. T.: Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti. 2021.

Bakhtigul ISAKULOVA,
Phd., Head of the department
"English Language Applied Sciences".
Faculty of 3rd English language
Uzbekistan State World languages
University. Tashkent. Uzbekistan

FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF LEADERSHIP SKILLS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation: this article explores the role of communicative competence in the development of leadership skills within the educational process. Specifically, it examines how communication skills contribute to the cultivation of leadership qualities in students pursuing management and leadership-focused programs. In this article, the integration of communicative training into the academic curricula, interactive learning techniques and the impact of social and emotional intelligence on leadership potential are emphasized.

Keywords: *communicative competence, leadership skills, education, management, interpersonal communication, social intelligence, leadership training.*

Аннотация: в этой статье рассматривается роль коммуникативной компетентности в развитии лидерских навыков в образовательном процессе. В частности, рассматривается, как коммуникативные навыки способствуют развитию лидерских качеств у студентов, обучающихся по программам, ориентированным на менеджмент и лидерство. В этой статье подчеркивается интеграция коммуникативного обучения в академические учебные программы, интерактивные методы обучения и влияние социального и эмоционального интеллекта на лидерский потенциал.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, лидерские навыки, образование, менеджмент, межличностное общение, социальный интеллект, обучение лидерству.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida qo‘rquv mazmunli aforizmlarning psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qo‘rquv hissiyotining til va madaniyatda qanday aks etishi, uning metaforik ifodasi, individual va ijtimoiy yondashuvlardagi farqlar ko‘rib chiqiladi. Ingliz tili aforizmlarida qo‘rquv shaxsiy rivojlanish va muvaffaqiyatga to‘siq sifatida aks etsa, o‘zbek tilida u sabr-matonat va taqdirga ishonch tushunchalari bilan bog‘liq. Tahlil natijalari har ikkala tilda qo‘rquvning leksik va madaniy mazmuni xilma-xil bo‘lib, xalq dunyoqarashi va psixologik xususiyatlarini ifodalashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, ikki tillilik, tahlil, stereotiplar, qo‘rquv, aforizmlar, metafora, pragmatika.*

Аннотация: в данной статье анализируются психолингвистические особенности афоризмов, содержащих страх, в английском и узбекском языках. Рассмотрено, как чувство страха отражается в языке и культуре, его метафорическое выражение, различия индивидуального и социального подходов. Если в английских афоризмах страх отражается как препятствие на пути развития личности и успеха, то в узбекском он связан с понятиями терпения и веры в судьбу. Результаты анализа показывают, что лексическое и культурологическое содержание страха в обоих языках различно и выражает мировоззренческие и психологические особенности народа.

Ключевые слова: *афоризмы, страх, психолингвистика, двуязычие, анализ, стереотипы.*

Annotation: this article analyzes the psycholinguistic features of aphorisms containing fear in English and Uzbek languages. How the feeling of fear is reflected in language and culture, its metaphorical expression, differences in individual and social approaches are considered. If in English aphorisms fear is reflected as an obstacle to personal development and success, in Uzbek it is associated with the concepts of patience and faith in fate. The results of the analysis show that the lexical and cultural content of fear in both languages is different and expresses the worldview and psychological characteristics of the people.

Keywords: *fear aphorisms, psycholinguistics, bilingualism, analysis, stereotypes.*

Kirish. Qo‘rquv insonning eng qadimiy va kuchli hissiyotlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi xavfdan ogohlantirish va himoyalanishga undash bo‘lsa-da, madaniyat va til orqali qo‘rquvning mazmuni

kengayib, aforizmlar kabi qisqa, chuqur ma'noli iboralarda aks etadi. Aforizmlar qo'rquvni faqat hissiyot emas, balki ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy hodisa sifatida ham tasvirlaydi. Aforizmlar shuningdek, qisqa va mazmunli iboralar bo'lib, ularning asosida inson ruhiyati va lingvistik o'zaro ta'sir yotadi. Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan "Fear is the path to the dark side" iborasi qo'rquvning salbiy oqibatlarini ifoda etadi. O'zbek tilida esa "Qo'rqqan o'limdan qutulmas" aforizmi qo'rquv va insoniy irodaning bog'liqligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, aforizmlar ko'pincha insonning xatti-harakatiga yo'naltiruvchi va axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi "No guts, no glory" aforizmi tavakkal qilishni rag'batlantirsa, o'zbek tilidagi "Qo'rqoqning qo'li ko'ksida" iborasi qo'rquvni irodaning zaifligi sifatida tasvirlaydi. Har ikki madaniyatda qo'rquvni nazorat qilish va uni yengish inson ruhiy salomatligi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq masalalarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot uchun tanlangan adabiyotlar qo'rquv mazmunli aforizmlarning psixolingvistik, madaniy va lingvistik xususiyatlarini yoritishda boy manba hisoblanadi. Milliy va xalq hikmatlariga oid manbalar, jumladan, Azamatovning "Hikmatlar xazinasi" [1] va "O'zbek xalq ertaklari" [3], o'zbek madaniyati va xalq og'zaki ijodiyoti asosida aforizmlarning shakllanishi va ularning axloqiy-ma'rifiy ahamiyatini ochib beradi. Lingvistik manbalar, xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" [2], aforizmlarning semantik va uslubiy xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu lug'at o'zbek aforizmlarining ma'no qatlamlarini tadqiq qilishda asosiy ilmiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Aforizmlar - muallif tomonidan yozilgan, xalq ijodida o'z mohiyatiga ko'ra, hamisha yangilanib, yasharib, takomillashib, uzluksiz rivojlanib boradigan jarayon hisoblanadi. Aforizmlarning eng muhim xususiyatlaridan biri tarbiya vositasi ekanligi bilan belgilanadi.

Ingliz tilidagi aforizmlar, odatda, individualistik jamiyatning xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday iboralar insonning shaxsiy tajribasiga va individual qarorlariga e'tibor qaratadi. Masalan, "Courage is resistance to fear, mastery of fear, not absence of fear" (Mark Tven) [6] aforizmi qo'rquvni yengish shaxsiy kuch va iroda orqali amalga oshishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu iboralarning semantikasi shaxsiy jasorat va o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasini ilgari suradi.

O'zbek tilidagi aforizmlar esa kollektiv madaniyatga asoslangan bo'lib, qo'rquv va uning oqibatlari ko'pincha jamiyat va oila doirasidagi munosabatlar orqali talqin etiladi. "Qo'rqqan do'st bo'lmas" kabi maqollar ijtimoiy mas'uliyat va ishonchning ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, "Qo'rqqan kishining yo'li tor bo'ladi" iborasi qo'rquvning ijtimoiy muhitda harakat qilish imkoniyatlarini cheklovchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Qo'rquvni ifodalovchi ingliz va o'zbek aforizmlarining yana bir muhim farqi shundaki, ingliz tilida bu iboralar asosan ilhomlantiruvchi va motivatsion tusga ega bo'lib, insonni mashaqqatlarga qarshi turishga undaydi. O'zbek tilida esa ular ko'proq ogohlantiruvchi xarakterda bo'lib, ehtiyotkorlik va vazminlikni targ'ib qiladi [5: 207-p]. Bu farqlar ikki tilli madaniyatda psixologik va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Inglizcha aforizmlar qo'rquvni ichki dushman sifatida ko'rsatib, unga qarshi kurashishni tavsiya etsa, o'zbek aforizmlari qo'rquvning tashqi omillar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Masalan, "Fear has a large shadow, but he himself is small" (Qo'rquvning soyasi katta, lekin o'zi kichik) iborasi qo'rquvni xayoliy dushman sifatida ko'rsatadi. O'zbek tilidagi "Qo'rqib yashagan o'lib yashaydi" maqoli esa qo'rquvning ijtimoiy va psixologik oqibatlariga e'tibor qaratadi. Bu aforizmlar psixolingvistik tahlil orqali nafaqat madaniy farqlarni ochib beradi, balki til vositasida shakllangan qo'rquvning inson hayotidagi psixologik ta'sirini ham chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Shu orqali biz madaniyatlararo muloqotda tilning psixologik va semantik xususiyatlarini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ingliz va o'zbek tillarida qo'rquv mazmunli aforizmlar madaniy xususiyatlarni aniqlashda asosiy o'rin tutadi. Ingliz tilidagi "Better safe than sorry" iborasi ehtiyotkorlik va oqibatlarni oldindan ko'ra bilishga chaqirsa, o'zbek tilidagi "Qo'rqqan qo'zining qulog'i qimirlar" (D.D) aforizmi xavfni seza olish va ehtiyotkorlikni tasvirlaydi. Bunda madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar ko'rinadi: inglizcha aforizmlar individual mas'uliyatni targ'ib qilsa, o'zbekcha aforizmlar ko'proq ijtimoiy tajribaga tayanadi.

Shuningdek, inglizcha "Face your fears and conquer them" iborasi qo'rquvga qarshi kurashni individualistik madaniyatga xos yondashuv sifatida ifodalaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, o'zbekcha "Qo'rqma, dushmanning qalbi zaif" iborasi qo'rquvni yengish uchun ijtimoiy birdamlik

va hamjihatlikni ta‘kidlaydi. Bu madaniy kontekstlar til vositasida qo‘rquvning inson hayotidagi ahamiyatini ochib beradi.

Qo‘rquv mazmunli aforizmlar jamiyatda qadriyatlar va axloqiy me‘yorlarni shakllantirish vositasi sifatida ham ishlaydi. Masalan, inglizcha aforizmlar ko‘pincha amaliy maslahatlar berib, o‘z-o‘zini anglash va rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘zbek tilidagi aforizmlar esa ogohlantiruvchi xarakterga ega bo‘lib, ko‘pincha avloddan-avlodga o‘tgan tajribani ifodalaydi. Masalan, “Qo‘rqqan chivin bo‘ri bo‘ladi” aforizmi xayoliy qo‘rquvning haddan tashqari kuchayishi oqibatida noto‘g‘ri xulosa chiqarishni tasvirlaydi.

Ingliz tili aforizmlarida qo‘rquvning ko‘pincha individualistik yondashuv bilan ifodalanishini kuzatish mumkin:

“Fear is the mind-killer” (Qo‘rquv tafakkurning qotilidir). Yoki, “Do not fear mistakes. You will know failure. Continue to reach out” (Xatolardan qo‘rqmang. Muvaffaqiyatsizlikni his qilasiz. Harakat qilishda davom eting (D.D). Bu aforizmlar qo‘rquvni muvaffaqiyatga to‘siq sifatida ko‘rsatib, uni yengish zarurligini uqtiradi. Qo‘rquvni yengish orqali shaxsiy rivojlanish va mustaqil qaror qabul qilishga undash kabi tamoyillar ustuvor bo‘ladi. O‘zbek tili aforizmlarida esa qo‘rquv ko‘pincha jamiyatdagi axloqiy me’yorlar, sabr va taqdir tushunchalari bilan bog‘liq. Masalan, “Qo‘rqqanga qo‘sh tuyaday ko‘rinadi” [7: 69-b]. Ushbu aforizm qo‘rquvning irratsional tabiatini ochib beradi va uni yengish uchun ichki ruhiy barqarorlikka urg‘u beradi. Shuningdek, qo‘rquvning axloqiy jihatlari ham til orqali ifodalanadi, masalan, qo‘rqmaslik insonning botirligi va irodasining belgisi sifatida baholanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi aforizmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilning madaniy asoslari psixolingvistik xususiyatlarga ta’sir qiladi.

Ingliz tilida individualizm va shaxsiy muvaffaqiyatga intilish asosiy mavzu bo‘lsa, o‘zbek tilida jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy birdamlik aforizmlar mazmunida ustunlik qiladi.

Qo‘rquvning metaforik ifodasi haqida ham tushuncha bersak. Har ikki tilda qo‘rquv ko‘pincha metaforalar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida: “Fear is a shadow that follows you” (Qo‘rquv sizni kuzatib yuradigan soyadir). O‘zbek tilida: “Qo‘rquv - dilni zanjirlaydigan dushman”. Bu metaforalar qo‘rquvni ko‘zga ko‘rinmas, lekin kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi narsa sifatida tasvirlaydi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu metaforalar inson xotirasida tezroq saqlanib, mazkur hissiyot bilan bog‘liq hodisalarni yanada yorqinroq ifodalaydi.

Xulosa. Qo‘rquv mazmunli aforizmlar ingliz va o‘zbek tillarida faqat hissiyot ifodasi bo‘lib qolmasdan, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy xususiyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Psixolingvistik jihatdan, bu aforizmlar odamlarning qo‘rquvga munosabatini, uni qanday yengishga harakat qilishlarini tushunishga yordam beradi. Kelgusida ushbu mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, qo‘rquv mazmunli boshqa tildagi aforizmlar bilan qiyosiy tahlil qilish uchun yangi yo‘nalishlar ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamatov, M. Hikmatlar xazinasi. –Toshkent. 1977.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik. 2-tom. –Moskva: Russkiy yazik nashriyoti, 1981.
3. O‘zbek xalq ertaklari. Sehrli so‘z. –Toshkent: Navro‘z. 2017.
4. Akramov, I. I. “The aphorism and the aphoristic style of communication”. Центр научных публикаций. 2022. 137-st.
5. Jumaniyozova, M. M. Literary Aphorisms As An Element Of Linguistic Art (On The Example Of Erkin Azam’s Work). European Journal of Molecular & Clinical Medicine, Volume 7, Issue 06, ISSN 2515-8260. 2020. 207-p.
6. Mark Twain. Courage is resistance to fear, mastery of fear, not absence of fear.
7. O‘zbek xalq maqollari. –Tashkent: Sharq NMAK. 2009. 69-b.

Azizaxon SAIDQOSIMOVA,
Ingliz filologiyasi fakulteti
Ingliz tili amaliy aspektlari
kafedrasi o'qituvchisi

IQTISODIY TERMINLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqola iqtisodiy terminlarni o'qitish jarayonidagi dolzarb muammolarni tahlil qiladi. Maqolada terminologik tizimning murakkabligi, tarjima muammolari, zamonaviy iqtisodiy atamalarning tez o'zgaruvchanligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy terminlarni o'qitishning samarali usullari va yechimlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy terminologiya, terminlarni o'qitish, lingvodidaktika, iqtisodiy ta'lim, terminologik tizim.*

Аннотация: в данной статье анализируются актуальные проблемы в процессе преподавания экономических терминов. В статье рассматриваются такие вопросы, как сложность терминологической системы, проблемы перевода, быстрая изменчивость современных экономических терминов. В результате исследования предлагаются эффективные методы и решения для преподавания экономических терминов.

Ключевые слова: *экономическая терминология, терминологическое обучение, лингводидактика, экономическое образование, терминологическая система.*

Annotation: this article analyzes current problems in the process of teaching economic terms. The article addresses issues such as the complexity of the terminological system, translation problems, the rapid variability of modern economic terms. As a result of the study, effective methods and solutions for teaching economic terms are proposed.

Key words: *economic terminology, term training, linguodidactics, Economic Education, terminological system.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida iqtisodiy bilimlar va ularning terminologik apparati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy terminlarni o'qitish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat lingvistik, balki iqtisodiy bilimlarni ham talab qiladi [1]. Bugungi kunda iqtisodiy terminlarni o'qitish metodologiyasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy terminlarni o'qitish bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu masala ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan.Rahimov [2] o'zining fundamental tadqiqotida iqtisodiy terminlarning semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan va ularni o'qitishning samarali metodikasini ishlab chiqqan. Olim terminlarni o'qitishda semantik-struktual yondashuvning ahamiyatini ta'kidlagan va terminlarni tizimli o'rganish metodologiyasini taklif etgan.

Smith [3] zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiy terminlarni o'qitish masalalariga e'tibor qaratgan.Uning tadqiqotlarida multimedia vositalari va interaktiv metodlarning samaradorligi isbotlangan.Petrov [4] esa iqtisodiy terminlarni o'qitishda lingvodidaktik yondashuvning ustuvorligini asoslab bergan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, terminlarni o'qitish metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Terminlarning etimologik tahlili muhim ahamiyatga ega bo'lib, u terminning kelib chiqishi, shakllanish tarixi va evolyutsiyasini o'rganishni o'z ichiga oladi.Bu yondashuv terminning ma'nosini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kontekstual o'rganish metodologiyasi terminlarni real iqtisodiy muhitda, aniq misollar va vaziyatlarda o'rganishni nazarda tutadi.Bu metod nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi.

Semantik maydon nazariyasi terminlarni ma'noviy guruhlar va tizimlar doirasida o'rganishni taklif etadi. Bu yondashuv terminlarning o'zaro aloqadorligini va tizimli xarakterini tushunishga ko'maklashadi.

Qiyosiy-tipologik yondashuv turli tillardagi iqtisodiy terminlarni qiyosiy o'rganish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Iqtisodiy terminlarni o'qitish jarayonida bir qator muhim muammolar va ularning yechimlari aniqlandi. Quyida ularning har biri batafsil tahlil qilinadi.

Birinchidan, terminologik tizimning murakkabligi masalasi mavjud. Zamonaviy iqtisodiy terminologiya tizimi ko'p qatlamli va murakkab xarakterga ega bo'lib [4], bu o'qitish jarayonida sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, terminlarning polisemantik xususiyatlari o'qituvchilar va talabalar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Masalan, "capital" termini turli kontekstlarda turlicha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, sinonimiya va

omonimiya hodisalari ham talabalarda chalkashlik uyg‘otadi. Ayrim terminlar bir vaqtning o‘zida makro iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi kabi bir necha sohalarga tegishli bo‘lishi ham o‘zlashtirishni murakkablashtiradi.

Ikkinchidan, tarjima bilan bog‘liq muammolar mavjud.Xorijiy tillardan o‘zlashgan iqtisodiy terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish va ularni o‘qitish jarayonida bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda [5].Ekvivalentlik masalasi, ya’ni chet tilidagi terminning o‘zbek tilidagi muqobilini topish doimo ham oson kechmaydi. Ba’zi hollarda termin ma’nosini to‘liq aks ettiruvchi so‘z yoki ibora topilmaydi. Kontekstual moslik muammosi ham mavjud bo‘lib, bir termin turli kontekstlarda turlicha tarjima qilinishi kerak bo‘ladi. Milliy-madaniy xususiyatlar ham tarjima jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, zamonaviy iqtisodiy atamalarning tez o‘zgaruvchanligi muammosi mavjud. Globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida yangi terminlar paydo bo‘lishi va mavjud terminlarning ma’nosi o‘zgarishi kuzatilmoqda [6].Bu holat o‘quv materiallarining tez eskirishiga olib keladi. Natijada darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar zamonaviy iqtisodiy reallikni to‘liq aks ettira olmay qolmoqda.

To‘rtinchidan, metodologik muammolar mavjud.O‘qitish metodikasida bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda [7].An’anaviy metodlar zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi.Ko‘p hollarda terminlar kontekstdan ajratilgan holda, mexanik tarzda yodlatiladi.Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmaydi. Amaliy mashg‘ulotlarning kamligi nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

Integrativ yondashuvni joriy etish zarur. Iqtisodiy terminlarni o‘qitishda lingvistik va iqtisodiy bilimlarni integratsiyalash maqsadga muvofiq [8]. Bu yondashuv terminlarning nafaqat lingvistik xususiyatlarini, balki ularning iqtisodiy mohiyatini ham chuqur tushunishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish lozim. Elektron lug‘atlar, onlayn platformalar va multimedia vositalarini qo‘llash o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [9]. Interaktiv mashqlar va simulyatsiyalar terminlarni kontekstda o‘rganish imkonini beradi.

Ta’limning amaliy yo‘naltirilganligini kuchaytirish kerak.Terminlarni real iqtisodiy vaziyatlarda, amaliy misollar orqali o‘rgatish zarur [10].Case-study metodidan foydalanish, real biznes hujjatlari va iqtisodiy tahlillar bilan ishlash terminlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bu yechimlarni kompleks tarzda qo‘llash iqtisodiy terminlarni o‘qitish samaradorligini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Xulosa. Iqtisodiy terminlarni o‘qitish jarayonidagi muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va xalqaro tajribani inobatga olgan holda o‘qitish tizimini takomillashtirish zarur. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov D. “Iqtisodiy terminologiya asoslari” –Toshkent:Fan, 2021.
2. Smith, J. (2023) "Economic Terminology Teaching", London: Routledge
3. Петров, А.В. (2022) "Методика преподавания экономической терминологии", – Москва: Наука
4. Wilson, R. (2022) "Modern Approaches in Economic Education", Oxford: OUP
5. Karimov, S. “Iqtisodiy ta’limda innovatsion yondashuvlar” –Toshkent: Ta’lim, 2021.
6. Brown, M. (2023) "Digital Tools in Economic Education", Cambridge: CUP
7. Алексеева, Л.М. (2023) "Терминология в экономическом образовании", СПб.: Просвещение
8. O‘zbekova, N. “Zamonaviy iqtisodiy ta’lim metodikasi” –Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
9. Johnson, P. (2023) "Technology in Economic Education", NY: Springer
10. Abdullayev, K. “Iqtisodiy bilimlar metodologiyasi”–Toshkent: Iqtisod, 2022.

Gavhar QURBONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK VA AYRIM TURKIY TILLARDA YULDUZLARNING NOMLANISHIGA DOIR

Annotatsiya: ushbu maqolada olam obyektlarini bildiruvchi leksemalar, ya’ni osmon jismlari nomlari muhokama qilinadi. Osmon jismlarining nomlari o‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: osmon jismlarining nomlari, astronomlar, kosmonimlar, o‘zbek tili, turkiy tillar.

Аннотация: в данной статье рассматриваются лексемы, обозначающие объекты мира, то есть названия небесных тел. Сравниваются названия небесных тель на узбекском и других тюркских языках.

Ключевые слова: названия небесных тел, астрономы, космономия, узбекский язык, тюркские языки.

Annotation: this article discusses lexemes denoting world objects, that is, the names of celestial bodies. The names of celestial bodies in Uzbek and other Turkic languages are compared.

Key words: names of celestial bodies, astronomers, cosmonomies, Uzbek language, Turkic languages.

Astronomiya eng qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. U osmon jismlarining, jumladan, yulduzlar, kometalar, asteroidlar, sayyoralar va boshqalarning nomlarini o‘rganadi. E’tibor bersak, Koinot jismlarining nomlarini yerdagilar qo‘yishadi va ular, albatta, yerdagi hayotni aks ettiradi. Insoniyat qadim zamonlardan beri osmon jismlarini hayrat bilan kuzatib kelgan va kelmoqda. Dengizchilar va karvonlar o‘z yo‘llarini topish, taxminiy vaqtni aniqlash uchun ulardan foydalanganlar. Xalqimizda *“Oyga qarab adashsang, otingni **Oltin qoziqqa** bog‘la”* degan ibora ham aynan karvon yo‘llarida yuruvchilarga nisbatan aytilgan.

Osmon jismlari fasl ko‘rsatkichi, ob-havo darakchisi bo‘lib ham xizmat qilgan:

***Sumbula** tug‘sa, suv sovir,*
***Tarozi** tug‘sa, tong sovir.*
Yoki:
***Oy** o‘tovlasa, oylik g‘amingni ye,*
***Kun** o‘tovlasa, kunlik g‘amingni ye.*

Yulduzlar o‘zining sirliligi bilan doimo odamlarning e’tiborini tortgan, Quyosh va Oy haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar ham yaratilgan:

Turli xalqlar olam obyektlarining xususiyatlarini turlicha ko‘rib, ularni o‘z g‘oyalariga ko‘ra nomlashgan. Masalan, o‘zbek tilida *Yetti qaroqchi* deb nomlanuvchi yulduz turkumini ruslar – Ot yulduzi, rimliklar – arava, ukrainlar – arava, Quyi Volga bo‘yi xalqlari – arava, qirg‘izlar – Jetyarkar (yetti yovvoyi qo‘y), tuvaliklar – Chedixan (yetti xon) va hokazo sifatida nomlaganlar [1:1142].

Somon yo‘li. Quyoshni va Quyosh sistemasidagi boshqa planetalarni o‘z ichiga olgan, o‘zaro umumiy tortishish kuchi bilan bog‘langan ulkan gravitatsion sistema – Somon yo‘lining nomlanish xususiyatlari Markaziy Osiyo xalqlarida bir-biriga juda yaqin. Masalan, o‘zbek tilida *Somon yo‘li, Samanchi jol,* tojik tilida *Rohi kahkashon* (somon olib boruvchi yo‘l), qozoq tilida *Saban joli* (Somon yo‘li) kabi mushtarak nomlarga ega mazkur obyekt nomi turli tillarda har xil fonetik shakllarda mavjud ekanligi [2:17] manbalardan ma’lum.

Somon yo‘li yulduz turkumining nomi ayrim turkiy tillarda qush bilan bog‘liq: boshqirdlar orasida — *Qo‘sh yo‘li* (Qush yo‘li), qozoqlarda – *Torna yule* (Turna yo‘li), qirg‘izlarda – *Qyr kazzary yule* (Yovvoyi qushlar yo‘li), tatarlarda – *Kiek kaz yule* (Yovvoyi qushlar yo‘li) va boshqalar [1:1142].

O‘zbek tili lug‘atlarida samoviy jismlarning nomlari yaxshi izohlab berilgan, ammo o‘zbek tilida bu yo‘nalishda monografik tadqiqotlar juda kam qilingan. O‘zbek tilida A.Primov olib borgan tadqiqot mukammal tadqiqot sifatida qaraladi.

G‘.Jalolov muallifligidagi o‘zberkcha-ruscha-inglizcha-arabcha astronomik atamalarning lug‘ati ilmiy lug‘at sifatida fanda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi [3].

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, nomlarning ko‘pchiligi xalqaro bo‘lib, o‘zbek tilida muqobil shaklida qo‘llaniladi. Tahlil qilingan leksemalarning ayrimlari o‘zbek tilida hozirgacha o‘z nomiga ega. Aytaylik, *Vega* yulduzi o‘zbekcha **Zuhra** yulduzi uchun *Venera, Cho‘lpon, Tong yulduzi* kabi variantlar mavjud. Qozoqlar Sholpan, qirg‘izlar *Cho‘lpan* deyishadi. Bu yulduzning umumiy etimologiyasi *(Vega, Zuhra, Cho‘lpon)* “yo‘l ko‘rsatuvchi yorqin yulduz” tushunchasini beradi.

Surayyo yulduzi haqida ham turli qarashlar mavjud: “Surayyo to‘planib turgan oltita yulduz bo‘lib, uzum shingiliga juda o‘xshaydi. Arablar buni “hamal dumbasi” deganlar, (aslida) unday emas. Chunki bu yulduzlar Savr (burjining) o‘rkachi ustida turadi... Surayyo so‘zi “Sarva”ning kichraytirilgani bo‘lib,

aslida “Sarva”dan olingan. “Sarva” – “yig‘ilmoq” va “son ko‘pligi” ma’nolaridadir. Ba’zilarning fikricha, bu (yulduzlarning) shunday nom bilan atalishiga (sabab) ularning botishida yomg‘ir yog‘ib, “Sarva”, ya’ni boylik hosil bo‘lgan. (Bu yulduzlar) “najm” deb ham ataladi” [4:31].

Ba’zi yulduzlar harakati, joylashuvi va ayrim yulduzlar, masalan, Hulkarning o‘z harakat yo‘nalishi davomida oy bilan kesishuv o‘rinlarini bilish asosida taqvimiy tushunchalar ham kelib chiqqan. Masalan, To‘qush hisobi ham aynan To‘g‘al yulduzi bilan bog‘liq.

Qadimgi astral mifologiyada yulduzlar turli xil jonivorlar va afsonaviy personajlar sifatida tasavvur qilinganligini va shunga ko‘ra nomlanganligini hududlardan topilgan arxeologik topilmalardagi astral timsollar ham tasdiqlashini olimlarimiz aytib o‘tishgan [5:21].

Qadimda yulduzlar ibodatxonalar, uy devorlarini bezash uchun ham ishlatilgan. Folklor namunalari, lirik qo‘shiqlar, urf-odat va marosimlarda ham yulduz bilan bog‘liq qarashlarni uchratamiz: *Sumbula, Sust xotin* kabi qo‘shiqlar, *Mehrjon* bayrami, *Yulduz o‘nglar* marosimi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida umumiy turkiy meros obidalari, hozirgi turkiy tillar lug‘at taraqqiyotini kuzatishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda osmon jismlari bilan bog‘liq bir qancha nomlar ham berilgan.

“Devon”da hozirgi o‘zbek tilining astronimlari bilan taqqoslagan holda ayrim nomlarni solishtirish mumkin: *yulduz – йондоз* (yulduz, yulduz turkumi).

M.Koshg‘ariyning xabar berishicha, *yulduz* so‘zi dastlab yulduzlarning umumiy nomini bildirgan, keyin esa yulduzlar bo‘lina boshlangan [6.40].

Bu leksik birlik boshqa turkiy tillarda ham qo‘llaniladi: tatar tilida *yoldız*, gagauz va turkman tilida *yıldız*, qozoqlarda *жулдыз*, uyg‘ur tilida *yolduz*; sariq uyg‘urlarda *yıltıs;* xakas tiloda *çıltıs* va boshqalar [7:384].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, samoviy jismlarning nomlari har qanday xalqning dunyoqarashida muhim o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra butun dunyo tilshunoslari koinot obyektlarini maqsadli tahlil qilish bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib bormoqdalar. Tan olishimiz kerakki, faqat oddiy odamlar azaldan ularni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qiladi, tahlil qilishga, tanish narsaga, mavjudotlarga o‘xshatishga harakat qiladi. Bu hodisa o‘zbek tilshunosligiga ham xosdir. Tilshunos olimlar oldida yuqoridagi lug‘atning semantik, strukturaviy so‘z yasalishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha mashaqqatli ish turibdi (A.Primov olib borgan tadqiqot mukammal bo‘lishiga qaramay, qilinishi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlar talaygina). Osmon jismlarining nomlarini o‘rganishda, bizningcha, tarixiy manbalar, folklor namunalari, dialektologik ekspeditsiya materiallariga murojaat qilish o‘zini oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуллина Г.Р., Гайнуллина Г.Д. Наименования небесных тел (на материале башкирского языка) // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – Т. 20. – С. 1141–1145. – URL: http://e-koncept.ru/2014/54492.htm.

2.Примов А.И. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. ав. – Тошкент, 2009. – 24 б.

3.Jalolov G‘. O‘zbekcha-ruscha-arabcha-inglizcha astronomik atamalar lug‘ati. – Toshkent, 2000. 92-b.

4.Абу Райҳон Беруний. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973.

5.Жўраев М. Астраль мифлар ва уларнинг Ипак йўли халқлари моддий маданиятидаги талқини // SHARQSHUNOSLIK / ВОСТОКОВЕДЕНИЕ / ORIENTAL STUDIES 2018, № 1.

6.Divanü Lügat-it-Türk Tercümesi / Çeviren Besim Atalay. Ankara, 1992. III. cilt.

7.Хазиева А.А. Названия космических объектов в словаре м. кашгари «Дивану люгат ит-тюрк» // Источник Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2018. № 2(80). Ч. 2. С. 383-387. ISSN 1997-2911. www.gramota.net/editions/2.html

Dildora SALIMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek til va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
furqatovnadildor@gmail.com

BOLAGA QARATILGAN NUTQNING SO‘Z O‘ZLASHTIRILISHIDAGI AHAMIYATI
(Chet tili misolidagi tadqiqotlar asosida)

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarda til o‘zlashtirilishidagi jarayonlar, bolaga qaratilgan nutqning ona tilida til o‘zlashtirilishidagi ahamiyati tadqiqotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *til, lug‘at, nutqiy rivojlanish, til o‘zlashtirish, bolaga qaratilgan nutq.*

Annotation: this article discusses the processes of language acquisition in children and the importance of speech directed at the child in acquiring the mother tongue, based on research findings.

Keywords: *language acquisition, psycholinguistics, stages of speech, child speech, order of lexemes.*

Аннотация: в этой статье рассматриваются процессы овладения языком у детей и важность речи, направленной на ребенка, в овладении родным языком на основе результатов исследований.

Ключевые слова: *усвоение языка, психолингвистика, этапы речи, речь ребенка, порядок лексем.*

Kirish. Til ijtimoiy-kommunikativ funksiyalar bilan shakllangan belgilar sistemasidan iborat. Bolalar ushbu belgilar sistemasini ham leksik, ham sintaktik tarzda egallaydilar. O‘zlashtirish jarayonida bolalar voqea-hodisa, shaxslarga taqlid qilish ko‘nikmalariga tayanadilar. Ushbu ko‘nikmalar kattalar bilan birgalikda muloqotga kirishish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ularning kattalar tildan foydalanish usullarini tushunish qobiliyatiga asoslanadi. “Nutq tovushi retseptorlarga ta’sir etar ekan, inson o‘z lisoniy tajribasiga asoslangan holda ularni tushunishga harakat qiladi. Inson notanish tilga oid nutqni eshitganda ham undagi tanishday ko‘ringan so‘zlarga, fonemalarga, juda bo‘lmaganda, ohangga tayanib, uning mazmuni haqida xulosa chiqarishga urinadi. Tovushlarning mexanik qabuli doimo uning mazmuni haqida xulosa chiqarish (tushunish) bilan parallel kechadi” [1:83]. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N. Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni “rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiyasi asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir. Zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”[2:98].

So‘nggi yillardagi psixolingvistik tadqiqotlarda, til o‘zlashtirish jarayonida go‘daklik davrining o‘rni haqidagi qarashlar o‘zgara boshladi, bolalarning so‘z boyligini rivojlantirishga yangicha e’tibor qaratila boshlandi. Chaqaloqlar tug‘ilganlaridan boshlab atrof-muhitdan ko‘plab nutq tovushlarini eshita boshlaydilar, biroq so‘zlarning hech birini tushunmaydilar. Go‘daklar yoshiga yetgunga qadar ularning nutq tovushlarini ajratib olish qobiliyati so‘zlarning eshitish shakllarini o‘rganishga yordam beradi. Bu so‘z shakllari keyinchalik dastlabki lug‘atning asosiga aylanadi hamda bolalarning til fonologik tizimini o‘rganishga yordam beradi. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalarning nutqi noaniq bo‘lib, asta-sekinlik bilan lug‘at boyligi ham oshib boradi. Bu yoshdagi kichkintoylar nutqi orasida turlicha tafovutni ko‘rishimiz mumkin. Ayrim bolalar so‘zning talaffuzida, fikrlarni ifodalashda va so‘z o‘zlashtirishda tengdoshlariga qaraganda ancha faol lug‘at boyligiga ega bo‘lishadi. Psixolog olim G‘oziyev fiziologik va psixologik mexanizmlarga to‘xtalib shunday deydi: “nutqning muayyan asoslariga suyangan holda noan’anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi” [3:309]. Chaqaloqlar dastlab ota-onalari nutqida ishlatiladigan tovushlarni idrok eta boshlaydilar. Agar ular eshitgan tovushlar ota-onalari yoki go‘dakning atrofidagi insonlar tomonidan nutqda foydalanilmasa, nutq tovushlari farqlanilmay qoladi.

“6 oylik ingliz tilini o‘rganuvchilar ingliz tilida uchramaydigan o‘xshash tovushli hind tovushlarini farqlashlari mumkin, ammo bu qobiliyatlari o‘n ikki oyliklariga borib yo‘qoladi. Shunday qilib, kichkintoyning lug‘atidagi har bir so‘z ko‘pincha chaqaloqlik davridagi eshitib o‘rganish bilan boshlanadigan rivojlanish tarixiga ega. Chaqaloqlar tomonidan o‘rganilgan so‘z shakllari mazmunli semantik va grammatik ma’lumotlarning bosqichma-bosqich qo‘shilishi orqali ishlab chiqiladi va shu bilan ularning so‘z boyligidan o‘rin oladi” [4:308-312]. Psixolingvist tadqiqotchilar go‘daklar 1 yoshga to‘lmasdan avval so‘zlarni ularning referentlari bilan bog‘lay olsalar-da, ular faqat 2 yoshning 2-yiliga boribgina nutqdan fonologik va semantik jihatdan bog‘liq ma’lumotlarni ajrata boshlashini qayd etadilar [5:105]. Tadqiqot davomida 2 ta tajriba o‘tkaziladi. Unga ko‘ra, kichkintoylarga so‘z eshittiriladi. Shu so‘zga fonologik va semantik jihatdan bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan rasmlar ko‘rsatiladi. 2 yoshdan 2,5 yoshgacha bo‘lgan bolalar ma’no jihatdan o‘xshash so‘zdan

ko‘ra talaffuz mosligiga e’tibor qaratishlari aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, til go‘daklarning kognitiv qobiliyatini shakllantiradi, ularning diqqat e’tiborini vizual olamdagi tegishli ma’lumotlarga yo‘naltiradi, bu esa o‘rganish va analogik xulosalar chiqarish kabi aqliy faoliyatning samaradorligini oshiradi. Go‘daklar bir yoshga to‘lmasdan avval so‘zlarni o‘z referantlari bilan bog‘lay oladilar. Go‘daklar 2 yoshga to‘lganda nutqdan fonologik va semantik ma’lumotlarni ajrata oladilar. Ikkinchi tadqiqot 2 yoshdan 2,5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda og‘zaki so‘zlarni tanib olishda ishtirok etadigan aqliy jarayonlarning dalillarini taqdim etadi. Ushbu tadqiqot til o‘zlashtirishning muhim davri bo‘lgan go‘daklik davrida og‘zaki so‘zlarni tanib olish, vizual e’tiborni qanday yo‘naltirish haqida tushuncha beradi. Misol uchun bolalarga it so‘zining birinchi tovushi [d]ni eshitganda bola ongida d tovushi bilan boshlanuvchi [dog], [digger], [dress] kabi nomzod so‘zlar faollashadi. Og‘zaki unli qayta ishlangandan so‘ng [digger] va [dress] so‘zlari bekor qilinishi mumkin. Tadqiqotda kichkintoylarga bir juft rasm ko‘rsatiladi, masalan, it va qayiq. Bolalarga suratlardagi narsalarning nomi eshittiriladi. Masalan, Itga qarang! [Look at the dog!] Agar ular ikkala rasmning nomini bilsalar chaqaloqlar nomlangan rasmga uzoqroq tikilishadi. Bu esa ularning so’zni tushunganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot 14-24 oylik go‘daklarning tanish so‘zlarning fonetik jihatdan aniq belgilangan tasavvurlariga ega ekanligini va noto‘g‘ri talaffuzga sezgirligini tasdiqlaydi.

Oxirgi o‘n yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar – G‘arbda, bolalarga qaratilgan nutqlarda ota-onalar til rivojlanishining asosiy omili sifatida bolalarga yo‘naltirilgan nutqni ta’kidlaydi [6:713–753]. Tseltal chaqaloqlari hayotning birinchi yili yoki ikkinchi yili davomida ham ularga g‘amxo‘rlik qiluvchilar tomonidan juda kamdan kam hollarda bevosita murojaat qilishadi, chunki ular deyarli har doim onalarining orqasida ko‘tarilib yuriladi. Faqatgina keyingi yosh davrida ular yura boshlagandan so‘nggina kengroq ga‘mxo‘rlik bilan muloqotda bo‘lgach, Tseltal kichkintoylari ko‘pincha nutqning bevosita qabul qiluvchilariga aylanadilar. Tadqiqotchi Meksikaning janubidagi Tseltal tilida so‘zlashuvchi mahalliy aholi vakillari bilan kamdan kam gaplashadigan, ammo onalarining orqasida ko‘tarilgani uchun boshqa tilga oid ko‘plab tillarni eshitish imkoniyatiga ega bo‘lgan chaqaloqlarning til o‘zlashtirish jarayonini o‘rganadi. Tajriba Tseltal kichkintoylari G‘arb bolalariga qaraganda erta yoshda o‘xshash ma’noga ega va idrok etish jihatidan o‘xshash so‘zlarni farqlash qobiliyatini namoyish etishlarini qayd etadi. Agar Tseltal chaqaloqlari o‘rganish uchun faqat o‘zlariga yo‘naltirilgan ma’lumotlarga tayansalar, ular bu ma’lumotlarning cheklangan miqdori va o‘ziga xos xususiyati tufayli juda oz leksik bilimlarga ega bo‘lishlari va aksincha, agar Tseltal chaqaloqlari sezilarli leksik bilimlarni namoyish etsalar, bu bilimlar hech bo‘lmaganda qisman boshqalarga yo‘naltirilgan tilni "eshitib qolish" orqali olingan bo‘lishi mumkin. Bu chaqaloqlar hamisha onalarining orqa tomonida ko‘tarilib yurilgani uchun bolalar onalarining ijtimoiy munosabatlariga deyarli to‘liq guvoh bo‘ladilar. Bu esa ularga yuqori sifatli audioni qabul qilish va hech bo‘lmaganda onalarining diqqat markazida bo‘lishlariga imkoniyat yaratadi. Inson rivojlanishining e’tiborga moyillik jihatlaridan biri shundaki, turli muhit va madaniy hayot tarzi orqali bolalar o‘z ona tillarini tez egallaydilar. Bu esa kattalar orasidagi muloqotda ko‘p ishtirok etadigan bolalarda til o‘zlashtirish hodisasi birmuncha jadalroq sur’atda tez o‘zlashtirilishini dalillaydi. Bolalarga yo‘naltirilgan til kam bo‘lgan sharoitda o‘rganuvchilarning leksik bilimlarini baholashga qaratilgan oldingi tadqiqotlar, odatda, ota-onalarning so‘z boyligini baholashi yoki bolalarning ifodali va idrok etish lug‘atlarining og‘zaki testlariga tayanib kelgan. Biroq, bu aniq vazifalar – bolaning lingvistik bilimlari haqidagi ma’lumotlar tarbiyachi yoki bolaning aniq og‘zaki va yoki xulq-atvor javoblariga asoslanadigan kattalar va bolalar o‘rtasidagi yakkama-yakka og‘zaki muloqotlar kam uchraydigan vaziyatlarda kutilgan natija olinmasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, boladan berilgan so‘z uchun to‘g‘ri rasmni ko‘rsatishni so‘rash orqali so‘z boyligini tushunishni o‘lchash to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotga kam jalb qilinadigan bolalar uchun noqulay bo‘lishi mumkin. Shuni inobatga olib, tajribada til bilimini o‘lchashning implitsit, nigohga asoslangan usulidan foydalaniladi. Xususan, chaqaloqlarning juft vizual stimullar o‘rtasidagi nigohini o‘lchash orqali erta so‘z bilimlarini aniqlashga mo‘ljallangan "tilga yo‘naltirilgan ko‘rish" vazifasi moslashtirildi va kengaytirildi. Har bir sinovda bolalarga ikkita alohida tasvir ko‘rsatildi, ulardan biri vasiylari tomonidan nomlandi. Vasiylar tegishli so‘zni quloqchinlar orqali eshitib, uni ovoz chiqarib takrorladilar. Muhimi, topshiriqning formati chaqaloqlarni notanish yuzma-yuz muloqotdan "himoya qildi" va uni tseltal chaqaloqlarining kattalar bilan muloqot qilishga o‘rgangan bilvosita usullariga ko‘proq moslashtirdi. Ushbu usuldan foydalangan holda o‘tkazilgan oldingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, AQSh chaqaloqlari ingliz tilidagi keng tarqalgan otlarni bilishadi. Shuning uchun, 1-tajriba tseltal chaqaloqlarida keng tarqalgan tseltal otlari (asosan, oziq-ovqat, narsalar va hayvonlar nomlari) bo‘yicha shunga o‘xshash bilimlar mavjudligi tekshirildi. Agar mavjud nazariyalar to‘g‘ri bo‘lsa va barcha bolalar yangi so‘zlarni o‘rganish uchun, asosan, bolalarga yo‘naltirilgan tilga (boshqalarga yo‘naltirilgan tildan farqli o‘laroq) tayanadigan bo‘lsa, Tseltal bolalarining so‘z o‘rganishi AQShdagi chaqaloqlarga nisbatan sezilarli darajada kechikishi kerak, deb taxmin qilinadi. Chunki ularga kam gapiriladigan bo‘lib, natijada ular chaqaloqlik davrida o‘xshash lug‘at bilimini ko‘rsata olmasliklari kerak edi. Ushbu taxmin guruhlar o‘rtasida lug‘at bilimidagi farqlarni hujjatlashtirgan va bu

farqlarni bolalarga yo‘naltirilgan til tajribasidagi tafovutlar bilan izohlagan ko‘plab oldingi tadqiqotlarga asoslanadi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, psixolingvistikada bolalarga qaratilgan nutq til o‘zlashtirishning asosiy omili bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний персепсиясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент, 2008. Б 83.

2. Леонтьев А.Н. Проблема деятелности в психологии. // Ж. Вопросы философии. –1972./9. С.95-108.

3. E. G‘oziyev. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 303-bet.

4. Swingley, D.(2008). The roots of early vocabulary in infants’ learning from speech. Current Direction in Psychological Science, 17, 308-312.

5. A. A. Davies, J.Chow, Kim Plunkett. Journal of Memory and Language. Spoken-word recognition in 2-year-olds: The tug of war between phonological and semantic activation.Journal of Memory and Language Volume 93, April 2017, Pages 104-134. https://doi.org/10.1016/j.jml.2016.08.004.

6. Brown P., Children’s first verbs in Tzeltal: Evidence for an early verb category. Linguistics 36, 713–753 (1998).

Laylo XASANOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
hasanovalaylo12@gmail.com

LUTFIY DEVONIDA JONZOTLAR OBRAZI

Annotatsiya: o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Mavlono Lutfiy ijodida istifoda etilgan jonzotlar obrazi ushbu maqolaning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Shoir she’riyatida qo‘llanilgan ushbu obrazlarning anglatgan majoziy mazmuni, ifodaning o‘ziga xosligi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Lutfiy, obrazlar, jonzotlar obrazi, ramziylik, tasavvufiy mazmun, xalq og‘zaki ijodi.*

Аннотация: в статье рассматриваются образы живых существ в творчестве одного из выдающихся представителей узбекской классической литературы — Мавлоно Лутфия. Анализируется их символическое значение, а также уникальные способы выражения этих образов в поэзии автора.

Ключевые слова: *Лутфий, образы, образы живых существ, символизм, мистическое содержание, устное народное творчество.*

Annotation:this article explores the depiction of living creatures in the works of Mawlana Lutfi, one of the prominent figures of Uzbek classical literature. It delves into the symbolic meanings of these images and highlights their unique expressions in the poet's works.

Key words: *Lutfi, imagery, portrayal of living creatures, symbolism, mystical content, oral folklore.*

Kirish. Lutfiy she’riyati o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi asarlardan sanaladi. Shuningdek, Alisher Navoiy lirikasini tadqiq etar ekanmiz, shoir bilan adabiy ta’sir masalasida kesishish nuqtalari borligi ushbu siymoning asarlarini har tomonlama, ilmiy tadqiqot obyektini o‘rganish masalasida ham, turkiy xalqlar adabiyotining tarixini tadqiq qilish masalasida ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan obyektlardan deb hisobladik.

Asosiy qism. Mazkur obrazlarning mazmun-mohiyatini o‘quvchiga talqin qilishda germenevtik, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, qiyosiy tahlil, analiz, sintez kabi metodlarga tayangan holda yoritish maqsad qilindi. Shu ma’noda mazkur obrazlarning o‘rganilishi masalasiga kengroq to‘xtalinib, olimlar qanday qarash va fikrlarni ilgari surganligiga ahamiyat berildi. Shuningdek, olimlarning qarashlarida aks etmagan talqin va tahlil berilishiga harakat qilindi.

Alisher Navoiy Mavlono Lutfiy haqida so‘z yuritar ekan shundan ta’riflaydi: “Va uyg‘ur iboratining fusahosidin va turkining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahumollohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishori Iroq-u Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo‘lg‘ay”[1]

Olim Sharafiddinov[2], Y. E. Bertels[3], S. G‘aniyeva[4, 5], A. Hayitmetov, S. Erkinov, Y. Ahmadxo‘jayev, M.Asadov[6, 7] ilmiy tadqiqotlarida Mavlono Lutfiy ijodi o‘rganilgan bo‘lib, asosan, S. Erkinov va E. Ahmadxo‘jayev tadqiqotlarida ushbu ijodkorning asarlari monografik shaklda o‘rganilganligi ko‘rinadi. Shuningdek, olimlar Alisher Navoiy ijodini o‘rganar ekan, aksar hollarda Lutfiy lirikasiga ham murojaat etgan[8, 9].

Shu ma’noda shoirning obraz qo‘llash mahoratini jonzotlar obrazi misolida shu kichik izlanishimiz natijasida bayon qilishni lozim topdik. Lutfiyning “Sensan sevarim” nomli 1968-yil G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda chop etilgan devonida jonzotlar obrazi statistikasi quyidagicha aniqlandi:

Andalib – 3
Ari – 1
Arslon –1
Ashhab – 1
Bulbul – 18
Buroq – 2
G‘izol/g‘azol – 1, 1
Jayron – 1
Zanbur – 1
It – 22
Yilon – 1
Kabk – 3
Qush – 8
Magas – 1
Ot – 4
Ohu – 7
Parvona– 7
Tovus – 1
Tulku – 1
To‘ti – 2
Chibin – 1

Shoir lirikasida eng ko‘p murojaat etilgan mavzu it nomi bilan bog‘liq. Mazkur obrazning ishq yo‘lidagi solih va sadoqat timsoli sifatidagi e’tirofi bo‘lib, bunda lirik qahramon itlarning qatorida bo‘lishni orzu qiladi. It obrazi o‘rnida bo‘lgan lirik qahramon bu rutbani o‘zi uchun sultonlik darajasida qabul qiladi.

Itlaringning mansabin Lutfiyg‘a ta’yin aylakim,
Davlatingda qilsa sultonlig‘ ne bo‘lg‘ay bir gado?
yoxud
Eshiking itina kim bo‘lsa yo‘ldosh,
Oning iqboli sultondin qolishmas.

kabi ifodalar bilan o‘z badiiy g‘oyasini bayon etadi. Bu tasavvufda shoh shayx, so‘fiy, valiy mazmunini ifoda etadi. Shuningdek, it ham tasavvufiy mazmunda “avliyo” ma’nosini ifoda etgan o‘rinlar shoirlar ijodida uchrab turadi. Bu Alisher Navoiyning na’t g‘azalida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Itlaring maxsus-u mahzundur Navoiy, koshki
Kirsa bu mahrum ham ul zumrai mahram aro.

Lutfiyda azizlik mo‘tabarlik quyidagi misralar orqali ifoda etiladi:

Bo‘ldi muyassar oxiri itlari mansabi manga,
Har kim egosi eshikin saqladi bo‘ldi mo‘tabar.

Bunda it obrazi uchun xos bo‘lgan vafo va sadoqat mazmuni ham avliyolik ramzi ham aks ettiriladi, nazarimizda.

Shuningdek, itlarning faryod qilish manzarasi Lutfiy manzarasida ham go‘zal tarzda chizilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Eshiking itlari ko‘p Lutfiydin qilar faryod
Kim uyqu bo‘ldi harom oning ushbu joyinda.

Tasavvuf adabiyotida faryod etish sukur yo‘lidagi oshiqning nolasi sifatida talqin etiladi. Navoiy timsollar so‘zligi” kitobida faryod quyidagicha ta’riflanadi: “Majburiy va yuksak ovozda qilingan zikr. O‘zidan kechib, o‘zini unutib, Allohga yolvormoq”[10].

Bizningcha, ishqiy g‘azalda aks etgan go‘zal bir manzara shakli sifatida bu o‘rinda ifoda etiladi. Itlarning faryod qilishi lirik qahramonning holatini ochib berishda vosita vazifasini bajarib keladi. G‘azalning umumiy mazmuni go‘zal bir o‘zbek qizining tasvirini va lirik qahramonning unga munosabatini aks ettiradi.

Ich bo‘lg‘oli raqib, turur Lutfiyni o‘rni tosh,
Oshiqning iticha ham qoshida e’tibori yo‘q.

Shuningdek, Alisher Navoiy lirikasida ifoda etilgani singari, Lutfiy ijodida ham bu obraz raqib bilan qarama-qarshi qo‘yiladi:

Ich bo‘lg‘oli raqib, turur Lutfiyni o‘rni tosh,
Oshiqning iticha ham qoshida e’tibori yo‘q.

Itning ichqarida Lutfiyning tashqaridaligiga ishora berib, oshiqning e’tibori itga bo‘lganchalik ham emas, deya yozg‘iradi.

Mumtoz adabiyotda parvona obrazi ishq yo‘lida o‘zini fido qilgan oshiq obrazini ifoda etadi. “Navoiy timsollar so‘zligi” kitobida quyidagicha izohlanadi: “Ilohiy nurga nisbatan tuyilgan ishtiyoq. Sayr-u suluk qilib, hol va maqomlarni bosib o‘tgan va nihoyat vuslatga qovushgan, ya’ni fanofillohga erishgan solik”. Lutfiy g‘azalarida ham shu mazmunning ifodasini ko‘rish mumkin. Bu ba’zan parvonaga havas shaklida namoyon bo‘lsa, ba’zan lirik qahramon parvona o‘rnida namoyon bo‘ladi.

Parvona ishi mendin erur yaxshiroqkim
O‘rtansa bori qovushur dilfuro‘ziga
yoki
Jamoling shammina parvona keldim

Firoq o‘tina yona-yona keldim.

Shuningdek, mumtoz adabiyotda ba’zan parvona va bulbul bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladigan o‘rinlar uchraydi. Bu kabi ifodani Lutfiy g‘azaliyotida ham uchratish mumkin. Bunda parvona jim bo‘lgan holda, o‘zini ishq yo‘lida fido qilgan solik obrazini ifoda etsa, bulbul sukur yo‘lida bo‘lgan oshiqning ifodachisi sifatida jonlantiriladi.

Yorutti ishq charog‘ini sham’u parvona
Hadis-u bulbul-u gul qiylu qol emish bildim

Shoir she’riyatida ifoda etilgan ohu, jayron, kiyik, g‘izol yoki g‘azol obrazlari yorning ko‘zining go‘zalligini tasvirlashda vosita sifatida qo‘llanadi.

Ey, englaring hadiqayi firdavs lolasi
Gulzori husn ravnaqi ko‘zung g‘azolasi.

Shuningdek, shoir an’anaviy qo‘llanadigan obrazlardan tashqari ari, arslon, zanbur, magas, tulku, to‘ti, chibin kabi obrazlarga ham murojaat qiladi va bu vositalardan ham go‘zal misralar yaratishda foydalanadi.

Lutfiy she’riyati xalq tiliga yaqinligi va ifodalarning soddaligi bilan ajralib turishi olimlar tomonidan ko‘p bora ta’kidlanadi. Uning obrazlarida ham bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Arining nishi va uning asali shoir she’riyatida betakror ifoda yaratishda tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yorning ozori-yu, yorga oshiqning zorligi shu tarzda misralarda aks etadi.

Ul og‘zidur yo asalning arisi gulbarg uza
Nish ila nozuk nishon qildi-yu to‘ldirdi asal.

Yoki xalq og‘zaki ijodida tulkining ayyorligi, arslonning qudrat ramzi sifatida ifoda etilishi Lutfiy g‘azallarida ham qo‘llaniladi.

Oshiqqa o‘zin sotsa raqibing, nega mengzar
Arslon ila tulkugaki lof ursa jalodat.

Ushbu misralarda ham shu kabi hayot haqiqati tasvirini ko‘rishimiz mumkin.

Jon-u ko‘ngil irning sori parvoz qilurlar,
Har qayda asal bo‘lsa, g‘uluyi magase bor.

Ko‘rinadiki, shoir ijodida jonzotlar obrazini qo‘llashda turkiy xalqlar tafakkur tarzida aks etgan ramziy mazmun o‘z ifodasini saqlagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Lutfiy ijodida uchraydigan jonzotlar obrazini tadqiq etish shoir she’riyatini teranroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning salafi sifatida aytish mumkinki, shoir ijodining o‘ziga xosligi o‘sha xalqining tafakkur tadrijini aks ettirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. 757-бет.

2.Шарафиддинов Олим. Алишер Навоий. (Ҳаёти ва ижоди). Нашрга тайёрловчн ва сўзбоши муаллифи Ш. Абдуллаева. Муҳаррир Раҳмат Мажидий. Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1971. 192-бет.

3. Бертелс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Жами. – М.: Наука, 1964. 500-с.

4. Ғаниева С. Лутфий ва Навоий шеърияти: классикларимиз ижодида анъана. Шарқ классик филологияси. Илк тўплам. – Т.: ТДШИ, 2009. 60-б.

5. Ғаниева С. Мавлоно Лутфийнинг қасидалари. Ўзбек шарқшунослигининг бугуни ва эртаси / Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: ТДШИ, 2013. – Б. 23.

6. Асадов Мақсуд. Ўзбек мумтоз шеъриятида риндона маъно ва лирик қаҳрамон характери. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: 2017. 138-б.

7. Асадов Мақсуд. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусусиятлари). Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: 2020. 275-б.

Yuqoridagi fikrimizning yorqin dalili sifatida quyidagi matndan parchani keltirishimiz mumkin: “***Ona** bu kutilmagan holdan voqif bo‘larkan, Rustamidan ayrilgan Zoldan ham battarroq ahvolga tushib, es-hushi va aqlini batamom yo‘qotib qo‘ydi; uning ruhsiz quruq tanasi qolgan edi; U musibat va anduhning azobiga dosh berolmay, ko‘ksini chok-chok qilib, o‘zini halok qilmoqchi bo‘ldi. Va lekin xatning mazmuniga rioya qilib, azoblanayotgan joniga tasalli berdi.* Ushbu matnda uslubiy konvergensiya, xususan, gradatsiya va allyuziya orqali farzandidan ayrilgan onaning holati tasvirlab berilgan. Bu o‘rinda Alisher Navoiy badiiy allyuziya namunasi bo‘lmish Rustam va Zolni keltirish bilan ifodalagan. Bundan ko‘rinadiki, ona uchun farzand o‘z jonidan-da aziz, farzandga nisbatan kuyinchaklik ularga xos. “Farzandidan ayrilgan ona” tushunchasi nafaqat o‘zbek kogneziyasi, balki butun dunyo kognitiv olamida ham onalar uchun og‘ir judolik, yengib bo‘lmas musibat sifatida qaralib, farzandidan judo bo‘lgan

onaga nisbatan “mushtipar ona”, “bechora ona” kabi mikrokonseptlar bilan ifodalanadi.

Xususan, badiiy matnning 80-81-boblarining boshlanishi Saddi Iskandariy umrining so‘nggi daqiqalari va o‘z onasiga vidolashuv maktubi hamda onasining farzandidan judolik holati tasvirlangan. Farzandidan ayrilayotgan onaga hamdardlik bildirib, ushbu holatni quyidagicha ifodalaydi: *“Buzilgan tanamning joni, vujudim la’lisining qoni bo‘lmish onamga so‘zim shuki, men seni ko‘pdan-ko‘p ayriliqlarga tashlab yurdim, sendan yiroq ketib seni qiynadim”.* Bu o‘rinda onani buzilgan tanaga tiriklik bag‘ishlovchi jon va vujud la’lisi, ya’ni yurakning qoni sifatida tasvirlaydi va bu ikki predmet inson uchun eng muhimi hisoblandi, ya’ni yurak insonning tiriklik manbayi bo‘lsa, ruh (jon) uni boshqa mavjudotlardan farqlab turuvchi asosiy jihat ekanligini ko‘rsatadi. “Ona” esa bu ikkisining yaratuvchisi, hayot ato etuvchisi hamda tarbiya qilguvchisidir. Bundan kelib chiqadiki, inson uchun eng ko‘p qayg‘uradigan shaxs bu uning onasi, ya’ni olisda bo‘lsa sog‘inadigani, xasta bo‘lsa jafo chekadigani, ko‘rmay qolsa izlaydigani hisoblanadi. Ona uchun farzandidan olisda bo‘lish va undan ayrilish og‘ir judolikdir.

Ona shunchalik buyuk zotki, unga jonni fido qilish, uning xizmatida bo‘lish bu eng oliy saodat ekanligi ham barchaga ma’lum. “Ona” nafaqat o‘zbek va islom xalqi kogneziyasida muhim shaxs sifatida qaraladi, balki jahon kognitiv dunyosida ham alohida o‘rin egallovchi shaxsdir. Biroq islom, xususan o‘zbek kognitiv olamida “ona” uchun alohida o‘rin bor. Jumladan, “Jannat onalar oyog‘i ostida” degan tushuncha ham bunga yorqin misol bo‘ladi. Aynan, Alisher Navoiy konseptual qarashlarida esa ushbu tushuncha “ona” uchun xizmat qilish, poyida bosh egish haqiqiy shohlik darajasiga ko‘tarilgan. Badiiy matndan olingan parchada ham buning namoyishini ko‘rish mumkin: *“Aslida esimni tanigan, aql miyyamga harorat bergan kundan boshlab senga o‘g‘illik qilsam, ya’ni senga xuddi quldek xizmat qilsam bo‘lar ekan; aslida sening ostonang tuprog‘iga aylansam-u, uning otini men shohlik deb atasam bo‘lar ekan”.* Bundan kelib chiqadiki, “ona”ning oyog‘i ostidagi chang ham tabarruk va ulug‘ki, shohlik martabasi ham unga tenglash olmaydi.

Jonida jon, ruhida ruh ato etgan ona uchun o‘zining bir parchasi bo‘lgan farzandidan ayrilishchalik og‘ir ayriliq mavjud emas. O‘zbek xalq og‘zaki nutqida ko‘p uchraydigan “Farzand dog‘ini (farzandining o‘limini) ko‘rsatmaslik”ni tilash va onalar tilida doim aylanadigan “Ortimda qoling (men vafot etganimdan keyin ham uzoq umr ko‘ring)” tushunchalari ham misol bo‘la oladi. Farzandining o‘limini ko‘rish esa ona uchun butun dunyoning qulashi bilan barobar. Bu fikrning dalilini Alisher Navoiy badiiy matnda quyidagicha tarzda namoyish qiladi: *“Shu dard-u g‘am o‘tida nihoniy o‘rtanishidan, pinhoniy kuyishidan jahon yonar edi. Bu g‘am alangasida a’zoyi badanidagi tomir va asablari kuyib, qurib qolgan so‘ngaklari kulga aylanar edi”.* Bundan kelib chiqadiki, ona uchun farzandidan ayrilish butun tanasidagi tomir va asablarning kuyishi, suyagidagi iliklarning qurib qolishi bilan barobar. Tomirdagi qon va suyakdagi ilik o‘zbek mental dunyoqarashida farzand va naslning davomiyligi sifatida xalq og‘zaki ijodida hamda badiiy adabiyotga doir matnlarda ko‘plab uchraydi. Demak, tomirlar va asablarning kuyib kul bo‘lishi, suyakning qurib qolishi bir naslning davom etmasligini va shu yerda nasliy uzilish paydo bo‘lishini ifodalaydi. Ammo Alisher Navoiy asosiy e’tiborni “Farzandidan judo bo‘lgan ona”ga emas, balki farzandining vasiyatiga sodiq, chidamli, toqatli, sabr-bardoshlik, boshiga dunyoni qulatuvchi tashvish tushsa ham, oyoqda tik tura oladigan “ona” konseptiga asosiy diqqatni qaratadi va quyidagicha tasvirlaydi: *“Nomusli ona bu holatni fahmlab, yuragidan chaqmoq singari bir o‘tli oh tortdi. So‘ngra belini bog‘lab, qo‘liga aso olib, yo‘lga tusharkan, oh urib, falakni yondirdi. U sitamdiyda zo‘rg‘a qadam bosar, lekin falak esa hijolatdan boshini quyi solib olgan edi. Kelganlar onaning bu qaro kunini ko‘rib, hammalari beixtiyor fig‘on tortib, faryod chekib yubordilar. Ona yiroqdan farzandining tobutini ko‘rarkan, charx uning umr ozug‘ini uzib – parchalab tashlagandek bo‘ldi. Bechora xalqning falakdan shunchalar firoq yeganini ko‘rib, farishtalar ham dod-voy solib, g‘alayon keltirdi”.* Ushbu parchaga diqqatni qaratadigan bo‘lsak, Alisher Navoiy “ona”ga “mushtipar ona”, “bechora ona” yoki “zaifa ona” sifatida emas, balki “nomusli ona” deya nom qo‘yadi va inson kogneziyasida mutlaqo o‘zga tasvirga, xarakter va ko‘rinishga ega “ona”ni tasniflaydi. Bundan tashqari, yana bir narsa diqqatni tortadi, ya’ni onaning beliga belbog‘ bog‘lab qo‘liga aso olib tobutni qarshi olishidir. Islom dinida belbog‘ bog‘lab aso tutish janozada erkaklarga xos tushuncha bo‘lib, bu ishni ayol kishi, xususan, ona qilishi vafot etgan shaxsda o‘zidan katta, ya’ni ota yoki aka, o‘zidan kichik, ya’ni uka yoki o‘g‘il farzand yo‘qligini anglatadi. Buning natijasida, dostonni o‘qigan shaxsda mana shu o‘rinda Iskandarning onasidan boshqa yaqini yo‘qligi va uning nasli boshqa davom etmasligi to‘g‘risidagi kognitiv qarashlar paydo bo‘ladi. Alisher Navoiy onaga “sitamdiyda” deya ta’rif beradi, bu esa “ona”ning farzandidan judo bo‘lishdan tashqari ham ko‘p azob, dard, g‘am chekkanligini inson kogneziyasiga singdiradi. “Ona” va “farzand” konseptlari o‘rtasida fikr yuritilar ekan, Navoiy “ona” uchun “farzand” “hayot ozug‘i” ekanligini namoyon qiladi hamda “hayot ozug‘i”dan judo bo‘lgan “ona”ni “oh urib, falakni yondirdi”, “zo‘rg‘a qadam bosar” kabi tasviriy vositalari bilan ifodalar ekan, tasvirni gradatsiyalashtiradi, ya’ni dastlab o‘zi “oh ursa”, keyin xalq unga qarab “fig‘on tortib, faryod solsalar”, bundan ta’sirlangan farishtalar ham chidolmay “dod-voy solib g‘alayon qiladi”. Farzandidan judo bo‘lgan onaning g‘ami shunchalik kuchli ekanligi haqidagi kognitiv qarashlar o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladi.

Alisher Navoiy “ona”dagi chidamlilik, dardga bardosh berish, sabr-toqatli bo‘lish tushunchalari juda yaxshi shakllanganligini ko‘rsatib berish maqsadida quyidagi matndan parchani keltiradi: *“Agar men hozirgi judolik kunini ko‘rish emas, o‘ylaydigan bo‘lsam, buning og‘irligi meni o‘ldirgan bo‘lur edi. Bu fojiani tushimda ko‘rgan bo‘lsam ham, o‘sha ondayoq yuragim yorilar edi”.* Mana shunday hattoki o‘ylaydigan bo‘lsa o‘ldiradigan, tushda ko‘rsa shu onda yuragi yoriladigan dardga “ona” o‘zidagi bardosh, chidam va vasiyatga sadoqat bilan chidaydi, aziyat cheksa ham o‘zligini yo‘qotmaydi. Shu o‘rinda yana bir matnda parchani ham misol qilish mumkin: *“Iskandarning hayoti oxiriga yetgach, onasining ko‘ziga dunyo qorong‘i bo‘lib qoldi. Shoh qanday vasiyat yozib bergan bo‘lsa, iffatpanoh bonu (ona) unga to‘la amal qildi. Uning bu xildagi ishini hech kim qilmagan edi. Bundan xabardor bo‘lgan yaqin-yiroq kishilarning hamma qoyil qolib, onaga yuz tuman ofarin izhor qildilar”.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha davr badiiy matnlari, xususan, mumtoz davr matnlari ham “ona” konseptining o‘rganilishi va tadqiq qilinishi uchun ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z o‘rnida, “ona” konseptini to‘laqonli ochib berishga doir mikrokonseptlarni kashf qilishga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Nashrga tayyorlovchi I.Mahsunov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
2. Asadov T.H. Matn tilshunosligi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Durdona, 2023.
3. ***Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.***
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.

Muhabbat YAKUBOVA,
Xalqaro Islom akademiyasi magistri

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV PUBLITSISTIK MEROSINING MILLIY UYG‘ONISHGA TA’SIRI

Annotatsiya: Munavvarqori Abdurashidxonovning publitsistik merosi milliy uyg‘onish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada uning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi asosida milliy ta’lim tizimini isloh qilish va xalqni ilm-ma’rifatga yetaklash bo‘yicha olib borgan faoliyati tahlil qilinadi. Munavvarqorining matbuotdagi faoliyati xalqning ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yuksalishiga zamin yaratganligi ko‘rsatib beriladi. Muallif maqolalarida millatning o‘zligini anglash, ta’lim-tarbiyaning ahamiyati, xalqni savodsizlik va johillikdan xalos etish masalalari chuqur tahlil etilgan. Ushbu maqola Turkiston jadidchilik harakatining milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rnini ochib berish va Munavvarqorining ijodiy merosini ilmiy o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Munavvarqori Abdurashidxonov, publitsistik meros, milliy uyg‘onish, jadidchilik harakati, “Bizni jaholat – jahli murakkab”, milliy ta’lim, ilm-ma’rifat, tanqidiy jurnalistika.*

Аннотация: журналистское наследие Мунавваркори Абдурашидханова занимает важное место в процессе национального возрождения. В данной статье анализируется его работа по реформированию национальной системы образования и приведению народа к знаниям на основе статьи «Мы невежественны – гнев сложен». Показано, что работа Мунавваргари в печати создала основу для научного, духовного и социального прогресса народа. В статьях автора глубоко анализируются вопросы осознания идентичности нации, значения образования, освобождения народа от неграмотности и невежества. Целью данной статьи является раскрытие места Туркестанского джадидистского движения в процессе национального возрождения и научного изучения творческого наследия Мунавваркори.

Ключевые слова: *Мунавваркори Абдурашидханов, журналистское наследие, национальное пробуждение, джадидистское движение, «Бизни джахолат-джахли сахук», национальное образование, наука и просвещение, критическая журналистика.*

Annotation: the journalistic legacy of Munavvarqori Abdurashidkhanov plays an important role in the process of national awakening. This article analyzes his work on reforming the national education system and leading the people to science and enlightenment based on the article “Ignorance is a complex and infuriating” him. It is shown that Munavvarqori's work in the press created the basis for the scientific, spiritual and social advancement of the people. The author's articles deeply analyze the issues of national identity, the importance of education, and the liberation of the people from illiteracy and ignorance. This article aims to reveal the place of the Turkestan Jadid movement in the process of national awakening and to scientifically study Munavvarqori's creative legacy.

Key words: *Munavvarqori Abdurashidkhanov, journalistic heritage, national awakening, Jadid movement, "Ignorance is a complicated anger", national education, science and enlightenment, critical journalism.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi tanazzul millatning rivojlanishini to‘xtatib qo‘ydi. Mamlakatni isloh qilish, xalqni savodsizlik va qashshoqlikdan chiqarish, ilm-ma’rifatni rivojlantirish ehtiyoji kuchayib bordi.Ana shu sharoitda jadidchilik harakati vujudga keldi. Bu harakatning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiyani isloh qilish, zamonaviy ilm-fanni joriy etish va xalqni yangi dunyoqarashga tayyorlash edi. Bu davrga adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov shunday ta’rif beradi: “Jadidchilik”ning asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan” . Jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun ozod va mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadidlar harakati va milliy uyg‘onish jarayonining yetakchi vakillaridan biri sifatida xalq ma’rifati, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyot masalalariga bag‘ishlangan publitsistik asarlari bilan milliy jurnalistikamiz tarixida muhim o‘rin egallaydi. Uning asarlarida millat taqdiri, ta’lim va maorifning ahamiyati, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqidagi fikrlar chuqur ifoda etilgan. Xususan, uning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi xalqni jaholat va g‘aflatdan chiqarish, ma’rifatga yetaklash yo‘lidagi kurashning yorqin namunasidir.

Munavvarqorining publitsistik merosi, jumladan, “Taraqqiy” gazetasidagi maqolalari, millatni uyg‘otishga qaratilgan targ‘ibot va tanqid uslubining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Uning asarlarida maktab va madrasalarning ahvoli, bolalar tarbiyasi, dindoshlarining ilmga e’tiborsizligi, millatning taraqqiyot yo‘llari kabi masalalar o‘tkir tahlil qilingan.

“Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi Turkiston millatining o‘sha davrdagi dolzarb muammolarini ochib berishga bag‘ishlangan. Maqola quyidagicha boshlanadi: “Har millatning maktab va madrasasi o‘ldig‘i kabi, bizni ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va beusul o‘lsa ham, yo‘q demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va ta’limi ulumda ko‘rsatgan himmat va g‘ayrati kabi bizlarda ham o‘z ma’sum avlodlarini jaholat va g‘aflat zulmatida qolmoqig‘a hech bir rizolari o‘lmay, qo‘llaridan kelgancha ta’lim va tarbiyati avlodda qusurlik ko‘rsatmakchi zotlar mavjuddirlar.” .Bu jumlalar tanqidiy, shu bilan birga, konstruktiv yondoshuvning yorqin namunasidir. Maqolaning birgina lid qismida o‘sha davrdagi jamiyatning asosiy muammolari ochib berilgan, ya’ni eski uslubdagi maktab va madrasalarning benizomligi, ta’lim jarayonidagi beusullik, shuningdek, farzand tarbiyasidagi nuqsonlar haqidagi aniq tanqidiy fikrlar ilgari surilgan. Muallif maktab va madrasalarning hajmi va sifati haqida gapirib, ularning soninigina emas, balki tartib va uslubining ham talab darajasida emasligini qayd etadi. Maqola orqali Munavvarqori jamiyatning faol qatlamiga murojaat qiladi.U mas’uliyatni yanada oshirishga undovchi emotsional chaqiriqlardan foydalanadi. Bunda ta’limning zamonaviy talablarga moslashtirilishi, yosh avlodni jaholat va g‘aflatdan olib chiqish muhimligini uqtiradi.Muallif ta’lim jarayonining kamchiliklarini qayd etish jarayonida xalqni faqat tanqid qilish bilan cheklanmay, ularni isloh qilish zaruriyatini ochiqlaydi.

Muallif maqolada ikki davrni solishtirish orqali ayni paytdagi ahvolni ko‘rsatib beradi. Birinchidan “dunyog‘a nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifg‘a aslo rag‘bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko‘cha-bako‘cha kezdirib, bechora ma’sumning aziz umrini jaholat otashina yondirg‘uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur.” deb ilmga rag‘bat qilmayotgan insonlarni ko‘rsatsa, ikkinchidan ilm va ma’rifatni to‘g‘ri anglaydigan qanday bo‘lmasin farzandlarni kelajak taraqqiyoti uchun ilmli qilish

kerak, degan insonlarning qiyofasini tasvirlaydi. Munavvar qori matbuot timsolida xalqning ongini, uning dunyoqarashini o‘stirishini, fikrlash doirasini kengaytiruvchi va uni ijtimoiy-siyosiy jihatdan o‘stirib, millat sifatida shakllantiruvchi omilni ko‘rdi.

U maktablarning xarobligi, muallimlar ilmiy saviyasining pastligi va ota-onalarning ilmga bo‘lgan loqaydligini tanqid qiladi. Muallifning fikriga ko‘ra, millat taraqqiyotining asosiy omili ta’lim-tarbiyani isloh qilishdir. Maqolada Munavvarqori bolalarning foydasiz manzumalar va qiyin adabiy asarlarni o‘qib, umrini behuda sarflashlarini qoralaydi: *“Nochor, befoyda bo‘lsa ham maktablarda bolalarga o‘qitgudek bulardan boshqa bir kitob topilmag‘on zamonlarda o‘zi o‘qib, bilgan kitoblari shu kitoblar o‘ldig‘i chun eski o‘runlarda eski tushlarin ko‘rmakdadurlar.Mani so‘zimdan Fuzuliy, Navoiy, Xo‘ja Hofiz, Bedillar kabi ulug‘ zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun. Chunki mani g‘arazim bu kitoblarni zotan befoyda demak emas, balki yosh bolalarg‘a bu kitoblarning ta’limi befoyda, demakdir. Misola bir bolaga Fuzuliy o‘rniga ilmi qiroat, Navoiy o‘rniga masoili e’tiqodiya, Xo‘ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig‘a ilmi hisob o‘qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o‘lur”* . Bu so‘zlar muallifning o‘sha davrdagi ta’lim tizimiga bo‘lgan tanqidiy yondashuvini ko‘rsatadi. Uning fikricha, maktablarning asosiy maqsadi bolalarni hayot uchun foydali bilimlar bilan ta’minlash, ularni ma’naviy va ilmiy jihatdan boyitish bo‘lishi kerak edi.

Munavvarqori publitsistikasida tanqid va targ‘ib birgalikda ishlatiladi. U millatning o‘zligini anglashda tarixiy meros va ma’rifatning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Misol uchun, maqolaning quyidagi jumlalarida milliy ongning shakllanishida ma’rifatning o‘rni ochib berilgan:

“Har millat o‘z saodat hol va istiqbolini muhofazatig‘a birinchi vosita ilm o‘lmakig‘a qanoat hosil qilib ilm va maorifg‘a ortiq darajada ko‘shish qilgan bu zamonda bizlar bu g‘aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o‘lub hamma olamga masxara va kulgu o‘lmog‘imizda hech shubha yo‘qdir”.

Munavvarqorining ushbu maqolasi milliy jurnalistikamizning ma’rifiy va tanqidiy yo‘nalishdagi rivojlanishiga zamin yaratdi. Maqolaning asosiy xulosalari o‘z zamonida nafaqat Turkiston jamoatchiligiga, balki barcha musulmon xalqlarning ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qilgan.Bu maqolada ilgari surilgan g‘oyalar Turkistonning boshqa ma’rifatparvarlari – Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniylarning publitsistik faoliyatlarida ham davom ettirildi.Masalan, Behbudiyning “Tarjimon” gazetasidagi maqolalari ham xalqni ilm-ma’rifatga chaqirgan. Munavvarqorining maqolasi bilan bunday fikrlarning o‘xshashligi jurnalistikaning xalq ma’naviy hayotida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Munavvarqori ijodi milliy uyg‘onish jarayonining muhim qismi bo‘lib, uning maqolalari xalqni milliy ong va ma’naviyatni yuksaltirishga chaqirgan. U millatning taqdiriga javobgarlik hissini uyg‘otgan va ma’rifatparvarlik orqali yangi avlodni tarbiyalashni targ‘ib qilgan. Uning maqolalarida qayd etilgan muammolar va ularning yechimlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Milliy ongni shakllantirishda Munavvarqori publitsistikasining rolini tahlil qilish orqali, uning ijodiy merosidan o‘rganishimiz mumkin bo‘lgan ko‘p jihatlar mavjud.

Munavvarqori Abdurashidxonovning publitsistik merosi milliy uyg‘onish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.Uning “Bizni jaholat – jahli murakkab” maqolasi milliy ta’lim tizimini isloh qilish, xalqni ma’rifatga yetaklash yo‘lidagi fidokorona xizmatining yorqin dalilidir.Bu maqola orqali Munavvarqori faqat o‘z davrining emas, balki kelajak avlodlarning ham milliy ongini uyg‘otish uchun zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidxonov M. “Bizni jaholat – jahli murakkab”. Taraqqiy gazetasi.1906.
2. Kosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoyilik. –Toshkent:Ma’naviyat.2002.
3. Karimov N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
4. Gaspirali, I. “Tarjimon” gazetasi.Orenburg.1913.

Shalola IBODULLAYEVA,
O'zMU O'zbek adabiyoti yo'nalishi
2- kurs magistranti
shalolaibodullayeva01@gmail.com

SHAYX AHMAD TAROZIYNING "FUNUN UL-BALOG'A" RISOLASIDA QOFIYA ILMINING TAVSIFLANISHI

Annotatsiya: bu maqolada adabiyotshunoslikka, xususan, aruz ilmi va qofiyashunoslikka oid risolalarning turkiy tildagi dastlabkisi bo'lgan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari haqida so'z yuritiladi. Risola 5 qismdan iborat bo'lib, olim uning ikkinchi qismini qofiya va radif masalasiga bag'ishlaydi. Muallif asarda har bir qofiya unsurlarini fasllarga ajratgan holda tasniflab,misollar bilan izohlaydi. Bu kichik tadqiqotda "Funun ul-balog'a"da keltirilgan qofiyaning turlari, qofiyaning o'rni, tuzilish tarkibi, qofiya harflari va harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *qofiya turlari, qofiya harflari, qofiya harakatlari, harora she'r, raviy*

Annotation:this article discusses "Funun ul-Balaghah", a work by Shaykh Ahmad Tarozi, the first treatise in Turkic language on the fields of literature, particularly concerning the science of meter (aruz) and rhyme (qafiyashunoslik). The treatise is divided into five sections, with the author dedicating the second part to the issue of rhyme and refrain. In the work, the author classifies and explains each element of rhyme by dividing them into chapters and illustrating them with examples. This brief study presents information on the types of rhyme, its role, structural composition, as well as the letters and movements of rhyme as discussed in "Funun ul-Balaghah".

Key words:*types of rhyme, rhyme letters, rhyme vowels, poem of passion, narrator.*

Аннотация: в этой статье рассматривается произведение "Фунун ул-Балага" шейха Ахмада Тарози, первое труды на тюркском языке, посвященное литературным дисциплинам, особенно науке о метре (аруз) и рифме (кафийашунослик). Труд разделен на пять частей, причем автор вторую часть посвящает вопросу рифмы и рефрена. В работе автор классифицирует и объясняет каждый элемент рифмы, деля их на главы и иллюстрируя примерами. Это краткое исследование представляет информацию о типах рифм, их роли, структурном составе, а также о буквах и гласных рифмы, обсуждаемых в "Фунун ул-Балага".

Ключевые слова: *типы рифм, рифменные буквы, рифменные гласные, стих о страсти, рассказчик.*

Kirish. XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda Temuriylar davlatining yuzaga kelishi nafaqat davlatning iqtisodiy,siyosiy balki she'riyat, tasviriy san'at, adabiyot olamiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu davrda ilm-fanning deyarli barcha sohalari rivoj topadi. Temuriylar davridagi muhit ta'sirida ilmi bade', qofiya ilmiga oid risolalarning yaratilishi poetik ilmning yuqori darajada ravnaq topganligini ko'rsatadi. [3:36] Poetik nazariyalarga doir bu risolalarda aruz hamda qofiya ilmining nazariy asoslari yorqin ifodalab berilgan. Abdurahmon Jomiyning ,,Risolai qofiya" , Atoulloh Husayniyning ,,Badoye us-sanoye" , Husayn Voiz Koshifiyning ,, Badoe ul-afkor" risolalari mana shunday muhim manbalardan hisoblanadi. 1436-1437-yillarda yaratilgan Shayx Ahmad Taroziyning ,,Funun ul-balog'a" risolasi ham mana shunday nodir manbalardan hisoblanib,o'z davrining adabiy hayot ehtiyoji o'laroq vujudga kelgan. Boisi o'sha davrlarda forsiy va arabiy tilda ijod qiluvchilar uchun adabiyotshunoslik, she'rshunoslikka oid nazariy qo'llanmalar talaygina bo'lib, turkiy tilda faqatgina muayyan she'r turlari yoki ma'lum she'riy san'atlarga doir ilmiy manbalar mavjud bo'lgan. Taroziyning ,,Funun ul-balog'a" risolasi esa adabiyotshunoslikka oid umumiy nazariy qarashlar, yaxlit ilmiy xulosalar jamlangan turkiy tildagi dastlabki asar sifatida yuzaga kelgan. [9:2] Risola kirishdan tashqari 5 qismdan iborat. Dastlab, she'r turlari, so'ng qofiya va radif masalari, badiiy san'atlar,ilmi aruz hamda muammo (bu qism bizgacha yetib kelmagan) haqidagi qismlar ketma-ketlikda tasniflangan. Shayx Ahmad Taroziy risolaning ikkinchi qismini qofiya va radif masalalariga bag'ishlagan.

Taroziy bu qismini yozishga kirishar ekan ,, Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli ta'bg'a qofiya ilmin bilmak muhimdir" [1:32] degan jumlalar bilan boshlaydi va bu bilan ilmi qofiyaning ijodkorlar ahli uchun nechog'lik muhim ekanligini ta'kidlaydi. Olim qofiya she'rning asosi ekanligi, qofiyasiz she'r bo'lmasligi haqida so'z yuritar ekan, harora deb nomlanuvchi qofiyasiz she'r ham bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi. Taroziy dastlab qofiyaga ta'rif berib, ba'zi olimlar raviyni, ba'zilar so'nggi misrani, ba'zi olimlar esa baytning oxirgi juzvini, ya'ni tavil bahri juzvi sifatida "mafoil"ni, rajaz bahri rukni sanalgan "mustaf'ilun"ni qofiya deb nomlashlari haqida so'z yuritadi. [9:3]

Taroziy asarda qofiya nazariyasiga oid manbalar nomini keltirmaydi.Arab va ajam olimlarining qarashlarini qiyosiy o'rganadi. Jumladan, arab olimlari qofiyaning qismlariga ko'ra besh turini sanaydilar:mutavotir, mutarodif, mutaroqib, mutadorik,

mutaqovis. Ajam olimlari esa bularga yana uchta qo‘shib sakkiztaga yetkazadilar: mutasovi, mutarojih, mutazoyid. Taroziy ,,Funun ul-balog‘a” risolasida barcha qofiya turlarini misollar bilan sharhlab bergan.

Mutavotir qofiyada raviy sokin holatda keladi, raviydan oldingi harf esa mutaharrik ya’ni harakatli tarzda bo‘ladi, fa’ (-) vaznida keladi. Taroziy bunga misol qilib quyidagi baytni ko‘rsatadi:

So‘zidin rashk olur shakkar, yuzidin ham chaman va gul

Ko‘zidin uftonur nargis, subhidin to‘lg‘onur sunbul

Bu baytda gul va sunbul so‘zlari qofiyadosh so‘zlar hisoblanib qoidaga ko‘ra raviy lom harfi sokin holatda, undan oldingi harf esa harakatli tarzda kelgan.

Mutarodif qofiyada qofiyadosh so‘zlarda mutaharrik harfdan so‘ng ikki sokin keladi. Vazni (~) tarzida bo‘ladi. Olim bu qofiya turi uchun Xoqoniyning quyidagi baytini keltiradi:

Misli jomi porsiyon xast

Lab dar yodi murg‘i dabu tumor

Mutadorik qofiya turida qofiyadosh so‘zlarda ikki mutaharrik harf va bir sokin harf keladi (vatadi majmu V-).

Chandon bigiryam bar dari on bevafo shomu sahar,

K-az obi chashmam ovarad sarve az onjo sar ba-dar.

Mutarokib qofiya turida qqofiyaga olingan so‘zlarda uch mutaharrik va bir sokin harf keladi. Shayx Ahmad Taroziy mutarokib qofiya faalan vaznida bo‘lishini aytgan (fosilai sug‘ro VV-). Asarda quyidagi misra berilgan:

Az ishqi tu man dar jahoni samaram

Bu misradagi qofiya sifatida keltirilgan samaram so‘zidagi sin, mim va re harflari mutaharrik holatda, raviy mim esa sokin holda kelgan.

Mutakovis qofiya turida to‘rt mutaharrik va bir sokin harf keladi. Bunday qofiya failatun vaznida bo‘ladi (fosilai kubro VVV-). Taroziy bu qofiya turini izohlash uchun Mavlono Iroqiydan misol keltiradi:

Dog‘i nehad husni tu bar ruhi qamar,

Otash zanad la’li tu dar dili shakar.

Shayx Ahmad Taroziy ajam olimlari qo‘shgan qo‘shimcha uch qofiya turiga ham misollar bilan sharh beradi. Bu uch turdagi qofiyaning oldingilaridan farqi ularning barchasi o‘ta cho‘ziq hijo bilan tugallanishga asoslangan.

Mutasoviy qofiya. Bu qofiya turida ikki mutaharrik va ikki sokin keladi. Faol vaznida bo‘ladi (vatadi kasrat V~).

Ey pardai muazzamu banuyi ro‘z(i)gor,

Ey pishi oftobi garm abri soyador.

Mutarojih qofiya. Bu qofiya qismlari uch mutaharrik va ikki sokin harfning kelishiga asoslanadi. Faulot vaznida bo‘ladi (VV~).

Mutazoyid qofiya. Bunday qofiyada to‘rt mutaharrik va ikki sokin harfdan iborat bo‘ladi. Failaton vaznida keladi (VVV~).

Ajam ulamolari qofiyaning uch turli bo‘lishini aytadilar:asliy, ma’muliy, shoygon qofiya. Qofiya turlari haqida qofiyaga oid risolalarda farqlar mavjud. Jumladan, Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo’jam” asarida asliy qofiya, Atoulloh Husayniyning “Risolai qofiya” asarida shoygon va ma’muliy qofiya, Nosiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” risolasida asliy,ma’muliy hamda shoygon qofiya turlari haqida ma’lumotlar berilgan. [3:56] Taroziy ham har uch qofiya turini sharhlab, misollar bilan izohlaydi:

1. Asliy qofiya. Bu qofiya turida, qofiyadosh so‘zlar asl asosdan tashkil topadi va raviy ham so‘zning asosida keladi. Mavlono Sayfiddindan quyidagi misralar keltiriladi:

Baromad nilgun abre zi ro‘yi nilgun daryo:

Chu royi oshiqon gardon, chu ta’bi bedilon shaydo.

Bu misrada esa daryo va shaydo so‘zlari qofiyadosh so‘zlar hisoblanib, ular asl asosdan tashkil topgan va raviy (o unlisi) so‘zning asosida kelgan.

2. Ma’muliy qofiya. Bu qofiya turida qofiyadosh so‘zlar asl asos holida bo‘lmaydi, bo‘lina oladi. Ya’ni qofiyadosh so‘zlarning faqat asosi emas, unga qo‘shilgan qo‘shimchalar ohangdorlikni hosil qiladi. Raviy so‘zning o‘zida emas unga qo‘shilgan qo‘shimchada bo‘ladi: guftan va suftan, no‘shidan va jo‘shidan kabi. Olim Firdavsiyning ,, Shohnoma’’ sidan misol keltiradi:

Bado‘ go‘ft Kovus:- K-ey purxirad,

Dilat yaksar andeshai bad barad

Ko‘p holatlarda qofiyai ma’muliy qofiyadagi nuqson sifatida baholangan. Lekin Taroziy quyidagi holatlarda ma’muliy qofiyani to‘gri deb baholash mumkinligini aytadi:

Masdar holati. Guftan va suftan yoki jo‘shidan va no‘shidan qofiyadosh so‘zlari fe’lning noaniq shakli hisoblanib, (an-moq) har ikkala so‘zda ham raviy so‘zning asosida emas, qo‘shimcha tarkibida qo‘llanilganligi bois bu so‘zlarning qofiyadosh bo‘lib kelishi kamchilik deb baholanmaydi.

Muzori holati (fe’lning hozirgi kelasi zamon shakli). Barad va darad, yoki mekashad va mechashad kabi so‘zlar misol sifatida berilgan. Keltirilgan so‘zlardagi raviy dol harfi so‘zning asosida emas qo‘shimcha tarkibida kelganligi bois bular qofiyai ma’muliy sanaladi. Bu so‘zlar bilan rad va bad yoki sanad va jad kabi qofiyadosh so‘zlarni bir o‘rinda ishlatish qofiyadagi ayb hisoblanadi. Chunki bu so‘zlardagi raviy dol harfi asos tarkibida kelgan va asliy qofiyani yuzaga keltiradi.

Amriyat holatida. Siyor va guzor, rez va hez yoki sur va dur kabi so‘zlar amr holatidagi so‘zlarga misol sifatida keltirilgan. Shuningdek kor va bor, roz va daroz, tez va sitez yoki navro‘z va feruz kabi asliy qofiyadagi so‘zlar bular bilan birga kelsa qofiya aybi sanaladi. Lekin bu so‘zlar faoliyat ma’nosida kelsa, asliy qofiya bilan qofiyadosh so‘zlar hosil qilsa ayb sanalmaydi:

xunrez va dilso‘z, korsoz va tangudoz kabi.

Robita holatida (Aloqa shakli). Donost va binost, just va xudrist kabi so‘zlar misol sifatida krltirilgan. Bu so‘zlarda te harfi raviy hisoblanadi va u asosda emas, ast qo‘shimchasi tarkibida kelgan. Bu so‘zlarni rost va kost, bast va mast kabi qofiyadosh so‘zlar bilan qo‘llash tog‘ri bo‘lmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, aksariyat hollarda qofiyai asliyni qofiyai ma’muliy bilan o‘zaro yetkazilmoqchi bo‘lgan ma’noni ifodalash uchun munosib so‘z topa olmaganda, she’rning mohiyatiga putur yetkazmaslik uchun qofiyai asliy bilan qofiyai ma’muliyning bir o‘rinda kelishi joiz deb baholanadi. [7:4] Hajman yirik bo‘lgan qasida va masnaviy kabi janrlarda esa bu holat kamchilik hisoblanmaydi. Chunki qasida 20 baytgacha bo‘lishi mumkin. Masnaviyning esa miqdori cheklanmagan. Tabiiyki bu she’r janrlariga ko‘p qofiyadosh so‘zlar topish zarur. Shu bois ham bu she’r turlarida asliy va ma’muliy qofiyani qofiyadoah so‘zlar sifatida qo‘llasho‘rinli bo‘ladi.

3. Shoygon qofiya. Bu qofiya turi ma’muliy qofiyagao‘xshash bo‘lib, raviy asosda emas, asosdan keyingi so‘zlar tarkibida keladi. Ya’ni o‘zaro qofiyadosh bo‘lmagan ikki so‘zdan qo‘shimchalar qo‘shish orqali qofiyadosh so‘zlar hosil qilinadi: mardumon va suxanon kabi. Ko‘pgina olimlar asliy va shoygon qofiyani bir asosda qo‘llashni kamchilik sanaydilar. Biroq Shayx Ahmad Taroziy masnaviy va qasidada bularni birga qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. Taroziy aytadi: ,,Va jamoatning mazhabida uldurkim, qasida yo g‘azalning qofiyasin luzumi mo lo yalzamu (keraksiz narsaning kerakli bo‘lishi) tariqasi birla tamom shoygon qilsalar bo‘lur, illoki, bir yerda asli qofiya kelsa tamomin ma’yub etar va luzumu mo yalzamuni zikr qilg‘ay”.[1:45] Ushbu so‘zlarning misoli sifatida quyidagi satrlarni keltiradi:

Ba ro‘yi do‘st, ki ro‘yash ba chashmi man nigarid,
Ba xok posh, ki on rah ba chashmi man sarid.
Ba po guzashtan az on dar nishoni bechashm ast,
Chu chashm nest shumoro, be chashmi man guzarid.

Olim qofiya harflari va harakatlarini tavsiflash borasida ham arab va ajam olimlarining fikrlarini qiyosiy o‘rganadi, qofiya harflari va harakatlarini nomma-nom misollar orqali izohlaydi. Qofiya harflari: ta’sis, daxil, ridf, raviy, vasl, xuruj. Qofiya harakatlari: itloq, xazu, ras, ishbo, tavjeh, nifod.

Shayx Ahmad Taroziy : ,,Va qofiyaning ravidin o‘zga barcha guziri bor, netokkim qofiya she’rning aslidir. Qofiyaning asli raviydir” [1:41] deya qofiya harflari orasida raviyning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Chunki raviy qofiya tarkibida doim uchraydigan harfdir. Qolgan harflar esa ba’zan uchrashi, ba’zan uchramasligi mumkin. Bu to‘qqiz qofiya harakatlarida to‘rttasi raviydan oldin, to‘rttasi raviydan keyin keladi. Olim raviy sokin yoki mutaharrik holatda kelishiga qarab qofiyani mutlaq va muqayyad qofiyaga ajratadi hamda ularni misollar bilan sharhlab beradi. Ahmad Taroziy arabiy, forsiy risolalarning kamchiliklarini tuzatib, qofiya qonuniyatlarini turkiy tilga moslagan holda taqdim etgan.

Xulosa. Olim risolaning butun bir bobini qofiya nazariyasiga bag‘ishlagan hamda arab va ajam olimlarining fikrlarini qiyosiy o‘rgangan. Olim manba nomlarini aniq keltirmasada o‘zidan oldin yozilgan barcha qofiyaga oid nazariy manbalarni o‘rganib chiqqan. Har bir ilmiy atamani tushuntirar ekan, albatta misollar bilan izohlagan. Temuriylar davrida yaratilgan bu turdagi risolalarda qofiyaning taqti’lar ishtirokiga ko’ra faqat arab olimlari tomonidan keltirilgan besh turi (mutaqovis, mutarokib, mutadorik, mutavotir, mutarodif) tasniflangan. Taroziy esa bularga qo’shimcha tarzda yana 3 qofiya turi (mutavosiy, mutarojih, mutazoyid) haqida ma’lumotlar bergan. Shuningdek, harora deb nomlanuvchi qofiyasiz she’r turi mavjudligini ko’rsatib, radifning takroriy ohangi qofiya o’rnini bosishi mumkinligini isbotlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Taroziy, A.1996. Funun ul-balog‘a. – Toshkent:Xazina.
2. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. 2016. Funun ul-balog‘a. (Nashrga tayyorlovchi: H. Boltaboyev, J.Jo’rayev) – Toshkent: Mumtoz so’z
3. Hamroyeva, O. 2022. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. – Toshkent: Bookmany print.
4. Hamroyeva,O. 2022. Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. Diss. – Toshkent 2022.
5. To’ychiyev, U. 2011. O’zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Sharq mumtoz poetikasi: Manba va talqinlar / Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi H. Boltaboyev. -Toshkent : O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. Hamroyeva, O. (2024). The Emergence of The Science of Rhyme. SPAST Reports, 1(1).
8. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
9. Jalolovna, H. O. (2022). THE STUDY OF MOVEMENTS OF RHYME.

Feruza XIDIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
Xidirovaferuza93@gmail.com

ALPOMISH DOSTONDAGI ETNONIMLARNING ETNO-LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek xalqining madaniy va tarixiy merosiga mansub “Alpomish” dostonida ishlatilgan etnonimlarning etnolingvistik tahlilini yoritadi. Doston matnidagi qabila, elat va xalq nomlarini o‘rganish orqali ularning tarixiy, madaniy va lingvistik xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada “Alpomish” dostonining qadimiy xalq hayotini aks ettiruvchi muqaddas manba sifatidagi o‘rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, undagi etnonimlar asosida o‘zbek va qo‘shni xalqlarning etnik tarkibi, tarixi va madaniy aloqalari haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Alpomish dostoni, etnonimlar, etnolingvistika, xalq tarixi, qo‘ng‘irot, qalmoqlar, folklor, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi*

Annotation: this article covers the ethnolinguistic analysis of the ethnonyms used in the epic "Alpomish" belonging to the cultural and historical heritage of the Uzbek people. Their historical, cultural and linguistic characteristics are revealed by studying the names of tribes, peoples and peoples in the text of the epic. The article analyzes the role of the epic "Alpomish" as a sacred source reflecting the life of the ancient people. At the same time, based on the ethnonyms in it, conclusions are made about the ethnic composition, history and cultural relations of the Uzbek and neighboring peoples.

Key words: *Alpomish epic, ethnonyms, ethnolinguistics, folk history, bells, Kalmyks, folklore, Uzbek folklore*

Аннотация: в данной статье проводится этнолингвистический анализ этнонимов, использованных в эпосе «Алпомиш», принадлежащих культурно-историческому наследию узбекского народа. Их историко-культурные и языковые особенности выявляются путем изучения названий племен, народов и народностей в тексте эпоса. В статье анализируется роль эпоса «Алпомиш» как сакрального источника, отражающего жизнь древнего народа. При этом на основе этнонимов в ней делаются выводы об этническом составе, истории и культурных связях узбекского и соседних народов.

Ключевые слова: *Алпомишский эпос, этнонимы, этнолингвистика, народная история, колокола, калмыки, фольклор, узбекский фольклор*

Xalqning etnik tarixi va madaniyati, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganishda folklor namunalari noyob manba hisoblanadi. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining qadimiy hayoti, urf-odatlari, orzu-umidlari va madaniyati haqida chuqur tasavvurlar beradi. Bu asar, avvalo, xalq hayotining barcha jihatlarini jonli va tabiiy ravishda aks ettiradi. Maqolada ushbu doston matnida uchraydigan etnonimlar orqali tarixiy, lingvistik va ijtimoiy jihatlar yoritiladi.

“Alpomish” dostoni va uning variantlarida 60 dan ortiq etnonimlar tilga olingan bo‘lib, ular xalq va urug‘larning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va o‘zaro aloqalarini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Dostondagi asosiy etnonimlar quyidagilardir: qo‘ng‘irot, qalmoq, o‘zbek, qoraqalpoq va boshqa qabila nomlari. Ushbu etnonimlar o‘ziga xos ma’nolarni anglatar ekan, ular xalqning tarixiy xotirasini aks ettiradi.

Misol uchun, qo‘ng‘irot etnonimi haqida turli manbalarda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uning ma’nosini ‘qo‘ng‘ir’ so‘zidan, ya’ni rang ifodasidan kelib chiqishini ta’kidlaydi. Boshqalar esa bu etnonimni hududiy yoki ijtimoiy xususiyatlar bilan bog‘laydi. Qo‘ng‘irot qabilasi o‘zbek xalqining asosiy qabilalaridan biri bo‘lib, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarda yashab kelgan.

Qalmoqlar ham doston matnida ko‘p bora tilga olinadi. Ular turkiy xalqlarning qadimiy guruhlaridan biri bo‘lib, tarixiy manbalarda ularning Mavorounnahr hududidagi faoliyati haqida ma’lumotlar mavjud. Dostonda qalmoqlar va qo‘ng‘irotlar o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalar aks etgan. Qalmoq etnonimi, ayniqsa, turli xil fonetik va semantik talqinlarga ega.

“Alpomish” dostoni o‘zbek va qo‘shni xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, u nafaqat o‘zbek xalqining, balki qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarning og‘zaki ijodiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Doston matnida qo‘llanilgan etnonimlar tarixiy haqiqatlar va xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xosligini namoyon qiladi.

Egam oson qilgay munda mushkulni. (3.82) Shu cho‘lda, Toychixon mamlakatida, Qalmoq yurtida, Toychi viloyatida, Chilbir cho‘lida, o‘n besh kunlik

yo‘lida ekinning maysasi bor edi. (3.58-59) Bu so‘zni eshitib, Qalmoqshoh oqsoqol, arboblarga qarab, murtini burab: – Ko‘rdinglarmi, qayoqdan kelibdi? – deb so‘rab, bir so‘z deb turgan ekan... (3.61) Qalmoq so‘zi turkiy «qolmoq» fe’lidan olingan, bu so‘z islom dinini qabul qilmasdan majusiylar holida qolgan o‘yratlarni anglatgan, deyilgan. V.P.Darbakova qalmoq so‘zi mo‘g‘ulcha «duragay», «aralash», «qurama» degan ma’nodagi xalmig so‘zidan kelib chiqqanligini aniqladi. Haqiqatan ham aslida o‘yratlardan ajralib chiqqan qalmoq urug‘i juda ko‘p urug‘-qabilalar aralashmasidan iborat bo‘lgan. Qalmoq etnonimi bilan bog‘liq joy nomlari hozirda ham O‘zbekiston toponimiyasida kuzatiladi, xususan, Buxoro viloyatining Jondor tumanida, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida, Farg‘ona viloyatining Quva tumanida Qalmoq, Farg‘ona viloyatining Oxunboboyev tumanida, Buxoro viloyatining dostonidagi etnonimlar va ularning tahlili o‘zbek va qo‘shni xalqlarning qadimiy avlodlari hamda ularning yashash tarixi, etnik, ijtimoiy, lisoniy taraqqiyoti, takomili xususida yorqin tasavvurlar beradi.

“Alpomish” dostonida qahramonlik, jasurlikni ulug’lash, mardlik tuyg’ulari va yuksak vatanparvarlik g’oyalari bilan uzviy bog’langan holda tasvirlanadi. Doston qahramonlari o’n olti urug’ Qo’ng’irot edi, Boysun-Qo’ng’irot diyori bilan mahkam bog’langanlar. Ular qayerda bo’lmasinlar, shu el, shu diyorning g’am alamiga sherik bo’ladilar, shu el, shu diyor sog’inchi bilan yashaydilar1

Alpomish yurti Boysun, Qo’ng’irot deb ataladi. Qo’ng’irot – o’zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri, shu qabilaga mansub kishilar. Ilmiy manbalarda Surxondaryo, Qashqadaryoda yashovchi urug’lar qatorida qo’ng’irotlar alohida qayd etilgan.

Qo’ng’irot etnonimi xususida manbalarda ko’plab ma’lumotlar, talqinlar mavjud. Qo’ng’irot etnonimining etnogenizisi ma’nolari xususida bir necha xil qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar nomni ikki qismga ajratib izohlaydilar: qo’ng’ir – “kulrang, to’q jigarrang”, – at mo’g’ulcha ko’plik ma’nosini ifodalovchi qo’shimcha.

T.Nafasov bu talqin xalq etimologiyasiga asoslanganini, etnonim rang ma’nosini ifodalovchi so’z bilan aloqasi yo’qligini ko’rsatadi. Olimning talqinicha etnonim mo’g’ulcha xonxor-”pastlik ,quyi, chuqurlik” so’zi asosida yasalgan.

O’tmishda har bir qabilaga xos jangchilarning maxsus kiyimi bo’lmagan, ularni qarshi tomon lashkarlaridan, ba’zan otining rangidan ajratish mumkin bo’lgan.Shuning uchun har bir qabila vakillari bir xil ot minib yurishlari rasm bo’lgan. Turkiy xalqlarning alaatchin(alchin), karat(kerat) kabi urug’lari ham shu asosda vujudga kelgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostoni faqat badiiy asar emas, balki xalqning tarixiy, etnik va madaniy xotirasini saqlab kelgan noyob manbadir. Doston matnida uchraydigan etnonimlarning etnolingvistik tahlili ularning kelib chiqishi, tarqalishi va tarixiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqola, o‘z navbatida, o‘zbek xalqining boy madaniy merosi va etnik tarixi haqida keng tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Alpomish” dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Termiz: Fan, 1999.
2. “O‘zbekiston pochtasi” OAJ pochta aloqasi ob'ektlari xizmat ko‘rsatadigan O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining pochta indekslari ko‘rsatilgan alifbo ro‘yxati. – Toshkent: O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, 2010.
3. «Alpomish» dostoni va jahon xalqlari epik ijodiyoti» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan, 1999.
4. Jo‘rayev M., Ro‘ziyeva M. Mif va rang simvolikasi // Til va adabiyot ta'limi, 2017.
5. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.
6. Abdullayev H. Xalq dostonlari va ularning variantlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
7. Abdurahmonov D., Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi // O‘zbek xalq ijodi (to‘plam). – Toshkent: Fan, 1967.
8. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.

Surayyo DONIYOROVA,
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich magistranti
surayyodoniyorova@gmail.com

BADIIY ADABIYOTDA AYOLLAR OBRAZINING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola adabiyotda ayollar obrazi tasviri va hozirgi zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, xususan, Isajon Sulton asarlaridagi ayollar obraziga alohida e’tibor qaratilgan. “Onaizorim” qissasidagi odob-axloq haqida qarashlar hamda “Men, onam va O‘rta yer dengizi” va “Bibi Salima” hikoyalaridagi qahramonlarning o‘xshash jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *ayol, obraz, ruhiyat, qahramon, hikoya, “Onaizorim” qissasi, tarbiya, “Bibi Salima” hikoyasi.*

Annotation: this article examines the portrayal of women in literature and their role in contemporary Uzbek literature, with particular focus on the female characters in the works of Isajon Sulton. The paper discusses views on morality and ethics in the story "Onaizorim" and explores the similarities between the protagonists in the stories "Men, onam va O‘rta yer dengizi" and "Bibi Salima".

Key words: *woman, image, psyche, protagonist, story, the novella "Onaizorim", upbringing, the short story "Bibi Salima".*

Аннотация: данная статья посвящена изображению образа женщины в литературе и ее роли в современной узбекской литературе, в частности, особое внимание уделено образу женщины в произведениях Исаджона Султона. Рассматриваются взгляды на нравственность в повести «Онаизорим, » а также анализируются схожие черты героинь в рассказах «Я, моя мать и Средиземное море » и «Биби Салима. »

Ключевые слова: *женщина, образ, психология, герой, рассказ, повесть «Онаизорим, » воспитание, «Биби Салима. »*

Badiiy adabiyotda ayol obrazi bosh qahramon sifatida ko‘p tanlanmasa-da, voqealar rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Sababi bu obraz keng qamrovli obraz. U ona, rafiqa, farzand, jamiyatning bir bo‘lagi va o‘z hissiyotlariga ega yakka shaxs. Bundan tashqari, bu obrazni ham farishta, ham dunyodagi eng katta tubanliklarni qila oluvchi jodugar ko‘rinishida ham namoyon qilish mumkin.

Ayol obrazi turli janrlarda, davrlarda va madaniyatlarda har xil tarzda tasvirlangan:

1) ijtimoiy o‘rni: bunda, asosan, ayolning oiladagi o‘rni aks etadi. U ona, farzand, rafiqa rolida ko‘rsatiladi. Shuningdek, ona sifatida muhabbat va fidoyilik timsollarini yaratadi;

2) ishq mavzusida: erkak va ayol munosabati ko‘rsatib beriladi. Ayol mahbuba rolida bo‘ladi va ularning hissiyotlari tasviriga katta ahamiyat qaratiladi;

3) mustaqil shaxs sifatida: XX asrdan ayollarning jamiyatdagi roli kuchayib boshlaydi va ijodkorlar endilikda ayolning o‘z orzu va maqsadlariga erishishga intilishlari, ijtimoiy kamsitishga qarshi kurashishiga urg‘u qaratishadi;

4) ichki dunyosi: zamonaviy adabiyotda yozuvchilar ayol obrazining ruhiy holatini, ichki dunyosini va o‘ziga nisbatan munosabatini tasvirlashga harakat qiladi;

5) antik va mumtoz adabiyotda: dastlabki antik Yunon va Rim adabiyotida bu obraz idealizatsiya qilingan. Sevgi, go‘zallik va qahramonlik sifatida qaralgan. Mumtoz adabiyotda esa ma’shuqa sifatida tasvirlansa-da, uning tub zamirida Allohga bo‘lgan muhabbat ifodalangan.

Ayollarning tafakkuri, o‘ziga xos xususiyati, chidam va bardoshi kabi xislatlari badiiy asarlarda o‘z aksini topgan. Ularning yorqinligini, o‘ziga xos shaxs ekanligini ifodalash bo‘yicha nafaqat adabiyot namoyandalari, balki har bir san’at ahli turli nuqtayi nazardan o‘z tadqiqotlarini olib borishgan. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ayollar obrazini o‘rganish va tasvirlash, avvalo, gender muammolarini o‘rganishdan boshlanganligi ko‘zga tashlanadi. Ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning ifodalanishi, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oiladagi o‘rnini tahlil qilgan holda ayol obrazining nasrda tasvirlanishi kuzatiladi. Har bir milliy adabiyotda ayol obrazini tasvirlashga keladigan bo‘lsak, u o‘sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks ettirilganligini ko‘ramiz. Binobarin, bir xil sharoitda bir xil harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda turlicha gavdalanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida ayol obrazini chuqurroq ochib berishga harakat qilayotgan qator asarlar yaratilmoqda. Zamon almashinuvi bevosita ayollarning jamiyat bilan birgalikda adabiyotdagi roliga ham tasir ko‘rsatdi. Endilikda ularning ruhiyatida isyonkorlik hissi ham aks etmoqda. O‘zlarining hayoti boshqaruvini o‘z zimmalariga olishga qilgan harakati ijtimoiy hayotda ham, badiiy asarlarda ham odatiy jarayonga

aylandi. Shunday bo'lsa-da, ba'zi mualliflar asarlarida ayol personaji hali-hanuz itoatkor va taqdir izniga qarshi chiqmay yashashni maqbul bilishi ko'rsatiladi. Zamonaviy o'zbek nasrida o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan Isajon Sulton shunday ijodkorlarning biridir. Uning "Onaizorim" qissasi, "Men, onam va O'rta yer dengizi", "Tosh kelinchak", "Shamolli kecha", "Yog'och kovush", "Yusuf va Zulayho", "Bibi Salima" hikoyalari bularga misol bo'la oladi. Yozuvchining qaysi asarini tahlilga tortmaylik, Allohni sevuvchi, iymonli, sodda, jonkuyar, fidokor, sadoqatli, itoatkor ayol sifatida tasvirlanadi.

"Onaizor" qissasi orqali haqiqiy o'zbek ayolining butun boshli hayoti haqida batafsil hikoya qilib berilgan. Unda e'tibor qaratishimiz kerak bo'lgan jihatlaridan biri bu – tarbiya mavzusi. Hozirgi globallashuv davrida farzandni to'g'ri tarbiyalash eng muhim muommolardan biri hisoblanib, bu borada ko'plab olimlar, psixologlar turli tadqiqotlarni olib borishmoqda. Shunday tadqiqotlardan biri jonsiz narsalarga nisbatan bola munosabatini to'g'ri shakllantirish. Misol uchun, farzandingiz mashinangizga biror o'tkir jism bilan chizib zarar yetkazdi. Siz esa mashinangizni qimmat narxga olganingiz-u qanchadir pulga ta'mirlatishingiz haqida qattiq dakki berdingiz. Bu bolaning buyumlarga zarar yetkazmaslik haqida fikrini to'liq shakllantirmaydi va unga aksincha tasir qilishi ham mumkin. Eng samarali usul sifatida – bolaga jonsiz narsalarga ham ularning joni bordek munosabatda bo'lish hissini yaratish ekanligi ta'kidlanyapti. Ya'ni bunda mashinaning ham joni og'rishi va undan xafa bo'lish mumkinligi to'g'risida bolaga uqturish. "Onaizorim" qissasida keltrilgan quydagi parcha orqali o'zbek xalqida farzand tarbiyasidagi jarayon azal-azaldan to'g'ri yondashuvda ekanligini ko'rishimiz mumkin: "… Qizalog'im, har muomalaning o'z odobi bor. Mehmon kelsa, darrov yangi to'shaklardan opkelib solasan, fotiha qilingach, dasturxon yozasan. Dasturxonni teskari yozib bo'lmaydi, xafa bo'ladi, yuzimni teskari qildi deb. Kelgan kishi sanog'iga qarab to'rtta, oltita yoki sakkizta non, qand-qurs, meva-turshak qo'yasan. Nonni toq qo'yib bo'lmaydi. Nonni teskari qo'ysang, u ham dasturxonga o'xshab xafa bo'ladi". Asarda bundan tashqari yana juda ko'p o'rinlarda odob-axloq masalalariga bog'liq masalalar ochib berilgan.

Isajon Sulton asarlarida ona timsoliga tez-tez murojaat qiladi va bu timsollar xarakteri bir-biriga juda yaqin. "Men, onam va O'rta yer dengizi" va "Bibi Salima" hikoyalarida bu o'xshashlik yaqqol seziladi. Yozuvchining o'z onasi bilan Turkiyada o'tgan sayohat xotiralari haqida yozilgan "Men, onam va O'rta yer dengizi" hikoyasida onaning quyidagi so'zlari bor:

– Tavba, kimdir shunaqa joylarga kelib mahliyo bo'lib, maza qilib dam olib ketsa, meni o'ylaganlarimni qara, ¬– deb xushhol kuladi.

– Endi, shunaqaman-da, bolam. El-yurtsiz dengiziyam, tog'iyam tatirmidi? Mana, shuncha kun yurdik-u yeganim ichimga tushmadi. Xudo yaratib qo'ygan shu mo'jizalarni bir o'zim ko'rayotganimdan iymandim. Singillaring, amma-xolalaring, tog'ayu amakilaring, tumonat xalq turibdi u yoqda. Keyin chig'anoq parchasini ko'rsatdi.

– Shuni olvoldim. Suvda chiroyli ko'rinadi deding-ku? Oborib ko'rsatay, qulog'iga tutib shovullashiniyam eshitishsin. Xudo xohlasa, keyingi gal hammamiz kelamiz, o'shanda maza qilib yayraymiz".

"Bibi Salima" hikoyasida bosh qahramon Bibi Salima yashaydigan qishloqqa ocharchilik keladi. Uning qilgan duosi sababli keyingi yil hosillar mo'l-ko'l bo'lib, qishloqqa baraka yana qaytadi. Bibi Salima duosida faqat o'zi uchun so'rashni gunoh biladi. U hozirgi insonlar duchor bo'layotgan xudbinlikdan butunlay holi ekanligini quyidagi so'zlari orqali bilib olishimiz mumkin:

– Bolalarim, men Xudoyimdan mingdan ming roziman. Qarang-a, niyatni xolis qilaverish kerak ekan-da. Tavba, o'shanda o'zim uchun so'raganimda-yu Xudoyim bir bizgagina berganida nima bo'lardi? Qo'ni-qo'shnining ko'ziga qanday qarardik?

Bibi Salimaning tilidan keltirilgan bu misoli yuqorida keltirilgan hikoyadagi ona obrazi bilan mazmuni deyarli bir xil. Qahramonlardagi bu sifatlar yaqinlik bejizga emas. Isajon Sulton boshqa adiblardan farqli o'laroq ona obraziga prototip o'laroq o'z onasini tanlaydi.

Har bir mamlakatda ayol obrazini tasvirlash usuli turlicha qiyofalar, turlicha dunyoqarashlar bilan boyitilgan. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, o'zbek xalqining jahon xalqlari madaniy merosining munosib durdonalardan biri bo'lgan "Alpomish" dostonidagi Barchin obrazi vafo, fidoyilik, mardlik kabi yuksak fazilatlarni o'zida mujassam etgan. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi ayolning naqadar soddaligi, go'zalligi, odobi, betakrorligini adib mohirlik bilan namoyon qilib bera olgan. Zuhriddin Isomiddinov aytganidek, ayol bo'lmasa, adabiyot bo'lmas edi. Adabiyot, avvalo, ayolga atab, ayol uchun, uning ko'nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o'zi shuni anglash uchun yaralgan. Qushning ham erkagi sayraydi. So'z san'ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo'ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo ayol qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asaosiy qahramoni, bosh mavzusi – ayoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. –Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
2. I.Sulton. Asarlar. Romanlar va qissalar. 2-jild. –Toshkent, G'.G'ulom N.I.M.U. 2017.
3. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Fal. fan. –Toshkent, 2020. Б.267
4. Isomiddinov Z. Ikki ayol // Tafakkur. –2007. –Toshkent. 4-son. Б.47

Mastura SOTVOLDIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2- kurs magistri

QO‘QON AREALI FOLKLORIDA KUCHLI FONETIK O‘ZGARISHGA UCHRAGAN SO‘ZLAR

Annotatsiya: maqolada Qo‘qon areali folklorida kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar tahlil qilinadi. Har bir hududning o‘z shevasi mavjud bo‘lib, bu hududda yashovchilar nutqida uchragan barcha til unsurlariga, ushbu hududda tarqalgan folklor namunalariga ta’siri seziladi.

Kalit so‘zlar: *folklor, kelin salom, yor- yor, tovush tushishi, tovush ortishi, singarmonizm.*

Аннотация: в статье будут проанализированы слова, которые претерпели сильные фонетические изменения в фольклоре Кокандского Эяля. В каждой области есть свой диалект, влияние которого заметно на все языковые элементы, встречающиеся в речи жителей этой области, на образцы фольклора, распространенные в этой области.

Ключевое слова: *фольклор, свадебный салют, Йор - Йор, падение звука, увеличение громкости, сингармонизм.*

Annotation: the article analyzes words that undergo a strong phonetic change in Kokand aeali folklore. Each region has its own dialect, the influence of which is felt on all the linguistic elements encountered in the speech of the inhabitants of this area, on the samples of folklore that are distributed in this area.

Key words: *folklore, bridal salute, yor - yor, sound fall, sound increase, singormonism.*

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy bo‘lmagan til unsurlari negizida yangi so‘zlar ham yasalgan. Ularning asosiy qismi boshqa tillarga, lekin yasovchi unsuri o‘zbek tiliga oid bo‘ladi va u yasama so‘z o‘zbek tilidagina qo‘llanadi, masalan, *ishxona, bizneschi, tasvirchi* va boshqalar. Bular, albatta, shevalarda ham ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi va sheva mulki bo‘lib qoladi. Shevalarga xos bo‘lgan so‘zlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar.

Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi. Bu toifaga aksariyat hollarda qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlarni kiritish mumkin: *kelin biyi* – kelin oyi, acha – oyi. Shuningdek, boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarning shevada ko‘chma ma’no kasb etishi ham shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi: vejh-narsa, predmet (aslida vaj- aytilgan so‘z), zat-narsa (aslida kelib chiqishi ma’nosida), kasa-piyola (aslida *kosa* ovqat qo‘yiladigan idish) va h.k.

b) kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: *dьshan-tashqari,yorpeq* – turpoq, kavli – qo‘ngli va boshqalar.

Shevalarda o‘ziga xos ma’noni quyidagacha guruhlashtirish mumkin:

a) ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so‘zlar bilan yuritiladi: *chaqale* (Tosh) – *buvak* (Farg‘.) – *bela* (Shim.).

tuxum (Tosh) - *meyek* (“J”l) - *yimirta* (Xor). *chumeli* (Tosh) – *morche* (Sam) – *qarindja* (Xor). *chopchey* (Tosh) – *metel* (Sam) – *yertey* (Xor).

b) ayni bir so‘z shevalarda turlicha ma’noga ega bo‘ladi: shet– Toshkentda arava qismi nomi, Farg‘onada narvon; buvi – Toshkentda ota va onaning onasi, Farg‘onada ona ma’nosida; peshsha – Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Farg‘ona va shimoliy o‘zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

v) narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko‘ra turlicha nomlanishi mumkin.

Sheva vakillari tomonidan tildagi so‘zlar fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda talaffuz qilinadi va aytiladi. Shu jihatdan biz Qo‘qon areali folklori tarkibidan ham kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni tahlil qilishga harakat qildik:

Girbišinni kiyāvir, šabadada jurāvir,
Jāriŋni šāpir qilib, jānlarida jurāvir.
Ayag‘imda tobliča g‘arči bolsa juraman,
Har iš bolsa Xudādan, pešānamdan koraman.

Šā***pi***r (shofyor) – haydovchi, rus tilidan o‘zlashgan so‘z, kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z.

Tābliča (tuflicha) – oyoq kiyim, tufli. Rus tilidan o‘zlashgan bo‘lib, fonetik o‘zgarish bilan tafaffuz qilinadi. O‘zbek tilida ham aynan shu so‘z o‘z holicha kirib kelgan va keng qo‘llaniladi.

Haj-haj olan, ʒānim olan olanči qiz jār-jār -ā-hā olanči qiz,
Va’dasida turmagan-ā-hā jālg‘ānči qiz ha jār-jār ā-hā jālg‘ānči qiz.
Ahta-ahta kopirig-ā ahtiŋ bolsin, ha jār-jār ā-hā ahtiŋ bolsin[1].

Ahta-ahta ko‘prik – tahta ko‘prik. Kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan holda folklorda kuylangan. T harfi tushirilib qoldirilgan va shunday talaffuz qilingan.

1 Axborotchi: Mashrabxon Karimova.65 yosh.O‘zbekiston tumani.Oqmachit qishlog‘idan. 24.03.2024.

Tojga gilam tašlagan, bār-budini hashlagan,
Salām, salām jār-jār, kelin salām jār-jār,
Qabul aylaŋ ammalari sizlarga salām jār-jār[1].

Hashlagan – harj qilgan, pul yoki biron mol-mulk orqali sotib olingan narsa-buyum. Fonetik o‘zgarishga uchragan holda talaffuz qilingan. Tovush tushishi va tovush o‘zgarishiga uchragan.

Bittasi āg‘ajnisini korip qālip, dostim, seni mazang yāg‘ dep eşittim, tuzumisan? yaxšimisan endi? – ha tuzalmayapanda, -disa. Meŋa qara anāv mahallada bir ādam bārakan. E zor duxtirakan, pul āmasakan dipti. Osanŋa bir korindiŋmi dipti. Bopti bāramiz. Ortāg‘i bilan birga bārišipti. Bārip šundaj kirip; Assalāmu alaykum pul āmaydigan duxtir. Duxtiram mindaj qarap –Va alaykum assalām tuzalmaydigan kasal, -diyarmis.

Yog‘ – adabiy tilda yo‘q, bu so‘zda spontan o‘zgarish yuz beryapti. Spontan o‘zgarish bu – jaranglashish. U biror tovush ta’sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.[Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. [Toshkent, 2021. 44-bet.] Qo‘qon shevasida yana tarog‘, bojog‘, tüjog‘, sujag, kojlag kabi misollarda ham bu o‘zgarishni kuzatishimiz mumkin.

Anov – ko‘rsatish olmoshi ana u so‘zining sheva variant āvqatni birga jejišadi.

Dipti shevada adabiy tildagi “edi” to‘liqsiz fe’li di // ti tarzida uchraydi. Degan edi – fonetik o‘zgarishga uchrab, dipti shaklida foydalaniladi. I, II shaxsga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda esa duvdim // duvding shaklida ishlatiladi

Mindaj – bu olmoshi umuman kelishiklar bilan turlanganda yoki boshqa qo‘shimchalar qabul qilganda “b” tovushi qo‘shimchalardan oldi orttirilgan burun “n”tovushi ta’sirida “m” tovushi bilan almashadi. Bu yerga ko‘rsatish olmoshining shevada qo‘llanadigan variant kelgan.

– Qaraŋ, bittasi išdan kelip, qārni āčqap, xātinini čaqirip, āvqat-pāvqatiŋ bārmi? disa āvqat yāg‘idi disa, eee hey nimaŋ bār? Ha čāj bor, nān bār dipti, āpke dipti, āpkeganimiš, qarasa haligi nāndiyam diŋ, sal suvi qāčganrāg‘ nānakan. Bir bāla qip sindirvāpti-yu. Sindirib ālip, čājdi quyip, čājga bātirip, yeb otirip hajāl ketip qāpti ha esizgina-ya hāzir šu čājdi ornida bir kasagina qajnatma šorva boganda, maza qilib ičib otirardim dip tursa di, qošnisini og‘li kasa kotarip kep qoganimiš. E, og‘lim ehtiyot bop kelovir, op kelovir baqa disa, Haligi bola aytarmiški; tog‘a dadam ayttmi qošninikiga kirgin agar qaynatma šo‘rva qilgan bo‘sa, opčiqqin didi disa mindey qarap; obbo, ho‘y senlarni dastingdan bir narsani o‘ylabam bo‘maydimi? – diyarimiš

Āčqap – och qolib, ushbu so‘zda eliziya tovush tushishi bo‘lib, ikki xil ko‘rinishga ega, ya’ni ikki so‘z talaffuzida oldingi so‘z tarkibidagi unli tovushning tushishi va so‘z tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlangan undoshning tushib qolishidir. Ushbu so‘zda ham undosh “l” tushib, “i” esa “a” ga almashib, kuchli fonetik o‘zgarish natijasida bir so‘zga aylangan.

Ā***pke*** – olib kel, qo‘shma fe’lning ikkinchi fe’l-fe’l turi ham ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topib, birinchi qismdagi -a, -y, -ib, -b affiksli ravishdosh hisoblanadi va bu so‘zda “(i)b” tovushi jarangsiz “p” ga almashgan, ikkala qismdagi “l” esa deyarli tushirib qoldiriladi. Qo‘shma fe’llar ko‘p hollarda sodda fe’lga o‘zgaradi.

Qip – qilib, ushbu so‘zda ham eliziya hodisasini kuzatishimiz mumkin. Bu so‘zda “l” tovushining kuchsizlanishi natijasida “l” tovushi ham, undan keyin kelgan “i” tovushi ham tushib qolgan.

Baqa – shevalarda ham ravishlarning barcha ma’no turlari qo‘llanadi. Ravishlarning aksariyati adabiy til variantlariga yaqin, ba’zilari kuchli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi. Misol uchun; bu yer – bet, shu yer – shet, u yoqqa – aqä, bu yoqqa – baqä. Ushbu so‘zlarning barchasi Qo‘qon shevasida keng foydalaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qo‘qon arealidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘ziga xos dialektologik xususiyatlarga ega. Tadqiqotimiz davomida hududdagi namunalarda turli fonetik hodisalar, leksik farqlar, morfologik o‘zgarishlarni aniqlashga va ularni tahlil qilishga harakat qildik.

1 Axborotchi: Mashrabxon Karimova.65 yosh.O‘zbekiston tumani.Oqmachit qishlog‘idan. 24.03.2024

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.. – Toshkent, 2021. 38-39- betlar.
2.Mahmudov N. So‘z sandiqchasi. O‘zbek tilining izohli lug‘atchasi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun). – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.
3.Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2005
4.O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent. O‘qituvchi. 1981. 251-258- betlar.
5.Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati/ Tuzuvchilar: E.Begmatov, A.Madvaliyev. –Toshkent: Akademnashr, 2013. 528 -bet.

Nozima YULDASHEVA,
Namangan davlat universiteti
Lingvistika(o'zbek tili)
2-bosqich magistranti

ILMIY USLUB VA BADIIY USLUBNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola ilmiy va badiiy uslublarning qiyosiy tahliliga bag'ishlanadi. Ilmiy uslub aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan ifoda uslubi bo'lib, asosan ilmiy izlanishlar uchun mo'ljallangan. Badiiy uslub esa obrazli va tasviriy ifodalar orqali hissiy ta'sir ko'rsatadi va adabiyot va san'at asarlarida qo'llaniladi. Maqolada har ikki uslubning lingvistik xususiyatlari, uslubiy vositalari va kommunikativ funksiyalari o'rganiladi. Tahlil natijasida har bir uslubning o'ziga xos kommunikativ o'rni va ularning jamiyatdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ilmiy uslub, badiiy uslub, qiyosiy tahlil, lingvistik vositalar, kommunikativ funksiya, obrazli ifoda, estetik ta'sir.*

Аннотация: данная статья посвящена сравнительному анализу научных и художественных методов. Научный метод – это ясный, краткий и логичный способ выражения, предназначенный главным образом для научных исследований. Художественный стиль оказывает эмоциональное воздействие посредством образно-изобразительной выразительности и используется в произведениях литературы и искусства. В статье изучаются лингвистические особенности, методический инструментарий и коммуникативные функции обоих стилей. В результате анализа будет выделена уникальная коммуникативная роль каждого стиля и их значение в обществе.

Ключевые слова: *научный метод, художественный метод, сопоставительный анализ, лингвистические средства, коммуникативная функция, образное выражение, эстетический эффект.*

Annotation: this article is devoted to the comparative analysis of scientific and artistic methods. The scientific method is a clear, concise and logical way of expression, which is mainly intended for scientific research. Artistic style has an emotional effect through figurative and pictorial expressions and is used in works of literature and art. Linguistic features, methodological tools and communicative functions of both styles are studied in the article. As a result of the analysis, the unique communicative role of each style and their importance in society will be highlighted.

Key words: *scientific method, artistic method, comparative analysis, linguistic tools, communicative function, figurative expression, aesthetic effect.*

Kirish. Bugungi kunda turli fan va san'at sohalarida ilmiy va badiiy uslublarning roli va ahamiyati yuksak darajada.Ilmiy uslub ko'proq akademik izlanishlar, ilmiy ma'ruzalar va texnik yozuvlarda ishlatilsa, badiiy uslub badiiy adabiyot, ijodiy yozuvlar va san'at asarlarida keng qo'llaniladi.Bu ikki uslubning o'ziga xos kommunikativ vazifalari mavjud. Ilmiy uslub aniq ma'lumot berish va tushuntirish maqsadida qo'llanilsa, badiiy uslub o'quvchiga hissiy va estetik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Ushbu maqola ilmiy va badiiy uslublarning qiyosiy tahlili orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot qiyosiy va analitik metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi. Metodologiyaning asosiy jihatlari quyidagicha:

1. Analitik tadqiqot: ilmiy va badiiy matnlar tahlil qilindi, ularning stilistik va lingvistik xususiyatlari o'rganildi.

2. Qiyosiy metod: har bir uslubning til vositalari va uslubiy xususiyatlari qiyoslandi.

3. Misollardan foydalanish: ilmiy va badiiy uslublarning har biri uchun matnli misollar keltirildi, bu uslubiy farqlarni yanada yaqqolroq ko'rsatishga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil natijasida ilmiy va badiiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

Ilmiy uslubning xususiyatlari:

Aniq va lo'nda: Ilmiy uslub qisqa va aniq jumlalar orqali fikrlarni ifodalashga qaratilgan. Masalan, fizik qonun yoki matematik formulalar kabi tushunchalar aniq va izchil tushuntiriladi.

Obyektivlik: ilmiy uslub subyektiv hissiyotlardan yiroq bo'lib, asosiy e'tibor fakt va dalillarga qaratiladi.

Terminologiya va maxsus lug'at: ilmiy matnlarda ko'pincha soha terminologiyasi va maxsus lug'at ishlatiladi, masalan, biologiyada "genom" va "mitoxondriya" tushunchalari.

Badiiy uslubning xususiyatlari.

Obrazli va hissiy ifoda: badiiy uslubda fikrlar turli tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, metafora,

o‘xshatish, ironiyadan keng foydalaniladi.

Subyektivlik: badiiy uslubda muallifning hissiyotlari va shaxsiy qarashlari aks ettiriladi. Masalan, she’riy satrlar hissiyot va estetik ta’sirni kuchaytiradi.

Matn tuzilishi: badiiy matnlarda tasviriy va hissiy ifodalar keng joy olgan bo‘lib, o‘quvchini muayyan kayfiyatga kiritish uchun so‘z tanlash va jumla qurilishi o‘zgacha bo‘lishi mumkin.

Misollar orqali tushuntirish.

Ilmiy va badiiy uslublarning farqlari yanada aniqroq tasvirlanishi uchun quyidagi misollardan foydalanish mumkin:

Ilmiy uslub: “suv 0°C da muzlaydi va 100°C da qaynaydi.”

Ushbu jumlada ilmiy aniq va qat’iy faktlar ifodalangan, hech qanday subyektiv hissiyot mavjud emas.

Badiiy uslub: “Oq bulutlar osmon bag‘rini yarib chiqayotgan g‘ayratli yosh yigitlardek harakatlanadi.”

Ushbu jumlada o‘xshatish va metaforalardan foydalanilgan, bu esa o‘quvchining hissiyotiga ta’sir etadi va tasavvurida obraz yaratadi.

Munozara.

Ilmiy va badiiy uslublarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o‘rni juda muhim. Ilmiy uslub odamlarning bilimlarini oshirishga, ilmiy kashfiyotlar qilishga va texnologiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy uslub esa insonlarning hissiy hayotini boyitishga, estetik tuyg‘ularini o‘stirishga va jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy uslubda qat’iy terminologiyaga asoslanib, aniq ma’lumotlar bilan ta’minlashga urinish bo‘lsa, badiiy uslub esa hayotiy voqeliklarni estetik jihatdan bezab, o‘quvchini chuqurroq hissiy holatga kirita oladi.

Shuningdek, ba’zi hollarda ushbu uslublarning kombinatsiyasi, masalan, ilmiy maqolalarni ommalashtirishda yoki badiiy matnlarda ilmiy bilimlarni kiritishda qo‘llanishi mumkin. Bu o‘quvchiga qiziqarli va tushunarli tarzda bilim berishga yordam beradi.

Ilmiy uslub va badiiy uslub mohiyatan turli funksiyalarga xizmat qilsa-da, ular o‘ziga xos ifoda shakllari, vositalari va maqsadlarining farqlari orqali bir-birini to‘ldiradi. Ilmiy uslubning asosiy maqsadi aniq va mantiqiy asoslangan bilimni uzatishdan iborat bo‘lib, bunda tushunchalar va atamalar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Matn obyekti haqida xolis va neytral ma’lumot berish uchun qat’iy strukturaga amal qilinadi, mantiq va dalillarga asoslanadi. Badiiy uslub esa inson tuyg‘ularini, hayotiy voqealarni va hissiy tajribalarni estetik shaklda ifodalashga qaratilgan. Unda obrazlilik, badiiy-tasviriy vositalar va emotsional ta’sir muhim o‘rin tutadi. Ushbu uslubning erkinligi va subyektivligi uni ilmiy uslubdan ajratib turadi. Shunday qilib, bu ikki uslubning o‘zaro qiyosi quyidagi xulosani beradi:

1. Ilmiy uslub axborotni aniq va mantiqiy yetkazishni ta’minlasa, badiiy uslub o‘quvchida hissiy rezonans uyg‘otadi.

2. Ular turli sohalarda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, har biri tilning imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

3. Ilmiy va badiiy uslublarning birlashtirilishi (masalan, ilmiy-ommabop uslubda) matnning nafaqat mazmuniy, balki hissiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin.

Badiiy matn va ilmiy matnning rasmiylashtirish o‘rtasidagi farq nimada, degan savol tug‘iladi. Birinchidan, nafaqat mazmun, balki shakl ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matn ijodkori - so‘z ustasi. U o‘z fikrlarini ideal shaklda tasvirlashga harakat qiladi, shuning uchun u troplar - jarangdor epitetlar, yorqin, jozibali taqqoslashlar, giperbolalar, parallelizmlardan faol foydalanadi. Ammo ilmiy matnlarda bunday imkoniyatlar mavjud emas. Ilmiy matn muallifining nutqi doimo to‘g‘ri, o‘rganilayotgan mavzu yoki hodisani batafsil va aniq tasvirlashi kerak bo‘ladi. Albatta, tadqiqotchi o‘z ishining obyektini iloji boricha batafsil tavsiflashi uchun taqqoslash va ta’riflardan foydalanishi mumkin. Har qanday bo‘rtirishlar va yumoristik yondashuvlarga ilmiy matnda qat’iy yo‘l qo‘yilmaydi.

Badiiy adabiyotdan ilmiy adabiyotning yana bir farqi qahramonlarning bor yoki yo‘qligidir. Demak, nasriy yoki she’riy asarda xarakter bo‘lishi kerak. Masalan, “O‘tgan kunlar” asarida Otabek, Kumush, Zaynab obrazlari o‘ziga xos xarakter bilan yaratilgan. Asar davomida ular bilan turli voqealar sodir bo‘ladi, qahramonlar shaxsiy evolyutsiyaga uchraydi va bir-biri bilan muloqot qiladi. Ba’zi qahramonlar asosiy, muallifning niyatini yuzaga chiqarish uchun kalit, boshqalari ikkinchi darajali bo‘lib, bosh qahramonlar bilan har qanday vaziyatni o‘ynash yoki yozuvchining g‘oyalarini ifodalash uchun zarurdir. Badiiy asardagi alohida personajlar hikoya davomida nobud bo‘lishi mumkin, bu ham yozuvchiga o‘z o‘quvchisiga muhim ma’lumotlarni yetkazish imkoniyatini beradi.

Ilmiy asarlarda hamma narsa boshqacha. Ularda qahramon yo‘q. Albatta, tadqiqot predmeti va obyektini shartli ravishda qahramonlar deb atash mumkin, ammo ular bilan sodir bo‘ladigan voqelikda muallifning fantaziyasi mavjud bo‘lmaydi. Olimlar barcha faktlarni o‘zlarining kuzatishlari asosida taqdim etadilar, ehtimol, farazlar bo‘lishi mumkin. Masalan, fanga noma’lum hasharotni tavsiflashda, entomolog u yoki bu organning yuzaga kelishini faraz qilishi mumkin. Shuning uchun, ilmiy matnda “biz ishonamiz”, “biz faraz qilamiz”, “gipoteza” so‘zlari mavjud bo‘ladi. Bosqichmabosqich, boshqa ishlarda har bir gipoteza faktlar bilan tekshiriladi, rad etiladi yoki tasdiqlanadi.

Xulosa. Ilmiy va badiiy adabiyotning yana bir farqi ularning turli janrlardan foydalanishidir. Shunday qilib, badiiy adabiyot nasr va nazmga bo‘linishi bilan ajralib turadi, ular ichida hikoya, qissa, roman va nazmning turli janrlari mavjud. Har bir janrning o‘ziga

xos xususiyatlari va farqlanuvchi jihatlari bor. Ilmiy ishlar dunyosi ham xilma-xil janrlarga ega: risola, maqola, monografiya, tezis, taqriz, ilmiy hisobot va boshqalar

Ilmiy va badiiy uslublarning qiyosiy tahlili ularning til va uslub vositalaridan foydalanishdagi o‘ziga xosliklarini ochib beradi. Ilmiy uslub aniq, qisqa va obyektiv bo‘lib, ko‘proq ilmiy, texnik va akademik sohalarda ishlatiladi. Badiiy uslub esa obrazli va hissiy ifodalar orqali san’at va adabiyot sohalarida keng qo‘llaniladi. Bu ikki uslubning farqli va o‘xshash tomonlarini bilish nafaqat tilshunoslik uchun, balki ularni qo‘llash doirasida samaradorlikni oshirish uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Asarlar: 3 jildlik. 1-jild: Shalola. – Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.

2. Begmatov, E., Boboeva, A., Asomiddinova, M., Umurqulov, B. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent, 1998

3. Botyrova, M., Bozorova, G. (2023). The use of metaphor in fiction. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 3 (1 Part 2), 82-89.

4. Botirova, M., Qayumova, M. Language Characteristics of Phraseological Units. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 2022, 1(1), 80-83.

5. Sanjarov I.S. Badiiy matnning lingvistik mohiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021, 1(3), 46-51.

Umidaxon MAXMUDOVA,
O‘zMU magistranti
umidaxongulomova6@gmail.com

ASHURALI ZOHIRIY VA “ADABIYOT PARCHALARI” XRESTOMATIYASI

Annotatsiya: maqolada jadid davrida tuzilgan xrestomatiyalar, xususan, Abdulla Avloniyning “Maktab gulistoni” va Cho‘lpon va Ashurali Zohiriy tomonidan tuzilgan “Adabiyot parchalari” to‘plamlari haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: *xrestomatiya, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy, Abdulla Avloniy, jadid adabiyoti.*

Аннотация: в статье даны комментарии к хрестоматиям, составленным в современный период, в частности, «Школе Гулистана» Абдуллы Авлони и «Фрагментам литературы», составленным Чолпоном и Ашурали Захири.

Ключевые слова: *хрестоматия, Чолпон, Ашуралы Захири, Абдулла Авлони, современная литература.*

Annotation: the article commented on the chrestomaties compiled in the modern period, in particular, "School Gulistan" by Abdulla Avloni and "Fragments of Literature" compiled by Cholpon and Ashurali Zahiri.

Key words: *chrestomatiya, Cholpon, Ashurali Zahiri, Abdulla Avloni, modern literature.*

Ashurali Zohiriy 1885-yilda Qo‘qon shahri yaqinidagi Oyim qishlog‘ida tavallud topadi. U dastlab shu yerdagi eski usuldagi maktabda, so‘ng Madalixon madrasasida ta’lim oladi. Keyinchalik rus-tuzem maktablarida o‘zbek tili va adabiyotidan dars beradi. Qo‘qonda “G‘ayrat” nomli xususiy nashriyot tashkil etgan. “Sadoyi Farg‘ona” (1916-1921), “Farg‘ona” (1922-28) gazetalarida adabiy xodim bo‘lib ishlagan. “Dorulmuallimin” maktabini tashkil etgan. S.Oqsoqov bilan hamkorlikda maktab o‘quvchilari uchun “Turkiy xrestomatiya yoki terma kitob” darsligini tuzgan (Qozonda nashr etilgan, 1916). Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “Vaqfiya” asarlari ustida matnshunoslik tadqiqotlari olib borgan. Cho‘lpon bilan hamkorlikda “Adabiyot parchalari” to‘plamini nashr ettirgan (1926). 1937-yilda ikkinchi bor qamoqqa olingan va qatl etilgan [1].

Jadid adabiyoti bo‘yicha tadqiqot olib borgan Begali Qosimov, Hamidulla Boltaboyev, Muhabbat Qurbonova kabi olimlar Ashurali Zohiriyning ilmiy faoliyatiga o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tganlar. Shuningdek, “Ashurali Zohiriy – yurt va millat fidoyisi” maqolalar to‘plami nashr etilgan [2], Normatov Sultonbek Ermatovich “O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni” mavzusida Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida Ashurali Zohiriyning lug‘atshunoslik faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tgan [3]. Tog‘ayev To‘lqin Mamazarovich “Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi” monografiyasida uning tilshunoslik faoliyatini batafsil yoritib bergan [4]. Ushbu maqolada esa Ashurali Zohiriyning xrestomatiya

tuzishdagi xizmatlari va uning majmuasiga oid fikrlar berildi.

20-asr boshlarida jadidlar tomonidan xrestomatiyalar tuzishga bo‘lgan ehtiyoj ta’limni zamonaviylashtirish va ma’naviyatni oshirish uchun muhim qadam bo‘ldi. Xrestomatiyalar yangi usul maktablari o‘quvchilari uchun tuzilgan maxsus o‘quv qo‘llanmasi vazifasini bajardi. Ular, asosan, o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy bilimlarni singdirish uchun foydalanilgan.

Xrestomatiya (yun. Chrestos – foydali va manthano – o‘qiyman) – ta’limning biror sohasi bo‘yicha muayyan ichki tamoyillar asosida tartib bilan berilgan o‘quv kitobi. Xrestomatiya o‘zbek tilida “majmua” deb ham yuritiladi. Ular ilmiy, badiiy, memuar, publitsistik asar yoki ulardan olingan parcha yoxud turli hujjatlardan iborat bo‘lishi mumkin. Umumta’lim maktablari amaliyotida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi deyarli barcha fanlar bo‘yicha xrestomatiya tuzish tajribasi mavjud. Xrestomatiya atamasi ilk bor mil. 4-asrda yunon grammatigi Elladiy tomonidan yunon yozuvchilarining asarlaridan olingan parchalar to‘plamiga nisbatan qo‘llangan. Shundan buyon Yevropa ta’lim tizimida bu didaktik ashyodan foydalanib kelinadi. Qadimgi Turkiston maktabxona va madrasalaridagi ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil o‘qishi uchun foydalanilgan bayoz-u kulliyotlar ham o‘ziga xos xrestomatiya hisoblangan [5].

10-yillarning boshida, bemalol aytish mumkinki, yangi adabiyot shakllanib ulgurgan edi.Bu borada 1901-yildan chop etila boshlagan Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Saidrasul Aziziyning (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), so‘ngroq Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, Rustambek Yusufbekov (1880-1950)ning “Ta’limi avval”, “Ta’limi soniy” kabi darslik va darslik-majmualari, xususan, ulardagi ixcham didaktik she’r va hikoyalar yangi adabiyotning shakllanishida ilk tajribalar vazifasini o‘tadi [6].

Yuqorida sanalgan asarlar yangi usul maktablari uchun darslik vazifasini o‘tadi. Jarayonda Munavvarqori Abdurashidxonov “Sabzavor”, Abdulla Avloniy “Maktab gulistoni”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, Elbek “Go‘zal yozg‘ichlar”, Abdulhamid Sulaymon va Ashurali Zohiriy “Adabiyot parchalari”, Hoji Mu’in “Milliy she’rlar yoxud adabiyot” xrestomatiyalari tuzildi. Xususan, Abdulla Avloniyning “Maktab gulistoni” xrestomatiyasi 31 ta she’rdan iborat. Undagi she’rlar rus yozuvchisi Krilovdan olingan 2 ta tarjima va qolgan barchasi Avloniyning o‘ziga tegishli she’rlardan tuzilgan. Ma’lumki, Abdulla Avloniy Hijron taxallusi bilan ijod qilgan. Majmuadagi she’rlar Hijron taxallusi bilan yozilgan. Asar 1916-yilda ilk bor Yakovlev litografiyasida nashr qilingan. Avloniyning majmuasida axloq masalasi asosiy o‘rinda turadi. Bu majmuada islom farzlari: namoz, ro‘za, zakot, haj haqida alohida she’rlar berilgani orqali ko‘zga tashlanadi.

Abdulhamid Sulaymon va Ashurali Zohiriy tomonidan tuzilgan xrestomatiya Avloniynikiga nisbatan mukammal va ko‘p yozuvchilar asarlarini o‘z ichiga oladi. Majmua boshida noshir yozadi: “Qo‘lingizga berilgan “Adabiy parchalari” kitobi katta maktablarimizda o‘qig‘uchi talabalar uchun terma darslik – xristomatiya ravishida bosdirish istagi bilan atoqli adib, yozuvchilarimizdan tuzilgan edi. Biroq “terma darslik – xristomatiya” uchun adabiy materiallarg‘ina yetmadi, kitobni siyosiy va ijtimoiy, fanniy, usul ta’lim-tarbiya jihatidan yana ko‘b materiallar bilan to‘lg‘azish kerak bo‘ldi…” [7].

Xrestomatiyada bir qancha kamchiliklar ko‘zga tashlanadi:

1. Parchalar she’riy va nasriy janrlarga ajratilmagan holda aralash berilgan;
2. Tarjima asarlar qismi alohida qilinmagan (odatda, oddiy darsliklarda ham tarjima asarlar uchun alohida qism ajratiladi);
3. Mumtoz adabiyot namunalaridan parcha olingan holda u parcha aynan qaysi manbadan olingan aytilmagan, faqat muallif ismi berilgan (masalan, Navoiy yoki Bobur g‘azallaridan misol keltirib, uning qaysi devondan olinganligi aytilmagan);
4. Mualliflar yoki asarlar nomi alifbo tartibida terilmagan.

Ushbu xrestomatiya 1925-yilda ilk marta nashr etilgan va unda 63 ta asar berilgan. Keyingi nashr esa 1926-yil amalga oshirilgan. Ikkinchi nashrda “Hunarmand qushlar”, “Xudoyorxon”, “Lutfiy”, “Navoiy olti yoshda”, “Aldoqchi eshonlar to‘g‘risida” kabi asarlar qo‘shilgan. Majmuaning 1926-yilgi toshbosma nashri hozirgi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda. Toshbosma 224 betdan iborat va 14*20 shaklida nashr etilgan. Matn yaxshi saqlangan, faqat bir nusxada mavjud. Tadqiqotchi Shahnoza Nazarova tomonidan tuzilgan “Jadid kulliyoti” to‘plami doirasida tabdil qilingan “Adabiyot parchalari” to‘plami 144 betdan iborat va toshbosmadan hajman kichik, lekin ichki matn o‘zgarmagan. Toshbosma nashrda ayrim tuzatishlar va isloh qilingan eski o‘zbek yozuvi hisobiga matn hajmi ko‘p bo‘lgan.

“Majmuada o‘zidan sal oldinroq nashr etilgan, Elbek tomonidan tartib berilgan “Go‘zal yozg‘ichlar”da uchramaydigan yana bir jihat – Navoiy va Forobiy haqida alohida tanishtiruv maqolalar keltirilishidir”, - deb yozadi tadqiqotchi Saodat Fayziyeva. “Adabiyot parchalari”da ham she’riy, ham nasriy parchalardan iborat. Masalan, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidan olingan “Chaqimchilik” parchasi, Boburdan nomi ostida uning g‘azallari, shuningdek, jadid davri ijod namunalarini uchratishimiz mumkin. Majmuada tarjima sifatida hind yozuvchisi R. Tagurdan “Chirog‘lar” nomli parcha, Hulkar ismli shoiraning “Bahor keldi” she’ri ham keltirilgan (u majmuada asari kelgan yagona ayol

muallif).

Jadid davrida yangi usul maktablari uchun maxsus qo'llanmalar tuzish ehtiyoji natijasida xrestomatiyalar jamlash yo'lga qo'yildi va bayoz-u kulliyotlarning yangi avlodi sifatida ushbu majmualar yaratildi. Hozirgacha fanning turli tarmoqlarida xrestomatiyalar tuzib kelinmoqda. Garchi ular dastlab yaratilgan xrestomatiyalardan tuzilish jihatdan farq qilsa ham jadid xrestomatiyalari keyingi majmualar uchun tayanch vazifasini o'tab berdi, desak bo'ladi. Hozirgi kunda jadid xrestomatiyalarini o'qish orqali zamonaviy kitobxon o'tgan asrning sara asarlari parchalari va mualliflari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'ziga yoqqan parchalarning butun matnini topib tanishishi mumkin. Bu kabi sabablar jadid majmualari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wikipedia.
2. ASHURALI ZOHIRIY – YURT VA MILLAT FIDOYISI: maqolalar to'plami; ilmiy-publitsistik nashr. – Farg'ona: Farg'ona, 2021.280-b.
3. Normatov S. O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni. – Toshkent, 2019. – 240 b.
4. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.136-b.
5. Wikipedia.
6. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov Sh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.296-b.
7. Abdulhamid Sulaymon va Ashurali Zohiriy. Adbiyot parchalari. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023. 144- b.

Zumrad NURULLAYEVA,
Chirchiq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistri
E-mail: zumrad.nurullayeva@gmail.com

ADABIYOT FANIDA NAZARIY TUSHUNCHALARNI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILAR IJODKORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot fanidagi adabiy nazariy tushunchalarni o'quvchilarga samarali o'rgatish usullari tahlil qilinadi. Maqolada adabiy nazariy bilimlarning ahamiyati va ularni ijodiy yondashuvlar orqali o'rgatish metodlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *metodika, adabiy nazariy tushunchalar, ijodkorlik, syujet, janr.*

Аннотация: в данной статье анализируются методы эффективного преподавания студентам литературно-теоретических концепций. В статье рассматривается значение литературно-теоретических знаний и методы их преподавания посредством творческих подходов.

Ключевые слова: *методология, литературно-теоретические концепции, творчество, сюжет, жанр.*

Annitation: *this article analyzes the methods of effectively teaching literary theoretical concepts to students. The article discusses the importance of literary theoretical knowledge and methods of teaching them through creative approaches.*

Key words: *methodology, literary theoretical concepts, creativity, plot, genre.*

Adabiyot fanida nazariy tushunchalar – asarlarni tahlil qilish va ularni chuqurroq anglash uchun muhim vositalardan biri sanaladi. Ushbu tushunchalarni o'quvchilarga samarali o'rgatish nafaqat ularning badiiy didini rivojlantiradi, balki ijodkorlik salohiyatini ham oshiradi. Maqolada adabiy nazariy bilimlarning ahamiyati va ularni ijodiy yondashuvlar orqali o'rgatish metodlari muhokama qilinadi.

Z. Mirzayeva hamda K. Jalilov muallifligidagi 2020-yilgi "Adabiyot fani milliy o'quv dasturi" da quyidagi fikrlar keltirilgan:

"Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishdan bosh maqsad sog'lom e'tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o'zga inson tuyg'ularini his qiladigan, o'z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Dasturda badiiy matn ustida ishlash, ya'ni o'quv tahlili adabiyot o'qitishdagi eng asosiy yumush ekani ko'zda tutildi. Tahlil jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tafakkur darajalari, ruhiy rivojlanish bosqichlarining ho-

latlarini hisobga olish yo‘llari belgilandi. Matn ustida mustaqil ishlash o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, badiiy tahlil va nutqiy kompetentlikka o‘rgatadi”.

Adabiy nazariy tushunchalar ijodkorlik uchun zamin yaratib beradi.

Adabiyot fanida nazariy tushunchalar o‘quvchilarga badiiy asarlarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Ushbu bilimlar ularga quyidagilarga yordam beradi:

Asarning tuzilishini tushunish: syujet, kompozitsiya, janr va voqealar rivoji haqida tasavvur hosil qilish.

Badiiy vositalarni anglash: sifatlash, metafora, ramz, qiyos kabi vositalar orqali asarning estetik qiymatini ko‘rish.

Muallif uslubini tahlil qilish: har bir ijodkorning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

Nazariy bilimlar orqali o‘quvchilar badiiy asarlarni o‘qishda faollashadi va ijodiy tasavvurlarini boyitadi. Ular o‘zlari ham yozma va og‘zaki faoliyatlarda bu bilimlarni qo‘llay boshlaydilar.

Adabiyot fanidan o‘quvchilarga o‘rgatiladigan nazariy ma’lumotlarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1	**xalq og‘zaki ijodiga oid nazariy ma’lumotlar**	(xalq qo‘shiqlari, xalq dostonlari …)
2	**she’riy vaznlar haqida**	(barmoq vazni, aruz vazni …)
3	**she’riy san’atlar**	(talmeh, tajnis, tanosub …)
4	**adabiy janrlar**	(roman turlari, qit’a, fard …)
5	**asar mazmuniga oid ma’lumotlar**	(asar pafosi, badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili, tasavvuf adabiyoti …)
6	**badiiy obraz**	(komil inson tasviri, badiiy obraz …)
7	**asar syujetiga oid**	(syujet, konflikt …)

7-sinf adabiyotidagi nazariy ma’lumotlar:

1	Ballada	She’riy janr
2	She’r vaznlari	She’r vazni
3	Roman va uning turlari	Nasriy janr
4	Ramziy obrazlar	Badiiy obraz
5	Badiiy obraz va mubolag‘ali tasvir	Badiiy obraz va she’riy san’at
6	Tashbih, tanosib va irsoli masal	She’riy san’at
7	Chiston	She’riy janr
8	Qofiya va radif	She’r vazni
9	Ko‘chim	She’riy san’at

8-sinf adabiyotidagi nazariy ma’lumotlar:

1	Aruz vazni	She’r vazni
2	Tuyuq	She’riy janr
3	Fard	She’riy janr
4	Talmeh	She’riy san’at
5	Irsoli masal	She’riy san’at
6	Tajnis	She’riy san’at
7	Tragediya	Dramatik janr
8	Roman shakllari	Nasriy janr

9-sinf adabiyotidagi nazariy ma’lumotlar:

1	Xalq dostonlari	Xalq og‘zaki ijodi
2	Komil inson	Badiiy obraz
3	Lirika haqida	She’riy janr

4	G‘azalda badiiy tasvir vositasining o‘rni	She’riy san’at
5	Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili	asar mazmuniga oid ma’lumotlar
6	Badiiy asar pafosi haqida	asar mazmuniga oid ma’lumotlar

Aruz vazniga oid ma’lumotlarni o‘rgatishda **Abdurauf Fitratning “ Aruz haqida”** kitobidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shuni aytib o‘tish joizki, Fitratning “Aruz haqida” asari turkiy aruz qoidalarini sodda usulda taqdim qilgan. Aruz vazni imkoniyatlarini sun’iylikdan qutqarish maqsadi bilan olim **“chirmanda usuli”**ni taklif qiladi.

O‘quvchilarga adabiy janr turlariga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish muhim hisoblanishi mumkin, lekin undan ham muhimrog‘i o‘quvchilarda adabiyotga, badiiy asar o‘qishga qiziqish hosil qilish. Bunda badiiy asarlarni mavzu yo‘nalishiga qarab ajratib chiqish va ulardan o‘zi yoqtiradigan mavzularini aniqlab olishimiz zarur.

Badiiy asarlar mavzu yo‘nalishlari: **Mualliflari:**

1	**Sarguzasht**	
2	**Fantastik**	
3	**Romantik**	
4	**Detektiv**	
5	**Hajviy**	
6	**Tarixiy**	
7	**Biografik**	
8	**Didaktik**	

Badiiy asar mavzulari o‘quvchilarning yoshiga qarab turlicha bo‘lishi, o‘zgarib borishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar dastlab ko‘proq sarguzasht va fantastik asarlar o‘qishga qiziqishsa, keyinroq ularda romantik va detektiv mavzularga qiziqish uyg‘onadi. Mavzular bilan birgalikda o‘quvchilarga shu yo‘nalishdagi mashhur ijodkorlarni ham tanishtirib borsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Masalan:

Detektiv asarlar: Agata Kristi, Artur Konan Doyl, Tohir Malik;

Fantastik asarlar: Joan Rouling, Jyul Vern . . .

Adabiy nazariy tushunchalarni quruq o‘rganish o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otmasligi mumkin. Shuning uchun nazariyani ijodiy va amaliy mashg‘ulotlar bilan birlashtirish samarali natijalar beradi. Ijodkorlikni rivojlantirish usullari:

1. Amaliy topshiriqlar orqali tushunish

Badiiy asarlarni tahlil qilish: mashhur she’r yoki hikoya ustida ishlash orqali o‘quvchilar epitet, metafora kabi vositalarni mustaqil aniqlashni o‘rganadilar.

Syujet yaratish: o‘quvchilarga oddiy voqealarga asoslangan syujet yozish topshirig‘i beriladi. Bu, ularda janr va kompozitsiya tushunchasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

2. Rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Badiiy asar syujetini sahnalashtirish yoki qahramonlar orasidagi dialoglarni jonlantirish orqali o‘quvchilar adabiy obrazlarni yaxshi tushunadilar va ijodkorlik bilan ishlaydilar.

3. Nazariya va amaliyotni birlashtirish

Ijodiy yozuv mashg‘ulotlari: o‘quvchilarga muayyan nazariy tushunchalarni qo‘llab, hikoya yoki she’r yozish vazifasi beriladi. Masalan, “metafora va ramzlardan foydalangan holda kichik she’r yozing”.

Badiiy tahlil va muhokama: o‘quvchilar o‘z asarlarini guruhda taqdim etib, bir-birlarining ishlarini tahlil qilishadi.

4. Texnologiyalardan foydalanish

Interaktiv prezentatsiyalar, onlayn viktorinalar va audio-vizual materiallardan foydalanish nazariy tushunchalarni tushuntirishni qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Masalan, ramzlar yoki epitetlardan foydalangan mashhur asarlarning video sharhini tomosha qilish orqali tushunchalar mustahkamlanadi.

Amaliy she’r topshiriqlariga misol:o‘quvchilarga she’riyatni o‘rgatishda qatorlar **o‘rnini o‘zgartirib,** keyin uni mazmuniga moslab joylashtirib chiqish ham yaxshi natija beradi.

Bunda asosan **to‘rt qatorli she’rlar:** qit’a, ruboiy, murabba’, to‘rtliklardan foydalanish ma’qul.

Quyidagi ruboiydagi qatorlar o‘rnini mazmuniga moslab joylashtirib chiqing.

Keldilar, ketamiz, kelishar, ketar. (4)
Hammasi izma-iz birma-bir o‘tar. (2)
Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy, (3)
Keksa, yosh — hayotga har kimki yetar — (1)

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fanida nazariy tushunchalarni o‘rgatish jarayoni o‘quvchilarni nafaqat bilimga ega qilish, balki ijodkorlik salohiyatini oshirishga ham qaratilgan bo‘lishi kerak. Amaliy va ijodiy yondashuvlar yordamida nazariy bilimlar quruq faktlar yig‘indisi emas, balki o‘quvchilarni badiiy dunyoni tushunishga, asar yozishga va ijodiy o‘sishga undaydigan vositaga aylanadi. Shu yo‘l bilan adabiyot o‘qitish yanada mazmunli va ta’sirchan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot fani milliy o‘quv dasturi. Z. Mirzayeva, K. Jalilov –T., 2020
2. Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Doktorlik dissertatsiyasi – T., 1997
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. . –T.: G‘afur G‘ulom,2020
4. 7-sinf adabiyot darsligi –T., 2022

Farog‘at ISMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti magistranti

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA QADIMGI INONCHLARNING POETIK KO‘RINISHLARI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada o‘zbek xalq qo‘shiqlarida qadimgi inonchlarning poetik ko‘rinishlari chuqur tahlil qilinadi. Xalq qo‘shiqlarida o‘zbek xalqining diniy, falsafiy va hayotiy tasavvurlari, qadimiy inonchlari o‘zining poetik ifodasini topgan. Qo‘shiqlarda ifodalangan qadimgi inonchlar va ularga asoslangan poetik tasvirlar xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va urf-odatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xalq qo‘shiqlarida mavjud bo‘lgan qadimgi inonchlar, ularning badiiy tahlili va folklor adabiyotidagi o‘rni, shuningdek, o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida qanday saqlanib kelgani ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq qo‘shiqlari, qadimgi inonchlar, poetika, folklor, diniy tasavvurlar, tabiat, xalq an'analari, folklor elementlari, poetik tasvirlar.*

Аннотация: в данной научной статье проводится глубокий анализ поэтических проявлений древних верований в узбекских народных песнях. В народных песнях нашли свое отражение религиозные, философские и жизненные представления узбекского народа, а также древние верования. Эти верования и связанные с ними поэтические образы играют важную роль в понимании мировоззрения народа, его моральных норм и обычаев. В статье рассматриваются древние верования, их художественный анализ, а также их место в фольклорной литературе, а также как они сохранились в культурном наследии узбекского народа.

Ключевые слова: *узбекские народные песни, древние верования, поэтика, фольклор, религиозные представления, природа, народные обычаи, фольклорные элементы, поэтические образы.*

Annitation: this scientific article provides an in-depth analysis of the poetic manifestations of ancient beliefs in Uzbek folk songs. The folk songs reflect the religious, philosophical, and existential concepts of the Uzbek people, as well as ancient beliefs. These beliefs and the poetic images associated with them play a crucial role in understanding the worldview, moral values, and customs of the people. The article explores the ancient beliefs, their artistic analysis, and their place in folklore literature, as well as how they have been preserved as part of the cultural heritage of the Uzbek people.

Keywords: uzbek folk songs, ancient beliefs, poetics, folklore, religious concepts, nature, folk traditions, folklore elements, poetic images.

Kirish. O‘zbek xalq qo‘shiqlari nafaqat milliy musiqaning yodgorligi, balki xalqning tarixiy, diniy va madaniy merosining aksidir. Ushbu qo‘shiqlar qadimdan millatning turmush tarzini, urf-odatlarini, axloqiy qadriyatlarini, o‘ziga xos falsafasini va hayotga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi. Xalq qo‘shiqlari badiiy so‘z san'ati orqali qadimgi

inonchlarning ifodasiga aylanib, ularni zamonlar davomida saqlab kelgan. Qo‘shiqlar orqali xalqning tabiatga, hayotga va o‘limga bo‘lgan munosabati, din va tasavvufga bo‘lgan e’tiqodi o‘zining poetik tasvirlarida namoyon bo‘ladi.

Qadimgi inonchlar o‘zbek xalqining ma'naviyatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular ko‘plab qo‘shiqlarda o‘z aksini topgan. Ushbu maqolada, xalq qo‘shiqlaridagi qadimgi inonchlarning poetik ko‘rinishlari va ular orqali xalqning ma’naviy dunyosini, diniy va falsafiy tasavvurlarini anglashga harakat qilamiz.

Xalq qo‘shiqlarida qadimgi inonchlarning poetik ko‘rinishlari

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida qadimgi inonchlar tabiat va hayot bilan chambarchas bog‘langan. Bunday inonchlar ko‘pincha tabiatning turli hodisalari, odamlarning kundalik hayoti va atrof-muhitga bo‘lgan qarashlar bilan bog‘liq. Qo‘shiqlarda tabiatning o‘zgaruvchanligi, muhitning in’ikoslari va insonga bo‘lgan ta’siri haqida qator poetik tasvirlar mavjud.

Tabiat va tabiat hodisalari bilan bog‘liq inonchlar

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida ko‘plab tabiat hodisalari, masalan, yomg‘ir, qor, quyosh nuri bilan bog‘liq e'tiqodlar, qadimiy tasavvurlarga asoslanadi. Ushbu hodisalarga o‘zaro bog‘liq inonchlar xalqning diniy va tabiatga bo‘lgan ishonchini aks ettiradi. Masalan, yomg‘irning kelishi va uning hosilga ta’siri bilan bog‘liq turli tasavvurlar qo‘shiqlarda o‘z ifodasini topadi. Xalqda yomg‘irning tabiiy bo‘lishi, ayniqsa, qurg‘oqchil yillarda ularning farovonlik va baraka ramzi sifatida qabul qilinishi ko‘plab qo‘shiqlarda tasvirlanadi . Bunday qo‘shiqlarda, odatda, yomg‘ir kelishi uchun Allohga iltijo qilish, tabiiy hodisalar bilan bog‘liq inonchlarni ifodalash ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqodlariga ko‘ra, tabiat kuchlari inson hayoti va baxt-saodati bilan bog‘liq. Tabiat hodisalari (quyosh chiqishi, yomg‘ir yog‘ishi, shamol esishi) bilan bog‘liq qo‘shiqlarda, insonning tabiiy muhit bilan uyg‘unlashganligi va unga bo‘lgan hurmati yaqqol ko‘rinadi.

Tabiatga bo‘lgan hurmat va qadriyatlar

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida tabiat va uning elementlari – daraxt, suv, tosh, tuproq va h.k. shuningdek, hayvonlar, masalan, ot, qo‘y va echkilar – muhim simbolik ahamiyatga ega. Bu tabiiy elementlar ko‘plab qo‘shiqlarda insonning hayotini shakllantiruvchi va uning ruhiy holatini aks ettiruvchi ramz sifatida ishlatiladi. Xalq qo‘shiqlarida insonning hayotidagi qiyinchiliklarni yengishda tabiatning rolini e’tirof etish, uni o‘zining daxlsiz qismati va yo‘li sifatida ko‘rish qadimgi inonchlarning asosiy jihatlaridan biridir.

Diniy va falsafiy inonchlar

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida diniy inonchlar va tasavvufiy qarashlar, ko‘plab qo‘shiqlarda asosiy o‘rin tutadi . Diniy inonchlar, asosan, Yaratganning qudrati, uning insonlar hayotidagi o‘rni va taqdirni belgilash masalalari atrofida shakllangan. Bu qo‘shiqlarda, shuningdek, o‘lim va qayta tirilish haqidagi tasavvurlar, qalbning poklanishi va tozaligi haqida so‘z yuritiladi.

Hayot va o‘lim: O‘zbek xalq qo‘shiqlarida diniy qarashlar

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘lim va hayotning abadiyligi haqidagi tasavvurlar ko‘plab diniy va falsafiy elementlarni o‘z ichiga oladi. O‘lim ko‘plab qo‘shiqlarda bir xil tarzda, lekin turlicha tasvirlangan. Ba'zi qo‘shiqlarda o‘lim faqat bir bosqich sifatida ko‘rsatiladi, boshqa qo‘shiqlarda esa o‘lim abadiy hayotning boshlanishi deb qaraladi . Diniy e'tiqodlar orqali o‘lim va qayta tug‘ilish, abadiyat va Yaratganning qudrati haqidagi tasavvurlar ifodalangan. Bu tasavvurlar o‘zbek xalqining diniy va ma'naviy rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

Yaratganning qudrati va odamning o‘z qismati

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida Allohning qudrati va insonning taqdiri haqida doimo tasavvurlar mavjud. Ko‘plab qo‘shiqlarda Yaratganning o‘ta rahm-shafqatli ekanligi, uning insonga bo‘lgan inoyati va rahm-shafqatiga ishongan holda yashash haqida so‘z yuritiladi. Bunday qo‘shiqlar insonning ichki tinchligini, qismatiga bo‘lgan ishonchini va har qanday muammoga bardosh berishga qaratilgan falsafasini aks ettiradi.

Xalq qo‘shiqlarida poetik tasvirlar va simvollar

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida qadimgi inonchlarning poetik ko‘rinishlari ko‘plab simvollar orqali ifodalanadi. Tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘lim va qayta tug‘ilish, o‘zbek folklorining ramzlari orqali xalqning diniy, falsafiy va axloqiy qarashlari yoritiladi. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida tabiat elementlari (yulduz, quyosh, yomg‘ir, daraxt va boshqalar) juda kuchli simvolik ma'no kasb etadi .

